

ENSIKLOPEDIYA

DUNYO MAMLAKATLARI

TOSHKENT • DAVR NASHRIYOTI • 2013

TUZUVCHI
geografiya fanlari doktori, professor MDU A. Gorkin

MAQOLALAR MUALLIFLARI:

- L. Aksyonova (geografiya fanlari nomzodi)
T. Galkina (geografiya fanlari nomzodi)
G. Gladkevich (geografiya fanlari nomzodi)
A. Gorkin (geografiya fanlari doktori)
V. Streletskiy (geografiya fanlari nomzodi)
S. Tarxov (geografiya fanlari doktori)

TARJIMON
A. Rufiyev


www.davrbooks.uz

GORKIN A.

Dunyo mamlakatlari. Ensiklopediya. – T.: MChJ «DAVR NASHRIYOTI»,
2013. – 296 b.: bez.

Ensiklopediyada dunyoning barcha mamlakatlari haqidagi so‘nggi ma’lumotlar jamlangan. Maqolalarda mamlakat va uning aholisi, tarixi haqida umumiy ma’lumotlar, tabiat haqida qisqacha ta’rif, xo‘jaligining iqtisodiy-geografik tavsifi keltirilgan, shuningdek, ko‘plab mamlakatlarning diqqatga sazovor joylari haqida ma’lumot berilgan. Maqolalar matni xaritalar, fotosuratlar va diagrammalar bilan to‘ldirilgan. Ilovalarda du-nyodagi eng yirik geografik obyektlar (daryolar, ko‘llar, cho‘qqilar, vulqonlar, orollar) haqidagi ma’lumotlar jadvali, atamalar lug‘ati va mamlakatlardan ko‘rsatkichi berilgan.

ISBN 978-9943-401-64-8



31817
N1 4g1

УДК 94(419)
КБК 92 D 88

© «DAVR NASHRIYOTI», 2013

KITOBXONGA

Ushbu «Dunyo mamlakatlari» ensiklopediyasi avvalo 7–9-sinf o‘quvchilari, abituriyentlar va geografiya fani bilan qiziqadigan barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan. Kitobxon bu kitobdan dunyoning xohlagan mamlakati, qit‘asi haqida to‘liq ma’lumot olishi mumkin.

Enziklopediyadagi maqolalar Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika yoki Avstraliya va Okeaniya dunyoning qaysi qit‘asiga tegishligiga qarab guruhlashdirilgan va alohida boblarga (bo‘limlarga) ajratilgan. Har bir maqola mamlakatning pasport ma’lumotlari bilan boshlanadi. U o‘z ichiga: davlatning nomi, davlat bayrog‘i, poytaxti, maydoni, aholisi, rasmiy tili, aholining diniy tarkibi, davlat tuzumi, pul birligi haqidagi ma’lumotlarni oladi. Matnning asosiy qismida esa mamlakat xususida, aholining turmushi, tarixi, tabiatni, xo‘jaligining iqtisodiy-geografik tasnifi haqida umumiy ma’lumotlar berilgan. Ko‘plab mamlakatlarning sayyohlik obyektlari va yodgorliklari haqida qo‘simecha ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Shuni ham aytib o‘tishimiz lozimki maqolalarning hajmi va tafsilotlari sezilarli darajada farqlanadi. Enziklopediyadagi katta hajmdagi maqolalar dunyoning yirik davlatlari haqida berilgan. Ammo kichik mamlakatlar ham «xafa qilinmagan» – ularning har biriga alohida sahifa ajratganmiz.

Dunyo mamlakatlarining geografiyasi – bilimlarning qiziqarli va maftunkor qismidir. Kitobxon o‘qiganlarini ko‘z oldiga keltirishi oson bo‘lishi uchun har bir mamlakatning turfa ranglardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi, tog‘ tizmalari, aholining mashg‘ulotlari, arxitekturasi, milliy qadriyatlari tasvirlangan rasmlar kiritilgan.

Enziklopediya 200 ga yaqin xaritani o‘z ichiga olgan, vizual qabul qilish va eslab qolish oson bo‘lishi uchun statistik ma’lumotlarni diagrammalar tarzida berib o‘tganmiz.

Enziklopedianing boshida xaritalar uchun shartli belgilari va qisqartmalar ro‘yxati berib o‘tilgan.

Nashrning so‘ngida asosiy qismga ilovalar berilgan. Ilovalarning birinchi qismida dunyoning yirik geografik obyektlari (daryo, ko‘l, tepaliklar, vulqon, orollar) jadval tariqasida keltirilgan. Ilovaning ikkinchi qismi glossariydan tashkil topgan. Glossariy o‘z ichiga fizikaviy, iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy geografiya haqida kichik izohli matnlarni olgan. Uchinchi yakunlovchi qismida esa kerakli maqolani topish oson bo‘lishligi uchun alifbo tartibida mamlakatlar ko‘rsatkichi joylashgan. «Dunyo mamlakatlari» ensiklopediyasining matnlari mualliflari – Rossiya fanlar akademiyasining Geografiya instituti va MDUning Geografiya fakulteti olimlari.

«Dunyo mamlakatlari» ensiklopediyasining
Tuzuvchisi, geografiya fanlari doktori
MDU professori A.P. Gorkin

YEVROPA

Yevropa.....	8	Butan.....	84
Albaniya.....	10	Eron.....	85
Andorra.....	11	Falastin.....	87
Avstriya.....	12	Filippin.....	88
Belgiya.....	14	Gruziya.....	89
Belarus.....	15	Hindiston.....	90
Bolgariya.....	16	Indoneziya.....	92
Bosniya va Gersegovina.....	17	Iordaniya.....	93
Buyuk Britaniya.....	18	Iraq.....	94
Daniya.....	21	Isroil.....	95
Estoniya.....	22	Kambodja.....	98
Finskyandiya.....	23	Kipr.....	99
Fransiya.....	24	Koreya Respublikasi.....	100
Germaniya.....	26	KXDR.....	102
Gretsiya.....	29	Laos.....	103
Irlandiya.....	31	Livan.....	104
Islandiya.....	33	Malayziya.....	105
Ispaniya.....	34	Maldiv.....	107
Italiya.....	37	Myanma.....	108
Latviya.....	40	Mongoliya (Mo'g'uliston).....	109
Litva.....	41	Nepal.....	110
Lixtenshteyn.....	42	Ozarbayjon.....	111
Lyuksemburg.....	43	Pokiston.....	112
Makedoniya.....	44	Qatar.....	114
Malta.....	45	Qirg'iziston.....	115
Moldova.....	46	Qozog'iston.....	116
Monako.....	47	Quvayt.....	117
Niderlandiya.....	48	Saudiya Arabiston.....	118
Norvegiya.....	50	Singapur.....	120
Polsha.....	51	Suriya.....	121
Portugaliya.....	53	Tayland.....	122
Ruminiya.....	54	Tayvan.....	124
San-Marino.....	55	Tojikiston.....	126
Serbiya.....	56	Turkmaniston.....	127
Slovakiya.....	57	Turkiya.....	128
Sloveniya.....	58	Ummon.....	130
Ukraina.....	59	Vetnam.....	131
Vatikan.....	61	Xitoy.....	132
Vengriya.....	62	Yaman.....	136
Xorvatiya.....	63	Yaponiya.....	137
Shvetsiya.....	64	Sharqiy Timor.....	140
Shveysariya.....	66	Shri-Lanka.....	141
Chernogoriya.....	68	O'zbekiston.....	142
Chexiya.....	69		
Rossiya.....	70		

OSIYO

Osiyo.....	76
Afg'oniston.....	78
Armaniston.....	79
Bangladesh.....	80
Bahrayn.....	81
Birlashgan Arab Amirliklari.....	82
Bruney.....	83

AFRIKA

Afrika.....	150
Angola.....	152
Benin.....	153
Botsvana.....	154
Burkina-Faso.....	155.
Burundi.....	156
Efiopiya.....	157
Ekvatorial Gvineya.....	158
Eritreya.....	159

MUNDARIJA

Gabon.....	160	Dominika Respublikasi.....	221
Gambiya.....	161	Gaiti.....	222
Gana.....	162	Gonduras.....	223
Gvineya.....	163	Grenada.....	224
Gvineya-Bisau.....	164	Gvatemala.....	225
Jar.....	165	Kanada.....	226
Jazoir.....	167	Kosta-Rika.....	229
Jibuti.....	168	Kuba.....	230
Kabo-Verde.....	169	Meksika.....	231
Kamerun.....	170	Nikaragua.....	234
Keniya.....	171	Panama.....	235
Komor orollari.....	172	Salvador.....	236
Kongo (KDR).....	173	Sent-Kits va Nevis.....	237
Kongo.....	175	Sent-Lyusiya.....	238
Kot-d'Ivuar.....	176	Sent-Vinsent va Grenadina.....	239
Lesoto.....	177	Trinidad va Tobago.....	240
Liberiya.....	178	Yamayka.....	241
Liviya.....	179		
Madagaskar.....	180	Janubiy Amerika.....	242
Malavi.....	181	Argentina.....	244
Mali.....	182	Boliviya.....	247
Markaziy Afrika Respublikasi.....	183	Braziliya.....	248
Marokash.....	184	Ekvador.....	251
Mavrikiy.....	185	Gayana.....	252
Mavritaniya.....	186	Kolumbiya.....	253
Misr.....	187	Paragvay.....	255
Mozambik.....	189	Peru.....	256
Namibiya.....	190	Surinam.....	258
Niger.....	191	Urugvay.....	259
Nigeriya.....	192	Venesuela.....	260
Ruanda.....	193	Chili.....	261
San-Tome va Prinsipi.....	194		
Senegal.....	195	AVSTRALIYA VA OKEANIYA	
Serra-Leone.....	196	Avstraliya va Okeaniya.....	264
Seyshel orollari.....	197	Avstraliya.....	266
Somali.....	198	Fiji.....	268
Sudan.....	199	Kiribati.....	269
Svazilend.....	200	Marshall orollari.....	270
Tanzaniya.....	201	Mikroneziya federativ shtatlari.....	271
Togo.....	202	Nauru.....	272
Tunis.....	203	Palau.....	273
Uganda.....	204	Papua-Yangi Gvineya.....	274
Zambiya.....	205	Samoa.....	275
Zimbabwe.....	206	Solomon orollari.....	276
G'arbiy Sahroi Kabir.....	207	Tonga.....	277
Chad.....	208	Tuvalu.....	278
		Vanuatu.....	279
		Yangi Zelandiya.....	280
AMERIKA			
Shimoliy Amerika.....	210		
Antigua va Barbuda.....	212	ILOVA	
AQSh.....	213	Dunyodagi eng yirik.....	282
Bagama orollari.....	217	Atamalar lug'ati.....	289
Barbados.....	218	Mamlakat ko'rsatkichi.....	292
Beliz.....	219		
Dominika.....	220		

ASOSIY QISQARTMALAR RO'YXATI

ax – arxipelag (nomlanganda)

AES – atom elektrostansiysi

a – asr

aa – asrlar

y – yil

yy – yillar

GES – Gidroelektrostansiya

boshq – boshqalar

YI – Yevropa Ittifoqi

YIM - Yalpi ichki mahsulot

kvt – kilovatt

kvt/s – kilovatt-soat

mln. – million

mlrd. – milliard

ITTKI – Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik

ishlari

o – orol

o-r – orollar

R.F. – Rossiya Federatsiyasi

av. – avliyo

IES – Issiqlik elektrostansiysi

IEM – Issiqlik elektromarkazi

Kartalardagi shartli belgilar

■ ULAN-BATOR

● Pusan

○



▲ 1972

Davlat poytaxti

Aholi soni 1 mln va undan ko'proq bo'lgan shaharlar

Turli istiqomat punktlari

Davlat chegarasi

Rossiya Federatsiyasining mulki chegarasi

KXDR va Koreya Respublikasida hamda Hindiston va Kashmirdagi Pokiston orasidagi Demarkatsion chizig'

Marjonli riflari

Ko'l, suv omborlari

Quriyotgan ko'llar

Daryolar, sharshalar

Quriyotgan daryolar

Quruq o'zan (vadi)

Dengiz portlari

Dengiz sathidan qanchalik balandligini ko'rsatadigan belgi



Europe

YEVROPA

Yevropa – qit'a, Yevrosiyo materigining g'arbiy qismi. Bu nomning qo'llanishiga miloddan avvalgi V–VI asrlarda yashagan Gekatey va Gerodot sababchi bo'lishgan. Sharqda va janubi sharqda Osiyo bilan shartli chegarasi ko'pincha Ural tog'ining sharqiy qismidan boshlab, Emba daryosidan Kaspiy dengizigacha, Kuma va Manich daryolaridan to Don daryosi bo'y lab cho'zilgan. Gohida chegara sifatida Ural daryosi va Kavkazning asosiy tog' tizmasi nazarda tutiladi.

Shimoldan Yevropa – Shimoliy muz okeani va uning dengizlari – Kaspiy, Barens, Oq va Norvegiya; G'arb va Janubdan esa Atlantika okeani va uning dengizlari – Boltiq, Shimoliy Irland, O'rtayer, Qora, Marmar va Azov dengizlari suvlari bilan o'ralgan.

Hududi – 10 mln. km² dan ortiq. 730 ming km² yaqin qismini orollar egallagan (Yiriklari: Novaya Zemlya, Frans-Iosif Yeri, Buyuk Britaniya, Shpitsbergen, Islandiya, Irlandiya, Korsika, Sardiniya, Sitsiliya, Krit). Yevropaning to'rtadan bir qismi yarimorollarga to'g'ri keladi: Kolskiy, Skandinav, Bolqon, Pireney, Apennin va boshqalar.

Yevropa shartli ravishda ikkiga bo'linadi: Sharqiy Yevropa va G'arbiy Yevropa. (O'z navbatida u ham bo'linadi: Shimoliy, Janubiy va Markaziy qismlarga). Sharqiy Yevropa okeanlardan maksimal darajada uzoqda joylashgan (1600 km).

Foydali qazilmalar

Yevropada neft, tabiiy gaz (Volganing pastlik qismi, Janubiy Ural, Kavkazning tog' yonbag'ri, Kaspiy dengizi va Shimoliy dengiz), ko'mir (Pechorsk, Podmoskova, Rur havzasi va boshq) va temir konlari (Kursk, Ukraina Lotaringiya, Kola yarimorolida va Skandinaviya yarimorolining shimolida) bundan tashqari boksitlar, rangli metallar, tosh va kaliy tuzlari zaxiralari bor.

Ko'k bayroq fonida aylana shaklida joylashgan tillarang yulduzlarining soni 1986-yilda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlar soniga teng



Yevro – Yevropa
Ittifoqiga a'zo
davlatlarning
(27 tasidan)
16 tasida
joriy qilingan
yagona Yevropa
valutasi



Relyefi

Yevropa hududining o'rtacha balandligi – okean sathidan 300 m balandlikda, hududining 60% okean sathidan 200 m pastlikda joylashgan. Butun hududning faqat 17% tog'lar tashkil qiladi.

Sharqiy Yevropada keng Sharqiy Yevropa kengligi (tekisligi) joylashgan, uning janubiy-sharqiy qismi dengiz sathidan pastda joylashgan. G'arbiy Yevropada tog' va tekisliklar taxminan bir xil hududni egallagan.

Asosiy tekisliklar: O'rtalik Yevropa, O'rtalik Dunay, Quyi Dunay, Padansk, Parij basseyni. Markaziy Yevropa va Shimoliy g'arbiy Yevropa yarimorollarida past va o'rta tog' tizmalarini joylashgan.

Sharqiy chegarasi Ural bo'y lab joylashgan. Alp tog'larida Yevropaning eng baland cho'qqisi – Monblan tog'i (4807 m) joylashgan. Agar Yevropa va Osiyo orasidagi chegarani Ural daryosi va Asosiy Katta Kavkaz tizmasi bo'y lab o'tkazadigan bo'lsak, u holda Rossiyada eng baland cho'qqi Elburs tog'i bo'ladi (5642 m).

Daryo va ko'llar

Asosiy daryolar: Volga (Yevropadagi eng yirik daryo), Dunay, Dnepr, Shimoliy Dvina, Reyn, Visla va boshqalar.

Bu daryolarda kemalar ko'p qatnaydi. Ko'p daryolar kanallar orqali birlashgan: ayrimlari gidroenergetika maqsadida barpo etilgan. Volga, Don, Dnepr va boshqa bir qator dengizlar tizimida suv omborlari qurilgan. Yirik ko'llar: tekisliklarda joylashganlari – Ladoga, Onega va boshqalar, tog'larda joylashganlari – Jeneva, Lago-Majore, Komo va boshqalar.

Aksariyat ko'llar chuchuk ko'llardir. Janubiy-sharqiy hududda irmoqsiz, sho'r va ko'p ma'danli ko'llar – Elton va Baskunchak bor. Janubi sharqda, Yevropaning Osiyo bilan chegarasida dunyoning eng katta ko'li – Kaspiy dengizi joylashgan.

YEVROPA



O'simlik va hayvonot dunyosi

Shimoliy Muz okeani orollarida arktik sahro hukmronlik qiladi, shimoldan janubga yo'naladigan bo'lsak tundra, tundra o'rmonlari, o'rmonlar, o'rmon-adirlar, adirlar ketma-ketligini ko'ramiz.

Janubiy Yevropada subtropik O'rtayer dengizi o'rmonlari o'simlik dunyosi mavjud.

Janubi sharqda esa yarimcho'llar joylashgan. Baland tog'larda o'rmonlar dalalar bilan navbatmanavbat joy almashadi. Tundrada kichik kemiruvchilar, shimol bug'ulari, shimol tulkilari va bo'rilar ko'p. Taygada esa burunduq, oq quyon, letyaga, ayiq, turli qushlar yashaydi. Aralash o'rmonlar uchun esa: norka, uyquchi, bug'u va boshqa jonivorlar xos Dashtlarda va yarimcho'llarda esa, ko'proq kemiruvchilar, kulrang quyon, tulki va boshqalarni uchratish mumkin.

Iqlimi

Iqlim Yevropada ko'proq mo'tadil. G'arbda okean iqlimi hukmron: qishda mo'tadil, yozda salqin. Sharqda – kontinental, qahraton qishda va yozda Yevropa qit'asining shimolida va arktik orollarida – subtropik va arktika iqlimi hukmron. G'arbiy Yevropada esa O'rtayer dengizi iqlimi hukmron, ya'ni qishda mo'tadil namgarchilik, yozda esa issiq. Yanvarning o'rtacha harorati Frans-Iosif Yerida -24°C dan, Pechora havzasida -20°C dan -12°C gacha. Iyulning o'rtacha harorati $+3^{\circ}\text{C}$ dan 29°C gacha. Yog'ingarchilik yiliga 1500–2000 mm va undan ortiq, tog'larda esa 200 mm gacha, Kaspiybo'yи pasttekisligida yog'ingarchilik kamroq.

Albaniya



Poytaxti: Tirana

Maydoni: 28 748 km²

Aholisi: 3,2 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: alban tili

Aholisining diniy tarkibi:


musulmonlar – 70%,

xristianlar (katoliklar va

pravoslavlalar) – 30%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: lek



Albaniya janubida sitrus mevalar yetishtiriladi

Umumiy ma'lumotlar

Albaniya, Alban Respublikasi

– Yevropaning janubi sharqida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining 98% – albanlar, 1,8% – greklar.



Tabiat

Albaniya hududi tekislikka (Adriatika dengizining sohili bo'ylab) va tog'li hududlarga (mamlakatning 70% tashkil qiladi) bo'linadi. Shimolda o'rta bo'yli ohaktoshli Shimoliy Albaniya Alp tog'lari joylashgan, ular chuqur soyliklar bilan ajratilgan. Mamlakat hududi seysmik zonada joylashgan.

Mamlakatning dengiz bo'yidagi qismida O'rtayer dengizi va subtropik iqlim hukmron, ichki tog'li hududlarda esa mo'tadil kontinental iqlim hukmron. Shimoli g'arbda Shkoder (Skadarskiy) ko'li, sharqda esa – Oxrid ko'li joylashgan. Tog'lar o'rmonlar bilan o'rangan, dengiz bo'yidagi pasttekislik makvis butali o'rmonzorlardan, ya'ni qattiq bargli, tikanli doimiy yashil buta va daraxtchalardan iborat chakalakzorlardan tashkil topgan. Janubda esa doimiy yashil subtropik o'simliklari o'sadi. Albaniya hayvonot olami vakillarining aksariyati qirib tashlangan.

◆ Krujadagi Iskandarbey Muzeyi


Ko'plab albanlarning uy xo'jaligida eshakdan foydalaniladi

Xo'jaligi

Albaniya iqtisodiyotining yetakchi sohasi – qishloq xo'jaligi.

Albaniyada tabiiy gaz, neft, xrom (zaxirasi bo'yicha dunyoda 3-o'rinda turadi) mis, temir rudalari va tabiiy bitum qazib olinadi. Mamlakatda neftni qayta ishlash va mis eritish zavodlari bor. Metallsozlik, mashinasozlik, neft-kimyo, kimyo, sement, yog'ochga ishlov berish va boshqa ko'plab sanoatlar rivojlangan.

Yaylov chorvachiligi (qo'y, echki) – qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i. Albanlar yirik shoxli mol, ot, eshak va uy parandalarini boqishadi. Mamlakat janubida go'sht-sut chorvachiligi, shimolda va sharqda esa tog'-yaylov chorvachiligi rivojlangan. Dehqonlar bug'doy, makkajo'xori, arpa, qand lavlagi, kungaboqar, kartoshka, poliz ekinlari, tamaki, sitrus mevalar, uzum, zaytun yetishtirishadi. Albaniya xrom rudasi, mis, nikel, bitum, mo'yna, tamaki va vino eksport qiladi.



Andorra



Poytaxti: Andorra-la-Velya

Maydoni: 468 km²

Aholisi: 70,5 ming kishi
(2005)

Rasmiy tillari: katalon,
fransuz, ispan tillari

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar

Davlat tuzumi: parlament
knyazligi

Pul birligi: yevro



Andorraning pishloq do'konlari
odatda tatib ko'rish uchun pishloq
bo'laklari terilgan bo'ladi



Andorra-la-Velya milodning IX
asri boshida tashkil etilgan



Xo'jaligi

Tog'-chang'i turizmi Andorra
iqtisodiyotining asosi hisoblanadi.
Bundan tashqari bank biznesi
(soliqlarsiz), boj to'lovlarisiz
tijorat va pochta markalarini
chiqarish yo'lga qo'yilgan.

2002-yilda mamlakatga
3388000 ta sayyoh kelgan.
Mehnatga layoqatli aholining
78% xizmat ko'rtasish sohasida,
21% sanoat bilan mashg'ul.
Elektr quvvati Fransiya va
Ispaniyadan Andorraga import
qilinadi.

Mamlakatda chorvachilik,
pishloqpazlik, mebel ishlab
chiqaris va yog'ochsozlik sanoati
rivojlangan. Asosiy eksport
mahsulotlari: tamaki mahsulotlari
va mebel.

Umumiy ma'lumotlar

Andorra Knyazligi – Yevropaning

janubi g'arbida joylashgan davlat.
U Ispaniya va Fransiya oralig'ida
joylashgan. Knyazlik Fransiya prezidenti
va Ispaniya yepiskopi tomonidan
birgalikda boshqariladi.

Aholining 43% – ispanlar (katalonlar),
33% – andorrlar, 11% – portugallar,
7% – fransuzlar. Andorrada aholining
o'rtacha umri dunyo bo'yicha eng katta
deb hisoblanadi: erkaklarniki – 81 yosh,
ayollarniki – 87 yosh. Aholi katalon
tilidan tashqari fransuz va ispan tillarida
ham so'zlashadi.

Tabiat

Andorra baland Pireney
tog'larida joylashgan.

Iqlimi mo'tadil va quruq. Yoz
fasli iliq va yomg'irsiz, qish esa
sovuj va qorli. Tog'dan 2000 m
pastda keng bargli va ignabargli
o'rmonlar, yuqorida o'tloqlar
joylashgan. Mamlakat hududida
50ga yaqin mayda muz ko'llari
mavjud.

Andorraning tog'-chang'i

kurortlariga juda ko'plab sayyohlar
keladi



Avstriya



Poytaxti: Vena

Maydoni: 83,9 ming km²

Aholisi: 8,3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: nemis tili

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 78%, luteranlar – 22%

Davlat tuzumi: federativ respublika

Pul birligi: yevro



Umumiy ma'lumotlar

Avstriya Respublikasi – Markaziy Yevropadagi davlat. Davlat boshlig'i federal prezident. Avstriya – YI a'zosi. Aholining 90% – avstriyaliklar; bundan tashqari slovaklar, xorvatlar, vengerlar va boshqalar yashaydi.



Melk abbatligidagi
Marmor zali
shiftiga solingan
rasm

Venada logan
Shtrausga
qo'yilgan haykal

Go'zal Tirol qishloqlari ko'plab
xorijlik sayyohlarni o'ziga jalb
qiladi



Tabiat

Avstriya – tog'li mamlakat. Hududining 70 foizini Alp tog'lari tashkil etadi. Avstriyaning g'arbiy qismida, Tirol va Forarlberg hududlarida tog'lar ko'p. Mamlakat sharqidagi Alp tog'lari nisbatan qulay, chunki u tomonda daralar va dovonlar ko'p. Shimoli sharqda O'rta Dunay tekisligi va Dunayning ikki tarafida kichik tepaliklar joylashgan.

Avstriya iqlimi nisbatan mo'tadil, yozi jazirama issiq emas, qishi ham qahraton sovuq emas. Yillik yog'ingarchilik miqdori O'rta Dunay tekislikligida va tog' yonbag'irlarida 500 mm dan 900 mm gacha. Eng iliq iqlimi – O'rta Dunay tekisligining sharqi qismida kuzatiladi.

Mamlakatning deyarli butun hududi Dunay daryosi havzasida joylashgan. Mazkur hududdagi Dunay daryosidan (350 km) kemalar qatnaydi. Avstriya hududining 38% – o'rmonlar tashkil etadi. Tog' yonbag'irlari o'rmon bilan qoplangan bo'lib, u asosan, archa, qora qayin, eman va grab daraxtlari bilan qoplangan. Oqqarag'ay va qoraqarag'ay o'monlari 1800 metr balanlikdagi hududlargacha ko'tarilgan. Undan yuqoriroqqa ko'tarilsangiz mazkur tog'lar o'rmini birin-ketin subalp tog' qarag'aylari, kadr daraxtlari, subalp va alp o'tloqlari egallab boradi.



Xo'jaligi


Avstriya Yevropaning iqtisodi yuqori rivojlangan davlatlaridan biri hisoblanadi. YMning 67% xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi, 30% sanoat va qurilishga va faqat 3% qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Xizmat ko'rsatish sohasi – Avstriya iqtisodiyotidagi yetakchi soha.

Avstriyadagi muhim sohalardan biri – ITTKI (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari) va ta'lim sohalaridir. Ta'lim uchun YMning 5,6% sarflanadi. (Dunyo bo'yicha baland ko'rsatkichlarning biri).

Avstriya sanoatining asosi mashinasozlikdir. Mazkur soha tarkibida transport vositalarini ishlab chiqarish, elektrotexnika va elektronika ustunlik qiladi. Avstriya mashinasozli ko'plab mahsulot ishlab chiqarishga emas, balki donalab yetkazish, individual buyurtmachiga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan. Mamlakatda yengil avtomobillar, yuk mashinalari, avtobuslar, lokomotivlar, vagonlar, metalluriya qurilmalari, bug'li va gidravlik turbinalar (kichik seriyalarda) ishlab chiqariladi. Avstriya dastgoh ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 11-o'rinda turadi.

Avstriyada kimyo, yog'ochga ishlov berish va mebel sanoati rivojlangan va chiqindi metalldan aluminiyni qayta ishlab chiqarish sanoati ham yo'lga qo'yilgan. Avstriyada temir, volfram, polimetall, mis va surma rudalari, shuningdek, eksport uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan magnezit va grafit qazib olinadi. Avstriya sanoatining 60% mahsuloti eksport qilinadi.

Qishloq xo'jaligi o'zining yuqori darajada faolligi va iqtisodiy samaradorligi bilan ajralib turadi. Asosiy tarmog'i – sut va go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish. Tog'li hududlarda chorvachilik yaxshi rivojlangan. Bug'doy, arpa, suli, makkajo'xoni, qand lavlagi va kartoshka yetishtriladi. Dunay vodiysida va Alp tog'lari



Avstriya tog'laridagi ko'llar o'zining chuchukligi va tozaligi bilan mashhur

yonbag'irlarida mevachilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ba'zi tumanlarda – vino ishlab chiqarish rivojlangan.

Avstriyaning aloqa yo'llari boshqa tog'li mamlakatlarnikiga nisbatan zichroq joylashgan. Mamlakatning asosiy transport vositasi bu – temiryo'l va avtomobil.

Eksport mahsulotlarning eng asosiyлари: ichki yonish dvigatellari, yengil avtomobillar, qog'oz, elektrotexnika mahsulotlari, dengiz kemalari, selluloza, kiyim-kechak, poyabzal, qora metall, aluminiy yombilari, azot o'g'itlari va magnezit tashkil qiladi.

Diqqatga sazovor joylari

Ko'plab xorijlik sayyoohlар Avstriyaga dunyoga mashhur A.Betxoven, V.A. Motsart, I.A. Shtraus, Shubert muzeylarini, Vena operasini, Shotland cherkovi va milliy bog'ni ko'rgani keladilar. Chet ellikkarni Venaning go'zalligi, tog'chang'i sporti kurortlari va mamlakat g'arbidagi ko'llar hududi jalb qiladi.



Avstriyaning poytaxti Vena dunyoning eng chiroyli shaharlardan biri hisoblanadi.

Turli madaniyatlar uyg'unligi o'ziga xos arxitektura ansamblini tashkil qiladi. Bu

shahar ikkinchi jahon urushida katta talofat ko'rgan, keyinchalik to'liq tiklangan

Belgiya



Poytaxti: Bryussel

Maydoni: 30,5 ming km²

Aholisi: 10,6 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: niderland, fransuz va nemis tillari

Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 81%, musulmonlar – 2,5%

Davlat tuzumi: konstitutsiyaviy monarxiya tuzumidagi federativ davlat

Pul birligi: yevro

Umumiy ma'lumotlar

Belgiya Qirolligi – Yevropaning shimoli g'arbida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – qirol. Belgiya – YI a'zosi.

Aholisining etnik tarkibi: flamandlar – 58%, vallonlar – 32%, nemislar – 1% va boshqalar.



Tabiat

Mamlakat relyefi ko'proq tekisliklardan iborat, janubi sharqiy tomonda baland bo'limgan Ardenn tog'lari joylashgan. Qirg'oq bo'ylab joylashgan dambalar, shluzlar pasttekisliklarda joylashgan aholi punktlarini va ekin dalalarini toshqindan himoya qiladi.

Belgiyada dengiz iqlimi hukmron: nam, qishi mo'tadil, yozda harorat mo'tadil va salqin.

Mamlakatda daryolar bir-biriga kanallar bilan bog'langan. Ardennda o'rmonlar saqlanib qolgan. Belgiyaning qolgan joylarida esa sun'iy ekinlar: bog'lar, qarag'aylar, piktalar o'stililadi. O'rmonlarda bug'u, to'ng'iz, kulrang quyon va xilma-xil qushlarni ko'rish mumkin.

Xo'jaligi

Belgiya – iqtisodi yaxshi rivojlangan davlat. YIMning 72% – xizmat ko'rsatish tizimiga, 26% – sanoatga va 2% – qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi.

Mamlakatda qora va rangli metallarni (mis, rux, qalay, aluminiy va boshq.) eritish ishlari jadal yo'ilga qo'yilgan. Bundan tashqari mashinasozlik (yig'ish, elektrotexnika va elektronika) neftni qayta ishslash, kimyo, to'qimachilik, mebel, shishasozlik, matbaa sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida chorvachilik ustun turadi. Dehqonchilikda esa bug'doy, arpa, sholi, qand lavlagi, kartoshka va yem-xashak ekinlarini yetishtirish muhim o'rinnegallagan. Mamlakat pivo va gullar yetishirishi bilan ham mashhur. Issiqxonalarda qulupnay, uzum va shampinonlar o'stililadi.

Bundan tashqari mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari: gilamlar, bronza va billur buyumlar xaridorgirdir.



Grand-Palas
maydoni –
Bryusselning
diqqatga sazovor
joylaridan biri

Belarus



Poystaxti: Minsk

Maydoni: 207,6 ming km²

Aholisi: 9,7 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tillari: belorus, rus
tillari

**Aholisining diniy
tarkibi:** pravoslavlavl –
80%, katoliklar, uniatlar,
protestantlar – 20%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: belorus rubli



Umumiy ma'lumotlar

Belarus Respublikasi

– Sharqiy Yevropada
joylashgan davlat. Davlatni
prezident boshqaradi. MDH
a'zosi.

**Aholisining etnik
tarkibi:** beloruslar – 81,2%,
ruslar – 11,4%, polyaklar –
3,9%, ukrainlar – 2,4%.



Kartoshka –
Belorussiyada
yetishtiriladigan
odatiy sabzavot

◆ Belaya Veja pushchasi –
dunyodagi zubrlar yashaydigan
kamyob joylardan biri



Tabiat

Belorussiya Sharqiy Yevropa tekisligining g'arbiy qismini
egallagan. U yer bir qancha tepaliklar va pasttekisliklardan
iborat. Mamlakatning g'arbiy qismida Polesye botqoqlangan
pasttekisligi joylashgan. Belorussiya hududida 10 mingdan
ko'proq ko'l mavjud bo'lib, ularidan 4 mingga yaqini
muzliklardan hosil bo'lgan.

Iqlimi: mo'tadil kontinental. G'arbdan, ya'ni Atlantikadan
mamlakatga ko'pincha iliq va nam havo oqimi kelib turadi.

O'rmonlar davlat hududining 36 foizini egallagan.

G'arbiy qismda qadimiy o'rmonlar saqlanib qolgan.

Belorus, Naliboks, Grodnens va Rujans zinch o'rmonlari
bunga misol bo'la oladi. Mamlakatning 12% hududini
botqoqliklar qoplagan. Hayvonot dunyosi: Belorussiyada
bug'u, olmaxon, chipor yumronqoziqlar, letyaga, to'rg'ay va
boshqalar uchraydi.

Xo'jaligi

Davlat iqtisodiyoti Rossiyaniki bilan chambarchas
bog'liq. Mamlakatda kaliy tuzi, qurilish mollari va torf qazib
olinadi. Tabiiy gaz va neft Rossiyadan Belorussiyaga import
qilinadi. Qora metallarni qayta ishlash, mashinasozlik va
asboboszlik, avtomobilsozlik, elektron, harbiy, kimyoqiy
va boshqa sanoatlar yaxshi rivojlangan. Mamlakatda
chorvachilik majmualari va parranda yetishtirish fabrikalari
mavjud. Arpa, bug'doy, suli, sholi, kartoshka, zig'ir, kanop,
qand lavlagi yetishtiriladi.

Belorussiya ma'danli o'g'itlarni, mashinasozlik
mahsulotlarini, sut mahsulotlarni eksport qiladi.

Bolgariya



Poytaxti: Sofiya

Maydoni: 110,9 ming km²

Aholisi: 7,6 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: bolgar tili

Aholisining diniy tarkibi:
pravoslavlар – 84%,
musulmonlar – 12%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: lev



Umumiy ma'lumotlar

Bolgariya Respublikasi – Yevropaning janubi sharqida joylashgan. Bolqon yarimorolining shimoli sharqida joylashgan. Davlatni – prezident boshqaradi. Aholisining etnik tarkibi: bolgarlar – 84%, turklar – 10%, lo'lilar – 5%.

Tabiat

Mamlakat shimolda Dunay tekisligi joylashgan. Dunay tekisligining janubida Stara Planina va Sredna Gora tog'lari bor. Bolgariyaning janubida esa uch tog' tizmasi – Rila, Pirin va Rodop bor. Zilzilalar, tog' va tog' yonbag'irlarida esa ko'chishlar sodir bo'lib turadi.

Sredna Gora va Rodop tog'lari orasida Farkiy tekisligi joylashgan. Asosiy daryolar – Dunay va Maritsa. Bolgariya iqlimi mo'tadil kontinental, faqat g'arbiy qismida O'rta dengizi iqlimi hukmron. Tekisliklarda dasht o'simliklari, tog'da esa yaproqli daraxtlar o'sadi. 1000 m balandroqda esa archa o'rmonzorlari. Mamlakat G'arbi – subtropik o'simlik dunyosiga boy. O'rmonlarida bug'u, ohu, bo'rsiq, olmaxon, tulki, mayda sichqon ko'rinishidagi kemiruvchilarni uchratish mumkin, Qushlar dunyosi ham rang-barang va chiroylar.

Xo'jaligi

YIMning – 58% xizmat ko'rsatish tizimiga, 28% – sanoatga, 14% – qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Mamlakatda rangli metallar, qo'ng'ir ko'mir qazib olinadi. AES elektr quvvatining 44% ni ishlab chiqaradi. Rivojlangan sanoat sohalari:



mashinasozlik, metalluriya, kimyo, neftni qayta ishslash, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqalar. Bu yerda bug'doy, makkajo'xori, sholi, arpa, tamaki, qand lavlagi, uzum, kungaboqar ekiladi.

Shuningdek, mamlakat o'zining spirtsiz vinolari, konyaklari va tamaki mahsulotlari bilan mashhur.

Aholi qo'y, echki, cho'chqa, uy hayvon va parrandalarini boqadi, shuningdek, baliqchilik ham rivojlangan. Sayyoohlar dengiz va tog' maskanlarida dam olgani keladilar.

Eksport qilinadigan asosiy mahsulotlar: kiyim-kechak, poyabzal, sabzavotlar, mashinasozlik mahsulotlari, dori, tamaki va po'lat.

Milliy raqs ijrosi

Bosniya va Gersegovina



Poytaxti: Sarayevo
Maydoni: 51,1 ming km²
Aholisi: 3,8 mln. kishi (2007)
Rasmiy tillari: bosniya, serb, xorvat tillari
Aholisining diniy tarkibi: musulmonlar – 48%, pravoslavlavlari – 37%, katoliklar – 14%
Davlat tuzumi: ikki davlatdan tashkil topgan yagona davlat
Pul birligi: Bosniya markasi



Eraklarning milliy libosi

Umumiyyatli ma'lumotlar

Bosniya va Gersegovina – Yevropaning janubi sharqida joylashgan davlat. Yuqori boshqaruvi organi – prezidium raisi tomonidan boshqariladi. Aholisining etnik tarkibi bosniyaliklar (islomni qabul qilgan slavyanlar) – 48%, serblar – 37%, xorvatlar – 14%.



Xo'jaligi

1992–1995-yillardagi Fuqarolar urushi mamlakat xo'jaligiga katta talofat yetkazdi. Mamlakatning 4/5 korxonalarini vayron qilingan edi. Xalqaro moliviy va insonparvarlik yordamlari vaziyatni ancha yengillashtirdi. Iqtisodiyotning asosiy tarmog'i – qishloq xo'jaligi. Boshoqli o'simliklar, tamaki, anjur, zaytun, uzum, meva va savzavotlar yetishtiriladi. Tog' yonbag'irlarida asbest, tuz, lingit, temir va marganes rudalari, xrom, mis, rux, qo'rg'oshin va boshqalar qazib olinadi.

To'qimachilik, charm-poyabzal, yog'ochga ishlov berish, vino tayyorlash, chorvachilik sanoatlari rivojlangan. Eksport qilinadigan mahsulotlar aluminiy, elektr quvvati, yog' och va kiyim-kechakdan iborat.


Tabiat

Mamlakatning katta qismini Dinara Alp tog'lari egallagan. Bu yer chuqr daryo vodiylari bilan ajratilgan. Shimolda Bosan ruda tog'lari joylashgan. Mamlakatda zilzilalar bo'lib turadi. Shimoliy qismida unumdar Sava tekisligi bor. Bosniyaning g'arbiy va janubiy qismlaridagi tog'lu hududlarda karst vodiylari joylashgan.

Gersegovinada iliq va O'rtayer dengizi iqlimi hukmron, tog'larda – alp, shimoliy tekisliklarda esa mo'tadil kontinental iqlim hukm suradi.

Tog' va tog' yonbag'irlarida yaproqli va ignabargli daraxtlar ko'p, janubda subtropik o'simliklar, tekisliklarda esa dasht va o'rmon-dasht o'simliklari o'sadi.

Sarayevo shahri o'zining naqshinkor minoralari va bozorlari bilan mashhur



Buyuk Britaniya



Poytaxti: London

Maydoni: 244,9 ming km²

Aholisi: 60,8 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:

anglikanlar – 63% dan ko‘proq,
katoliklar – 14%, presviterianlar
– 4%, musulmonlar – 3%

Davlat tuzumi: parlament
monarxiyasi

Pul birligi: funt sterling

Umumiy ma'lumotlar

Buyuk Britaniya va Shimoliy

Irlandiya Qo'shma Qirolligi –
Yevropaning shimoli g'arbida
joylashgan davlat. U Atlantika
okeanining Britaniya orollarida
joylashgan. Mamlakat Angliya,
Shotlandiya, Uels va Shimoliy
Irlandiyadan iborat. Davlat boshlig'i –
Buyuk Britaniya qirolichasi.
Mamlakat Yevropa Ittifoqiga a'zo.

Buyuk Britaniya aholisining 80%
inglizlar, 10% shotlandlar, 4% ga
yaqini esa irlandlardan iborat, 1%
dan ko‘proq valliyalar va 5% gachasi
Hindiston, Pokiston, Bangladesh,
Nigeriya, Gana va boshqa Afrika
mamlakatlardan kelgan muhajirlardan
tashkil topgan.

XV asr oxirida Tyudorlar sulolasiga
hukmronligida markazlashgan
milliy ingliz davlatiga asos solindi.
1603-yilda Tyudor sulolasidan so'ng
taxt Shotland qiroli Yakov Styuartga
o'tdi. Shotlandiya va Angliya ittifoq
sifatida birlashdi. 1707-yilda ittifoq
to‘g'risidagi hujjat qabul qilingach
Qo'shma Qirollik tuzildi. Qo'shma
Qirollikning asosi Angliya bo‘lib
goldi.



XVII–XVIII asrlarda
Angliya Shimoliy Amerikaning
ko‘plab yerlarini mustamlakaga
aylantirdi, shu jumladan,
Vest-Indiya orollari, Osiyo
davlatlaridagi ma'lum bir
hududlar va Afrika sohil
bo‘ylarini bosib oldi. Britaniya
dengiz hukmdoriga aylandi.
XIX asrda Angliya dunyodagi
eng yirik kolonial imperiya
markaziga aylandi.

Ikkinci jahon urushidan
so'ng ko‘plab Britaniya



Big Ben
minorasidagi
soat 1859-yilda
yasalgan, lekin
u hayratomuz
darajada aniq
ishlaydi: uning
nuqsoni bir
sutkada atigi 1.5-
2 soniyani tashkil
etadi

mustamlakalari siyosiy
mustaqillikni qo‘lga kiritdi.
Mustaqillikni qo‘lga kiritgan
yangi davlatlarning aksariytai
Hamdo'stlik (1931-yilda asos
solingan) tarkibida qolishdi,
ayrimlari Britaniya Qirolichasini
rasman davlat boshlig'i deb tan
olishadi. 2005-yilgi kuzatuvlar
natijasi bo‘yicha Qo'shma Qirollik
nazoratida umumiy aholisi 200.000
ga yaqin 14 ta o‘lka bor.

Ikki qavatli qizil avtobuslar Londonning ramzi edi, lekin zamonaviy standartlarga mos kelmagani uchun ularni qatnovdan olib tashlashdi



Tog'liklarning volinkasi va (kilt etakli) kiyimi Shotlandiyaning haqiqiy milliy ramzlariga aylangan

Diqqatga sazovor joylari

Buyuk Britaniya (London, Liverpul, Kembrij, Oksford va boshqalar) o'zining yodgorliklari nodir tarixiy obidalari va noyob arxitektura bezaklari bilan mashhur. Angliyaning janubida bronza davrga oid dunyodagi eng yirik tosh inshootlardan biri bo'lmish Stounxenj yodgorligi joylashgan.

Buyuk Britaniya o'zining dam olish maskanlari bilan ham jahonda nom taratgan.

Stounxenj – Quyosh va Yer harakatiga muvofiq ravishda joylashtirilgan toshlarni o'z ichiga oluvchi qadimiy ibodatxona



Tabiat

Buyuk Britaniya orollari tuzilish jihatidan ikki qismga bo'linadi. Shimol va g'arbda tepaliklar, o'rta va kichik tog'lar joylashgan, janub va sharqda pasttekisliklар va tepaliklari ko'p tekisliklar joylashgan. Baland tepaliklar va archagulli obod qilinmagan yerlar Shotlandiyani Angliyadan ajratib turadi. Pennin tog'lari Shimoliy Angliyani janubiy va sharqiy baland tekisliklarga ajratib turadi. Mazkur baland tekisliklar Irlandiya dengizi va Shimoliy dengiz tomon pasayib boradi.

Angliyaning janubiy va sharqiy tekisliklari – mamlakatning eng yaxshi o'zlashtirilgan seraholi hududlari. Buyuk Britaniyada turli xil foydali qazilma konlari mavjud. Ammo ko'p konlarda qazilmalar tugagan.

Mamlakatda mo'tadil va nam okean iqlimi hukmron.

Buyuk Britaniya landshafti odamlar faoliyoti tufayli ancha o'zgargan. Mamlakat hududining 8% o'rmonlar egallagan. O'rmonlarda archa daraxtlari zich joylashgan.



Biyuk Britaniyada neft qazish (mln. t.)**Xo‘jaligi**

Biyuk Britaniya dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatorida turadi. YIM 75% mamlakatning xizmat ko‘rsatish sohasiga, 24% sanoat va qurilishga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, moliya, sug‘urta va telekommunikatsiya tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. London dunyodagi ilg‘or moliyalashtirish markazlaridan biri hisoblanadi.

ITTKI ga YIMning 2% sarflanadi. Angliyada dunyoning eng qadimgi universitetlari Oksford, Kembrij joylashgan. Biyuk Britaniyada turizm rivojlangan. Biyuk Britaniya iqtisodi rivojlangan mamlakat bo‘lib jahondagi rivojlangan 8 ta davlat qatoriga kiradi. O‘z hududidagi shaxtalarning yopilishi va ko‘mir qazib olishning qisqarishi bilan bir vaqtida Shimoliy dengizdan neft va gaz qazib olinishi ko‘paytirilmoqda. Yiliga 10 mln. t neft va 100 mlrd. m³ tabiiy gaz qazib olinadi, bu ichki iste’molni qoplaydi, qolgani eksport qilinadi. IES elektr quvvatining 73% ni, AES 24% ni ishlab chiqaradi. Sanoatda mashinasozlik yetakchilik qiladi. Dunyoning 8,5% yuqori texnologik mahsuloti Biyuk Britaniyada ishlab chiqariladi. Mamlakatda elektron sanoat, zamonaviy ofis jihozlarini ishlab chiqarish, murakkab dastgohlar, asbob-uskunalar, aviatsiya va raketasozlik texnikalarini ishlab chiqarish jadal rivojlanib bormoqda. Avtomobil, elektrotexnika sanoatlari, xomashyo



◆ Mashhur Tauer ko‘prigi 1886 –1894-yillarda qurilgan

ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati bo‘yicha dunyodagi davlatlar orasida yetakchilik qiladi. Jadal rivojlangan kimyo sanoati yuqori texnologik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashib bormoqda. Biyuk Britaniya biotexnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha dunyoda AQShdan so‘ng 2-o‘rinda turadi. Biyuk Britaniya XX asr o‘rtalaridan qora metall ishlab chiqarish darajasini keskin pasaytirdi. Rangli metallurgiya mamlakatning to‘la ehtiyojini (aluminiy, qo‘rg‘oshin, qalay, mis va rux) qondiradi. To‘qimachilik sanoati tanazzulga uchradi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 2/3 qismini ta’minlovchi chorvachilikning asosiy tarmoqlari: yirik shoxli mol boqish, cho‘chqachilik, parrandachilik va Angliya uchun an‘anaviy bo‘lgan qo‘ychilik.

Bundan tashqari turli uy hayvonlari va parrandalarini ko‘paytirishga ahamiyat beriladi. Boshqoli o‘simliklar ko‘p ekiladi. Yerning 1/3 qismi shunga ajratilgan. Biyuk Britaniyada baliqchilik rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: kimyoviy moddalar, mashinasozlik, neft, oziq-ovqat mahsulotlari.



Qirolicha
Yelizavetta II
1952-yildan
buyon Buyuk
Britaniyani
boshqaradi.
U Vindzor
sulolasiga
mansub

Daniya



Poytaxti: Kopengagen

Maydoni: 43,1 ming km² (Farer orollari va Grenlandiyasiz)

Aholisi: 5,5 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: dan tili

Aholisining diniy tarkibi: dan luteranlari – 95%

Davlat tuzumi:

konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: Daniya kronasi



Umumiy ma'lumotlar

Daniya Qirolligi – Yevropaning shimolidagi Yutlandiya yarimoroli va uning atrofidagi yarimorollarda joylashgan davlat. Norvegiya dengizidagi Farer orollari va dunyodagi eng katta orol bo'lmish Grenlandiya ham Daniyaga qarashli. Daniya qirolligi VIII asrda barpo etilgan bo'lib, monarx (1972-yildan beri qirolicha Margrete II) asosiy davlat ishlarini bajaradi. Daniya – YI a'zosi.

Aholining 97 foizini danlar tashkil etadi. Oxirgi paytda xorijiy muhojirlar soni tobora ortib bormoqda. Grenlandiyani – 90% aholisi eskimoslardir (innuitlar).

Kopengagen – Daniyadagi yuk va yo'lovchi tashish bo'yicha yetakchi bandargohlardan sanaladi



Tabiat

Daniya O'rta Yevropa tekisligining shimoliy qismidagi pasttekislikdan iborat hududida joylashgan. Uning relyefida pleystotsen muzliklari izlari ko'zga tashlanadi.

Mamlakatda mo'tadil dengiz iqlimi hukmon, qishi beqaror, yozi esa salqin.

Daniyaning o'simlik dunyosi odamlar omili ta'sirida keskin o'zgargan. Mamlakat hududining atigi 1/10 qismini o'rmonlar tashkil qiladi. Bu o'rmonlarning katta qismi qayta ekilgan. Mamlakat g'arbida archagulli obod qilinmagan yerlar saqlanib qolgan, shuningdek emanzorlar va qarag'ayzorlar mavjud. Sharqi hududlarda madaniylashtirilgan qora qayinzolar va emanzorlar mavjud.

Xo'jaligi

Daniya – Yevropadagi iqtisodiyoti yaxshi rivojlangan davlatlardan biri. Iqtisodiyotining asosini xizmat ko'rsatish sohasi tashkil etadi. Mamlakatda transport, aloqa tarmoqlari yuksak darajada taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi.

Daniya sanoatining negizini mashinasozlik tashkil etadi. Mashinasozlikning tarkibiy qismlari orasida elektrotexnika, elektronika, dastgohsozlik va kemasozlik yaxshi rivojlangan. Aholining bandligi va ishlab chiqarilgan mahsulot narxi bo'yicha Daniya 2-o'rinda turadi.

Daniya pishloq, yog', tuzlangan va dudlangan cho'chqa go'shti, baliq va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha Yevropadagi yetakchi davlat bo'lishi bilan bir qatorda dunyo bozorini mo'yna bilan ta'minlovchi asosiy mamlakat hamdir.

Eksport qilinadigan asosiy mahsulotlar: mashina va transport jihozlari, kimyoviy mahsulotlar, oziq-ovqat va dori-darmondan iborat.

Estoniya



Poytaxti: Tallinn

Maydoni: 45,1 ming km²

Aholisi: 1,3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: eston tili

Aholisining diniy tarkibi:

luteranlar – 70%, pravoslavlavlari
– 20%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Estoniya kronasi



Eston milliy liboslari

Umumiy ma'lumotlar

Estoniya Respublikasi
Yevropaning shimoli sharqida
joylashgan davlat. Davlat
boshligi – prezident. Estoniya
– YI a'zosi. Mamlakatning katta
shaharlarida va shimoli sharqida
eston tilidan tashqari rus tilida
ham so'zlashishadi.

Aholining etnik tarkibi:
estonlar – 67%, ruslar – 26%,
qolganlar esa ukrainlar, beloruslar
va finlardan iborat.

Xo'jaligi

Estoniya – iqtisodiyoti Boltiqbo'y davlatlari ichida nisbatan rivojlangan.
Mamlakat hududida yonuvchi slaneslarni qazish va qayta ishslash ishlari olib boriladi.
Sanoatning asosiy tarmoqlari: asbobsozlik, kemasozlik, radiotexnika va elekrotexnika,
yog'ochsozlik, mebel, selluloza-qog'oz, kimyoviy, farmatsevtika sohalari, yengil sanoat
va boshqalar.

Sut-go'sht choravachiligi, cho'chqachilik, parrandachilik, hayvonotchilik, baliqchilik
va baliq-konserva sanoatlari rivojlangan. Estoniyada arpa, javdari qora bug'doy, kuzgi
bug'doy, kartoshka, qand lavlagi, zig'ir, mevalar, sabzavotlar yetishtiriladi.

Hunarmandchilik tarmoqlari: jun, charm va chinnidan turli mahsulotlar ishlab
chiqarish, qahrabo va kumushdan taqinchoqlar yasash.

Asosiy eksport mahsulotlari: mashinasozlik mahsulotlari, yog'och-taxtalar, qog'oz,
gazlama, mebel.

Fin ko'rfazi maydoni – taxminan 30 ming km²



Tabiatি

Estoniya hududi qit'aning bir qismidan va 1521 ta
oroldan (Mamlakat hududining 9,2%) iborat. Qирг'oq
chizig'i bir tekis emas – qирг'oq bo'y lab ko'plab
ko'rfazlar va kichik yarimorollar joylashgan. Fin ko'rfazi
qирг'oq'i tik qoya ko'rinishiga ega bo'lib, qирг'oq
chizig'ning ba'zi yerlarini daryolar, sharsharalar va
tezoqar suvlar kesib o'tgan. Mamlakat hududi morenali
tekislik va y yerda joylashgan alohida tepaliklar
(Pandivere, Otepya, Sakala, Xaanya) va G'arbiy Estoniya
pasttekisligidan iborat.

Mamlakat iqlimi – mo'tadil dengiz iqlimidan (dengiz
bo'y) mo'tadil kontinental iqlimiga (sharqda va janubi
sharqda) o'tuvchi iqlim.

Estoniya hududida 1100 dan ortiq ko'l joylashgan.
Ulardan eng yiriklari Peypsi, Virtsyarv va boshqalar.
Mamlakat hududining 22% botqoqliklar, 40%
o'rmonlardan iborat. Yaylovlari va o'rmon-yaylovlari ko'p.

Finlyandiya



Poytaxti: Xelsinki

Maydoni: 338,1 ming km²

Aholisi: 5,3 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tillari: fin va
shved tillari

Aholisining diniy tarkibi:
luteranlar – 85%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yevro

Xo‘jaligi

Finlyandiya – yuqori rivojlangan mamlakat. Mamlakatda xrom, vannadiy, kobalt, titan, mis, nikel rudalari qazib olinadi va qayta ishlanadi.

Elektr quvvatining 30% ni AES ishlab chiqaradi. Tabiiy gaz Finlyandiyaga Rossiyadan import qilinadi. Sanoat mahsulotlari qiymatining 40% ulushi telekommunikatsiya tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Mamlakatda, shuningdek, selluloza-qog‘oz, matbaachilik, yog‘ochsozlik, kemasozlik, mashinasozlik, kimyo, farmatsevtika, to‘qimachilik, yog‘-moy, tikuvchilik, pishloq tayyorlash sanoatlari ham rivojlangan. Finlyandiyada bug‘doy, arpa, yem-xashak ekinlari, qand lavlagi, kartoshka, sabzavotlar va zig‘ir yetishtiriladi. Go‘sht-sut chorvachiligi, cho‘chqachilik, bug‘uchilik, ko‘lli hududlarda va Boltiq dengizida baliqchilik rivojlangan. Mamlakatda turizm sohasi ham yaxshi rivojlangan.

Eksport qilinadigan asosiy mahsulotlari: uyali aloqa telefonlari, selluloza, qog‘oz va karton (dunyoda 2-o‘rinda), mashinasozlik mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar, sayohat kemalari.



Umumiy ma’lumotlar

Finlyandiya Respublikasi – Yevropa shimolidagi davlat. Davlat boshlig‘i – prezident. Finlyandiya – YI a‘zosi. 1809–1917-yillarda Rossiya imperiyasining avtonom hududi bo‘lgan.

Aholisining etnik tarkibi: 93,4% – finlar, 5,7% – shvedlar, 0,4% – ruslar, saamlar.



Baliqchilik – ko‘plab finlar orasida ommalashgan xobbi

Tabiat

Qirg‘oq chizig‘i bir tekis emas (kichik ko‘rfazlar, yarimorollar ko‘p); qirg‘oq yaqinida 180 mingdan ziyod toshli mayda orollar mavjud. Markaziy va Janubiy qismida Markaziy ko‘llar tekisligi joylashgan. Uni kichik tepaliklar o‘rab turadi. Shimol tomonda Kaynun, Maansel, Ounassel tepaliklari joylashgan.

Finlyandiya iqlimi mo‘tadil, shimolda – kontinental, janubda – dengiz iqlimidan mo‘tadil kontinental iqlimiga o‘zgaradi. Qishda deyarli hamma yerni qalin qor qoplayardi. 188 mingta ko‘l yirik suv tizimini hosil qilib, mamlakat hududini 8 foizini tashkil qiladi.

Mamlakat hududining 61 foizini o‘rmonlar egallagan. O‘rmonlarning aksariyati ignabagli daraxtlardan tashkil togan. Janubi g‘arbda aralash o‘rmonlar joylashgan, 68° shimoliy kenglikdan shimalroqda o‘rmon tundrasi, tog‘li joylarda tog‘ tundralari joylashgan.

Fransiya



Poytaxti: Parij

Maydoni: 549,2 mln. km²

Aholisi: 61,8 mln.

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 80% atrofida,
musulmonlar – 6%, qolgani
protestantlar, yahudiylar va
boshqalar


Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yevro



Parijdagi
Bibi Maryam
ibodatxonasi
ham badiiy, ham
tarixiy jihatdan
Fransyaning eng
ajoyib me'moriy
inshootlaridan biri
hisoblanadi

2000-yildan 2005-yllgacha aholl migratslyasi
balansi (mlng kishl)



Umumiy ma'lumotlar

Fransiya Respublikasi –
Yevropa g'arbidagi davlat.
Uning tarkibiga Korsina oroli,
mayda orollar, dengiz ortidagi
10 ta departament va hududlar
(Gvadelupa, Martina, Reyunon,
Yangi Kaledoniya va boshq.)
kiradi. Davlat boshlig'i –
prezident. Fransiya – YI a'zosi.

Fransiya aholisining
93,6 foizi – fransuzlar, lekin
bularning choragini muhojirlar
avlodi tashkil etadi, jumladan,
jazoirliliklar, portugallar,
italiyaliklar, ispanlar va
boshqalar. Rasmiy tarzda
ro'yxatdan o'tgan chet elliqlar
3,6 mln. kishidan (portugallar,
ispanlar, jazoirliliklar, tunisliklar
va boshqalar) iborat.

Bu yerda fransuz tilidan
tashqari kichik mahalliy guruh
vakillari korsikan, breton,
nemis, elzas, katalan va flamand
tillarida so'zlashadi.

Parijning Piramidalar
maydonidagi Janna
d'Arkning ot mingan
haykali



Tabiat

Fransiya landshaftini ikki turga bo‘lish mumkin. Shimolda va g‘arbda – baland bo‘lмаган тепаликларга boy tekisliklar mavjud. Markaziy, janubiy va janubiy-sharqiy qismida tog‘ tizmalari juda ko‘p, jumladan, Ispaniya va Andorra chegarasida Pireney tog‘lari, Italiya va Shveysariya chegarasida Alp tog‘lari joylashgan.

Shimoliy Fransyaning katta qismini keng tekislik egallagan. Bu tekislikni g‘arb tomonidan qoyalı tog‘lar, Normand tepaliklari o‘rab turadi. Tekislikning sharqiy qismida o‘rmonli tepaliklar, janubdagi Shveysariya chegarasi hududida esa Vogezi tog‘ massivi va Yura tog‘ tizmasi joylashgan.

Fransyaning janubiy hududini Markaziy massiv egallagan. Bu hudud – so‘ngan vulqonlar va o‘tloqlardan iborat kamaholi o‘lka. U yerdan sharqroqda serhosil Sona va Rona soyiliklari joylashgan. Janubi g‘arbdagi Garonna daryosi havzasida Bordo uzumzorlari, qumtepalar va qarag‘ayzorlar joylashgan. Janubda go‘zal Provans hududi va oromgohlariga boy O‘rtayer dengizi sohillari joylashgan. Korsika orolida tog‘lar ko‘p, g‘arbiy sohili notejis, sharqiy sohili esa ancha tekis.

Diqqatga sazovor joylari

Fransiya so‘zsiz turizm sohasi bo‘yicha dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri sanaladi. U yiliga 75 mln. dan ziyodroq sayyoohlarni qabul qiladi. Asosiy sayyoohlilik markazlari: Parij (muzeylari va teatrлari bilan mashhur). Nitssa (kurortlari, yirik plajlari, har yili o‘tkaziladigan gullar va kitoblar festivallari va karnavallari bilan mashhur), Kan (ilgari Kann deb atalgan, yelkanli sport markazi, har yili o‘tkaziladigan kinofestivali bilan mashhur). Alp kurortlari chang‘i sportini ixlosmandlarini o‘ziga jaib etadi. Tabiiy, tarixiy va madaniy yodgorliklar Fransiyani turli hududlarida joylashgan. YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga Fransyaning 27 ta madaniy,



Fransiya uzumzorlari bilan dunyoga tanilgan

tarixiy va tabiiy majmualari kiritilgan. Parij, Luvt, Eyfel minorasi, Nogironlar uyi, Versal, Luara vodiysidagi qasrlar, Amensk ibodatxonasi, Reymsdagi saroy va abbatlik, I asrda rimliklar tomonida asos solingen, turli davrlarga oid yodgorliklarga boy Lion shahri ana o‘shalar jumlasidandir.

Xo‘jaligi

Fransiya – yuqori rivojlangan mamlakat, dunyoning yetakchi mamlakatlardan biri. Iqtisodiyotining rivojlanganligi va eksport mahsulotlarining hajmi bo‘yicha dunyoda 4-o‘rinda, AQSh, Yaponiya va Germaniyadan keyingi o‘rinda turadi. 2003-yil YMning 3% – o‘rmon va baliq xo‘jaliklariga, 25% – sanoat va qurilish, 72% – xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri keldi. Xizmat ko‘rsatish sohasi yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishiga qaramay mamlakat xo‘jaligida sanoat muhim o‘rin egallagan. Ishlov berish sanoati qazib berish sanoatidan ancha ilg‘or rivojlangan. Mamlakatda uran, toshko‘mir, tabiiy gaz va kichik miqdorda neft qazib olinadi. Elektr quvvatining 77% ni AES ishlab chiqaradi (dunyodagi eng katta ulush), 14% ni GES va 8% dan ortiqrog‘ini IES ishlab chiqaradi. Parij – dunyoda tan olingen moda markazi.

Fransiyada charm-poyabzal sanoati hamda qo‘lqoplar ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan. Fransiya – konyak va shampan vinosi vatani, vinochilik bo‘yicha dunyo yetakchisi.

Mamlakat rivojlangan agrosanoat majmuasi va ko‘p tarmoqli unumdar qishloq xo‘jaligiga ega. Ilg‘or yo‘nalishlardan biri – chorvachilik: yirik shoxli mollar chorvachiligi, go‘sht-sut chorvachiligi, cho‘chqachilik va boshqalar rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: mashinasozlik mahsulotlari, aviakosmos sanoati mahsulotlari, ilmiy asbob-uskunalar, mashinalar, temir, kimyoviy mahsulotlar, dori-darmon, oziq-ovqat, vino, tamaki mahsulotlari, yung, gazlama, qog‘oz, kiyim, parfumeriya va boshqalar.



Eyfel minorasi 1889-yilda Parijda o‘tkazilgan Xalqaro ko‘rgazma uchun XIX asr texnika yutuqlari ramzi sifatida A. Eyfeling loyihasi bo‘yicha qurilgan

Germaniya



Poytaxti: Berlin

Maydoni: 357,0 ming km²

Aholisi: 82,3 mln. kishi

Rasmiy tili: nemis tili

Aholisining diniy tarkibi: protestantlar –

45%, katoliklar – 37%,

musulmonlar, pravoslavlolar va boshqalar – 18%

Davlat tuzumi: federativ respublika

Pul birligi: yevro



Umumiy ma'lumotlar

Germaniya Federativ Respublikasi

– Yevropaning markazida joylashgan mamlakatdir. GFR tarkibida 16 federal birlashmalar bor. Davlat boshlig'i – prezident. Germaniya – YI a'zosi. Aholisining etnik tarkibi: 91% nemislar, qolganlari turk, polyak, serb, italyan, xorvat, rus va boshqa millatlarga mansubdir.

Aholining 90% shaharlarda yashaydi. Aglomeratsiya markazlari – Berlin, Gamburg va Myunxen. Quyi Reyn aglomeratsiyasi (aholisi 11 mln. dan ortiq) – Yevropadagi eng katta aglomeratsiya. Unga Reyn-Vestfaliya hududidagi Kyoln shahri, Dyusseldorf, Duysburg, Essen, Dortmund va boshqa kichik urbanizatsiyali shaharlar kiradi.

Germaniya qirolligi X asrda tashkil topgan bo'lib, uning asoschisi deb Germaniya imperiyasining qiroli Genrix I hisoblanadi. Uning merosxo'ri Ottan I Rim imperiyasini vujudga keltirdi. Bu imperiya o'z ichiga turli knyazlik va monarxiyalarni

Myunxenning markaziy maydonida o'matilgan Bibi Maryamning tilla suvi yogurtinilgan haykali



olgan va rasman 1806-yilgacha davom etgan. XIX asrda Germaniya Prussiya boshchiligidida birlashib bordi. 1871-yilda Prussiya qiroli boshchiligidagi German imperiyasi tuzilganligi e'lon qilindi. Bu davlatning poytaxti Berlin edi. 1919-yilda Birinchi jahon urushidan so'ng Veymar Respublikasiga aylandi. 1933-yilda hokimiyat tepasiga Hitler boshchiligidagi natsistlar keladi va uchinchi Reyx tuzilganligi haqida e'lon qilinadi. Ikkinci jahon urushidan so'ng Germaniya 4 ta okkupatsiya sektoriga bo'linadi.

1949-yilda ikki german davlati Germaniya Demokratik Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi tashkil topadi. GDR poytaxti Berlin shahri, GFR poytaxti esa Bonn shahri edi. Kommunistik tuzum ag'darilgach bu ikki davlat yagona Germaniyaga birlashdi. 1991-yil 20-iyunda Berlin Germaniyaning poytaxti deb e'lon qilindi.



Germaniya arxitekturasiga xos uslubda qurilgan uylar


Svinger saroy majmuasi
1711–1712-yillarda shohona tantanalarni o'tkazish uchun qurilgan. Hozir u yerda Drezden rasmlar galereyasi joylashgan



Tabiat

Germaniya hududining relyefi shimoldan janub tomon ko'tarilib boradi. Mamlakatning sharqiy qismini Sharq german tekisligi egallaydi, tarixda u bir necha marta muz bilan qoplangan. G'arbiy qismida Germaniya markazining katta qismini egallagan tog' tizmalarini joylashgan. O'rta german tog'larining shimoliy qismida Tevtoburg o'rmoni va Gars massivlari, g'arbiy qismida esa Reyn-Slanes tog'lari joylashgan. Janubiy qismida balandligi 300 metrdan 600 metrgacha bo'lgan Bavariya yassi tog'lari joylashgan, ular janubda Alp tog'lariga ulanib ketadi.

Germaniyaning iqlimi mo'tadil, dengizning yaqinligi iqlimning kontinentalligiga ta'sir ko'rsatadi. Eng issiq oyning o'rtacha harorati O'rta german tekisligida +17... +18 °C gacha, tog'lar bilan qurshalgan Reyn, Mayn, Nekkar, Mozel vodiylarida harorat +20 °C va undan balandroq bo'ladi.



Diqqatga sazovor joylari

Germaniya sayyohlarni Reyn vodiysining ajoyib manzaralari, o'rta asrlardan beri saqlanib qolgan qasrlari, cherkovlari, Bavariyaning qadimiy madaniyati va boshqa obidalari bilan o'ziga jalg qiladi. Mamlakat janubidagi dam olish maskanlari ham dunyoga o'zining toza daryo va ko'llari bilan mashhur. Germaniyaning janubi sharqida joylashgan Saksoniya minglab sayyohlarni o'zining landshafti, o'rmonlari, shaharlarining tabiiy go'zalligi bilan maftun etadi.

Bavariyadagi festival

Xo‘jaligi

Germaniya – dunyoning iqtisodiyotiyuqori darajada rivojlangan davlatlardan biri. YMning 70% xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri keladi, qolgan 29% esa sanoat va qurilishga to‘g‘ri keladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi GFR iqtisodiyotining asosini tashkil qiladi. Hozirgi paytda telekommunikatsiya va axborotlar tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda. GFRning bank-moliya sektori Yevropa Ittifoqidagi eng qudratli sektordir. Dunyoning eng yirik 50 bankidan 8 tasi Germaniyaga qarashli. ITTKI tizimiga Germanyaning YMning 2,5% sarflanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida ijtimoiy xizmatlarga alohida joy ajratilgan. Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan asosiy mablag‘lar nafaqaxo‘rlar

2003-yilda Yevropaning alohida mamlakatlariqalmahsulot eksport qillish (folz hisobida)



Quvvat resurslari

Mashinalar va asbob-uskunalar

Qolgan mahsulotlar



pensiyasi (xarajatning 1/3 qismi) va ishsizlik bo‘yicha nafaqalarga sarflanadi. Germaniya aholini tibbiy yordam muassasalari bilan ta‘minlash bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinni egallagan. Mamlakatda turizm yaxshi rivojlangan.

Germaniyada tosh, qo‘ng‘ir ko‘mir (dunyoda 1-o‘rin) va kalyi tuzlari qazib olinadi. Olingan tabiiy gaz mamlakat ehtiyojining faqat 1/3 qismini qoplaydi. Germaniyada elektr quvvatini asosan AES (30%) va IES (63%) ishlab chiqaradi.

Mamlakatda mashinasozlik sanoati yetakchi o‘rinni egallaydi, u sanoatning 1/2 va eksport mahsulotlarining 1/2 qismini tashkil qiladi. Mamlakat dunyoda yengil avtomobillar ishlab chiqarish bo‘yicha 3-o‘rinda turadi (yiliga 5 mln. dan ortiq). Germaniyada raketa, fuqarolik samolyotlari va harbiy samolyotlar, sun’iy yo‘ldoshlar, radarlar, masofaga uzatuvchi asboblar, aviatsiya va raketa dvigatellari ishlab chiqariladi, shuningdek, nazorat-o‘lchash apparatlari, tibbiy jihozlar, axborot texnikasi, robototexnika, maishiy texnika, raketasozlik va optik mexanika sanoatlarida ham ishlab chiqarish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Germaniya kimyoviy mahsulotlar eksporti bo‘yicha dunyoda 1-o‘rinda turadi. Kimyo sanoatida plastmassa, sun’iy tola va kauchuk ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari dori-darmon ishlab chiqarish bo‘yicha mamlakat dunyoda 2-o‘rinda turadi. Mamlakatda matbaachilik juda yaxshi rivojlangan. Germaniya sanoatining eng qadimiy sohalari bo‘lmish qora metallurgiya va oziq-ovqat sanoatlari inqirozga yuz tutgan.

Pivo va tamaki ishlab chiqarish bo‘yicha Germaniya YIda yetakchi o‘rinda turadi.

Germaniya qishloq xo‘jaligida chorvachilik muhim rol o‘ynaydi. U qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 2/3 qismini ishlab chiqaradi. Germaniya YMning yirik qoramollar bo‘yicha 2-o‘rin, cho‘chqalar bo‘yicha 1- o‘rinda turadi.

Ekin yerlarining 2/3 qismiga asosan bug‘doy, arpa, suli va qora bug‘doy ekiladi. Germanyaning janubi g‘arbida milliy vinochilik asosi bo‘lmish uzumchilik rivojlangan.

Germaniya uskunalar, transport vositalari, dori-darmon va tikuvchilik mahsulotlarini eksport qiladi.

Gretsya



Poytaxti: Afina

Maydoni: 132 ming km²

Aholisi: 11,2 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: grek tili

Aholisining diniy tarkibi:
pravoslavlavlari

Davlat tuzumi: parlamentar
respublika

Pul birligi: yevro



Umumiy ma'lumotlar

Gretsya, Grek Respublikasi – Yevropaning janubida joylashgan davlat. U o'z ichiga Bolqon yarimoroli va 1500ta katta va kichik orol va arxipelaglarni oladi.

Davlat boshlig'i – prezident.

Gretsya – YI a'zosi.


Aholini – 93% greklar, qolgan qismini turk, arman, alban va boshqa xalqlar vakillari tashkil qiladi.

Diqqatga sazovor joylari

Chet el sayyoohlarini Gretsyaning antik davrga mansub muzey, haykaltaroshlik san'at namunalari va dam olish maskanlari (ayniqsa, orollarda joylashganlari) qiziqtiradi. YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga Afina Akropoli, Delflar, Epidavr, Meteora va Afon yodgorliklari va boshqalar (jami: 16ta) kiritilgan.



Mikonos orolidagi bandargoh



Gretsyaning dengiz kurortlari xorijiy sayyoohlar orasida haqli ravishda shuhrat qozongan

Tabiat

Gretsiyaning 4/5 qismini tog‘ va yassi tog‘lar egallagan. O‘rtal balandlikdagi tepalikli hududlar ko‘p bo‘lib, ular orasida eng yirigi – Pind.

Tekislik va tog‘ yonbag‘irlarida subtropik iqlim hukmron, qishda o‘rtacha namgarchilik bo‘ladi, yoz fasli esa issiq va quruq.

Bu yerda subtropik o‘simpliklari o‘sadi. Gretsiyaning o‘simpliklaridan biri – zaytun. Bog‘lar agava daraxtlari bilan o‘ralgan. Sarv daraxtlari – mamlakat manzarasining o‘ziga xos bir qismi. Tabiiy o‘rmonlar soni kam bo‘lganligi tufayli, hayvonot olami ham shunga yarashadir.



Antik davrda yunonlar uy buyumlarida mifologiyaning turli sahnalarini aks ettrishiga odatlanishgan



Xo‘jaligi

Gretsiya – industrial-agrar mamlakat bo‘lib, iqtisodiyoti o‘rtacha darajada rivojlangan. Xizmat ko‘rsatish sohasida savdo-sotiq, kemasozlik, turizm yetakchilik qiladi. Gretsiya YMning 18% qishloq xo‘jaligiga, 21% sanoatga, 61% uchinchi sektorga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari oziq-ovqat, charm-mo‘yna, to‘qimachilik, kimyo sanoatlari va sement ishlab chiqarish ham rivojlangan. Mamlakatda boksit, temirnikel rudalari, magnezit, marmar, xromitlar, piritlar qazib olinadi. Qora va rangli metallurgiya hamda neftni qayta ishlash sanoatlari rivojlangan. Mashinasozlik asosan ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqaradi. Gretsiyada zaytun moyi ishlab chiqarish rivojlangan (dunyoda 3-o‘rinda), bundan tashqari pishloq, mayiz va tamaki mahsulotlari

Afina Akropoli supachasida joylashgan Attika teatri jamoatchilik oldida chiqish qilish uchun Gretsiyadagi eng nufuzli sahna hisoblanadi

ishlab chiqariladi. Qishloq xo‘jaligi uzum, zaytun, paxta, pomidor, tamaki, sitrus mevalarni yetishtirishga, shuningdek, donli mahsulotlar, qand lavlagi o‘stirishga ixtisoslashgan. Gretsiyada qo‘y, echki, yirik shoxli mol, cho‘chqa, xachir, eshak va ot ko‘paytiriladi. Shuningdek, baliqchilik xo‘jaligi ham rivojlangan.

Mamlakat asosan quyidagilarni eksport qiladi: qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, kiyim-kechak, neft mahsulotlari, ichimliklar, tamaki, aluminiy, zaytun moyi, sement.

Irlandiya



Poytaxti: Dublin
Maydoni: 70,3 ming km²
Aholisi: 4,4 mln. kishi
Rasmiy tillari: irland, ingliz tillari
Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 92%, protestantlar – 3%
Davlat tuzumi: parlamentar respublika
Pul birligi: yevro

Umumiy ma'lumotlar

Irlandiya, Irland Respublikasi

– G'arbiy Yevropadagi shu nomli orolni egallagan davlat. Davlat boshlig'i – prezident.

Irlandiya – YI a'zosi. Aholining 97% – irlandlar, 3% – shotlandlar, vallyilar. 1921-yilda ingilzlar hukmronligiga qarshi irlandlarning qurolli milliy ozodlik kurashi nihoyasiga yetgach orol ikkiga ajraldi. Shimoliy Irlandiya (Olster) metropoliya tarkibiga kirib Angliya, Shotlandiya va Uels bilan birgalikda Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligi tashkil topdi. Qolgan Irlandiya o'lkalari Britaniya Eyre nazorati ostida qolib, o'zini boshqarish huquqini qo'lga kiritdi.

1937-yildan yangi konstitutsiyaga muvofiq Irlandiya «Eyre mustaqil davlati» deb e'lon qilindi. 1949-yilda Irlandiya mustaqil Respublika



deb e'lon qilingan bo'lsa, ham uning shimoliy qismi bo'lmish Olsterda mustamlakachilar hukmronligi saqlanib qoldi. XX asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniya va Irlandiya o'rtasida Olster borasida qattiq tortishuvlar

davom etdi. 1993-yilda Olster bo'yicha Britaniya-Irlandiya qo'shma Deklaratsiyasi imzolandi. Mazkur deklaratasiya barcha ixtiloflar tinch vositalar bilan bartaraf qilinishi uchun asos yaratdi.



Donegol grafligidagi Glenveagh qasri

Xo'jaligi

Irlandiya – iqtisodiyoti rivojlangan davlat. Iqtisodiyotning asosi xizmat ko'rsatish sohasidir (bank-moliya, ITTKI, aloqa, transport, axborot olish, biznes, turizm). Irlandiya Yevropa davlatlarining ichida yuqori texnologik mahsulotlarni (kompyuter, elektron asbob-uskunalar va aloqa vositalari) ishlab chiqarish borasida yetakchilik qilgani uchun XX asr oxirida «Kelt yo'lbarsi» nomiga sazovar bo'ldi. Bu yerda G'arbiy Yevropadagi eng yirik qalay-rux konlari va magnezit, talk, barit, torf qatlamlari joylashgan. Mamlakatda kimyo sanoati (kimyoviy tolalar, plastmassa, ma'danli o'g'itlar, farmatsevtika), elektron va elektr jihozlarini ishlab chiqarish sanoati, asbobsozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlab chiqarish (go'sht, sut, yog'), to'qimachilik va charm-poyabzal sanoatlari jadal rivojlangan.

Irlandiya qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri chorvachilik sohasi bo'lib, asosiy o'rinni yirik shoxli mollarni ko'paytirishga qaratilgan. Bu soha rivojlanishi uchun qishloq xo'jaligi yerlarining 3/4 qismi mol boqish uchun yaylov larga ajratilgan. Yaylovlar yil davomida yam-yashil o'tlar bilan qoplanadi. Chorvachilik mahsulotining 70 foizi eksport qilinadi.

Irlandiya Yevropada aholi jon boshiga yirik shoxli mollar soni va ularni tirik holda yetkazib berish bo'yicha 1-o'rinda turadi. G'allachilik ikkinchi darajali bo'lib, mamlakatning denga bo'lga ehtiyojini qondirmaydi; yetishtirilgan g'allaning ko'p qismi mollarga yem tariqasida beriladi.

Asosiy eksport qilinadigan mahsulotlar: yuqori texnologik elektron mahsulotlar va ofis jihozlari, farmatsevtika va oziq-ovqat mahsulotlari.

Dublinning eng avvalgi nomi «Dubx Layn», ya'ni «Qora Bandargoh» bo'lgan. Yevropadagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lmish ushbu shaharga IX asr boshida asos solingan



Irlandiyadagi monastirlardan birining manzarali vayronasi



Tabiat

Irlandiya – qirg'oqlari baland, ammo asosiy qismi tekislikda joylashgan mamlakat. Sharqiy qirg'og'i nisbatan past va tekis, janubiy qirg'og'i esa qoyali, g'arbiy qirg'og'i ko'rfazlar bilan o'yilgan. Irlandyaning janubiy-g'arbiy qismida kichik Kerri tog'lari joylashgan.

Iqlimi – mo'tadil, qishi iliq, yozi bulutli, mayin, iyul oyining o'rtacha harorati $+14\dots+16^{\circ}\text{C}$, yanvarning o'rtacha harorati $+5\dots+8^{\circ}\text{C}$. Yog'ingarchilik yiliga 700–1500 mm, tog'larda – 2000 mm gacha yog'adi.

Irlandiyada sersuv daryolar ko'p, lekin daryolari qisqa (eng uzun daryosi – Shannon). Daryolar qishda muzlamaydi, aksariyatida kemalar qatnaydi. Mamlakat ko'l va botqoqlarga boy, aksariyat ko'llar kelib chiqishiga ko'ra tektonik, muzlik yoki karstli. Yer fondi tizimida vodiylar, yaylovlar, dalalar va dashtlar ko'p joy egallaydi, hududning faqat 1,5% qismini o'rmonlar tashkil etadi.

Islandiya



Poytaxti: Reykyavik
Maydoni: 103 ming km²
Aholisi: 316,3 ming kishi
Rasmiy tili: Island tili
Aholisining diniy tarkibi: protestant-luteranlar – 89%
Davlat tuzumi: parlamentar respublika
Pul birligi: island kronasi



Karam – Islandiyada yetishtiriladigan asosiy ekinlardan biri

Umumiy ma'lumotlar

Islandiya, Islandiya Respublikasi – Yevropadagi davlat. Atlantika okeanining shimoliy qismidagi Islandiya orolida joylashgan. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining 98% – islandlar.

Xo'jaligi

Islandiya – rivojlangan davlat. Iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i – bu baliqchilik va baliqni qayta ishlash (valuta tushurnining 80%). Mamlakat gidro va geotermal quvvat resurslariga boy. Issiq buloqlar mahalliy aholi uylarini va issiqxonalarini isitishda qo'llashadi (pomidor, bodring va hattoki qovun, banan va uzum yetishtiriladi). GES quvvatti yordamida esa aluminiy, ferrokremniy va azot o'g'itlari ishlab chiqiladi. Islandiyada qo'ychilik va sut chorvachiligi rivojlangan.

Mamlakat asosan, muzlatilgan, tuzlangan va dudlangan baliq, aluminiy va ferrokremniy eksport qiladi.



Tabiat

Islandiya qirg'oqlari fiordlarga boy. Orol yuzasini vulqonli tog'liklar egallagan. Ularning o'rtacha balandligi 400–800 m. Islandiya tabiatining o'ziga xosligi uning olov va muzni o'zida jamlay olganidadir. Mamlakatning 12% hududini muzliklar egallagan. Islandiyaning eng katta muzligi Vatnayekudl (maydoni 8400 km²) dunyoda Antarktida va Grenlandiya yaxlit muz massivlaridan keyin 3-o'rinda turadi.

Islandiyada 200 ga yaqin vulqon qayd etilgan, aksariyati harakatdagи vulqonlardir. Eng katta vulqon Xvannadalsxnukyurdir. Mamlakatda tez-tez zilzilalar bo'lib turadi. Islandiyada keng tarqalgan issiq buloqlar va geyzerlar vulkanizm bilan bog'liq.

Mamlakatda subarktika va okean iqlimi hukmron bo'lsa ham Shimoliy Atlantika issiq oqimining ta'siri bor. Ko'p tuman tushadi. Mamlakatning ichki hududlarida qor qatlamlari 5 oylab erimaydi.

O'simlik dunyosi qashshoq. Islandiya hududining 2/3 qismini dasht va toshloqliklar tashkil etadi. Ular zamburug' va torf botqoqliklari bilan qoplangan. Orolni janubi va g'arbidagi o'tloqliklarda o'rmon massivlari va dalalar bor.

Bu yerda shimol bug'usi, shimol tulkisi, oq ayiq, lemming va boshqa joni vorlar yashaydi. Qirg'oq yaqinidagi sayozliklarda treska, sold kabi (150 tagacha turdag'i) baliqlar ko'payadi.

Islandiya Shimoliy qirg'og'ining ko'rinishi

Ispaniya



Poytaxti: Madrid

Maydoni: 504,8 ming km²

Aholisi: 40,8 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 90%

Davlat tuzumi: parlamentar
monarxiya

Pul birligi: yevro

Umumiy ma'lumotlar

Ispaniya, Ispan qirolligi – Yevropaning janubiy g'arbidagi davlat. Ispaniya janub tomonidan O'rta dengizi va Atlantika okeani, shimaldan esa Biskay ko'rfa bilan o'ralgan.

Ispaniya tarkibiga: Beleser va Kanar orollari, 2 ta avtonom shahar (Melilya va Marokashning shimolidagi Seuta) va Liviya anklavi (Fransiya oldidagi hudud) va mayda Veles-de-la-Gomera, Alusemas, Chafarinias, Perexil orollari kiradi. Davlat boshlig'i – qirol. Ispaniya – YI a'zosi.

Konstitutsiyasiga binoan Ispaniya aholisi – yagona millat, ammo aholisining etnik tarkibiga ko'ra: ispanlar – 37%, katalonlar – 17%, galislar – 7%, basklar – 2% tashkil qiladi.


Madriddagagi qirol saroyining umumiy maydoni yerto'lalar va yer osti binolarini hisobga olganda 100 ming m² ni tashkil etadi. U – Ispaniya poytaxtidagi eng katta inshoot



1212-yilda shimoliy ispan xalqlarining birlashgan kuchlari rekonkistani, ya'ni orolning g'arbiy qismini arablardan ozod etish urushini boshlashdi. 1492-yilda rekonkista muvaffaqiyatli yakunlandi. Arablar orolni tark etishdi. Shu yili X.Kolumb Amerikani kashf qildi. Ispaniya Yangi Dunyo yerlarini mustamlakaga aylantira boshladи, natijada XVI asrning birinchi yarmida Kolumb kashf qilgan o'lkada bir qator ispan koloniyalari paydo bo'ldi.

1517–1598-yillarda Ispaniya dunyoning eng yirik va kuchli davlatiga aylandi, uning tarkibiga Niderlandiya, qisman Italiya va Portugaliya kirdi. XVI–XIX asrlar davomida ispanlar Lotin Amerikasi yerlariga ko'chib o'ta boshlashdi. XVII–XVIII asrlarda Ispaniya dunyodagi birinchiliginini Angliyaga boy berdi. 1813–1825-yillarda Lotin Amerikasidagi barcha koloniyalarini, 1898-yilda esa Kuba, Puerto-Riko, Fillippin, Gusem va Okeaniyaning boshqa arxipelaglarini qo'ldan chiqardi.

1936–1939-yillardagi fuqarolar urushi mamlakatni iqtisodiy va siyosiy nochorlikka olib keldi. 1975-yilgacha Ispaniyani Franko totalitar yetakchisi boshqardi, uning vafotidan so'ng mamlakatda siyosiy va iqtisodiy liberal islohotlar amalga oshirilib konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatildi.



Diqqatga sazovor joylari
1960–1980-yillarda Ispaniyada sayyohlik mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. 2003-yilda mamlakatga 52,3 mln. xorijlik sayyohlar keldi. Asosiy dengiz kurort maskanlari O'rtayer dengizi sohillariga hamda Kanar va Balear orollarida joylashgan. Gibraltardan to Portugaliya chegara sohillarigacha bo'lган hududdagi hamda Biskay ko'rfa zidagi dengiz plajlari, shuningdek, Serra-Nevada va Pireney tog'laridagi tog'-chang'i kurort maskanlari juda ham mashhur.

Katoliklar ziyoratgohlari markazi Santiyago-de-Kompostela (av. Yakov qabristoni joylashgan) ham shu yerda

joylashgan. Asosiy diqqatga sazovor joylar: Madriddagi Prado muzeyi, Kastiliyaning o'rta asrlardagi poytaxti Toledo, qirollarning Eskorial yozgi qarorgohi, Servantesning vatani Alkala-de-Enares, Segoviyadagi Alkasar qal'asi, Salamankadagi o'rta asrlar ibodatxonalarini va universiteti, Leondagi gotik usulidagi ibodatxona va roman cherkovi, Bilbaodagi Gugenxaym muzeyi, Pamplondagi korrida, Barselonadagi A.Gaudi arxitektura san'ati, Sagrada-Familiya ibodatxonasi va Montserat monastiri, Palma-de-Mayorkadagi rassom S.Dali muzeyi, Belveder qasri; Granadadagi Algambra qasri; Las-Palmas ibodatxonasi, Altamir g'ori va boshqalar.

◆ Qadimiy ispan ibodatxonalaridan biridagi deraza vitraji



Barselonada joylashgan Sagrada-Familiya (Muqaddas Xonodon) ibodatxonasining haykallli relyefi. Uning qurilishi 1883-yilda boshlangan, lekin hanuz yakunlanmagan

◆ Korrida – bu XVIII asrdan beri Ispaniya va ba'zi boshqa mamlakatlarda an'ana bo'lib kelayotgan tomosha

Tabiat

Ispaniya Pireney yarimorolining 84% qismini egallagan. Shimoli g'arbdagi qirg'oqlar suv toshqinlari ta'sirida juda o'zgarib ketgan. Shimoli sharqda mamlakatni Fransiyadan Pireney tog'lari ajratib turadi. Biskay qirg'og'i bo'ylab Kantabriy tog'lari va Galisiya massivi, sharqda – Iberiy va Katalon tog'lari, markaziy qismida – Markaziy Kordilera, janubda – Serra-Morena, Kordilera-Betika, Serra Nevada tepaliklari joylashgan. Mamlakatning markaziy qismida Meseta yassitog'lari (balandligi 400–1000 m) joylashgan. Iber tog'laridan sharqda Aragon tekisligi, janubi g'arbda Andalus tepatekisligi joylashgan. Kanar orollarida vulqonlar juda ko'p.

Pireney va Iber tog'laridan sharqqa qarab Ebro daryosi va uning irmoqlari oqadi. Kantabr tog'lari, Markaziy

Kordilera va Betika Kordilerasi oralig'ida g'arb va janubi g'arb tomonga Duero, Gaxo, Gvadiana, Gvadalkvivir daryolari oqib o'tadi.

Ispaniya iqlimi – subtropik o'rtayer dengiziga iqlimi: shimolda nisbatan namroq (yog'ingarchilik yiliga – 900 mm), orol markazida – quruq (500 mm), janubiy qismida esa – quruq va jazirama issiq (Afrika sahrolari yaqinligi tufayli). Qishda Afrikadan issiq shamol sirokko (garmsel) esib turadi. Ispaniya uchun ichimlik suv tanqisligi va qattiq qurg'oqchiliklar odatiy holdir. 2000-yildan boshlab qurg'oqchilikka uchragan yerlarni sug'orish bo'yicha milliy suv rejasi amalga oshirilmoqda.

Ispaniya hududini 52% o'rmon va butalar tashkil qiladi. Qora archalar, eman va ignabargli daraxtlar shimolda va g'arbda o'sadi. Mamlakat janubida va Mesetada dasht va sahro o'simliklari, dengiz qirg'oqlari bo'ylab esa subtropik o'simliklar o'sadi.



Xo‘jaligi

YIMni 68% xizmat ko‘rsatishga, 29% sanoatga, 3% qishloq o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilikka to‘g‘ri keladi.

Ispaniyada toshko‘mir, temir rudasi, simob, pirit, volfram, polimetall rudalari, kumush va uran rudasi qazib olinadi.

GESlarning aksariyati tog‘li hududda joylashgan. Bu yerda 6 ta AES mavjud. Yirik sanoat korxonalarini dengiz bandargohlarida va dengizga yaqin joylarda joylashgan. Mamlakatda mashinasozlik, telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari, harbiy, qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, qog‘oz, to‘qimachilik, kimyo, poyabzal va boshqa sanoatlar yaxshi rivojlangan. Ispaniya o‘zining mahalliy hunarmandchilik: gilando‘zlik, kulolchilik, gazlamachilik, teriga ishlov berish, zargarlik va pichoqchilik bilan ham mashhurdir.

Qishloq xo‘jaligining eng unumdar va hosildor yerkari bu O‘rtayer dengizi sohillari va Ebro daryosi vohasidagi yerdadir. U yerda suv omborlari qurilgan. Janubdagisi sug‘oriladigan yerdarda sitrus mevalari, zaytun, shakarqamish, pomidor, kartoshka, anjir, anor yetishtirilsa, markaziy va janubiy qismida boshoqli ekinlar, sabzovatlar, tamaki, uzum;



Madridga amir Muhammad I hukmronligi davrida (856–886) asos solingan. U Mansanares daryosining chap qirg‘og‘ida qal'a qurishga buyruq bergan

shimoliy qismida kartoshka, qandlavlagi, dukkakli va sermeva o‘simliklar yetishtiriladi. Qurg‘oqchilik (Kastiliya, Aragon, Estremadura) yerlarida qo‘ychilik, shimolda sut mahsulotlari chorvachiligi va cho‘chqachilik, rivojlangan. Galisiya va Andalusiya aholisi qirg‘oq bo‘ylarda baliqchilik bilan shug‘illanishadi.

Ispaniya dunyoda zaytun moyi va simob ishlab chiqarish bo‘yicha 1-o‘rinda, pirit qazib olish bo‘yicha 2-o‘rinda, vino ishlab chiqarish bo‘yicha 3-o‘rinda turadi.

Ispaniyaning asosiy eksport mahsulotlari: zaytun, zaytun moyi, vino, sitrus mevalari, pomidor, mashinasozlik (avtomobil va kemalar) mahsulotlari, farmatsevtika vositalari, rangli metallar va ma’danli xomashyo.

Yevropa mamlakatlariga 2003-yilda kelgan xorijlik sayyoqlar oqimi (mln. odam)



Flamenko san‘ati (Ispaniyaning eng janubiy viloyati bo‘lmish Andalusiyaning xalq raqsi va qo‘shig‘i) – ushbu mamlakat folklorining o‘ziga xos qismi

Zaytun mevalari – Ispaniyaning eksport qilinadigan asosiy mahsulotlaridan biri



Italiya



Poytaxti: Rim
Maydoni: 301 ming km²
Aholisi: 59 mln. kishi (2007)
Rasmiy tili: italyan tili
Aholisining diniy tarkibi:
 katoliklar – 98%
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: yevro



Umumiy ma'lumotlar

Italiya Respublikasi – Janubiy Yevropada va O'rtayer dengizbo'yи о'лкасининг марказији qismida joylashgan davlat. U Sitsiliya va Sardiniya orollarini о'з ichiga oladi. Italiya hududida anklav shaklidagi ikki davlat Vatikan va San-Marino joylashgan. Davlat boshlig'i – prezident. Italiya – YI a'zosi.

Mamlakat aholisining 94 foizdan ziyodi italiyanlardir. Italiya hududida slavyan, serb, xorvat, alban va grek millati vakillari ham yashaydi.



Qadimiy futbol – Florensiya sayyoohlari uchun ajoyib ermak

Tabiat

Italiya – dengiz sohilidagi tog'larga boy mamlakat. Tog' va tepaliklar hududning 80% tashkil etadi. Italiya va Fransiya chegarasida, Alp tog'larining eng yuqori cho'qqisida Monblan tog'i joylashgan. Yuqori seysmik hudud bo'lgani uchun tez-tez zilzilalar bo'lib turadi. Bundan tashqari harakatdagi (Etna) va o'chgan (Vezuviy, Strombush va Vulkano) vulqonlar mavjud. Pasttekisliklar Padan tekisligi va dengiz sohillari atrofiga joylashgan.

Italiya iqlimi O'rtayer dengizi iqlim singari qishda mo'tadil va nam (yanvarda o'rtacha harorati +10...+12°C), yozda jaziramali va qurg'oqchil (iyulda o'rtacha harororati +20...+28°C), faqat Padan tekisliligi

bundan mustasno. Undagi iqlim mo'tadil kontinentaldir (subtropik iqlim unsurlari bilan). Qor faqat tog'larda erimay turadi.

Italiya daryolari kichik va yoz faslida kamsuvlidir, faqat Po daryosi va uning chap tarmoqlari bundan mustasno. Ko'plab ko'llar kelib chiqishiga ko'ra tektonik, muzlik, vulqonli yoki lagunalni sayoz suv havzasiga ajratiladi.

Baland tog'li hududlarni hisobga olmaganda atrof-muhitni madaniy landshaft o'rabi olgan. O'rmonlar (yirik bargli, qarag'ay, eman; tog'larda – ignabargli) hududning 22,5% tashkil qiladi.



Afsonalarga ko'ra Romul (Rimning birinchi podshosi) va uning ukasi Remni bo'ri emizgan

Xo'jaligi

Italiya YIMning 68% xizmat ko'rsatishga, 28% sanoatga, 4% qishloq va o'rmon xo'jaligiga to'g'ri keladi.

Mamlakatda qurilish mollari, jumladan, granit, marmar, putsolan (sement xomashyosi), bundan tashqari polimetall rudalari, marganes, boksit, kaliy va tosh tuzlarini qazish ishlari olib borilmoqda. Mamlakatdagi neft, tabiiy gaz va qo'ng'ir ko'mir mamlakatdagi quvvat iste'molining 13% qismini qoplaydi. Italiyada elektr quvvatining 82 foizini tabiiy gaz va xorijiy mazutda ishlaydigan IES ishlab chiqaradi. Italiyada po'lat, aluminiy, qo'rg'oshin, rux, kumush, mis eritish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Mashinasozlik sanoati qayta ishlash tarmog'ining 1/4 qismini, eksport qilinadigan mahsulotning 2/5 qismini tashkil qiladi. Mamlakatda quyidagi transport vositalari ishlab chiqiladi: avtomobillar («Fiat» kompaniyasining Turindagi eng yirik zavodi), traktorlar (dunyoda 3-o'rinni) kemalar, motorollerlar, mototsikl va velosipedlar. Uskunalar, dastgohlar va ofis jihozlarni ishlab chiqarish elektron sanoatining yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Italiya muzlatgich va kir yuvish mashinalarni ishlab chiqish bo'yicha dunyoda 3-o'rinda turadi.

Yevropadagi eng qudratli neft qayta ishlash sanoati (neftni qayta ishlash zavodining umumiyligi ishlab chiqish

quvvati – yiliga 100 mln. tonna neft) Italiyada joylashgan. U Yaqin Sharq, Rossiya, Livan, Shimoliy dengiz konlaridan import qilinadigan neft bilan ishlaydi.

Kimyo sanoati plastmassa, ma'danli o'g'itlar, sun'iy kauchuk, lok, kimyoviy tolalar va bo'yoqlar ishlab chiqaradi. Italiyada gul va mevalardan tabiiy usulda efir moylari va essensiyalarni olish an'anasi saqlanib qolgan. Qurilish mollarini ishlab chiqarish sanoati Yevropadagi sement mahsulotining 20% ishlab chiqaradi. Bundan tashqari Italiya katta hajmda oddiy va naqshli oynalar va mashinalar uchun mustahkam oyna, chinni va fayans buyumlar (70% eksport qilinadi) ishlab chiqaradi.

To'qimachilik, poyabzal sanoatlari mahsulotlari ko'p eksport qilinadi. Italiya (Fransiya singari) kiyim-kechak va poyabzal modasining qonun-qoidalarini yaratuvchi o'lkadir. Bu yerda dunyoga mashhur Italiya shoyi bo'yinbog'lari, sport va chang'ichilik poyabzallari ishlab chiqariladi. Mamlakatda qog'oz sanoati yuqori darajada rivojlangan. Italiya musiqa asboblarini tayyorlashi bilan dong taratgan.

Oziq-ovqat sanoatida qand, makaron ishlab chiqarish, pomidorlarni konserva qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Italiya dunyoda vino va zaytun moyi ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda, pishloq ishlab chiqarish bo'yicha 4-o'rinda turadi. Yangi va tez o'suvchi tarmoq bu – muzlatilgan mevalarni ishlab chiqarish.

Qishloq xo'jaligining asosini o'simlik yetishtirish tashkil etadi. Italiya uzum hosilini terib olish bo'yicha dunyoda 1-o'rinda, zaytun terimi bo'yicha 2-o'rinda turadi. Umumiyligi hosilning 1/3 qismini pomidor (dunyoda 3-o'rinni) tashkil qiladi. Italiya limon, apelsin, greypfrut kabi sitrus mevalar, turli meva va sabzavotlar, shuningdek, tamaki va qand lavlagi yetishtiradigan yirik davlatlardan biridir. Donli ekinlaridan bug'doy, makkajo'xori, guruch yetishtiriladi. Dukkakli o'simliklardan faqat yashil no'xat eksport qilinadi, qolgan dukkakli o'simliklar ko'pincha chorva mollariga yem tariqasida beriladi.

Italiya qishloq xo'jaligining eksport qiladigan yana bir sohasi bu – gulchilik. Chorvachilik mahsulotlari (yirik shoxli mollar, cho'chqa, qo'y, echki, uy parrandalari) tannarxi qimmatliligi tufayli unchalik ko'p foyda keltirmaydi.

Italiya uchun tashqi savdo-sotiq muhim ahamiyatga ega. Eksport mahsulotlarining 10 foizini avtomobillar va ular uchun ehtiyyot qismlarni ishlab chiqarish tashkil qiladi. Mamlakat dunyoda traktor ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda turadi. Bundan tashqari elektron uskunalar, mebel, kiyim-kechak, poyabzal, gazlama, qog'oz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, makaron va qandolat mahsulotlarini eksport qiladi.



Venetsiya butun dunyoga go'zal ko'chalari bilan tanilgan. U yerda yo'llar o'rnda kanallar, avtomobillar o'mida gondolalar joylashgan

YEVROPA



Diqqatga sazovor joylari

Italiya xorijlik sayyohlarini qabul qilish bo'yicha dunyoda 3-o'rinda turadi (2003-yilda 40 mln. kishi). Mehmonxona, dam olish maskanlarining soni bo'yicha Yevropada 1-o'rinda, dunyoda esa 3-o'rinda turadi. Mamlakat o'zining muzeylari, arxitektura va tarixiy san'at asarlari, turli davrlarga oid obidalari, haykaltaroshlik namunalarini,

Kolizey milodning 80-yilida qurilgan.
Bu yerda Rimda mashhur bo'lgan gladiatorlar janglari o'tkazilgan



Italiya pazandalik an'analari bilan tanilgan. Mamlakatning deyarli barcha restoranlarda pitsa, pishloq va vino stolga tortiladi

O'rtayer dengizi tabiatni, shuningdek, tog'lar, Alp ko'llari, ma'dan buлоqlar va dengiz yaqinida joylashgan kurortlari bilan mashhur.

Karnavallar va festivallar orasida Venetsiya kinofestivali va karnavali, «Florensiya mayi» musiqiy festival va Milan teatridagi «La skala» opera mavsumlari ajralib turadi. Bir qancha shahar va tarixiy markazlar (Venetsiya, Verona, Rimning markazi qismi, Florensiya, Piza va boshqalar). YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.



Rimdagi Trevi favvorasi sayyohatchilarni o'ziga jalb qiluvchi mashhur go'shalardan biri sanaladi

Latviya



Poytaxti: Riga

Maydoni: 65 ming km²

Aholisi: 2,3 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: latish tili

Aholisining diniy tarkibi:
luteranlar – 33%, katoliklar
– 24%, pravoslavlavlari – 9%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: lat



Qadimiy Yevropa uslubida ishlangan haykalning bir qismi (Riga)

Umumiy ma'lumotlar

Latviya Respublikasi – Yevropaning shimoli sharqida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – president. Latviya – YI a'zosi.

Yirik shaharlarda latish tilidan tashqari rus va ingliz tillarida so'zlashishadi.

Aholisining etnik tarkibi: latishlar – 58%, ruslar – 30%, beloruslar – 32%, ukrainlar – 3%.

Riganing yoshi 800 dan oshgan



Xo'jaligi

Latviya o'tish davri iqtisodiyotini boshdan kechirmoqda. Mamlakatda energetika, qishloq xo'jaligi, transport mashinasozligi, asbobsozlik, radio va elektrotexnika, yog'ochsozlik, qog'oz, kimyo, farmatsevtika va yengil sanoatlari rivojlangan. Bundan tashqari, mamlakatda parfumeriya, kosmetika (pardoz buyumlari) mahsulotlarini chiqarish va qahraboga ishlov berish ishlari amalga oshiriladi. Latviyada go'sht-sut chorvachiligi, bekon cho'chqachiligi, baliq va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoatlari rivojlangan. Bu yerda bug'doy, arpa, kartoshka, qand lavlagi yetishtiriladi. Mahalliy hunarmandlar jun, kanop va kulolchilik mahsulotlarini, qahrabo bezaklar, yog'och o'yinchoqlar ishlab chiqarishadi. Davlatning yana bir foyda keltiruvchi tarmog'i turizmdir. Latviya mashinasozlik mahsulotlari, yog'och-taxta va gazlama eksport qiladi.

Tabiat

Mamlakat hududida baland bo'limagan Kurzeme, Vidzeme, Latgale va Augshzeme qirlari joylashgan. Kurzeme va Vidzeme qirlari orasida Zemgal tekisligi va O'rta Latviya pasttekisligi joylashgan. Dengiz qirg'og'i bo'ylab pasttekislik va mashhur plajlar joylashgan. Dengizda Kurzeme oroli joylashgan bo'lib, uni Riga ko'rfazi dengizdan to'sib turadi.

Latviya iqlimi mo'tadil dengiz iqlimi bilan mo'tadil kontinental iqlim o'rtasida. Mamlakatda 3 mingdan ortiq ko'l mavjud. Ignabargli va keng bargli o'rmonlar mamlakat hududining 45 foizini, botqoqliklar 10 foizini egallagan. Dengiz qirg'oqlarida qahrabo uchraydi.

Litva



Poytaxti: Vilnus

Maydoni: 65,3 ming km²

Aholisi: 3,4 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: litva tili

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 80%, luteranlar – 10%, pravoslavlavlari – 5%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: lit



Boltiq dengizi qirg'og'idan qahrabo bo'lagini topish mumkin

Kaunasdagi «Oqqush» ratushasi

Umumiy ma'lumotlar

Litva Respublikasi – Yevropaning shimoli sharqidagi davlat bo'lib, g'arbiy qismi Boltiq dengiz qirg'oqlariga to'g'ri keladi. Davlat boshlig'i – prezident. Litva – YI a'zosi.

Aholisining etnik tarkibi: litvaliklar – 81%, ruslar – 9%, polyaklar – 7%, beloruslar – 1,6% tashkil etadi.

Tabiat

Boltiq dengizi qirg'og'ida dengiz bo'yidagi tekisligi va Kursh tili joylashgan. Mamlakatning g'arbiy qismini Jamayte qirlari, sharqiy qismini esa Aukshlays qirlari egallagan. Tepaliklar orasida O'rta Litva pasttekisligi joylashgan. Mamlakat hududida ko'plab daryo va kichik ko'llar bor. Hududning 6 foizini 40 mingdan ziyod torf botqog'i egallagan.

Iqlimi mo'tadil dengiz iqlimidan (g'arbda) mo'tadil kontinental iqlimga (sharqda) o'zgaradi. Hududning 31 foizini aralash o'rmonlar egallagan.

Litvada mashhur Kursh tili milliy bog'i joylashgan (qumtepalar, qarag'ayzorlar, plajlar).



Xo'jaligi

Litva – iqtisodi o'rta rivojlangan mamlakat. Ichnalina AES kerakli elektr quvvatini 78% ishlab chiqaradi (u yopilish arafasida turibdi). Mamlakatda granit, ohaktosh, qahrabo qazib olinadi. Neftni qayta ishslash zavodi faoliyat yuritmoqda. Litvada mashinasozlik (kemasozlik, elektron sanoat), metallsozlik, kimyo,



yog'ochsozlik, mebel ishlab chiqarish, to'qimachilik va tikuvchilik sanoatlari, shuningdek, go'sht-sut chorvachiligi, cho'chqachilik, parrandachilik va baliqchilik yaxshi rivojlangan. Boshqoli o'simliklar va yem-xashak ekinlari, kartoshka, sabzavotlar, qand lavlagi va kanop o'stiriladi. Mahalliy hunarmandchilik mahsulotlariga qahrabodan yasalgan bezaklar, chinni va yog'och o'yinchoqlar kiradi.

Asosiy eksport mahsulotlari: qurilish mollari, gazlama, kiyim-kechak, mashinasozlik mahsulotlari va yog'och-taxtalar.

Boltiq dengizi qirg'og'i

Lixtenshteyn



Poytaxti: Vadus

Maydoni: 157 km²

Aholisi: 35 ming kishi
(2007)


Rasmiy tili: nemis tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 80%

Davlat tuzumi:

konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: Shveysariya
franki



Alpliklarga xos usulda qurilgan koloritli uylar ko'pincha qishloqlarni tashkil etadi

Umumiy ma'lumotlar

Lixtenshteyn knyazligi – Yevropa markazida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – knyaz. Mamlakatning diplomatik va konsullik vakolatlarini chet ellarda Shveysariya amalga oshiradi. Mamlakatni etnik qatlami – lixtenshteynliklar – 66%, germanoshveysarlar – 34%, qolgani avstriyaliklar, nemislar va italyanlar.

◆ Alp tog'lari manzarasi



Tabiatি

Lixtenshteyn Reyn daryosining o'ng sohilida, Boden ko'lidan janub tomonda joylashgan. Mamlakatning 3/4 qismi hududini Avstriya Alp tog'lari tizmasining tarmoqlari egallagan. Tog'larning balandligi 2000 metrdan oshadi. Relyefi Reyn vohasidan boshlab o'rmonli tog' etaklariga va qor bilan qoplangan tog' cho'qqilariga ko'tariladi.

Mamlakat iqlimi mo'tadil. Yanvarning o'rtasida harorat -1°C , iyulda esa $+20^{\circ}\text{C}$. Tekislikda harorat kam hollarda 0°C dan pastga tushadi. Ammo Alp tog'larda qishki qahraton -20°C bo'lishi mumkin. Yog'ingarchilik yiliga 7000 mm. Reyn vodiysidagi tog'larda esa 1200 mmni tashkil etadi. Alp tog' yo'nbag'irlarida o'rmon, subalp va alp yaylovlari joylashgan. Mamlakat g'arbida, Reyn vodiysida qayirdagi o'tloqlar, bog' va uzumzorlar joylashgan.



◆ Lixtenshteyn olmazorlari knyazlikdan tashqarida ham mashhur

Xo'jaligi

Lixtenshteyn – xo'jaligi yaxshi rivojlangan davlat. Mamlakat iqtisodiyotining negizini bank moliya sektori, turizm va yuqori darajali elektron mahsulotlar eksporti tashkil qildi. Chet el sarmoyalari (birinchi navbatda Shveysariya) ham ahamiyatlidir. Lixtenshteyn o'ziga chet el yollanma ishchi kuchini jalb qila olgan. Har kuni 6 mingga yaqin Avstriya va Shveysariyadan muhojirlar Lixtenshteynga ish qidirib keladi.

Eksport uchun ishlaydigan asosiy sanoatlar – asbobsozlik, vakuum texnikasi, mikroprotessorlar, elektron sistemalar hamda yadro fizikasiga oid jihozlarni ishlab chiqarish. Bundan tashqari Lixtenshteynda sun'iy chinni tishlar va tish protezlari (dunyoda ishlab chiqariladigan mazkur mahsulotning yarmi) tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i – go'sh-sut chorvachiligi.

Asosiy eksport mahsulotlari: tor ixtisoslashgan mashinasozlik mahsulotlari, stomatologik vositalar va xo'jalik jihozlari.

Lyuksemburg



Poytaxti: Lyuksemburg

Maydoni: 2,6 ming km²

Aholisi: 500 ming kishi (2007)

Rasmiy tillari: lyuksemburg, fransuz, nemis tillari

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 87%, qolgani – protestantlar, musulmonlar va boshqalar.

Davlat tuzumi:

konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: yevro



Umumiy ma'lumotlar

Lyuksemburg, Buyuk

Lyuksemburg Gersogligi – Yevropaning shimali g'arbiда joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – gersog. Lyuksemburg – YI a'zosi. Aholisining etnik tarkibi: lyuksemburqlar – 63%, italyanlar, portugallar, fransuzlar, belgiyaliklar va nemislar – 37%.



Xo'jaligi

Lyuksemburg – iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardan biri. YIMning 83% xizmat ko'rsatish sektoriga to'g'ri keladi. Ishga layoqatli aholining 90% mazkur sohada ishlaydi. Lyuksemburg – Yevropaning yirik moliyaviy markazlaridan (210 ta bank; Yevropa valuta bozorini 10%) biridir. Mamlakatdagi barcha aholi tekin ijtimoiy va tibbiy yordam bilan ta'minlangan. Sanoatining asosiy yo'nalishi – qora metalluriya. Mamlakatda sut va go'sht chorvachiligi yaxshi rivojlangan. Ishlov beriladigan yerlardan olinadigan mahsulotlarning yarmi mollarga yem-xashak tarzida beriladi. Bu yerda uzum (mamlakat mozel vinolari bilan mashhur), meva, savzovat va gullar yetishtiriladi.

Eksport qilinadigan asosiy mahsulotlar: po'lat, to'qimachilik, kimyoiviy mahsulotlar va plastmassa.



Mamlakatda ko'plab olmaxonlarni uchratish mumkin

Tabiatি

Mamlakat hududi qirlardan iborat. Shimolda Arden tog' massiv qismlari, janubda tepaliklar sharq tomon zina tarzida pasayib boradi shunindek bu yerda, voha daryolarini mavjud.

Lyuksemburg iqlimi mo'tadir, dengiz iqlimidan kontinental iqlimga o'zgaruvchan. Iyulning o'rtacha harorati +18°C, yanvarda 0°C... -2°C. Ammo Ardeni tog'larida qor yog'adi va qattiq sovuq bo'ladi (-15°C), o'rtacha yog'ingarchilik yiliiga 700–850 mm.

Daryolar asosan Germaniya chegarasi bo'ylab oquivchi 34 km uzunlikdagi Mozel daryosi havzasiga tegishlidir. Mamlakat hududining 1/3 qismini o'rmonlar (tekisliklarda eman va qora qayin o'rmonlari, tog'larda ignabargli o'rmonlar), daryo vodiylarini esa bog'lar va uzumzorlar egallagan.

Gullar – Lyuksemburgdagi eski uylardan iborat ko'cha



Makedoniya



Poytaxti: Skopje

Maydoni: 25,7 ming km²

Aholisi: 2 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: makedon tili

Aholisining diniy tarkibi:

pravoslavlavlari – 70%,
musulmonlari – 29%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: dinor



Tabiiy sharoitlar
Makedoniya
aholisiga uzum
yetishtirish imkonini
beradi

Umumiy ma'lumotlar

Makedoniya, Makedon Respublikasi – Yevropaning janubiy-sharqiy qismidagi Bolqon yarimorolining janubiy qismida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. 1991-yil Yugoslaviya tarqalganda Makedoniya mustaqillikni qo'liga kiritdi. Aholisining etnik tarkibi: makedonlar – 64%, albanlar – 25%, turklar – 4%, lo'lilar – 3%, serblar – 2%.

Skopje shahri (Makedoniya poytaxti) Rim imperiyasi davridan mashhur. 1963-yildagi zilzilada shaharning 70 foizi vayron bo'lgandan beri u yerda hamon tiklanmagagan uylar mavjud



Tabiat

Makedoniya hududining 80% dan ziyodrog'i o'rta balandlikdagi, cho'qqisi tekis tik tog'lardan iborat. Ular orasida Vardar va Srna (Sana) daryo havzalari va vodiylari joylashgan. Mamlakat hududida karst holati tarqalgan. Makedoniyada yuqori darajadagi seysmiklik kuzatiladi.

Tog' zonalardagi iqlim quruq kontinental, janubi sharqda esa o'rtayer dengizi hukmron. Mamlakat hududining 39 foizi o'rmonlar bilan qoplangan, tog' bilan o'ralgan chuqur yerlarda dashtlar mavjud.



Xo'jaligi

Mamlakat hududida xromit, qalay-rux, mis, temir, toshko'mir qazib olinadi. Neftni qayta ishlash zavodi bor. Makedoniyada qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, to'qimachilik, charm-poyabzal, tamaki va oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Mamlakatda bug'doy, guruch, makkajo'xori, uzum, meva va sabzovatlar, tamaki, paxta, kartoshka yetishtiriladi. Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik rivojlangan. Mahalliy hunarmandchilik ham rivojlangan bo'lib aholi gilam, teri, mo'yna, yog'och o'ymakorligi mahsulotlarini ishlab chiqarishadi.

Asosiy eksport mahsulotlari rangli metall, mevalar, tamaki, sabzavot, pishloq, qo'y go'shti hisoblanadi.

◆ Makedoniya aholisi qo'yichilik bilan ham shug'ullanadi

Malta



Poytaxti: Valletta

Maydoni: 316 km²

Aholisi: 400 ming kishi (2007)

Rasmiy tillari: Malta, ingliz tillari

Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 94%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yevro



Maltadagi sayohatchilarga xizmat ko'rsatadigan kema

Xo'jaligi

Malta iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari – bu turizm, birja va tranzit-transport amaliyotlari. Mamlakatda kemasozlik, elektronika, to'qimachilik, tikuvchilik va farmatsevtika sanoatlari rivojlangan. Aholi mahalliy hunarmandchilik bilan band, kumush va oltinga ishlov berish, shisha ishlab chiqarish va ularga bezak berish shular jumlasidandir.

Malta hududidagi yerning hosildorligi past, lekin sun'iy sug'oriladigan yerlarda citrus mevalari, uzum, zaytun, tamaki, sabzavotlar (qalampir, pomidor, piyoz, karam) va gullar o'stiladi. Ammo, oziq-ovqatning katta qismi xorijdan olib kelinadi. Aholi qo'y, echki, cho'chqa ko'paytirish va baliqchilik bilan shug'llanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: transport jihozlari va gazlamalar.

Umumiy ma'lumotlar

Malta Respublikai – O'rtayer dengiz markazida joylashagan oroldagi davlat. 1964-yilda mustaqillikni qo'lga kiritguncha Buyuk Britaniyaga qarashli bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident. Malta YI hamdo 'stlik a'zosi.

Aholining – 98% maltaliklar.



Mamlakat poytaxtidagi ko'plab musiqachilar ko'chada qo'shiq ayтиб kun ko'rishadi

Vallettadagi ba'zi tor ko'chalarda katta qiyaliklar bor



Tabiat

Mamlakat Malta arxipelagida joylashgan. Arxipelagdagi Malta, Gotso va boshqa orollarni ko'plab bo'g'ozlar bilan ajratilgan. Orolning katta qismi ohaktosh yassi tog'liklariда joylashgan bo'lib g'arbiy va janubiy sohillari tik. Mamlakat relyefida karst hodisasi natijasida hosil bo'lgan shakllar ko'p uchraydi. Kichik daryolar janubdan shimolga qarab oqadi, yozda esa qurib qoladi. Malta uchun chuchuk suv yetishmasligi oddiy hol (yomg'ir suvini to'plashadi. Ichimlik suvini Sitsisiya orolidan olib kelishadi).

Mamlakat iqlimi quruq o'rtayer dengizi hukmron. Yoz faslida Afrikadan sirokko (garsmel) shamoli keladi. Yog'ingarchilik sentabrdan maygacha bo'ladi.

O'simliklardan Maltada kserofit butalari, ignabargli daraxtlar va kaktuslarni ko'rish mumkin. Orolda tuproq kamligi uchun oldinlari savdogar va harbiylar kirish solig'i sifatida materikdan tuproq olib kirishga majbur bo'lishgan. Hayvonot olamining eng ko'p uchraydigan vakillari – dengiz toshbaqlari va delfinlardir.

Moldova



Poytaxti: Kishinyov

Maydoni: 33,8 ming km²

Aholisi: 4 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: moldavan tili

Aholisining diniy tarkibi: pravoslavlavlari

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Moldova ley



Moldovada ishlab chiqariladigan vino va konyaklar dunyoning ko'plab mamlakatlariga eksport qilinadi



Xo'jaligi

Moldaviya (Moldova) – agrar mamlakat. 1990-yildagi iqtisodiy tanazzul ko'plab sanoat korxonalarining yopilishiga, olib keldi. Shu sabab aholini ko'p qismi boshqa davlatlaridan ish qidirishga majbur bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi ekinlari mamlakat hududining 54% egallagan. Moldovaning keng vodiylari va tog' yonbag'irlari bog', uzumzorlar, bug'doy va makkajo'xori dalalari bilan qoplangan. Bu yerda kungaboqar, qand lavlagisi, uzum, mevalar, yong'oq, kartoshka, tamaki va boshqalar yetishtiriladi. Mamlakatda yirik shoxli mol, qo'y (jumladan, qorako'l), cho'chqa va parranda ko'paytiriladi. Bundan tashqari baliqchilik va asalarichilik ham yo'lga qo'yilgan.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: mashinasozlik (qishloq xo'jaligi mashinalari va sovutish uskunalar), vinochilik, konservachilik, yog' mahsulotlari, shakar va tamaki ishlab chiqarish hamda to'qimachilik sanoati rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: vino, konyak, tamaki, mevalar, sabzavotlar, go'sht, gazlamalar.

Umumiy ma'lumotlar

Moldova Respublikasi, Moldaviya – Yevropaning janubi sharqidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Moldova Respublikasining tarkibiga aholisi rus va ukrainalardan iborat, o'zini mustaqil deb e'lon qilgan Pridnestroviya respublikasi ham kiradi. Mamlakatning etnik tarkibi: 64,5% – moldovanlar, 13,8% – ukrainlar, 13% – ruslar, 3,5% – gagauzlar.

Uzum hosilini terish



Karpat tog'laridagi daryo

Tabiat

Mamlakat hududi qirlarga boy tekislik bo'lib vodiylar va jariklar bilan ajratilgan. Shimolda Moldovey-de-Nord platosi va Bels tekisligi, markaziy qismida emanzorli Kodru qirlari, sharqda Nistru tepaligi; janubda Buwyakuluy dashti joylashgan. Moldova hududida relyefning karst ko'rinishi keng tarqalgan.

Mamlakat iqlimi – iliq, mo'tadil kontinental. Moldovada 53 ta suv ombori mavjud. Mamlakatning eng katta tabiatligi – serhosil qora tuproq. O'rmonlar mamlakat hududining 9 foizini egallagan, janubda dashtlar hukmron. Mamlakatda zilzilalar va suv toshqinlari ko'p sodir bo'ladi.

Monako

Poytaxti: Monako
Maydoni: 1,95 km²
Aholisi: 35,6 ming kishi (2007)
Rasmiy tili: fransuz tili
Aholisining diniy tarkibi: katoliklar
Davlat tuzumi: konstitutsiyaviy monarxiya
Pul birligi: yevro



Diqqatga sazovor

joylari

Xorijlik sayyoohlarni Monakoga jalg qiluvchi narsalar: dunyoga mashhur Monte-Karlodagi kazinolar, plajlar, salomatlik markazlari, Monte-Karloda o'tkaziladigan «Formula 1» avtopoygalarli, xalqaro san'at va sirk festivallari, mashhur opera teatri, dengiz akvariumi bor okeanografik muzey bilan jalg etadi.

Monakodagi plaj juda ham mashhur



Umumiy ma'lumotlar

Monako Knyazligi – Yevropaning g'arbida, O'rtayer dengizi qirg'oqlarida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – knyaz. Aholisining etnik tarkibi: monegasklar (tub aholi) – 16%, fransuzlar – 47%, italyanlar – 16%. Monako aholisi barcha soliq to'lovlardan ozod, ammo ularga kazinolarga borish taqiqlanadi. Mamlakatning soliq tizimi ko'pchilik odamlarni o'ziga jalg etadi. Aholining 22% 65 yoshdan oshganlar. Ularning 70% Fransiya va Italiya fuqarolari bo'lib, Monako mahalliy korxonalarida ishlashadi.



Monako poytaxtining saroy maydonida har kuni faxriy qorovullar gvardiyachilarining marshi o'tadi

Tabiat

Monako O'rtayer dengizi bo'yidagi uzunchoq yer bo'lagi mintaqasida joylashgan. Baland qoyali sohildan katta burun turtib chiqqan.

Mamlakatda o'rtayer dengizi iqlimi hukmron, ya'ni ob-havo mo'tadil: qishda yoqimli va iliq, yozda esa issiq va quruq. Yilning 300 kuni quyoshlidir. Dengiz bo'yidagi Alp tog'lari Monakoni shimaliy sovuq shamollardan asraydi, ammo goh-gohida quruq va sovuq mistral shamoli kelib turadi. Monakoning o'simlik dunyosi o'rtayer dengiziga xos, ammo bu yerda ko'plab madaniy ekinlar ko'p, jumladan, zaytun, anjir, anor, bodom va uzumni uchratishimiz mumkin. Yaponiyadan bu yerga mushmula va dafna daraxti, Amerikadan esa – aloy, kaktus va agavalar olib kelingan. Budan tashqari xurmo, banan va sitrus mevalarni yetishtirishadi.

Xo'jaligi

Asosiy daromad manbayi – turizm, bank faoliyati, ko'ngilochar o'yinlar biznesi va pochta markalarini chop etish. Soliq imtiyozlari Monakoni dunyoning xalqaro moliiyaviy markaziga aylantirdi. Mamlakatning ekologik toza korxonalarini elektron va elektromaiishiy asbob-uskunalarini, oziq-ovqat mahsulotlarini, dori-darmon, fayans, chinni buyumlar va esdalik sovg'alar ishlab chiqaradi. Mamlakatda kema ta'mirlash yaxshi rivojlangan. Asosiy eksport mahsulotlari: dori-darmon va asbob-uskunalar hisoblanadi.

Niderlandiya



Poytaxti: Amsterdam

Maydoni: 41,5 ming km²

Aholisi: 16,4 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: niderland tili

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 34%, protestantlar – 25%, musulmonlar – 3%, ateistlar – 36%

Davlat tuzumi:

konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: yevro

Umumiy ma'lumotlar


Niderlandiya Qirolligi – G'arbiy Yevropada joylashgan davlat.

Davlat boshlig'i – qirol (qirolichcha).

Niderlandiya – YI a'zosi.

Aholisining etnik tarkibi:

niderlandlar – 80%, flamandlar – 11%, nemislar, frizlar va boshqalar – 9%. Niderlandiya – dunyodagi urbanizatsiyasi yuqori bo'lgan davlatlardan biri.



Rotterdam bandargohidagi o't o'chirish kermasi



Tabiat

Niderlandiya O'rta Yevropa tekisligining g'arbiy eng past qismini egallagan. Mamlakat hududining 2/5 qismi dengiz sathidan pastda joylashgan bo'lib, dengizdagi kuchli po'rtanalar paytida suv toshqini xavfi katta. Qumtepaliklar natijasida G'arbiy friz orollari hosil bo'lgan, bu orollarni shimoliy qирг'oqlardan vattlar ajratib turadi. Vattlar dengiz suvi ko'tarilganda to'ladigan, dengiz suvi pasayganda qurib qoladigan o'zanlardir. O'rta asrlardan boshlab niderlandlar dengiz toshqinlaridan o'zlarini saqlash maqsadida dambalar, shluzlar, turli kanallar barpo etishgan.

Niderlandiya dengizni mag'lub qilgan davlat hisoblanadi. Qirg'oqbo'yи hududlarning katta qismini dengiz hududining ma'lum qismini quritib o'zlashtirilgan yerlar tashkil qilgan.

Niderlandiya iqlimi – mo'tadir dengiz iqlimi. Yil bo'yi, xususan qish faslida siklonlar, g'arbiy va janubiy-g'arbiy shamollar esadi. Qor kam yog'adi, hatto qish faslida ham yomg'ir yog'adi. Tez o'zgaruvchan va quyiq tumanlar bo'ladi.

Daryolar tizimi juda zikh joylashgan. Kema qatnaydigan daryolar kanallar yordamida birlashtirilgan. Bu yerda G'arbiy Yevropaning eng yirik 3 ta daryosi va deltalari joylashgan.

Niderlandiyada ekinzorlar ko'p, jumladan, haydalgan yerlar, urug' sepilgan ekinzorlar va hokazolar. Qishloq xo'jaligi yerlari mamlakat hududining 65 fozini tashkil qiladi. O'rmonlarning katta qismi XX asr boshlarida yo'q qilingan.

Xo'jaligi

Niderlandiya – iqtisodiy rivojlangan davlat. Hududi kichikligiga qaramay dunyo YIM 1% ni ishlab chiqaradi. Xizmat ko'rsatish sohasi mamlakatning YIMning 73% ni tashkil qiladi, sanoat va qurilish sohasi 24,5% ni qishloq xo'jaligi va baliqchilik esa 2,5% ni tashkil etadi.


Xizmat ko'rsatish sektorining asosiy tarmoqlari: transport va aloqa, kredit-moliya tizimi, ITTKI va ta'lim, xalqaro turizm infrastrukturasi.

Tog'-kon sanoatida tabiiy gaz birinchi o'rinda turadi (dunyoda qazib olinadigan gazning 3,1% ni qazib oladi; dunyo bo'yicha 6-o'rin).

Qayta ishlash sanoati ikki yetakchi tarmoqdan iborat: an'anaviy (transport mashinasozligi, asbobsozlik, metallurgiya, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati) va yangi ilmiy kashfiyotlar bilan bog'liq (radioelektronika, elektrotexnika, neft-kimyo va farmatsevtika sanoatlari) tarmoqlar. Rotterdam atrofida neftni qayta ishlash va neft-kimyo sohasidagi Yevropaning eng yirik sanoat korxonalari joylashgan. Eng tez tankerlar bu yerga import qilinadigan neftni yetkazib beradi. Mazkur korxonalar Yevropa mamlakatlarini o'z mahsulotlari bilan ta'minlaydi.

Oziq-ovqat sanoati sut va go'sht mahsulotlarini hamda import qilingan kakao va tamakini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Niderlandiya dunyoda eksport qilinadigan sariyog' va pishloq mahsulotlarining 1/5 qismini, quyiltirilgan sut mahsulotlarining 1/3 qismini va shokolad mahsulotlarining 1/5 qismini eksport qiladi.

Qishloq xo'jaligi samaradorligi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymatining 2/3 qismi chorvachilikka tegishli. Niderlandiya tovuq



Gollandiyaning Lissa qishlog'ida katta bog'lar, xiyobonlar va dalalarga turli navdag'i gullar (asosan lolalar) ekilgan. Bu yerda gullar namoyishi, yarmarkalar hamda professional va havaskor gulchilar uchun ko'rgazmalar o'tkaziladi

mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchilik qiladi. Ba'zi yillarda dunyodagi tuxum eksportining 50% Niderlandiga tegishli bo'lган. Issiqxonalar egallagan hudud bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi. U yerda eksport uchun erta pishar pomidor, qulupnay, uzum, shaftoli va olxo'ri yetishtiriladi. Ochiq joylarda esa karam, sabzi, bodring, piyoz yetishtiriladi.

Niderlandiya gullar o'stirish va eksport qilish bo'yicha dunyoda yetakchilik qiladi. Dunyoda uzulgan gullarning 60% va tuvaklarda o'stiriladigan gullarning 50% Niderlandiyaga tegishli. Har yili 2 mldr. bosh lola piyozi o'stiriladi. Lolaning 800 dan ortiq turi yetishtiriladi. Lola, sunbul, nargis, atirgul, xrizantema gullari, urug'lari va ko'chatlari eksport qilinadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: sanoat mahsulotlari – 60%, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari – 25%, tabiiy gaz – 10%.



Amsterdam – yuzlab kanallar shahri. Mazkur kanallar orqali 600 dan ortiq ko'priklar o'tgan

Norvegiya



Poytaxti: Oslo

Maydoni: 385,2 ming km²

Aholisi: 4,7 mln. kishi (2007)


Rasmiy tili: norveg tili

Aholisining diniy tarkibi:
protestantlar, luteranlar – 92%

Davlat tuzumi:

konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: Norvegiya kronasi



Umumiy ma'lumotlar

Norvegiya Qirolligi – Yevropa shimolidagi davlat. Davlat

boshlig'i – qirol. Aholisining entik tarkibi: norveglar – 98%, shvedlar, finlar, danlar, saamlar – 2% .

Saamlar mamlakat shimolidagi aholi soni – 40 ming kishi.

Tabiat

Norvegiya – dengiz bo'yida joylashgan va tog'li mamlakat. Qirg'oqlari fiord va toshli qoyalar bilan bo'lingan. Mamlakatning deyarli hamma qismimi katta vodiylargaga boy Skandinaviya tog'lari egallagan. Janubiy va Markaziy qismlarini baland yassitog'lar tashkil qiladi. Ular muzliklar bilan qoplangan.

Norvegiya iqlimi – mo'tadil, okean iqlimi. Shimolda esa subarktik iqlim hukmron. Mamlakat daryolarga boy, deyarli hammasi sersuv, lekin qisqa. Norvegiyada ko'llar soni 200 mingdan ortiq. Shimoliy kenglikda 70%, shimolda va cho'qqilarida tundra o'rmonlari, janubda esa tayga o'rmonlari, janubning eng yuqori nuqtasida keng bargli o'rmonlar joylashgan.



Norvegiyaning
syomga balig'i
butun dunyoda
ajoyib tansiq taom
sifatida mashhur

Xo'jaligi

Norvegiya – iqtisodiyoti yuqori rivojlangan davlat. YIMning 62% xizmat ko'rsatish sektoriga, 23% tog'-kon sanoatiga, 13% qayta ishlash va qurilish sanoatiga to'g'ri keladi (2004). Aholining turmush tarzi, darajasi va ish haqi nuqtayi nazaridan dunyoda eng yuqori mamlakatlardan biridir. Norvegiyada xorijiy turizm yaxshi rivojlangan. Mamlakat elektr quvvati resurslariga boy. G'arbiy Yevropadagi neft zaxirasining 3/4 qismi va tabiiy gaz zaxirasining 1/2 qismi Shimoliy dengizning Norvegiya sektoridagi konlarda joylashgan. Konlarda, shuningdek, toshko'mir, temir, ilmenit qazib olinadi. Elektr quvvatning 100% ni GES ishlab chiqaradi. Arzon gidroquvvatning mo'lligi Norvegiyada elektrsig'imli aluminiy, magniy, nikel, mis, rux kabi moddalardan turli mahsulotlar ishlab chiqarishga qulay sharoit yaratadi. Norvegiya iqtisodiyotining rivojlangan tarmoqlaridan yana yog'ochsuzlik, selluloza-qog'oz, kemasozlik va elektron sanoatlarini kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligi mamlakatning 3,5% hududini egallagan xolos. Mamlakat baliqchilik, baliqni qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha dunyoda yuqori o'rinda turadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, gaz, mashina va uning jihozlari, metall va metall buyumlari, baliq mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar va kemalar.

Polsha

Poytaxti: Varshava

Maydoni: 312,7 ming km²


Aholisi: 38,1 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: polyak tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 96%


Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: zlotiy



Umumiy ma'lumotlar

Polsha Respublikasi – Markaziy Yevropa shimalidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Polsha – YI a'zosi. Etnik qatlami: polyaklar – 98%, nemislar, beloruslar, ukrainlar va litvalar – 2%.




Polshadagi Visla daryosi ko'prigi
yaqinidagi chorraha

Xo'jaligi


Mamlakat iqtisodiyoti qayta ishslash va tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligi va turizmga tayanadi. Polshada Yevropaning eng yirik toshko'mir koni – Verxneselezevsk joylashgan. Mamlakatda qo'ng'ir ko'mir, mis, qalay-rux rudalari, osh tuzi qazib olinadi, Galisiyada kichik hajmda neft va tabiiy gaz qazib ham olinadi. Energoquvvatning asosiy qismi Rossiyadan olinadi. Elektr quvvatining 98% ni IES ishlab chiqaradi. Polshada qora va rangli metallurgiya turli mashinasozlik, neftni qayta ishslash, to'qimachilik, yog'ochsozlik, kimyo va neft-kimyo, teri-poyabzal, oziq-ovqat va baliqchilik sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Mamlakatning pasttekisliklarida go'sht-sut chorvachligi, cho'chqachilik, yilqichilik va asalarichilik yo'lga qo'yilgan. Polshada kartoshka, mevalar, bug'doy, arpa, qand lavlagi, tamaki va boshqa ekinlar yetishtiriladi. Yog'och o'ymakorligi, gobelen ishlab chiqarish, chinni va shisha buyumlar tayyorlash, yog'och qutilar yasash va kashta tikish kabi hunarmandchilik sohalari rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: mashinasozlik va qora metallurgiya mahsulotlari, toshko'mir, go'sht, baliq, meva, sabzavot va binokorlik mahsulotlari.



Kumush yugirtirilgan xoch. XVI asrdagi ustalar tomonidan yasalgan. Polshaning Torun shahrida joylashgan



Ksendlar messa
ibodatini qilmoqda

1939–1945-yillarda
Varshava shahrining
85 foizi vayrona
holiga kelganligi
tufayli hozirda shahar
zamonaviy binolar
bilan to'lgan



Diqqatga sazovor joylari

Polshaning asosiy turizm markazlari: Zakopane tog'-chang'i kurorti, Mazur ko'li, Malborkdagi o'rta asrlarga oid qasr, Poznan, Vrotslav Zamoss shaharlarining qadimiy arxitektura san'ati durdonalari va polyak zodagonlarining qasrlari va saroylari. Polshada qadimiy shaharlar ko'p. Urush vaqtida, 1939–1945-yillarda ular katta ziyon ko'rgan. Varshava shahrining 85% vayron bo'lgan. Keyin eski shahar binolari tiklangan, lekin shahar yangi imoratlarga to'lgan. Markaziy qismida qiroq saroyi, gotik usulidagi av. Yana ibodatxonasi, Radzivillov saroyi, katta teatr, av. Kresma qabristoni va Shopen muzeyi joylashgan.

Krakov shahri esa mamlakatning avvalgi poytaxti bo'lgan (1038–1596). Uning markazida XIV–XVI asrlarga oid Vavel qirollar saroyi (polsha qirollari shu yerga ko'milgan), gotik usulidagi av. Mariya ibodatxonasi, o'rta asrlarda qurilgan shahar maydoni, dominikan va fransisklar monastirlari joylashgan.



O'rta asrlarda bunyod etilgan Malbork qal'asi Polshada joylashgan

Krakov shahridan 60 km tashqarida Osvensim shahri joylashgan. 1940–1945-yillarda bu yerda natsislarning eng yirik konslagerlari «Aushvis» va «Birkenau» bo'lgan (bu yerda 2,5 mln. odam qurban bo'lgan).

Chenstoxova – Polshaning asosiy diniy markazi bo'lib, bu yerda Yasna-Gura monastirida katoliklarning muqaddas ikonasi («Qora Madonna») saqlanadi. Uspeniya kuni (15 avgust) monastiriga 500 mingga yaqin ziyoratchilar kelishadi.



Olma Polshaning
asosiy mevali
daraxti sanaladi

Tabiat

Shimolda mamlakat Boltiq dengizi bilan tutashgan. Mamlakatning shimoliy va markaziy hududini Polsha tekisligi egallagan. Uning janubiy qismida Sileziya pasttekisligi (Odra daryosi bo'yab), Krakov-Chenstoxova qirlari, Sventoksh tog'lari joylashgan Kichik Polsha qirlari va Lyublin qirlari joylashgan. Polshaning janubiy qismini g'arbda Sudet, sharqda G'arbiy Karpat (Slovas, O'rta Beskid, Tatra, Sondes Beskid, Quyi Beskid va Beshaddan iborat) tog'lari egallagan.

Mamlakat iqlimi – mo'tadil dengiz iqlimi (shimol va g'arb), kontinental iqlim (sharq va janubi sharq) xususiyatlariga ham ega.

Visla va Odra daryolari kemalar yurishi uchun kanallar bilan birlashtirilgan. Polsha hududida muzlikdan hosil bo'lgan 9 mingga yaqin ko'l mavjud. Shimoli sharqda bir guruh ko'llar (3 mingga yaqin) joylashgan.

Mamlakat hududining 27% o'rmonlar bilan qoplangan bo'lib, ularning 5% dan ortig'i keng bargli o'rmonlar va 19% ignabargli o'rmonlardir. Eng yirik o'rmon massivlari shimoli sharqda va janubda joylashgan. Qolgan hududlar dalalar va butazorlar bilan qoplangan. Mazoves va Polsha pasttekisliklarida Boltiq bo'yib qirg'oqlari bo'yab ko'p botqoqliklar joylashgan.

Portugaliya



Poytaxti: Lissabon

Maydoni: 92,3 ming km²

Aholisi: 10,7 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: Portugal tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 94%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yevro



Umumiy ma'lumotlar

Portugaliya Respublikasi – Yevropaning janubi g'arbida joylashgan davlat. U Pireney yarimorolini g'arbida joylashgan bo'lib, Madeyra arxipelagi va Azor orollarini o'z ichiga oladi. Davlat boshlig'i – prezident. Portugaliya – YI a'zosi. Aholisining etnik tarkibi: portugallar – 98%.

Tabiat

Portugaliyaning shimoli va shimoli sharqidagi tepaliklar va tog' tizmalarini daryo vodiylari ajratib turadi.

Dengiz bo'ylab janub tomonga pasttekislik cho'zilib ketgan.

Janubda Serra-da-Algarvi qiri bor. Maydera va Azor orollarida baland cho'qqili vulqondan hosil bo'lgan. Mamlakatda zilzilalar ko'p sodir bo'ladi.

Portugaliyada iqlim – subtropik O'rtayer dengiziga o'xshash. Mamlakatda subtropik o'simliklar mavjud. Shimolda kengbargli o'rmonlar, tog'da yaylov va ignabargli o'rmonlar, janubda esa eman va makvislar o'sadi.

Xo'jaligi

Portugaliya – iqtisodiyoti o'rtacha rivojlangan mamlakat. Bu yerda volfram, pirit, uran, simob va mis qazib olinadi. Mis konsentratini ishlab chiqarish bo'yicha YIda 1-o'rinda turadi. Neft va tabiiy gaz Portugaliyaga import qilinadi. Mamlakatda neftni qayta ishlash,

kimyo, farmatsevtika, to'qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal sanoatlari yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari mamlakat uchun hali yangi bo'lgan telekommunikatsion va aerokosmik jihozlarni ishlab chiqarish, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati va mashinasozlik sanoati sekin-asta rivojlanib bormoqda.

Mamlakatda mahalliy hunarmandchilik ham yo'lg'a qo'yilgan. Bular to'qimachilik va o'ymakorlikdir. Makkajo'xori, bug'doy, guruch, kartoshka, pomidor va boshqalar, Maydera va Azor orollarida esa banan, ananas, uzum, shakarqamish yetishtiriladi. Portugaliyada qo'ychilik, cho'chqachilik, yirik shoxli mol yetishtirish, parrandachilik va baliqchilik rivojlangan. Mamlakatda turizm yaxshi rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: kiyim, poyabzal, mashinasozlik mahsulotlari, elektrotexnika va kimyoviy mahsulotlar.



Masih haykali
Portugaliya Ikkinchiji
jahon urushida
betaraflikni saqlab
qolganini ifodalash
uchun Lissabonda
bunyod etilgan

Ruminiya



Poytaxti: Buxarest

Maydoni: 238,4 ming km²

Aholisi: 22,3 mln. kishi (2207)

Rasmiy tili: rumin tili

Aholisining diniy tarkibi:

pravoslavlari – 87%, protestantlar – 7%, katoliklar – 6%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: ley



Umumiy ma'lumotlar

Ruminiya – Yevropaning janubi sharqida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etnik tarkibi: ruminlar – 89%, vengerlar – 7%, lo'lilar – 3%.



Transilvaniyadagi Bran qasri. Bu qasr graf Drakula haqidagi afsona bilan bog'liq

Xo'jaligi

1990-yillarda mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davrda katta qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Asosiy tabiiy boyliklari: neft, tabiiy gaz, toshko'mir, temir va marganes rudalari, boksit va boshqalar. Sharqiy Karpat tog'larida yog'ochsozlik ishlari olib boriladi. Mamlakatda tog'-kon, yog'ochsozlik, neftri qayta ishlash, neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya, kemasozlik, elektrotexnika, avtomobilsozlik, kimyo sanoatlari yaxshi rivojlangan. Makkajo'xori, bug'doy, qand lavlagi, kungaboqar, kartoshka, uzum, meva, sabzavotlar va tamaki yetishtiriladi. Ruminiyada yirik shoxli mollar chorvachiligi, cho'chqachilik, qo'ychilik, parrandachilik va baliqchilik rivojlangan. Mamlakatda turizm ham rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: to'qimachilik, poyabzal, neft va neft mahsulotlari, metall, oziq-ovqat, mashinasozlik va kimyo sanoati mahsulotlari.

Tabiatি

Ruminiyaning shimoliy va markaziy qismlarini Karpat tog'lari kesib o'tadi. Shimoli g'arb tomonda sharqiy Karpat tog'lari, Transilvaniya Alp tog'lari joylashgan. G'arbda G'arbiy Rumin tog'lari bor. Sharqiy va janubiy Karpat tog'lari oralig'ida Transilvaniya yassitog'lari yastanib yotibdi. Transilvaniya Alp tog'lari va sharqiy Karpat tog'lardan janubiy qismdagi Dunay va Qora dengizlargacha quyi Dunay, Beregan tekisliklari va Dobruja yassitog'ligi joylashgan. Janub va janubi g'arbda qattiq zilzilalar bo'ladi. Dunay deltasi hududida ko'l va orollar ko'p.

Ruminiyaning iqlimi mo'tadil kontinental, yozda issiq, qishda qattiq sovuq bo'ladi. Mamlakat hududining 29% o'rmonlar bilan qoplangan.

San-Marino



Poytaxti: San-Marino

Maydoni: 61,2 km²


Aholisi: 30 ming kishi (2007)

Rasmiy tili: italyan tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 93%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yevro



Tabiatি

San-Marino Titano tog‘ yonbag‘rida joylashgan.

Mamlakat iqlimi – o‘rtayer dengiz iqilimi, lekin Italiya iqlimiga nisbatan mo‘tadil. Qishda ko‘p qor yog‘adi.

O‘rmonlari kamayib ketgan. Ammo efirmoya boy butazor va o‘tloqlar mavjud. Tog‘da joylashgan kichik daryolar yozda qurib qoladi.



2002-yilda har 1000 kishiga to‘g‘ri kelgan kompyuterlar miqdori



San-Marino – 760



Shveysariya – 709



Shvetsiya – 621



Luksemburg – 594



Daniya – 577



Norvegiya – 528

500 lira tanga.
Yevro joriy qilingunga qadar
mamlakatda muomalada bo‘lgan

Diqqatga sazovor joylari

Sayyoohlarmi San-Marioning go‘zal tabiat manzaralari, O‘rta asr va Uyg‘onish davriga mansub arxitektura san’ati durdonalari o‘ziga jalb qiladi. Shahar XVI asrda barpo etilgan qadimiy davr qo‘rg‘on devorlari bilan o‘ralgan. Ko‘cha va yo‘laklar tosh zinalar bilan birlashgan. Asosiy yodgorliklarga XIV–XV asrlar cherkovi, XVI asr kaputsinlar monastirlari, XIV–XV asrlar San-Franchesko cherkovi, XIX asrda qurilgan ozodlik maydonidagi hukumat saroyi kiradi. San-Marino – ilmiy, madaniy ommabop kongress, konferensiya, simpoziumlar o‘tkaziladigan an‘anaviy joy.

Xo‘jaligi

San-Marino iqtisodiyoti asosan sayyoohlarga xizmat ko‘rsatish, pochta markalari, tangalar va esdalik sovg‘alar chiqarishga tayanadi. Aholining turmush darajasi va o‘rtacha umr ko‘rish dunyoda eng yuqori ko‘rsatkichiga yetgan. Mamlakatda mahalliy hunarmandchilik rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: vino, likyor, chinmi, shisha buyumlar, esdalik sovg‘alar.

◆ San-Marino Respublika hukumat binosi

San-Marino davlati Titano tog‘lari va uning yonbag‘rida joylashgan ◆



Serbiya



Poytaxti: Belgrad

Maydoni: 88,4 ming km²

Aholisi: 10,2 mln. kishi (2005)

Rasmiy tili: Serb tili

Aholisining diniy tarkibi:
asosan pravoslavlavlari

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: dinor



Muzlatilgan
malina mevalari
– asosiy eksport
mahsulotlaridan biri

Umumiy ma'lumotlar

Serbiya – Yeropaning janubi shargida joylashgan davlat. 1992-yilgacha Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi tarkibida, keyin Serbiya va Chernogoriya bilan birlashgan yagona davlat jamiyatni tarkibida edi. 2006-yil xalq referendumidan so'ng ikkita mustaqil davlat Serbiya va Chernogoriya davlatlari tashkil topdi. Serbiya hududi avval Yugoslaviya tarkibiga kirgan ikki avtonom hududini o'z ichiga oladi (Kosovo va Metoxiya, Voyevodina). Serbiyaning Kosovo avtonom hududi 2008-yil 17- fevralda Kosovalik vaqtinchalik o'z-o'zini boshqaruv organlari tomonidan mustaqillik e'lon qildi va uni bir qator davlatlar tan oldi. Bu Serbiya hududiy

birligini saqlashda ma'lum muammolarni tug'dirdi.

Davlat boshlig'i – prezident.

Aholisining etnik tarkibi:
serblar – 67%, albanlar – 17%,
vengerlar – 3%, bosniyaliklar
– 3%.

Tabiat

G'arb va janubi g'arbda mamlakat hududini Dinara ohak tog'liklari egallagan. Bu yerlarda ko'plab karst hodisasi uchraydi. Sharqiy qismida Sharqiy Serbiya

tog'larini va Stara Planika tog'larini joylashgan. Bu tog'lar tizimi orasida Morava daryosi bo'ylab joylashgan tekislik va Shumadiya qirlari bor. Shimolda O'rta Dunay tekisligi, janubda esa Metoxiya va Kosovo Pole (dalasi) tog' havzasi mavjud. Kuchli zilzilalar sodir bo'ldi.

Shimolda va markaziy qismlarda iqlim mo'tadil kontinental. Tog'da archazor va butazorlar (mamlakat hududining 35%), tekisliklarda dasht va o'rmon-dasht o'simliklar, qirg'oq bo'yida O'rtayer dengizi o'simliklarini uchratish mumkin.

Xo'jaligi

Mamlakatda toshko'mir, mis, xrom, yarim metall, neft va tabiiy gaz qazib olinadi. Metalluriya, transport va qishloq mashinasozligi, asbobsozlik, tikuvchilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan. Mamlakatda vinochilik va baliqchilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hunarmandchilikda gilamdo'zlik va gazlama to'qish rivojlangan. Bug'doy, makkajo'xori, soya, qand lavlagi, kungaboqar va turli mevalar yetishtiriladi. Yirik shoxli mollar chorvachiligi, qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik ham yuqori darajada rivojlangan. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining 70% xususiy sektorlarda yetishtiriladi.

Eksport qilinadigan mahsulotlar: shakar, muzlatilgan malina, mevalar, avtomobil shinalari, bug'doy, neft.

Karstli g'or



Slovakiya



Poytaxti: Bratislava
Maydoni: 49 ming km²
Aholisi: 5,4 mln. kishi
Rasmiy tili: slovak tili
Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 60%, protestantlar – 8%, pravoslavlavlari – 4%
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: yevro



Slovak milliy libosidagi qo'g'irchoq

Umumiy ma'lumotlar

Slovakiya Respublikasi – Markaziy Yevropaning sharqiy qismidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Slovakiya – YI a'zosi. 1993-yilga qadar Chexoslavakiyaning bir bo'lagi bo'lgan. Aholisining 86% slovaklar, 11% – vengerlar.



Bratislava markazidagi qadimiy tor ko'chalarining biridagi o'ziga xos bronza haykal

Xo'jaligi

Slovakiya hududida qo'ng'ir ko'mir, temir, magnezit va surma qazib olinadi. Neft va tabiiy gaz Slovakiyaga Rossiyanadan import qilinadi. Elektr quvvatining 30% ni IES, 54% ni AES, 10% ni GES ishlab chiqaradi. Mamlakatda mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya, yog'ochsozlik, kimyo sanoatlari va yengil sanoat yaxshi rivojlangan.

Slovakiyada bug'doy, makkajo'xori, arpa, suli, qand lavlagi, kartoshka, mevalar o'stiriladi. Mamlakat janubida uzumchilik va bog'dorchilik yo'lga qo'yilgan. Mamlakatda yirik shoxli mollar, cho'chqa, qo'y, echki va parrandalar ko'paytiriladi.

Mahalliy hunarmandchilikning billur, chinni, sopol, charm mahsulotlarini ishlab chiqarish va kashtachilik sohalari rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: mashinasozlik va kimyo sanoati mahsulotlari.

Tabiat

Mamlakat hududini 80% dan ko'proq'i 750 m balandlikda joylashgan. Slovakiyaning sharqiy qismida quyi Beskid, Tatr, quyi Tatr, Slovak Beksid va oq Karpat tog'laridan tashkil topgan Karpat tog'lari joylashgan. Janubi g'arb va janubi sharqda O'rta Dunay tekisligining bir qismi joylashgan. Slovak Ray va Slovak Karst ohak tog'larida karstog'lari talaygina. Slovakiyaning g'arbiy qismida Dunay daryosi, sharqda Tisa daryosi oqib o'tadi.

Slovakiya iqlimi mo'tadir kontinental. Iqlimning kontinentalligi sharq va janubi sharqqa qarab kuchayib boradi. Mamlakat hududining 40% ni keng bargli va ignabarli o'rmonlar egallagan.

Bratislavadagi Xodzovo maydoni



Sloveniya



Poytaxti: Lyublyana

Maydoni: 20,3 ming km²

Aholisi: 2 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: Sloven tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 71%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yevro



Sloveniyadagi qulmoq – ekiladigan asosiy o'simliklardan biri. Qulmoq g'uddalari pivo pishirish uchun xomashyo bo'lib xizmat qiladi

Xo'jaligi

Sloveniya ilgari Yugoslaviyaning (uning tarkibidan 1991-yilda mustaqil bo'lib ajralib chiqqan) eng rivojlangan respublikasi bo'lgan. Uning hududida boksit, simob va kumush qazib olinadi. Elektr quvvatining 37% ni AES, 36% ni IES, 27% ni GES ishlab chiqaradi. Sloveniyada metallurgiya, dastgohsozlik, mashinasozlik, matbaachilik, kimyo va yengil sanoatlar rivojlangan. Go'sht-sut chorvachiligi va parrandachilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Boshqoli o'simliklar, kartoshka, xmel, grechka, qand lavlagi, sabzavotlar, uzum va tamaki yetishtiriladi.

Mamlakatga ko'plab sayyohlar keladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: mashinasozlik mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar, oziq-ovqat.



Umumiy ma'lumotlar

Sloveniya Respublikasi – Markaziy Yeropaning g'arbida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Sloveniya – YI a'zosi.

Aholisining etnik tarkibi: slovenlar – 88%, xorvatlar – 3% ; qolgan qismi – serblar, bosniyaliklar, vengerlar.

Tabiat

Mamlakatning shimoli g'arbiy qismida ohaktoshli Yuliy Alp tog'larining Karavanke va Poxore tarmoqlari joylashgan. Tog' tizmalari orasida Lyublyan, Tolliyen, Selsk tog' havzalari joylashgan. Janubda Dinara massivi, janubi g'arbda karst relyefli va g'orlarga boy Karst platosi bor. Shimoli sharqda O'rta Dunay tekisligining chekka qismi joylashgan. Mamlakat hududida zilzilalar bo'lib turadi.

Shimoli g'arbida alp iqlimi, tekisliklarda mo'tadil kontinental, sohil bo'yida O'rtayer dengizi iqlimi hukmron.

Yuliy Alp tog' etaklari va Karavanke tog'larida muzlikdan hosil bo'lgan ko'llar va sharsharalar ko'p. Karst platosida karst ko'llari bor. Sloveniya hududining 54% o'rmonlar bilan qoplangan. Tog'larda alp o'simliklari, O'rta Dunay tekisligida o'rmon-dasht o'simliklari, karst hududlarida quruq yaylovlari va butalar, dengiz qirg'oqlarida O'rtayer dengizi o'simlik dunyosi hukmronlik qiladi.

Lyublyana shahri
Rim qal'asi
vayronalari ornida
bunyod bo'lgan

Bled ko'lining
kelib chiqishi
muzliklarga borib
taqaladi



Ukraina



Poytaxti: Kiyev

Maydoni: 603,7 ming km²

Aholisi: 47 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ukrain tili

Aholisining diniy tarkibi:
aksariyati pravoslavlavlari,
grek katoliklari (uniatlar),
protestantlar va boshqalar.
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: grivna



Tabiatি

Ukraina hududi Sharqiy Yevropa tekisligining janubiy-g'arbiy qismini egallagan. Shimolda Polesye, markaziy qismida Dneprbo'yи, janubda Qora dengizbo'yи pasttekisliklari mavjud. G'arbda Karpat tog'lari, janubda Qrim yarimorolidagi Qrim tog'lari joylashgan. Qrim va Karpatda zilzilalar bo'lib turadi. Qora dengiz va Azov dengizlari qirg'oqlarida ko'rflazlar mavjud. Dnepr daryosida yirik suv omborlari joylashgan (Kiyev, Kanayev, Kremenchug, Kaxovskiy va boshqalar).

Mamlakat iqlimi – mo'tadil kontinental. Qrim janubida – quruq subtropik, Karpatda va Qrim tog'lari tog'larga xos iqlim hukm suradi.

Mamlakat hududi o'rmon (18%), o'rmon-dasht va dashtli qismlardan iborat. Ukraina Polesyesida o'rmon va botqoqlar aralashgan hududlar bor.

Mamlakatning katta qismini o'rmon-dasht zonasasi egallagan. O'rmonlar atrofi keng tekisliklar bilan o'ralgan. Qrimning janubiy sohillarida

quruq subtropik o'simlik dunyosi mavjud. Qrim tog'lari ignabargli va qora qayin o'rmonlari, Karpat tog'lari esa oq qarag'ay va grab o'rmonlari, teparoqda subalp vodiylari joylashgan.



Umumiy ma'lumotlar

Ukraina – Sharqiy Yevropadagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Ukraina 24 viloyat va Qrim avtonom respublikasini o'z ichiga oladi. Kiyev va Sevastopol shaharlari diqqatga sazovor.

Aholisining etnik tarkibi: 78% – ukrainlar, 17% – ruslar, 0,6% – beloruslar, 0,6% – moldavanlar, 0,5% – qrim tatarlari. Bundan tashqari vengerlar, ruminlar, bolgar va polyaklar ham yashaydi. Ukrainening sharqiy va janubiy qismida hamda katta shaharlarida aholi rus tilida, Karpatortida vengr tilida, Bukova janubida rumin tilida so'zlashadi.

Milliy kiyimdagи gutsullar. Gutsullar ukrainaliklarning etnografik guruhi hisoblanadi


Xo‘jaligi

Ukraina ma’danli resurslar, serhosil yerlar, rivojlangan sanoat va yuqori malakali ishchi kuchiga ega. Biroq, qayta qurish borasidagi sustkashlik va iqtisodiy konservativm bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga to‘sinqilikni yuzaga keltiradi. Donbass va Krivoyrogda – tog‘-kon, kimyo va og‘ir sanoat korxonalari joylashgan. Qora dengiz sohillarida kemasozlik sanoati korxonalari joylashgan.

Turizm uchun eng jozibador joylar Qrim va Karpatdir. Markaziy dasht va o‘rmon-dashtlar mamlakatning asosiy agrar hududlaridir. G‘arbiy va shimoli g‘arbiy Ukrainada yengil sanoat, agrobiznes va o‘rmon sanoatlari, tabiiy gaz va neft



Ukraina hududidagi ko‘mir qatlamlari juda chuqr joylashgan bo‘lsa ham, u yerdag‘i ko‘miming sifati yuqori (metallurgiya uchun aynan shunaqasi kerak)



Sudak qal‘asi qadimiy Sudak shahrining tamal toshi vazifasini o‘tagan (mazkur shaharga 212-yilda asos solingan deb hisoblanadi). U Yevropa mamlakatlarini Osiyo, Hindiston, Rus va Xitoy bilan bog‘lab turgan yirik tijorat bandargohi bo‘lgan

qazib olish rivojlangan. Mamlakatning sharqiy viloyatlari iqtisodiyoti yaxshi rivojlangan.

Toshko‘mir va qo‘ng‘ir ko‘mir, torf, neft, tabiiy gaz, temir rudasi, marganes, simob, grafit, kaliy tuzi va osh tuzi qazib olinadi. Mamlakatda o‘z yonilg‘isi bilan yonilg‘iga bo‘lgan ehtiyojining 58% ni qondira oladi. Qolgan qismini Rossiya, Qozog‘iston va Turkmanistondan import qiladi. Barcha elektr quvvatining 44% ni AES, 49% ni IES, 7% ni GES beradi.

Mamlakatda neftni qayta ishlash, qora va rangli metallurgiya, metallsozlik, mashinasozlik, harbiy asbobsozlik, dastgohsozlik, yog‘ochsozlik, qog‘oz ishlab chiqarish, sement, shisha, chinni, fayans, shakar, go‘sht, yog‘-moy, vino sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Ukrainada bug‘doy, makkajo‘xori, arpa, grechka, kungaboqar, qand lavlagi, kartoshka, soya, tamaki, qulmoq, sabzavotlar, meva va poliz ekinlari yetishtiriladi. Mamlakatda cho‘chqachilik, sut va go‘sht mahsulotlari uchun yirik shoxli mollar ko‘paytirish; qo‘ychilik, parrandachilik, ipakchilik va asalarichilik rivojlangan. Qora va Azov dengizlarida, Dnepr va Dnestr daryolarida baliqchilik yo‘lga qo‘ylgan.

Yozgi mavsumda mamlakatga ko‘plab chet el sayyohlari keladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: qora va rangli metallar prokati, quvurlar, rudalar, transport va mashina anjomlari, sanoat uskunalari, kimyoiy mahsulotlar, qurol-yarog‘, oziq-ovqat va to‘qimachilik mahsulotlari.

Vatikan



Maydoni: 0,44 km²

Aholisi: 821 kishi, ulardan

556 tasi – Vatikan fuqarolari

Rasmiy tili: lotin, italyan tillari

Aholisining diniy tarkibi: katoliklar

Davlat tuzumi: mutlaq monarxiya

Pul birligi: yevro



Diqqatga sazovor joylari

Vatikan davlati ulkan tarixiy-arxitektura majmuasini o'zida mujassam etgan. Avliyo Pyotr bosh cherkovi dunyodagi katolik cherkovlarining boshqarmasidir (XVI a. arxitektorlari – Bramante, Mikelanjelo, J. Della Porta va boshqalar). Vatikan qal'a devorlari ortida rasmiy idoralar, muzeylar joylashgan. Vatikan – tarixiy-arxitektura majmuasi YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Avliyo Pyotr ibodatxonasining o'chamlari kishini hayratga soladi: balandligi – 189 m, uzunligi esa portik bilan qo'shib hisoblaganda – 211,5 m

Umumiy ma'lumotlar

Vatikan – Rim-katolik

cherkovining markazi – dunyodagi hududi va aholi soni bo'yicha eng kichik davlat. U Italiyaning poytaxti Rimning g'arbiy qismida mamlakat ichidagi xorijiy davlat (anklav) sifatida Monte-Vatikano tepaligida joylashgan.

Davlat hududidan tashqarisida, ya'ni Rimdagi bir qancha cherkovlar, saroylar va papaning yozgi dam olish saroyi Vatikanga tegishli. Davlat boshlig'i: Rim papasi (kardinallar kollegiyasi tomonidan bir umrga saylanadi).



Sikstin kapellasi shiftiga solingan naqsh – dunyo san'atining mumtoz asari. XVI asrda Mikelanjelo tomonidan yaratilgan



Rim Papasi dindorlarga oq fotiha beryapti

Xo'jaligi

Vatikan – juda ham boy davlat. Daromadning asosiy manbayini xayr-ehsonlar tashkil qiladi. Vatikan, shuningdek, qator kompaniyalar, banklar hamda Italiya, Ispaniya, Germaniya va Lotin Amerikasi yirik ko'chmas mulklarning egasi hisoblanadi. Daromadning boshqa manbayini milliy katolik cherkovlarning badallari, pochta markalari, tangalar, esdalik sovg'alar ishlab chiqarish va sotishdan tushadigan mablag'lar tashkil qiladi. Mazkur ishlab chiqarilgan pochta markalari va tangalar kolleksionerlar tomonidan yuqori baholanadi.


Vengriya



Poytaxti: Budapesht
Maydoni: 93 ming km²
Aholisi: 10,1 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: venger tili
Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 68%, kalvinistlar – 20%, luteranlar – 5%

Davlat tuzumi: parlamentar respublika
Pul birligi: forint



Umumiy ma'lumotlar

Vengriya, Vengriya Respublikasi – Yevropa Markazining sharqida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Vengriya – YI a'zosi.

Aholisining etnik tarkibi: vengerlar – 90%, lo'lilar – 4%, nemislar – 3%, serblar – 2%.

Dunay daryosi uzra Buda va Pesht shaharlarini bog'lab turuvchi ko'priklar 1849-yilda qurilgan bo'ssa ham mazkur shaharlar 1873-yildagina birlashib yagona shaharga aylandi



Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyoti 1990-yillarda sekin-asta o'zgardi. Xizmat ko'rsatish sohasining ulushi ortdi. Hozirgi paytda YIMni 62% ning xizmat ko'rsatish sohasiga, 34% sanoatga, 4% qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi.

Mamlakatda toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir qazib olinadi, shuningdek, boksit, marganes, uran va polimetall ham qazib olinadi. Neft va tabiiy gaz Rossiyanadan keltiriladi. IES elektr quvvatining 60% ni, AES esa 30% ni ishlab chiqaradi. Mamlakatda qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, neftni qayta

ishlash, kimyo, shisha, chinni, charm-poyabzal, tikuvchilik, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan. Mahalliy hunarmandlar yog'och o'yinchoqlar va chinni buyumlar ishlab chiqarishadi va kashtachilik bilan shug'ullanishadi.

Qishloq xo'jaligi asosan chorvachilikka tayanadi. Chorvachilik yirik shoxli mollar va cho'chqalar boqishga ixtisoslashgan. Qishloq xo'jaligi yaxshi hosildor yerlarda joylashgan bo'lib, u yerda bug'doy, tariq, makkajo'xori, qand lavlagi, kartoshka, kungaboqar va turli mevalar yetishtiriladi. Uzumchilik, bog'dorchilik hamda daryo va ko'l baliqchiligi ham rivojlangan.

Eksport qilinadigan mahsulotlar: mashinasozlik uskunalar, aluminiy, sabzavotlar, mevalar, konservalar, salyami va vino mahsulotlari.

Tabiatি

Vengriya O'rta Dunay tekisligida joylashgan. Dunay daryosi mamlakatni ikki qismiga ajratib tuardi: Dunantul (g'arbiy tepaliklar va kichik tog'lardan iborat) va Alfyold (sharqiyl serhosil dasht tekisliklari).

Mamlakat iqlimi – mo'tadir, kontinental, qishda sovuq, yozda issiq va quruq. Asosiy daryolari: Dunay va Tisa. O'rta asrlardan saqlanib qolgan yaxshi o'rmonzorlari bor.

Xorvatiya



Poytaxti: Zagreb
Maydoni: 56,6 ming km²
Aholisi: 4,4 mln. kishi (2007)
Rasmiy tili: Xorvat tili
Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 88%, pravoslavlavlari – 4%
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: kuna



Xorvatiya aholisi bog'larida olxo'rilar ko'p

Umumiy ma'lumotlar

Xorvatiya Respublikasi – Janubiy-sharqiy Yevropa hududidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. 1991-yilda Xorvatiya Yugoslaviya tarkibidan chiqdi. Aholisining etnik qatlami: xorvatlar – 90%, serblar – 5%, qolgani bosniyaliklar, vengerlar, chexlar va slovenlar.



Zagreb 1557-yildan boshlab Xorvatiyaning poytaxti

Tabiatি

Mamlakat shimolida Dunay, Drava va Sava daryolari oraliq'ida O'rta Dunay pasttekisligining bir qismi Slavoniya joylashgan. Undan janubi g'arbroyda joylashgan ohaktoshli Dinara Alp tog'larini Adriatika dengizi sohiliga cho'zilib ketgan. Dinara tog'larida va orollarda karst hodisasi keng tarqalgan. Istriya yarimoroli relyefi tekisliklardan iborat. Xorvatiyada zilzilalar sodir bo'lib turadi. Adriatika dengizi sohili bo'yab 1200 yaqin mayda qoyali orollar joylashgan.

Xorvatiya iqlimi – mo'tadir kontinental. Dalmatsiya va Istrada subtropik O'rtayer dengizi iqlimi hukmron, qishda sovuq shimoli sharqiy shamol esadi. Dinara Alp tog'larida iqlim yozda mo'tadir iliq, qishda mo'tadir sovuq, yog'ingarchilik ko'p bo'lib, karst hodisasi sharoitida tuproqqa tez so'rilib ketadi.

Mamlakatning shimolida o'rmonzorlar, Slavoniya o'rmon-dashtlari va dashtlar joylashgan. Adriatika dengiz qirg'og'i bo'yalarida va orollarda subtropik o'simliklar, tog'larda esa eman, qora qayin, qarag'ay o'sadi.

Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyotida turizm yetakchi o'rinni egallagan. Xorvatiyada boksit, neft va tabiiy gaz qazib olinadi. Elektr quvvatini 66% ni mamlakat janubidagi Kaskad GES beradi. Mamlakatda mashinasozlik, kimyo, farmatsevtika, yog'ochsozlik, yengil va oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan. Bundan tashqari temir va alumininiyi eritish ishlari ham yo'lgan qo'yilgan. Xorvatiyada bug'doy, makkajo'xori, kartoshka, mevalar, sabzavotlar, kungaboqar, qand lavlagi, zaytun daraxtlari va boshqalar yetishtiriladi, bog'dorchilik va vinochilik ham rivojlangan. Transport jihozlari, kimyoviy mahsulotlar, to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinadi.

Diqqatga sazovor joylari

Sayyoohlarni ko'proq Adriatika dengizi qirg'oqlari bo'yab joylashgan dengiz kurortlari va tog'-chang'i kurortlari jalb etadi. Bundan tashqari shaharlar ham arxitekturasi va tengsiz tabiiy go'zalligi bilan o'ziga jalb etadi. Yodgorliklari: Zagreb shahrida av. Stefan ibodatxonasi, gotik uslubdagi av. Mark cherkovi, Dubrovnik shahrida XIV – XVII asrlarga oid inshootlar, jumladan, saroylar, cherkovlar, rohiblar uyulari, Zadar shahrida esa Rim forumi, akveduklari vayronalari va tor ko'chalar va boshqalar.

Shvetsiya



Poytaxti: Stokholm

Maydoni: 450 ming km²

Aholisi: 9,1 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tuzumi:
konstitutsiyaviy monarxiya
Pul birligi: shved kronasi

Umumiy ma'lumotlar

Shvetsiya Qirolligi – Yevropa shimolidagi davlat. Davlat boshlig'i – qiro. Shvetsiya – YI a'zosi.

Aholisining etnik tarkibi: shvedlar – 89%, finlar – 2%, qolganlari – danlar, norvegilar, saamlar, turklar va nemislar.



Shvetsiyadan Finlandiyaga qilinadigan ko'plab sayyoqlik safarlar paromlarda amalga oshiriladi. Paromlar katta yuk ko'tara olishi va ko'p yo'lovchilarni sig'dira olishi bilan ajralib turadi. Bu juda qulay, chunki avtomobilda sayohat qilayotgan sayyoqlarning mashinasini ham olib o'tish mumkin



Tabiatি

Mamlakat hududi shimoldan janub tomon 1600 km ga cho'zilgan bo'lib, Skandinaviya yarimorollarining sharqini egallagan. Qироq chizig'i notekis, chunki yarimorollar va ko'rfazlar ko'p, shuningdek, qироq bo'yab mayda shxer orollar va Eland va Gotland nomli katta orollar joylashgan.

G'arbda va shimoli g'arbda Skandinaviya tog'lari joylashgan ular mamlakat hududining 16% ni egallagan. Sharqda Norland yassitog'lari joylashgan. Janubda Markaziyo ko'l pasttekisligi joylashgan. Janubroqda Smoland tepaligi joylashgan bo'lib, uni janub va sharqdan tekisliklar qurshab olgan. Eng janubiy chekkada tuprog'i serhosil Skone yarimoroli joylashgan.

Shvetsiya iqlimi mo'tadir. Shimol va shimoli sharqda kontinental iqlim hukmron. Mamlakat shimolida dekabr-fevral oylarida qutb tuni, may oylari o'rtasidan iyul oyi oxirlarigacha qutb kuni kuzatiladi. Shvetsiya shimolidagi Laplandiya hududida qutb yog'dusini ko'rish mumkin. Mamlakatda qisqa va sersuv daryolar bor.

Shvetsiyada 100 mingdan ortiq ko'l mavjud bo'lib, ular Norland va Markaziyo ko'l pasttekisliklarida joylashgan.

Mamlakat hududining 54% ni o'rmonlar tashkil etadi. 60° shimoliy kenglikdan shimolroqda ignabargli o'rmonlar, janubroqda aralash o'rmonlar joylashgan. Mamlakat hududining 14% ni botqoqliklar tashkil etadi. Skandinaviya tog'lari va Norlanda, 900–950 m balandlikda tog' tayga o'rmoni, balandroqda qayin o'rmoni, 1100 m dan keyin tog' tundrasi joylashgan.


Xo‘jaligi

Shvetsiya – iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlangan davlat. Uning taraqqiyoti jadal o‘sib borayotgan yuqori texnologiya tarmoqlari va yuqori rivojlangan ijtimoiy xizmatlar majmuasiga asoslangan.

Mamlakatda paxta tayyorlash va tog‘-kon sanoati muhim ahamiyatga ega. Temir rudasi, rux, mis, simob, uran qazib olinadi va uranni boyitish ishlari amalga oshiriladi. Shvetsiya temir rudasi zaxirasi bo‘yichan G‘arbiy Yevropada 2-o‘rinni egallagan. Elektr quvvatining 43% ni AES ishlab chiqaradi. Shvetsiya qayta ishlash sanoati ko‘p tarmoqlidir. Mashinasozlik sanoatining an‘anaviy tarmoqlari mazkur sanoatning yangi yuqori texnologik tarmoqlari bilan uyg‘unlashgan.

Mamlakatda elektrotexnika, telekommunikatsiya, yog‘ochsuzlik, selulloza-qog‘oz, farmatsevtika sanoatlari va kompyuter, transport mashinasozligi (avtomobillar, traktorlar, vagonlar, lokomotivlar, samolyotlar, kemalar), podshipniklar va trubinalar ishlab chiqarish, dastgohsuzlik, qora va rangli metallurgiya ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Muhim tarmoqlardan biri – quroslasha ishlab chiqarish. Hunarmandchilikning shisha, billur, yog‘och, kumush, qahrabo buyumlar ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlangan. Shvetsiyaga ko‘plab sayyoohlari keladi.

Mamlakatda bug‘doy, arpa, qand lavlagi, kartoshka, yem-xashak ekinlari o‘stiriladi, g‘arbda esa uzumchilik



1754-yilda Stokholmda qurilgan qiroli saroyi barokko davrining ulkan ijod mahsulidir

rivojlangan. Sut va sut-go‘sht chorvachiligi, uy hayvonlari va parrandalarini ko‘paytirish, shuningdek, baliqchilik juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Asosiy eksport mahsulotlari: sanoat jihozlari, elektron va elektrotexnikaviy mahsulotlar, qog‘oz va karton mahsulotlari, avtomobillar, kemalar, taxta, temir rudasi, kimyoviy mahsulotlar.

Stokholm 14 ta orolda joylashgan bo‘lib, dunyoning eng go‘zal shaharlaridan biri hisoblanadi. U XIII asrdan beri Shvetsiyaning poytaxti va shved qirollarining doimiy qarorgohi bo‘lib kelmoqda



Shveysariya



Poytaxti: Bern

Maydoni: 41,3 ming km²

Aholisi: 7,5 mln. kishi

(2007)

Rasmiy tillari: nemis, fransuz, italyan, retoroman tillari

Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 44%, protestantlar – 37%, musulmonlar – 5%

Davlat tuzumi: federativ respublika

Pul birligi: Shveysariya franki



| Lixtenshteyn

Umumiyyat va umumiy ma'lumotlar

Shveysariya Konfederatsiyasi – Markaziy Yevropadagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Shveysariya rasman konfederatsiya deyiladi, lekin 23 kantonidan iborat bo'lgan federativ respublikadir.

Aholisining etnik tarkibi: germanoshveysarlar – 64%, frankoshveysarlar – 19%, italoshveysarlar – 8%, qolganlarini retoromanlar, ispanlar va boshqalar tashkil etadi.

Syurix
Shveysariyaning eng muhim tijorat shahri, shuningdek, banklar va sanoat tashkilotlari markazidir

Xo'jaligi

Shveysariya – katta bo'limgan, lekin yuqori rivojlangan davlat. U banklarida saqlanadigan pul miqdori bo'yicha Yevropa 1-o'rinda, dunyoda 3-o'rinda turadi. Ko'pincha uni Yevropa «seyfi» – deb atashadi. Dunyodagi qimmatli qog'ozlarning 2/5 qiymatdagi qismi Shveysariya banklarida saqlanadi.

Mamlakatda ko'plab xalqaro tashkilotlar va korxonalarining bosh boshqarmalari joylashgan. Shveysariya iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri ITTKI va ta'limdir. Mamlakatda turizm rivojlangan.

Shveysariya iqtisodiyoti eksportga tayanadi (YTMning 50%), shuningdek, u tashqi xomashyo manbayiga juda ham bog'liq. Mamlakatda yuqori sifatli mahsulotlar va fan yutuqlaridan foydalanib tayyorlanadigan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: elektronika, farmatsevtika, oziq-ovqat (sariyog', pishloq, shokolad), dastgohsozlik, ilmiy asbobsozlik va to'qimachilik asbobsozligi sanoatlari.

Agrobiznesning asosiy tarmog'i – go'sht-sut chorvachiliği (qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 3/4 qismi). Shveysariyada bug'doy, arpa, suli, qand lavlagi, kartoshka, turli sabzavotlar va mevalar, yem-xashak ekinlari yetishtiriladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: dori-darmon, dastgohlar, soatlar, kimyoviy mahsulotlar, asbob-uskunalar, oziq-ovqat.



Tabiatি

Shveysariya – Yevropaning eng tog‘li davlati. Mamlakatning markaziy, janubiy va sharqiy qismlarini Alp tog‘lari egallagan. Rona va Reyn daryo vodiylari tog‘ tizmalarini ikkiga ajratib turadi. Italiya chegarasi bo‘ylab joylashgan Pennin Alp tog‘larida Shveysariyaning eng baland cho‘qqilari joylashgan. Fransiya va Italiya chegaralarida, Shveysariya hududiga Moblan tog‘ massivining shimoliy qismi kirgan. U yerda Alp tog‘larining eng yuqori cho‘qqisi bor. Shveysariya hududini mingdan ortiq muzliklar egallagan bo‘lib, ularning umumiy maydoni 1225 km² tashkil etadi. Daryo va vohalarning qulay joyda joylashganligi tufayli Alp tog‘larida transport yaxshi yo‘liga qo‘yilgan. Shveysariya Alp tog‘larida 200 dan ortiq dovon va ko‘p tunellar bor. Sen-Bernar, Sen-Gotard va Simplon dovonlari orqali o‘tgan eng asosiy transport yo‘li O‘rtayer dengizini Sharqiy Yevropa bilan bog‘lab turadi. Alp tog‘lardan shimalroqda Shveysariya yassitog‘liklarining tepaliklari joylashgan, bu yerda jozibador ko‘llar juda ko‘p. Bu yassitog‘lik mamlakat hududining 1/3 qismini egallagan. Mamlakat g‘arbida Fransiya chegarasi bo‘ylab va Shveysariya



◆ Bern shahriga 1191-yilda gersog Bertold V buyrug‘iga binoan asos solingan

yassitog‘liklari orasida Yura tog‘ massivi joylashgan.

Shveysariya iqlimi mo‘tadil va namli bo‘lib, tog‘li joylarda havo sovuq. Qishda yassitog‘liklarda qor odatda bir necha kundan keyin eriydi. Alp tog‘larida 2800–3000 m balanddagи qor yozda ham erimaydi.

Shveysariya Alp tog‘larida havo qish mavsumida sovuq, lekin har doim quyoshli. Bu yerda ko‘plab kurort maskanlari: turizm, alpinizm, tog‘ chang‘i sport turlari markazlari joylashgan. Vodiylar Alp tog‘lari bilan o‘ralganligi sababli shimoliy sovuq shamollardan himoyalangan, bu yerda yoqimli va iliq iqlim hukm suradi.

Shveysariyada daryolar ko‘p. Ularning hammasi uch dengiz Shimoliy dengiz, O‘rtayer dengizi va Qora dengiz havzalariga tegishli. Shveysariya daryolari jo‘shqin va sharsharalarga boy, lekin bu dayrolarda kemalar suza olmaydi. Daryolar gidroquvvat salohiyatga ega.

O‘rmonlar mamlakat hududining 1/4 qismini egallaydi, ammo haqiqiy o‘rmonlar asosan Alp tog‘larida saqlanib qolgan. Shveysariya yassitog‘liklarida, 800 m balandlikda kengbargli o‘rmonlar, 1000 m balandlikda aralash o‘rmonlar, 2400–2500 m balandliklarda subalp va alp hududlari joylashgan. U yerda alp atirguli va qora archa o‘sadi.



◆ Alpenhorn (alp burg‘usi) – shveysariyaliklarning milliy cholq‘u asbobi. Ba’zan uning uzunligi bir necha metrga yetadi

Shveysariyada ishlab chiqarilgan kimyovaly moddalar va dorilar qayerga yuboriladi

1. Shveysariya (mamlakat Ichkarlsida) – 5%
2. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari – 56%
3. Yevropaning boshqa mamlakatlari – 7%
4. Osiyo mamlakatlari – 13%
5. AQSh va Kanada – 12%
6. Boshqa mamlakatlar – 7%



Chernogoriya



Poytaxti: Podgoritsa
Maydoni: 13,8 ming km²
Aholisi: 620 ming kishi (2005)
Rasmiy tili: serb tili
Aholisining diniy tarkibi: asosan pravoslavlolar
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: yevro



Kapa – Chernogorlarning milliy bosh kiyimi

Umumiy ma'lumotlar

Chernogoriya Respublikasi 2006-yilda umumxalq referendumidan so'ng mustaqillik e'lon qildi. 2006-yilgacha Serbiya va Chernogoriya birlashgan yagona davlati tarkibida bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etnik tarkibi: chernogorlar, serblar. Bu xalqlar bir-biriga ancha yaqin. Chernogoriyaliklar serb shevalarida so'zlashadi. Chernogoriyaning o'z pul birligi yo'q, ular pul sifatida yevrodan foydalanishadi.

Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyoti asosini xalqaro turizm va qishloq xo'jaligi tashkil qiladi (chorvachilik, boshoqli ekinlar, subtropik mevachilik, uzumchilik). Ko'plab sayyoohlarni ajoyib tabiat, milliy bog'lar dengiz va sohildagi plajlar o'ziga jalb etadi. Chernogoriya ekologik davlatdir. Mamlakatda kichik hajmda boksit, qo'rg'oshin, rux qazib olinadi. Qora metallurgiya, mashinasozlik, vinochilik, o'rmonchilik (hududning 20% ni o'rmonlar tashkil qiladi) va yog'ochsozlik sanotlari rivojlangan.

Tabiat

Chernogoriya hududining katta qismini baland yassitog'lik egallagan. Mamlakat g'arbida joylashgan tog' massivlari unchalik baland emas, ammo yo'llari o'tishga xavfli. Sharqdagi tog'lar baland. Chernogoriyaning eng past qismi Skadar ko'li oldidagi tekislik asosiy ziroatchilik hududi hisoblanadi. Mamlakatning asosiy hududi dengiz bo'yidan tog'



Avliyo Vasiliy Ostranskiy cherkovi

tizmasi bilan ajratilgan. Dengiz qirg'og'ining uzunligi 290 km, shu jumladan, O'rtayer dengizi qirg'og'i uzunligi 73 km ga yetadi. Kotor ko'rfazi qirg'og' qizig'idan 20 km gacha kirgan. Sohil bo'yida o'rtacha yoz harorati +23° C +26° C tashkil etadi. Chernogoriya tabiat davlat muhofazasida.

Chexiya



Poytaxti: Praga

Maydoni: 78,9 ming km²

Aholisi: 10,3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: chex tili

Aholisining diniy tarkibi:

ateistlar – 40%, katoliklar

– 39%, protestantlar – 5%,

pravoslavlavlар – 3%

Davlat tuzumi: respublika



Umumiy ma'lumotlar

Chexiya Respublikasi – Markaziy Yevropadagi davlat. Ikki tarixiy hudud – Chexiya va Moraviyadan tashkil topgan. Davlat boshlig'i – prezident. Chexiya – YI a'zosi.

1993-yilda Chexoslovakija ikki davlatga Chexiya va Slovakiyaga ajraldi. Aholisining etnik tarkibi: chexlar – 81%, moravlar – 13%, slovaklar – 3%.

Tabiatি

Chexiya hududini janub, g'arb va shimol tomondan taqa ko'rinishidagi Chexiya tog' massivi o'rabb turadi. Mazkur tog' massivi Germaniya chegarasi bo'ylab joylashgan Shumova tog'lari va Chexiya o'rmonini o'z ichiga oladi. Chexiya tog' massivi shimoli g'arbida rudali tog'lar va Chexiya o'rtal toglari joylashgan. Chexiya tog' massivida Chexiya tog' havzasini joylashgan bo'lib u Moraviyadan, Chexiya-Moraviya tekisligi bilan ajratilgan.

Bogemiya g'arbida kichik ko'llar ko'p. Dragan-Vrxovin tepaligidagi Karst holati keng tarqalgan.

Mamlakat iqlimi mo'tadil kontinental. Janubi sharq tomonga iqlimning kontinentalligi kuchayib boradi. Hududning 1/3 qismi o'rmonlar bilan qoplangan.

Xo'jaligi

Chexiya – sanoati tez rivojlanayotgan va faol qishloq xo'jaligiga ega davlat. Mamlakatda neftni qayta ishslash, tosh va qo'ng'ir ko'mir, pirit, rangli metall, uran, grafit qazib olish ishlari yo'lg'a qo'yilgan. Chexiyada metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoatlari, chinni, fayans, charm-poyabzal, shisha buyumlar ishlab chiqarish, to'qimachilik, mebel sanoatlari rivojlangan. Chexiya musiqa asboblari va pivosi dunyoga mashhur. Mamlakatda turizm keng rivojlangan.

Hunarmandchilikning yoqut va qahrabodan zargarlik buyumlarini yasash, billur va chini buyumlar ishlab chiqarish sohalari rivojlangan.

Mamlakatda bug'doy, arpa, suli, qand lavlagi, kartoshka, meva, sabzavot va uzum yetishtiriladi. Cho'chqa, yirik shoxli mol, qo'y, parrandalar ko'paytiriladi. Eksport qilinadigan asosiy mahsulotlar: mashinasozlik mabsulotlari, shisha, billur, poyabzal, to'qimachilik va zargarlik buyumlari.



Praga markazidagi Staromestka maydonidagi mashhur astronomik soat

Rossiya



Poytaxti: Moskva

Maydoni 17075,4 ming km²

Aholisi: 142 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: rus tili

Aholisining diniy tarkibi:
pravoslavlari – 90% dan zi-
yod, qolganlari musulmonlar
(asosan sunniylar), budda-
viylar, yahudiylar, katoliklar,
protestantlar

Davlat tuzumi: Respublika

Pul birligi: rubl



Moskva Kreml asli-
da Borovitskiy tepal-
igida paydo bo'lgan
qishloqning kichik
istehkomi sifatida
qurilgan edi

jamlangan, jumladan, Markaziy, Janubiy, Volgabo'y, Shimoli G'arbiy, Ural, Sibir, Uzoq Sharq federal okruglari. 2008-yilda Ust-Ordinskiy Buryatskiy avtonom okrugi Irkutskiy viloyatiga qo'shildi.

Aholisining etnik tarkibi (2002-yilgi ma'lumotlar bo'yicha): ruslar – 79,8%, tatarlar – 3,8% ukrainlar – 2%, boshqirdlar – 1,2%, chuvashlar – 1,1%, chechenlar – 0,9%, armanlar – 0,8%, mordva, avar, beloruslar – 0,6% dan, qozoqlar – 0,5%, udmurt, ozarbayjonlar, marilar, nemislar, kabardinlar, osetinlar, darginlar – 0,4%, buryatlar, yakutlar, kumiklar, ingushetlar, lezginlar – 0,3% tashkil qiladi. Boshqa xalqlarning ulushi undan ham kam. RF konstitutsiyasiga ko'ra rus tili davlat tili bo'lishiga qaramasdan Federatsiya subyektlari rus tili bilan bir qatorda o'z davlat tillarini o'rnatishga haqlidir.

Rossiya hududida aholi zichligi bab-barobar taqsimlanmagan. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 8,5 kishiga to'g'ri keladi. Rossiyadagi katta shaharlar (aholisi 100 ming kishidan oshiq) soni – 165 ta. Ularda mamlakat aholisining 45% istiqomat qiladi. Aholisi 1 mln. dan ortiq bo'lgan shaharlar (2004): Moskva, Sankt-Peterburg, Novosibirsk, Nijniy Novgorod, Yekaterinburg, Samara, Omsk, Kazan, Chelyabinsk, Rostov na Donu, Ufa.

Zamonaviy Rossiya – bu o'rtacha darajadagi iqtisodiy rivojlanishga ega, ulkan tabiiy zaxiralarga boy, aholisining bilim darajasi anchagina baland va ilmiy-texnik salohiyatga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi.


Qadimgi Rus davlati (Kiyev Rusi) tashkil topgan sana deb 882-yil hisoblanadi. Shu vaqtida Novgorod knyazı Oleg Kiyev va Buyuk Novgorodni o'z qo'l ostida birlashtirgan edi. Knyaz Vladimir davrida, 988-yilda Rusda yagona umum davlat dini etib pravoslav mazhabidagi xristianlik qabul qilingan. Moskva ilk marotaba 1147-yildagi solnomada zikr qilingan.

Mamlakatdagi zamonaviy ilmiy faoliyat va maorifning vujudga kelishiga Pyotr I va undan keyingi davr bilan bog'liq. XVIII–XIX asr boshlari uchun xos bo'lgan ilm-fan institutlari (akademiyalar, universitetlar, ekspeditsiyalar, kutubxonalar, observatoriylar, klinikalar, ilmiy

Umumiy ma'lumotlar

Rossiya Federatsiyasi – Yevropaning sharqiy qismida va Osiyoning shimoliy qismida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Rossiya federativ respublikasi (Federatsiyaning 83 ta subyekti bor). Uning tarkibiga 21 ta respublika, 9 ta o'lka, 4 ta avtonom okrug, 46 ta viloyat, 2 ta federal ahamiyatga ega bo'lgan shahar (Moskva va Sankt-Peterburg), 1 avtonom viloyat mavjud bo'lib, ular 7 ta federal okrugga

Moskvada metropoliten qurilishi 1932-yilda boshlangan. Juda hashamatli bezatilgan 13 bekatdan iborat birinchi yo'l 1935-yil 15-mayda foydalanishga topshirilgan





nashrlar va h.k.) barpo etilishi va xalq ta'limining yo'lga qo'yilishi jarayoni Rossiya tarixi, tafakkuri va madaniyatida muhim ahamiyat kasb etdi.

XIX asr Rus madaniyati tarixida oltin asr sifatida iz qoldirdi. Aynan shu davrda aniq va tabiiy fanlar sohasida olamshumul yutuqlarga erishildi. Rus olimlarining elektrotexnika, havoda uchish, raketasozlik, radio, temiryo'l, kemasozlik nazariysi va shu kabi sohalar rivojiga qo'shgan hissalarini butun dunyoda e'tirof etilgan.

XVIII–XIX asrlarda Pyotr I tashabbusi bilan amalga oshirilgan islohotlar nafaqt Yevropaning texnik, harbiy va boshqaruv malakalarini Rossiya zaminida joriy qildi, balki G'arbda shakllanib bo'lgan turmush tarzi, g'oyalar va badiiy uslublarni ham olib keldi. Rossiya tasviriy san'ati, teatr rejissurasi, rus baleti novatorligi – bularning bari dunyo madaniy merosining bir qismi hisoblanadi. Rus falsafa madaniyati ma'lum darajada G'arb falsafa madaniyatida muayyan yo'nalishlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi.



Ostankino tele-markazi Yevropadagi eng baland telemrinora hisoblanadi



Misli ko'rilmagan «Mir» kosmik stansiyasining birinchi qismi orbitaga 1986-yil 20-fevralda chiqarilgan edi. Shundan buyon 100 dan ortiq kosmonavtlar va astronavtlar u yerda bo'lishdi




Rus matryoshkalari butun dunyoga mashhur

Dostonlardagi bahodirlar, yorqin ranglar, o'ziga xos naqshlar – markaziy Rossiyadagi Palex qishlog'idagi qadimgi xalq hunarmandchilagini boshqalardan ajratib turadi



XX asr boshi va o'rtaisdagi davr ijodiy tematika va adabiy tilining yangilanishi bilan ajralib turadi. XX asrdagi mislsiz olamshumul tarixiy o'zgarishlar va insoniyat ma'naviyatining ichki dinamikasi orasidagi bog'liqlikni badiiy anglash adabiy asarlar va musiqada o'z aksini topdi.

Sho'rolar davrida mamlakatdagi intellektual munosabatlarning barcha sohalarni o'ta mafkuralashtirib yuborilgani va byurokratizmning avjiga chiqqani butun Rossiya jamiyati uchun og'ir oqibatlarni keltirib chiqardi. Biroq rus madaniyatining kuchli an'analarini, rus ziyolilarining matonati va fidokorligi va ilmiy kadrlar sonining o'sishi muhim amaliy va fundamental tadqiqotlar borasida hamda mudofaa sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritilishini ta'minladi. 1957-yilda dunyoda ilk sun'iy yo'ldosh orbitaga chiqarildi, 1961-yilda esa inson ilk marta koinotga parvoz qildi.



Peterhof. Golland tilidan tarjima qilinganda bu «Pyotr saroyi» degan ma'noni anglatadi

Blin va uvuldiriq – ruslarning an'anaviy taomlari. Ular asosan maslenitsa bayramida dasturxonga tortiladi



Xo‘jaligi

Rossiya hududining bepoyonligi ishlab chiqarish kuchlarini turli hududlarga joylashtirish va mehnat taqsimotini hududiy ravishda taqsimlashda keng imkoniyatlар yaratib beradi.

Rossiyaning yirik tabiiy resurslarga ega. Keyingi yillarda mam-lakatning iqtisodiy o’sish sur’atlari oshib bormoqda. Rossiya XXI asr talablariga mos ravishda yangi samarali iqtisod va yangi jamiyatni shakllantirmoqda: tovar-pul munosabatlari kengaymoqda va zamonaviy bozor infratuzilmasi yaratilmoqda.

Rossiyada olinadigan qazilma boyliklar hajmi pul qiymati jihatidan butun dunyo bo‘yicha qazib olinadigan foydali qazilmalar hajmining 10% dan ziyodini tashkil etadi. Mam-lakat temir, nikel, volfram, molibden, qo‘rg‘oshin, kobalt, oltin hamda noyob platina va kumush zaxiralari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari rangli rudalar, noyob metallar, kaliy tuzlari, apatit zaxiralari bo‘yicha ham mamlakat yuqori o‘rinda turadi.

Energetika Rossiya sanoatida muhim rol o‘ynaydi, u elektroenergetika va yonilg‘i sanoatini o‘z ichiga oladi (gaz, neft, ko‘mir va boshqalar). Rossiya olmos ishlab chiqarish va uni

Volgabo‘yi, Ural va G‘arbiy Sibirda mana shunday tebranma uskunalar yordamida neft qazib olinadi






eksport qilish bo‘yicha yirik davlat hisoblanadi.

Mashinasozlik sanoatida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: og‘ir sanoat (tug‘-kon va metalluriya jihozlari), energetik mashinasozlik, lokomotivlar, yuk va yo‘lovchi vagonlari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, dastgohsozlik, avtomobilsozlik, kemasozlik, samolyotsozlik, asbobsozlik, elektronika va elektrotexnika.

Mamlakatning ko‘plab shaharlari da selluloza va qog‘oz ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. To‘qimachilik sanoati yirik tarmoqlardan biridir. Rossiya yuqori sur’atlarda o‘sib borayotgan



Malaxit, zumrad, yashma va boshqa ma‘danlar qadimdan Ural badiy hunarmandchiligidagi keng qo‘llanilgan



Hozirda Rossiyada daraxtlarni kesish sur’atlari birmuncha pasayganligi kuzatilmoqda



yirik qurilish mollari sanoatiga ega. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga mamlakatning geografik holati, ob-havo sharoitlarining o‘zgaruvchanligi katta ta’sir ko‘rsatadi.

Rossiyada bug‘doy, arpa, grechka, suli, kartoshka, sabzavotlar, yem-xashak, kungaboqar yetishtiriladi; janubda esa poliz ekinlari, uzum o‘stiriladi. Mamlakatda sut va sutgo‘sht chorvachiligi, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, parrandachilik, yilqichilik, bug‘uchilik, arichilik, baliqchilik rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: tug‘-kon sanoati mahsulotlari (57%), metall va ulardan ishlangan buyumlar, qimmatbaho toshlar, mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari, kimyoviy mahsulotlar, yog‘och, sellyuloza va qog‘oz va oziq-ovqat mahsulotlari.

Uralda ko‘plab yirik sanoat korxonalari to‘plangan





Rossiya taygasi –
dunyodagi eng
katta o'rmon

Tabiat

Rossiya relyefi juda xilma-xil. Kavkaz, Ural, Sibir va Uzoq Sharq tog'lari mamlakat hududining katta qismini egallagan, ammo hududning 70% tekisliklardan iborat, bular Sharqiy Evropa, G'arbiy Sibir, Markaziya Yakutiya, shuningdek, O'rta Sibir yassi tog'liliklari. Hududning asosiy qismini ikki geologik platforma – Rus va Sibir platformalari egallagan.

Mamlakat iqlimi xilma-xil bo'lsa ham (arktika iqlimidan subtropik iqlimgacha), aksariyat hollarda mo'tadil yoki yashash uchun qiyin darajada sovuq. Shimolning chekka hududlari va shimoliy orollar arktik iqlimiga yaqin. Ural va undan sharq tomonda o'rtacha harorat yanvarda -15°C dan past (Primorye, Kamchatka va Saxalindan tashqari), Arxangelskdan shimolda, Xanti-Mansida va Krasnoyarskdan sharqqa qarab mangu muzliklar zonasini cho'zilib ketgan. Yil davomida o'rtacha yog'ingarchilik hajmi mamlakatning Evropa qismi va Uzoq Sharq qismida 600–800 mm. Markaziya Sibirda 300–400 mm ni tashkil etadi. Evropa qismida yog'ingarchilik yil

davomida bir maromda yog'adi, Osiyo qismida esa asosan yilning issiq qismida yog'ingarchilik ko'p bo'ladi. Shimol zonasni 10 mln. km² ortiq maydonni egallagan. Bu yerda Rossiya aholisining 7% ga yaqin qismi yashaydi.

Rossiya hududida Shimoliy yarim-sharning sovuq qutblaridan biri joylashgan (Oymyakon posyolkasi, Yakutiya, havoning minimal harorati -72 °C ga-cha yetganligi kuzatilgan).

Rossiya chuchuk suv zaxiralari bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi. Ko'llarda 26 ming km³ ortiq chuchuk suv to'plangan. Mamlakatda 2000 dan ziyodroq suv omborlari mavjud bo'lib, har bir ombordagi suv hajmi 1 mln. km³ tashkil etadi.

Juda katta ma'danli va termal suv zaxiralari mavjud. Asosiy suv manbalari iqtisodiy noqulay joyda joylashgan. Aksariyati Evropa shimolida, Sibirda, Uzoq Sharqda joylashgan. Ammo u yerlarda mamlakat aholisining 1/5 qismi yashaydi xolos.

Rossiya daryo tizimlarining umumiyligi 2,3 mln. km, ularning soni 120 mingni tashkil etadi. Mamlakat hududining katta qismi shimol tomon

oqadigan daryolar bilan sug'oriladi, bular Lena, Irtish, Yenisey va Ob daryolaridir. Daryolarning nisbatan kamroq qismi janubga (Volga) va sharqqa qarab (Amur) oqadi. Rossiya hududida dunyoning eng yirik chuchuk ko'llari Baykal, Ladoga va Onega joylashgan. Kaspiy dengizi esa dunyodagi eng yirik sho'r ko'l hisoblanadi.

Sayyoramiz o'rmon resurslarining 22% Rossiyada joylashgan. Rossiya hududining 45% o'rmonlar bilan qoplangan, yog'ochning umumiy zaxira hajmi 80 mlrd. m³ dan ko'proq. O'rmon resurslarining 70% yog'ochning qimmat navlaridan iborat. Rossiyaning o'rmon massivlari qo'riqxonalar, milliy bog'lar yaratish uchun eng qulay joydir.

O'simliklar dunyosi juda xilma-xil. Arktika cho'llari-yu shimol tundralaridan tortib janubiy dashtlar va Kaspiybo'y pasttekisliklari dagi yarimcho'llargacha bor, biroq barcha yer maydonlarining yarmi o'rmonlar (ignabargli tayga o'rmonlari va janubroqda aralash va yaproqli o'rmonlar) bilan band. O'rmonlarda archa, oqqarag'ay, eman, oqqayin va boshqa daraxtlar o'sadi. Rossiya o'rmonlar maydonlarining kattaligi bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi.

Mamlakat hududidagi tuproqning ko'p qismi unum dorligi bilan ajralmasada, ammo mamlakatda o'ta hosildor qoratuproqli yer maydonlari mavjud bo'lib (mamlakat hududining 8% ga yaqini), bu yerlar mamlakatning Evropa qismi janubidan G'arbiy Sibir gacha cho'zilgan. Qoratuproqli yerlar, shuningdek, Sharqiy Sibirda ham uchraydi. Mamlakat hududi hayvonot olami vakillariga juda boy. Bu yerda asosan, qo'ng'ir va oq ayiqlar, rosomaxa, bo'ri, silovsin, quyon, boyqush, los, bug'u, tulki va boshqalar uchrab turadi.

Qo'ng'ir ayiq asosan o'simliklar – reza mevalar, cho'chqayong'oq, yong'oq, ildiz-poyalar bilan oziqlansada, hasharotlar, chuvalchanglar, qurbaqalar, kemiruvchilarini ham yeyishi mumkin



Kavkaz hududidagi ko'plab ma'danli suv manbalari Rossiyadan tashqarida ham mashhur



Osiyo



OSIYO

Osiyo – maydon jihatidan eng katta qit'a. U Yevrosiyo materigining sharqiy qismida joylashgan. Uning nomi Gomerning «Illiada»sida zikr qilingan. Bu nom Fales, Anaksimandrom va Gektay kabi yunon faylasuflari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Osiyo qit'asini Shimoliy Muz okeani (shimoldan), Tinch okeani (sharqda) Hind okeani (janubda) va atrofidagi dengizlar o'rab olgan.

Dunyoni bu qit'asiga qarashli orollar maydoni 2 mln. km² oshadi.

Relyefi

Osiyo hududining 75% ni tog' va yassitog'liklar egallagan. O'rtacha balandligi – 950 m, eng baland nuqatsi – 8848 m. Tog'lar ikki mintaqani hosil qiladi, birinchisi g'arbdan sharqqa butun Osiyo bo'ylab Osiyo tog'liklaridan Hindixitoy tog' tizmasi va Malayya arxipelagidagi orollargacha, ikkinchisi janubi g'arbdan to shimoli sharqqacha, Tyan-Shan tog'laridan Janubiy Sibir tog'larigacha va shimoliy Chukotkagacha.

Asosiy tog' tizmalar: Himolay, Hindukush, Kunlun, Tyan-Shan, Katta Kavkaz va boshqalar. Yirik tog'liklari: O'rta Sibir va boshqalar. Yassitog'liklar: O'rta Sibir, Arabiston yarimorol va Dekan. Eng katta pastekisliklar: G'arbiy Sibir, Turon, Xitoy, Hind-Gang, Mesopotamiya.



Mo'g'ullar niqobi.
Unda Mongoliyani
muhofaza qiluvchi
iloh tasvirlangan deb
hisoblanadi

O'simlik va hayvonot dunyosi

Shimoliy Muz okeani bo'ylab tundralar joylashgan, janub tomoni o'rmon tundralari bilan o'ralgan. Tundra janubida esa tayga kengliklari joylashgan. Taygadan janubroqda bargli o'rmonlar va dashtlar joylashgan.

Arabiston yarimorolida, Eron tog'ligining ichki hududlarida, O'rta va Markaziy Osiyoda cho'llar va yarimcho'llar tarqalgan. G'arbiy Osiyo subtropiklarida O'rtayer dengizi o'simliklari o'sadi. Sharqiy Osiyoda mussonli aralash o'rmonlar va keng bargli o'rmonlar joylashgan.

Sharqiy va Janubiy Osiyo tropiklarida mussonli bargi to'kiluvchi o'rmonlar va savannalar bor. Ekvatorial kengliklarida botqoqlashgan o'rmonlar joylashgan. Shimoliy Osiyoda taygalar va tundralar, O'rta va Markaziy Osiyoda dashtlar va sahrolar, Janubiy Osiyoda tropik o'rmonlar joylashgan.

Osiyoning hayvonot olami butun dunyo faunasining juda boy qismidir. Hayvonlarning joylashishi kengliklar va mintaqalariga bog'liq. Tundrada shimoliy bug'ular, oqsichqonlar, shimol tulkisi va boshqalar, qirg'oqlarda esa tulenlar, morjlar, oq ayiqlar yashaydi. Barcha qushlar ko'chmanchi. O'rmon zonasida bug'ular, los, silovsin va boshqa jonivorlar ko'plab qush va hasharotlar bor. Dasht va sahrolarda antilopalar, yovvoyi echkilar, qo'ylar, qoplonlar va boshqa shu kabi hayvonlar yashaydi. Ekvatorial va subekvatorial o'rmonlarda karkidonlar, hind fillari va boshqa jonivorlar yashaydi. Bu yerda qushlar, sudralib yuruvchilar, hasharotlar juda ham ko'p.

Buddaviylar ibodatxonasi dagi panno



Osiyo iqlimi

Osiyo iqlimi turli-tuman: shimolda arktika iqlimididan tortib janubdagagi subekvatorial va ekvatorial iqlimgacha. Qit'aning katta qismida kontinental iqlim hukmron. Qish oyalarida qahraton sovuq, yozda esa jazirama issiq bo'ladi. Shimolda, 40° shimoliy kengligida hamma yerni qor qoplagan. Osiyoning katta qismiga yog'ingarchilik ko'pincha issiq mavsumlarda yog'adi. Sharqda va janubda iqlim mussonli, bu yerda issiq va yog'ingarchilik mavsumlari keskin almashib turadi. Maksimal yog'ingarchilik (yiliga 12 ming mm) shimoli sharqda Hindistonda yog'adi.

Ko'l va daryolar

Daryolar Shimoliy Muz, Tinch va Atlantika okeanlari havzalariga tegishlidir. Aksariyat daryolar okeanga quyilmaydi. Asosiy daryolar: Ob, Yenisey, Angara, Lena, Xuanxe, Mekong, Saluin, Furot va boshqalar. Osiyoda ko'plab ko'llar mavjud. Eng yiriklari: Kaspiy va Orol dengizlari, Baykal, Balkash, Issiqko'l va boshqalar.

OSIYO



Afg'oniston



Poytaxti: Qobul (Kobul)

Maydoni: 652,1 ming km²

Aholisi: 32 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tillari: pushtu, dari
tillari

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 99%
(ulardan 84% – sunniylar,
15% – shialar)

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: afg'oni



Fuqarolar urushi
natijasida mamlakat
erkaklarining soni
keskin kamayib ketdi



◆ O'tmishta Amudaryo Kaspiy
dengiziga quyilar edi

Xo'jaligi

Fuqarolar urushi natijasida mamlakat
iqtisodiyoti inqirozga uchragan.
Hozirgi kunda chet el yordamiga
muhtoj. Qurg'oqchil yerlar sug'oriladi.
Afg'onistonda paxta ekinlari yetishtiriladi.
Bu yerda qorako'l qo'ychilik, tuyachilik,
parrandachilikka e'tibor berilmoqda.
Mamlakatda ko'mir, tabiiy gaz, lojuvard,
marmar va qimmatbaho toshlar (zumrad,
yoqut) qazib olinadi. Mamlakat hududida
mis, xrom, talk, barit, qo'rg'oshin, rux va
temir konlari mavjud.

Afg'onistonda to'qimachilik, oziq-
ovqat, moyabzal, sement, kimyo sanoatlari
hamda gilamdo'zlik rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: quritilgan
mevalar, yong'oq, gilamlar, qorako'l yungi,
paxta, charm, qimmatbaho toshlar.

Umumiy ma'lumotlar

Afg'oniston Islom Respublikasi – Markaziy Osiyoning janubi g'arbida
joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident.

1919-yilda Afg'oniston mustaqil davlat bo'ldi. 1973-yilgacha monarxiya,
so'ng respublika, 1996–2001-yillargacha – Islom amirligi bo'ldi.

Mamlakat aholisining etnik qatlami: pushtular – 44%, tojiklar – 28%,
xazariylar – 10%, o'zbeklar – 8%.

Mozori
Sharifdagagi
masjid.
Moviy
koshinli
bezaklar
O'rta
Sharqdagi
aksariyat
masjidlarga
xos



Tabiat

Afg'oniston – tog'li mamlakat, uning hududida janubi g'arbdan
shimoli sharqqa Hindukush tog' tizmasi, shimoli g'arbdan Paropamiz
tog'ları, janubi sharqqa Sulaymon tog'ları joylashgan. Mamlakat
janubida G'azni Kandahor yassitog'liklari joylashgan. Ko'plab
zilzilalar, qurg'oqchilik, suv toshqinlari sodir bo'lib turadi.

Afg'oniston iqlimi quruq, subtropik kontinental. Chuchuk suv,
jumladan, ichimlik suvi yetishmaydi. Janubda sahro o'simliklari,
shimolda dasht o'simliklari, vohalarda subtropik o'simliklar o'sadi.
Tog'da – bargli va ignabargli o'rmonlar joylashgan.

Armaniston



Poytaxti: Yerevan

Maydoni: 29,7 ming km²

Aholisi: 3 mln. kishi

Rasmiy tili: arman tili

Aholisining diniy tarkibi:

xristian-monofistlar – 98%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: dram



Umumiy ma'lumotlar

Armaniston Respublikasi – Osiyo g'arbidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etnik tarkibi: 97% – armanlar, qolgani ruslar, ukrainlar, greklar va boshqalar.


Xo'jaligi

Mustaqillikdan so'ng sanoat inqirozi yuzaga keldi. Ko'plab zavodlar yopildi. Qishloq xo'jaligining ahamiyati oshdi. Mamlakat hududida mis-molibden, mis-qo'rg'oshin-rux rudalari, oltin, qurulish mollari (ohak, granit, marmar, bazalt, pemza va boshq.) qazib olinadi. Tabiiy gaz va neft mahsulotlari import qilib olinadi. IES elektr quvvatining 24% ni, AES – 31% ni, GES – 27% ni ishlab chiqaradi. Armaniston hududida rangli metallurgiya, asbobsozlik, elektrotexnika, radiotexnika, kimyo, sement va boshqa sanoat korxonalari ishlab turibdi.

Mamlakatda boshoqli o'simliklar, kartoshka, sabzavotlar, mevalar, uzum, tamaki yetishtiriladi. Ararat vodiysi uzumchilik, vinochilik va mevachilik markazidir. Armanistonda yirik shoxli mollar ko'paytirish, cho'chqachilik, qo'ychilik va parrandachilik rivojlangan. Sevan ko'lida gulmohi balig'i ko'paytiriladi.

Mahalliy hunarmandchilik sohalari orasida mis, oltin va kumushdan zargarlik buyumlarini yasash, gilamdo'zlik va tosh o'ymakorligi rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: oltin, rangli metall, elektr quvvati, olmos, ma'dan, qurulish mollari, vino, konyak hamda mashinasozlik mahsulotlari.



Limda joylashgan Avliyo Gevork cherkovi arximandriti, usta Arutyon Konstantinopol yasagan xoch

Tabiat

Armaniston – tog'li mamlakat (hududning 90% tepalikda joylashgan). Mamlakatda Arman tog'ligining shimoli sharqiy qismi va Kichik Kavkaz tog' tizmasi joylashgan. Ular orasida Ararat vodiysi, Shirak tekisligi va Loriy havzasi joylashgan. Mamlakat hududida seysmiklik darajasi yuqori. Iqlimi o'zgaruvchan, pasttekisliklarda quruq, subtropik iqlim hukm sursa, tog'larda mo'tadir kontinental iqlim hukmron.

Armanistonda cho'l va yarimcho'l o'simlik dunyosi mavjud. Sevanda qora archa o'rmonlari joylashgan.

Bangladesh



Poytaxti: Dakka

Maydoni: 147,6 ming km²

Aholisi: 144,7 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: bengal tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 83%,
hinduiylar – 16%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: taka



Bangladeshda
dunyodagi eng
chiroyli qushlardan
biri bo‘lmish tovuslar
yashaydi

Umumiy ma’lumotlar

Bangladesh Xalq Respublikasi – Osiyo janubida, Hindiston yarimorolidan sharqda joylashgan davlat. Davlat boshlig‘i – prezident, ammo hukumatni bosh vazir boshqaradi. 1971-yilda Sharqi Pokiston, Hindistonning harbiy ko‘magi bilan mustaqillikka erishdi. Yangi davlat Bangladesh deb nomlandi. Mamlakat aholisining 98% ni bengallar tashkil qiladi. Bangladesh – Hamdo‘stlik a’zosi.



Ishlayotgan qiz

Tabiatি

Bangladesh – Hind-Gang tekisligining sharqiy bo‘lagini, Gang va Braxmaputra daryo deltalarini va pasttekisliklarini egallagan. Mamlakat asosan tekisliklardan iborat. Uni ko‘p sonli daryolar kesib o‘tadi. Bengal ko‘rfazi mamlakatning janub tomonidan o‘rab turadi. Myanma chegarasi yonida baland bo‘lмаган tog‘ tizmalari joylashgan. Mamlakat seysmik xavfli hududda joylashgan.

Bangladesh iqlimi – nam tropik va subtropik iqlim, mussonli. Musson yomg‘irlari va suv toshqinlari mavsumida hududning 70% suv ostida qoladi, deyarli barcha sholi maydonlari sug‘oriladi. Mamlakatda nam tropik va mangr o‘rmonlari: tik, sal, bambuk, orxideya o‘sadi. Hayvonot olami: bengal yo‘barslari, qoplonlar, timsohlar, fillar, mangusta, bo‘g‘ma ilonlar kabi jonivorlar yashaydi.

Xo‘jaligi

Bangladeshda aholining 63% qishloq xo‘jaligiga jalb etilgan. Nam tropik iqlimda joylashgani uchun yil bo‘yi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanish imkoniyati mavjud. G‘arbida esa qurg‘oqchilik bo‘ladi. Mamlakatda guruch, jut (Hindiston kanopi), choy, bug‘doy, shakar, kartoshka, tamaki, dukakli o‘simliklar, kungaboqar, mevalar, mango yetishtiriladi. Bundan tashqari yirik shoxli mollar (buqa va buyvollar), shuningdek, parrandalar ko‘paytiriladi. Aholi odatda tabiiy ofatlardan iztirob chekadi, suv toshqinlari ekinlarni payhon qiladi. Daryolardan va Bengal ko‘rfazidan baliq ovlanib dengiz mahsulotlari olinadi. Baliq bilan guruch aholining asosiy oziqasidir. Mamlakatda tabiiy gaz qazib olish ishlari olib borilmoqda. Bu yerda paxtani qayta ishlash, tikuvchilik, choy qadoqlash, qog‘oz, sement, kimyo, shakar, to‘qimachilik, mashinasozlik sanoatlari rivojlangan.

Mahalliy hunarmandchilik turlari: milliy naqqoshlik, gilamdo‘zlik, yupqa paxta gazlamalarini to‘qish, gulli laxtaklardan kiyim-kechak tikish.

Asosiy eksport mahsulotlari: kiyim, Hindiston kanopi, jut, teri, muzlatilgan baliq va dengiz mahsulotlari.

Bahrayn



Poytaxti: Manama

Maydoni: 707 km²

Aholisi: 800 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar (shialar –
70%, sunniylar – 30%)

Davlat tuzumi:
konstitutsiyaviy monarxiya
Pul birligi: Bahrayn dinori



Masjid muazzini (arab tilidan tarjimasi – «e'lon qiluvchi») azon aytib musulmonlarni namozga chorlaydi

Umumiy ma'lumotlar

Bahrayn Qirolligi – Osiyoning janubi g'arbidaqgi davlat. Fors ko'rfa zining shimoli g'arbiy qismida Saudiya Arabiston yarimoroli qirg'oqlari yaqinida joylashgan. Davlat boshlig'i – Qirol. 1971-yilgacha Bahrayn inglizlar protektorati edi. 1971-yilda mustaqil amirlik, 2002-yildan boshlab qirollik deb e'lon qilindi.

Aholisining etnik tarkibi: 63% – baxrayinliklar, 19% – Pokiston va hindistonlik muhajoirlar, 10% – arablar, 8% – eronliklar.

Tabiat

Mamlakat 33 oroldan iborat Bahrayn arxipelagida joylashgan. Bahrayn oroli ohaktosh va marjonli hududlaridan tashkil topgan. Mamlakat iqlimi quruq, tropik. Katta orollarda va qirg'oq bo'yida dengiz tubidan chuchuk buloqlari chiqib turadi. Bahrayn hududida sahrolar bor. Dengiz suvida ko'plab marjonlar mavjud.

Xo'jaligi

1932-yilgacha neft konlari topilguncha marvarid olish Bahrayn iqtisodiyotining asosini tashkil qilardi, hozirgi kunda ham bu soha yetakchi o'rinn egallagan. Ilgari neftni qayta ishlash YIM 60% ni tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi kunda 30% ni tashkil qiladi. Neft konlari zaxiralari tugab



Fao ravishda (o'nlab yillar davomida) neft qazib olish natijasida Bahraynda neft zaxirasini tugagan

bormoqda. Mamlakatda tabiiy gaz qazib olinadi va qayta ishlanadi uning zaxiralari ham ko'p emas. Bank xizmat ko'rsatish biznesi rivojlangan. Manamada ko'plab arab transmilliy korxonalarining bosh qarorgohlari joylashgan. Bahraynda supertankerlar kemasozligi rivojlangan. Mamlakatda aluminiy zavodi (rudalar Avstraliyadan keltiriladi) bor.

Vohalarda xurmo daraxtlari, sitrus mevalari, mevalar, pomidor, yem-xashak ekinlari, sabzavotlar va yong'oq yetishtiriladi.

Mamlakat aholisi baliqchilik bilan ham shug'ullanadi.

Mamlakatda turizm rivojlangan. Mahalliy hunarmandchilik turlari: zargarlik, kulolchilik, marvariddan turli bezaklar yasash, kashtachilik, savat to'qish. «Dxou» kemalarini qurish rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari, aluminiy, marvarid.

Birlashgan Arab Amirliklari



Poytaxti: Abu-Dabi

Maydoni: 83,6 ming km²

Aholisi: 4,4 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 96%

Davlat tuzumi: Federativ
davlat

Pul birligi: dirham




BAAda zargarlik
buyumlarini yasash
an'analari ko'p asrlik
tarixga ega

Umumiy ma'lumotlar

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) – Arabiston yarimorolining sharqidagi davlat. BAA 7 amirlikdan tashkil topgan federatsiyadir. Davlat boshlig'i – president (Abu-Dabi amirligining shayxi). U federatsiyaning Oliy Kengashini boshqaradi.

Aholisining etnik tarkibi: BAA arablari – 20%, qolganlari qo'shni arab mamlakatlaridan kelgan arablар, shuningdek, Hindiston, Pokiston, Erondon kelganlar.



Tabiat

Mamlakat Fors ko'rfazi Janubiy qirg'og'i bo'ylab joylashgan tekislikni egallagan. Sharqda qoyali plato joylashgan. U Hojar tog'iga ulanib ketgan. G'arbiy va Janubiy qismlarda qumli va toshli sahrolar, hamda sho'rxoklar mavjud. Shimoli g'arbda harakatlanuvchi qumli tepaliklar joylashgan. Fors ko'rfazing qirg'oq chizig'i kichik ko'rfaclar bilan ajralib turadi. Uning oldida ko'plab kichik marjonli riflar joylashgan.

Mamlakat iqlimi tropik, quruq. Yozda o'rtacha harorat +41°C ga yetishi mumkin, dengiz qirg'oqlarida namlik 97% ni tashkil etadi. Shimoliy shamollar nafaqat salqin havo balki chang va qumli bo'ronlarni olib keladi. Doimiy daryolar yo'q. BAA da chuchuk suv tanqisligi sezilarli darajada. Shuning uchun dengiz suvida chuchuklashtiruvchi uskunalar ishlaydi. Sahrolarda buloqlar atrofida vohalar joylashgan. Tog'larda dasht o'simliklari o'sadi.

Abu-Dabining Fors ko'rfazi tomondan ko'ninishi

Xo'jaligi

BAA – Osiyoning eng boy davlatlaridan biri. Mamlakatda neft (dunyo zaxirasining 10%, shuning 95% Abu-Dabiga to'g'ri keladi) va tabiiy gaz sahrolarda va Fors ko'rfazi suv ostidan olinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: neftni qayta ishslash, gazni qayta ishslash, neft-kimyo, kemasozlik sement sanoatlari. Dubayda aluminiy zavodi joylashgan. Aholi baliqchilik va marvarid topish bilan shug'ullanadi.

Mamlakatda turizm rivojlangan. Vohalarda palma, mevalar, uzum, sabzavotlar yetishtiriladi. Qolgan hududlarda ko'chmanchi chorvachilik (qo'y, echki, tuyalar) rivojlangan.

Mahalliy hunarmandchilikning xanjarlar yasash, gilamdo'zlik, qutilar va sandiqlar yasash, oltin va kumush tangalarni zarb qilib naqsh bezak berish turlari rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari, suyultirilgan tabiiy gaz, aluminiy va marvarid.

Bruney



Poytaxti: Bandar-Seri Begavan

Maydoni: 5765 km²

Aholisi: 400 ming kishi
(2007)

Rasmiy tillari: malay, ingliz tillari

Aholisining diniy tarkibi: musulmonlar – 67%, xristianlar – 10%, buddaviylar – 13%

Davlat tuzumi: Mutlaq monarxiya

Pul birligi: Bruney dollari



Bruney qirg'og'ining suv ko'tariladigan qismida mangrzelar joylashgan

Tabiatি

Mamlakat hududi shimol va janubda tepaliklar bilan o'ralgan, g'arbda – kichik tog'lar, sohilbo'yи tekisliklaridan iborat. Bruney iqlimi – ekvatorial, nam, mussonli. Zilzilalar tez-tez bo'lib turadi, kichik daryolar tepaliklardan shimolga dengiz tomon oqib tushadi. Hududning 75% dan ortiq qismini tropik o'monlar tashkil qiladi, u yerda palma, bambuk, daraxt ko'inishdagi qirqquloq, orxideya, tropik mevalar o'sadi.

Xo'jaligi

Bruney – dunyodagi eng boy davlatlardan biri. Ishlaydiganlarning 40% ni sharqiy va janubiy-sharqiy Osiyodan kelgan yollanma ishchilar tashkil qiladi. Bruney neft va tabiiy gazga boy konlarga ega. Davlat iqtisodiyotining asosiy qismini neft va gaz qazib olish va qayta ishlash tashkil qiladi. Suyultirilgan gaz ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 4-o'rinda turadi. Mamlakat hududida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish bo'yicha zavod faoliyat yuritadi. Gaz tankerlari gazni Yaponiya va boshqa davlatlarga yetkazib beradi. Neft va gazning bir qismi qo'shni Saravak zavodlarida qayta ishlanadi. Mamlakatda

Umumiy ma'lumotlar

Bruney-Dorussalom Davlati – Osiyoning Janubiy-sharqiy qismida Kalimantan orolining shimoliy qirg'og'ida joylashgan davlat. U asosiy qismdan va Temburong sharqiy ekslavidan (Malayziyaning Saravak shtati uni asosiy qismdan ajratib turadi) tashkil topgan. Davlat boshlig'i – Sulton. Bruney – Hamdo'stlik a'zosi. Aholisining etnik tarkibi: 67% – malaylar, 15% – xitoylar, 7% – dayaklar.



Bruney tarixini aks ettiruvchi qadimiy tasviriy san'at asari

selluloza-qog'oz, ma'danli o'g'itlar, qurilish mollarini ishlab chiqarish va yog'ochsozlik sanoati rivojlangan. Bruneyda guruch, makkajo'xori, kokos, banan, ziravorlar, kakao va qahva yetishtiriladi.

Mahalliy hunarmandchilik turlari orasida oltin va kumush iplardan naqsh solish, zargarlik, bronzadan esdalik sovg'alar yasash rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, neft mahsulotlari, tabiiy gaz.

Butan



Poytaxti: Tximpuxu

Maydoni: 47 ming km²

Aholisi: 900 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: dzong-ke tili

Aholisining diniy tarkibi:
lama buddaviylari – 75%,
hinduiylar, animistlar va
boshqalar – 25%

Davlat tuzumi:

Konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: ngultrum



Oq Tara haykalchasi – buddaviylik ramzlaridan biri



Marosimga mo'ljallangan baraban.
Bunday barabanlar ko'pincha surmaylarga jo'r bo'ladi

Xo'jaligi

Iqtisodiyoti asosini o'rmon va qishloq xo'jaligi, turizm, pochta markalari savdosi tashkil qiladi.

G'arbda joylashgan konlarda kichik hajmda gips, ohak, dolamit, ko'mir, marmar olinadi. Mamlakat hududida o'rmon xo'jaligi, yog'ochsozlik, sement va oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan. Mamlakada guruch, makkajo'xori, ildizli mevalar, yem-xashak ekinlari yetishtiriladi. Butanda sut-go'sht chorvachiligi, parrandachilik rivojlangan. Keng yaylovlarida qo'tos, echki va szo (qo'tos va sigir chatishtilishidan hosil bo'lgan) boqiladi. Vodiylarda aholi bog'dorchilik bilan shug'ullanadi.

Kichik mahalliy hunarmandchilik turlari orasida jezdan buddaviylik haykalchalarini yasash, jun va paxta gazlama to'qish va gilamdo'zlik, kumush va misdan zargarlik buyumlarini tayyorlash, yog'och o'ymakorligi rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: elektr quvvati (Hindistonga), gips, sement, yog'och, olma, qo'ziqorin, mevalar, qimmatbaho toshlar, ziravorlar.

Tabiat

Shimoli g'arbda va shimoliy hududlarda Himolay tog'i bilan o'ralgan. Yerlarning 50% dan ziyodi 3000 m balandlikda joylashgan, 20% – muzlik va qorlar bilan qoplangan. Ichki Himolay tog'lari ko'ndalang tepaliklar labirintidan iborat bo'lib ular orasida keng tog' vodiylar joylashgan. Janubiy qismida serhosil tekisliklar bor. Butanda zilzilalar bo'lib turadi. Himolaydan janubroqda shovqinli tez oqar daryolar – Braxmaputra irmoqlari oqib o'tadi.

Butan yirik gidroqvvat resurslariga ega, bundan tashqari temir rudasi, mis, qo'rg'oshin, rux, ko'mir, marmar qazib olinadi.

Mamlakat iqlimi va o'simlik dunyosi hududning balandligiga bog'liq. Mussonlar hukumron vaqtida kuchli yomg'irlar suv toshqini va eroziyaga olib keladi. Tekisliklarda doimiy yashil tropik o'rmonlar, 1800 m dan 3500 m gacha balandlikda aralash va ignabargli o'rmonzorlar, teparoqda subalp, eng tepada apl yaylovlar, 5500 m dan balandroqda muzliklar va qor qatlamlari joylashgan.



◆ Qo'toslarning qorni, ko'kragi va oyoqlaridagi juda uzun jun o'ziga xos etak hosil qiladi. Qo'toslar qorda yotganda etak ularni sovuqdan asraydi

Eron



Poytaxti: Tehron

Maydoni: 1648 ming km²

Aholisi: 71 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: fors tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 99% (shialar – 89%, sunniylar – 10%)

qolganlari xristianlar va zardushtiylar

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: rial



Umumiy ma'lumotlar

Eron Islom Respublikasi –

Janubiy-g'arbiy Osiyoda joylashgan davlat. Eron – teokrat boshqaruva tizimli davlat bo'lib, uning boshida «Ruhoniy boshliq» turadi. U parlamentni boshqaradi va Islom Inqilobi Kengashini nazorat qiladi. Ijroi hokimiyatni prezident boshqaradi.

1979-yilgacha Eron eng qadimiy monarxiya davlatlari qatorida turar edi. 1979-yilda Eron Islom Respublikai deb e'lon qilindi.

Aholisining etnik tarkibi: 51% – forslar, 24% – kurdlar, 3% – arablar, 2% – belujilar, 2% – lurlar, 2% – turkmanlar va boshqalar.



◆ Eron qora uvuldiriq eksport qiladi

Persepol
vayronalari.
Persepol
shahriga
miloddan avvalgi
VI asrda, Doro I
hukmronligining
boshida asos
solingan

Diqqatga sazovor joylari

Eroniga ko'plab chet el sayyoohlari keladi. Asosiy arxitektura yodgorliklari: qadimiy Persepol, Bam shahar vayronlari, Rizo masjidi, Sa'diy, Hofiz She'roziy va Umar Xayyom maqbaralari. Elburs tog'larida tog'-chang'i kurortlari joylashgan.



Xo'jaligi

Eron – neft sanoati rivojlangan, agrar-industrial davlat (mamlakat). YIM ning (2002) 55% xizmat ko'rsatish sektoriga, 26% sanoatga, 19% qishloq, o'rmon xo'jaliklariga va baliqchilikka to'g'ri keladi. Eron dunyoda neftni qazib olish bo'yicha 4-o'rinda turadi. Mamlakatda bundan tashqari tabiiy gaz, toshko'mir, xromit, polimetall, oltin, barit, surma va boshqa qazilmalar olinadi. Bushirda (Rossiya yordami bilan) AES qurilmoqda.


Sanoatning asosiy tarmoqlari: neftni qayta ishlash, neft-kimyo, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat, avtomobil, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, metallni qayta ishlash va kemasozlik.

Qurg'oqchil yerlarga irrigatsiya tizimlari qo'llaniladi. Eronda boshoqli (bug'doy, arpa), dukkakli o'simliklar, paxta, qand lavlagi, tamaki, yong'oq, choy, ziravorlar, xina, sitrus mevalar va dorivor o'simliklar yetishtiriladi. Eron dunyoda bodom ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda va o'rik yetishtirish bo'yicha 2-o'rinda, mandarin yong'oq va mayiz yetishtirish bo'yicha 3-o'rinda turadi. Mamlakatda mevachilik, uzumchilik, poliz ekinlarini yetishtirish, chorvachilik (qo'y, echki, tuya, yirik shoxli mol) rivojlangan. Aholi, shuningdek, baliqchilik bilan ham shug'ullanadi (Kaspiy dengizida).

Mahalliy hunarmandchilik tarmoqlariga bronza, shisha buyumlar yasash, miniatura rassomchiligi, yog'och o'ymakorligi kiradi.

2001-yilda Eronga 1402 ming chet el sayyohlari keldi, bu yerga ularni boj to'lovlar siz savdo hududlari ko'proq jalb etadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari, qora uvuldiriq, bodom, po'lat, mandarin, gilam, mayiz, o'rik.



Eron feruzasini
3 ming yildan
ortiq vaqtidan
beri qazib
olishadi

Tabiat

Hududning katta qismini Eron tog'liklari egallagan. Shimoli g'arbdan janubi sharq tomon ikki parallel tog' tizmalari: Zagros va Kuxrud joylashgan. Kaspiy dengizi qirg'oq bo'yida Elburs tog'i joylashgan. Turkmaniston bilan chegara hududida Turkman-Xuroson tog'lari qad ko'targan. Shimoli g'arbdida Arman tog'liklarining alohida joylashgan qismlari Qoratog', Sebelan, Bozqush, Talish massivlari joylashgan; janubda esa – Makron tog'lari joylashgan. Barcha tog' tizmalari sahro, dasht va cho'l tekisliklari bilan o'ralgan. Ko'plab ko'llar yoz faslida qurib tuzli sahrolar hosil qiladi.

Kaspiy dengizi dunyodagi eng katta ko'ldir. Sug'orish uchun quduqlar tizimi yo'lga qo'yilgan.

Mamlakat iqlimi subtropik kontinental, quruq va yarim-quruq. G'arbiy qismida esa tropik kontinental. Qishda mamlakat shimolida qor yog'adi. Fors ko'rfazi qirg'oqlari bo'ylarida yoz faslida juda issiq va yuqori darajada namlik kuzatiladi.

Mamlakatda dasht va cho'l o'simliklari o'sadi. Hududning 8% ni o'rmonlar, 14% ni haydalgan yerlar, 55% ni yaylovlar, 23% ni sahrolar egallagan. Qurg'oqchiliklar, suv toshish hodisalari, qumli bo'ronlar bo'lib turadi. Milliy bog'larida flamingo, qora ayiq, tog' echkilari va turfa xil qushlar mavjud.



◆ Qo'lda to'qilgan eron gilamlari o'zining sifati va badiiyligi bilan butun dunyoda qadrlanadi



◆ Isfaxondagi masjid. Bu shaharda qariyb 200 ta masjid bor

Falastin



Maydoni: 6220 km²

Aholisi: 4 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:

g'azo sektorida: musulmonlar – 99%, Iordan daryosi g'arbiy sohilida: musulmonlar – 75%, yahudiylar – 17%, qolgan din vakillari – 8%

Pul birligi: Isroil shekeli.



Chilim arablar turmush tarzining ajralmas qismi


Umumiy ma'lumotlar

Falastin milliy ma'muriyati avtonomiyadir, 1994-yilda Falastin-Isroil kelishuvlariga binoan tashkil topgan. U O'rtayer dengizining sharqiy qismida Yaqin Sharqda joylashgan. Avtonomiya boshlig'i – Falastin milliy ma'muriyati raisi. Avtonomiya nazorati ostidagi hududlar – G'azo sektori va Iordan daryosi g'arbiy sohili. Bu hududlar Isroil tomonidan 1948–1949-yillar va 1967-yil qisman ishg'ol qilingan. Hozirgi vaqtida Isroil va Falastin orasidagi kelishmovchiliklar tinch yo'll bilan hal qilinib Falastin davlatining shakllanish jarayoni ketayapti.

G'azo sektorida falastinlik arablar 99% ni, Iordan daryosining g'arbiy sohilida falastinlik arablar 8% ni, yahudiylar – 17% ni tashkil etadi.



Rojdestvo ibodatxonasi dagi g'or. Rivoyatlarga ko'ra bu yerda Iso Masih tug'ilgan ekan



◆ Choy ustida suhbat

Xo'jaligi

Turli xil to'qnashuvlar mamlakat rivojiga to'sqinlik qiladi. Mehnatga layoqatli aholining 50% ishsizdir. G'azo sektorining 81% aholisi, g'arbiy sohilda esa 59% aholi qashshoqlikda kun kechiradi. Har kuni 125 ming falastinlik Isroilga ishlash uchun boradi. Mamlakatda sement, zaytun moyi, to'qimachilik mahsulotlari,sovun ishlab chiqarish yo'lda qo'yilgan. Mahalliy hunarmandchilik rivojlangan. Elektr quvvati Falastinga Isroildan keltiriladi. Aholi zaytun, sitrus mevalar, sabzavotlar, gullar, tamaki yetishtiradi. Sut chorvachiligi ham rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: sitrus mevalar, gullar, ohak.

Tabiatি

G'azo sektori dengiz oldida joylashgan. Bu yerlarda sahro va qum tepaliklari bor. G'arbiy sohildagi sektor bo'lsa Yahudiy tog'larida (1022 m.) va chegaraning sharqiy qismi bo'ylab oqib O'lik dengiz ko'liga tushadigan Iordan daryo vodiysida joylashgan.

Mamlakat iqlimi subtropik, G'azo sektorida yarim quruq iqlim, Iordan daryosi g'arbiy sohilda quruq iqlim hukmron. Falastinning g'arbiy qismi uchun subtropik o'simlik dunyosi, sharqiy qismiga sahro o'simliklari xosdir. Mamlakatda qurg'oqchilik bo'lib turadi. Sahro hududlari kengayib tuproqlar sho'rxoklashib borayapti.

Filippin



Poytaxti: Manila

Maydoni: 300,1 ming km²

Aholisi: 89 mln. kishi (2007)


Rasmiy tili: tagal tili

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 83%, protestantlar – 9%, musulmonlar – 5%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Filippin pesosı



Umumiyyat va etnik quruhlar

Filippin Respublikasi – Janubiy-sharqiy Osiyoda joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholisining 91% – filippinliklar (90 dan ko'p etnik guruhlar).

Xo'jaligi

Filippin iqtisodiyoti jadal rivojlanib bormoqda. Mamlakat hududida xromitlar (zaxirasi bo'yicha dunyoda 8-o'rinn), mis, nikel, temir rudalari, oltin, kumush



va boshqa qazilmalar olinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, neft-kimyo va neftni qayta ishslash, elektronika, farmatsevtika va boshqalar.

Filippinda guruch, kokos palmasi, makkajo'xori, batat, shakarqamish, banan, ananas, sitrus mevalari va boshqa o'simliklar yetishtiriladi. Aholi cho'chqa, echki, yirik shoxli mol ko'paytirish bilan, parrandachilik, baliqchiilik va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Mahalliy hunarmandchilik turlari: guruch va baliq uchun savatlari to'qish, tikuvchilik, kashtachilik.

Asosiy eksport mahsulotlari: elektron va telekommunikatsion jihozlar, elektrotexnik mahsulotlari, kiyim, kokos yog'i, shakar, oltin, mis konsentrati, xrom rudasi, baliq.

◆ Filippin qizlari

Tabiat

Filippin arxiveli 7107 oroldan iborat. Mamlakat hududining 75% ni tog'lar egallagan. Orollar seysmik faol hududda joylashgan, sunamilar bo'lib turadi.

Filippin oroli ekvatorial mintaqada joylashgan. Mamlakatning markazi va shimoliy qismlarida mussonli subekvatorial iqlim hukmron. Mamlakatda musson yomg'irlari va kuchli shamollar paytida tuproq ko'chishi va suv toshqini bo'lib turadi. Filippin daryolari qisqa va serjo'shqin.

Hududning 18% o'rmonlar bilan qoplangan.

800–900 metr balandlikda nam, doimiy yashil mussonli o'rmonlar bor. Mussonli bargi to'kiladigan o'rmonlar, tog' yonbag'rlarining shamol tegmaydigan qismida va vodiylarning ichki qismida joylashgan.

800 m – 1200 m gacha baland tog'larda tumanli o'rmonlar, subtropik o'simliklar bor. 1200 metrdan balandroqda butalar joylashgan. Dengiz qirg'oq bo'yalarida palma va mangr o'simliklari o'sadi.

Gruziya



Poytaxti: Tbilisi

Maydoni: 57,2 ming km²

Aholisi: 4,4 mln. kishi (2008)

Rasmiy tili: gruzin tili

Aholisining diniy tarkibi:

pravoslavlар – 83,9%,
musulmonlar – 9,9%,
monofistlar – 4,7%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: lari



Xo'jaligi

Iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, konserva sanoatlari tashkil qiladi. Tabiiy gaz, neft va neft mahsulotlari xorijdan import qilinadi. Gruziya hududida qora va rangli metallurgiya korxonalari, mashinasozlik va kimyo sanoatlari faoliyat yuritadi.

Kolxid pasttekisligidagi botqoq yerlar doimiy melioratsiya qilish, Sharqi Gruziyadagi quriq yerlarni irrigatsiya qilish zarur. Iqlimi iliqligi sitrus mevalar, tamaki va choy yetishtirishga imkon yaratadi. Don mahsulotlardan keyin vino mahsulotlari uchun uzum yetishtirish ishlab chiqarishning asosiy yo'nalişidir. Mamlakatda 500 dan ortiq turda vino mahsulotlari ishlab chiqariladi. Gruziyada yirik shoxli qora mollar, cho'chqa, qo'y va parrandalar ko'paytirladi.


Gruziya marganes rudasini, qora va rangli metallarni, mashinasozlik, kimyo sanoatlari, qishloq xo'jaligi, ma'danli suv, vino, yong'oq mahsulotlarini eksport qiladi.

Umumiy ma'lumotlar

Gruziya – G'arbiy

Osiyoda joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Gruziyaga Ajariya, Abxaziya va Janubiy Osetiya avtonom respublikalari kirar edi. Lekin 2008-yil avgust oyida harbiy to'qnashuvlardan so'ng Abxaziya va Janubiy Osetiya o'zlarini mustaqil davlat deb e'lon qildi.

Aholisining etnik tarkibi: gruzinlar – 83,8%, ozarbayjonlar – 6,5%, armanlar – 1,5%, ruslar – 1,5%.



◆ Kutaisidagi Gelat tarixiy-me'moriy ansamblı

Tabiatি

Gruziya hududini 2/3 qismi tog'lardan iborat. Katta Kavkaz tog' tizmalari mamlakatning shimoliy qismini, Kichik Kavkaz tog'lari, tepaliklar, plato va Janubiy Gruzin tog' tizmalari janubiy qismini egallaydi. Tog'larda karst hodisasi keng tarqalgan (470 dan ortiq g'orlar mavjud). Lixs tog' tizmasi mamlakatni g'arbiy va sharqiy qismlarga ajratadi. G'arbda serhosil Kolxid pasttekisligi, Sharqda ichki Kartl, quyi Kartl va Kaxetin tekisliklari joylashgan.

Gruziyaning g'arbida subtropik nam iqlim, sharqda quruq O'rtayer dengizi iqlimi hukmron. Qish – yoqimli, yoz – nam. G'arbda ko'p yog'ingarchilik bo'ladi. Batumida yog'ingarchilik miqdori yiliga 2500 mm tashkil etadi. Katta Kavkaz tog'larida 550 ga yaqin muzlik joylashgan. Mamlakatda 850 ga yaqin ko'l mavjud.

Kolxid pasttekisligi botqoqlar va evkalipt o'rmonlaridan tashkil topgan. Qora dengiz qirg'oqlari bo'ylab nam keng bargli subtropik o'rmonlar joylashgan. Sharqiy qismidagi tekisliklarda dasht o'simliklari o'sadi.

Hindiston



Poytaxti: Dehli

Maydoni: 3287 ming km²

Aholisi: 1132 mln. kishi

(2007 yil dunyoda 2-o‘rin)

Rasmiy tillari: hind, ingliz tillari

Aholisining diniy tarkibi: hinduiylar – 81%

musulmonlar – 12%,

xristianlar – 2%, sikxlar – 2%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: hind rupiyasi



Umumiy ma'lumotlar

Hindiston Respublikasi – Osiyo janubidagi davlat. Bengal ko'rfazidagi Nikobar, Andaman orollari, hamda Araviya dengizidagi Lakkadiv va Amind orollari bu davlatga tegishlidir. Davlat boshlig'i – prezident. Hindiston – Hamdo'stlik a'zosi. Hindiston 26 shtatdan, 6 ta ittifoqdosh hududdan tashkil topgan federativ respublika.

Hindistonda 200 ga yaqin xalqlar yashaydi. Aholining 72% hind- yevropa oilasiga mansub: hindlar,

bengallar, assamlar, bixarlar, oriyalar, panjoblar, rajestonliklar, gujaratliklar, maratxillar, kashmirliklar va boshqalar. Janubiy Hindiston xalqlari andxra, tamillar, malayaliklar, kanaralardan iborat.

Hindlar 4 kastaga (ijtimoiy qatlam) bo'linadi: braxmanlar (rohiblar), kshatriylar (harbiylar), vayshlar (savdogarlar) va shudra (dehqonlar).

Etnik raqs guruhi. Hind raqsidagi har bir harakat alohida ma'no anglatadi



Ko'p asrlar davomida Hindiston hududida bir necha bor yangi davlat tuzilgan. 1498–1503-yillarda portugal va gollandlar mamlakat dengiz qirg'oq bo'yalarida Du, Goa, Daman koloniyalarini tashkil qildi. Davlatning eng gullagan payti Boburiylar sultanati tashkil bo'lgan davrga to'g'ri keladi. XVIII asr yarmida saltanat parchalanishi inglizlarning mustamlakachilik Ost-Indiya kompaniyasi paytiga to'g'ri keldi. 1858-yilda mustamlaka yerlarni boshqarish Buyuk Britaniya hukumatiga o'tdi. Hindistonni «ingлиз tojining marvaridi» – deb atay boshlashdi. 1947-yilda mustamlaka davri tugadi, Hindiston Buyuk Britaniya dominioni bo'ldi. 1950-yil 25-yanvarda Hindiston Mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

Xo‘jaligi

YIMning 48% xizmat ko‘rsatish sohasiga, 28% sanoatga, 24% qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatda to‘qimachilik, tikuvchilik, kimyo, farmatsevtika, elektrotexnika va elektronika sanoatlari rivojlangan.

Mamlakatda guruch, bug‘doy, kungaboqar, paxta (dunyoda 2-o‘rin), jut, choy (80% Assamda yetishtiriladi), shakarqamish, kartoshka, yong‘oq, tamaki, kunjut, qahva daraxti, kauchuk o‘simligi, sizal, ziravorlar, kanakunjutlar yetishtiriladi. Yirik shoxli mollar, suv buyvollari, qo‘y, echki, cho‘chqa va parrandalar ko‘paytiriladi. Chuchuk suv havzalarida va Hind okeanida baliq ovlanadi.

Tabiat

Mamlakatning katta qismi Hindiston yarimorolida va Hind-Gang past tekisligida joylashgan. Mamlakat shimolida Sivalik tog‘lari va Himolay, Qoraqurum baland tog‘tizmalari joylashgan. Hindiston yarimorolining g‘arbiy qirg‘oq bo‘yi hududida Katxiyar, Konkan va Malabar yarimorollari, janubiy-sharqiy qismida koromandel qirg‘og‘i joylashgan. Hindiston yarimorolining janubida Dekan yassitog‘ligi, G‘arbiy va Sharqiyy Gat tog‘lari, Kardamon tog‘lari joylashgan. Sharqda Shillong platosi va Assam tog‘lari, g‘arbda kichik Aravali tog‘lari joylashgan. Himolay, Rajaston, Bixor va G‘arbiy Bengalda zilzilalar bo‘lib turadi.


Iqlimi: mamlakatning shimoli g‘arbida subtropik, markaziy qismida subekvatorial mussonli, janubda esa nam ekvatorial. Tog‘larda iqlim ta’siri yaqqol sezildi. Iqlimi fasllarga qarab ajratiladi. Dekabrdan fevral oyiga qadar quruq mussonli (shimoliy sharqiy musson esadi). Mart oyidan maygacha jazirama issiq +28° C dan

+35° C gacha. Iyundan noyabrgacha o‘rtacha issiq, nam. Mamlakat shimolidagi Shillong platosiga dunyodagi eng maksimal yog‘ingarchilik miqdori kuzatiladi (12 ming mm gacha).

To‘fon va dengiz suvini toshishi sodir bo‘lib turadi. Himolayda qor yog‘adi. Hindistonda qurg‘oqchilik, suv toshishi, kuchli tropik yomg‘irlar va sunamilar bo‘lib turadi.

Tog‘lari o‘simlik dunyosiga boy. Himolay tog‘larining etagida kedr, paxta, qoraqarag‘ay, qayin, eman daraxtzorlari, o‘rta qismida butalar va alp yaylovlari, tepe qismida esa qorli qoplam va muzliklar joylashgan. Sivalak tog‘i yonbag‘irlarida baland o‘qli botqoqli changalzorlar, janubi sharqda bargli o‘rmonlar, yassitog‘liklarda savannalar va janubda ekvatorial o‘rmonlar mavjud. Aravali tog‘idan shimoli g‘arbda Tar sahrosi joylashgan. Hindistonda fillar, hind bizonlari, bengal yo‘lbarslari, karkidonlar, qoplonlar, kashmir bug‘ulari, yovvoyi buyvollar, ilonlar, timsohlar, tulkilar bor.

Aholisi eng ko‘p mamlakatlar 2050-yil bashorati (mln. kishi)



Hinduiylar ilohi Ganeshning haykali



Indoneziya

Poytaxti: Jakarta

Maydoni: 1905,5 ming km²

Aholisi: 235 mln. kishi

Rasmiy tili: indonez tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 88%, protestantlar 5%, katoliklar – 3%, hinduiylar – 2%, buddaviyilar – 1%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Indoneziya rupiyasi



Umumiy ma'lumotlar

Indoneziya Respublikasi –

Osiyoning janubi sharqidagi orolda joylashgan davlat. O'z ichiga 17,5 mingta Malay arxipelagidagi orollarini oladi: Zond, Kichik Zond, Molluk orollarini, Yangi Gvineya orollarining g'arbiy qismi va mayda arxipelaglar. Ular dengiz va ko'rfaflar bilan ajratilgan. Davlat boshlig'i – president.

Aholining 60% Yavada, 20% Sumatrada, 7% Sulavesida, 6% Kichik Zond orollarida va 5% Kalimantanda yashaydi. Mamlakatda 367 millat va xalqlar yashaydi, jumladan, yavaliklar – 45%, sundlar – 45%, madurslar – 8%, malaylar – 8%. Shaharlarda xitoqliklar, hindistonliklar va arablar yashaydi.

II–V asrlarda Yava, Sumatra va Kalimantan orollarida birinchi davlatlar shakllana boshlagan. VIII asrning birinchi yarmida Mataram davlati paydo bo'ldi, u yerda 832-yildan boshlab hinduiy dini rivojlandi. Yava sharqida 1294-yili Majapxit imperiyasi tashkil topdi. XIV asrda Hindistondan islom kirib



◆ Indoneziyaning Mustaqillik kuni munosabati bilan o'tkazilgan paradda qatnashayotgan milliy libosdagi qiz

keldi. 1602-yilda Gollandiya Ost-Indiya kompaniyasi tashkil topdi, u ziravorlar bilan savdo-sotiq qilardi. Bu kompaniya portugallarni siqib chiqardi. Yavada gollandlar shahri Bataviya barpo etildi, Sulavesda esa Makasar. XVIII asr o'rtalarida gollandlar Yavani to'liq egalladi, XX asr boshiga kelib butun Indoneziyani egalladi. 1945-yilda Indoneziya o'zini mustaqil davlat deb e'lon qildi. Niderlandlar buni tan olishmadidi. 1950-yilda Indoneziya unitar davlat deb e'tirof etildi, uning tarkibiga Yava, Sumatra, Kalimantan, Sulaves, Kichik Zond va Molluk orollarini kirdi.

Yangi Gvineya orolini g'arbiy qismi niderlandlarga qarashli edi. 1962-yilda u ham Indoneziyaga qo'shildi. 1975–1999-yilda Indoneziya Sharqiy Timorni o'z tarkibiga qo'shdi, 2002-yilda u mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

Tabiat

Indoneziya hududining yarmidan ko'prog'i o'rtacha baland va past tog'lardan iborat. Hududning qolgan yeri tekislik va pasttekisliklardan iborat. Sumatra orolini g'arbiy qirg'og'i bo'y lab past va o'rtacha balandlikdagi tog'lar egallagan. Sharqiy qismida esa pasttekisliklar hamda botqoqliklar joylashgan. Yava orolini g'arbdan sharq tomongacha tog'lar o'rab turadi. Bu yerni vulqonlar markazi desa ham bo'ladi. 100 dan ortiq vulqon mavjud, shulardan 50 tasi harakatda. Yava orolining shimoliy qirg'og'i tor pasttekisliklardan iborat. Kalimantan oroli relyefi tepaliklardan iborat, markazda va shimoli sharqda balandligi 2500 m bo'lgan tog'lar joylashgan.

 Vulqon krateridagi Kelimutu ko'li



Xo'jaligi

Xizmat ko'rsatish sektori 2001-yilda YIM ning 42% tashkil etdi, sanoati 41%, qishloq xo'jaligi 17% ni tashkil etgan. Mamlakatda neft, tabiiy gaz, nikel, boksit, marganes, toshko'mir, oltin, olmos, qalay, oltingugurt qazib olinadi. To'qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal, elekrotexnika va boshqa sanoatlar rivojlangan. Mahalliy hunarmandchilik tarmoqlari: zargarlik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, yog'ochdan niqoblar yasash, gazlamachilik.

Yava orolida yiliga ikki marotaba hosil yig'iladi. Mamlakatda guruch, makkajo'xori, manioka, yong'oq, soya, shakarqamish (yava), xin daraxti, kokos palmasi, qahva, ziravorlar va tamaki yetishtiriladi. Indoneziya dunyoda ziravorlar ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda, tabiiy kauchuk ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda, palma yog'i ishlab chiqarish borasida 2- va 3-o'rinda turadi, qahva va kakao bo'yicha 4-o'rinni egallagan.

Indoneziyada, shuningdek, yirik shoxli mollar, echki, qo'y, cho'chqa, parranda ko'paytiriladi, baliq ovlanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, tabiiy gaz, elektr buyumlar, radioelektronika jihozlari, kiyim-kechak, kauchuk, ziravorlar, tamaki, palma yog'i.

Sulavesi oroli 4 ta yarimorollardan tashkil topgan. U yerda 3500 m tog'lar va vulqonlar joylashgan. Yangi Gvineya orolini g'arbidan sharq tomon cho'zilgan tog'tizmalar egallagan. Zond bo'g'ozida va Bali, Lombok, Sumbawa, Maluna, Ternate, Flores orollarida vulqonlar mavjud. Kichik orollar marjon riflari bilan o'ralgan. Bu yerlarda sunami va zilzilalar ko'p bo'ladi.

Indoneziya iqlimi ekvatorial, mussonli. Yavaning sharqida, Kichik Zond orollarida va Irianada subekvatorial mussonli iqlim hukmron. Namlik 75%-95%. Sharqiy qismdagi orollarda nam Osiyo mussonni oktabrdan-maygacha esadi, Avstraliya quruq mussoni maydan-sentabrgacha esadi.

Sumatra orolida shimoli sharqiy Tinch okean mussoni dekbardan-aprelgacha esadi, iyuldan-sentabrgacha nam janubi g'arbiy Hind okeani mussoni esadi. Mamlakat daryolari sersuv. Sumatra, Sulavesi, Kalimantan orollarida ko'llar ko'p.

Hududning 62% ni o'rmonlar egallagan. Mamlakatda doimiy yashil va tropik bargli o'rmonlar mavjud. Bu o'rmonlarda qimmatli noyob daraxt turlari (mandal, obnus, temir daraxtlar) o'sadi. O'rmonlarda maymunlar, yo'lbarslar, kiyiklar, to'ng'izlar, karkidonlar, banteng buqalari, qirg'ovullar, yavan tovuslari, ilonlar va pitonlar yashaydi.



 Guruch tashuvchi

Diqqatga sazovor joylari

2002-yilda mamlakatga 5033 ming sayyoh keldi. Sayyoohlар tarixiy-madaniy yodgorliklarni va tabiat obyektlarini ziyyarat qilishadi: bu yerda dengiz plajlari, Bali oroli, marjonli riflar, Yava orolini sharqidagi Bramo vulqoni, Zond bo'g'ozidagi Krakatau vulqoni, Kelimutu vulqoni ko'li, Komodo (ajdarlar) oroli, Kebun Rayya botanika bog'i, Sumatra va Kalimantan milliy bog'lari mavjud.

Iordaniya



Poytaxti: Ammon

Maydoni: 89,4 ming km²

Aholisi: 5,7 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar (sunniylar) –
96%, xristianlar – 4%

Davlat tuzumi:
konstitutsiyaviy monarxiya


Pul birligi: Iordaniya
dinori



Badaviylar –
ko'chmanchi arab
cho'ponlari

Umumiy ma'lumotlar

Iordaniya Hoshimiylar qirolligi – G'arbiy Osiyodagi davlat. Davlat boshlig'i – qirol. Aholining 98% – arablar (60% – falastinlar).



Petra – Iordaniya tarixidagi mislsiz yodgorlik

Tabiatি

Mamlakat hududini toshli sahro yassitog'liklar egallagan bo'lib, ular sharq tomon pasayib boradi. Baland bo'Imagan tog' tizmalari shimoldan janub tomon cho'zilgan bo'lib, balandligi 1400–1800 m. Iordaniyada dunyodagi eng chuqr rift joylashgan. Rift tubidan Iordaniya daryosi oqib o'tadi. Iqlimining issiqligidan ko'plab daryo va ularni irmoqlari qurib qoladi. Mamlakatning shimoli sharqiy qismini Suriya sahrosi egallagan. Mamlakatda zilzilalar bo'lib turadi.

Iordaniya iqlimi quruq subtropik, kontinental. Mamlakatda chuchuk suv tanqisligi seziladi, qurg'oqchilik mavsumlari bo'ladi. Sahrolar mamlakat hududining 88% ni egallagan. Iordaniya dengizi vodiysidagi tuproq serhosil. Bu yerda o'ziga xos o'simlik dunyosi bor. Tog' yonbag'irlarida zaytun, evkalipt daraxtlari o'sadi.

Xo'jaligi

Iordaniya resurslarga boy emas. Iqtisodiyoti import qilingan neftni qayta ishlashga, neft quvirlari va muhojirlarni pul o'tkazmalari bo'yicha xizmat ko'rsatishga asoslangan. 2001-yilda YIMni 70% xizmat ko'rsatish sohasiga, 26% sanoatga, 4% qishloq xo'jaligiga to'g'ri kelgan. Mamlakatda fosfat, marmar, kaliy tuzlari, slanes qazib olinadi va qayta ishlanadi. Mamlakatda yoqilg'i zaxiralari kam, shuning uchun uni Fors ko'rfazidagi mamlakatlardan import qiladi. IES va neftni qayta ishlash zavodi bor. Mamlakatda ma'danli o'g'itlar va sement ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Farmatsevtika, qog'oz, tikuvchilik, tamaki, oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan.

Mamlakatda turizm rivojlangan. Dehqonchilikning asosiy yerkari Iordan daryosi vodiysida joylashgan. Bu yerda zaytun, uzum, bog' va poliz ekinlari yetishtiriladi. Sahro va yarimsahrolarda ko'chmanchi chorvachilik, Akaba ko'rfazida esa baliqchilik rivojlangan. Mahalliy kichik hunarmandchilik tarmoqlariga bezaklar yashash, zaytun daraxtidan buyumlar yashash va boshqalar kiradi.

Asosiy eksport mahsulotlari: fosfat, ma'danli o'g'itlar, kaliy tuzlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari, dori-darmonlar.

Iraq



Poytaxti: Bag'dod

Maydoni: 435,1 ming km²

Aholisi: 29 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: arab, kurd tillari

Aholisining diniy tarkibi: musulmonlar – 95% (shialar – 60%, sunniylar – 35%), xristianlar – 3%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Iraq dinori



Umumiy ma'lumotlar

Iraq Respublikasi – Yaqin Sharqdagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. 2003-yil bahorida ingliz-amerika koalitsiyasi Saddam Husayn hokimiyatini harbiy yo'l bilan ag'dardi. 2005-yilda davlatda parlament saylovlari bo'ldi va boshqaruv organlari shakllandi. Bir qator shaharlarda ekstremistlar va koalitsiya qo'shinlari orasida to'qnashuvlar bo'lib o'tdi.

Mamlakat aholisining 75% ni arablar, 18% kurdlar tashkil etadi, bundan tashqari bu yerda ossuriyaliklar, armanlar, cherkes va boshqalar istiqomat qilishadi.



Tabiat

Iraqning katta qismini Mesopatamiya pasttekisligi egallagan. U yuqori va quyi Mesopatamiyaga bo'linadi. Yuqori Mesopatamiya (Al-Jazira) – Dajla va Furot daryolar oralig'ida joylashgan platomdir. Quyi Mesopatamiya Bag'doddan Basragacha cho'zilgan va bu ikki daryo bilan o'rilib turadi. Janub va G'arbda Suriya va Arab sahrolari joylashgan. Shimoli sharqda Zagros tog' tizmasining janubiy qismi, shimolda Gavra tog'ining bir qismi joylashgan.

Mamlakat shrimolida O'rtayer dengizi iqlimi va subtropik kontinental iqlim mavjud bo'lsa, janubda tropik quruq iqlim hukmron. Iroqda qumli bo'ronlar bo'lib turadi. Iqlimi jazirama bo'lgani tufayli mamlakatda ichimlik va sug'orish uchun suv yetishmaydi.

Mesopatamiya pasttekisligida dasht, yarimsahro va sahrolar joylashgan. Vohalarda xurmo palmalari o'sadi. Tog' va tog' yonbag'irlarida ignali butalar, qora archa va keng bargli o'rmonlar joylashgan.

Qadimgi
arabiy
qo'lyozma
kitobning
varag'i. Iroqda
xattotlik
san'ati
juda yuqori
baholanar edi

Xo'jaligi

Iraq iqtisodiyoti asosini neft sanoati tashkil etadi. Dunyodagi neft zaxiralarining 11% Iroqqa tegishli. Neft eksporti mamlakat daromadining 95% ni tashkil etadi. 1980–1988 (Eron bilan urush), 1991-yil (Quvaytni bosib olish), 1998–1999-yillarda bo'lib o'tgan harbiy harakatlardan so'ng 2003-yilda mamlakat iqtisodiyoti inqirozga uchradи. Ko'p sanoat korxonalari ishlashdan to'xtadi.

Mamlakatda tabiiy gaz, fosforit tuzlar, oltingugurt qazib olinadi. Bundan tashqari neftni qayta ishslash, neft-kimyo, metallni qayta ishslash sanoatlari rivojlangan. Qishloq xo'jaligidagi dehqonchilik yaxshi rivojlangan, bug'doy, arpa, guruch, sabzavotlar paxta va boshqalar yetishtiriladi. Aholi yirik shoxli mollarni, qo'yularni, tuyalarni ko'paytirishadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: xom neft, xurmo, quruq mevalar.

Isroil



Poytaxti: Tel-Aviv

Maydoni: 14,1 ming km² (BMT Bosh Assambleyasining 1947-yil 29-noyabrdagi qarori bilan belgilangan)

Aholisi: 7,3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: ivrit, arab tillari

Aholisining diniy tarkibi: yahudiylar – 80%, musulmonlar – 15%, xristianlar – 2%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: shekel

Umumiy ma'lumotlar

Isroil – Yaqin Sharqda, Osiyoning g'arbiy qismida, O'rtayer dengizi bo'yida joylashgan davlat. Maydoni 14,1 ming km² (BMT Bosh Assambleyasining 1947-yil 29-noyabrdagi qarori bilan belgilangan hudud). Asosiy iqtisodiy va madaniy markazi – Tel-Aviv shahri. BMTning 1947-yildagi qaroriga zid ravishda Isroil hukumati 1950-yilda Quddus shahrining g'arbiy qismini davlat poytaxti deb e'lon qildi. 1967-yilda Isroil Quddusning sharqiylariga muvofiq «abadiy va bo'linmas poytaxt» deb e'lon qildi. BMTning qarorlariga muvofiq Quddus bo'yicha barcha anneksiyalar bekor qilingan.

Aholisining etnik tarkibi: yahudiylar – 81%, arablar – 17%.

Tabiatি

O'rtayer dengizi sohillarida dengiz oldi tekisligi joylashgan, bu yerdan sharqiylarida Negev platosigacha past tog'liklar tizmasi joylashgan. Tog' tizmalaridan sharqiylarida Iordaniya tektonik chuqurligi bor (430 km), u o'z ichiga Iordaniya daryosi, Tiveriad ko'li, O'lik dengiz chuqurligi, Arava chuqurliklaridagi vohalarni oladi.



Sahrosidan janubroqda Akaba ko'rfazi tomonda Negev sahro platosi joylashgan.

Mamlakatda O'rtayer dengizi subtropik iqlimi, sharqda quruq iqlim hukmron. Irmoqsiz, sho'r O'lik dengiz dunyodagi barcha ko'llarni zichligi va sho'rligi bilan ortta qoldiradi. Iqlimi quruqligi va chuchuk suv tanqisligidan mamlakatning ko'p hududlari

aziyat chekadi. Shuning uchun bu yerda sug'orishning turfa usullari yaratilgan. O'simlik dunyosi doimiy yashil kichik butalar va ko'p yillik o'tlardan iborat. Tiveriad ko'lidan O'lik dengizgacha bo'lgan hududda va Negevda quruq cho'llar joylashgan; vohalarda – fin palmalari o'sadi.

Ko'plab yahudiylarning uyida eshik kesakisi yondoriga maxsus qutchilar (mezuzalar) qoqilgan bo'ladi. Ular Tavrot hikmatlari bitilgan qog'oz o'ramini solishga g'ilof vazifasini o'taydi



Choyshabga o'ralgan Tavrot o'rami

Xo‘jaligi

Hozirgi kundagi Isroil yuqori texnologik rivojlangan iqtisodiyotga ega. Neft, don va sanoat xomashyosi import qilinadi. Mamlakat o‘zini to‘liq (don mahsulotlaridan tashqari) oziq-ovqat bilan ta’minlaydi. YIMning 67% ni xizmat ko‘rsatish sohasi, 30% ni sanoat, 3 % ni qishloq xo‘jaligi tashkil etadi.

Negev sahosida fosforit qazib olinadi. O‘lik dengizidan kaliy, brom, magniy tuzlari olinadi. Elektr quvvatining hammasi IES tomonidan ishlab chiqariladi. Zamonalviy yuqori texnologik usullar meditsina asboblari, kompyuter va robotlar ishlab chiqarishda, optika, biotexnologiyalarda, mikroelektronikada, farmatsevtika sanoatlari va irrigatsiya qurmalarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Mamlakatda aviasozlik, kemasozlik, harbiy, elektrotexnika, elektronika, neftri qayta ishslash, olmosni qayta ishslash sanoatlari rivojlangan.

Ishlov beriladigan yerlar 17% ni tashkil etadi, bularning yarmi sug‘oriladi. Isroilda sitrus mevalar, paxta, yeryong‘oq, kungaboqar, bug‘doy, zaytun yetishtiriladi. Shuningdek, bog‘dorchilik, uzumchilik, vinochilik,



◆ Yig‘i devori – yahudiylarning muqaddas ziyoratgohi

gulchilik, sut chorvachiligi, parrandachilik, asalarichilik va baliqchilik rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: mashina va jihozlar, kompyuter texnikasi va dasturlari, ishlov berilgan olmos, mevalar, fosforitlar, kaliy tuzlari.



◆
Quddus
shahrining
ko‘rinishi.
Uchta din
uchun
muqaddas
bo‘lgan
ushbu
shaharning
yoshi 3
mingdan
katta

Yodgorliklar

Mamlakatda turizm rivojlangan. 2002-yilda Isroilga 862 ming sayyoh keldi. Mamlakatning asosiy yodgorliklari Quddusa: Qubbatus Sahro masjidi, Grob Gospodniy cherkovi, Yig‘i Devori, eski shahar dahalari, Golgofoy, Vio Doloroza, Kendron vodiysi, Gefsiman bog‘lari mavjud.

Vifliyem: Iso Payg‘ambar tug‘ilgan yer.

Nazaret: Blagovesheniya cherkovi.

Bundan tashqari musulmon masjidlari ham o‘zining ko‘rki bilan diqqatga sazovar. Sayyohlarni Isroil tabiiy kurortlari ham o‘ziga jalb etadi.

Kambodja



Poytaxti: Pnompen

Maydoni: 181 ming km²

Aholisi: 14,4 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: kxmer tili

Aholisining diniy tarkibi:
buddaviylar – 95%

Davlat tuzumi:

konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: riyal



Fil uchun metall
qo'ng'iroq (Kambodja,
XII – XIII asrlar)

Umumiy ma'lumotlar

Kambodja Qirolligi – Janubiy-Sharqiy Osiyodagi davlat. Davlat boshlig'i – qirol. Aholisining etnik tarkibi: kxmerlar – 90%, vietnamilar – 5%, xitoylar – 1%, qolganlari chamlar, birmaliklar, laolar.

Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari – turizm, tikuvchilik sanoati, sholi, geveya, makkajo'xori, dukkakli o'simliklar, mevalar, sabzavotlar, paxta, tamaki, choy, shakar palmasi, Hindiston kanopi, keshyu yong'og'i, qora murch yetishtirish. Mamlakatda baliqchilik (Tonlesap ko'li) va yirik shoxli mollarni, cho'chqalarni, fillarni (xo'jalik ishlari uchun), parrandalarni ko'paytirish bilan shug'ullaniladi. Aholining 75% o'zining xo'jaligi orqasidan kun ko'radi.

Mamlakatda qimmatbaho toshlar, oltin, fosforitlar qazib olinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: tikuvchilik, to'qimachilik, guruchni qayta ishlash, yog'ochga ishlov berish, o'rmon xo'jaligi, sement ishlab chiqarish.

Mahalliy hunarmandchilikka oddiy va qimmatbaho toshlardan bezaklar yasash, metallardan buyumlar yasash (quti va boshqalar), gazlarnachilik, toshdan haykal yasash, yog'och o'ymakorligi misol bo'ladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: kiyim (butun eksportning 80%), yog'och, kauchuk, guruch, baliq, tamaki, poyabzal, murch, qimmatbaho toshlar.

Tabiat

Hududining katta qismini Kambodja tekisligi egallagan bo'lib u Mekong daryosi, irmoqlari va havzasini o'z ichiga oladi. G'arbda Kardamon tog'lari joylashgan.

Kambodja iqlimi – subekvatorial mussonli. Suv ko'tarilganda Mekong daryo suvlari Tonlesap ko'liga tushadi. O'rmonlar mamlakat hududining 66% ni egallaydi; tog'larida doimiy yashil tropik o'rmonlar, sharqda tropik o'rmonlar, dengiz qirg'oq bo'yida esa mangr o'rmonlari joylashgan. Markaziy qismida savannalar joylashgan. Tonlesap ko'li atrofida botqoqliklar bor.



Angkor-Vat –
Kambodjadagi o'rta
asrlarga oid hinduiylar
ibodatxonasi. Uni
40 yil davomida
qurishgan. Hozirgi
kunda ushbu mislsiz
me'moriy yodgorlik
butkul tiklangan
va boshlang'ich
ko'rinishga ega

Kipr



Poytaxti: Nikosiya

Maydoni: 9,25 ming km²

Aholisi: 1 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: grek tili, shimoliy Kiprdagi Turk Respublikasi deb nomlanadigan hudud – turk tili

Aholisining diniy tarkibi: pravoslavlар – 78%, musulmonlar – 18%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yevro



Nikosiyaning
Ioann (Yuhanno)
kafedral
soboridagi Ioann
haykali

Xo‘jaligi

Kipr Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari – xalqaro turizm va moliyaviy xizmat ko‘rsatish. 2004-yilda mamlakatga 3 mln. chet el sayyoohlari keldi (daromad 2,5 mlrd. dollardan ziyod). Kipr Respublikasi – ofshor biznes markazlaridan biri.

Mamlakatda bug‘doy, arpa, paxta, kartoshka, piyoz, poliz ekinlari, sabzavotlar, sitrus mevalar, zaytun yetishtiriladi. Bog‘dorchilik (anor, bodom), tamakichilik, uzumchilik va vinochilik (kagor, quruq vinolar, konyaklar) qo‘ychilik, baliqchilik rivojlangan.

Kiprda mis rudalari, temir, pirit, xromitlar, asbest, tuz, gips qazib olinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: Konserva (meva, sabzavotlar, sharbatlar), vino sanoati, oziq-ovqat (zaytun moyi), farmasevtika, parfumeriya, to‘qimachilik, kimyo, kemasozlik. Mahalliy hunarmandchilik tarmoqlari: keramika tayyorlash, kashtachilik va to‘qimachilik.

Asosiy eksport mahsulotlari: sitrus mevalar, kartoshka, uzum, vino, dori-darmon, sement, kiyim-kechak.

Tabiatи

Qirg‘oq chizig‘i shimioliy qismda toshli qoyalar bilan ajralib turadi.

Ikki tog‘ tizmasi orol bo‘ylab joylashgan. Shimoliy Kireniya va Janubiy Karpas, Janubi g‘arbda va Markaziy qismda Grodos magmatik tog‘ massivi joylashgan. Ikki tog‘ tizmasi oralig‘ida Mesaoriya tekisligi joylashgan.

Mamlakat iqlimi – subtropik O‘rtayer dengizi iqlimi, yilning 340 kuni quyoshli. Qurg‘oqchilik bo‘lib turadi. Kichik daryolar yomg‘ir mavsumida suvgaga to‘ladi. Chuchuk suv tanqisligi sezilarli



Kiprda anorlar yetishtirishadi

dara jada. Tog‘larda 500 metrgacha balandlikda doimiy yashil butalar, Grodos massivida – emanzor, sarvzor, qarag‘ayzor, qora archazor o‘rmonlari bor. Dengiz qirg‘oq bo‘yi tekisliklarida ko‘plab gullar va noyob subtropik o‘simpliklar o‘sadi.

Umumiy ma’lumotlar

Kipr Respublikasi – O‘rtayer dengiz sharqidagi orolda joylashgan davlat. Kipr Respublikasi (BMT tomonidan tan olingen, YI va Hamdo‘stlik a‘zosi) va Shimoliy Kipr Turk Respublikasi deb nomlangan (Dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinmagan) davlatdan iborat. Davlat boshlig‘i – prezident. Aholini 77% – kipr greklari, 18% – kipr turklari.



Kiprning Nea Pafos bandargohidagi g‘or

Koreya Respublikasi



Poytaxti: Seul

Maydoni: 98,5 ming km²

Aholisi: 49 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: koreys tili

Aholisining diniy tarkibi:
xristianlar – 49%, buddaviylar – 47%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Koreya Respublikasi voni

Umumiy ma'lumotlar

Koreya Respublikasi – Sharqiy Osiyodagi davlat. Korea yarimorolining janubiy qismini egallagan. Davlat boshlig'i – prezident. Mamlakat aholisining ko'p qismini – koreyaliklar (99%), tashkil etadi.

Tabiat

Sariq dengiz uchun to'lqinlarning baland ko'tarilishi va pastlashishi odatiy holdir. G'arbiy va janubiy qirg'oqlarning qirg'oq chiziqlari juda notekis. Bu yerda ko'plab orollar bor. Bularning ikkitasi vulqonlar natijasida vujudga kelgan Chejudo va Ullindo bunga misoldir. Sharqiy qirg'oq bo'ylab Txebek tog'lari, shimoli sharqiy va janubi g'arbiy tomonda Sobeyek tog'lari joylashgan. Janubi g'arba zilzilalar bo'lib turadi. Pastlik va tekisliklar g'arb va janubda ko'proq joylashgan.



Mamlakat iqlimi mussonli. Mamlakatning asosiy qismida mo'tadil kontinental, qishda sovuq, yoz esa issiq va namli iqlim hukm suradi; janubiy qismida va Chejudo orolida subtropik iqlim hukmron. Yoz oxirlarida to'fonlar bo'lib o'tadi. O'rmonlar mamlakat umumiy hududining 2/3 qismini egallagan: subtropik doimiy yashil bargli o'rmonlar janubiy qirg'oq bo'yida va Chejudo orolida o'sadi, tog'li joylarda esa ignabargli va aralash o'rmonlar, qolgan joylarda esa, keng bargli, bargi to'kiluvchan o'rmonlar joylashgan.



Koreys ansamblı
musaqa jo'rligida
(tantanavor
ruhdagi) qo'shiq
kuylayapti

Bargli naqsh
tushirilgan sopol
idish (XV asr)



Xo‘jaligi

Koreya Respublikasi – Osiyoning rivojlangan davlatlaridan biri. Iqtisodiyotda yuqori texnologiyalar tarmog‘i, avtomobilsozlik, mashinasozlik, kemasozlik, kimyo sanoati tarmoqlari ustunlik qiladi. Mamlakatda texnoparklar, yirik sanoat korxonalarini o‘z ichiga olgan industrial va ilmiy parklar yaratilgan. Elektr quvvatining 62% ni IES, 37% ni AES va 1% ni GES ishlab chiqaradi.

Mamlakatda sifati past antrotsit olinadi. Bundan tashqari temir rudasi, kichik hajmda volfram rudasi, rux-molibden, nikel, oltin, kumush, uran, grafit, mis qazilmalari qazib olinadi. Neft, tabiiy gaz va boshqa xomashyo ko‘plab import qilinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: neftni qayta ishlash, yog‘ochsozlik, to‘qimachilik, qog‘oz, oziq-ovqat hamda qora va rangli metallurgiya.

Qishloq xo‘jaligining asosiy madaniy o‘simligi – sug‘oriladigan guruch. Mamlakatda soya, bug‘doy, makkajo‘xori, kartoshka, batat, mevalar, sabzavotlar, paxta yetishtiriladi. Aholi cho‘chqa va yirik shoxli mol ko‘paytirish bilan, ipakchilik, vinochilik, molluskalar, anchouslar, makrel, seld va dengiz o‘simliklari ovi bilan shug‘ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: avtomobillar, po‘lat, kompyuterlar, yarim o‘tkazgichlar, televizorlar, radioapparatura, telekommunikatsion jihozlar, telefonlar, videomagnitonlar, poyabzal, to‘qimachilik, kiyim, baliq va dengiz mahsulotlari.

Diqqatga sazovor joylari

2002-yil mamlakatni 5437 ming chet el sayyohi ziyorat qildi (ko‘rilgan foyda 5277 mln. dollar). Koreya Respublikasida dengiz, tog‘-chang‘i va termal kurortlar, buddaviylik madaniyatiga oid haykallar, ibodatxonalar bor. Koreys oshxonasi butun dunyoda o‘z muxlislariga ega.



Nakam-sa
ibodatxonasida
joylashgan
Budda haykali

Seul ilk O‘rta
aslarda qal‘a
sifatida paydo
bo‘ldi. Li sulolasiga
hukmronligi paytida
(1392 – 1910)
poytaxt bo‘lgan.
U o‘z maqomini
1948-yildagina
qaytarib oldi



Erkaklar mehmonlarni
qarshi olish uchun
shunday bosh kiyim
kiyib chiqishgan

Avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha 2004-yildagi
dunyodagi eng yirik mamlakatlar (ming dona)



KXDR



Poytaxti: Pxenyan
Maydoni: 120 ming km²
Aholisi: 23,3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: koreys tili

Aholisining diniy tarkibi: ateistlar – 68%, xristianlar – 16%

Davlat tuzumi: yuridik jihatdan – demokratik respublika, totalitar kommunistik davlat

Pul birligi: KXDR voni



Bambukning yog'ochdek qattiqlashgan yirik poxolidan uylar, ko'priklar qurishadi, suv quvurlari, mebel, pardalar yasashadi; bambukning yosh novdalarini va ba'zi bambuklarning urug'larini iste'mol qilishadi

Umumiy ma'lumotlar

Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR) – Sharqiy Osiyodagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining 99,8% – koreyslar, 0,2% – xitoylar.

Tabiat

KXDR hududining 80% tog'lar bilan qoplangan (egallagan). Mamlakatning shimoliy qismida janubi g'arbdan shimoli sharq tomon Shimoliy Koreya tog'lari joylashgan, ularning tarkibiga Chanbayshan va Kema yassitog'liliklari mavjud. Janubi sharqda dengiz qirg'og'i bo'ylab Kimgan tog'i va Puktebon, Masinnyon, Kvanju tepaliklari qad ko'targan. G'arba Pxenyan, Cheryon tekisliklari, janubda – Kimxe va Chonnam, sharqda esa Xamxin va Kimya tekisliklari joylashgan. G'arbiy dengiz qirg'oq chizig'i juda ham notekis, bu yerda ko'plab kichik orollar, yarimorollar, ko'rfaflar joylashgan.

Mamlakat iqlimi o'zgaruvchan: dengiz iqlimidan kontinental iqlimga o'zgaradi. Qishda shimoliy va shimoli g'arbiy quruq sovuq shamol quruq sovuq ob-havo olib keladi. Yozda namli musson okean sathidan qit'aga katta miqdorda yog'ingarchilik olib keladi. Yapon dengizining sovuq oqimlari sharqiy qirg'oq bo'yinisovutib turadi. Qishda qor yog'adi. Bahorda qurg'oqchilik o'miga suv toshqinlari keladi, sentabr oyida esa to'fonlar bo'lib o'tadi.

KXDR g'arbiy va sharqiy dengiz qirg'oq bo'yalarida ko'plab sho'rxok yerlar joylashgan. Tog'lar keng bargli va ignabargli o'rmonlar bilan qoplangan. Shimolda – turli bargli o'rmonlar joylashgan. O'rmonlarning ko'p qismi kesib tashlagan.

Xo'jaligi

KXDR iqtisodiyoti markazlashtirilgan va harbiylashtirilgan. Korxonalar va aholining har bir faoliyati qattiq cheklovlari ostida. Mamlakatda toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, temir rudasi, magnezit, volfram, mis, qo'rg'oshin va rux rudalari, oltin, kumush qazib olinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari mashinasozlik, harbiy, kimyo, tog'-kon, metallurgiya, yog' ochsozlik, to'qimachilik, oziq-ovqat hisoblanadi.

KXDRda guruch, makkajo'xori, soya loviyasi, chumiza, gaolyan (yoki xitoy qo'nog'i), bug'doy, batat, kartoshka, paxta, kungaboqar, jenshen yetishtiriladi. Aholi yirik shoxli mollarni ko'paytirish, cho'chqachilik, baliq va dengiz mahsulotlarini ovlash bilan shug'ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: ma'dan, metallurgiya mahsulotlari, mashinasozlik mahsulotlari (shu jumladan, qurol-yarog'), to'qimachilik, baliq va dengiz mahsulotlari.



Koreya milliy liboslardagi ayollar

Laos



Poytaxti: Ventyan

Maydoni: 237 ming km²

Aholisi: 5,9 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: lao tili

Aholisining diniy tarkibi:
buddaviylar – 60%,
animistlar – 39, xristianlar –
1% va boshqalar

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: kip



Laosda yasalgan zargarlik buyumlari sharqona naqshlari bilan ajralib turadi

Umumiy ma'lumotlar

Laos Xalq Demokartik Respublikasi – Hindixitoy yarimorolidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholisining etnik tarkibi: laolar – 90%, lo va meo aholisi – 9%, vietnamlar, xitoylar va boshqalar – 1% .

Xo'jaligi

Laos – iqtisodining asosiy tarmog'i – qishloq xo'jaligi. Eng asosiy madaniy o'simligi – guruch. U Mekong daryosi va uming irmoqlari vodiysi serhosil va suvli yerlarda o'stililadi. Bundan tashqari makkajo 'xori, shakarqamish, tamaki, paxta, batat, sabzavotlar yetishtiriladi. Aholi cho'chqachilik, baliqchilik, yirik shoxli mollarni, parrandalarni ko'paytirish bilan shug'illanadi. Mamlakatda qalay va qimmatbaho toshlar qazib olinadi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: tikuvchilik, yog'ochsozik, qurilish, farmatsevtika, parfumeriya, guruch tozalash. Mahalliy hunarmandchilik loklangan mahsulot tayyorlash, rasmiy ipak gazlamachiliqi, qimmatli toshlardan, fil suyagidan buyumlar yasashga ixtisoslashgan.

Laos quyidagilarni eksport qiladi: kiyim, yog'och, pilomateriallar, qahva, ziravorlar, qalay konsentrati.



Ma'bud aks
ettirilgan
haykalcha

Laos g'oridagi
qurbanlik
keltiriladigan
mehrob

Tabiat

Mamlakat hududi 70% tog'lar bilan qoplangan. Shimolda Pu-Kum ohak tepalikli Lao tog'lari joylashgan, shimoli sharqda baland qoyali Siangkuang platosi, janubi sharqiy chegara bo'ylab Akcham tog'lari joylashgan. janubi g'arbda Kxammua platosi, janubda – Boloven platosi, ular orasidagi serhosil Savannakhet vodiysi joylashgan.

Mamlakat iqlimi tropik, mussonli. Yozgi mussonlar (maydan – oktabrga qadar) Hind okeanidan yomg'irlarni olib keladi. Dekabrdan-aprelgacha shimoli sharqiy quruq va sovuq musson esadi. Mamlakatda suv toshqinlari va qurg'oqchilik bo'lib turadi. Hududning 60% da qimmatbaho navli daraxtlar o'sadi. Shimolda subtropik doimiy yashil o'rmonlar, eng yuqori tog' mintaqalarida – aralash o'rmonlar joylashgan. Laosda fillar, tibet ayiqlari, maymunlar, yo'lbslar, panteralar, ilonlarni uchratish mumkin.



Livan



Poytaxti: Bayrut

Maydoni: 10,5 ming km²

Aholisi: 3,9 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 60%,

xristianlar – 39%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Livan funti



Yuksak badiiyligi bilan ajralib turuvchi sharqona naqshlarni hamma yerda uchratish mumkin – gilamlardan tortib masjidlargacha

Umumiy ma'lumotlar

Livan Respublikasi – janubiy-g'arbiy Osiyoda joylashgan, Yaqin Sharq davlati. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholisining etnik tarkibi: arablar – 95%, qolganlari armanlar, greklar, turklar, kurdlar, forslar, cherkeslar.



Tabiatি

Dengiz qirg'og'i bo'ylab tor dengiz oldi as-Saxel tekisligida joylashgan, unga parallel ravishda shimoldan janub tomonda Livan tepaligi uzunligi 170 km, undan keyin sharq tomonda plato, tog' tizmalari Xermon va Antilivan joylashgan. Livan tepaligining g'arbiy qismida Jeyta karst g'orlari joylashgan. Mamlakatda zilzilarlar sodir bo'lib turadi.

Mamlakat iqlimi subtropik, O'rtayer dengizi iqlimidir. Tog'li joylarda – mo'tadil iqlim hukmron. Yog'ingarchilik tog'oldi daralarida 400 mm gacha, tog'larda 1000 mm va undan ko'proq. Qish yomg'irli keladi, tog'li joylarda qor yog'adi. Livan tog'larida o'rmonlar qisman saqlanib qolgan (Livan kedri, qayrag'och va boshqalar), qirg'oq bo'yida subtropik o'simliklar o'sadi.

Xo'jaligi

Fuqarolar urushi natijasida Livan Yaqin Sharq arab dunyosining bank va moliya poytaxti maqomini yo'qotadi. 2001-yilda YIMning 67% xizmat ko'rsatish sektoriga, 21% sanoatga, 12% qishloq xo'jaligiga to'g'ri kelgan. Mamlakat iqtisodiyoti bank xizmatlari, yengil sanoat, turizm, savdo-sotiq tarmoqlariga asoslangan. Mamlakatda oziq-ovqat, zargarlik, sement, to'qimachilik, tikuvchilik, kimyo, nefni qayta ishslash, yog'ochsozlik, metallni qayta ishslash sanoatlari rivojlangan.

Livanda sitrus mevalar, uzum, pomidor, olma, shaftoli, bug'doy, kartoshka, zaytun, tamaki, banan, yong'oq yetishtiriladi. Aholi yaylovlarda haydab boqiladigan qo'ychilik, baliqchilik va vinochilik bilan shug'illanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: zargarlik buyumlari, kimyoviy mahsulotlar, kiyim, mevalar, tamaki, elektrostansiyalar uchun jihozlar.

◆ Livanning qadimgi Baalbek shahri vayronalari

Malayziya



Poytaxti: Kuala-Lumpur

Maydoni: 329,8 ming km²

Aholisi: 27 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: malay tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 60%,
buddaviylar – 19%, xristianlar – 9%, hinduiylar – 6%

Davlat tuzumi: federativ
konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: ringgit



Umumiy ma'lumotlar

Malayziya – Osiyoning janubi – sharqidagi davlat. Davlat boshlig'i – sulton. U mahalliy sulton, rojalar va gubernatorlar tomonidan saylanadi. Mamlakat hududi 13 shtat va 3 federal hududdan tashkil topgan.

Aholisining etnik tarkibi: malaylar – 58%, xitoylar – 27%, tamillar – 8%.



Tabiatি

Malakka yarimorolining g'arbiy qismi bo'ylab Kerbau tog' tizmasi qad ko'targan, shimoli sharqi qismida tog' massivi joylashgan. Malakka yarimorolining g'arbiy va sharqi qirg'og'i bo'ylab keng pasttekisliklar joylashgan. Ko'p joylari botqoqlashgan. Bu yerlarda karst hodisasi uchraydigan g'orlar bor. Kalimantan orolining Sharqi qirg'oq bo'ylarida pasttekisliklar mavjud bo'lib, u o'rta balandlikdagi tog' va tepaliklar (balandligi 1000–2000 m) bilan o'ralgan. Kalimantanda eng uzun g'orlar joylashgan. Shimoliy qismida baland Apo-Duat, Kroker, Vitti, Brassi tog' tizmalari joylashgan.

Mamlakat shimolida iqlim subekvatorial mussonli (apreldan-oktabrgacha, janubi g'arbiy musson esadi, oktabrdan-

Buddaning tilla
yugurtirilgan
haykalchasi



fevralgacha – shimoli sharqi musson esadi), janubda – ekvatorial, issiq va namli iqlim. Yil davomida tropik yomg'irlari yog'adi. Suv toshqinlari yuz beradi, gohida tuproq ko'chishlari kuzatiladi. Malayziyaning 70% hududi doimiy yashil nam tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Qirg'oq bo'ylab mangr o'rmonlari, tekisliklarda va tog' yonbag'irlarida tropik o'rmonlar, balandroqda esa subtropik mintqa o'simliklari o'sadi. O'rmon yong'inlari bo'lib turadi.

◆ Malay bozoridagi sotuvchi aylol



◆ Kuala-Lumpurdag'i egizak minoralar (Petronas Tauer-1,2), 1998-yilda qurilgan

Xo'jaligi

1980–1990-yillarda oralig'iда Malayziya yangi industrial mamlakatga aylandi, XXI asr boshlarida esa informatsion (axborot) texnologiyalar sohasi bo'yicha yetakchilikni qo'lg'a kiritgan davlatdir. YIMning 59% – xizmat ko'rsatish sektori, 34% – sanoat, 7% – qishloq, o'rmon xo'jaligi va baliqchilikka to'g'ri keladi.

Yetakchi yuqori texnologik tarmoqlar: elektronika, telekommunikatsiya, elektrotexnika sanoati – dunyoda elektron qismlari, integral sxemalar, yarim o'tkazgichlar, keramik platalar, telefonlar, maishiy konditsioner, video va teleapparaturalar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinda turadi. Texnopolislardan barpo etilgan: sanoat bog'i: Kuala-Lumpur korxonalari yonida «Multimediya yo'lakchasi» bor, bu yerda axborot telekommunikatsiya mahsulotlari ishlab chiqariladi.


Mamlakatda qalay, oltin, temir va mis rudalari, boksit, neft, tabiiy gaz qazib olinadi. Malayziya suyultirilgan gaz, tabiiy kauchuk, qalay konsentrati va o'rmon yog'och mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda 3-o'rinda turadi. GES elektr quvvatining 11% ni ishlab chiqaradi, qolganini IES ishlab chiqaradi. Malayziyada yirik neftni qayta ishlash zavodi mayjud.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: qalay eritish, aluminiy, avtomobilarni yig'ish, kemasozlik, rezinasozlik, yog'ochsozlik va boshqalar. Palma yog'ini ishlab chiqarish bo'yicha Malayziya dunyoda 1-o'rinni egallagan.

Mamlakatda guruch, kokos palmasi, kauchuk daraxtlari, ananaslar, tropik mevalar, kakao, murch, choy, qahva, tamaki yetishtiriladi. Aholi baliqchilik bilan ham shug'ullanadi. Mahalliy hunarmandchilikda kumush va qalaydan zargarlik buyumlarini yasash, savatlar to'qish rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: elektron qismlari, elektrotexnik va telekommunikatsion jihozlar, neft, suyultirilgan tabiiy gaz, qimmatbaho navlardagi yog'och, palma yog'i, qalay, tabiiy kauchuk.

Dunyodagi eng baland binolar (2004)



Diqqatga sazovor joylari

Malayziyada turizm rivojlangan (yiliga 13 mln. dan ortiq). Sayyohlikning asosiy obyektlari: dengiz kurortlari, tog'-iqlimiylar, kurortlari bu Jenting-Xaylendz, Freyzer-Xil, Kameron-Xaylendz, Jorjtaundagi britaniya, xitoy, malay, hind va mustamlakachilar inshootlari, Tarixiy Malakka shahri bu yerda portugal, golland va britan mustamlakachilik davridagi arxitektura obidalari, noyob Kuala-Lumpur osmono'par binolari, Sam-Pox-Tong va Batu-Keyvz hinduiy ibodatxona g'orlari. Turizmnинг tabiiy obyektlari: milliy bog'lar va qo'riqxonalar, qushlar bog'i, Lata-Iskander va Kota-Tringni sharsharalari, Niax va Mulu bog'laridagi g'orlar.



◆ Kuala-Lumpur yodgorligi

Maldiv



Poytaxti: Male

Maydoni: 289 km²


Aholisi: 300 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: maldiv (divex) tili

Aholisining diniy tarkibi: musulmonlar

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: rufiya (Maldiv rupiyasi)



Ko'rshapalaklar – parvoz qila oluvchi dunyodagi yagona sut emizuvchilar

Umumiy ma'lumotlar

Maldiv Respublikasi – Janubiy Osiyodagi davlat, u Hind okeanining shimoliy qismida joylashgan. Uning tarkibiga 1192 ta marjon (marjon) orollari kiradi, shimoldan janub tomon 750 km hududda yarim oysimon shaklida joylashgan. M.av. 500-yilda Seylondon kelgan aholi shu orollarga joylashgan. 1153-yilda aholi islom dinini qabul qilgan. 1887-yilda orollar Britaniyaga tegishli hudud bo'lgan. 1965-yildan – mustaqil sultonlik, 1968-yilda – respublika maqomini oldi. Davlat boshlig'i – prezident. Maldiv – Hamdo'stlik a'zosi.

Aholisining etnik tarkibi: 99% – maldivlar.



Marjondan bezaklar yasash uchun odatda qizil va qora marjon skeletidan foydalanishadi

Xo'jaligi

Maldiv iqtisodiyotning asosiy tarmog'i – turizm. Bundan tashqari baliqchilik, tikuvchilik sanoatlari, elektron tarmoqlarini yig'ish, kemasozlik yo'lga qo'yilgan. Aholi kokos palmasi, sorgo (jo'xori), sabzavotlar, mevalar, banan, mango, ananas yetishtiradi. Bu yerda baliqchilik bilan ham shug'ullanishadi. Mahalliy hunarmandchilik: yelkanli va oddiy kemalar yasash, chig'anoqlardan buyumlar yasash, oltin va kumushdan taqinchoqlar yasash, marjonlarni o'yish.

Asosiy eksport mahsulotlari: baliq, kopra, kiyim.

Sayyoohlар restoranda baliqqa buyurtma berib oshpaz baliqni qanday pishirayotganini ko'rishlari mumkin



Tabiat

Maldiv orollari kelib chiqish jihatidan marjonlarga bog'liq, ularning maksimal balandligi dengiz sathidan 2 metrni tashkil etadi. 26 ta atoll farqlanadi, ular marjon riflari bilan o'ralsan bo'lib ichki qismida lagunalalar (qo'litiq) joylashgan. May oyidan oktabrga qadar janubi g'arbiy musson esadi, u haroratni pasaytiruvchi yomg'irlarni olib keladi. Dekabrdan – maygacha shimoli sharqiy sovuq va quruq musson esadi. Mamlakatda chuchuk suv tanqisligi sezilarli darajada.

Orollar hududida ko'plab mangr o'simliklari o'sadi. Hayvonot olamining vakillari: suvda suza oladigan qushlar, ko'rshapalaklar, molluskalar (yoki mayda chivinlar), o'rgimchaklar, dengiz suvlarida 700 xildagi (turdag'i) baliqlar, 650 turdag'i marjonlar (marjonlar), kitlarning 5 xil turi, 16 xil turdag'i delfinlar va toshbaqalar.

Myanma



Poytaxti: Yangon

Maydoni: 677 ming km²

Aholisi: 50 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: birman tili

Aholisining diniy tarkibi:
buddaviylar – 89%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: kyat



Sayyoralar ramzları
tasvirlangan stol ustı
(Myanma, 1970-yıllar)

Umumiy ma'lumotlar

Myanma Ittifoqi – janubi sharqiy Osiyodagi davlat. Davlatni harbiy qo'mondan boshqaradi. Aholisining etnik tarkibi: birmaliklar – 68%, shanlar – 9%, karenlar – 7%, rakinlar – 45%.

Tabiatি

Shimoli g'arbda Rakxayn tog'lari oysimon shaklda joylashgan, Shimoliy qismida mazkur tog' tizmasiga Pakayn tog'i ulanib ketgan. Bu tog' tizmasidan sharq tomonda Iravad daryosi tekisligi, uning sharq tomonida – Shan tog' tizmasi joylashgan. Tog' tepaligi ohaktoshdan tashkil topgan, bu yerda karst hodisasi kuzatiladi. Mamlakatda zilzilalar bo'lib turadi.

Mamlakat iqlimi shimolda subtropikka o'tuvchi, g'arbda va Shan tog' tizmasida subekvatorial, mussonli, janubda ekvatorialga o'tuvchi iqlim. Janubiy-g'arbiy musson iyun oyidan sentabrgacha esadi, u o'zi bilan Hind okeanidan issiq kunda namlik olib keladi. Qishki shimoli sharqiy musson quruq havo olib keladi. Mamlakatning ichki qismiga mussonlar Rekxayn va Pegu tog'larining balandligi tufayli kira olmaydi.

Iravad daryo irmog'i katta deltaga va ko'plab tarmoqlarga ega. Ularning balandligi 5 metrga yetadi. Hududining 43 % o'rmonlar bilan qoplangan. Tog'larda nam tropik va subekvatorial doimiy yashil o'rmonlari mavjud. Sharqiy shamolga teskari tog' yonbag'irlarida va Shan tog' tizmalarida musson o'rmonlari o'sadi. Tog'larning tepe mintaqasini butalar, ichki vodiylari va dalalarni quruq o'rmonlar va savannalar egallagan.

Xo'jaligi

Myanma iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari: qishloq xo'jaligi, yog'ochsozlik, tog'-kon sanoati, to'qimachilik va tikuvchilik sanoatlari, rangli metalluriya, guruchni tozalash, shakar sanoatlari. Mamlakatda guruch, dukkakli o'simliklar, sitrus mevalar, shakarqamish, paxta, kauchuk, yong'oq va banan yetishtiriladi. Aholi yirik shoxli mol, parranda, cho'chqa va qo'ylnari ko'paytiradi, ipakchilik, baliqchilik va dengiz mahsulotlarini chiqarib olish bilan shug'llanadi.

Myanmada neft, tabiiy gaz, rangli metallar rudasi, temir rudasi, kumush, qimmatbaho toshlar qazib olinadi. Shuningdek, bu yerda neftni qayta ishslash zavodi bor.

Asosiy eksport mahsulotlari: tabiiy gaz, rangli metallrudalar, dukkakli o'simliklar, baliq, krevetka, guruch va marvarid.



Myanmadagi qadimiy buddaviylar ibodatxonasi

Mongoliya



Poytaxti: Ulan-Bator
Maydoni: 1564 ming km²
Aholisi: 2,6 mln. kishi
 (2007)
Rasmiy tili: mongol tili
Aholisining diniy tarkibi:
 buddaviylar – 96%
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: tugrik



Umumiy ma'lumotlar

Mongoliya (Mo'g'ulistona) – Markaziy Osiyodagi davlat. U Rossiya va Xitoy orasida joylashgan. Davlat boshlig'i – prezident. 1991-yilgacha mamlakat sotsalistik lager tarkibida edi.

Aholining etnik tarkibi: mongollar (mo'g'ullar) – 95%, qozoqlar – 4%.

Tabiat

Tog'lar mamlakat hududining 40 foizini egallagan. Mamlakat G'arbi, Markazi va Shimolini Mongol va Gobi Oltoy tog'lari, Xangay tog' etagi va Xentey tog'lari egallagan. Oltoy tog'larida kuchli zilzilalar bo'ladi. Tog' yassitog'lilklari orasida katta ko'lli dara g'arba va shimolda ko'llar vodiysi joylashgan. Janubda va janubi sharqda Gobi yassitog'lilklari joylashgan.

Mo'g'ulistona iqlimi mo'tadil, keskin kontinental, quruq. Shimoliy qismida mangu muzliklar joylashgan. Qurg'oqchilik, qumli bo'ronlar, o'rmon va dasht yong'inlari bo'lib turadi. Mamlakat hududining katta qismini dashtlar egallagan, Xubsugul ko'li atrofida o'rmonlar joylashgan. Janubda va Katta ko'llar Darasida yarimsahro va sahrolar joylashgan.



Ushbu marosim xanjari (furba) mo'g'ul ustalari tomonidan XIX asr oxirida – XX asr boshida ishlangan

Xo'jaligi

Mo'g'ulistona bozor munosabatlari iqtisodiyotiga asoslangan.

Mo'g'ulistonda mis, molibden, qo'ng'ir ko'mir, toshko'mir, qalay, volfram, oltin, uran qazib olinadi. Erdenetda mis-molibden kombinati faoliyat yuritadi. Neft va elektr quvvati Rossiyadan import qilinadi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: qurilish mollarini ishlab chiqarish, yog'ochsozlik, to'qimachilik, jun, charm, go'shtni qayta ishlash. Mo'g'uliston kashemir gazlamachiligi bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i – chorvachilik. Mamlakatda go'sht-sut mahsulotlarini olish uchun yirik shoxli mollar ko'paytiriladi. Dasht va yarimsahro hududlarida ko'chmanchi chorvachilik rivojlangan. Aholi tog'li joylarda ovchilik, dengiz va ko'l bo'yalarida esa baliqchilik bilan kun ko'radi. Mamlakatning shimoliy hududlarida kichik hajmda dehqonchilik bilan shug'illaniladi.

Mahalliy hunarmandchilik: zargarlik, egar-jabduq tayyorlash, gilamdo'zlik.

Mo'g'uliston mis, molibden, qalay, kiyim, go'sht, kashemir, jun, charm mahsulotlari eksport qiladi.

Nepal



Poytaxti: Katmandu

Maydoni: 147,2 ming km²

Aholisi: 28 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: nepal tili

Aholisining diniy

tarkibi: hunduiylar – 86%, buddaviylar – 8%, musulmonlar – 4%

Davlat tuzumi:

konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: Nepal rupiyasi



◆ Nepalda Kumari ma'budasini chiroli yosh qizlar orasida tanlashadi. Bu juda sharafli hisoblanadi


Umumiy ma'lumotlar

Nepal Qirolligi – Janubiy

Osiyodagi davlat, Xitoy va Hindiston orasida joylashgan. Davlat boshlig'i – qiro.

Aholining etnik qatlami: nepallar – 55%, bixarlar – 18%, qolGANI, txarular, tumanlar, nevarlar, gurkxlar va boshqalar tashkil etadi.

◆ Katmandu vodiysi – bu haykallar, ibodatxonalar, yodgorliklar va yuksak badiiy asarlarning juda katta ansamblini o'z ichiga olgan Nepal madaniyat muzeysi



Tabiat

Nepal – Himolay tog'larining markaziy qismining janubiy tog' yonbag'irlarida joylashgan. Himolay 3 parallel tog' tizmasidan tashkil topgan: asosiy (5000–8800 m), o'rtacha Maxabaxorat (3000 m) va kichik Sivalik tepaliklari (700–900 m). Sivalikdan janub tomonda tor pasttekislik joylashgan. U yerda iqlim subekvatorial mussonli, tog'larda 4500 metrgacha mo'tadil. 5000 m balandroqda qor va muzliklar egallagan. Mamlakatda kuchli momaqaldoqlar, suv toshishlari, yer ko'chishlari, qurg'oqchiliklar bo'lib turadi. Sivalik tog'ining janubiy yonbag'irlarida mussonli bargi to'kiluvchi o'rmonlar o'sadi. Tog'ning o'rta mintaqalarida kengbargli subtropik o'simliklari bilan aralashib ketgan o'rmonlar o'sadi, 3000 m balandda – ignabargli o'rmonlar, 4500 m balandroqda – subalp va alp vohalari joylashgan. Milliy bog' va qo'riqxonalarda (hududni 18% egallaydi) qoplon, yo'lbars, yovvoyi fillar, karkidonlar, shoqol, Himolay ayiqlari yashaydi.

Xo'jaligi

Nepal – dunyoning yaxshi rivojlanmagan mamlakatlaridan biri. Iqtisodiyot asosini qishloq xo'jaligi va turizm tashkil etadi. Mamlakatda guruch, makkajo'xori, bug'doy, shakarqamish yetishtiriladi. Nepalda chorvachilik, cho'chqachilik va parrandachilik bilan shug'ullanishadi. Mamlakatda o'rmon xo'jaligi va yog'ochsozlik, sement, to'qimachilik, tikuvchilik sanoatlari rivojlangan. Mahalliy hunarmandchilikda tibet gilamdo'zligi, yog'och o'ymakorligi rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: gilamlar, kiyim, charm mahsulotlari, guruch.

◆ Baxtapur Nyatapola ibodatxonasi – haykallar



Ozarbayjon



Poytaxti: Boku

Maydoni: 86,6 ming km²

Aholisi: 8,6 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ozarbayjon tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar (shialar) –

93,4%, provaslavlар – 2,5%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: manat



Umumiy ma'lumotlar

Ozarbayjon Respublikasi – Kavkazortining sharqiy qismidagi davlat. Naxichevan avtonom respublikasini (mamlakatdan Armaniston hududi bilan ajratilgan janubiy-g'arbiy eksklav) o'z ichiga oladi. 1991-yilga qadar sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining etnik tarkibi: ozarbayjonlar – 90%, lezginlar – 3%, ruslar – 2%.

Xo'jaligi

Ozarbayjon iqtisodiyotida neft qazib olish va neftni qayta ishlash yetakchi o'rinnegi (YIM 25%). Mamlakat hududidan temir rudasi, mis, kobalt, barit va boshqalar qazib olinadi.

Ozarbayjonda aluminiy, neft quvurlari, neft-gaz va neft-kimyo sanoatlari uchun jihozlar ishlab chiqarish yo'lg'a qo'yilgan. Elektrotexnik, asbobsozlik, kemasozlik, kimyo va neft-kimyo sanoatlari rivojlangan.

Ozarbayjon hududida paxta, uzum, tamaki o'simliklari yetishtiriladi. Qo'ychilik chorvachilikning asosiy qismidir. Mamlakatda Kaspiy sohil bo'ylarida baliqchilik rivojlangan. Mahalliy hunarmandchilik tarmoqlari: gilamdo'zlik, zargarlik, misdan idish-tovoqlar ishlab chiqarish.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari, meva va sabzavotlar, bahoriy gullar, vino, konyak va paxta.



◆ Bokudagi zamonaviy turar joy binolari

Tabiatি

Mamlakat hududining yarmi tog'lardan iborat. Shimolda Katta Kavkaz, Janubda Kichik Kavkaz tog'lari, ular oralig'ida Kira vodiysi joylashgan. Janubi sharqda Tolish tog'lari, janubda O'rta-Araks, uning shimaliy chekkasida Daralagez va Zangezur joylashgan. Ozarbayjon hududi – seysmik hudud.

Mamlakat iqlimi o'zgaruvchan, mo'tadildan subtropik iqlimga o'zgaradi, tekisliklarda iqlim quruq. Kura-Araks pasttekisligida dasht va cho'l o'simliklari o'sadi, tog' oldilarida butalar, Katta va Kichik Kavkaz tizmalarida keng bargli o'rmonlar, Lenkoran pasttekisligida doimiy yashil subtropik o'simliklar o'sadi.

Pokiston



Poytaxti: Islomobod

Maydoni: 796,1 ming km²

Aholisi: 169 mln. kishi

Rasmiy tillari: urdu, ingliz tillari

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 97% (sunniylar – 77%, shialar – 20%), qolganlari hinduiy, xristian, buddaviy, sikxlar va boshq.

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Pokiston rupiyasi



Umumiy ma'lumotlar

Pokiston Islom Respublikasi – g'arbiy Osiyodagi davlat. U to'rtta viloyat, qabilalar hududi va poytaxt federal hududidan iborat. Davlat boshlig'i – prezident. Pokiston – Hamdo'stlik a'zosi. Aholisining etnik tarkibi: panjobilar – 50%, pushtular – 15%, sikxlar – 15%, qolganlari muhojir, beluji va boshq. 1947-yilda Britaniya qo'l ostidagi Hindiston ikki mustaqil davlatga Pokiston va Hind ittifoqiga ajraladi. Pokiston o'z ichiga ikki yirik: g'arbiy (Inda vodiysi) va sharqiy (Gang daryosi irmog'i) viloyatlarini olgan. 1971-yilda Sharqiy Pokiston Pokistondan ajralib o'zini mustaqil Bangladesh davlati deb e'lon qildi. G'arbiy Pokiston, Pokiston deb nomlana boshladi. Bu mamlakat bahsli Jammu va Kashmir hududlarini boshqaradi. Mamlakat tarixi harbiy to'qnashuvlarga boy.

Tabiatি

Mamlakatning shimoliy qismida Hindukush Xinduraj tog' tizmalari, Himolay va Qoraqum tog' tizmalarining tog'li va muzliklarga boy bo'lgan g'arbiy qismi kiradi. Ulardan janub tomonda Potvar tepaligi bor. Markaziy va janubiy qismlarini Hind tekisligi egallagan, u o'z ichiga sharqdagi Panjob (besh daryo), Sind daryosining o'rta qismi, Hind daryosini quyi oqimlarini va

janubi sharqdagi sahroni oladi. G'arbiy Balujiston tepaligi, tog'lar orasidagi Xaran sahrosi, Markaziy Braguy, Sulaymon, Chagay tog'lari, janubi sharqda Manran tog'lari joylashgan. Bu tog'larning aksariyatida zilzilalar bo'lib turadi.


Pokiston iqlimi – quruq tropik kontinental iqlim, sharqda mussonli tropik, shimoliy g'arbdagi quruq subtropik. Maksimal yog'ingarchilik miqdori yoz fasliga to'g'ri keladi, bu payt janubiy-g'arbiy musson esadi. Tekisliklarda tez-tez qurg'oqchilik bo'lib turadi. Hind tekisligida o'tlar, butalar, yarimsahro va sahrolarga xos o'simliklari o'sadi. Balujiston tog' tizmasida sahro o'simliklari, teparoqda noyob daraxtli o'rmonlar bor.

Shimol va shimoli sharqdagi tog'larda ignabargli va bargli o'rmonlar joylashgan, Hind deltasida va Arab dengizi sohillarida mangr o'rmonlari mavjud.



Afg'on qochoqlari

2003-yilda echki soni ko'p mamlakatlar (mln.)



Xo'jaligi

Pokiston – sanoati rivojlanayotgan agrar mamlakat. YIMning 53% xizmat ko'rsatish sektoriga, 24% sanoatga, 23% qishloq, o'rmon xo'jaliklariga va baliqchilikka to'g'ri keladi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: to'qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, kimyo, farmatsevtika, qog'oz, tamaki va boshq. Mamlakatda sport anjomlari va jarrohlik asboblarini ishlab chiqarish, qora metalluriya sanoati, mashinasozlik (og'ir transport, qishloq xo'jaligi, kemasozlik, neftni qayta ishslash) ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatda tabiiy gaz, neft, qo'ng'ir ko'mir, temir rudasi, xromit, surma, marmar qazib olinadi. Ekeltr quvvatining 69% ni IES, 28% ni GES, 3% ni AES ishlab chiqaradi.

Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun Panjob



Pokiston shaharlardagi ko'chalarda ko'plab rikshalarni (velosipedga ulangan ikki g'ildirakli aravalari) ko'rish mumkin. Riksha haydovchilarining mehnati og'ir

viloyatida dunyodagi eng yirik irrigatsiya tizimi tashkil etishgan. Mamlakatda guruch, bug'doy, paxta, shakarqamish, kartoshka, tamaki, mango, xurmo, sitrus mevalari, banan, olma, o'rrik yetishtiriladi. Mamlakat aholisi baliq, krevetkalar ovi bilan, yirik shoxli mollarni, qo'ylarni, echkilarni, otlarni, tuyalarini va parrandalarni ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Qurg'oqchil yerlarda ko'chmanchi chorvachilik rivojlangan.

Mahalliy hunarmandchilik tarmoqlari: gilamdo'zlik, oniks va yashil marmardan esdalik sovg'alar yasash, kulolchilik, zargarlik va yog'och o'ymakorligi.

Asosiy eksport mahsulotlari: guruch, to'qimachilik mahsulotlari, paxta, baliq, krevetkalar, charm, sport mollari, ma'danli o'g'itlar, gilamlar.

Diqqatga sazovor joylari

Pokistonning asosiy sayyohlik joylari: Moxendjo-Daro va Xarappa qadimiy hind shahari markazi vayronalari; Laxor Haydaroboddagi o'rta asr masjidlari va maqbaralari, qal'alar, Taxt-i-Baxida buddaviylik ibodatxonasi vayronalari, Rojalar saroylari, Karachi atrofidagi dengiz kurortlari, Murri va Miandam tog' kurortlari. Bundan tashqari Laxordan va Himolay bo'ylab sayohat.

Qatar



Poytaxti: Doxa

Maydoni: 11,4 ming km²

Aholisi: 900 ming kishi (2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 95%,
qolganlari hinduiylar,
xristianlar va boshqalar

Davlat tuzumi: mutlaq
monraxiya

Pul birligi: Qatar riali



Ilgari marvarid to'plash
Qatar aholisining
asosiy daromad
manbalaridan biri edi

Xo'jaligi

Neft konlari ochilganidan so'ng Qatar boy mamlakatga aylandi. Har yili 40 mln. tonna neft olinadi, bundan tashqari mamlakatda tabiiy gaz qazib olish ishlari yo'lga qo'yilgan (zaxirasi 14 trln. m³). Mamlakatda: neftni qayta ishlash, gazni suyultirish, po'lat quyish, neft-kimyo, ma'danli o'g'itlar, sement ishlab chiqarish, suvni chuchuklashtirishga ixtisoslashgan zavodlari mavjud.

Qatarda vodiylar dehqonchilik mavjud, ya'ni xurmo, kokos, tariq, makkajo'xori, meva sabzavotlar yetishtiriladi. Sug'orish uskunalarining sahro hududlarida o'rnatilishi meva-sabzavotlar yetishtirish imkoniyatini yaratdi.

Aholi ko'chmanchi chorvachilik, baliqchilik, krevetka va marvarid ovi bilan shug'ullanadi.

Mahalliy hunarmandchilik turlari: gilamdo'zlik, parda, arqon, savat ishlab chiqarish, kumush va marvariddan buyumlar yasash. 2001-yilda Qatarni 76 ming chet el sayyohi ziyorat qildi.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, suyultirilgan tabiiy gaz (eksportning 85%) ma'danli o'g'itlar, po'lat, krevetka, marvarid va xurmo.

Umumiy ma'lumotlar

Qatar – janubiy-g'arbiy Osiyodagi davlat. U Fors ko'rfaqidagi Arabiston yarimorolining Qatar yarimorolida joylashgan. Davlat boshlig'i – amir. Aholisining 80% qirg'oqbo'yini hududida yashaydi.

Aholisining etnik tarkibi: arablar – 40%, pokistonliklar – 18%, hindlar – 40%, eronliklar – 10%, bundan tashqari Tayland, Filippin va Arab mamlakatlaridan kelganlar ham bor.

Tabiat

Yarimorolning shimoliy qismi harakatlanuvchi qum tepaliklardan tashkil topgan. Markaziy qismida toshli sahro, janubiy qismida baland qumli Duxan tepaliklari joylashgan. Qirg'oq bo'yli marjonli riflar bilan o'ralgan.

Mamlakat iqlimi tropik, kontinental va quruq. Noyabrdan may oyigacha yomg'irlar mavsumi bo'ladi, bu paytda suvlar yig'iladi. Chuchuk suv yetishmaydi, shuning uchun dengiz suvini chuchuklashtiriladi.

Bahor faslida qumli bo'ronlar turadi. May oyidan sentabrgacha havo namiligi 90% tashkil etadi. Mamlakat o'simliklar dunyosi kserofil butalar va yarimbutalaridan iborat.



Doxada ko'plab uylar an'anaviy uslubda qurilgan. Mazkur uslub asrlar davomida shakllangan bo'lib, mahalliy iqlim sharoitlariga maksimal darajada moslashish maqsadida kelib chiqqan

Qirg'iziston



Poytaxti: Bishkek

Maydoni: 198,5 ming km²

Aholisi: 5,2 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: qirg'iz, rus tillari

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 75%, pravoslavlар – 20%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: som



Umumiy ma'lumotlar

Qirg'iziston Respublikasi –

Markaziy Osiyodagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholisining etnik tarkibi:

qirg'izlar – 65%, o'zbeklar – 14%, ruslar – 13%, qolganlarini ukrain, nemis, dungan, koreys, uyg'ur va boshqalar.

Xo'jaligi

Qirg'iziston – unchalik boy bo'lмаган tog'li mamlakat.

Iqtisodiyotining rivojlangan tarmoqlari: qishloq xo'jaligi va tog'-kon sanoati. Aholi voha va vodiylarda dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Shimolda bug'doy, arpa, makkajo'xori, qand lavlagi, sabzavot, janubda guruch, uzum, paxta, tamaki yetishtiradi.

Mamlakatda bog'dorchilik, ipakchilik, qorako'lchilik, qo'ychilik, shimolda sut-go'sht chorvachiligi, Tyan-Shan tog'larida otchilik, Pomir, Oltoyda qo'tos ko'paytirish rivojlangan.

Qirg'izistonda toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, neft, tabiiy gaz, polimetall rudalari, oltin,

surma, simob, osh tuzi qazib olinadi. Elektr quvvatining 92% ni GES ishlab chiqaradi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: mashinasozlik, elektrotexnika, sement, to'qimachilik, shakar, tamaki ishlab chiqarish. Mahalliy hunarmadchilik turlari: qimiz uchun mesh tayyorlash, jun gilamlar va qalpoqlar ishlab chiqarish, yog'och idishlar, qutilar, bilaguzuk va uzuklar yasash.

Asosiy eksport mahsulotlari: paxta, jun, go'sht, oltin, qo'rg'oshin, uran, tabiiy gaz, elektr quvvati.

◆ Qirg'iz cho'ponlari



Tabiat

Mamlakatning 93% tog'lar, shu jumladan, Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog' tizmalaridan iborat. Tog'larning ko'p qismi qor bilan, markaziy Tyan-Shanning tepe qismi muzliklar bilan qoplangan. Tog' tizmalari orasida Talas, Issiqlik, Chotqol, Farg'ona, Oloy, Norin vodiylari joylashgan. Farg'ona vodiysiда va tog'li joylarda zilzilalar bo'lib turadi.

Qirg'iziston iqlimi kontinental.

Qirg'iziston shimalida yarimsahro va dasht o'simliklari, tog'larda ignabargli daraxtlar va yong'oq daraxtlari o'sadi. 2800 m balandroqda – subalp va alp o'rmonlari joylashgan.

Qozog'iston



Poytaxti: Ostona

Maydoni: 2,7 mln. km²

Aholisi: 16 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: qozoq, rus tillari

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 47%,
pravoslavlavl – 44%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: tenge

Umumiy ma'lumotlar

Qozog'iston Respublikasi –
Markaziy Osiyoda joylashgan
davlat. Davlat boshlig'i – prezident.
1991-yilda mustaqil Qozog'iston
Respublikasi tashkil topdi.

Aholisining etnik tarkibi: qozoqlar –
55%, ruslar – 30%, ukrainlar – 4%.

Xo'jaligi

Qozog'iston katta ma'dan zaxirasiga ega. Samarali iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatda iqtisodiy o'sish kuzatilmoqda. Qozog'iston MDH davlatlariga elektr quvvati yetkazuvchi davlatlardan biridir. Sanoatining asosiy tarmoqlari: kimyo, oziq-ovqat, neftni qayta ishlash, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik. Mamlakatda bug'doy, makkajo'xori, guruch, paxta, tamaki va boshqalar yetishtiriladi. Aholi bog'dorchilik va ipakchilik bilan shug'ullanadi. Qozog'istonda sut-go'sht chorvachiligi va qo'ychilik rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, neft mahsulotlari, qora va rangli metall, ko'mir, don, jun, go'sht.




Tabiatি

Mamlakat hududining asosiy qismi tekisliklar va pasttekisliklardan iborat. G'arbda Kaspiybo'y, G'arbiy Sibir, Turon tekisliklari. Qozog'istonning markaziy qismida ko'llar va sho'rxok yerlar, Janubda Betpaqdala platosi joylashgan. Sariorqadan sharqroqda Balxash ko'l havzasi joylashgan. Sharqda va shimoli sharqda Oltynning g'arbiy qismlari bor, janubi sharqda Tyan-Shan va Qaratog'ning shimoliy tizmalari joylashgan. Janubi g'arbda Mang'ishlaq va Ustyurt platolari, Qizilqum va Orolbo'y Qoraqum sahrolari, janubda Mo'yinqum, Betpaqdala joylashgan. Mamlakat janubida zilzilalar va tog' ko'chishlari tez-tez sodir bo'ladi.

Qozog'iston iqlimi keskin kontinental. Markazda va janubda

iqlim quruq. Mamlakatda chuchuk suvi tanqis. Ko'plab qurg'oqchiliklar bo'lib turadi. Sirdaryo daryosidan ko'plab suv olinishi natijasida Orol dengizini maydoni qisqarib bormoqda.

Shimolda o'rmon va dasht, markaz va janubda yarimsahro va sahrolar joylashgan. Tyan-Shan va Oltot tog'larida o'rmonlar joylashgan, o'rmonlardan yuqorida subalp va alp yaylovleri mavjud.



Ili daryosi

Quvayt



Poytaxti: Al-Quvayt

Maydoni: 17,8 ming km²

Aholisi: 2,8 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 85%,


qolganlari – xristianlar,

hinduiylar va boshqalar

Davlat tuzumi:

konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: Quvayt dinori



Ushbu o'ziga
xos arxitektura
inshootlari – aslida
Quvaytdagi suv
omborlari

Umumiy ma'lumotlar

Quvayt Davlati – Yaqin sharqda joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – amir. Aholisining 45% – quvaytlilklar, 55% – Quvayt fuqarosi bo'lmaganlar (neft sanoatida ishlaydi). Bularning 35% – arablar, 9% – Janubiy Osiyo mamlakatidan kelgan muhojirlar.

Tabiatি

Quvayt ko'rfa mamlakat hududining ichkarisigacha kirib borgan. Fors ko'rfa qirg'og'i bo'ylab past sho'rxok tuproqli relyef joylashgan. Janubroqda tepaliklar qatori, janubi g'arbda o'rtalikdagi plato joylashgan. Janubda qum tepalikli sahrolar joylashgan.

Quvayt iqlimi – tropik, quruq iqlim. Yoz faslida (aprel-sentabr) ob-havo issiq, yog'ingarchiliklarsiz, qish fasli seryomg'ir va iliq. Yozda Arabiston sahrolaridan issiq, quruq shimal shamoli esib qumli bo'ronlar ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Mamlakatda doimiy suv oqimi yo'q. Chuchuk suv tanqisligi muammosi dengiz suvini chuchuklashtirish orqali hal qilinadi. Mamlakatda sahro o'simliklari o'sadi.

Xo'jaligi

Quvayt iqtisodiyotining asosiy tarmog'ini neft qazib olish va eksport qilish tashkil qiladi (dunyo zaxiralaring 10%, eksport daromadini 95%). YIMning 60,5% sanoat tarmog'iga to'g'ri kelsa, xizmat ko'rsatish sektoriga 39,1%, qishloq xo'jaligiga 0,4% to'g'ri keladi. Aholi bandligining 80% ni neft sanoatida ishlaydigan muhojirlar tashkil etadi. Yaqin Sharq mamlakatlari orasida, neft qazilmalari hajmi bo'yicha Saudiya Arabiston va Erondan keyingi 3-o'rinni egallaydi (yiliga 120 mln. t). 1979-yildan boshlab neft zaxiralarini saqlab qolish maqsadida qazib olish hajmi qisqartirilgan. Sanoatning asosiy tarmog'i: neftni qayta ishslash, neft-kimyo, sement va kemasozlik. Quvaytda dengiz suvini chuchuklashtirishga ixtisoslashgan zavod bor. Dehqonchilik deyarli mavjud emas. Aholi baliq, krevetka (yoki mayda qisqichbaqa) va marvarid ovi bilan shug'llanadi. Mamlakatda mahalliy hunarmandchilik tarmoqlaridan zargarlik (feruza ko'zli uzuklar yasash), yog'och idishlar, kumish bezakli isiriqdonlar, mis patnis va haykalchalar yasash rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, neft mahsulotlari, ma'danli o'g'itlar. Barcha oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik suvi import qilinadi.



Quvaytdagi neftni
qayta ishslash
zavodlari yiliga 45
mln. tonnadan ortiq
neftni qayta ishlaydi

Saudiya Arabistonи



Poytaxti: Ar-riyod

Maydoni: 2150 ming km²

Aholisi: 28 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar (sunniylar – 90%, shialar – 10%)

Davlat tuzumi: mutlaq teokratik monarxiya

Pul birligi: Saudiya Arabistonи riali



Saudiya Arabistonи riyallari. Milliy va xorijiy valutani mamlakatga olib kirish va olib chiqish cheklanmagan

Umumiy ma'lumotlar

Saudiya Arabistonи qirolligi – janubiy-g'arbiy Osiyodagi davlat, Arabiston yarimorolining katta qismini egallagan. Davlat boshlig'i – qirol. 1932-yil Ibn Saud Arabiston yarimoroli hududida yangi qirollik – Saudiya Arabistonи tuzilganligini e'lon qildi. Arabiston sharqida neft zaxiralari (1933) topilgandan so'ng qirollik Yaqin Sharq davlatlari orasida eng boy davlatga aylandi.

Aholisining etnik tarkibi: Saudiya Arabiston arablari – 70%, qolganlari – boshqa davlat arablari, hindlar, pokistonliklar.

Har yili 2 mln. ga yaqin musulmon haj ibodatini ado etish uchun Islom dunyosining muqaddas Makka shahriga keladilar va yana bir muqaddas shahar Madinani ham ziyorat qiladilar.

Tabiatি

Mamlakatning Markaziy qismini Arabiston yassitog'ligi egallagan. G'arbda, Qizil dengiz qirg'oqlari bo'ylab Ash-Shifo, Hijoz (2500 m. gacha) tog' tizmalari joylashgan bo'lib janub tomon Asir tog'lariga qarab ko'tarilib boraveradi. Arabiston yassitog'lining ichki qismida Nafis platosi bor. Uning sharqi qismi Tuvayk platosi bilan o'ralgan. Qizil dengiz qirg'oqlari bo'ylab tor sohilbo'y qumli, sho'rxok Txan pasttekisligi, Fors ko'rfazi bo'ylab al-Xasa pasttekisligi – qumli, qumtepali va sho'rxok tekislik joylashgan. Qizil dengiz qirg'oq chizig'i baland marjon riflaridan tashkil topgan. Fors ko'rfazining qirg'oq chizig'i kichik orollar va marjonli riflaridan iborat. Hududning 95% ni sahro va yarimsahrolar tashkil etadi. Bular orasida qizil qumli Katta va kichik Nefud, Rub-ul-Xoli sahrolari bor. Ko'chma qumlar, barxanlar ko'plab uchraydi, gohida toshli sahro tekisligini ko'rish mumkin.

Saudiya Arabistonи iqlimi tropik, jazirama, quruq, keskin kontinentaldir, shimolda subtropik iqlim hukmron. Sahrolarda kunduzgi va kechki harorat amplitudasini orasida katta farq bor (35°C gacha). Qizil dengiz qirg'oq bo'ylarida namlik darajasi baland, tumanlar bo'lib turadi. Yoz va bahor fasllarida samum va xamsin shamollari esadi, ular o'zi bilan qum va chang olib keladi. Qishda Shemal shamoli esadi. Mamlakat hududida doimiy oqib o'tadigan suvlar yo'q, quruq daryo vodiylari bor. Asir va Hijozda ko'plab suv buloqlari mavjud. Chuchuk suv tanqisligi sabab suvni chuchuklashtiruvchi moslamalar ishlaydi. Saudiya Arabistonining katta qismida sahro va yarimsahro o'simliklari o'sadi. Bahorda efemerlar gullaydi. Vohalarda arab akatsiyalari, mirra, xurmo palmasi o'sadi. Asir va Hijoz tog'larida bargli o'rmonlar va savanna hududlari bor.



Maktabdagi dars (Qur'on o'rganish)



◆ Saudiya Arabistonida dunyodagi tabiiy gaz zaxirasining 6 foizi mavjud

Xo‘jaligi

Mamlakat iqtisodiyotining asosi – neft qazilmalari (YIM ning 45%). Saudiya Arabistonni dunyoda neft zaxiralari bo‘yicha birinchi o‘rinda (dunyo zaxiralaringning 26%) va tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha 4-o‘rinda turadi. Neft va gaz Fors ko‘rfazi qirg‘oqlari bo‘ylab joylashgan Al-Xasa pasttekisligidan qazib olinadi. Mamlakatda gazni qayta ishslash zavodlari va yirik neftni qayta ishslash zavodlari bor. Bundan tashqari Saudiya nefti Bahrayn neftni qayta ishslash zavodlarida ham qayta ishlanadi. Neft Ras-Takura bandargohidan tankerlar orqali olib chiqiladi va Trans arab neft quvurlari orqali O‘rtayer dengizi va Qizil dengiz bandargohlariga o‘tkaziladi. Neft savdosidan olingan foyda sanoatning turli tarmoqlari, infrastruktura va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun sarflanadi.

Mamlakatda, shuningdek, oltin, osh tuzi, qurilish mollari (gips, marmar, ohak) olinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: metallurgiya, kemasozlik, elekrotexnika, neft-kimyo, kimyo (ma‘danli o‘g‘itlar, rezinotexnika, sement, qog‘oz, to‘qimachilik va boshq.). Aholisi ko‘chmanchi chorvachilik bilan, vohalarda va sug‘oriladigan yerlarda dehqonchilik bilan, Fors ko‘rfazi atrofida baliqchilik va marvarid terish bilan shug‘ullanadi. Saudiya Arabistonida xurmo palmasi, sitrus mevalari, o‘rik, shaftoli, bodom, anor, anjir, uzum, qahva daraxti, sabzavotlar, boshoqli o‘simgiliklar yetishtiriladi.

Mahalliy hunarmandchilik: charmga ishlov berish, qimmatbaho toshlar, kumush, oltin, chinni buyumlar yasash, qora marvariddan tasbeh va munchoqlar yasash, gilamdo‘zlik, jundan mato va boshqa narsalar to‘qish rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari (eksport qiymatining 95%), suyultirilgan tabiiy gaz, charm, xurmo, bodom va xina.

Diqqatga sazovor joylari


2002-yilda Saudiya Arabistoniga 7,51 mln. xorijlik sayyoh kelgan (bulardan 1,5–2 mln. kishi Hajga keluvchilar). Hajga keluvchi ziyoratchilar qurban Hayit arafasida kelishadi.

Sayyoohlarning asosiy turlari: diniy, ma‘rifiy, ekologik, dayving (Qizil dengiz suvigaga sho‘ng‘ish) va tuyalar musobaqasi. Turizm maskanlari: Ar-Riyodda Masifik qal’asi (1865), Murabba qirollik saroyi (1946), qirol Abdulazizning tarixiy qarorgohi, katta masjidlar. Beton va shishadan qurilgan osmono‘par binolar (Faysal qirolining minorasi) ham diqqatga sazovor.

Makka shahri 603-yildan beri barcha musulmonlarning asosiy ziyoratgohi. Makka shahrida islam dinidagi eng muqaddas masjidlardan biri Al-Haram masjidi joylashgan. Madina shahrida musulmonlarning muqaddas ziyoratgohi Muhammad alayhisalom masjidi joylashgan.

Jidda shahrida dengiz bandargohi joylashgan. Bu shahar – mamlakatning diplomatik poytaxti (Hajga kelganlarning asosiy kirish joyi).

◆ Ka‘ba. Uning sharqiy burchagida musulmonlar uchun muqaddas bo‘lgan Hajar-ul-asvat (qora tosh) joylashgan. Naqlga ko‘ra Odam Atolla tomонidan in’om qilingan



Singapur



Poytaxti: Singapur

Maydoni: 693 km²

Aholisi: 4,6 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: xitoy, malay, ingliz, tamil tillari

Aholisining diniy tarkibi:

buddaviylar – 42%,
musulmonlar – 15%,
xristianlar – 15%, daosistlar – 8%, hinduiylar – 4%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Singapur dollarri




Bayram sarisini
kiygan va
taqinchoqlar taqqan
hind qizi

Umumiy ma'lumotlar

Singapur Respublikasi – janubiy-sharqiy Osiyodagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Singapur – Hamdo'stlik a'zosi.

Aholisining etnik tarkibi: xitoylar – 77%, malaylar – 14%, hindlar – 8%.



◆ Sayyoohlар uchun ko'pincha katerlarda Singapur bo'g'ozи bo'ylab sayr uyushtirishadi

Tabiatি

Singapur kichik tepaliklardan tashkil topgan tekislikdan iborat. U orolning markaziy qismida joylashgan. Tepaliklar tuprog'ini sun'iy orollar qurish va markaziy orol hududini janub tomon kengaytirish uchun ishlatishadi. Mamlakat iqlimi – ekvatorial, mussonli, nam va issiq. Noyabrdan mart oyigacha shimoli sharqiy musson esadi, iyundan sentabrga qadar janubi g'arbiy musson esadi. Daryolari katta emas. Ularning irmoqlarida sun'iy suv havzalari va suv omborlari qurilgan. Mamlakatda ichimlik suvi yetishmaydi, shuning uchun suv Malayziya va Bintan orolidan olib kelinadi. Nam ekvatorial o'rmonlar kesib tashlangan. Faqat orolning markaziy qismida Bukit –Timax tabiat qo'riqxonasi saqlanib qolgan. Singapurda chirmovuqsimon noyob torpik o'simliklari bor, jumladan, bugenvilleya.

Xo'jaligi

Singapur – Janubiy-Sharqiy Osiyoning nisbatan rivojlangan davlati. YIMning hajmi 2004-yilda 120,9 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bularдан: 67% xizmat ko'rsatish sektoriga, 33% sanoatga to'g'ri keladi. Sanoatning asosiy tarmog'i – telekommunikatsion axborot elektronikasidir (telekommunikatsiya tizimi, axborot texnologiyalari, yarimo'tkazgichli sxemalar, diskovodlar, kompyuter texnika qismlarini ishlab chiqarish). Mamlakatda kemasozlik, elektrotexnika, kimyo, rezina sanoatlari rivojlangan, bundan tashqari mamlakat neftni qazib olish uskunalarini ham ishlab chiqaradi. Singapurda beshta neftni qayta ishlash zavodi bor. Ular import qilingan neft bilan ishlaydi. Bundan tashqari to'rtta IES bor. Orol chekkalarida 33 ta sanoat zonasini joylashgan.

Singapur – yirk bank markazi, biznes va sug'urta markazi. Bu yerda Osiyoning ko'plab tijorat banklari va xalqaro korxonalarining qarorgohlari joylashgan. Singapur valuta birjasi amaliyotlari hajmi bo'yicha dunyoda 4-o'rinda turadi. Singapurda, shuningdek, texnopark va biznesparklar mavjud. Ular axborot texnologiyalariga, farmatsevtikaga va biotexnologiyalarga ixtisoslashgan. Mamlakatda yuk tashish miqdori bo'yicha dunyodagi eng katta bandargoh joylashgan.

Asosiy eksport mahsulotlari: kompyuter texnikasi, ofis va telekommunikatsion jihozlar, neft mahsulotlari.

Suriya



Poytaxti: Damashq

Maydoni: 185,2 ming km²

Aholisi: 20 mln. kishi (2007)


Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar (asosan sunniylar) – 90%, xristianlar – 10%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Suriya funti



Poliz ekinlariga, tarvuzdan tashqari, qovunlar va qovoqlar kiradi

Umumiy ma'lumotlar

Suriya Arab Respublikasi – Yaqin Sharqdagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholisining etnik tarkibi: arablar – 88%, kurdlar – 9%, qolganlari – ossuriyaliklar, cherkeslar, armanlar va boshq.

Tabiati

Suriya sharq tomon pasayuvchi platoda joylashgan. G'arbiy qismi Jabal-ush-Shayx, Antilivan va Ansariya tog'lari bilan o'rالgan. O'rtayer dengizi qirg'og'i bo'ylab tor sohilbo'yи tekisligi joylashgan. Janubi sharqda Suriya sahrosi, shimoli sharqda Jazira sahrolari joylashgan. Ular hududida quruq daryo vodiylari bor.

Mamlakat iqlimi subtropik, O'rtayer dengizi iqlimiga o'xshash, ichki hududlarda esa kontinental quruq. Suriyada chuchuk suv tanqisligi seziladi. Qishda tog'li hududlarda qor yog'adi. Bahor va yozning boshlarida Arabiston sahrosidan issiq xamsin shamoli esadi, o'zi bilan qumli chang to'zonini olib keladi. Qish fasilda shimoliy shamol esadi. Mamlakat hududida yarimsahro va sahro o'simliklari tarqalgan. Platoda cho'l o'simliklari, tog' yonbag'irlarida keng bargli o'rmonlar, sarv va qayrag'ochlar, dengiz qirg'oqlarida doimiy yashil subtropik o'simliklar, vohalarda xurmo palmasi va sitrus mevalari o'sadi.



Tadmordagi qadimliy teatr vayronalari

Xo'jaligi

Suriya – agrar-industrial mamlakat. Uning hududida neft, gaz va fosforit qazib olinadi. Sanoatning yetakchi sohalari: neftni qayta ishlash, kimyo, elektrotexnika, elektronika, to'qimachilik, charm-poyabzal, tamaki, shakar va oziq-ovqat.

Mamlakatda lalmikorlik qilinadi; bug'doy, arpa, makkajo'xori, sargo, paxta, yasmiq va poliz ekinlari yetishtiriladi. Vohalarda xurmo palmasi o'stililadi.

Aholi qo'y, echki va yirik shoxli mollar ko'paytirib sut oladi. Mahalliy hunarmandchilikning gilamdo'zlik, zargarlik, mis, shisha, charm, buyumlar yasash kabi ko'rinishlari rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, neft mahsulotlari, sabzavotlar, mevalar, paxta, go'sht mahsulotlari, bug'doy.

Diqqatga sazovor joylari

Suriyaning asosiy diqqatga sazovor joylari: Finikiya, Rim va ellinizm davriga oid shaharlarning vayronalari; xristianlik ibodatxonalar, Tartusdagi Notr-Dam ibodatxonasi (XII asr), Krak-de-Shevale, Markab qasrlari va arab qal'alari. Sahroda uyuştiladigan tuya musobaqlari ham juda diqqatga sazovor.

Tailand



Poytaxti: Bangkok

Maydoni: 513,1 ming km²

Aholisi: 66 mln. kishi (2006)

Rasmiy tili: tay tili

Aholisining diniy tarkibi:

buddaviylar – 95%,

musulmonlar – 4%

Davlat tuzumi:

konstitutsiyaviy monarxiya.

Pul birligi: bat



Sher haykali

Umumiy ma'lumotlar

Tailand qirolli – janubiy-sharqiy Osiyodagi davlat. Davlat boshlig'i – qirol. Aholisining etnik tarkibi: taylor – 75%, xitoylar – 14%.

Bangkok («yovvoyi olxo'ri shahri» deb tarjima qilinadi) binokorlik va madaniyatning ajoyib yodgorliklari bilan mashur



Xo'jaligi

Tailandni ko'pincha janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari orasida «ikkinch to'lqin»-deb atashadi va yangi industrial mamlakatlar qatoriga kiritishadi. Mamlakatning asosiy tabiiy resurslari: qalay, kauchuk, tabiiy gaz, volfram, tantal, qo'rg'oshin, magnit, gips, qimmatbaho daraxt navlari, baliq va dengiz mahsulotlari. Tailand volfram qazib olish bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi, qalay qazib olish bo'yicha esa 3-o'rinni egallaydi (Malakka). Bundan tashqari bu yerda

qimmatbaho toshlar ham olinadi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: jadal rivojlanib borayotgan elektron sanoat, to'qimachilik, tikuvchilik, elektrotexnika (elektr xo'jaligi anjomlari), rangli metallurgiya, avtomobil yig'ish, neftni qayta ishlash, farmatsevtika, tamaki, oziq-ovqat va konservalash, zargarlik, mebel va plastmassa sanoatlari.

Tailand hududida guruch (eksportning asosiy mahsulotlaridan biri), tapioka, makkajo'xori, shakarqamish, soya, kokos palmasi, paxta, tamaki, choy, ananas, mango, sitrus mevalar va ziravorlar (murch, kardamon) yetishtiriladi. Malakka yarimorolidagi o'rmonlarda geveya daraxtlari o'sadi. Ulardan tabiiy kauchuk olinadi.


Aholi cho'chqachilik, yirik shoxli mol ko'paytirish, parrandachilik, ipakchilik, baliq (seld, skumbriya, tunes) va boshqa dengiz jonivorlarini (krevetka, langust, krab va boshq.) ovlash bilan shug'ullanadi.

Mamlakat guruch, kompyuter, tranzistor, dengiz mahsulotlari, kiyim, tabiiy kauchuk, shakar, ananas, paxta, jut, soya va palma yog'ini eksport qiladi.

Diqqatga sazovor joylari

Tailandda turizm rivojlangan (yiliga 10 mln. dan ortiq sayyoh keladi). Asosiy diqqatga sazovor jihatlari: Bangkok (buddaviylik ibodatxonalar, saroylari va zamonaviy inshootlari), dunyodagi eng katta 130 metrli Budda haykali, kxemer va tay buddaviylar ibodatxonalar, tungi bozor, gullar bayrami va Chiangmaydagi yog‘ochdan qurilgan ibodatxona, Siam ko‘rfazi qirg‘og‘i bo‘yidagi dengiz kurortlari.

Sayyoqlikning etnografik obyektlari: tay tibbiyoti (uqalash, o‘tli muolajalar), meditatsiya san’ati, tay boksi, tay oshxonasi. Tailand poytaxti Bangkokda «vata» buddaviylar ibodatxonalar, Katta qirol saroyini, Ilon va timsohlar fermasini, milliy bog‘lar va boshqalarni ko‘rish mumkin.



Padaung qabilasiga mansub qiz.
Mazkur qabila odatiga ko‘ra ayollar
bo‘yniga halqa taqadi



Bangkokdagi
Katta Qirol
saroyidagi
qo‘riqchi jin
haykali



Tabiat

Andaman dengizi va Siam ko‘rfazi sohillari yaqinida ko‘plab orollar joylashgan. Shimoli g‘arbda joylashgan alluviyli Menam pasttekisligi janub tomonga cho‘zilib yetibdi. U sharqda tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan.

Shimoli sharq tomonda kichik Pxupxan tog‘lari, janubda esa botqoqlashgan Karat platosi joylashgan. Kra bo‘yining g‘arbiy qirg‘og‘i bo‘ylab Bilau tog‘ tizmasi va uning davomi bo‘lmish Pxuket tog‘ tizmasi joylashgan. Malakka yarimorolining shimoliy qismi tekislikdan iborat bo‘lib, uning o‘qidan Luang tog‘ tizmasi o‘tgan.

Tailand iqlimi subekvatorial, mussonli. Yozgi musson aprel oyidan noyabr boshlarigacha janubi g‘arbdan esadi va okean sathidan namlik olib keladi. Qishki musson noyabrdan fevralgacha shimoli sharqdan esadi. Yoz va kuz uchun to‘fonlar odatli holdir. Tailandning sharqiy qismi Mekong daryosi havzasida joylashgan.

Mamlakat hududining 20% o‘rmonlar bilan qoplangan. Shamol tomonga qaragan tog‘ yonbag‘irlarida, Korat platosi chekkasida va Kra bo‘yinida doimiy yashil nam o‘rmonlar, sharmolga teskar tog‘ yonbag‘irlarida – qarag‘ayzorlar va emanzorlar joylashgan. Pasttekislik va tog‘ga yaqin hududlarda bargi to‘kiladigan daraxtli, mussonli o‘rmonlar, shimoliy qismda esa qarag‘ayzorlar bor. Korat platosida savanna o‘simgulkari, tikanli daraxt va butalar o‘sadi. Sharqiy qirg‘oq qismida va Siam ko‘rfazining shimoli sharqiy qirg‘oqlarida mangr o‘simgulkari tarqalgan.

Mamlakatda 112 ta qo‘riqxona va milliy bog‘lar bor (hududning 13%), shu jumladan, Kxao-Yay (mussonli o‘rmonlar), Nam-Nao (bamrukzorlar), Kaeng-Krachan (doimiy yashil o‘rmonlar) Doi-Intxanon (orxideya, epifitlar, zamburug‘lar, qushlarning 400 xil turi) hamda milliy dengiz bog‘lari tizimi, ular Andaman dengizi va Siam ko‘rfazida joylashgan.

Hayvonot olamini asosiy vakillari: fillar, yo‘lbarslar, ayiqlar, karkidonlar, qushlar, gibbonlar, qoplonlar.

Buddanining
ulkan haykali.
Tog‘ yonbag‘rida
joylashgan



Karkidon qush.
Qizig‘i shundaki,
ushbu qushlar uyaga
kirish joyini yopib
qo‘yib faqat kichik
teshik qoldiradi


Tayvan

Ma'muriy markaz: Taybey

Maydoni: 36 ming km²


Aholisi: 23 mln. kishi

Pul birligi: Tayvan dollari



Umumiy ma'lumotlar

Tayvan – Sharqiy Osiyodagi orolda joylashgan hudud. 1949-yilda Xitoyning mag'lub bo'lgan hukumat boshliqlari bu yerga qochib keladilar va bu yerni "Xitoy Respublikasi" deb e'lon qiladilar. BMT va xalqaro hamjamiyat (shu jumladan, Rossiya ham) Tayvanni XXRning viloyati deb hisoblaydi.



Taybeyning tarixi uzun emas – atigi bir asr atrofida. Lekin, bu vaqt mobaynida u aholisi ko'p, eng rivojlangan shaharlardan biriga aylandi. Taybey "yosh" bo'lgani uchun qadimiy ibodatxonalarini va saroylari bilan faxrlana olmaydi, uning arxitekturasi bir xil qolipga ega.



Tayvanda ishlab chiqarilgan kompyuter texnikasi butun dunyoda sotiladi

Tabiatি

Tayvan xuddi shu nomli orolda joylashgan. Tayvan bo'g'ozidagi ko'plab kichik orollar "Xitoy Respublikasi" deb e'lon qilingan Tayvanga qarashli. Orolning sharqiy qismi bo'ylab besh tizmadan iborat, tog' tizmasi joylashgan. Ularning asosiyasi Markaziy tizmadir (Chjunyanshan). Markaziy tog' tizmasining g'arbiy qismida Yuyshan tizmasi, eng g'arbiy qismida Alishan tizmasi joylashgan. Markazdan sharq tomonda Sharqiy tizma bor, u Tinch okean qirg'oqlarida keskin uziladi. Shimolda 13 ta so'ngan Datunshan vulqoni joylashgan.

G'arbiy qirg'oqda allyuviyli qirg'oqbo'yi tekisliklari joylashgan. 5-8 balli zilzilalar bo'lib turadi. Quruqlikdagi va dengiz ostidagi zilzilalarning asosiy epitsentrleri sharqiy qirg'oqda va Tinch okean tubida joylashgan. Ko'p daryolar tog'dan g'arb tomonga, qolganlari

sharq tomonga, Tinch okeanga oqadi. Tog'larda kichik ko'llar va suv omborlari bor.

Tayvan iqlimi – dengiz iqlimi, mussonli: shimolda subtropik, janubda tropik. Qishda shimoli sharqiy nam musson esadi (oktabr-mart), yozda – janubiy-g'arbiy sernam musson esadi (iyun-sentabr). Avgust va sentabrdan kuchli tropik sel yomg'irlari va to'fonlar bo'ladi.

Tayvan hududining 52 foizi o'rmonlar bilan qoplangan va asosiy qismini doimiy yashil tropik o'rmonlar tashkil etadi. Tog' oldi va tog'larning quyi qavatlarida (500 metrgacha) akatsiyalar, xurmozorlar, bambuklar o'sadi, o'rta qavatda (500–1800 m) keng bargli, bargi to'kiluvchan va kamfor daraxtli aralash o'rmonlari, janubiy ignabargli daraxtlar o'sadi, 1800 m balandroqda – sarv, qayin, 3700 m balandroqda – rododendron tog' butalari va yaylovlar joylashgan.



Tayvanda parusnik, sirestiya va kallima kabi kapalaklar yashaydi



◆ Hindiston kanopidan mato to'qib qadoqlashda va boshqa maqsadlarda ishlatishadi

Diqqatga sazovor joylari

2002-yilda Tayvanga 2 mln. 726 ming sayyoh kelgan, sayohatchilarining (4197 mln. doll.) aksariyati Yaponiya, Gonkong va AQShdan bo'lган. Sayyoqlikning asosiy obyektlari: Taroko marmar sharsharali tog' darasi, Jiyuetan tog' ko'li (quyosh va oy: ibodatxonalari bilan), o'tirgan Buddha haykali, Baguashan tog' bog'i, Nilufarlar ko'li, Kendin milliy bog'i, Markaziy va Alishan tog' tizmalarining sharsharalari, besh cho'qqili Yuysan cho'qqisi, daosizm va konfutsiychilik ibodatxonalari, buddaviylar monastirlari.

Xo'jaligi

Tayvan – dunyoda iqtisodiy salohiyati yuqori darajada rivojlanib borayotgan hududlardan biri. Bu yerda biotexnologiyalar, farmatsevtika, telekommunikatsiyalar,

mashinasozlik, aviakosmos sanoatlari, harbiy sanoat va nanotexnologiyalar rivojlangan.

Tayvan yarimo'tkazgichlar, kompyuter mikroelektronikasi, kompyuter uchun suyuq kristall monitorlar, noutbuklar, skanerlar, quyoshli va optik elektron mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchilik qiladi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: axborot-telekommunikatsiya, kompyuterlar (Tayvan dunyodagi portativ (noutbuk) kompyuterlarning 53% ni, stol kompyuterlarining 25% ni, pereferiya moslamalarining 35% ni, skanerlarning 90% ni, monitorlarning 50% ni ishlab chiqaradi), shuningdek, mashinasozlik, kemasozlik, avtomobil, aerokosmos, to'qimachilik, tikuvchilik, poyabzal sanoatlari va boshq.

Tayvanning ma'danli qazilma boyligi kam (kichik hajmda tabiiy gaz, tuz, oltin, marmartosh va boshq. olinadi). Sanoat uchun xomashyo import qilinadi. Neftni qayta ishlash zavodlari xorijdan olib kelinadigan neft bilan ishlaydi.

Elektr quvvatining 6% ni GES, 71% ni IES, 23% ni AES ishlab chiqaradi. Tayvan kamfora yog'i va xushbo'y mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha dunyodagi yirik mamlakatdir. Aholi g'arbiy qirg'oq bo'yalarida dehqonchilik bilan shug'ullanadi: guruch, bug'doy, makkajo'xori, batat, shakarqamish, choy, yong'oq, jut (yoki Hindiston kanopi) va boshqa o'simliklar yetishtirishadi. Cho'chqachilik, ipakchilik, baliqchilik va dengiz mahsulotlar ovi rivojlangan.

Mahalliy hunarmandchilik tarmoqlari: shlapa yasash, marvarid chig'anog'idan taqinchoqlar yasash, kulolchilik, rangdor tosh o'ymakorligi.

Asosiy eksport mahsulotlari: kompyuter va kompyuter qismlari, kiyim-kechak, poyabzal, guruch, shakar, choy, banan, ananas, sitrus mevalari.



◆ Guruch – Tayvan aholisining asosiy ekini. Uning yormasidan non o'mnini bosuvchi turli taomlar tayyorlashadi



◆ Naqsh solingen jez guldron

Tojikiston



Poytaxti: Dushanbe

Maydoni: 143,1 ming km²

Aholisi: 7 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: tojik tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 90%

(sunnyilar – 85%, shialar – 5%)

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: somoni



Do'ppi – O'rta Osiyo xalqlarining milliy bosh kiyimi

Umumiy ma'lumotlar

Tojikiston Respublikasi – Markaziy Osiyodagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etnik tarkibi: tojiklar – 80%, o'zbeklar – 15%, ruslar – 1%.

Paxta terimi. 2005-yilda Tojikistonda chigitli paxta hosili 447 408 tonnaga yetdi – bu sovet davridagidan ancha kam



Tabiat

Tojikiston hududining 93% gacha qismini Pomir-Oloy tog' tizimi egallagan. U o'z ichiga shimolda Hisor-Oloy, Tyan-Shan va sharqda Pomir tog'larini oladi. Hisor-Oloy tog' tizmasi tarkibiga shimoli g'arbda Hisor, Zarafshon, Turkiston tog' tizmalari, shimolda Oloy tog' tizmasi, markaziy qismida Qorategin, Vaxsh tog' tizmalari kiradi. Bu tog' tizmalari orasida tog'lararo havzalar va vodiylar joylashgan, jumladan, Farg'ona, Zarafshon, Issar, Vaxsh va boshqalar.

Xo'jaligi

Tojikistonning iqtisodiyoti past (paxtaga asoslangan). 1990-yildagi fuqarolar urushi natijasida shu holga kelgan. Mamlakatda tabiiy gaz, uran, qo'rg'oshin, rux, simob qazib olinadi. Elektroenergitika rivojlangan (GES). Sanoatning asosiy tarmoqlari: yengil sanoat, oziq-ovqat va rangli metalluriya.

Tojikistonda paxta, g'alla, poliz ekinlari, mevalar, uzum, efir-moy o'simliklari, tamaki yetishtiriladi. Aholi qo'y, yirik shoxli mol, echki (Sharqiy Pomir) va uy parrandalarini ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Mahalliy hunarmandchilik turlari: gilamdo'zlik, do'ppichilik, kulolchilik, zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi.

Asosiy eksport mahsulotlari: paxta tolasi, elektr quvvati, aluminiy, ipak, uran.

Mamlakatda tez-tez zilzilalar, o'pirilishlar, sellar va qor ko'chkilari bo'lib turadi. Qorli chegaralar 3500–5000 metr balandlikda boshlanadi. Pomir-Oloy tog' tizmasida 8000 ga yaqin muzliklar mavjud (jumladan, Fedchenko muzligi, uzunligi 77 km). Vodiylarda sug'orish tizimlari yo'lga qo'yilgan.

Tojikiston iqlimi mo'tadil, keskin kontinental, quruq, Pomirda arktik iqlimi hukmron. Vodiylarda issiq, tog'larda kunduzgi va kechki harorat amplitudasi orasida katta farq seziladi. Tekisliklarda cho'l butalardan tashkil topgan o'simlik dunyosi mavjud, daryo vodiylarida to'qay chakalakzorlari bor.

Pomir-Oloy o'simliklari balandlik mintaqalariga qarab o'zgaradi. Sharqiy Pomirda qor chegaralarigacha baland tog'lar landshafti joylashgan.

Turkmaniston



Poytaxti: Ashxobod

Maydoni: 488, 1 ming km²

Aholisi: 5 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: turkman tili

Aholisining diniy tarkibi: musulmonlar – 90% atrofida.

Davlat tuzumi: prezident boshqaruvi shaklidagi davlat.

Pul birligi: manat



◆

Efalar

Turkmanistonda ham yashaydi. Ushbu zaharli ilon yonboshlab yuradi. U yurganda oldinga emas yon tomonga harakatlanayotganga o'xshaydi

Umumiy ma'lumotlar

Turkmaniston – Markaziy Osiyoning janubi g'arbidiagi davlat.

Davlat boshlig'i – prezident.

Aholisining etnik tarkibi: turkmanlar – 85%, o'zbeklar – 5%, ruslar – 4%.


Tabiati

Hududning katta qismi Turon pastteklisligidan iborat. Hududning 80 fozini Qoraqum sahrosi egallagan. Shimoliy Qoraqum va Ustyurt platosining janubiy qismi oralig'ida Oqdajak va Sariqqamish chuqurligi bor. Shimoliy g'arbda Mang'ishloq, Ustyurt platorining qismlari, g'arbda Qizilsuv platosi joylashgan. Janubi sharqda Paropamiz tog'ining shimoliy tog' oldi qismlari, Qorabil platosi va Badxiz tepaligi joylashgan. Turkmaniston iqlimi quruq mo'tadil kengliklarga xos, keskin kontinental. Sahrolarda butali o'simliklar o'sadi. Kuchli sho'r turoq o'simliklari, tog'larda esa kovak bosgan va bug'doyiq o'sadigan cho'llar va dasht zonalari uchrab turadi.

Xo'jaligi

Turkmanistonning agrar-yonilgi qazib oluvchi iqtisodiyoti sug'oriladigan dehqonchilik va tabiiy gazni qazib olish va eksportiga asoslangan. YIM ning 43% sanoatga, 29% xizmat ko'rsatish sektoriga, 28% qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi.

Turkmaniston tabiiy gaz zaxirasining hajmi bo'yicha dunyoda 11-o'rinni egallagan (101 trln m^3). Mamlakatda tabiiy gaz, qo'rg'oshin rudasi, neft,



Jun ipi kalavasi – Turkmaniston eksport mahsulotlaridan biri

oltingugurt, osh tuzi, kaliy tuzi, ozokerit qazib olinadi. Elektr quvvatining 100% ni IES beradi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: neftni qayta ishslash, neft-kimyo, kimyo, qurilish mollari, paxta tozalash, to'qimachilik, gilamdo'zlik, charm, yog'-moy, go'sht-sut, baliqchilik, vinochilik sanoatlari va boshq.

Sug'oriladigan yerlarning 50 foziga paxta ekilgan.

Oxirgi o'n yil davomida paxta hosildorligi sezilarli darajada pasaydi, hozirgi paytda uni boshqa madaniy o'simliklar bilan almashtirilmoqda. Mamlakatda don, poliz ekinlari, mevalar, uzum va kunjut yetishtiriladi. Aholi qorako'lchilik, qo'ychilik, tuyachilik, yilqichilik, ipakchilik va baliqchilik bilan shug'ullanadi.

Mahalliy hunarmandchilik tarmoqlari: turkman gilamdo'zligi, tuya yungidan yupqa matolar to'qish, naqshli junlardan kigiz buyumlar tayyorlash, shoyi gazlamachiligi, zargarlik va kashtachilik.

Asosiy eksport mahsulotlari: tabiiy gaz, neft va neft mahsulotlari, paxta, qorako'l, jun va gilamlar.

Turkiya



Poytaxti: Anqara

Maydoni: 779,5 ming km²

Aholisi: 74 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: turk tili

Aholisining diniy tarkibi: musulmonlar (sunniylar) – 99,8%

Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: turk lirasi



Umumiy ma'lumotlar

Turkiya Respublikasi – G'arbiy Osiyo va Yevropaning janubi sharqidagi davlat (hududining 3%). Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etnik tarkibi: turklar – 80%, kurdalar – 15%.

Tabiatি

Turkiyaning Yevropa qismi Istranza pasttoga'ligi va pasttekisliklaridan iborat bo'lgan Frak yarimorolida joylashgan. Mamlakatning katta qismi Kichik Osiyoda joylashgan, bu yerni Kichik Osiyo tog' tizmasi egallagan. Uning

ichida Anatoliy yassitog'ligi bo'lib, sharqda Arman tog' tizmasiga ulanib ketgan. Anatoliy yassitog'ligining shimolida Pont tog'ları, janubida Tavr tog'ları joylashgan. Arman tog' tizması oralig'ida havzalar (Ararat, Van ko'li, Diyarbakir ko'li), yassitog'liklar (Kars, Ardagan), baland Ararat, Syupxan, Nemrut

so'ngan vulqonlari joylashgan.


Kichik Osiyo yarimoroli janubiy qirg'oq bo'yalarida Antalya va Adana pasttekisliklari joylashgan. G'arbiy sohil chizig'i juda ham notejis. Turkiya hududida kuchli zilzilalar bo'lib turadi.

Mamlakat iqlimi subtropik. Anatoliy yassitog'ligida va Arman tog' tizmasida iqlim dengiz qirg'oqiga nisbatan quruq va kontinental. Suvlari kam suvli bo'lib, yoz faslida qurib qoladi. Hududning 26% ni o'rmonlar egallagan. Ularning aksariyatini ignabargli o'rmonlar tashkil qiladi. Mamlakatda nam subtropik o'rmonlar bor. Pasttekislik va tog' oldi hududlarda O'rtayer dengizi subtropik o'simliklari, tog' qiyaliklarida esa dasht va yarimsahro o'simliklari o'sadi.



Istanbul – Turkiyaning eng katta shahri

Katta Ararat tog'i yonbag'ri nuragan lava oqimlaridan shakllangan



Xo'jaligi

1960–1970-yillarda mamlakatning agrar iqtisodiyoti o'zgardi. Turkiyada ko'mir, toshko'mir, borat (dunyoda 2-o'rinn) korund (dunyo qazilmalarining 60%), temir, xrom (dunyoda 4-o'rinn), mis va neft qazib olinadi. Qora dengiz tubidan Rossiyadan Turkiya orqali «Goluboy potok» (moviy oqim) gaz quvuri o'tgan.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: metallni qayta ishslash, mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya, neftri qayta ishslash, kimyo (ma'danli o'g'itlar), rezina (avtomobil shinalari), farmatsevtika, charm, to'qimachilik, ipak, oziq-ovqat sanoatlari.

Mamlakatda g'alla, dukkakli o'simliklar, paxta, tamaki, qand lavlagi, kungaboqar, kunjut, sabzavotlar, poliz ekinlari, anjir, zaytun, choy, citrus mevalar, uzum va yong'oq yetishтирildi.

Aholi qo'y, angor echkisi, yirik shoxli mol ko'paytirish, ipakchilik va baliqchilik bilan shug'ullanadi. Mahalliy hunarmandchilikka gilamdo'zlik, angor echkisini yungidan mato tayyorlash, oltindan zargarlik buyumlarini tayyorlash, charm mahsulotlarini ishlab chiqarish misol bo'ladi.

Turkiya sabzavotlar, mevalar, yong'oq, tamaki, paxta, to'qimachilik, kiyim, angor echkisi yungi, po'lat, tozalangan mis, xrom rudasini eksport qiladi.

Diqqatga sazovor joylari

Turkiyada turizm rivojlangan (yiliga 12 mln. sayyoh). Uning hududida yirik dengiz, termal va balneologik kurortlar joylashgan. Bu yerda alpinizm, syorfig, dayving va yaxta sport turlari bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlar yaratilgan.

Sayyohlikning tarixiy-madaniy obyektlari: Istambuldagagi Vizantiya va Usmoniyalar davridagi inshootlar, antik shaharlar vayronalari (Troya, Efes, Milet, Pergam), qadimiy yunon shaharlari (Fazemes, Side, Aspendos, Antioxiya), qadimiy Armaniston poytaxti Ani vayronalari, Fetxi, Marmaris, Bodrumdagi qal'alar, Vizantiya qal'alari, Bursa, Birinchi usmonli turklar poytaxti, masjidlar, sharqona bozorlar.

Diqqatga sazovor joylari: Istanbul, Oltin shoh ko'rfazi, Galata va Uskudar tumanlari, Sultan Topkapi saroyi, Avliyo Sofiya masjidi, Moviy masjid, Sultan Sulaymon masjidi, Xora cherkovi, av. Irina, av. Fyodor, Kuz-Kules minorasi (XII asr); Dalmabaxche, Yildiz, Jiragan, Beylerbey va marmar saroy.

Izmirda qadimiy Rim kengashining vayronalari, Agora bozor maydoni, ikki Rim akveduki, Kadifekale qal'asi, av. Polikarp cherkovi, Yaxli masjidi, Konak masjidi, karvonsaroylar va boshq. joylashgan.

Anqarada Avgustin ibodatxonasi vayronalari, Rim teatri, Yulian ustuni, Rim hammomlari, Oq qal'a minorasi, saljuqiylar qal'asi, Hoji Bayram, Aslaxon masjidi, Anitkabir (Otaturk maqbarasi) joylashgan.

Egey dengizi sohilidagi Bodrum shahri (qadimgi Galikarnas)



2003-yilda dunyoda choy ishlab chiqarish (ming tonna)



Ummon



Poytaxti: Maskat

Maydoni: 309,5 ming km²

Aholisi: 2,7 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 88% (bularning
75% – ibodiylar)

Davlat tuzumi: mutlaq
monarxiya

Pul birligi: Ummon riali



Musulmon qizlar
yengi uzun, etagi
tizzadan pastga
tushadigan libos
kiyishi va boshiga
ro'mol o'rashi kerak

Umumiy ma'lumotlar

Ummon sultonligi – Arabiston yarimorolining janubi sharqida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – sulton.

Aholisining etnik tarkibi: ummon arablari – 88%, qolganlari – Pokiston, Bangladesh, Hindiston, Erondan kelgan aholi.

Xo'jaligi

Ummon iqtisodiyotining asosini – neft va tabiiy gaz qazilmalari tashkil etadi. Gaz va neft konlarda yollanma ishchilar band qilingan. Mamlakatda mis, kumush, oltin ham qazib olinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: gazni qayta ishlash, neftni qayta ishlash, kimyo, sement, optik tolalar. Mamlakatda kema ta'mirlash va metallni qayta ishlash ham yo'lga qo'yilgan.

Aholi vohalarda dehqonchilik, bog'dorchilik, baliqchilik, ichki tumanlarda chorvachilik bilan shug'ullanadi. Mahalliy hunarmandchilik: xanjarlar, pichoqlar yasash, to'qimachilik, yog'och o'ymakorligi.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, suyultirilgan gaz, metallar, baliq, xurmo.

Tabiatি

Ummonning shimoli sharqdagi qirg'oq chizig'i ravon va tekis, janubi sharqiy qirg'oq orollar va ko'rfazlarga to'la. Mamlakat Arabiston yarimorolining sharqiy qismini egallagan, bu yerlar tog' tizmalar bilan o'ralgan. Shimolda g'arbiy Hojar tog'i joylashgan, markaziy qismi Adxar tog'iga, sharqi qismi sharqiy Hojarga ulanib ketgan. G'arbiy Hojar, Adxar va dengiz qirg'og'i orasida tor Al-Batina tekisligi joylashgan. Janub qismning eng chekkasida Kara tog'lari bor.

Mamlakat iqlimi – jazirama torpik iqlim, ichki hududlar iqlimi quruq, dengiz atrofi nam. Janubda may oyidan sentabrga qadar kuchli janubi g'arbiy musson esadi. G'arbda Rub-ul-Xoli sahrosi, sharqda Vaxiba sahrosi joylashgan. Ularning hududida changli, qumli bo'ronlar bo'lib turadi. Mamlakatda qurg'oqchilik bo'lib turadi, chuchuk suv tanqisligi seziladi. Ummonda quruq daryo vodiylari mavjud. Mamlakatda odatda sahro va yarimsahro o'simlik dunyosi mavjud. Tog'larning sharqiy qismida voha va savannalarga xos o'simliklar o'sadi, ba'zi joylarda bargi to'kiluvchi o'simliklar uchraydi.



Mashhur arab arg'umoqlari

Vietnam



Poytaxti: Xanoy
Maydoni: 331,7 ming km²
Aholisi: 85 mln. kishi (2007)
Rasmiy tili: vietnam tili
Aholisining diniy tarkibi: buddaviylar – 60%, katoliklar – 7%, qolganlar – daosistlar, konfutsiychilar
Pul birligi: dong

Umumiy ma'lumotlar

Vietnam Respublikasi – Janubi sharqiy Osiyoda joylashgan davlat, Janubiy Xitoy dengizi sohilida joylashgan. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholisining etnik tarkibi: vietnamlar – 84%, xitoylar – 2%, qolgan 54 ta etnik guruh – 14%.

Tabiatি

Mamlakat hududining 70% dan ortiqrog'ini janubda tog'lar va yassitog'lar (balandligi 2000–3000 m) tashkil etadi. Shimolda Xongxa daryo vodiysi pasttekisligi, janubda Mekong botqoqli tekisligi joylashgan. Tonkin ko'rfazi sohili bo'ylab 3 mingga yaqin mayda orollar mavjud.

Vietnam iqlimi subekvatorial nam, mussonli. Shimoliy va Markaziy hududlarda iyul oyidan noyabrgacha goh-gohida vayronkor to'fonlar bo'lib o'tadi. Qishda tog'li joylarda qor yog'adi. Janubiy-g'arbiy mussonlar hukumronligida daryolar toshadi va hosil payhon bo'ladi. Tog'da va Mekong deltasida doimiy yashil tropik o'rmonlar, shimoliy hududda keng bargli o'rmonlar o'sadi.



Dekorativ idish (1980-yillar)



Kumush isiriqdon (XX asr)



Loviya

Xo'jaligi

Vietnam iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga tayanadi. Vietnamda toshko'mir, neft, tabiiy gaz, temir, xrom, oltin qazib olinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: guruchni qayta ishlash, shakar, yog'-moy, to'qimachilik, tikuvchilik va boshqalar. Eng asosiy mahsuloti – guruch. Vietnam dunyoda guruch eksporti bo'yicha 4-o'rinda turadi. Mahalliy aholi makkajo'xori, kartoshka, kauchuk, geveya, loviya va boshqa o'simliklar yetishtiradi. Qishloq xo'jaligida cho'chqachilik va parrandachilik rivojlangan. Dengizdan aholi baliq, molluska, qisqichbaqa hamda krevetka ovlaydi. Mahalliy hunarmandchilik tarmoqlari: bronza buyumlar yasash, to'qimachilik va kulolchilik.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, dengiz mahsulotlari, guruch, qahva, kauchuk, choy, kiyim, moyabzal.

Xitoy



Poytaxti: Pekin

Maydoni: 9,6 mln. km²

(dunyoda 3-o'rincisi)

Aholisi: 1,318 mlrd. kishi
(2007 dunyoda 1-o'rincisi)

Rasmiy tili: xitoy tili

Aholisining diniy tarkibi:
XXR rasman ateistik davlatlari
bo'lishiga qaramay bu
yerda konfutsiylik, daosizm,
buddaviylik va islom dini keng
tarqalgan

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yuan



Umumiy ma'lumotlar

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR)

– Markaziy va Sharqiy Osiyoda
joylashgan davlat. Davlat boshlig'i –
XXR raisi. U Umumxitoy xalq vakillari
yig'ini tomonidan saylangan.

XXR tarkibiga maxsus ma'muriy
hududlar – Syangan (Gongkong) va
Aomen (Makao) kiradi.

XXR da 56 millat vakillari yashaydi.
Eng ko'p sonlilari xanlar (xitoylar –
92%), uyg'ular, mo'g'ullar, tibetliklar,
manchjurlar va boshqalar.


Diqqatga sazovor joylari

2004-yilda XXRsiga 42 mln.
sayyoh keldi. Ularni bu yerga
madaniy-tarixiy obidalar, o'tgan
davr yodgorliklari (Xitoy devori,
saroylari, ibodatxona majmualari,
budda cherkovlari va boshq.), 1514
ta muzey, buddaviylik g'orlari va
daosizim muqaddas tog'lari hamda
noyob tabiat landshaftlari jah
qiladi.

Xitoy oshxonasi butun dunyoga
to'yimliligi bilan mashhur. Bu
yerga kelgan har kim bu yerning
milliy taomlaridan tatib ko'rishga
harakat qiladi. Misol uchun,
pekin o'rdagi, qovurilgan ilon,
bo'rsiq, mushuk, ukki go'shtidan
tayyorlangan taomlar, qaldirg'och
ini sho'rvasi va h.k.

Shaharlardagi yodgorliklar:
Pekin shahrida taqiqlangan (man
etilgan) shahar, Osmon va Quyosh
ibodatxonasi, Oq ibodatxona, yozgi
saroy va boshqalar; Sian shahrida
baraban va Qo'ng'iroq minoralari,
qal'a devori.

◆ Imperator paromi an'anaviy xitoy
uslubida yorqin bezalgan



◆ Katta panda daraxtlarda yaxshi
harakatlansadi. U asosan
bamrukning yosh novdalari bilan
oziqlanadi



Tabiatি

Sharqda qirg‘oq chizig‘i Sariq dengiz ko‘rfazi va Lyaodun va Shandun yarimorollari bilan ajralib turadi.

Sharqiyl Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlarida joylashgan ko‘plab (5400) kichik orollar XXRga tegishli.

Mamlakat hududining 75% ni tog‘lar egallagan. Yerning balandligi g‘arbdan sharqqa qarab 4 pog‘ona ko‘rinishida pasayib boradi. 1) Sinxay-Tibet tog‘ tizmalarini muzliklar bilan qoplangan. Himolay, Qoraqum, Kun-Lun, Tyan-Shan, Mo‘g‘ul-Oltoy; 2) Tarimsk (Takla-Makon sahrosi bilan) va Jungar chuqurliklari, Lyoe platosi, Ichki Mo‘g‘ul tog‘ tizmasi, Yunan-Guanchjou tog‘ tizmasi; 3) Sichuan chuqurligi, Markaziy va G‘arbiy Xitoy o‘rtaligida qarab 4) Buyuk Xitoy va shimoli sharqiy tekisliklarida. G‘arbdan va Markazda kuchli zilzilalar sodir bo‘ladi.

XXR hududida 50 dan ortiq daryo mavjud, ulardan eng yirigi Xuanxe, Yanszi. Bu daryolar Sinxay-Tibet tog‘ tizmalaridan sharqqa va janubi sharqqa oqib tushadi.

Xitoy mo‘tadil (hududning 50%) subtropik va qisman tropik iqlim zonalarda joylashgan.

Mamlakat iqlimini sovuq shamollar shakkantiradi: ular sentabr oyidan aprelga qadar shimoldan esuvchi issiq va quruq havo oqimlari;

g‘arbdan esuvchi issiq va quruq shamollar; yoz va kuz fasllarida Tinch okean va dengizdan esuvchi nam mussonlar. Sharq va g‘arba musson iqlimi; shimolda mo‘tadil; g‘arba keskin kontinental quruq iqlim hukm suradi.

Mo‘tadil mintaqani sovuq va issiq hududlarga bo‘lishadi. Shimoliy kontinental musson, qishda janubda ham esadi. U janubdagagi subtropik iqlimni ham sovutadi. Janubiy qismning tropik mintaqasi qish faslida iliq, yozda jazirama issiq bo‘ladi.

Sichuan chuqurligi atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan. Qishda iqlimi iliq, yozda jazirama issiq. Tog‘ hududlarida kechki va kunduzgi payt ham harorat yuqori (asosan Sinxay-Tibet tog‘ tizmasida). Eng baland ko‘rsatkich Turfan chuqurligida 49°C qayd etilgan va eng past mamlakat shimolda Moxeda –52°C qayd qilingan. Yillik yog‘in miqdori janubi sharqdan shimoli g‘arb tomon tobora kamayib boradi. Mamlakatning g‘arbi qismi, Tibetni qo‘shganda quruq iqlimga ega, namlik yetishmaydi. Avgustdan sentabrgacha Tinch okeandan janubi sharqiy qirg‘oqqa kuchli to‘fonlar keladi.

Shimolda mussonli o‘rmonlar zonasida tayga, janubroqda aralash va keng bargli o‘rmonlar

Buyuk Xitoy devori. Imperator Sin Shi-xuandi miloddan avvalgi 221-yilda Xitoyni birlashtirgach saltanat chegarasini ko‘chmarchilar hujumidan himoyalash uchun devor qurishga farmon bergen

joylashgan. Sinlin tepaligidan janub tomonda subtropik va bambuk o‘rmonlari, janubroqda nam, tropik doimiy yashil o‘rmonlar, Janubiy Xitoy dengiz qirg‘oqlari bo‘yida mangr botqoqliklari, Leychjou yarimorolida savannalar joylashgan. Ko‘p o‘rmon daraxtlari kesib tashlangan. O‘rmonlar faqat tog‘larda saqlanib qolgan. Dashtlarda baland bo‘yli o‘tar o‘sadi, janub tomonda dasht o‘simliklari o‘sadi. Shimoli g‘arbi yarimsahro va sahrolar egallagan. Tyan-Shan va Kunlun tog‘ vodiylarida o‘rmonlar mavjud.

Sinxay-Tibet tog‘ tizmasining katta qismida sovuqqa chidamli sahro o‘simliklari o‘sadi (alp vohalari, tog‘ adirlari va boshq.). XXR hududida katta panda, zangori maymun, Janubiy Xitoy yo‘barsi, manchjur turnasi, qiziloyoqli iblis, Yanszida oq delfin va alligatorlarni uchratish mumkin.




Bronzadan ishlangan, tilla yogurtirilgan sher haykali. Sher – Xitoyda hokimiyatning an‘anaviy ramzi

Xo'jaligi

Islohotlar natijasida XXRning agrar-industrial iqtisodiyoti, dunyodagi eng ilg'or postindustrial-agrarga o'zgaradi. YIM hajmi bo'yicha XXR AQShdan so'ng ikkinchi o'rinda (7,3 trln. dollar) turadi. YIMning 53% (2004) sanoat va qurilish sektoriga, 33% xizmat ko'rsatish sektoriga, 14% qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. XXR toshko'mir, po'lat, sement qazib olish hamda ma'danli o'g'itlar, televizor, velosiped, paxta va ipak gazlamalari, kiyim-kechak, poyabzal va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda turadi. Elektr quvvati, kimyoviy tola, choy ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda turadi.

Aholining bandligi (2003) qishloq xo'jaligidagi 49% ga, xizmat ko'rsatish sektorida 29% ga, sanoatga 22 foizga to'g'ri keladi. Ishsizlik darajasi: shaharlarda 98%, mamlakat bo'yicha 20 foizini tashkil etadi (2003). Xitoy kommunistik partiyasi tomonidan olib borilayotgan kuchli nazorat ostida mamlakat iqtisodiyoti tobora bozor iqtisodiyotiga o'tayapti, bu esa o'z navbatida chet el investitsiyalarni o'ziga jalb etadi. Nodavlat tashkilotlar va jismoniy shaxslarning iqtisodiy ta'siri tobora ortib bormoqda. Yengil sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida ko'plab kichik korxonalar tashkil topdi, tashqi savdo-sotiq hajmlari va kiritilgan chet el investitsiyalar hajmi o'sdi. Yetakchi investorlar bu Gongkong, Virgin orollari, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSh, Tayvan, Singapur va Germaniya korxonalari.

Sharq va g'arbda joylashgan iqtisodiy erkin hududlarida chet el yirik sanoat korxonalari va transmilliy kompaniyalar, banklar, fond birjalar va xizmat ko'rsatish sektorining zamonaviy muassasalari barpo etildi. Mamlakat infratuzilmasi jadal kengayib bormoqda (transport tizimi, energetik tizim, ma'lum bir transport vositalarini modernizatsiyalash, zamonaviy telekommunikatsiya tizimlarini yaratish darajalari o'sdi). Yuqori texnologiyalar va innovatsiya sektorida ham tez o'sish darajasi kuzatiladi (gen muhandisligi, odam tana a'zolari regeneratsiyasi, axborot texnologiyalari, internet, shaxsiy kompyuterlar, uyali aloqa,



◆ Shanxay – Xitoyning eng tez rivojlanayotgan megapolislaridan biri

◆ Xuanxe daryosini Xitoyda Sariq daryo deb atashadi, chunki undagi sharsharalar va shalolalar suvg'a sariq tus beruvchi juda ko'p cho'kindilarni oqizib ketadi



◆ Xitoyning chinni buyumlari butun dunyoga mashhur

2003-yilda paxta ishlab chiqarish (mln. tonna)

tibbiyotda raqamli videotexnika qo'llash, elektron optika, yo'ldoshli aloqa). Yalpi ishlab chiqarish hajmi, sotish hajmi va foydasi bo'yicha elektron telekommunikatsion sanoat iqtisodiyot tarmoqlari orasida 1-o'rinda turadi. 2-o'rinda mashinasozlik turadi (umumiyligi, og'ir, transport, harbiy, kemasozlik sanoatlari).

Tez sura'tda yuqori texnologik mashinasozlik tarmoqlari, jumladan, avtomobilsozlik sanoati (dunyoda 4-o'rinni) va aerokosmik sanoat rivojlanib bormoqda.

Xitoy volfram-surma, qalay, rux, molibden zaxiralari hajmi bo'yicha dunyoda 1-o'rinda; qo'rg'oshin, simob, nikel zaxirasi bo'yicha 2-o'rinda; temir va marganes zaxirasi bo'yicha 3-o'rinda; mis bo'yicha 4-o'rinda; boksit bo'yicha esa 5-o'rinda turadi.

Mamlakatda neft, tabiiy gaz, toshko'mir (yiliga 1,5 mlrd. dan ortiq, dunyoda 1-o'rinni), temir rudalari, qo'rg'oshin, boksit, rux, volfram, marganes, surma, fosforit, kaliy tuzlari qazib olinadi. IES (ko'mirda ishlaydi) elektr quvvatining 80% ni, GES 19% ni, 6 ta AES 1% ni ishlab chiqaradi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, neft-kimyo, kimyo, farmatsevtika, sement, poyabzal, to'qimachilik, tikuvchilik, chinni, fayans, tamaki,


choy, konserva, oziq-ovqat va o'yinchoqlar ishlab chiqarish.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlarini dehqonchilik va cho'chqachilik tashkil etadi. Bug'doy, guruch, paxta, tamaki, kartoshka, meva, sabzavot, cho'chqa, qo'y va parranda miqdorining aholi jon boshiga nisbati bo'yicha 1-o'rinda turadi.

XXRda ipakchilik rivojlangan. Dehqonchilikning asosiy yerlari: Sunlyao tekisligi (bug'doy, makkajo'xori, soya, veryong'oq, gaolyan, qand lavlagi va boshq.). Sichuan chuqurliklarida guruch, bug'doy, raps, shakarqamish, sitrus mevalar, Szyanxan tekisligida guruch, paxta yetishtiriladi.

Guruch yetishtiriladigan asosiy joylar – Sichuan, Xunan, Chjeszyan, Szyansu, Guandup. Kauchuk va sitrus mevalar Xaynan va Lenchjou yarimorolida o'stiriladi.

Olmalar Lyaonin va Shandunda, ananaslar janubda, uzum Sinszyanda yetishtiriladi. Xitoy choyning vatani hisoblanadi (XVI asrdan buyon eksport qilinadi). Choyni Sichuan



◆ Pekindagi ta'qilangan shahar – dunyoda saqlanib qolgan saroy majmularining eng kattasi

va janubiy hududlardagi nam tepaliklar yonbag'irlarida o'stirishadi. Mamlakatda bundan tashqari 3 mingdan ortiq turdag'i madaniy dorivor o'simliklar ham yetishtiriladi.

Go'sht, tuxum, asal va asalarichilik mahsulotlari, ipak pillasi, cho'chqa va parranda jon boshiga yetishtirish bo'yicha Xitoy dunyoda 1-o'rinni, baliq ovi bo'yicha 3-o'rinni egallagan. Aholi gulchilik, asalarichilik va baliqchilik bilan shug'ullanadi.

Mamlakatda mahalliy hunarmandchilik ham rivojlangan, jumladan, chinni, fayans buyumlar tayyorlash, kashtachilik, bambukdan turli mahsulotlar to'qish, yog'och va suyak o'ymakorligi ham rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: telekommunikatsion jihozlar, kompyuter va uning qismlari, aloqa vositalari, mashinasozlikning turfa mahsulotlari, harbiy texnika, qurolyarog', avtomobillar, kemalar, tibbiyot jihozlari, po'lat, kiyim, poyabzal, o'yinchoqlar, sport anjomlari, toshko'mir, kimyoviy o'g'itlar, mebel.



◆
Xitoyliklar milliy libosda. Bu mamlakat aholisining libosi doim xilma-xil bo'lgan va yashash joyi, jamiyatda tutgan o'mni va yil fasllariga ko'ra farqlangan

Yaman

Poytaxti: Sana
Maydoni: 527,9 ming km²
Aholisi: 22 mln. kishi (2007)
Rasmiy tili: arab tili
Aholisining diniy tarkibi: musulmonlar (sunniylar va shialar) – 99%
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: Yaman riali



Anjir daraxti 100-200 yil umr ko'ra oladi, lekin 50-80 yil mo'l hosil beradi

Umumiy ma'lumotlar

Yaman Respublikasi – Arabiston yarimoroli janubi g'arbida joylashgan davlat. Uning tarkibiga Sokotra oroli kiradi. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholisining 90% yamanlik arablardir, 10% afroarablar, efiopialiklar va boshqalardan iborat.



Afsonalarga ko'ra Sana shahri Nuh payg'ambarning to'fondan keyin tirik qolgan o'g'li tomonidan bunyod etilgan

Xo'jaligi

Aholining aksariyat qismi qo'shni arab mamlakatlariiga, Fors ko'rfazi atrofidagi mamlakatlarga ish qidirib ketadi. Yamanda neft, marmar, gips, osh tuzi qazib olinadi. Sanoatning asosiy yo'naliishlari: sement, to'qimachilik, tikuvchilik, tericharm, tamaki, paxtachilik, metallni qayta ishslash. Mamlakatda paxta, tariq, sorgo, makkajo'xori, tamaki, xurmo palmasi, anjir va boshqalar yetishtiriladi. Tog'li qismlarda yaylov sahosida esa ko'chmanchi chorvachilik rivojlangan. Aholi baliqchilik va Qizil dengizda marvarid ovi bilan shug'ullanadi. Mahalliy hunarmandchilikka dag'al jun matolarini ishlab chiqarish, gilamdo'zlik, zargarlik, kulolchilik va pichoqchilik kiradi.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, qahva, baliq va dengiz mahsulotlari, tuz, paxta, meva va sabzavotlar.

Tabiatি

Mamlakatning g'arbiy qismida Qizil dengizi qirg'og'i bo'ylab Tixam qumli tekisligi joylashgan. Undan sharq tomonda baland Jabal tog' platosi joylashgan. Bu plato G'arbiy, Markaziy va Sharqiyy platolarga bo'linadi. Markaziy plato baland tog'lar bilan o'ralgan, yerlari tekis va serhosil. Sharqiyy plato shimoli sharq va sharqiyy qismlarida Rub-ul-Xoli sahrosiga ulanib ketgan. Platolarda tez-tez zilzilalar bo'lib turadi. Mamlakat sharqdida Rub-ul-Xoli sahrosi va tog'lar orasida dengiz qirg'oqlariga parallel ravishda Xadramaut serhosil vodiysi joylashgan.

Yaman iqlimi tropik, quruq. Issiq janubi g'arbiy musson Afrikaning shimoli sharqidan apreldan oktabrga qadar esadi va jabal yassitog'lariga namlik olib keladi. Oktabrdan aprelga qadar nisbatan shamol ko'proq; Mamlakatda chuchuk suv tanqisligi sezilarli darajada. Yoz fasilda qumli va changli bo'ronlar bo'lib turadi.

Tixam pasttekisligida va janubiy qirg'oq bo'ylarida galofit va boshqa ekinlar o'sadi. Tog'larning g'arbiy va janubiy qismlarida va tog' vodiylarida tamariska, akatsiya, sikomora daraxtli o'rmonlar, platolarda abissin akatsiyasi, tamiriskli, majnuntolli o'rmonlar, sahrolarda o't, buta va past bo'yli daraxtlar joylashgan.

Yaponiya

Poytaxti: Tokio

Maydoni: 372,8 ming km²

Aholisi: 128 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: yapon tili

Aholisining diniy tarkibi:

sintoistlar – 84%, buddaviylar

– 76% (yaponlar bir vaqtning o‘zida ikki dinga sintoizm va buddaviylikka e’tiqod qiladi), xristianlar – 1%

Pul birligi: iyena



Umumiy ma’lumotlar

Yaponiya – Sharqiy Osiyodagi orolda joylashgan davlat. Davlat boshlig‘i – imperator. Aholining etnik tarkibi: yaponlar – 99%, qolganlari – koreys, xitoy va boshqa millatga mansub kishilar. Yaponiya uzoq vaqt mobaynida tashqi dunyodan uzilib qolgan. 1867 – 1868-yillardagi inqilob natijasida mamlakatda bozor iqtisodiyoti va demokratik islohotlar joriy qilindi. Bu o‘z o‘rnida kapitalistik

munosabatlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

XX asr boshida Yaponiyada militarizm ruhi avj oldi. Ikkinchiji jahon urushidagi mag‘lubiyati va urushdan keyingi harbiy islohotlar mamlakatning kelgusi hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. 1947-yilda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Unga asosan urushni xalqaro kelishmovchiliklarning yechimi sifatida ko‘rish,

harbiylarni mamlakat chegarasidan tashqariga yuborish man etildi, ko‘ppartiyaviyilik qonunlashtirildi, so‘z erkinligi, kasaba uyushmalari faoliyati va boshqalarga ruxsat berildi. Iqtisodiyotda ham katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, agrar islohotlar o‘tkazildi. Bir necha o‘n yil ichida Yaponiya harbiy amaliyotlar (jumladan, atom bombardirovksi) natijasida vayron bo‘lgan mamlakatdan yetakchilaridan biriga aylandi.



Tokio shahriga XV asr o‘rtalarida segun Tokugava tomonidan asos solingen. Qadimgi Xitoyning poytaxti Chanyan shahri andoza qilib olingan

Yapon varragi



Tabiat

Mamlakat to'rt yirik va 6,8 ming kichik orollardan iborat bo'lgan Yapon arxipelagini egallagan. Tinch okean sohil chizig'i juda ham notejis (ko'rfaž va kichik orollar bilan), uning ko'ndalangida ko'plab o'rta va kichik orollar bor. Janubiy Ryukyu orollari marjonli riflar bilan o'ralgan.


Quruqlikning 71% ni o'rta va past balandlikdagi tog'lar egallaydi. Eng uzun va baland tog' tizmasi Xonsyu orolida joylashgan: Markaziy qismida – yapon alp tog'lari, shimolda – Ou, Deva (sunbula) va Kitokami tog' tizmalari, orolning markazida – eng yuqori cho'qqi, Fudziyama vulqoni, sharqiy sohilda – Kanto, Nobi, Kinki tekisliklari.

Xokkaydo orolining tog' tizmasi markaziy qismida Asaxi cho'qqisi va Tokkata vulqoni, Kyusyu orolida esa Sukusi tog' tizmasi va bir qancha vulqonlar joylashgan.

Yaponiyada ko'plab zilzilalar sodir bo'lib turadi (200 ga yaqin vulqon bor). Eng faol vulqonlar: Asama, Banday, Sakuradzima, Siretoko-Iosan, Mixarayana. Vulqonlar atroflarida ko'plab issiq buloqlar bor. Xonsyu oroli ko'plab zilzilalar va Tinch okean sunamilarini zarbasini boshdan kechiradi.



Mamlakat iqlimi – mussonli, nam, shimolda – mo'tadil, markaziy qismida – subtropik, janubda – tropikka o'zgaruvchan. Kurosio («Qora oqim») va Susim iliq dengiz oqimlari janubiy va shimoli g'arbiy sohillarni isitadi. Kurill sovuq oqimlari esa (Ayasio oqimi) shimoli sharqiy sohillarni sovutadi. Kuz faslida Tinch okeandan kuchli shamolli to'fonlar, kuchli yomg'irlar keladi, ular oqibatida suv toshqini va yer ko'chishi hodisalari sodir bo'ladi.



Gullagan sakura. Bu yapon manzarali olchasi – Yaponiyaning o'ziga xos ramzi. Uni hamma yerda uchratish mumkin


Mamlakat daryolari tog'li jo'shqin va qisqadir. Vulqon kraterlarida kichik ko'llar bor.

Hududning 67% o'rmonlar bilan qoplangan. Xakkaydoda ignabargli o'rmonlar, baland tog'larda kedr, qayin daraxthi o'rmonzorlar, Xonsyuning shimoliy qismida qora qayinli o'rmonlar, tog' qismida keder va qarag'ay o'rmonzorlar, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollari janubida doimiy yashil eman, kichik kashtanlar, magnoliyalar, kamfora, lavr, Kyusyuning eng janubida va Ryukyu arxipelagida mussonli-tropik o'rmonzorlar joylashgan. Yaponiyada dekorativ bog'dorchilik rivojlangan.

Hududning 9 foizini 28 milliy bog'lar va 55 qo'riqxonalar egallagan. Anan, Kuiro, Siretoko, Yakusima va boshqa bog'lar eng ko'p ziyyarat qilinadigan bog'lardir.

Xokkaydo orolida 8 ta harakatdagi vulqon bor. U yerda ko'pincha zilzilalar bo'lib turadi

Yaponiyada robotsozlik juda rivojlangan. U yerda yuguradigan, raqs tushadigan, futbol o'ynaydigan va shu kabi ko'plab robotlar ixtiro qilingan



Xo'jaligi

Hozirgi kundagi Yaponiya – iqtisodiy salohiyati bo'yicha dunyoda yetakchi pog'onani egallagan. YIM bo'yicha dunyoda 3-o'rinni egallagan. Sanoat eksport yo'nalişida ishlaydi. Quvvat resurslari va xomashyoni (neft, gaz, rangli va qora metallar, ko'mir, yog'och, paxta va boshq.) xorijdan import qilishga majbur. Neft Indoneziya va Yaqin Sharq davlatlaridan import qilinadi, Yaponiyada tog'-kon sanoati deyarli yo'q. Yog'och tayyorlash oxirgi 10 yil davomida keskin pasayib ketdi. Avstraliya, Kanada, Skandinaviya mamlakatlari bilan raqobat kuchayganligi tufayli, qishloq xo'jaligi ichki guruch ehtiyojini to'liq qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 50% import qilinadi. Ekeltr quvvatining 30% ni AES beradi. Quvvat va yonilg'ining muqobil ko'rinishlarini – quyoshli geotremal, oqimli, shamolli usullarini ishlatish ortib bormoqda. Uchinchi sektorning asosiy yo'nalişlariga kompyuterlarni dasturlashtirish, axborot xizmati, telekommunikatsiyon xizmatlar, lizing, bank xizmatlari, sayyohlik, internet tarmog'i orqali savdo-sotiq xizmati kiradi. Yaponiya dastgohlar, kemalar, xo'jalik elektrotexnikasi va elektron qismlar, robotlar

ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda turadi; avtomobil va kimyo mahsulotlari bo'yicha 2-o'rinda turadi; po'lat erish va baliqchilik hajmi bo'yicha 3-o'rinda turadi. Qayta ishslash sanoatining yetakchi tarmoqlari: telekommunikatsiya, noutbuklar, shaxsiy kompyuterlar, pereferiya jihozlari, elektron qismlar, yarimo'tkazgichlar, kompyuter chiplarini ishlab chiqarish, xo'jalik elektronikasi va elektrotexnikasi hisoblanadi. Robot texnikasi, kernasozlik (dunyo bozorining 40,5 %), dastgohsozlik, avtomobilsozlik, traktorlar qurish, aerokosmos sanoati, elektromotor va generatorlarni ishlab chiqarish, qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishslash, neft-kimyo, kimyo, o'rmon-kimyo, farmatsevtika, biotexnologiya, selluloza-qog'oz sanoatlari rivojlanmoqda. To'qimachilik va tikuvchilik sanoatlari oldingi o'z mavqelarini yo'qotdi, hozirgi paytda janubi sharqiy Osiyoga, XXR, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarga ko'chirilgan.

Mamlakatda guruch (eng asosiy don o'simligi), bug'doy, arpa, suli, dukkakli soya, qand lavlagi, sabzavotlar, mevalar (olcha, olma, nok, olxo'ri, shaftoli), sitrus mevalar, choy, tamaki yetishtiriladi. Aholi yirik shoxli mollar, cho'chqalar, uy parrandalarini ko'paytirish, shuningdek, ipakchilik, arichilik bilan ham shug'ullanadi.

Ichki ko'llarda losos va forel baliqlarini sun'iy ko'paytirish, dengizlarda – baliq dengiz mahsulotlari va marvarid ovlari yo'lga qo'yilgan. Yaponiya dunyoda eng yirik baliq tutish dengiz flotiga ega (370 ming kema). Mamlakatda ipak mahsulotlari, bronza mahsulotlari, chinni, diniy marosim anjomlari, o'yinchoqlar, koptoklar, qo'g'irchoqlar, musiqa asboblari mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: telekommunikatsiya jihozlari, robotlar, aniq asboblar, kompyuter va ularning qismlari, integral sxemalar, yarimo'tkazgichlar, raqamli fotoapparatlar va videokameralar, xo'jalik elektrotexnikasi, dengiz kemalari, avtomobil va ularning qismlari, mototsikllar, orgtexnika, organik kimyo mahsulotlari.

Yapon traуleri. Bunday kemalar tral bilan baliq va boshqa suv jonivorlarini ovlash hamda ularga boshlang'ich ishlov berishga mo'ljalangan



Milliy libos
(kimono)
kiygan
yapon chinni
qo'g'irchog'i



Sharqiy Timor



Poytaxti: Dili

Maydoni: 14,9 ming km²

Aholisi: 1 mlin. kishi
(2007)


Rasmiy tillari: portugal,
tetun tillari

Aholisining diniy

tarkibi: katoliklar – 90%,
musulmonlar – 4%,
qolganlari protestantlar,
hinduiylar, buddaviylar

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: AQSh dollari



Vanil o'simligining
ba'zi turlarining
mevasida xushbo'y
moddalar (masalan,
vanilin) bo'ladi.
Ular parfumeriya va
oziq-ovqat sanoatida
foydalaniлади

Umumiy ma'lumotlar

Sharqiy Timor Demokratik Respublikasi – Osiyoning janubi Sharqidagi davlat. Indoneziya va Avstraliya orasida joylashgan. Timor orolining sharqi qismini, orolning shimoli g'arbdagi Onusi eksklavi va Atauru va Janu orollari egallagan. Davlat boshlig'i – prezident.

1975-yilgacha Sharqiy Timor Portugaliya mustamlakasi bo'lgan. 1975-yilda mustaqillik e'lon qildi, ammo 9 kundan keyin Indoneziya qo'shinlari tomonidan qurshovga olindi. 2002-yilga kelib Sharqiy Timor mustaqillikga ega bo'ldi.

Mamlakatda avstroloneziylar, jumladan, malay polineziyaliklari: tetumlar, galolelar, mambaylar, kemaklar va boshqalar yashaydi.

Tabiat

Mamlakat hududida tog' tizmalari joylashgan, bu tog'lardan Banda va Timor daryolariga kichik tog' daryolari oqib tushadi. Mamlakatda zilzilalar va sunamilar bo'lib turadi.

Sharqiy Timor iqlimi subekvatorial mussonli va o'rtacha miqdordagi yog'ingarchilik bilan namli mussonlar tog' ko'chishi va suv toshqinlariga sabab bo'ladi. Tog' va tog' yonbag'irlarida sandal daraxtli o'rmonzorlar bor. Pasttekisliklarda bo'yи baland savanna o'tlari, evkaliptlar va kokos palmalari o'sadi.

Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyoti fuqarolar urushi natijasida (1976–1999) tanazzulga uchradi. Iqtisodiyotning asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi, bu yerda sug'oriladigan dehqonchilik yetakchi o'rinda turadi. Aholining yarmi ishsiz. Mamlakat hududida yirik bo'limgan oltin, platina, marmar va marganes konlari joylashgan.

Aholi qahva, kokos palmasi, guruch, makkajo'xori, kassavu, soya, batat, mango, banan, vanil, tamaki va paxta yetishtiradi. Mamlakatda sovun va kosmetik mahsulotlar ishlab chiqarish va marvarid topish bilan shug'llanishadi. Shimoliy Timorda yog'ochsozlik, terichilik, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan. Kichik mahalliy hunarmandchilik tarmoqlari: savat to'qish, fil suyagi o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik.

Asosiy eksport mahsulotlari: qahva, sandal daraxti, vanil, marmar.

◆ Marvarid topish – mamlakat aholisi uchun daromad topishning kamyob usullaridan biri



Shri-Lanka



Poytaxti: Shri-Jayavardeneputra-Kotte (rasmiy) va Kolombo
Maydoni: 65,6 ming km²

Aholisi: 20 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: singal, tamil, ingliz tillari

Aholisining diniy tarkibi: buddaviylar – 70% (singal), hinduiylar – 15% (tamillar), xristianlar – 8%, musulmonlar – 7%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Shri-Lanka rupiyasi

Xo‘jaligi

Shri-Lanka iqtisodiyotining asosi – kiyim-kechak, choy va shirinliklar eksporti; xorijiy turizm. Telekommunikatsiya, moliyaviy amaliyotlar va sug‘urta ishiga oid tashkilotlarning kengayishi hisobiga xizmat ko‘rsatish sektori rivojlanmoqda. Mamlakat hududida grafit, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar (yoqut, sapfir, ametist, topaz, turmalin) qazib olinadi. Oliy navli yog‘ochlarga ishlov berish ishlari amalga oshiriladi.

Aholi guruch, choy, geveya, kokos palmasi, dukkakli o‘simliklar, batat, mevalar yetishtiradi; ulovga yaroqli buyvollar ko‘paytiradi va baliqchilik bilan shug‘ullanadi.

Mahalliy hunarmandchilik sohalari: kumush va jez buyumlar yasash, sapfir, topaz va ametistdan zargarlik buyumlarini tayyorlarsh, tik, maxagon va obnus daraxtidan turli jihozlar yashash, savat, bosh kiyim va bo‘yra to‘qish.

Eksport qilinadigan mahsulotlar: kiyim-kechak, poyabzal, choy, shirinlik, kauchuk, qimmatbaho toshlar, kokos palmasi mahsulotlari va baliq.



Buddha monaxlari sarg‘ish zarg‘aldor rangli libos kiyishadi

Umumiy ma’lumotlar

Shri-Lanka Ijtimoiy Demokratik Respublikasi – Osiyodagi orolda joylashgan davlat. Davlat boshlig‘i – prezident. Shri-Lanka – Hamdo‘stlik a’zosi.

Aholisining etnik tarkibi: singallar – 74%, tamillar – 18%, Lanka mavrlari (xabashlari) – 7%.

Tabiat

Shimolda qirg‘oq chizig‘i juda ham notejis. Qirg‘oq bo‘ylab marjon riflari joylashgan. Hududning 80% pasttekisliklardan iborat. Markaziy va janubiy qismida zinali markaziy tog‘lar mavjud. Shimolda karset hodisasi tarqalgan. Markaziy platodan okeanga qisqa daryolar oqib tushadi.

Mamlakat iqlimi mussoni: shimol va sharqda subekvatorial, quruq; janubda ekvatorial, sernam; shimoli sharqiy Maxa mussoni dekabrdan martgacha esadi, janubi g‘arbiy Yasa mussoni iyundan oktabrgacha esadi va o‘zi bilan ko‘p miqdorda yog‘ingarchilik olib keladi. Shri-Lankada to‘fonlar, tornadolar, suv toshqinlari, sunarmilar bo‘lib turadi. O‘rmonlar hududning 24 foizini tashkil etadi. Janubi g‘arbda ekvatorial o‘rmonlar, tog‘ tizmalarida qarag‘ay va savanna o‘simliklari, qurg‘oq joylarda bargi to‘kiluvchan o‘rmonlar, g‘arbiy va janubiy-g‘arbiy sohilda kokos palmalari o‘sadi.



Kolombodagi dehqon bozori mahsulotlarning Osiyoga xos mo’lligi bilan g‘arbliklarni hayratga soladi

O'zbekiston



Poytaxti: Toshkent

Maydoni: 447.4 ming km²

Aholisi: 29 559.1 ming kishi
(2012-yil 1-yanvardagi holatga muvofiq)

Rasmiy tili: o'zbek tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 88%, pravoslavlavlari – 9%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: so'm



Umumiy ma'lumotlar

O'zbekiston, O'zbekiston Respublikasi – Markaziy Osiyodagi davlat. 1991-yil 31-avgustda mustaqil davlat deb e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Amudaryo va Sirdaryo daryolari orasida joylashgan va 447,4 ming km² maydonni egallagan. Respublikaning g'arbdan sharqqacha bo'lgan uzunligi 1425 kilometrni, shimaldan janubgacha bo'lgan uzunligi 930 kilometrni tashkil etadi. O'zbekiston hududining shimoli sharqiy qismi Qozog'iston bilan chegaradosh, sharqiy va janubi sharqiy qismi Qirg'iziston va Tojikiston bilan, g'arbiy qismi esa Turkmaniston bilan, janubiy qismi esa Afg'oniston bilan chegaradosh. Davlat chegarasining umumiy uzunligi 6221 kilometrni tashkil etadi. O'zbekiston ma'muriy jihatdan 12 viloyatga, Qoraqalpog'iston avtonom respublikasiga va Toshkent poytaxt shahriga bo'linadi.

radosh, sharqiy va janubi sharqiy qismi Qirg'iziston va Tojikiston bilan, g'arbiy qismi esa Turkmaniston bilan, janubiy qismi esa Afg'oniston bilan chegaradosh. Davlat chegarasining umumiy uzunligi 6221 kilometrni tashkil etadi. O'zbekiston ma'muriy jihatdan 12 viloyatga, Qoraqalpog'iston avtonom respublikasiga va Toshkent poytaxt shahriga bo'linadi.

1992-yil 8-dekabrdan qabil qilingan konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston demokratik respublikadir. Davlat boshlig'i – prezident. Prezident 18 yoshdan katta fuqarolarning umumxalq ovoz berishi orqali besh yillik muddatga saylanadi. Oliy qonun chiqaruvchi tashkilot – Oliy Majlis, parlament. Oliy Majlis ikki palatadan iborat : Qonun chiqaruvchi palata (quyi palata) va Senat (yuqori palata). Senat 100 ta a'zodan iborat. Ularning 84 tasi mahalliy va viloyat hokimiyat organlaridan 5 yil muddatga saylanadi, 16 tasi esa prezident tomonidan tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonun chiqaruvchi palatasi qonun bo'yicha saylanadigan 150 ta deputatdan iborat. O'zbekiston Hukumati – Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinnbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati rahbari o'z lavozimiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi. Hukumatning viloyatlar, shaharlar va tumanlardagi vakillar organlari hokimlar tomonidan boshqariladigan




O'zbekiston poytaxtidagi Mustaqillik maydoni

Xalq deputatlari kengashlaridan iborat. Hokimlar davlat va fuqarolar manfaatlaridan kelib chiqqan holda o‘z vakolati doirasidagi masalalarini hal qiladi.

Aholisining etnik tarkibi:
o‘zbeklar – 80%, ruslar – 5,5%, tojiklar – 5%, qozoqlar – 3%, qoraqalpoqlar – 2,5%, qirg‘izlar – 1%, shuningdek, turkmanlar, tatarlar, ukrainlar, yahudiylar va boshqalar. Rasmiy tili – o‘zbek tili; aholining 74% dan ortiq qismi o‘zbek tilida so‘zlashadi. Konstitutsiyaga ko‘ra O‘zbekiston – dunyoviy davlat, lekin aholisining 88 foizi musulmonlar (o‘zbeklar va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari), 9 foizi pravoslav nasroniylar, 3 foizi boshqa yo‘nalishdagi dindorlardan iborat. O‘zbekiston aholisi 2005-yil iyul oyida taxminan 27 milliontadan iborat bo‘lgan, 2012-yil 1-yanvarga kelib esa 29,5 millondan oshgan. 2011-yilda O‘zbekistondagi tug‘ilish darajasi ming kishiga 21,4, o‘lish darajasi esa ming kishiga 4,9 ni tashkil etgan.

Aholining 51 foizi shaharlarda yashaydi. O‘zbekistonning eng katta shahri – mamlakat poytaxti Toshkent. Mazkur shahar aholisi 2,3 million kishidan iborat. 1966-yilda kuchli zilzila Toshkent shahrini vayron qilgan, lekin tez orada Toshkent qayta tiklangan. Respublika sanoat korxonalarining asosiy qismi Toshkentda joylashgan. Toshkent orqali asosiy yo‘llar o‘tgan; bu shahar mamlakatning iqtisod, ta’lim



Toshkent kuranti

va madaniyat markazidir. Kattaligi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turuvchi shahar – Samarqand (374,9 ming kishi). Samarqand shahri me’moriy yodgorliklari bilan shuhrat qozongan. Farg‘ona shahrida esa bir qator yirik shaharlar joylashgan: Namangan (441,2 ming kishi); Andijon (373,8 ming);

Farg‘ona (234,7 ming); Qo‘qon (211 ming). Buxoro shahri (244,2 ming kishi) ham diqqatga sazovor qadimiy shahar. U uzoq vaqt o‘zbek xalqining madaniy va siyosiy markazi bo‘lgan. Nukus shahri (268,8 ming kishi) – Qoraqalpog‘iston avtonom respublikasining poytaxti.

Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar haqidagi eng qadimiylar ma‘lumot zardushtiyarning Avesto kitobida kelgan. Ushbu hududda so‘g‘dilar, baqtriyaliklar va boshqa xalqlar yashar edi. Miloddan avvalgi IV, V va VI asrlarda Markaziy Osiyoning katta qismi forslarning Ahamoniylar sulolasi hukmronligi ostida edi. Iskandar Zulqarnayn (Iskandar Makduniy) Markaziy Osiyoni miloddan avvalgi III–IV asrlarda bosib olgandan keyingi davr haqidagi manbalarda me’morchilik, naqqoshlik, hunarmandchilik va musiqa rivojlangani haqida aytilgan. Miloddan avvalgi III asr o‘rtalarida bosib olingan hududlar mustaqil bo‘ldi va mahalliy sulolalar hukumat tepe-siga keldi. Zamonaviy O‘zbekiston va Tojikistonning janubiy qismlarini o‘z ichiga olgan Baqtriyaliklar davlati Yunon-Baqtriyaliklar saltanating markaziga aylandi va keyinchalik Kushonlar saltanati hukmronligi ostiga o‘tdi.

Ilk o‘rta asrlarda O‘zbekiston hudo-dida Xioniylar, Kidariylar, Eftalitlar davlatlari hukmron bo‘lgan.



Temuriylar muzeyi,
Markaziy zal

Toshkentdagi birinci metro bekatlari
1972-yilda ochilgan



Ushbu davrda katta hududni egallagan mazkur davlatlar qo'shni davlatlar bilan keng ko'lamlı savdo siyosatini olib borgan.

VIII–IX asrlarda O'zbekiston hududiga arablar bilan birga yangi madaniy tarmoq ham kirib keladi. IX–XII asrlarda turk tili hukmron til mavqeini egallagan va adabiy til shakllana boshlagan.

IX–XII asrlarda, Somoniylar, Qoraxoniylar va Xoramshohlar hukmronligi davrida qator ijobiy o'zgarishlar bo'lgan, xususan madaniy hayotda. Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Zamashariy va boshqa olimlar mamlakat va xalq farovonligi uchun mehnat qilishgan. Imom al-Buxoriy, at-Termizi, Najmuddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy kabi olimlar diniy ilmlar rivojiga katta hissa qo'shishgan.

1220–1221-yillarda mahalliy zodagonlar Chingizxon qo'shini bosqiniga qarshi tura olmagan. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va boshqalar o'z xalqini bosqinchilaridan himoya qilib to'xtovsiz urush olib borishgan. XIV asr o'rtalarida sarkarda Amir Temur yordamida mahalliy aholi mo'g'ullardan xalos bo'lgan. Amir Temur Iroq, Hindiston, Turkiya va Shimoliy Afrikaga muvaffaqiyatlari yurishlar boshlagan. Natijada o'rta asrdagi poytaxti Samarqandda joylashgan eng qudratli sultanatlaridan biri vujudga kelgan. Shaharlarning tiklanishi va rivojlanishi tijorat, hunarmandchilik, fan va san'atni jonlantirgan.

XVI–XVII asrlarda O'zbekiston hududida Shayboniylar va Ashtarkoniylar davlati hukmron bo'lgan. Ashtarkoniylar davrida markazlashgan davlat tanazzulga yuz tutadi va parchalanib ketadi. Natijada Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keladi.

Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga bosqinchilik yurishlari natijasida O'zbekiston XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab 1991-yilga qadar Rossiya imperiyasi va Sovet ittifoqi tarkibida bo'lgan.



◆ An'anaviy o'zbek do'ppilar

1991-yil 1-sentabr kuni O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgan va bu kun Mustaqillik Kuni deb e'lon qilingan. O'zbekiston davlatchilikka ega bo'lgach yangi, rivojlanayotgan, suveren, demokratik davlatga aylanish uchun o'z yo'lini ishlab chiqsa boshladи. Mo'tadil tashqi siyosat olib borish natijasida O'zbekiston dunyoning 180 dan ortiq mamlakati tomonidan tan olindi, 130 dan ortiq mamlakat bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasi – BMT, MDH, SHHT va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi.

O'zbekiston – ko'p millatli davlat: bu yerda 120 dan ortiq millatlar va elatlar yashaydi.



◆ Xonatla – tabiiy ipakdan tayyorlangan milliy mato



◆ Chimyon go'zalligi hech kimni befарq qoldirmaydi

Xo'jaligi

O'zbekiston – sanoatlashgan agrar mamlakat. Respublikaning asosiy energetik manbasi – tabiiy gaz. Tabiiy gaz asosan Gazli va Qarshi hududida qazib chiqariladi. Neft Farg'ona vodiysida va Buxoro viloyatida qazib olinadi. 1992-yil boshida Farg'ona vodiysining g'arbiy qismida yangi neft koni ochilgan. Dastlabki hisobga ko'ra u dunyodagi eng katta konlardan biri. Toshkent va Denov yaqinida va Farg'ona vodiysida toshko'mir qazib olinadi.

Rangli metallar sanoat usulida qazib olinmoqda, jumladan, rux, mis, qo'rg'oshin, volfram va nometall foydali qazilmalar – dala shpati, chaqmoqtoш, ohak, feruza. Zarafshon daryosi havzasida va Qizilqumda oltin qazib olinadi. Neft va gaz sektorini davlat kompaniyalari tomonidan o'zlashtirilmoqda, lekin qazilma xomashyolarni qazib olish sanoatiga g'arb firmalari taklif etilmoqda. Bu narsa, xususan yangi texnologiyalarni talab qiluvchi oltin qazib olishga taalluqli.

Sanoatning asosiy sohalaridan biri – mashinasozlik (avtomobillar, transformatorlar, elekrotexnika, kompressorlar va h.k.). Xalq xo'jaligining boshqa muhim sohalaridan metalurgiya, kimyo, oziq-ovqat sanoatini va qurilsh mollari ishlab chiqarishni

Muntazam ravishda yangi ko'priklar, yo'llar, transport chorrahalarini bunyod etilmoqda



ta'kidlash joiz. Avtomobilsozlik (Andijon), elektronika (Samarqand), kiyim ishlab chiqarish (Toshkent) sohalariga yo'naltirilgan xorijiy sarmoyalari va texnik yordam O'zbekiston sanoatining yanada rivojlanishiga umid bag'ishlaydi.

Qishloq xo'jaligi asosan soyli hududlarda sun'iy sug'orish yo'li bilan olib boriladi. O'zbekiston iqtisodi avvallari paxta yetishtirishga asoslanadi. Bugungi kunda O'zbekiston dunyo paxa bozorining muhim ishtiroychilaridan biri bo'lib, paxta eksporti bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda, yetishtirish bo'yicha esa beshinchchi o'rinda turadi.

O'zbekistonning paxtadan boshqa muhim qishloq xo'jalik mahsulotlariga mevalar, sabzavotlar va donli ekinlar (bug'doy, guruch, makkajo'xori) kiradi. Ayniqsa, o'zbek qovunlari va uzuumlari juda mashhur. Ko'plab yirik gidrotexnik loyihalar amalga os-hirilgan (masalan, Chirchiq-Bo'zsuv kaskadi, Farhod va Chorvoq GESlari, Katta Farg'ona kanali va Mirzacho'l kanali) va ilgari mavjud bo'lgan sug'orish kanallari tizimlari kengaytirilgan. Ko'plab o'zbek oilalari qishloq hududlarida bog'ga, yerga ishlov berib meva va sabzavotlar yetishtirishadi.

O'zbekiston paxta, tilla, yonilg'i, ma'danli o'g'it, metall, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari, avtomobillar eksport qiladi.

2011-yilda O'zbekistonda yalpi ichki daromadning o'sishi 8,3 foizni tashkil qildi. O'zbekistonning tashqi savdo bo'yicha asosiy hamkorlari – Rossiya, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, Ukraina, Germaniya, Qozog'iston, Tojikiston va Bangladesh.



«Navoiy» aeroporti yuk terminali.
Yuklash



Buxorodagi neftni qayta ishlash zavodi



Paxta yetishtirish – O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi yetakchi soha. Paxta mamlakat eksportining muhim qismini tashkil etadi

G'arbiy Tyan-Shanning mangu qor qatlamlari chegarasida qor qoploni (ilvirs) kezib yuradi



Tabiatি

O'zbekiston hududining taxminan $\frac{4}{5}$ qismi Turon pasttekisligidan iborat; mamlakatning sharqiy va janubiy-sharqiy qismlarida Tyan-Shan va Hisor tog' tizmasining tog'lari va tog' etaklari joylashgan. Turon plitasi hududida Ustyurt platosi, Amudaryo deltasini va Qizilqum cho'li joylashgan. Mamlakatning taxminan 40 foizi cho'l bilan qoplangan. Sharqdagi va janibi sharqdagi tog' tizmalarini tog'lararo Farg'ona, Zarafshon, Chirchiq-Angren botiqlarini va vodiylarini ajratib turadi. Mamlakat hududidagi eng yuqori nuqta 4643 m (Hisor tog' tizmasi).

O'zbekiston iqlimi keskin kontinental. Yoz uzoq, jazirama va quruq, qish anchagina sovuq, kam qorli, lekin qisqa. Tekisliklarda qishning o'rtacha harorati -7 dan 3°C gacha bo'ladi; o'rtacha yozgi harorat $26\text{-}30^{\circ}\text{C}$. Eng kam yog'ingarchilik cho'llarda sodir bo'ladi – yiliga 80–90 mm. Tog'larda va tog'lar orasidagi vohalarda yog'in ko'p bo'ladi, lekin mamlakat hududining katta qismida

yiliga 200 mm dan kam yog'in sodir bo'ladi. Mazkur yog'ingarchilikning deyarli to'rtdan uch qismi qishki mavsumga to'g'ri keladi. Mamlakatda qurg'oqchilik va toshqinlar bo'lib turadi, tog'larda va tog'ga yaqin hududlarda sellar kuzatiladi.

Mamlakatning katta qismi Markaziy Osiyodagi eng katta daryolar orasida joylashgan, shimolda Sirdaryo, janubda esa Amudaryo oqadi. Ikkala daryo O'zbekiston chegarasidan sharqroqda joylashgan baland tog'lardan oqib keladi va shimoli g'arbiy yo'nalihsda oqib borib Orol dengiziga quyiladi. Boshqa daryolar, jumladan, Zarafshon, Chirchiq, Qashqadaryo va Surxondaryo kabi yirik daryolar Amudaryo va Sirdaryo havzalariga mansub. Qurg'oqchil, jazirama iqlim sharoitida ko'plab daryolar yozda qurib qoladi. O'zbekistondagi yagona yirik ko'l – bu mamlakatning shimoli g'arbidagi Qozog'iston chegarasida joylashgan sho'r Orol dengizi. 1980–1990-yillarda Orol dengizining maydoni keskin qisqardi. 1998-yilga kelib Orol dengizining qirg'oq chizig'i 80 kilometrgacha chekindi, dengizning o'zi uchta alohida suv havzasiga ajraldi.

O'zbekistonda juda xilma-xil o'simliklar mavjud. Cho'llarda va tekisliklarda shuvoqlar, qumda o'sadigan akatsiyalar, saksovullar, yulg'unlar, boshqoli o'simliklar va butalar o'sadi. Soyli hududlar va vohalar o'simliklarga boy. U yerda terak, tol, jiyya va tut daraxtlari o'sadi. Tog'larda mevali va yong'oq mevali darxtorlar va butazorlar bor. O'rmonlar mamlakat hududining 2 foizini tashkil etadi. Cho'llarda va yarim cho'llarda hayvonot olami kaltakesaklar, ilonlar, kemiruvchilar, yumronqoziqlar va mushuksimon yirtqichlardan iborat. Qushlardan qarg'alar, soykalar, qo'tonlar va ko'plab xilma-xil mayda sayroqi qushlar ko'p uchraydi. Baland tog'larda qirg'ovullar, to'rg'aylar, ukkilar va yirik yirtqich qushlarni uchratish mumkin. Yaxshi o'zlashtirilmagan hududlarda yashovchi sug'urlar, to'ng'izlar, quyonlar, tulkilar va bo'rilar borligini ta'kidlash joiz.



Borshov lolasi – Qizilqumning jaydari o'simligi



O'rta Osiyo tuyasi – cho'l jonivori



◆ Samarqandning Registon maydonidagi Ulug'bek madrasasi



◆ Poi Kalon ansamblı 3 ta arxitektura inshootidan Iborat: Minorayı Kalon, Masjidi Kalon va Mir Arab madrasası

Diqqatga sazovor joylari

O'zbekiston – qadimiy yuskak madaniyat diyori. U dunyoga me'morchilikning ajoyib namunalarini taqdim etgan. Sharq tarixchilarining qadimgi shaharlarga (Buxoro, Samarqand, Xiva va b.) bergan ta'riflarida hukmdorlar saroylari, zodagonlar uylari, bozorlar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, shahardan tashqaridagi bog'lar qo'ynidagi saroylar tilga olinadi. Masalan, Termizdagi IX–X asrlarga oid Qirq qiz qo'rg'oni, Buxorodagi Somoniylar maqbarasi.

Markaziy Osiyoda shahar binokorligining gullab yashnagan davri XV asrdan buyon davom etdi. Amir Temur va Ulug'bek hukmronligida qurilgan eng e'tiborga molik binolar – Temuriylarning oilaviy maqbarasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Bibixonim masjidi, Go'ri Amir, Shohi Zinda majmuasining katta qismi, Ulug'bek rasadxonasi va Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi. Markaziy Osiyo me'morchiligining XVI–XVIII asrlarga oid ansamblarining dovrug'i dunyoga ketgan. Samarqanddagi Registon, Minorayı Kalon va Labi hovuzni o'z ichiga olgan Kalon maydoni ansamblı, Qo'sh madrasa, Ulug'bek madrasasi, Buxorodagi Abdulazizzon madrasasi va boshqalar.

XVIII–XIX asrlar o'rtalarida me'moriy obidalar jam bo'lib


o'ziga xos muzey shaharga, Xiva shahriga aylandi. Bu yerda turli davr va xalqlarning yuzdan ortiq yodgorliklari saqlanib qolgan: qadimiy shahar devori, Ko'hna ark, Ichon qal'a, Tosh hovli saroyi, Dishan qal'a raboti, minoralar va Islomxo'ja madrasasi, Muhammad Aminxon, Kalta Minor, 218 ustunli Juma masjidi, Pahlavon Mahmud maqbarasi va boshqa ko'plab o'ziga xos inshootlar. XIX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston me'morchiligiga Yevropa shahar binokorligi uslublari tadbiq qilina boshladи. O'zbekiston me'morchiligining e'tiborga molik yutug'i sifatida Toshkentdagi Navoiy nomli opera va balet teatrini, janubiy koloriti bilan ajralib turuvchi «Toshkent» mehmonxonasini tan olish kerak. Televizion minora zamonaliv arxitektura namunasi bo'la oladi. U Markaziy Osiyodagi eng baland inshoot bo'lib, balandligi 375 metr.

Mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan respublikada milliy arxitektura va shahar binokorligiga zamin yaratildi. Poytaxtning asosiy maydoni bo'lmish Mustaqillik maydoni ko'plab zamonaliv maydonlar andozasida barpo etilgan. Bu yerda 31-avgust kuni Respublika Mustaqillik Kuni, tantanali sanalar nishonlanadi, turli tadbirlar o'tkaziladi.

Respublika buyuk ajdodi Amir Temur xotirasini ulug'laydi. Amir

Islomxo'ja minorasi (Xiva)





Buxorodagi Bolohovuz jome masjidi yog'och ustunining yuqori qismi



Qazish ishlari (Termiz)

Mirzacho'l qovunlari O'zbekistondan tashqarida ham juda mashhur



Temur davrida san'atning barcha turlari, xususan me'morchilik keng rivojlangan. Toshkent, Samarcand va Shahrisabz shaharlarida Amir Temurga haykallar qurilgan. Temuriylar muzeyi mafkuraviy jihatdan e'tiborga molik jamoat binosiga aylandi. U Toshkentdagi Amir Temur xiyobonining shimoli g'arbiy qismida bunyod etilgan. Shahrimizning ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan anjumanlar saroyini haqiqiy san'at asari deyish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi binosi jamoat binolari arxitekturasining mumtoz uslubiga misol bo'la oladi.

O'zbekistonning diqqatga sazovor joylariga arxitektura yodgorliklaridan tashqari oziga xos tabiat qo'riqxonalarini kiritish mumkin. Masalan, Nurota tog'lari. U yerda 1500 yildan ko'proq vaqtadan beri bahaybat archa o'sadi (poyasining aylanasi 24 metr, shoxlarida esa yo'lakda yurgandek yurish mumkin). Bundan tashqari qoya toshlari sirli barelyefdek tizilgan Chimyon tog'lari va ko'plab arxitektura yodgorliklari topilgan Chotqol vodiysidagi qadimiy Burchimulla ham diqqatga sazovor joylardandir.




Darveshlarning an'anaviy kiyimidagi o'ziga xos belgilari – tasbeh, hassa, tepasi cho'qqili telpak va albatta to'rvaxalta

Shahrisabz. Oqsaroy



Afrika



AFRIKA

Afrika – kattaligi bo‘yicha Yevrosiyodan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi materik, dunyoning olti qit’asidan biri. Shimolda uni O‘rtayer dengizi, sharqda va shimoli sharqda Hind okeani va Qizil dengiz, g‘arbda Atlantika okeani o‘rab turadi. Afrikaning deyarli o‘rtasidan ekvator chizig‘i o‘tadi.

Afrika maydoni – 29,2 mln. km², orollar bilan birga – 30,3 mln km². Materikda tabiiy mintaqalar yaqqol ajralib turadi. Maydonining 80% ni savannalar va sahrolar egallagan. Sahroyi Kabir – eng katta cho‘l.

Afrika qit’asiga mansub orollar: sharqda Madagaskar, Kamor, Maskaren, Aldabra Amirant, Seyshel, Temba, Mafiya, Zanzibar, Sokora orollari; g‘arbda Madeyra, Kanar, Pigalu, San-Tome va Prinsipi, Bioko, Yashil Burun orollari, olisroqda joylashgan orollar: Vozneseniye, Avliyo Elena, Tristan-da-Kunya orollari. Qit’ a qirg‘oqlari nisbatan tekis. Eng katta ko‘rfazi – Gvineya, eng yirik yirimoroli – Somali.

«Afrika» nomi mil.av. III asr oxirlaridan boshlab qo‘llanilgan. Avval Karfagen shahrining xurmolar o‘sadigan kichik hududi shunday nomlangan. Mil. av. 146-yilda Karfagen vayron bo‘lgach uning o‘rniga Afrika nomli Rim viloyati tashkil topdi. Uning maydoni hozirgi Tunis hududiga to‘g‘ri keladi. O‘rta asrlarga kelib bu nom Jazoir va Liviyaga, keyinchalik butun qit’aga berilgan.

Relyefi

Qit’ani o‘rtacha balandligi – dengiz sathidan 750 metr baland. Relyefi pog‘onali tekisliklar, platolar va yassi yassitog‘lardan iborat. Pasttekisliklar asosan qirg‘oq hududlari bo‘ylab joylashgan. Bu hududlar Afrika hududining 10% tashkil etadi, 200–500 m balandlikdagi plato va yassitog‘lar qit’aning 39% ni, 500–1000 m balandlikdagilari esa 28% ni egallagan.

Qit’ a sharqida, Zambezi daryosidan qizil dengizgacha dunyodagi eng katta chuqurliklar joylashgan, ularning aksariyatida ko‘llar bor. Yer qobig‘ining yorilishi va cho‘kishi natijasida rift vodiylari hosil bo‘lgan. Bu yerda Kilimanjaro (5895 m, Afrikaning eng yuqori nuqtasi), Keniya (5199 m) va boshqa vulqonlari bor.

Foydali qazilmalari

Qit’ a dunyo bozorida ahamiyatli qazilmalarga boy, jumladan olmos (Afrika janubi va g‘arbida), oltin, uran, (janubda), temir, aluminiy, marganes rudalari (g‘arbda), misi, kobalt, berelliyl, litiy, flyuorit, platinoid (janubda), fosforit, neft, va tabiiy gaz.

O‘simliklar va hayvonot olami

Ekvatorial mintaqada va subekvatorial mintaqaning qirg‘oqbo‘yi hududida nam tropik o‘rmonlar bor. Ulardan keyin baobab va akatsiya savannalar keladi, yana nariroq borilsa yarimsahro va sahrolar joylashgan. Shimolda va janubda quruq dashtlar ko‘p, tog‘larda buta, doimiy yashil va ignabargli o‘rmonlar, qirg‘oq bo‘ylarida doimiy yashil qattiq bargli butalar o‘sadi. Tropik o‘rmonlarda va savannalarda (asosan qo‘riqxonalarda) fil, karkidon, begemot, zebra, jirafa, antilopa, qo‘tos, arslon, qoplon, gepard, silovsin, sirtlon, maymun va boshqa jonivorlar yashaydi. Qurg‘oqchil hududlarda sudralib yuruvchi hayvonlar uchraydi. Afrikada tuyaqush, ibis, flamingo va boshqa qushlar ko‘p. Xo‘jaliklarga termittlar (ko‘r chumoli), chigirkalar, setse pashshalari katta ziyon yetkazadi. Yovvoyi hayvonlar soni oxirgi 150 yil davomida keskin kamayib ketdi. Ularni qo‘riqlash maqsadida qo‘riqxonalalar tashkil etilgan.



Afrikalik sehrgar niqobi

Suv havzalari

Afrikaning yirik daryolari: Kongo – qit’adagi eng sersuv daryo; Niger, Senegal, Gambiya va Oranj daryolari Atlantika okeaniga quyiladi. Afrikaning eng uzun daryosi bo‘lmish Nil O‘rtayer dengiziga quyiladi, Zambezi daryosi esa Hind okeaniga quyiladi. Daryolarda sharsharalar ko‘p (eng kattasi – Viktoriya). Afrika maydoni 1/3 qismida ichki daryolar joylashgan. Deyarli barcha daryolar Sharqiy Afrika rift tizimining chuqurliklarida joylashgan. Bulardan eng kattalari Viktoriya, Tanganiqa va Nyasa hisoblanadi. Kilimandjaro va Keniya tog‘larida hamda Ruvenzori tog‘ massivida kichik muzliklar bor.

Iqlimi

Afrika – materiklarning eng issig‘i. Shimoliy yarimshardagi Afrikaning shimoliy qismida o‘rtacha harorat 25° dan 30° C gacha va undan ko‘proq (Sahroi Kabirda), janubida 12° dan 25°C gacha. Janubiy yarimshardagi qit’aning shimoliy qismida o‘rtacha harorat 10°–25° C gacha (tog‘da 0°C dan pastroq, qor yog‘adi) tushib ketadi janubda 30°C dan balandroq bo‘ladi. Ekvatorial kengliklarda yog‘ingarchilik yil davomida yog‘adi – 1500 dan 4000 mm gacha (Gvineya ko‘rfazi qirg‘g‘ida). Ekvatordan uzoqlashgan sari ular miqdori kamayib boradi, 1500 dan 200 mm gacha kamayadi, Sahroi Kabi va Janubiy Afrikada eng kam yog‘in miqdori (taxminan 100 mm) kuzatiladi.

AFRIKA



Angola



Poytaxti: Luanda

Maydoni: 1,3 mln.km²

Aholisi: 16 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: portugal tili

Aholisining diniy tarkibi: animistlar –

47%, katoliklar – 38%,

protestantlar – 15%.

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yangi kvanza



Yashcherning tanasi qalqonchalar bilan qoplangani uchun u qoraqarag'ayning g'uddasiga o'xshaydi

Umumiy ma'lumotlar

Angola Respublikasi – Afrika qit'asining janubi g'arbida, ekvatordan janubroqda joylashgan davlat. Kongo Demoratik Respublikasi hududida (KDR) kichik Kabinda anklavi ham Angolaga tegishli. Angola 1975-yilgacha Portugaliya mustamlakasi bo'lgan, so'ng mustaqillikni qo'lga kiritgan. Davlat boshlig'i – prezident.

Xo'jaligi

Angola Afrikaning eng boy davlatlaridan biri. Hududida serhosil yerlar, gidroquvvat resurslari, neft, olmos (olmosli mamlakatlar beshtaligiga kiradi), tabiiy gaz, temir va marganes rudasi zaxiralari mavjud. Mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlanib bormoqda. YIM ning 67% – sanoat, 8% – qishloq xo'jaligi, 25% – xizmat ko'rsatish sektoriga to'g'ri keladi. Angola iqtisodiyotining asosini dengizdan neft, gaz, olmos qazib olish tashkil etadi. Angola hududining 4/5 qismi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli, yiliga ikki marotaba hosil terish mumkin. Mamlakatda baliqchilik rivojlangan.

Angola neft (eksport daromadini 80-90%), olmos, qahva, kakao, dengiz mahsulotlari, palma yog'i, kauchuk, tropik yog'ochlari va boshqa mahsulotlarni eksport qiladi.

Tabiat

Angola hududining deyarli hamma yerini plato egallaydi (balandligi 1000 m). Markaziy va g'arbiy hududda plato ko'tarilgan, shimal va asosiy daryolar oqib tushadigan janubi sharq tomonda pasayadi.

Angola iqlimi issiq. Mamlakat ichkarisida ekvatorial, mussonli, qirg'oq bo'yalarida tropik.



Angolada so'galli cho'chqalar yashaydi. Boshqa ko'plab tuyyoqlari jonivorlardan farqli o'laroq ular hammaxo'

Platoda quruq bargli to'kiluvchi noyob o'rmonlar va baobabli savannalar, vodiylarda papiruszorlar va ko'plab palmalar o'sadi. Luandadan janubda savannalar yarimsahroga, janubiy Bengeldan janubroqda esa, Namib sahosiga ulanib ketadi.

Angolaning hayvonot olami juda boy: fil, sher, qoplon, gepard, shoqol, zebra, antilopa, yashcher va maymun. Noyob qirol antilopasi ham uchrab turadi.



Benin



Poytaxti: Porto-Novo

Maydoni: 112,6 ming km²

Aholisi: 9 mln. kishi (2007)


Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy tarkibi:

mahalliy e'tiqodlariga ergashuvchilar – 50%, xristianlar – 30%, musulmonlar – 20%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Afrika franki



Xo'jaligi

Benin – agrar mamlakat YMning 36% qishloq xo'jaligiga, 14% sanoatga, 50% xizmat ko'rsatish sektoriga (shu jumladan, sayyohlik va qo'shni davlatlar yuk tranzitidan olingan foyda) to'g'ri keladi.

Mamlakatning tabiiy sharoitlari yiliga ikki marotaba hosil yig'ib olish imkoniyatini beradi. Eksport foydasining 80% ni paxta sotish tashkil etadi. Kokos palmasi, tamaki, yeryong'oq, shakarqamish, banan, qahva, kakao ham eksport uchun ahamiyatlidir.


Benin iqtisodiyotining salmoqli rivojlanishiga qirg'oq hududlarida neft va gaz qazib olinishiga bog'liq. Mamlakatda temir rudalari, pirit, titan konlari ochilgan. Ohak, marmar, fosforit va kaliy tuzlari ham qazib olinadi.

Mamlakat: paxta, kakao, shakar, tamaki, guruch, yeryong'oq, palma yog'i va sementni eksport qiladi.

Umumiy ma'lumotlar

Benin Respublikasi – g'arbiy Afrikada joylashgan davlat. XVII–XVIII asrlarda bu yerlarda katta qul bozorlari bo'lgan, shuning uchun bu yerlar Tutqinlik qirg'og'i deb nomlangan. Keyin u fransuz mustamlakasi bo'lib Dagomeya deb nomlangan. Davlat 1960-yil mustaqillikka erishdi, 1975-yil Benin deb atala boshlandi. 1990-yil mamlakat Respublika tuzumiga o'tadi. Davlat boshlig'i – prezident. Aholi 42 millatdan iborat.

Sirtlon – o'laksa bilan oziqlanuvchi yirtqich



◆ Benindagi an'anaviy niqob



Tabiat

Benin relyefini baland bo'limgan plato (500 m) egallagan, shimoli g'arbda Atakor tog'i bor. Janubda qumli pasttekislik joylashgan.

Beninning janubiy qirg'oqbo'yи hududlari iqlimi ekvatorial doimo namli iqlimdir. Mamlakat markazi va shimoliy

◆ Benin shimolidagi dum palmasi



qismida iqlim subekvatorial va tropik.

Mamlakat shimoliga – baland savanna o'tlari o'sadi. Janubda va daryolar qirg'oqlarida ko'proq doimiy yashil tropik o'rmonlari joylashgan.

Hayvonot olami boy: antilopa, arslon, pantera, qoplon, gepard, shoqol, kamdan-kam hollarda fillar va qo'tsolar uchraydi.

Botsvana



Poytaxti: Gaborone

Maydoni: 600,4 ming km²

Aholisi: 1,8 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tillari: ingliz,
setsvana tillari

Aholisining diniy tarkibi:
xristianlar – 50%, qolganlari
mahalliy maslaklarga
ergashadilar

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: pula



Bushmenlarning
ichimlik ichishgan
mo'ljallangan
idishi



Bushmenlar
fartugi
(peshbandi)

Xo'jaligi

Botsvana – ilg‘or rivojlanib borayotgan davlat. YMning 49% sanoatga, 39% qishloq xo'jaligiga, 12% xizmat ko'rsatish sektoriga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiyotning asosini tog‘-kon sanoati tashkil etadi. Mamlakatda zargarlik uchun olmos, mis-nikel rudalari, ko‘mir, kobalt, soda qazib olinadi. Qayta ishlash sanoatida go‘shtni qayta ishslash (Afrikada mol go‘shtini eksport qilish bo‘yicha 1-o‘rinda) va avtomobilarni yig‘ish ustumlik qiladi. Mamlakatda bundan tashqari po‘lat va rangli metallar, elektr jihozlari, kimyoiviy mahsulotlar, charm, to‘qimachilik mahsulotlari, brilliantlar ishlab chiqariladi.

Botsvanada qishloq xo'jaligi rivojlangan, mehnatga layoqatlari aholining 60% shu sohaga safarbar qilingan. Dehqonchilik faqat shimol va shimoli sharqda sug‘orish imkoniyati bor joylarda rivojlangan. Mamlakat oziq-ovqat bo‘yicha o‘z ehtiyojining 20-25% ta’minlaydi.

Asosiy eksport mahsulotlari:
olmos (eksportning 75% tashkil etadi),
avtomobillar, mis-nikel konsentratlari,
go‘sht mahsulotlari, gazlamalar, teri, charm
mahsulotlari.

Umumiy ma'lumotlar

Botsvana Respublikasi – Afrikaning janubida joylashgan davlat. 1966-yilga qadar Bechuanaland nomli ingliz protektorati edi. So‘ng mustaqillikni qo‘lga kiritdi. Davlat boshlig‘i – prezident. Botsvana – Hamdo‘stlik a‘zosi. Mamlakat aholisini 90 foizini tsvanlar tashkil etadi (shu yerdan nomi kelib chiqqan).



Mahalliy aholi
deyarli yalang‘och
holda yuradi:
bo‘ksa tepasidagi
bog‘ich va
yopinchiq –
ularning kundalik
kiyimi

Tabiat

Botsvana – «Kalaxari sahrosi mamlakati». U butun hududni egallagan. Deyarli hamma yerda sahro chuqurliklari, janub va sharqda balandligi 800–1000 m bo‘lgan plato bilan o‘ralgan.

Mamlakat iqlimi: janubda – subtropik, shimolda – tropik.

Kalaxarini deyarli savanna o‘simliklari egallagan, yer osti suvlari chiqadigan joylarda mimoza, akatsiya va aloe o‘sadi, shimolda baobab va ajoyib merula daraxti (uning mevalarida sharbat xuddi vino idishida turgandek turadi) o‘sadi. Hayvonot olami juda ham boy. Bu yerda fil, karkidon, jirafa, zebra, qo‘tos, antilopa, sher, qoplon, chiyabo‘ri, shoqol, timsoh, ilon, tuyaqushlar yashaydi.

Burkina-Faso



Poytaxti: Uagadugu
Maydoni: 274,2 ming km²
Aholisi: 15 mln. kishi (2007)
Rasmiy tili: fransuz tili
Aholisining diniy tarkibi: musulmonlar – 50%, katoliklar – 10%, qolganlari mahalliy maslaklarga ergashadilar
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: Afrika franki



Fulbe yarim ko'chmanchilari cho'ponlik bilan shug'ullanadi

Umumiy ma'lumotlar

Burkina-Faso – g'arbiy Afrika markazidagi davlat. Ilgari bu yerlarda Yuqori Volta nomli Fransuz mustamlaka yerlari bo'lgan. 1960-yilda mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritdi. 1984-yildan Burkina-Faso deb atala boshlandi. Davlat boshlig'i – prezident.

Mamlakatda 100 dan ortiq millat va qabilalar yashab kelmoqda. Eng ko'p sonli millat – mosi xalqlari (40%). Shimoliy chegara bo'ylab va sharqiy hududda fulbe yarim ko'chmanchi qabilasi yashaydi.

Dunyodagi eng tezkor jonivorlar bo'lmish gepardlar – Burkina-Faso hayvonot olamining tipik vakillari



Xo'jaligi

Burkina-Faso iqtisodiyotining asosini oltin qazilmalari va kam mahsulotli qishloq xo'jaligi tashkil etadi. YIMning 20% sanoat, 40% qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sektoriga to'g'ri keladi.

Mamlakatda oltin, marganes, rux, kumush qazib olinadi. Mehnatga layoqatli aholining 90% qishloq xo'jaligiga jaib etilgan. Mamlakatda chorvachilik rivojlangan. Dehqonchilikka deyarli har doim qurg'oqchilik xalal beradi. Asosiy eksport mahsuloti – paxta (eksoprtning 2/3 va YIMnin 35%). Bundan tashqari yong'oq, karite yong'og'i, kunjut va shakarqarnish ham eksport qilinadi.

Ba'zi qabilalar o'z uylarini tuproqdan qurishadi. Ular tuproqni ilohlardan birining mulki deb hisoblashadi



Tabiat

Mamlakat hududining asosiy qismini to'lqinsimon keng, balandligi 200-500 metr bo'lgan Mosi platosi egallagan.

Burkina-Faso iqlimi ekvatorial – mussonli bo'lib, issiqlik davri bilan yaqqol ajralib turadi. Bu vaqtida (oktabrdan aprelgacha) Sahroyi Kabirdan issiqlik shamil esadi. Kichik butalar va sahro o'simliklari mamlakat shimolida joylashgan, janub tomonda esa savannalarga xos baland o'tlar, akatsiyalar va baobablar o'sadi, daryo bo'yalarida tor yo'lakli o'rmonlari bor.

Hayvonot olami juda boy bo'lib, bu yerda fil, sher, begemot, yovvoyi mushuk, pantera, sirtlon, antilopa, maymun, timsoh, suv toshbaqalari va boshqalar uchraydi.

Burundi



Poytaxti: Bujumbura

Maydoni: 27,8 ming km²

Aholisi: 8,5 miln. kishi
(2007)

Rasmiy tillari: fransuz va
rundi tillari

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 60%, mahalliy
maslaklarga ergashuvchilar –
23%, musulmonlar, xristianlar
va boshqalar – 17%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Burundi franki



Qahva daraxtining
donli butog'i
shunday ko'rinishga
ega

Tabiatি

Hududning asosiy qismini tepaliklardan iborat bo'lgan yassitog'lik egallagan. Sharqda uning o'rtacha balandligi 1400 metrni tashkil etadi, g'arb tomonga ko'tarilib boradi (2500 m gacha). Kibira tog' tizmasi – Sharqiy Afrika rift tizimining bir qismi. Kibira tog' tizmasi Kongo va Nil daryolari havzasini ajratib turadi.

Burundi iqlimi ekvatorial, mussonli, ikki asosiy davrdan iborat: yomg'irli va quruq. Yomg'irlar asosan eng jazirama paytda yog'adi va tezda bug'lanib ketadi.

Ko'plab qalin o'rmon daraxtlari kesib tashlangan, ularning o'mini savanna va madaniy o'simliklar egallagan. Goh-gohida bog'li o'rmonlar uchrab turadi. Tanganika ko'li baliqlarga boy, bu yerdagi baliqlarning 3/4 qismi dunyoning boshqa joyida uchramaydi.

Umumiy ma'lumotlar

Burundi, Burundi Respublikasi – sharqiy va markaziy Afrika tutashgan joyda Tanganika ko'lining shimoli sharqiy qirg'oqlarida joylashgan davlat. Ilgari Urundi nomli nemis mustamlakasi, so'ng qo'shni Ruanda bilan Ruanda-Urundi nomli Belgiyaga qaram bo'lgan hududni tashkil qilgan. 1962-yildan boshlab Burundi mustaqil qirolligi tashkil qilindi, 1966-yilda Burundi Respublikasi deb nomlana boshlandi. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etnik qatlami: xutular – 85%, tutsilar – 14%, qolganlari shu yerdagi tub aholi (eng baland bo'yli kishilar (2 m.gacha) va o'rmonlarda yashovchi past bo'yli pigmeylar).

Tutsi qabilasining do'mbirachilari – Afrikadagi eng yorqin, mohir va iste'dodli musiqachilar



Xo'jaligi

Burundi – agrar mamlakat. Mehnatga layoqatli aholining 94% qishloq xo'jaligida ishlaydi. Chorvachilik uncha rivojlanmagan, ammo mollar boylikning asosiy mezoni. Baliqchilik yo'lga qo'yilgan. Qayta ishlash sanoati kichik korxonalar tarzida faoliyat yuritadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: qahva (eksport qiymatining 80–90%), paxta, choy, palma yog'i.

Efiopiya



Poytaxti: Addis-Abeba

Maydoni: 1,1 mln. km²

Aholisi: 77 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: amxar tili

Aholisining diniy tarkibi: pravoslav

xristianlari – deyarli

50%, musulmonlar –

35%, animistlar – 12%,

qolganlari – 2%

Davlat tuzumi:

respublika

Pul birligi: bir



Mahalliy ko'chmanchi qabila vakillari bunday moslamalarga bosh qo'yib uqlashadi

Poxoldan turli buyumlat to'qish – hunarmandchilik sanoatlaridan biri



Tabiat

Mamlakat hududining 1/3 qismini Efiopiya tog' tizmasi egallagan (balandligi 2000–3000 m) u daryo vodiyllari, bir qancha tekisliklar bilan o'ralgan massivlar bilan bo'lib tashlangan. Shimoli sharqdagi tog'lik baland bo'limgan harakatdagi vulqonlar bilan o'ralgan Afar chuqurligi bilan ulangan. Efiopiyada ko'pincha zilzilalar bo'lib turadi.

Mamlakat iqlimi jazirama va nam. Eng ko'p yog'ingarchilik janubiy-g'arbiy qismning pastlik yerlarida yog'adi. Shimoli sharq va sharqi qismlarini sahro va yarimsahrolar egallagan, plato va tog' yonbag'irlarida savannalar joylashgan. Mamlakat hayvonot dunyosi boy: fil, sher, qoplon, zebraalar va boshqa jonorolar mavjud.

Umumiy ma'lumotlar

Efiopiya Federativ Demokratik Respublikasi – Afrikaning shimoli sharqidagi davlat. Afrika qit'asida o'z mustaqilligini saqlab qolgan yagona davlat, faqat qisqa muddat davomida Italiya mustamlakasi bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etnik tarkibi: oromiy xalqlar – 40%, amxaralar – 28%, tigraylar – 9% va boshqalar.

Tana ko'lining sharsharasi



Xo'jaligi

Efiopiya – dunyoda iqtisodi yaxshi rivojlanmagan davlatlardan biri. Mamlakatda oziq-ovqat, to'qimachilik, charm-poyabzal sanoatlari rivojlangan. Efiopiya hududida qimmatbaho yog'och navlari tayyorlanadi va oltin, platina, marganes, kaliy tuzlari qazib olinadi. Qishloq xo'jaligi (mehnatga layoqatli aholining 85% ishlaydi) eksport tushumining 90% ni tashkil qiladi, ammo kam samaralidir. Qurg'oqchilik tez-tez qaytarilgani uchun mamlakatda doim ocharchilik bo'lib turadi. Efiopiya qahva vatanidir, bu yerda mashhur «arabika» qahva navi ishlab chiqariladi. Bu yerda don, dukkakli va moy o'simliklari, tamaki, shakarqamish va mevalar yetishtiriladi. Yirik shoxli mollar soni ham ko'p (30 mln). Mamlakat qahva (valuta tushumlarining 55%), charm xom ashyosi, tirik mollar, go'sht mahsulotlarini eksport qiladi.

Ekvatorial Gvineya



Poytaxti: Malabo

Umumiy maydoni: 28,3 ming km²

Aholisi: 550 ming kishi (2007)

Rasmiy tillari: ispan, fransuz tillari

Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 90%, animistlar – 10%

Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: Afrika franki



Kakao o'simligining mevasi

Umumiy ma'lumotlar

Gvineya Respublikasi – Afrika davlati, Gviney ko'rfazi qirg'oqlarida joylashgan. Tarkibiga bir qancha orollar kiradi. Ispaniya mustamlakasi bo'lgan. 1968-yil mustaqillikka erishdi. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etnik tarkibi: fanglar – 73%, bubelar – 15% va boshq.

Xo'jaligi

1990-yildan boshlab neft qazib olish boshlandi. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari o'rmon va qishloq xo'jaligidir (mehnatga layoqatli aholining 75% band qilingan). Aholi qimmatbaho yog'och navlarini tayyorlash, kakao (dunyoda eng yaxshi sifat), qahva, moy va kokos, palma mahsulotlari, banan, tamaki yetishtirish bilan shug'ullanadi. Aholi ehtiyoji uchun batat, makkajo'xori, yeryong'oq, shakarqamish yetishtiriladi. Mamlakatda yuqori sifati bilan mashhur bo'lgan hunarmandchilik turlari: yog'och o'ymakorligi (hassa, tuflilar, niqoblar) va musiqa asboblari va ularning nuxsalarini yasash rivojlangan. Markaziy Gvineya qimmatbaho yog'och navlari, neft, kakao, qahva, banan eksport qiladi.

Tabiat

Mamlakatni qit'ada joylashgan relyefi – balandligi 600–900 m bo'lgan tog' tizmasi g'arbda pasayib boradi va qirg'oq bo'yi tekisligiga ulanib ketadi.

Iqlimi ekvatorial – Gviney ko'rfazidagi iqlim oqimlar va janubiy-g'arbiy mussonlar issiqlik va namlik olib keladi. Bioko orolinling janubi dunyoning sernam joylardan biridir, bu yerda yog'ingarchilik yog'ishi yiliga 11 000 mm ga yetadi.

Tropik o'simliklarga boy. Sernam ekvatorial o'monlarda 150 turdan ortiq qimmatbaho daraxt navlari (temir, pushti, qora, mimoza, sandal, non daraxtlari, fikuslar va boshqalar) o'sadi. Mamlakat Afikaning «tabiiy zooparkidir», bu yerda fil, qoplon, begemot, maymun, antilopa, mangust, kaltakesak, yirik qurbaqlar va boshqalar mavjud.



Chig'anoq teruvchilar

Eritreya



Poytaxti: Asmera

Maydoni: 125 ming km²


Aholisi: 4,9 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tillari: tigrin, arab
tillari

Aholisining diniy tarkibi:
xristianlar (monofistlar) –
50%, musulmonlar – 50%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: nakfa



Daxlak arkipelagining
ko'fazlarida ko'plab
langustlar yashaydi

Sigirlar odamlar
uyining yaqiniga
otlaydi

Umumiy ma'lumotlar

Eritreya Davlati – Afrikaning shimoli sharqidagi davlat. Ilgari Italiya va Angliya mustamlakalari bo'lgan, keyin Efiopiya tarkibidagi viloyat bo'lgan. 30 yil davom etgan qurolli to'qnashuvlardan so'ng 1993-yilda Eritreya mustaqillikka erishdi. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholi ko'p millatlidir, bular jumlasidan tigraylar – 50%, tigrelar – 30%, afarlar – 8% va boshqa.




Tabiat

Mamlakat hududining relyefi turli shaklda: baland tog'lar (mamlakat sharqidagi Efiopiya tog' tepaligining tarmoqlari), Eritreya platosi, Afar yarimsahro chuqurliklari tuproq va qumdan tashkil topgan sahro tepaliklaridan iborat. Qirg'oqni uzunligi 1000 km dan ortiqroq marjon riflari o'rabi turadi.

Iqlimi tropik, sahro va yarimsahroda jazirama issiq, quruq. Harorati keskin o'zgaruvchan, kichik hajmda yog'ingarchilik bo'ladi. Eritreya o'simlik dunyosi asosan sahro va yarimsahrolarda joylashgan.

Xo'jaligi

Qishloq xo'jaligida – mehnatga layoqatli aholining 80% mehnat qiladi (voha yoki pog'onali sug'oriladigan dehqonchilik). Eritriya hududida tuz, mis va neft qazib olinadi, bundan tashqari mamlakatda oltin, temir, titan konlari aniqlangan. Sanoat korxonalari to'qimachilik, poyabzal, tamaki, kimyoziy mahsulotlar ishlab chiqaradi. Mamlakatda paxta, tariq, bug'doy, makkajo'xori, sabzavotlar, qahva, sitrus mevalar yetishtiriladi. Tuya, echki va yirik shoxli mollar podasini boqadigan ko'chmanchilar bor. Aholi hunarmandchilik va dengiz jonivorlari ovi bilan shug'ullanadi. Eritreya tuz, charm xomashyosi, sement, sitrus mevalar eksport qiladi.



Paxta solingen savatlar

Gabon



Poytaxti: Librevil

Maydoni: 267,7 ming km²

Aholisi: 1,3 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 70%, turli
oqim protestantlari –
5%, qolganlari mahalliy
maslaklarga e'tiqod qiladi

Davlat tuzumi: respublika


Pul birligi: Afrika franki



Fil suyagidan
yasalgan
haykalchalar
jasur va mohir
ovchilar bo'l mish
o'rmonda yashovchi
pigmeylarni aks
ettiradi

Umumiy ma'lumotlar

Gabon Respublikasi – Markaziy Afrikadagi davlat, ekvatorning ikki tomonida joylashgan. 1960-yilda mustaqillikni qo'lg'a kiritguncha Fransiya mustamlakasi bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident. Gabonda 26 etnik guruh vakillari yashaydi, soni jihatidan eng ko'pi – fang (aholining 1/3 qismi) millati. O'rmonlarda mamlakatni tub aholisi hisoblangan pigmeylar yashaydi.



Tabiat

Mamlakat hududida baland bo'lмаган тог' platolari (800–900 m) va botqoq, ko'llardan iborat bo'lган keng daryo va vohalar joylashgan.

Gabon iqlimi tropik, jazirama va nam (ikkita yomg'irli va ikkita qurg'oqchil mavsum). Mamlakat maydonining 85% ni zinch joylashgan tropik o'rmonlar egallagan, janubiy va sharqi qismlarida «baland o'tli savanna», qirg'oq bo'ylab esa mangr o'simliklari bor.

Gabon hayvonot olami boy bo'lib, bu yerda fil, buyvol, antilopa, yirtqichlar (hatto Gabon gerbida ham qoplonlar tasvirlangan), maymun, timsoh va begemotlar uchraydi.

Gabon o'rmoni
changalzori



Xo'jaligi

Gabon – Afrika davlatlari orasida nisbatan rivojlangan davlat. YIMning 49% sanoat, 43% xizmat ko'rsatish, 8% qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Rivojlanish uchun turtki bo'ladigan omil – neft (yiliga 20 mln. t.), marganes (dunyoda 3-o'rinn) va uran qazib olish hisoblanadi. Aholini 60% qishloq xo'jaligi va baliqchilik orqasidan kun ko'radi. Dehqonchilik past darajada rivojlangan. Chorvachilik rivojlanmagan. Gabon o'zining oziq-ovqat ehtiyojini to'liq ta'minlay olmaydi, shuning uchun kerakli oziqaning yarmini import qiladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, marganes rudasi, uran konsentrati, okums yog'och navi (Gabon dunyoda «okums» yog'ochi zaxirasi bo'yicha 1-o'rinni egallaydi), kakao, qahva hisoblanadi.

Gambiya



Poytaxti: Banjul

Maydoni: 11,3 ming km²

Aholisi: 2 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 90%,


xristianlar – 9%, mahalliy

maslaklarga e'tiqod

qiladiganlar – 1%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: dalasi



Gambiya raqqosining an'anaviy bosh kiymi

Xo'jaligi

YIM ning 47% – qishloq xo'jaligiga, 44% – xizmat ko'rsatishga, 9% – sanoatga to'g'ri keladi. Asosiy ekinlari yong'oq (YIMning 30%) va yog' palmasi. Bundan tashqari paxta, guruch, tariq, makkajo'xori, manion, dukkakli o'simliklar, sabzavotlar va banan yetishtiriladi.

Chorvachilik qurg'oqchilik va pashshalarining ko'pligi tufayli uncha rivojlanmagan. Mamlakatda dengiz, daryo baliqchiligi va hunarmandchilik rivojlangan. Sanoat mahalliy ehtiyojni qondiradi.

Asosiy eksport mahsulotlari: taqinchoqlar, yong'oq, palma yog'i, baliq va dengiz mahsulotlari, teri, paxta tolasi, mevalar.

Umumiy ma'lumotlar

Gambiya Respublikasi – Afrikaning eng kichik davlatlaridan biri bo'lib, Atlantika okeani qirg'oqlarida joylashgan. Mamlakat Senegal bilan chegaradosh va uni hududiga 350 km ichkariga deyarli kirib borgan. Ilgari hududning katta qismi ingliz mustamlakasi bo'lgan, qolgan qismi esa Britaniya protektoriyati bo'lgan. 1965-yil Gambiya ikki hududni birlashtirib mustaqilligini e'lon qildi. Aholisining etnik tarkibi orasidan 5 guruhi asosiy o'rinnegallagan. Eng ko'p sonli guruh mandingolardir (aholini 42%). E'tiborga loyiq yana bir guruh vakillarini ingliz qullar avlodagi tashkil etadi, ular XIX asrda qullik savdosi man etilgandan so'ng ozod etilgan.

Gambiya poytaxti Banjul shahridagi ko'cha



Begemotlar qo'ltiqli va botqoqli qirg'oqlari bor suv havzalarida joylashib oladi

Tabiat

Gambiya hududi deyarli yassi pasttekislikdan iborat, ba'zi joylarda kichik tepaliklar (53 m) bor, ular ko'proq sharqiy qismida uchraydi.

Gambiya daryosi – g'arbiy Afrikada okean kemalari bemalol kira oladigan yagona daryo.

Mamlakat iqlimi ekvatorial,mussonli. Yomg'irlar qirg'oqbo'yи hududlarida ko'proq yog'adi.

Gambiya hududini baland o'tli savannalar egallagan, bu yerda qattiq fil o'tlari, akatsiyalar, baobablar o'sadi. Gambiya daryosining botqoq yerlarida doimiy yashil tropik o'rmonlari joylashgan, daryo etagini esa – mangr o'rmonlari egallagan.

Hayvonot olami unchalik boy emas (aksariyati ov qilib qirib tashlangan). Savannalarda antilopa, shoqol, sirtlon va to'ng'izlarni uchratish mumkin, o'rmonlarda esa maymunlar bor.

Gana



Poytaxti: Akra

Maydoni: 238,5 ming km²

Aholisi: 23 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy

tarkibi: xristianlar
(asosan katoliklar) – 63%,
mahalliy maslaklarga
e’tiqod qiluvchilar – 21%,
musulmonlar – 16%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: sedi



Qumli Gana plajlari
dengizdan kokos
palmalari bilan
hoshiyalangan

Umumiy ma'lumotlar

Gana Respublikasi – g’arbiy Afrikadagi davlat, ekvatoridan ozgina shimolda joylashgan. Ilgari Britaniya mustamlakasi bo‘lgan, bu yerdan qullar, fil suyaklari va oltin (shuning uchun mamlakat avval «Oltin Qirg‘oq» deb nomlangan) olib chiqilgan. 1957-yilda Gana mustaqillikka erishib, 1961-yilda Respublika bo‘ldi. Davlat boshlig‘i – prezident. Gana – Hamdo‘stlik a’zosi. Mamlakatda 75 etnik guruh vakillari yashaydi.



Milliy bayram
libosidagi
mahalliy ayollar

Tabiat

Mamlakat o‘rta balandlikdagi (150-300 m) tekislikdan iborat. Faqat sharqi qismida Togo tog‘lari bor, janubi g‘arbda Ashanti va Kvaxu platolari joylashgan. Mamlakat iqlimi torpik iqlimdir. Gana landshaftida savannalar katta joy egallagan. Janubi g‘arbda doimiy yashil o‘rmonlar, Ashanti platosi qoyalarida esa noyob navli tropik o‘rmonlar joylashgan. Shimolda Volta daryosi havzasining tekisliklarida o‘rmonlar butali savannalar bilan joy almashadi.

Ganada eng ko‘p tarqalgan jonivor – bu maymunlar, kam aholi yashaydigan yerlarda esa sudralib yuruvchilarni (kobra, piton, nayzali va Afrika qora iloni va boshqa) uchratish mumkin.

Xo‘jaligi

Gana YIMning 35% qishloq xo‘jaligiga, 25% sanoatga to‘g‘ri keladi. Tabiatni dehqonchilikka, ayniqsa, kakao donlarini o‘sirish va terish uchun juda ham qulay hisoblanadi. Gana kakao terimi bo‘yicha dunyoda 3-o‘rinni egallagan. Shimolda pashsha yo‘q joylarda chorvachilik, shahar atroflarida cho‘chqachilik va parrandachilik rivojlangan. Aholi o‘rmon kesish, baliqchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: oltin, olmos qazib olish, neftri qayta ishslash, yog‘ochsozlik, oziq-ovqat, yengil sanoatlardir.

Asosiy eksport mahsulotlari: kakao donlari, kakao mahsulotlari (eksportning 60%), oltin, tropik yog‘och navlari, kauchuk, olmos, marganes va boshqalar.

Gvineya



Poytaxti: Konakri

Maydoni: 246 ming km²

Aholisi: 10 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 85%,
xristianlar – 8%, mahalliy
maslak va topinishlarga
e’tiqod qiluvchilar – 7%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Gvineya franki



Gvineyada
yashovchi baga
qabilasing
niomba niqobi

Xo‘jaligi

YIMning 38% sanoat, 25% qishloq xo‘jaligi tashkil qiladi. Gvineya katta miqdorda ma’dan xomashyo zaxirasiga ega. Iqtisodning asosini yuqori sifatlari boksit qazilmalari (zaxirasi bo‘yicha dunyoda 1-o‘rin va qazib olish bo‘yicha dunyoda 2-o‘rin), temir rudasi, olmos, oltin qazilmalari va boksitdan sanoat uchun xomashyo ishlab chiqarish tashkil qiladi. Mehnatga layoqatli aholining 80% qishloq xo‘jaligida mehnat qiladi.

Eksport uchun qahva, tropik mevalar, papaya va xinna, paxta, kauchuk, geveya yetishtiriladi. Chorvachilik, baliqchilik rivojlangan. Mahalliy hunarmandchilikda yog‘och va suyak o‘ymakorligi, rafiy tolasidan to‘qish, temirchilik va kulolchilik, charm, metall va toshlardan turli mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Gvineya eksportning asosiy mahsulotlari: boksitlar, oltin, olmos, mevalar, qahva, baliq.

Afrikaning
ko‘plab
mamlakatlarda
aholi o‘rmon
kesish bilan
shug‘ullanadi,
jumladan,
Gvineyada ham



Tabiat

Gvineya hududi uchun tekisliklar va pasttrog‘li tepalik massivlari xosdir. Bu massivlar vulqonli kelib chiqish turiga mansub. Mamlakat landshafti uchun chuqu daryo vodiylari, serpog‘onali daryo va sharsharalar xosdir.

Gvineya iqlimi issiq va nam. Gvineyada o‘sadigan palmalar (kokos, yog‘, rafil) ko‘chalarni xuddi botanika bog‘idek bezab turadi.

Mamlakat hayvonot olami juda ham boy: fil, begemot, antilopa, pantera, gepard, maymun, sirtlon, mangusta, timsoh, yirik ilon va kaltakesaklar va 100 dan ortiq qushlar turi mavjud.



Gvineya o‘rmonlarida
jako to‘tisi yashaydi

Gvineya-Bisau



Poytaxti: Bisau

Maydoni: 361,1 ming km²

Aholisi: 1,7 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: portugal tili

Aholisining diniy

tarkibi: animistlar – 50%,
musulmonlar – 45%,
xristianlar – 5%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Afrika franki




♦ Ot va otliq tasviri ba'zi mahalliy qabilalarda hokimiyatni aks ettiradi

Umumiy ma'lumotlar

Gvineya-Bisau Respublikasi g'arbiy Afrikaning Atlantika okeani qirg'oqlarida joylashgan davlat. Mamlakat 60 ga yaqin orollardan tashkil topgan. Ilgari Portugaliya mustamlakasi bo'lgan, 1973-yil mustaqillikni qo'lga kiritgan. Davlat boshlig'i – prezident. Mamlakatda 5 asosiy etnik guruh mavjud: balanta (30%) va fulbelar (20%) shular jumlasidandir.

Baliqchilik – mahalliy aholi uchun qorin to'ydirish va pul ishlash imkoniyatlardidan biri



Xo'jaligi

Gvineya-Bisau – Xalqaro Taraqqiyot bankining 175 ta davlati ro'yxatida 163-o'rinni egallagan. YIM ning 62% – qishloq xo'jaligiga, 12% – sanoatga to'g'ri keladi. Unumdor yerlarning faqat yarmiga ishlov beriladi. Guruch, yong'oq, keshyu yong'og'i, paxta, makkajo'xori, sorgo (jo'xori), tariq, kauchuk geveyasi, shakarqamish (spirit ishlab chiqarish uchun), sitrus mevalar, banan va sabzavotlar yetishtiriladi. Yaylov chorvachiligi kam unumdordir. Mehnatga layoqatli aholining 80% qishloq xo'jaligida, baliqchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanadi. Gvineya-Bisau sanoati kichik miqdorda rivojlangan. Mamlakat hududida fosforit va boksit qazilmalari mavjud, ammo ular qazib olinmaydi.

Asosiy eksport mahsulotlari: dengiz mahsulotlari, keshyu yong'oqlari, yong'oqlar, kokoslar, palma yog'i, paxta, yog'och, hayvonlar terisi.

Tabiat

Gvineya-Bisau hududi – botqoqlashgan yerdardan, pasttekisliklardan iborat, okean qirg'og'i qattiq, parchalanib ketgan.

Mamlakatning janubi sharqida Futa-Jallon platosini tarmoqlari joylashgan.

Mamlakat shimolidan g'arbi tomon ko'plab kichik sersuv daryolar oqib o'tadi. Bu daryolar okeanga quyilish paytida og'iz(teshiklar) hosil qiladi, shuning uchun Gvineya-Bisauni estuariylar va daryolar mamlakati deyishadi.

Mamlakat iqlimi tropik, mussonli, doimo nam va issiq. Qirg'oq bo'yi zich, mangr chakalakzorlari, ularning ortida botqoqlashgan qimmat navli tropik o'rmonlar va palmalar o'sadi. Mamlakat ichida baland o'tli savanna hukm suradi.

Hayvonot olami ilgari boy bo'lgan. Ko'p ovlar natijasida hayvonlar qirilib ketgan. Ammo goh-gohida antilopalar, buyvollar podasini, begemot va qoplonlarni uchratish mumkin. Daryo estuariyalarida va qirg'oq oldi suvlarida ko'plab baliqlar, langustlar va krevetkalar bor.

JAR



Poytaxti: Pretoriya

Maydoni: 1,2 mln. km²

Aholisi: 48 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: afrika, ingliz, ndebele, pedi, suto, svazi, tsonga, tsvana, venda, ksosa, zulu tillari

Aholisining diniy tarkibi:

xristianlar – 68%, animistlar va mahalliy maslaklarga e’tiqod qiluvchilar – 28%, hinduiylar – 2%, musulmonlar – 2%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: rand



Umumiy ma'lumotlar

Janubiy-Afrika Respublikasi (JAR)

– Afrika Janubining eng chekkasida joylashgan davlat. Ilgari Buyuk Britaniya mustamlakasi bo’lgan, 1961-yildan Respublika. 1994-yilda aparteid qonunlari bekor qilindi va birinchi marta umumxalq saylovvari o’tkazildi. Davlat boshlig‘i – prezident. JAR – Hamdo’stlik a’zosi.

Mamlakat aholisining 79% bantu millatiga mansub afrikaliklardir: zlu, ksosa, tsvana, venda, pedi, suto, svazi ndebelya, tsonga; 10% – yevropaliklar, 8% – metislardan va 3% – Hindiston va Malayziyadan kelganlar.




Mamlakatning
birinchi
prezidenti
P. Kryuger
haykali

Tabiat

Mamlakatning katta qismini platolar va yassitog‘liklar egallagan. Shimoli sharqda (Limpopo va Oranj daryo oraliqlari) Veld platosi joylashgan. Janubi sharqda u Ajdar tog‘lari, janub va janubi g‘arbda Kap tog‘lari bilan o‘ralgan. Bularni jami Katta kamarni tashkil qiladi va Hind va Atlantika okeanlari qirg‘oq bo‘ylarida uziladi. Shimoli g‘arbda Veld platosi pasayadi va Kalaxari tekisliklariga ulanib ketadi.

Janubiy kenglikning 30° shimolida iqlim tropikdir, janubroqda subtropik Plato Veld iqlimi kontinental subtropik,

quruq. Janubi sharqda va sharqda subtropik, mussonli, Keyptaun hududida O‘rtayer dengizi subtropik iqlimi hukmron. 32° janubiy kenglikdan shimalroqda savannalar joylashgan. Ajdar tog‘larda balandlik mintaqalari yaqqol farqlanadi: etagida savannalar, balandroqda tikanli butalar, so‘ng alp yaylovleri joylashgan. JARning janubiy va sharqiy qirg‘oq bo‘ylarida subtropik o‘rmonlar o‘sadi. G‘arbda va shimoli g‘arbda sahro va yarimsahro o‘simliklari egallagan. Yirik hayvonlar milliy bog‘larda yashaydi.



Kimberlidagi «Katta Tuynuk» – XIX asrdagi olmos konining qoldig'i – shahar chetida joylashgan

Xo'jaligi

JAR – Afrikaning iqtisodiyoti rivojlangan davlatlaridan biri. U ma'dan resurslarga boy. JAR hududida toshko'mir asbestos, feyuorit, korund, uran oksidi, temir rudasi, titan, surma, qo'rg'oshin, rux, nikel, apatit zaxiralari bor. Mamlakatda qayta ishlash infrastrukturasi va sanoat rivojlangan. YIMning 55% xizmat ko'rsatish sektoriga, 31% sanoatga, 4% qishloq va o'rmon xo'jaliklariga to'g'ri keladi. JAR dunyoda oltin, platina va olmos qazilmalari bo'yicha 1-o'rinda turadi. Toshko'mir (225 mln.t) temir rudalari (33 mln. t), xromitlar (7,1 mln.t), marganes, vanadiy, nikel, titan, surma, simob, rux qazib olinadi. Bundan tashqari fosforitlar va uran rudasi ham olinadi. Elektr quvvatning 94% ni toshko'mirda ishlaydigan IES va 5,5% ni AES ishlab chiqaradi.

Mamlakatda toshko'mirdan suyuq yoqilg'i olish va neftri qayta ishlash yo'lga qo'yilgan. JARda qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik (vagonlar qurish, avtomobillar yig'ish, kema ta'mirlash) va metallni qayta ishlash, kimyo, selluloza-qog'oz, to'qimachilik,

Olmos



Yodgorliklar

Mamlakatni ko'plab chet el sayyohlari ziyorat qiladi. Bu yerga ularni noyob obidalar jalb etadi. Masalan: noyob tabiiy obyektlari – Bland-River darasi, Galden Geitdag'i qo'ziqorinlar shaklidagi qoyalar, Lugrabis sharsharasi, Sterkfontein g'orlari, Keyptaundagi tog' va boshqalar. Bundan tashqari JARda olmos koni, Pretoriyada eski olmos muzeyi, Durbanda Shakelend zulular etnografik muzeyi mavjud.

JARda ekologik sayyohlik bilan shug'ullanish imkoniyatlarga ega bo'lib (masalan, Kryuger, Addo, Karu kabi milliy bog'larda), rafting bilan (Oranj va Tugelo darayolarida), dayving bilan (Keyptaun hududida), syorfling bilan (Port-Elizabet va Keyptaun atroflarida) shug'ullanish mumkin.

Dunyoning ma'dan zaxiralari



vinochilik va oziq-ovqat sanoatlari va bantu xalqlarining hunarmandchiligi rivojlangan. Aholi makkajo'xori, bug'doy, sorgo (jo'xori), ananas, banan, yeryong'oq, kungaboqar yetishtiradi. Qo'ychilik, angor echkilarini ko'paytirish (moxer), yirik shoxli mollar (go'sht-sut yo'naliishi) tuyaqushlar va timsohlarni ko'paytirish yo'lga qo'yilgan. Aholi baliq va dengiz mahsulotlari ovi bilan shug'ullanadi. Keyptaunda yirik dengiz bandargohi bor.

JAR o'zini to'liq oziq-ovqat bilan ta'minlaydi va eksport qiladi. Bundan tashqari oltin, olmos, xrom, platina, toshko'mir, rangli metallar rudalari va konsentratslari, mashinalar va ularning jihozлari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiladi.

Keyptaun tog' etagida joylashgan



Jazoir



Poytaxti: Jazoir

Maydoni: 2,4 mln. km²


Aholisi: 34 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 99,6%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Jazoir dinori



Umumiy ma'lumotlar

Jazoir, Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi – Afrika qit'asida hajmiga ko'ra 2-o'rinda turadigan davlat. 1962-yil mustaqillikni qo'lga kiritguncha Fransiya mustamlakasi bo'lgan.

Aholisini asosan arablar va berberlar tashkil etadi. Jazoirning hududi ikki keskin farq etuvchi hududga bo'linadi: o'zlashtirilgan, aholi zich yashaydigan Shimoliy qism va jazirama, hech kim istiqomat qilmaydigan Sahroyi Kabir, u mamlakat hududini 4/5 qismini egallagan (janub va markaziy qismini).

Xo'jaligi

Jazoir rivojlangan iqtisodga ega. YIMning 57% ni sanoat, 33% ni xizmat ko'rsatish, 10% ni qishloq xo'jaligi beradi. Xo'jalikning asosi – neft va tabiiy gaz eksporti, u valutaning 2/3 va YIMning 30% tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat ehtiyojini faqat 50-60% qondiradi. Yer resurslari chegaralangan – hududning faqat 17% ni ishlash mumkin. Boshqolli o'simliklar ko'p, jumladan, bug'doy ko'proq o'stiriladi.

Jazoir neft, gaz (shu jumladan, suylitirilgan), vino, sabzavotlar, zaytun moyi, tamaki, tirik mollar (qo'y), yung, gilamlar, temir rudasi va boshqalarini eksport qiladi.

◆ Jazoir poytaxti – O'rtayer dengizidagi yirik bandargoh



Tabiatি

Mamlakat shimolida Atlas tog' tizmalari joylashgan, ular orasida Baland plato (silsila) nomli katta yassitog'liklar joylashgan. Sahroyi Kabir chegarasida tog'lar balandligi 1600 metrga cho'zilgan.

Qirg'oq bo'yidagi o'simlik dunyosi O'rtayer dengiz o'simliklaridir, tog'larda qarag'ay, atlas kedri, tosh va eman daraxtlari o'sadi, Baland plato dashtlarida alfa (espargo) o'ti; sahroda efemer o'simliklari o'sadi. Jazoirda hayvonot dunyosining ko'p vakillari qirib tashlangan.

Jibuti



Poytaxti: Jibuti

Maydoni: 23,4 ming km²

Aholi: 800 ming kishi
(2007)

Rasmiy tillari: arab,
fransuz tillari

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 94%

Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: Jibuti franki



♦ Sohil aholisi marvarid
va sadafrang
chig'anoqlar toplash
bilan shug'ullanadi

Umumiy ma'lumotlar

Jibuti Respublikasi – Afrikaning shimoli sharqidagi davlat. 1977-yil mustaqillikka erishgan, ungacha Fransiya mustamlakasi bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident. Jibutida asosan ikki etnik guruh yashaydi: isso somalilari – 60% va afara somalilari – 35%.

Tabiatি

Jibuti – tog'li mamlakat. Uning relyefi tog' massivlari va so'nggan vulqonlarning konussimon lavali platolarning ketma-ketligini o'zida aks ettiradi. Hudud yuqori seysmik joyda joylashgan (kuniga 10 tagacha kichik silkimishlar bo'lib o'tadi).

Mamlakat iqlimi tropik, quruq va jazirama issiq. Mamlakat hududida doimiy oqar daryolar yo'q, suv bilan ta'minlanish muammosi birinchi o'rinda turadi.

Jibutida dasht va sahro boshoqli va butazor o'simlik dunyosi mavjud. Hayvonot olamini antilopalar to'dasi, sirtlonlar, shoqollar va maymunlar tashkil qiladi.



♦ Qizil dengiz hayvonot va nabotot olamining boyligi bilan mashhur. Bu xorijiy sayyoohlarni jalb qiladi

Xo'jaligi

Jibuti Afrikadagi davlatlardan biri. 2002-yilda YMning 81% – xizmat ko'rsatish sohasiga 16% – sanoatga, 3% – qishloq xo'jaligiga to'g'ri kelgan. Mamlakat rivojining asosiy tayanchi – xizmat ko'rsatish tizimi (transport, tranzit savdo-sotiqlari va bank operatsiyalari).

Jibutini yirik dengiz bandargohi Suvaysh kanalidan o'tadigan kemalarga xizmat ko'rsatadi. Olinadigan bojlar davlat daromadining 20% ni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik rivojlangan. Mollar (asosan tuyu) boylik ramzidir. Dehqonchilik bilan deyarli shug'ullanilmaydi. Mamlakat charm, chorva mollari va qahva eksport qiladi.

Kabo-Verde



Poytaxti: Praya

Maydoni: 4 ming km²

Aholisi: 500 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: portugal tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 90% dan ortiq,
protestantlar – 2,5%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Kabo-Verde
eskudosi

Umumiy ma'lumotlar

Kabo-Verde Respublikasi Atlantika okeanidagi Yashil Burun orollarida Shimoli g'arbiy Afrikadan 500 km masofa uzunligida joylashgan davlat. Uning tarkibiga 18 orol kiradi. Ilgari Portugaliya mustamlakasi edi. 1975-yil mustaqil davlat bo'ldi. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etkin tarkibi: aralash turmush qurbanlarning avlodlari – kreollar – 70%, afrikaliklar – 28%. XV asrda orol Portugaliya dengizchilari tomonidan kashf qilindi va qulchilik hududiga aylantirildi.



Bunday esdalik sovg'alarini Kabo-Verdedan har qanday sayyoh olib kela oladi

Tabiatি

Mamlakat hududi kelib chiqishi vulqonga borib taqaluvchi vulqon platosida joylashgan. Releyfi tog'li ko'plab so'ngan va harakatdagi vulqon konuslaridan iborat. Orolda tez-tez zilzilalar sodir bo'lib turadi. Kabo-Verdeni iqlimi tropik; deyarli butun yil davomida bu yer issiq va quruq.

Mamlakat uchun sahro va yarimsahro o'simlik dunyosi xos, ammo qirg'oq bo'yalarida evkalipt va xurmo palmalari o'sadi.

Hayvonot olamini qushlar, sudralib yuruvchilar va hasharotlar tashkil qiladi.

Tog'li reliyef Kabo-Verdega xos



Ko'plab mahalliy ayollar to'qimachilik bilan shug'ullanadi

Xo'jaligi

Iqtisodiyotning asosi – xizmat ko'rsatish (YIMning 37%). 1990-yildan boshlab yetakchi tarmoqlardan biri sayyohlik bo'ldi. Qishloq xo'jaligining asosiy (madaniy ekinlari) o'simliklari ananas, banan (sifati bo'yicha dunyoda eng zo'r hisoblanadi), tamaki, shirin kartoshka, qahva, shakarqamish, kola yong'oqlari va boshqalar hisoblanadi. Baliqchilik va dengiz mahsulotlari ovi katta ahamiyatga ega. Mamlakat o'zining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojining faqat 10-15% ni ta'minlaydi. Sanoat yaxshi rivojlanmagan.

Eksport mahsulotlari: dengiz mahsulotlari (eksportning 35-40%), tuz, teri xomashyosi, poyabzal, tamaki, banan, qahva, yeryong'oq, indigo va boshqalar.

Kamerun



Poytaxti: Yaunde

Maydoni: 475,4 ming km²


Aholisi: 18 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tillari: ingliz,
fransuz tillari

Aholisining diniy tarkibi:
mahalliy maslaklarga
e'tiqod qiluvchilar –
40%, xristianlar – 40%,
musulmonlar – 20%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Afrika franki



Kamerunlik uzuksuz haykali

Umumiy ma'lumotlar

Kamerun Respublikasi – ekvatorial Afrikaning g'arbiy qismidagi davlat. 1960-yil Buyuk Britaniya va Fransiya mustamlakasi bo'lgan, so'ng mustaqillikka ega bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident. Kamerun – Hamdo'stlik a'zosi.

Aholi tarkibida 6 etnik guruh bor:
bimaleklar, betifanglar, kirdilar, fulbelar, qirg'oq olidadgi bantu va negr bantulari.



Tuyaquush
– Kamerun
faunasining tipik
vakili

Tabiat

Mamlakatning janubiy qismini janubiy Kamerun yassitog'ligi egallaydi, markaziy qismini yassitog'liklar va Adamau tog'i (balandligi 2740 m), shimolda Manda tog' tizmasi joylashgan. Janubi g'arbda Kamerun harakatdagi vulqoni joylashgan. Dengiz qirg'oqlari bo'ylab botqoqlashgan pastlik yotadi, u nam tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Kamerun shimolida Adamau tog'lari Chad ko'li chuqurligi tomon keskin pasayib boradi.

Mamlakat iqlimi: shimoliy qismida yarim quruq, markazda – subekvatorial-mussonli, janubda – issiq-namli ekvatorial.

Kamerun shimolida quruq va sahroga aylanayotgan savannalar, markaz va janubiy qismlarida tropik o'rmonlar Chad ko'li atrofida botqoqlar joylashgan.

Mamlakatda fil, begemot, karkidon, maymun, arslon, gepard, qoplon, jirafa, antilopalar hayot kechiradi.



Mahalliy aholi choy terish bilan shug'ullanadi



Ananaslar –
Kamerunda
o'stiriladigan
asosiy ekinlardan
biri

Keniya



Poytaxti: Nayrobi
Maydoni: 582 650 km²
Aholisi: 37 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: ingliz, suaxili tillari

Aholisining diniy tarkibi:

xristianlar (protestantlar – 45%, katoliklar – 33%) – 78%, mahalliy maslaklarga e’tiqod qiluvchilar – 10%, musulmonlar – 10%

Pul birligi: Keniya shillingi



◆ Keniya va Tanzaniyada yashovchi Masai xalqi Sharqiy Afrika aborigenlari orasidagi eng chiroyli xalq hisoblanadi

Umumiy ma'lumotlar

Keniya Respublikasi – Sharqiy Afrikadagi davlat. Ilgari Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lgan, 1963-yildan boshlab mustaqil davlat. Davlat boshlig‘i – prezident. Keniya – Hamdo‘stlik a’zosi.

Mamlaktada 40 yaqin turli millat vakillari yashaydi, bular orasida asosiy 12 etnik guruh bor.



◆ Keniyada qahva qaynatadigan mashhur mis idishlar yasashadi. Idishning ikki qavatl ostki qismi cho‘g‘ga mo‘ljallangan

Tabiat

Mamlakat hududidan Afrikaning zaminidagi katta yoriq o‘tgan, u Markaziy tog‘ tizmasi sifatida o‘z aksini topgan, uning o‘rtacha balandligi 2500–3000 metr. Tog‘ tizmalari orasida Keniya tog‘ tizmasi ajralib turadi. Tog‘ tizmasi rift chuqurligi bilan kesishgan, eni 50–60 km.

Mamlakat iqlimi – dengiz iqlimi, qirg‘oq bo‘ylarida nam ekvatorial, tog‘ tizmalarida mo‘tadil, quruq iqlim.

Mamlakat shimolida sahro o‘simliklari, shimoli g‘arbda butazorlar; sohil bo‘yi tekisliklarda va ichki platolarda – akatsiya va baobabli savannalar, dengiz qirg‘og‘i bo‘ylab – palma va mangr o‘simliklari, tog‘ yonbag‘rlarida – doimiy yashil nam tropik o‘rmonlar o‘sadi.

Keniyani hayvonot olami juda boy: fil, arslon, qoplon, karkidon, zebra, ohu, flamingolar, pelikan va boshqalar bor.

◆ Jezus deb ataluvchi ushbu tosh qal‘ani 1593-yilda portugallar portirishgan



Xo‘jaligi

Mamlakat hududida soda va osh tuzi, flyuorit, diatolit, yoqut va boshqa qazilmalar olinadi. Mamlakatda yengil, oziq-ovqat, neftni qayta ishslash, cement, avtoyig‘uv sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Keniya aholisi paxta, guruch, makkajo‘xori, qahva daraxti, choy va boshqalarni; qirg‘oq bo‘yida esa yog‘ va kokos palmalarini yetishtiradi. Mamlakatda go‘sht-sut yo‘nalishidagi chorvachilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, parrandachilik va ko‘chmanchi chorvachilik rivojlangan. Aholi Hind okeani va ko‘llar atrofida baliqchilik bilan shug‘ullanadi.

Eksport mahsulotlari: qahva, choy, sizal, neft mahsulotlari, baliq, sement.

Komor orollari



Poytaxti: Moroni

Maydoni: 2,2 ming km²


Aholisi: 700 ming kishi
(2007)

Rasmiy tillari: kamor, arab,
fransuz tillari

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 98%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Komor franki



Chinnigul – Komor
orollarining eksport
qilinadigan asosiy
ekinlaridan biri



Xo‘jaligi

Komor orollar ittifoqi – agrar davlat. Aholining deyarli 80% qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi. Eksport daromadining 95% ni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tashkil qiladi. Mamlakat – dunyoda parfumeriya sanoatining asosiy xomashyosini ishlab chiqaruvchisi, bundan tashqari vanilin (2-o‘rin Madagaskardan so‘ng), va qalampirmunchoq (3-o‘rin Tanzaniya va Madagaskardan keyingi o‘rin) ham yetishtiriladi. Eksport uchun efir moyli o‘simliklar, kokoslar, dolchin ham o‘stiriladi. Oziq-ovqatning yarmi import qilinadi. Mamlakatda hunarmandchilik rivojlangan. Vanil, qalampirmunchoq, ilanga-ilanga essensiysi, kopra eksport qiladi.



Komor
orollar
qirg‘og‘ida oq
qumli ajoyib
plajlar bor

Umumiylumotlar

Komor orollar Ittifoqi federativ Respublika bo‘lib, u Hind okeanining Mozambik bo‘g‘ozni arxipelagidagi orolda joylashgan davlat. Afrikaning janubiy-sharqiy qirg‘oqlari yonida joylashgan. Ilgari Madagaskar tarkibida Fransiya mustamlakasi bo‘lgan. 1975-yil mustaqillikka erishdi. Davlat boshlig‘i – prezident. Aholini 95% – komorliklar, aralash turmushlardan bo‘lgan avlodlar (afrikalik arablar, malagasislar, fransuzlar va boshq.) tashkil qiladi.



Komor orollarini qurshab turgan dengiz suvlarida 400 mln. yil avval okeanda yashagan selekant baliqlari yashaydi

Tabiat

Komor orollar – vulqonli kelib chiqishiga ega, uning hududida harakatdagi vulqonlar bor. Har bir orol markazida vulqon massivlari joylashgan. Ulardan pastroqda marjon riflari bilan o‘ralgan qirg‘oq pasttekisliklari mavjud. Doimiy oqar daryo, buloqlar Komor orollarida yo‘q, so‘nggan vulqonlar kraterlarida ko‘llar mavjud.

Mamlakat iqlimi tropik, nam va issiq. Komor orollarining tog‘ yonbag‘rlari quiyi qismi uchun savannalar va butazorlar xosdir, tog‘ yonbag‘rlarida tropik o‘rmonlar o‘sadi.

Kongo (KDR)



Poytaxti: Kinshasa

Maydoni: 2 345 410 km²
(maydoni bo'yicha Afrikada
3-o'rinda turadi)

Aholisi: 63 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy

tarkibi: katoliklar

– 50%, protestantlar –
20%, animistlar – 20%,
musulmonlar – 10%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Kongo franki



◆ Demba niqobi
(«himoyachi» degan
ma'noni bildiradi)

Ayol yuzi
ko'rinishidagi
niqob go'zallikni
aks ettiradi



Yodgorliklar

Kongoning asosiy sayyohlik obyektlari; Kinshasa va Matadi orasidagi Kongo daryosining Livingston sharsharasi; Viruna milliy bog'ida Ruvenzor qorli tog' massivi, Garamba milliy bog'i, ekvatorial o'rmonlardagi pigmeylar qishloqlari, shaharlar yodgorliklari.

Umumiy ma'lumotlar


Kongo Demokratik Respublikasi – markaziy Afrikada joylashgan davlat. G'arbiy qismida Atlantika okeani qirg'oqlari va Kongo daryosi etagiga olib boradigan tor yo'lka bor. Ilgari Belgiya mustamlakasi bo'lgan, 1960-yildan boshlab mustaqil davlat. Davlat boshlig'i – prezident.

Kongoda – 200 ga yaqin millat vakillari yashaydi. Eng ko'p sonli aholi bu: bantu xalqi (mongo, luba, kongo), bundan tashqari Sudan tilida gapiruvchi mangbetu va azande xalqlari bor. Ekvatorial o'rmonlarda pigmey (efe, bambuti, bakve, batva) qabilalari yashaydi. Rasmiy tildan tashqari aholi Mengala, kingvana, kikongo, chiluba tillarida ham so'zlashadilar.



◆ Pigmeylar uchun ov – bu ovqat topishning kamyob usullaridan biri

◆ Mahalliy aholi daryolarda va ko'llarda baliqchilik bilan shug'ullanadi



Tabiat

Mamlakat hududini katta qismini Kongo chuqurligi – Kongo daryo havzasining daryo tarmoqlari tomonidan bo‘lib tashlangan yassi tekislik tashkil qiladi. Sharqiy chegara bo‘ylab Markaziy Afrika chuqurligi joylashgan. Uning tagida ko‘llar tarmog‘i mavjud. Bu chuqurlik g‘arbiy qismi bo‘ylab shimaldan janub tomon Kuk va Mitumba tog‘lari, sharqiy qismida esa Ruvenzori va vulqonli Vurunga tog‘lari joylashgan. Mamlakatda zilzilalar bo‘lib turadi.

Mamlakat iqlimi: shimaliy qismida nam ekvatorial, janubda – ekvatorial-mussonli. Mamlakat sharqiy va janubiy



Timsoh akillash bilan o‘kirish orasidagi tovushni chiqaradi



Begemotlar faqat Ekvatorial Afrikada yashaydi

Xo‘jaligi


KDR iqtisodiyoti resurslarga boy. Harbiy mojarolar va fuqarolar urushi natijasida 1998–2002-yillar qattiq tanglikka tushdi. Qishloq xo‘jaligi va tog‘-kon sanoati yetakchi tarmoqlar hisoblanadi. Kongoda neft, mis rudasi, kobalt (dunyoda 1-o‘rin), marganes, rux, uran, qalay, tantala, niobiya, oltin, texnik olmos qazib olinadi. Ekeltr quvvatining 98% davlatni janubida joylashgan GES tomonidan ishlab chiqariladi. Mamlakatda rangli metallurgiya, kimyo, sement, yog‘ochsozlik sanoatlari rivojlangan.

Aholi daryo va ko‘llarda baliqchilik bilan shug‘ullanadi. Yog‘ palmasini, kakao, qahva daraxti, kakao donlari, choy, shakarqamish, geveya yetishtiradilar. Echki, qo‘y, cho‘chqa, parrandalarni va pashsha bo‘lmagan tog‘li joylarda yirik shoxli mollarni ko‘paytirish bilan band. Aholi mahalliy hunarmandchilik bilan ham shug‘ullanadi: metallga ishlov

berish, yog‘ och haykalchalar yasash, niqob, musiqa asboblari, fil suyagidan bezaklar, savat yasash, malaxit toshidan bezaklar yasash rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: olmos, mis, neft, kobalt, uran rudasi, qahva, palma yog‘i, qimmat navli yog‘ och turlari, kauchuk.

KDR dagi dunyoning foydall qazilmalar zaxirall miqdori



Biz odatlangan ko‘rinishdagи qahva donini olish uchun avval uning etini olib tashlashadi, keyin 52- 60 °C haroratda quritishadi va sayqal berishadi

Kongo



Poytaxti: Brazzavil
Maydoni: 342 ming km²
Aholisi: 3,8 mln. kishi
 (2007)

Rasmiy tili: fransuz tili
Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 31%, protestantlar – 16%, animistlar – 48%
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: Afrika franki



Qadimgi jangchi haykali

Xo'jaligi

Kongoda neft, kaliy tuzlari, qo'rg'oshin-rux rudalari, oltin qazib olinadi. Mamlakatda o'rmon xo'jaligi yaxshi rivojlangan. Kongoda sement, yog'ochsozlik, to'qimachilik, shakar va oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan. Mamlakatda tapioka, shakarqamish, yeryong'oq, qahva daraxti, kakao donalari, banan, yog' palmasi yetishtiriladi. Aholi baliqchilik bilan shug'ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, yog'och, fanera, shakar, kakao, qahva, olmos hisoblanadi.

Umumiy ma'lumotlar

Kongo Respublikasi – markaziy Afrikaning g'arbidagi davlat. Kongo daryosini quyi qismida joylashgan. Fransiyaning mustamlakasi bo'lgan, 1960-yildan boshlab mustaqil davlat. Davlat boshlig'i – prezident.

Kongoda ko'pchilikni bantu millati tashkil etadi: bakongolar – 48%, sanga – 20%, bateke – 17%, mboshi – 12% .

Shakarqamish dalasi



Kakao dukkagi urug'lari aslida achchiq, qimizak ta'mga ega bo'ladi, ishlod berilgandan keyingina yoqimli hid va ta'm kasb qiladi



Tabiat

Kongoni Atlantika qirg'oqlari bo'ylab quruqlikdan Mayombe va Billur tog'lari bilan qisilgan tor pastlik joylashgan. G'arbda Janubiy Gvineya tepaligining qismlari yotadi, mamlakat markazida bu tepalik Bateke platosiga ulangan.

Mamlakat iqlimi ekvatorial, issiq va nam (shimolda); janubi g'arbda subekvatorial mavsumiy quruqlik bilan.

Kongo hududining 60% nam ekvatorial va subekvatorial qimmatbaho nav daraxtli o'rmonlar egallagan. Janubiy qismining qurg'oq yerlarida baobablar, dengiz qirg'oqlarida mangrzonlar o'sadi.

Hayvonot olamining asosiy vakillari: fil, begemot, qoplon, sher, shoqol, sirtlon, antilopa, buyvol, gorilla, shimpanzelar va boshqalar.



Kot-d'Ivuar



Poytaxti: Yamusukro

Maydoni: 322,5 ming km²

Aholisi: 20 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy

tarkibi: xristianlar – 34%,
musulmonlar – 27%,
animistlar – 15%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: G'arbiy Afrika
franki



Baule elatiga
mansub ayol
haykali

Umumiy ma'lumotlar

Kot-d'Ivuar Respublikasi, Kot-d'Ivuar g'arbiy Afrikadagi davlat. 1983-yilgacha poytaxti Abijan edi, hozirgi paytda ham yirik iqtisodiy-ijtimoiy markaz bo'lib qolgan. Fransyaning mustamlakasi bo'lib, 1960-yilga kelib mustaqillikni qo'fga kiritgan. Davlat boshlig'i – prezident. Aholi orasida asosiy 5 etnik guruh bor, eng asosiysi – Niger-Kongo.



Mahalliy aholi katta
rang-barang hayvon
niqoblarini yashashi

Tabiati

Mamlakatning asosiy qismini to'lginsimon tekislik egallagan, qirg'oqdan shimolga qarab ko'tarilib boradi va balandligi 500-600 metr bo'lgan pasttog' platosiga ulanib ketadi.

Mamlakat janubida iqlim ekvatorial, shimolda – subekvatorial.

Mamlakatning janubiy qismi keng, doimiy yashil, nam, tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Hayvonot olami turfa va boy. G'arbiy Afrikaning boshqa hududlariga nisbatan yaxshi saqlanib qolgan. Kot-d'Ivuarda maymunlar, fillar, qoplonlar, buyvollar, begemotlar, gepardlar va boshqalar yashaydi.



Mahalliy qabilalardan birining marosim raqsi

Xo'jaligi

Afrikaning boshqa mamlakatlariga nisbatan Kot-d'Ivuar iqtisodiyoti rivojlangan. Asosiy yetakchi tarmoq – qishloq xo'jaligi (YIMning – 37%, eksport foydasining 70%, mehnatga layoqatli aholini 70% band) asosan dehqonchilik. Eksportning asosiy madaniy o'simliklari kakao va qahva, Kot-d'Ivuar dunyoda kakao donalari terimlari bo'yicha 1-o'rinda, qahva ishlab chiqarishda esa, 3-o'rinda turadi (Braziliya va Kolumbiyadan keyin). Chorvachilik faqat mamlakat shimolida sese pashshasi bo'lgan joylarda rivojlangan. Oqsil tanqisligini aholi ov qilish va baliqchilik orqasidan to'ldiradi.

Kot-d'Ivuarda olmos, oltin, neft va tabiiy gaz olinadi. Ishlov berish sanoati oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyoviy mahsulotlar, neft mahsulotlari va boshqalar hisoblanadi. Hunarmandchilik rivojlangan. Bularga kakao donalari, yog'och (birgalikda eksport daromadini 75% beradi), qahva, palma yog'i, paxta, banan, ananas, kauchuk, baliq va baliq konservalari.

Lesoto



Poytaxti: Maseru

Maydoni: 30,3 ming km²

Aholisi: 1,8 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: ingliz, lesoto tillari

Aholisining diniy tarkibi:
xristianlar 80% ga yaqin,
qolganlari mahalliy afrika
maslaklariga ibodat qilishadi.

Davlat tuzumi:
konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: loti



◆ Lesoto angora echkilardan olinadigan yuqori sifatlari jun sanoati bilan mashhur

Umumiy ma'lumotlar

Lesoto qirolligi – Afrika janubida joylashgan davlat. Har tomonlama JAR bilan o'ralgan va ularga iqtisodiy jihatdan qaram. 1966-yil mustaqillikka erishdi, unga qadar Buyuk Britaniya protektoriati bo'lgan. Davlat boshlig'i – qiro. Lesoto – Hamdo'stlik a'zosi. Mamlakatda asosan – basuto xalqi yashaydi (99,7%).



Xo'jaligi

Oxirgi yillarda Lesoto iqtisodiyoti Afrika davlatlariga nisbatan jadal rivojlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligida mehnatga layoqatli aholining 86% ishlaydi. Yaylov chorvachiligi rivojlangan. Aholi yirik shoxli mollarni ko'paytiradi. Lesoto – qo'y va angor echkilari beradigan yuqori sifatlari va moixer bilan mashhur. Ularni ishlab chiqarish bo'yicha mamlakat Afrikada 1-o'rinni egallagan.

Hozirgi paytda JAR bilan yirik tog' gidroenergetik majmuasi qurilmoqda. Bu majmua Lesotodan JARga kanal va tunellar orqali suv yetkazib beradi. Mamlakatning asosiy eksport mahsulotlari to'qimachilik (Afrikada 3-o'rin), qo'y yungi va moixer, tirik yirik shoxli mollar, olmos, bug'doy, sabzavotlar hisoblanadi.

◆ Sensgu daryosi qirg'og'i

Tabiat

Lesoto hududining katta qismini 2300-3000 m balandlikdagi Basuto platosi egallagan. U chuqur daralar bilan ajratilgan va sharqda Ajdarho tog'lari va Katta Kamar tik devori bilan o'ralgan.

Mamlakat iqlimi kontinental, bu yerlar uchun juda sovuq. Yozda daryo vodiylarida harorat +34°C gacha, qishda – 18°C gacha va bu payt qor yog'ishi, bo'ronlar bo'lishi mumkin.

Lesotodan Yuga va Sariq daryolari oqib o'tadi. Dashtdag'i o'simlik dunyosi, tog' yonbag'rlarida butazorlarga, yuqorida esa Alp vodiylarga almashib boradi. Hayvonot olami qashshoq.

Liberiya



Poytaxti: Monroviya

Maydoni: 111,4 ming km²

Aholisi: 4 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:
animistlar – 40%, xristianlar – 40%, musulmonlar – 20%.

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Liberia dollari



Geveya – tabiiy kauchukli o'simlik

Umumiy ma'lumotlar

Liberiya Respublikasi – Atlantika okeani qirg'oqlarida joylashgan g'arbiy Afrika davlati. Liberia tropik Afrikadagi eng katta davlatdir. Mamlakat 1847-yilda mustaqillikni e'lon qilgan. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholi qatlami ikkiga bo'linadi: mamlakat tub aholisi – 95% (20 dan ortiq millat) va amerikalik bo'lgan liberiyaliklar (2,5%).



Fil Liberiyada yashovchi 140 turdag'i sut emizuvchilardan biri

Xo'jaligi

Mamlakat qazilmalarga boy. Iqtisodiyotning asosiy tarmog'i eksportga qaratilgan: temir rudasi (Afrika bo'yicha 1-o'rinn), olmos, oltin qazilmalari, qishloq va o'rmon xo'jaligi mahsulotlari. Mehnatga layoqatli aholining 70% qishloq xo'jaligida mehnat qiladi. Asosiy ekinlari – geveya kauchugi. Chorvachilik yaylovlari tanqisligi va sese pashshasini ko'pligidan yaxshi rivojlanmagan, faqat savannalarda ko'paytirish mumkin.

Eksport mahsulotlarini qo'llab-quvvatlash natijasida erkin savdo-sotiq zonasini tashkil etilgan.

Asosiy eksport mahsulotlari: temir rudasi, kauchuk, yog'och, kakao donalari, qahva, oltin, palma yog'i.

◆
Liberiyaning tropik o'rmonlarida noyob navdag'i daraxtlar o'sadi:
moigli palma,
qizil daraxt va boshqalar



Tabiat

Liberiyada qirg'oq tekisligi tor (eniga 40-60 km), ba'zi yerlari botqoqlashgan. Qirg'oqdan ichkariga kirgan sari tekislik ko'tarilib boraveradi va tepalikka ulanib ketadi (balandligi 120-137 m). Plato mamlakatning katta qismini egallagan.

Mamlakat iqlimi tropik, nam va issiq.

Hududni deyarli yarmini doimiy yashil tropik o'rmonlar egallagan. Gvineya bilan chegara atrofida baland o'tli savannalar, qirg'oq bo'yalarida esa butali savannalar, mangr o'rmonlari va palmalar o'sadi.

Liberiyaning hayvonot olami boy: qora buyvollar, qoplonlar, antilopalar, to'ng'izlar va boshqalar.

Liviya



Poytaxti: Tripoli

Maydoni: 1759,5 ming km²

Aholisi: 6 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar

Davlat tuzumi: Jumhuriyat
(xalq davlatchiligi)

Pul birligi: Liviya dinori



Berberlar ko'k rangli libos
va bosh kiyim
kiyishadi

Liviyadagi voha

Tabiatি

Liviyaning g'arbiy qirg'oqlarida Jefara pasttekisligi joylashgan.

Hududni katta qismini plato egallagan bo'lib, u past hududlarga bo'lib tashlangan. Janubda va janubi sharqda Tibesti toshli tepaliklar, sharqda Al-Bayda platosi joylashgan.

Liviyada doimiy oqadigan daryolar yo'q. Hududni 93% Sahroyi Kabir va Liviya sahrolari (sharqda) egallagan.

Liviya iqlimi quruq tropik, sahroviy, harorat amplitudasi keskin o'zgaradi. O'rtayer dengiz qirg'oqlarida – subtropik iqlim. Liviyaning Al-Aziziya shahrida yer yuzidagi eng baland harorat ko'rsatishi 57,8°C qayd qilingan.

Mamlakat qirg'oq bo'yalarida subtropik yarimsahro o'simliklari o'sadi. Qirg'oq va sahro orasida past o'sadigan qattiq o'tlar va shuvoq o'sadi.

Liviyaning hayvonot olami qashshoq, asosan sudralib yuruvchilardan iborat.

Umumiylumotlar

Liviya – Shimoliy

Afrikaning markaziy qismidagi davlat. Davlat boshlig'i – Liviya inqilobi yo'lboshchisi, boshqaruv organi – Umumiy Xalq Kongressi. Aholining 90% – Liviya arablari, 7% – berberlar va tuareqlar tashkil etadi.



Xo'jaligi

1999-yildan so'ng mamlakat iqtisodiyoti dunyo iqtisodiyotiga moslasha bordi, xo'jalikni liberalallashtirish (xususiy lashtirish) tizimi boshlandi. Liviyanı milliy boyligi – neft va tabiiy gaz. Mamlakatda neft-kimyo, sement, to'qimachilik, yog'-moy, tamaki, metallurgiya, mashinasozlik sanoatlari rivojlangan.

Quruq iqlim qishloq xo'jaligi rivojiga to'sqinlik qiladi. Oziq-ovqatni 75% mamlakatga import qilinadi. Liviya neft, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, kimyoviy mahsulotlarni eksport qiladi.



Bu ayollar sodda lash-lushlari bilan ko'chmanchilik qillishadi

Madagaskar



Poytaxti: Antananarivu

Maydoni: 596 ming km²

Aholisi: 18 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: malagasi, fransuz tillari

Aholisining diniy tarkibi: animistlar – 52%, xristianlar – 40%, musulmonlar – 7%

Davlat tuzumi: Respublika

Pul birligi: malagasi ariari



Buqalamunlar rangini o'zgartira olish qobiliyati bilan mashhur

Lemurlar faqat Madagaskarda va unga yaqin orollarda yashaydi



Umumiy ma'lumotlar

Madagaskar Respublikasi

Afikaning janubi sharqiy qirg'oqlaridagi davlat. 1960-yil mustaqillikka erishdi, ungacha Fransiya mustamlakasi bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholini 99% – malagasilar. Ular aralash afro-osiyoliklar turmushidan tarqalgan avlodlar, Madagaskarga Indoneziya, Afrika va Sharqiy Arabistonidan migratsiya natijasida kelishgan.

Sizal tolasini agava daraxti barglаридан олишади



Tabiatি

Deyarli butun hududni Markaziy tog' tizmasi egallaydi, balandligi 2876 m, orol markazidan shimol va janub tomon 800 km dan uzunroq cho'zilgan.

Mamlakat iqlimi shimoli g'arbda ekvatorial-mussonli, sharqda – tropik.

Madagaskar hududining janubi g'arbida yarimsahro joylashgan. Orolni deyarli barcha joylarini yashil nam tropik qimmatbaho navli o'rmonlar egallagan.

Madagaskarda ko'plab endemlar uchraydi, ular Yer yuzining boshqa yerlarida o'simlik dunyosida (11



ming tur) ham hayvonot dunyosida ham uchramaydi (nurli toshbaqa, Misr langusti, suv to'ng'izi, va boshqa). Mamlakat uchun sudralib yuruvchilar, qushlar va hasharotlarning turlarini ko'pligi xosdir.

Xo'jaligi

Madagaskar aholisining katta qismi dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Mamlakatda guruch, makkajo'xori, sizal va eksport uchun qalampirmunchoq, vanil (terimi bo'yicha 1-o'rinn), va qahva yetishtiriladi. Aboli o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va mollarni ko'paytirish (asosiysi zebu – jon boshi bo'yicha dunyoda yetakchilik qiladi) bilan shug'ullanadilar.

Madagaskar hududida slyuda (zaxirasi bo'yicha dunyoda 2-o'rinn), grafit (4-o'rinn) va xromit konlari ham bor. Qayta ishlov berish sanoatining asosiy mahsuloti shakar hisoblanadi. Go'sht va meva konservalari, neft mahsulotlari, avtomobillar, radio va elektrotexnika va boshqalar ishlab chiqariladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: vanil, qalampirmunchoq, qahva, baliq va krevetkalar, go'sht mahsulotlari, slyuda, paxta, to'qimachilik, yong'oq, xromitlar, neft mahsulotlari va boshqalar.

Malavi



Poytaxti: Lilongve

Maydoni: 118,5 ming km²

Aholisi: 13 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: ingliz,
chicheva tillari

Aholisining diniy tarkibi: protestantlar – 55%, katoliklar – 20%, musulmonlar – 20%, animistlar – 3%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Malavi kvachasi



Papirusdan va rafiya palmasi tolasidan turli buyumlar to'qish – aholining an'anaviy hunarmandchilik sanoatlardan biri

Umumiy ma'lumotlar

Malavi Respublikasi – janubiy-sharqi Afrikadagi davlat.

Hududni 1/5 qismini Nyasa ko'li egallagan. 1964-yil mustaqillikka

erishdi, ungacha Nyasalend nomli Britaniya mustamlakasi edi. Davlat boshlig'i – prezident. Malavi – Hamdo'stlik a'zosi. Aholining 99% bantu xalqlari tashkil etadi.



Xo'jaligi

Iqtisodiyotning asosi – qishloq xo'jaligi, bu yerda mehnatga layoqatli aholining 86% mehnat qiladi. Mamlakatda choy, tamaki, shakarqamish, qahva, gullar, kichik dehqonchilik xo'jaliklarida makkajo'xori (ekini 60%), sorgo (jo'xori), tariq yetishtiriladi. Boksit, apatit, toshko'mir, grafit, uran, qimmatbahoh toshlar, marmar va noyob ma'danlar: ilmenit, kianit va rutil konlari bor. Ammo sanoat miqyosida faqat ohak qazib olinadi. Malavida choy, tamaki, shakar, sement, gazlama, moyabzal, yog'ochsozlik korxonalari faoliyat yuritadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: choy, tamaki (eksport bo'yicha Afrikada 2-o'rin), shakar, paxta, yeryong'oq, qahva, gullar.

Malavining manzarasi. Tabiatning go'zalligi va hayvonotu nabotot olamining boyligi sayyoohlarni jalb qiladi



Bunday baliqlar faqat Malavida yashaydi

Tabiat

Malavi landshaftini ko'pincha Shveysariya bilan tenglashtirishadi. Baland tog'lar oldida yirik suv havzalari, qoyali tog' tepaliklar alp vohalari joylashgan Afrikaning seysmik hududlaridan biri. Janubda Mulanje tog' massivi bor.

Iqlimi ekvatorial-mussonli, yozda nam, qishda quruq.

Mamlakatni katta hududi ayniqsa, janub va markazda – savannalar va quruq savanna o'rmonlari tashkil qiladi. Nam baland o'tli savannalarda akatsiyalar, baobablar, mopanlar, jakarandalar, palmalar, bananlar uchraydi.

Hayvonot olami sharqi Afrikaga xos: fil, zebra, jirafa, ikki shoxli karkidon, buyvol, ko'plab qushlar turlari, sudralib yuruvchilar va hasharotlar mavjud.

Mali



Poytaxti: Bamako

Maydoni: 1,24 mln. km²

Aholisi: 12 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 90 foizdan
ortiq, animistlar – 9%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Afrika franki




Mali mustaqilligi yodgorligi

Umumiy ma'lumotlar

Mali Respublikasi – G'arbiy Afrikaning markazida joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident.

Asosiy etnik guruhlari: bambara, futbe, senufo, malinke, sonne, tuareqlar, arablar.



Xo'jaligi

YTMning 45% qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi, bu yerda mehnatga layoqatli aholining 80% faoliyat olib boradi. Mali hududi qazilmalarga boy. Bu yerda oltin, olmos, fosfat, osh tuzi qazib olinadi. Sanoat korxonalarini yeryong'oq va paxta yog'i mahsulotlari, shakar, poyabzal, sement, qishloq xo'jaligi jihozlari, velosipedlar ishlab chiqaradi.

Mali G'arbiy Afrika mollarni jon boshi bo'yicha 1-o'rinni va qit'ada paxta ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinni egallagan. Mamlakat o'zini don bilan ta'minlaydi. Nigeriyaning quyi qismida aholi baliqchilik bilan shug'ullanadi. Asosiy eksport mahsulotlari: paxta, guruch, yeryong'oq, oltin, tirik mollar, baliq.

Tabiat

Mali – «sahro va savannalar mamlakati» tekis relyefli. Dengiz sathidan 200–300 m balandlikda joylashgan. Chetdagi tepaliklar, tog' va tog' massivlari hududni 10% kamrog'ini egallagan. Shimolda Mali Sahroyi Kabirga chuqur «kirib borgan».


Mamlakat iqlimi tropik sahro, janubda – subekvatorial. Yog'ingarchilik ko'proq mamlakat janubida yog'adi.

Malining g'arbiy qismini baland qirg'oqlar orasida tor va voha bo'ylab oqadigan Senegal daryo havzasini egallagan. Sahroyi Kabir chegarasida

Niger daryosi mamlakatni ikkiga bo'ladi: shimoliy Sahroyi Kabirni qumli va toshli sahrolar egallagan va Janubiy qismi – boshqoli o'simliklar, fil o'ti, baobablar, dum palmalari, akatsiyalar o'sadigan yer egallagan. Sahroi Kabir Saxelya chegarasiga o'tib turadi. Saxelyadan janubroqda keng o'rmonli savanna, daryo bo'ylab galereya o'rmonlari o'sadi.

Savannalar hayvonot olami boy va turfa, bu yerda antilopa, ohu, jirafa, straus, sher, timsoh, begemotlar va boshqalar mavjud.

Dogonlarning (Malida yashovchi xalq) qoyali tog'larda joylashgan qishlog'i



Malida qoya devorida neolit davriga mansub ajoyib rasmlarni ko'rish mumkin

Markaziy Afrika Respublikasi



Poytaxti: Bangi

Maydoni: 622,4 ming km²

Aholisi: 4,3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 15%,
animistlar – 35%, xristianlar – 50%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Afrika franki



Avokado ta'miga
ko'ra grek
yong'og'iga
o'xshaydi



Umumiy ma'lumotlar

Markaziy Afrika Respublikasi – Afrikaning markaziy qismida joylashgan davlat. Fransiya mustamlakasi bo'lgan, 1960-yil mustaqilligini e'lon qilgan.

Davlat boshlig'i – president, Aholisining etnik tarkibi: Banda xalqlari – 30%, gbaya – 24%, ngbandi – 11% va boshq.

Tabiat

Mamlakatni eng katta qismini Azande yassi tog'ligi egallagan(balandligi 600-900 m), uning ustidan marmar massivlar qad ko'targan.

Mamlakat iqlimi: subekvatorial – mussonli, uch iqlim zonasida tashkil topgan. Shimoli g'arbda qishi uzoq davom etadi; markaziy hududda yomg'ir va quruq mavsumlar yorqin ifoda etadi va janub doimo issiq nam. Iqlimming turfaligi hayvonot va o'simlik dunyosi boyligini aks ettiradi. Baland o'tli savannalar janubda tropik o'rmonlar bilan almashadi; janubning chekkasida o'rmonlar yaxlit massivni tashkil qiladi. Mamlakatda fil, buyvol, antilopa, jirafa, zebra, sher, qoplon, tuyaqushlar va boshqalar bor.



◆ Suvdagi bayram

Xo'jaligi

MAR – agrar mamlakat. YIMning 50% – qishloq xo'jaligi (mehnatga layoqatli aholining 80% band), 20% – sanoat, 25% – xizmat ko'rsatishga to'g'ri keladi. Mamlakatda yog'ochga ishlov berish, shuningdek, oltin va olmos qazilma ishlari olib boriladi. MAR oziq-ovqat mahsulotlari, pivo, gazlama, kiyim, bo'yoqlar, uy-ro'zg'or buyumlarini ishlab chiqaradi. O'rmon yerlarini yondirib dehqonchilik qilinadi. Asosiy eksport o'simliklari – yevropaliklarning plantatsiyalarida yetishtiriladi. O'z ehtiyojlari uchun ham maniok, jo'xori, tariq, sorgo, yeryong'oq va baliq yetishtiradi. Yaylovdagi ko'chmanchi chorvachilik ham rivojlangan. Aholi, shuningdek, ov qilish, baliqchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanadi. Asosiy eksport mahsulotlari olmos (eksport qiymatini 40%), yog'och, qahva, paxta, kauchuk, tamaki hisoblanadi.

Marokash



Poytaxti: Rabot

Maydoni: 446,6 ming km²

Aholisi: 32 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 99%

Davlat tuzumi: konstitutsiyaviy

monarxiya

Pul birligi: Marokash dirhami



Umumiy ma'lumotlar

Marokash Qirolligi –

Afrikaning shimoli – g'arbidagi davlat. Davlat boshlig'i – qiro.

1912-yil mamlakat hududi

3 qismga bo'linadi. Fransiya va Ispaniya protektoratlari va xalqaro hudud – Ganjer shahri. Marokash 1965-yil mustaqil bo'lgan, ammo O'rtayer dengizi qirg'oqlarida ispan anklavlari – Suyeta va Melilya saqlanib qolgan. Marokash arablari mamlakat aholisini – 80%, berberlar tub aholi) – 15–19% tashkil qiladi.



An'anaviy
marokashcha
uslubida
naqshlar
tushirilgan idish

Xo'jaligi

Marokash – agrar tog'-kon sanoati rivojlangan mamlakat. Asosiy boyligi fosforitlar (dunyo zaxirasini 70%) qazilmalari bo'yicha dunyoda 3-o'rinda, eksport bo'yicha 1-o'rinda turadi. Sayyohlik – mamlakatning daromadi bo'yicha ikkinchi pog'onasida turadi.

Marokash hududida ko'mir, temir, rux, simob, mis konlari bor. Sanoatning asosiy tarmoqlari – oziq-ovqat, to'qimachilik (mahsulotni 80% eksport qilinadi), charm, kimyo, sement, avtoyig'uv. Asosiy madaniy o'simliklar, donllilar, sitrus mevalar, uzum, zaytun, qand lavlagi, mevalar hisoblanadi. Mamlakatda intensiv chorvachiligi olib boriladi, ammo ko'chmarchi chorvachilik Sahroyi Kabirda saqlanib qolgan.

Eksport mahsulotlari: fosfaritlar, rangli metall rudalari, yelim, poyabzal, baliq, dengiz mahsulotlari, sitrus mevalar, xurmo, anjir va boshq.

Tabiatি

Mamlakat hududining 1/3 qismini qorli cho'qqili Atlas tog' tizmaları egallagan. Qolgan qismini plato egallagan, janubi g'arbda Sahroyi Kabir sahrosi joylashgan.

Marokash iqlimi subtropik, shimolda – O'rtayer dengizi yozda issiq, quruq, qishda mo'tadil va nam.

Qirg'oq bo'ylab zaytun, kichik emanlar, dub, palmalar, turli o'tlar, tog'larda doimiy yashil o'rmonlar o'sadi. Mamlakatda ohu, to'ng'iz, yovvoyi mushuklar, shoqollar, dumsiz maymunlar va mo'ynali qo'ylar mavjud.



An'anaviy kiyim
kiyigan berber

Mavrikiy



Poytaxti: Port-Lui

Maydoni: 2,040 km²

Aholisi: 1,3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:

hinduiylar – 52%, xristianlar – 29% (katoliklar – 27%, protestantlar – 2%), musulmonlar – 17%, buddaviylar – 2%

Davlat tuzumi: respublika


Pul birligi: Mavrikiy rupiyasi

Umumiy ma'lumotlar

Mavrikiy Respublikasi – Hind okeanining g'arbiy qismidagi Maskaren orollar guruhidagi orolda joylashgan davlat. Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan, 1968-yilda mustaqillikka erishgan. Davlat boshlig'i – president. Mavrikiy – Hamdo'stlik a'zosi.

Aholisining etnik tarkibi: hind-mavrikiylar – 68%, kreollar – 27%, xitoylar – 3%.

MAVRICKIYNING ASOSIY EKSPORT TARMOQLARI (2003)



Bananlar – mahalliy aholi yetishtiradigan asosiy o'simliklardan biri

Tabiat

Davlat tarkibiga kiruvchi orollar kelib chiqishiga ko'ra vulqonlidir.


Mavrikiy orolini katta qismini plato egallaydi (balandligi 826 m gacha). Qirg'oq bo'ylab keng qirg'oq oldi tekisliklari joylashgan. Orol marjonli riflar bilan o'ralsan.

Mamlakat iqlimi tropik, fevral-martda siklon bo'ronlari, kuchli yomg'irlar va suv toshqinlari bo'lib turadi.

Platoni ustki qismida qimmatbaho navli daraxt turlaridan tashkil topgan o'rmonlar joylashgan, quyi qismida esa kanar qarag'ayi, kauzarin, jannat daraxti, baobablar o'sadi.

Mavrikiy hayvonot olami turfa xil va boy, qushlarning ko'p sonliligi bilan ajralib turadi.

Mavrikiya keladigan ko'plab sayyoohlар dayving bilan shug'ullanadi



Xo'jaligi

Mavrikiy iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari: tikuvchilik va shakar sanoati, sayyoqlik va pochta markalari savdosi. Mamlakatda telekommunikatsion industriya yaratilgan, shuningdek, to'qimachilik, tikuvchilik, shakar, qog'oz sanoatlari rivojlangan. Aholi shakarqamish, choy, pomidorlar, tamaki, sizal, agavu, gullar yetishtiradi; ichki ehtiyojlar uchun kartoshka, guruch, manioku, yeryong'oq yetishtiriladi. Aholi yirik shoxli mollarni, cho'chqalarni, qo'ylarni, echkilarni ko'paytirish, hamda baliqchilik bilan shug'ullanadi. Mahalliy hunarmandchilik: kashemir mahsulotlari, fil suyagidan, nefritdan bezaklar yasash, charmdan sumka va tasmalar tayyorlash hisoblanadi.

Eksport mahsulotlari: kiyim, shakar.

Mavritaniya



Poytaxti: Nuakshot

Maydoni: 1030,7 ming km²

Aholisi: 3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: ushya




Umumiy ma'lumotlar

Mavritaniya Islom Respublikasi – Afrikaning shimoli g'arbidagi davlat. 1960-yil mustaqillikka erishdi, ungacha Fransiya mustamlakasi bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident.

Mavrlar (xabash, kelib chiqishi berber-arab mavritaniyaliklari 70% tashkil qiladi) bular shimolda va markaziy qismida yashaydilar. O'troq negroid irqiga mansub qabilalar janubda yashaydilar.

Mavritaniyaning janubida palmalar mo'l o'sadi



Ko'chmarchilar odad bo'yicha to'xtab dam olishyapti



Tabiat

Mavritaniya Sahroyi Kabir sahrosining g'arbiy qismini egallagan. Mamlakat hududida qumli sahro maydoni ko'p joyni egallagan (73%). Markazda qumli Adrar platosi joylashgan. Mamlakat iqlimi tropik, quruq.

Sahrolarda efemer o'simliklar; Saxel hududida – butalar va yarim butalar; janubda – palmalar, akatsiyalar, kamed daraxtlari o'sadi.

Hayvonot olami sahrolarga xos.



Mavritaniyaning milliy bog'laridan birida flamingo yashaydi



Mavritaniya
aholisi
vohalarda xurmo
yetishiradi

Xo'jaligi

Mamlakatda eksport uchun temir rudasi va oltin olinadi, gips va osh tuzi qazilmalari ham olinadi. Janubda kamed (daraxt shirasi) ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. 2001-yil Dengiz shelfida neft konlari aniqlangan, 2006-yildan boshlab qazilma ishlari olib boriladi. Mavritaniyada neftni qayta ishslash, baliq va oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan. Iqtisodiyot sahro ko'pligidan aziyat chekadi. Aholi ko'chmarchi va yarim ko'chmarchi chorvachilik bilan dasht-sahrolarda shug'ullanadi, vohalarda dehqonchilik rivojlangan. Dehqonchilik va yirik shoxli mollarni ko'paytirish Senegal daryosini daryo vodiylarida o'troq hayot kechiradigan xalqlarga xosdir. Aholi Senegal daryosida va Atlantika okeanida baliqchilik bilan shug'ullanadi. 717 km cho'zilgan temiryo'l orqali dunyodagi eng uzun (uzunligi 2,3 km) poyezd Zuerat-Nuadibu yo'nalişlarida qatnaydi.

Asosiy eksport mahsulotlari: temir rudasi, baliq va baliq mahsulotlari, oltin, kamed.

Misr



Poytaxti: Qohira

Maydoni: 1001,5 ming km²

Aholisi: 73 mln. kishi


Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar: sunniylar – 94%, xristianlar (qibtiytlar) – 6%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Misr funti



Umumiy ma'lumotlar

Misr Arab Respublikasi –

Afrikaning shimoli sharqidagi davlat. Osiyoga tegishli Sinay orollarini o'z tarkibiga olgan.

Davlat boshlig'i – prezident, parlamentni bir palatali Xalq yig'inini tashkil etadi. Mamlakatni 99% – arablar hisoblanadi.

Serhosil Nil vodiylarida dunyoning eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biri paydo bo'lgan. 4 ming yillik oxirlarida bu yerda yuqori va quyi Misr podsholigi bo'lgan, 3100-yil ular birlashtirilgan. Ularni Ossuriyaliklar bosib olgunlarigacha (mil. av. 617) fir'avnlar boshqarganlar, so'ng mil. av. 525-y. – forslar, so'ng mil. av. 332-y. Iskandar Zulqarnayn tomonidan zabit etilgan va Iskandariya shahriga

asos soldi. Uning o'limidan so'ng Misr hokimiyyati Ptolemy va uning avlodlariga o'tdi. Mil. av. 30-yil bu hudud Rimliklar tomonidan bosib olindi, keyinchalik Vizantiya tarkibiga kirdi. Mil. av. 614-yil Misr arablar tomonidan bosib olindi. Mamlakatga islom dini singdirildi. 1517-yil mamlakatni turklar zabit etishdi va u Usmoniyalar imperiyasining bir qismiga aylandi. 1798–1807-yillarda Misrning shimoliy qismini ingliz va fransuzlar egallamoqchi bo'lishdi. 1869-yil Suvaysh kanali qurib bitkazildi.

1883–1922-yillar Misr Britaniya protektorati bo'ldi. 1922-yil ingлизlar uni mustaqil qirollik deb tan olishdi (mutlaq mustaqillik 1951-yildan boshlab), ammo Suvaysh kanali hududini harbiy jihatdan nazorat qilib bordi. 1953-yil qirol taxtdan ag'darildi va mamlakat respublika deb e'lon qilindi. 1956-yil Suvaysh kanali hududida xalqaro mojaro sodir bo'ldi. 1967–1974-yil butun Sinay yarimoroli Isroil harbiylari tomonidan bosib olindi.

1979-yil Isroil-Misr tinchlik shartnomasi imzolandi.



Misrdagi Giza ehromlari dunyoning mashhur mo'jizalaridan biriga aylangan. Ular mo'miyolangan fir'avnlar uchun maqbara sifatida qurilgan edi

2002-yilda Misrga kelgan sayyoҳlar oqlimining tarkibi




Xo'jaligi

YIM ning 49% ni xizmat ko'rsatish tizimi, 34% ni sanoat, 17% ni qishloq xo'jaligi tashkil qiladi. Iqtisodni asosini sayyoqlik va qishloq xo'jaligi tashkil qiladi. Aholi paxta, guruch, bug'doy, arpa, mevalar, xurmo, yeryong'oq, kunjut, kungaboqar yetishtiradi. Nil daryo deltasida va vodiylarda yiliga ikki marotaba hosil teriladi. Aholi yirik shoxli mollar, echki va qo'ylarni ko'paytiradilar. Nil daryosi va dengizlarda baliqchilik bilan shug'ullanishadi.

Mamlakatda neft, tabiiy gaz, fosforit qazilmalari qazib olinadi. Misrda to'qimachilik, tikuvchilik, oziq-ovqat, kimyo, sement, metalluriya (shu jumladan, aluminiy sanoati ham) mashinasozlik sanoatlari rivojlangan. Elektr quvvatining 19% ni GES ishlab chiqaradi.

Asosan neft (va neft mahsulotlari), paxta, gazlamalar, kamyoviy mahsulotlarni eksport qiladi.

Transportning asosiy ko'rinishlari: daryo orqali (Nil), temir yo'l va avtomobil. Yirik dengiz bandargohlari: Iskandariya, Bur-Safaga, Said Porti, Suvaysh.




Qohiradagi Al-Azhar masjidi – nafis me'moriy uslubning ajoyib namunasi

Diqqatga sazovor joylari

Misrning asosiy yodgorliklari – qadimiy Misr madaniy yodgorlik obidalari (shu jumladan, Xeops, Xefren, Minerin va Al-Gizadagi Katta Sfinks; qadimiy Fiva va Memfis poytaxt vayronalari, qirollar vodiysidagi fir'avnlar mozorlari) xristian ibodatxonalari va boshqalar hisoblanadi.

Tabiat

Mamlakatni katta qismini 300 metrdan 1000 metrgacha baland bo'lgan plato egallaydi, u sharq tomon ko'tarilib boradi, balandligi 2000 metrgacha va Qizil dengizda uziladi. Janubdan Shimolga qarab u Nil vodiysi bilan bo'lingan; undan g'arb tomonda Liviya, sharq tomonda Arabiston sahrolari joylashgan. Liviya sahrosini shimolida Kattar chuqurligi (133 m dengiz sathidan pastda) va Fayyum chuqurligi (43 m). Nil vodiysi uzunligi eniga janubda 1-3 km dan shimolda 20 km gacha cho'zilib keng delta irmog'i bilan tugaydi. Yuqori oqim yo'nalishida «Nosir» nomli Asuan suv ombori qurilgan, u tuproqni sho'rlanishiga olib keladi. Misr hududining 96% sahrolar egallaydi, bu yerda ko'plab vohalar bor.



Suvaysh kanali O'rtayer dengizi va Qizil dengizni bog'lab turadi. Suvaysh kanali hududi Osiyo va Afrikaning shartli chegarasi hisoblanadi

Misr iqlimi quruq, tropikdir, O'rtayer dengizi qirg'oq bo'yalariga sahrodan xamsin – issiq qumli shamol esadi. Misrda zilzilalar va qurg'oqchilik bo'lib turadi.

Yarimsahro va sahrolarda ma'lum turdag'i boshqoli o'simliklar va kserofit butalar o'sadi. Nil vodiysi va deltasida suvda suzadigan qushlar bu yerda qishlaydi, bundan tashqari timsoh, begemotlar bor; sahrolarda ohu, qo'shoyoq, shoqol, sirtlon, ilon va kaltakesaklar uchraydi.

Karnak ibodatxonalar majmuasidagi qadimiy misr haykali



Fir'avn ovda. Miloddan avvalgi 1425 – 1397-yillarga oid freska. Misrliklar odam tasvirini biz ko'rib turganimizdek tasvirlashmagan, balki u odam haqida to'liq tushuncha berishga harakat qilishgan

Mozambik



Poytaxti: Maputu

Maydoni: 802 ming km²

Aholisi: 20 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: portugal tili

Aholisining diniy tarkibi:
animistlar – 50%, xristianlar – 30%, musulmonlar – 20%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: metikal



Siva – burg'u
– sohilga yaqin
joyda yashovchi
qabilalarning
an'anaviy puflab
chalinadigan asobi

Umumiy ma'lumotlar

Mozambik Respublikasi – Afrikaning janubi sharqidagi davlat. 1975-yil mustaqillikni e'lon qilgan. Davlat boshlig'i – prezident. Mozambik – Hamdo'stlik a'zosi. Aholining 99% – afrikaliklar, ular orasida 50 ga yaqin qabila va millatlar bor.

Tabiat

Malavi hududi ichkarilikda joylashgan mamlakatni ikkiga ajratib turadi. Shimolda – sharq tomon past qirg'oq pasttekisligi bilan tutashgan Mozambik platosi, Janubda u kengayadi 400 km gacha va mamlakat hududini 44% egallagan. JAR chegarasi oldida vulqonli tog'lar, shimalroqda Inyanga joylashgan.

Mamlakat iqlimi: shimolda-ekvatorial janubda – tropik, passatl.

Hududni 2/3 baland o'tli savannalar egallagan. Tog'da kedr daraxtli o'rmonlar o'sadi. Mamlakat janubini keng bargli past bo'yli daraxtlar o'rmon-savannalari egallagan. Yirik sut emizuvchilar tabiat bog'larida bor.

Xo'jaligi

Mozambik hududida titan, boksit, ko'mir, niobiya va tantal ruda konlari topilgan. Elektr quvvati JARdan eksport qilinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari – tog'-kon, paxtani qayta ishslash, keshyu yong'oqlari, yog', shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi.

Aholining 80% dehqonchilik, baliqchilik, chorvachilik va hunarmandchilik orqasidan kun ko'radi. Qishloq xo'jaligi valuta daromadini yarmidan ko'prog'ini beradi. Eksport uchun paxta, keshyu yong'og'i (terimi bo'yicha dunyoda 1-o'rinn), shakarqamish, kokoslar, sitrus mevalar: ichki ehtiyojlar uchun – kassavu, makkajo'xori va guruch yetishtiriladi. Aholi (janubda sese pashshasi bo'lmagan yerlarda) yirik shoxli mollarni, qo'yalmi, echkilarni va parrandalarni ko'paytiradi.

Asosiy eksport mahsulotlari: Krevetkalar, keshyu yong'oqlari, neft mahsulotlari, metall rudalari, kopira, paxta, yog'och.

Zamburug'simon lakkolitlar – Mozambik qirg'og'ining o'ziga xos jihat



Namibiya



Poytaxti: Vindxuk

Maydoni: 825 ming km²

Aholisi: 2,1 mln. kishi (2007)

Aholisining diniy tarkibi:
xristianlar – 80%, animistlar – 20%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Namibiya dollari



Brilliantlar – bu sun'iy ravishda qirralangan olmos. Namibiada yuqori sifatli olmos qazib olishadi

Umumiy ma'lumotlar

Namibiya Respublikasi – Afrikaning janubi g'arbidagi davlat, ilgari Germaniya mustamlakasi, so'ng JARga qaram hudud bo'lgan. 1990-yil mustaqillikka erishdi. Davlat boshlig'i – prezident. Namibiya – Hamdo'stlik a'zosi. Mamlakatda 9 ta etnik guruh yashaydi, jumladan, bushmenlar va gottentlar yashaydi.

◆ Velvichiya faqt
Namib va Kalaxari cho'llarida o'sadi



Xo'jaligi

Iqtisodiyotida zamonaviy faoliyat ko'rinishlari va afrikaliklarning natural xo'jaligi uyg'unlashadi. Iqtisodiyotning asosi – tog'-kon sanoati. Mehnatga layoqatli aholining 75% qishloq xo'jaligida ishlaydi. Tog'-kon sanoati eksport damromadini 75% tashkil etadi. Yuqori sifatli olmos, oltin, kumush, mis, rux, simob, volfram, vannadiy, oltingugurt, ametistlar qazib olinadi. Rangli metallurgiya, oziq-ovqat, charm, yog'ochga ishlov berish sanoatlari rivojlangan.

Qishloq xo'jaligining asosi – katta fermalarda qorako'lchilik yo'lga qo'yilgan.

Aholi yirik shoxli mollar, angor echkilari, tovuq, tuyaqush va timsohlarni ko'paytiradi. Tabiiy sharoit dehqonchilik qilishga unchalik to'g'ri kelmaydi. Mamlakatda – makkajo'xori, bug'doy, shakarqamish, mevalar, sabzavotlar yetishtiriladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: olmos, dengiz mahsulotlari, tirik mollar, go'sht mahsulotlari qorako'l terilari, uran.

Tabiat

Namibiya relyefida yassitog'liklar katta hududni egallagan, daryo vodiylari tomonidan bo'lib tashlangan, alohida plato va tog' tizmalariga ega.

Mamlakat iqlimi tropik, haddan ziyod quruq. O'simlik dunyosi boy emas: janubda kserofit butazorlar, shimolda quruqlashgan savanna joylashgan. Namibiyaning kaltakesaklar, ilonlar, kemiruvchilar va o'rgimchaklar bor.



◆ Nambiyadagi Skeletlar qirg'og'i qachonlardir sayohatchilarni tumanlar va harakatlanuvchi qumli qirg'oqlari bilan vahimaga solgan

Niger



Poytaxti: Niamey

Maydoni: 1,3 mln. km²

Aholisi: 14 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 80%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Afrika franki



Agadem shahridagi masjid

Umumiy ma'lumotlar

Niger, Niger Respublikasi – G'arbiy Afrikadagi davlat. 1960-yil mustaqillikka erishgan. Davlat boshlig'i – prezident. Aholi qatlami orasida 5 asosiy etnik guruh bor, – xausa (56%), dirma va songangay (22%), fulbe (8%), tuareqlar (8%).

Xo'jaligi

Niger – aholisining (90%) katta qismi qishloq xo'jaligida mehnat qiladi. Qishloq xo'jaligi ob-havoga bog'liqdir. Yaylovlarda chorvachilik rivojlangan. Yirik va kichik shoxli mollar, tuyalar, otlar podasini katta masofaga suv va yaylovlar qidirib haydab borishadi. Aholini bir qismi baliqchilik (Niger daryosi va Chad ko'li) va hunarmandchilik bilan shug'ullanadi. Nigerda uran koni mavjud, uni qazilmalari va qayta ishlash bo'yicha mamlakat dunyoda yetakchi o'rinnegallagan. Bundan tashqari toshko'mir, qalay va fosforitlar ham qazib olinadi. Asosiy eksport mahsulotlari: uran konsentrati (eksportni 3/4), tirik mollar, go'sht mahsulotlari, yeryong'oq, yeryong'oq yog'i va paxta.



◆ Baobab daraxti moyasining aylanasi 25 metrgacha, bo'y esa 18-25 metrga yetadi



Cho'ponlar chorvani uzoq masofalarga haydab boradi

Tabiat

Mamlakatni asosiy relyefi – plato (balandligi 200–500 m); uni markazida Alp tog' massivi joylashgan. Katta qismi Markaziy sahroda joylashgan. Niger iqlimi tropik, sahro, havoda namlik yetishmaydi. Kunduzi harorat yuqori, kechasi keskin tushadi (kunduz +40°C, kechasi +13... +14°C). Janubda va janubi g'arbda subekvatorial mavsumiy namligi bor. Hududni 2/3 qismida tosh, qumli sahrolar va qurib borayotgan savannalar egallagan. Faqat janubda va janubi g'arbda zinchikilgan boshoqlilar, fil o'lari, akatsiyalar, baobabli va dum palmali savannalar joylashgan. Janubroqda yirik daraxtlar: balbaks, mango, papay, karite yong'oq daraxtlari, daryo bo'ylab bambuklar o'sadi. Sahrolarda kemiruvchilar, fenek tulkisi, antilopalar; janubiy savannalarda jirafalar, sherlar, fillar, daryolarda – begemot va timsohlar mavjud.

Nigeriya



Poytaxti: Abuja

Maydoni: 923,8 ming km²

Aholisi: 144 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: ingliz, fransuz tillari

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 50%,
xristianlar – 40%, animistlar – 10%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: nayra

Umumiy ma'lumotlar

Nigeriya Federativ Respublikasi

- G'arbiy Afrikadagi davlat. Niger daryosini quyi qismida joylashgan.
- Davlat boshlig'i – prezident. Nigeriya
- Hamdo'stlik a'zosi. Davlat turli etnik guruh vakillarini o'z ichiga olgan (250 xil millat).

Tabiatি

Mamlakat hududi – asosan Ioruba, Udi, Jos, Biu platolaridan iborat. Shimoli g'arbda Jos platosi pasayib boradi va Sokoto tekisligiga qo'shilib ketadi; shimoli sharqda Borno tekisligiga va Chad ko'li havzasiga qo'shiladi, shimolda esa Xaus baland tekisligiga ulanib ketadi. Sharqiy qismda Oban, Sonkvala, Gatel, Shebshi, Mandara tog' tizmalari joylashgan.

Iqlimi mamlakat shimolida quruq, tropik. Plato va Janubda ekvatorial mussonli. Dengiz qirg'oqlarida iqlim nam va ekvatorial.

Niger daryosi deltasida va qirg'oqlari bo'ylab – nam, doimiy yashil ekvatorial o'rmonlar. Bulardan shimoliy qismida bargi to'kiluvchi ekvatorial o'rmonlar, yana ham shimolroqda platoda – savanna hududlari joylashgan. Milliy bog'larda sher, sirtlon, qoplon, gorilla, fil va antilopalar yashaydi.



Xo'jaligi

Nigeriyada qishloq xo'jalik va neftni qayta ishlash sanoati peshqadamlik qiladi (Mamlakat Afrikada yirik neft ishlab chiqaruvchi va eksportchi). Mamlakatda tabiiy gaz, toshko'mir, temir rudasi qazib olinadi. Nigeriyada qimmatbaho yog'och turlariga ishlov berish yo'lga qo'yilgan. Nigeriyada qora rangli metallurgiya, mashinasozlik, yog'ochni qayta ishlash, selluloza, qog'oz, to'qimachilik sanoatlari rivojlangan. Kakao donalari (dunyoda 4-o'rin), yeryong'oq, yog'li palma, soya; ichki ehtiyojlar uchun – makkajo'xori, guruch, yams, sorgo, batat yetishtiriladi. Aholi yirik shoxli mollarni, echkilarni, qo'ylarni, cho'chqalarni ko'paytirish va baliqchilik bilan shug'ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari neft, neft mahsulotlari, kakao-donalari, yeryong'oq, kauchuk, kolumbit hisoblanadi.



Ko'plab afrikaliklar, jumladan, Nigeriya aholisi teri oshlash bilan shug'ullanadi

Ruanda



Poytaxti: Kigali

Maydoni: 26,4 ming km²

Aholisi: 9,3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: kinyaruanda, fransuz, inglez tillari

Aholisining diniy tarkibi: katoliklar

– 56%, protestantlar – 26%, adventistlar – 11%, musulmonlar – 5%, animistlar – 2%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Ruanda franki



Taqinchoqlar saqlashga mo'ljallangan an'anaviy to'qilgan qutichalar ko'rinish jihatdan dehqonlar kulbasiga o'xshaydi

Urush tufayli ona vatanini tark etgan Burundilik qochoqlari lageri

Umumiy ma'lumotlar

Ruanda Respublikasi – Sharqiy Afrikadagi davlat. 1962-yil mustaqillikka erishdi, unga qadar Germaniya mustamlakasi bo'lgan, keyin BMT nazoratidagi hudud bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident.

Mamlakatda xutu, tutsi, pigmey xalqlari yashab kelmoqda. Ruanda – Afrikaning eng zich joylashgan mamlakati hisoblanadi.



Xo'jaligi

Ruanda qishloq xo'jaligida, mehnatga layoqatli aholining 90% xizmat qiladi.

Asosiy plantatsiyalar o'simligi – qahva. Mahalliy ehtiyojlar uchun manshok, sorgo, makkajo'xori, kartoshka, banan (eng asosiy ozuqa) yetishtiriladi. Mollarni asosan tog' yonbag'irlarida va Kivu ko'li qirg' oq bo'yalarida ko'paytiriladi. Mamlakatda an'anaviy hunarmandchilik turlari rivojlangan. Sanoat korxonalari ko'p emas, ammo asosiy iste'mol mollarini ishlab chiqaradilar.

Qahva, choy, qalay, paxta, charm xom ashylari eksport qilinadi.

Tabiat

Ruanda hududini 1500–2000 m baland bo'lgan yassitog'lik egallagan, unda ko'plab daryolar tutashgan. Yassitog'lik sharqiy qismida pasayib boradi va g'arbda – Kivu ko'lida keskin uzeladi. Shimoli g'arbda vulqonli tog'lar joylashgan cho'qqilari 4000 metrdan balandroq. Janubiy va Sharqiy chegara hududi bo'yab Sharqiy Afrika vayronalari chuqurlik hududi egallagan. Bu yerda kichik ko'llar tizimi bor.

Ruanda iqlimi subekvatorial, namligi, yumshoqligi mavsumlarga bog'liq. Kivu – suvda erigan gazlar tufayli, parazit, bakteriyalar, timsohlardan ozod bo'lgan Afrikadagi yagona ko'ldir. Ruanda nam tropik o'rmonlari kesib tashlangan, ular o'mini savannalar egallagan. Dalalarda qattiq bargli o'rmonlar va butalar joylashgan. Hayvonot olami kuchli qirib tashlangan. Yirik hayvonlar milliy bog'larda saqlanib qolingga.



San-Tome va Prinsipi



Poytaxti: San-Tome

Maydoni: 1 ming km²

Aholisi: 200 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: portugal tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 90% atrofida

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: dobra



Umumiy ma'lumotlar

San-Tome va Prinsipi Demokratik Respublikasi – Atlantika okeani Gvineya ko'rfaqidagi orolda joyalashgan davlat. San-Tome va Prinsipi bundan tashqari kichik qoyali orollardan tashkil topgan. 1975-yil mustaqillikka erishdi. Davlat boshlig'i – prezident. Aholi asosiy etnik guruhlari san-tomeliklar (forroslar), yevropaliklar (asosan portugallar) – 1,5%.



Non daraxtining mevalari, kokoslar, makkajo'xori – san-tomeliklarning asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri

Tabiat

Davlat hududi chiroqli manzarali orollardan (vulqonli kelib chiqishga ega) iborat. Iqlimi tropik, dengiz iqlimi – iliq, doimo nam. Yomg'irlar butun yil davomida ko'proq avgust-sentabr oylarida yog'adi. Mamlakatda daryolar ko'p va aholi chuchuk suv blan ta'minlangan. Tog' yonbag'irlari 900 m balandlikkacha baland o'tlar, shaftoli va sitrus mevali daraxtlar bilan qoplangan, balandroqda zinch ekilgan ekvatorial qimmat navli daraxt turli o'rmonzorlar egallagan. Hayvonot olami unchalik boy emas: maymunlar, to'ng'izlar, ko'rshapalaklar va boshqalar mavjud.

Orollar qirg'og'iga yaqin suvda uchar baliqlar yashaydi



Banan terimi

Xo'jaligi

San-Tome va Prinsipi – Afrikadagi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan davlatlardan biri. Xizmat ko'rsatish tarmog'idan tashqari iqtisodning yana bir asosiy tarmog'i kakao, yog' va kakos palmalari, banan, xna daraxti va kola daraxti plantatsiyalari mavjud. Dehqon xo'jaliklari o'z ehtiyojlari uchun non daraxti, tariq, makkajo'xori, maniok, yams, soya, banan, papaya, dukkaklilar yetishtirishadi. Sabzavot hosilini yiliga 2–3 marotaba olishadi. Sanoat korxonalari sovun, palma yog'i, alkogolsiz ichimliklar, pivo, keramika, g'isht, to'qimachilik mahsulotlari. Mamlakat kakao donalari (eksportni 80–90%), qahva, kokos va yog' palma mahsulotlari, banan eksport qiladi.

Senegal



Poytaxti: Dakar

Umumiy maydoni: 19677
ming km²

Aholisi: 12,4 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 94%,
xristianlar – 5%, animistlar –
1%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Afrika franki



Yeryong'oq –
Senegalning
eksport
qilinadigan asosiy
ekinlaridan biri

Quduq oldidagi
navbat



Xo'jaligi

Senegal – nisbatan rivojlangan mamlakat. YIMning 27% sanoatga, 17% – qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligi mehnatga layoqtalı aholining 70% ni ish bilan va oziq-ovqat ehtiyojini 1/3 qismini ta'minlaydi. Senegalda fosforit, temir rудаси, tantal, dengiz tubida yirik neft konlari mavjud. Mamlakatda ma'danli o'g'itlar oltingugurt va fosfor kislotasini ishlab chiqarish yo'lg'a qo'yilgan. Mamlakatda oziq-ovqat, neftni qayta ishlash, avto yig'ish, sement, to'qimachilik sanoatlari rivojlangan. Eksport uchun yeryong'oq, paxta, shakarqamish, guruch, sabzavotlar; aholi ehtiyojlari uchun – tariq, manion, bamat, yams, makkajo'xori, dukkakli o'simliklar, yog' palmasi yetishtiriladi. Aholi baliqchilik va mahalliy hunarmandchilik bilan shug'ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: yeryong'oq va uning mahsulotlari, dengiz mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar, fosfatlar, neft mahsulotlari, paxta, tuz va boshqalar hisoblanadi.

Umumiy ma'lumotlar

Senegal, Senegal Respublikasi – G'arbiy Afrikadagi davlat. 1960-yil mustaqillik e'lon qilindi. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etnik tarkibi: negroid irqiga mansub xalqlar.

Tabiat

Senegal hududida deyarli hamma yog'ida o'rtacha balandligi 60 m bo'lgan past tekisliklar joylashgan faqat janubi sharq qismida alohida massivlar ko'tariladi. Qirg'oq chizig'i Dakardan shimol tomon tekislangan, janubga nisbatan qiyshiq.

Mamlakat iqlimi subekvatorial, o'zgaruvchan shimolda quruq, janubda nam. Yuqori harorat butun yil davomida saqlanib qoladi.

O'simlik dunyosi janubdan shimol tomon o'zgaradi, bargi to'kiluvchi o'rmonlardan to qurigan savanna butalarigacha. Fillar, jirafalar, buyvollar, begemotlar, antilopalar faqat milliy bog'larda saqlanib qolangan.

Senegalning
zamonaviy
poytaxti,
Dakar shahri
negrlarning
Ndakaru
qishlog'i
joylashgan
joyda buniyod
etilgan



Serra-Leone



Poytaxti: Fritaun

Maydoni: 71,7 ming km²

Aholisi: 5,3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 60%,
animistlar – 30%, xristianlar – 10%,

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: leone



Fil suyagidan
ishlangan tuzdon

Xo'jaligi

Serra-Leone iqtisodining asosini sanoat va qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Serra-Leoneda yog'och tayyorlash, olmos, rutil, oltin, xromitlar, ilmenitlar qazib olinadi. Mamlakatda olmosga ishlov beruvchi zavod va nefni qayta ishlovchi zavodlar mavjud. Bundan tashqari yog'ochsozlik, to'qimachilik, poyabzal, tamaki, yog'-moy, guruch tozalovchi, oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan. Mahalliy hunarmandchilik: milliy naqshlar solingan matolar tikish, batin ishlab chiqarish, savatlar to'qish hisoblanadi.

Mamlakatda eksport uchun qahva, kakao-donalari, palma yog'i, veryong'oq, zanjabil, mahalliy ehtiyojlar uchun – guruch, maniok, tariq va sorgo yetishtiriladi. Sese pashshasi bo'Imagan yerlarda aholi yirik shoxli mollarni, echkilarni, qo'yilarni, cho'chqalarни ko'paytirish va baliqchilik bilan shug'ullanadilar.

Asosiy eksport mahsulotlari: olmos, rutel, oltin, qahva, kakao, veryong'oq, zanjabil, dengiz mahsulotlari.

Umumiy ma'lumotlar

Serra-Leone Respublikasi – G'arbiy Afrikadagi davlat. 1961-yil mustaqillikka erishgan. Davlat boshlig'i – prezident. Serra-Leone – Hamdo'stlik a'zosi. Aholisining etnik tarkibi 20 etnik guruhdan iborat, eng katta guruhlar mendi – 34%, temne – 32%.



Afrika savannasi

Tabiat

Qirg'oq bo'yida joylashgan mangr botqoqliklari janub va g'arbga qoyali qadimiy tog'lar alluvial tekisligiga ularadi. Shimoli sharqda Leon-Liberiya tog'tizmasi joylashgan. Sersuv, jo'shqin Serra-Leone daryolari Atlantika okeaniga kelib tushadi.

Mamlakat iqlimi mussonli, subekvatorial. Yomg'irlar mavsumi maydan – dekabrgacha, quruq mavsum – dekabrdan-martgacha.

Hududning 28% o'rmonlar bilan qoplangan. Tog'larni sharqiy va janubiy bag'irlarida kesib tashlash va o'rmon yerlarini yondirib dehqonchilik uchun ishlatalish yo'lga qo'yilgan. Shimolda baobabli, baland o'tli savannalar, janubda va janubi sharqda zavol topgan o'rmon savannalari joylashgan. Milliy bog'larda fil, qoplon, babuinlar, shimpanze va boshqalar yashaydi.

Seyshel orollari



Poytaxti: Viktoriya

Umumiy maydoni: 455 ming km²

Aholisi: 100 ming kishi (2007)

Rasmiy tillari: kreol, ingliz, fransuz tillari

Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 90%, anglikanlar – 8%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Seyshel rupiyasi



Xo'jaligi

Seyshel yuqori darajali xalqaro kurort hisoblanadi. Mamlakat YMning 70% – xizmat ko'rsatishga, 25% – sanoatga (agrar xomashyo va tunesni qayta ishlash korxonalariga to'g'ri keladi). Ishlov beriladigan yerlarni 60% kokos palma plantatsiyalari egallagan. Aholi avanado, mango, banan, batat, tariq, choy, yams, shakarqamish, tamaki yetishtiradi. Mamlakatda hunarmandchilik va baliqchilik rivojlangan. Asosiy eksport mahsulotlari: tunes konservalari, muzlatilgan baliq va krevetkalar, vanil, koprakokos yong'og'ini quritilgan mag'zi eksportni 45% tashkil etadi.



«Dengiz kokoslari» 20 kg dan og'irroq bo'lishi va 10 yilgacha yashashi mumkin



Seyshel orollari – plyaj ixlosmandlari uchun maftunkor joy

Tabiatি

Eng katta yirik orollari suvdan chiqib turgan marmar toshli tepalikda aks etadi, kichik orollarda hech kim yashamaydi. Ular marjonli atollardan iborat balandligi 4–8 m.

Iqlimi subekvatorial dengiz iqlimi. O'rtacha oy haroratlari yil davomida baland, ammo dengiz shamollari jaziramani yumshatadi.

Yirik orollarni ichki qismida tropik o'rmonlar saqlanib qolingga. Orollarni izolatsiyasi hayvonot va o'simlik dunyolarini noyobligini saqlab qolishga yordam bergan (yelpig'ichli seyshel palmasining yong'og'i dunyodagi eng yirik hisoblanadi. Dekeneya palmasi, meduza o'simligi va boshqalar bu yerda mavjud).

Seyshel orollarida bambuk, vanil, ajdarho, non va dolchin daraxtlari,

Seyshel toshbaqasi



xitoy olmasi, liana, orxideya, paportniklar o'sadi. Fil va yashil yirik toshbaqalar saqlanib qolgan. Kuzen orolida Seyshel endemiklari yashaydi, bu yerni qushlar qo'riqxonasi deb e'lon qilingan.

Somali



Poytaxti: Mogadisho

Umumiy maydoni: 637,7 ming km²

Aholisi: 9,1 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: somali, arab tillari

Aholisining diniy tarkibi: musulmonlar

Pul birligi: Somali shillingi

Davlat tuzumi: respublika



◆ Somalining qurg'oqchil hududlarida chayonlar ko'p

Umumiy ma'lumotlar

Somal Demokratik Respublikasi – Afrikaning shimoli sharqidagi davlat. 1960-yildan boshlab mustaqil davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Asosiy etnik guruh – somali (aholining 85%).

Tabiat

Somalining janubi sharqi qirg'oqlarini dengiz bo'yи tekisligi egallagan, qolgan qismida keng, yassitog' tizmasi joylashgan, uning balandligi 500–1500 m, kichik va keng vohali platoga bo'lingan. Shimolda tog' tizmasi ko'tarilib boradi va Aden ko'rfazi tekisligida to'xtaydi.

Mamlakat iqlimi issiq va quruq (janubi-sharqi qirg'oqdan tashqari). Somali hududini deyarli 90% boshloqlı – butalar o'sadigan yarimsahrolardan iborat. Bu yerlarda kam uchraydigan o'simliklar, daraxtli, daraxtsimon butalar, baland o'tli qurub borayotgan savannalar ham mavjud. Hayvonot olamini: sher, jirafalar, karkidon, qoplon, zebra, sirtlon, antilopa, maymun, fil, timsohlar va begemotlar tashkil etadi.



◆ Mogadishodagi markaziy ko'cha

Xo'jaligi

Somalining asosiy tabiat boyliklari tabiiy yaylovları va xo'jaligining asosini ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chovrachilik tashkil etadi. Bu yerda tuyalar soniga qarab boyligi aniqlanadi. Aholi sorgo, makkajo'xori, yeryong'oq, guruch, shakarqamish, kunjut, mango, dukkakli o'simliklar, banan (yagona eksport o'simligi) yetishtiradilar. Aholi qadimdan xushbo'y daraxt shiralari teradi, bu dunyodagi mazkur yo'nalishdagi ishlab chiqarishning 60% ni tashkil qiladi. Mamlakatda hunarmandchilik rivojlangan.

Somali sanoati yaxshi rivojlanmagan, asosan iste'mol mollari chiqariladi. Mamlakatda bug'doy, yoqilg'i, sanoat mahsulotlari, mashinalar, transport jihozlar va boshqalar import qilinadi. Mamlakat tirik mol (eksportni 80%), bananlar, teri, go'sht, baliq va go'sht konservalari, yog'och eksport qiladi.

Somalida odamlar qayerda yashaydi



67% - qishloq joylarda

33% - shaharlarda

Sudan



Poytaxti: Xartum

Umumi maydoni: 205

mln. km² (Afrikani eng yirik mamlakati)

Aholisi: 39 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:

musulmonlar – 70%,

xristianlar – 5%, animistlar – 25%

Davlat tuzumi: harbiy tartib, prezident tomonidan boshqariladi

Pul birligi: Sudan dinori



Mango mevalari

Umumi ma'lumotlar

Sudan Respublikasi – Afrikaning shimoli – sharqidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Etnik tarkibi: negroid irqiga mansub qabilalar – 52%, arablar – 39%, bedjalar – 6%. Shimolda sahrolarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar yashaydi.

Nil daryosi Afrika kemachiligidagi katta ahamiyatga ega



Xo'jaligi

Sudan – Afrika davlatlaridan biri. Mamlakatda neft, xromit, oltin, marganes rudalari qazib olinadi. Kartumda neftni qayta ishlash zavodi bor. Sudanda sement, o'rmon xo'jaligi, paxta tozalash, charm, to'qimachilik, shakar va oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan. Shimolda Nil daryosi vodiyalarida sug'oriladigan dehqonchilik, oq va moviy Nil oralig'ida suv chiqarish dehqonchiligi, janubda - lalmikorlik rivojlangan. Eksport uchun o'stiriladigan o'simliklar – paxta, kunjut, yeryong'oq hisoblanadi. Ichki ehtiyojlar uchun bug'doy, sorgo, tariq, guruch, sitrus mevalar, mango, bananlar yetishtiriladi. Shimolda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik, janubda yaylovda boqiladigan chorvachilik rivojlangan. Aholi qo'y, echki, yirik shoxli mollar, tuyalar, otlar, eshaklarni ko'paytirish bilan va baliqchilik bilan shug'ullanadi. Asosiy eksport mahsulotlari: neft, neft mahsulotlari, kunjut, oltin, tirik mol, paxta, charm, yeryong'oq.

Sudandagi qadimiy shahar vayronalari



Tabiat

Mamlakat hududini yirik havza egallaydi, janub tomon kengayib boradi. Shimoli g'arbda – Liviya sahrosi platosi, u Qizil dengiz tepaligiga ulanib ketgan. Mamlakat janubini tuproqli tekislik egallagan.

Shimolda iqlim – quruq tropik, janubda ekvatorial – mussonli, doimo qurg'oqchilik bo'ladi. Qishda – quruq mavsum, yoz – yomg'irli mavsum.

Liviya sahosida o'simliklar yo'q nubida, tumarisk va akatsiyalar o'sadi. Milliy bog'larda antilopa, ohu, jirafa, qoplon, fil, begimot, ilonlar yashaydi.

Svazilend



Poytaxti: Mbabane

Maydoni: 17,4 ming km²

Aholisi: 1,1 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: ingliz, svazi tillari

Aholisining diniy tarkibi:

Sion apostal cherkoviga e'tiqod qiluvchilar – 40%, katoliklar – 20%, musulmonlar – 10%, animistlar – 30%

Davlat tuzumi:

konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: lilangeni



Svazi ayollari bo'sh vaqtida biserdan munchoq yasash bilan shug'ullanadi



Svazilend aholisi an'anaviy ravishda poxoldan turli buyumlar to'qiydi

Janubiy Afrika qabilalaridan birining musiqachilari



Umumiy ma'lumotlar

Svazilend, Svazilend qirolligi – qit'a ichidagi kichik davlat, Afrikaning janubi sharqida Mozambik va JAR tutashgan joyda joylashgan. 1968-yilda mustaqillikga erishdi. Davlat boshlig'i– qiro. Svazilend – Hamdo'stlik a'zosi. Aholisining etnik tarkibi: svazi – 84%, zulular – 10%, qolganlari tsonga va yevropaliklar. Aholining katta qismi Ezulvin vodiysida yashaydi.

Xo'jaligi

Svazilend – agrar davlat. Iqtisodiy jihatdan JARga bog'liq. Mamlakatda asbest va toshko'mir qazib olinadi. Yog'ochsozlik, kimyo, to'qimachilik, tikuv, shakar, oziq-ovqat sanoatlari va mahalliy hunarmandchilik rivojlangan. Oxirgi yillarda elektr jihozlar, muzlatgichlar, elektronika, kompyuterlarni ishlab chiqarish, avtobus yig'ish yo'lga qo'yilgan. Aholi shakarqamish, paxta, sitrus mevalar, ananaslar, makkajo'xori, tamaki yetishtiradilar. Shuningdek, yaylov chorvachiligi bilan ham shug'ullanadi. Asosiy eksport mahsulotlari: shakar, selluloza, sitrus mevalar, muzlatgichlar, meva konservalari, sharbat konsentratlari, paxta hisoblanadi.

Tabiat

Mamlakat hududini dengizoldi Mozambik tekisligi tomon pasayadigan uch pog'onali plato egallagan. Baland, o'rta va quyi veld. Quyi Veld sharqda Lebo tog' tizmasi bilan o'ralgan.

Svazilend iqlimi g'arbda nam subtropik, sharqda – tropik. Qurg'oqchilik bo'lib turadi, ichimlik suvi yetishmaydi.

Baland Veldda – yaylovlar joylashgan. O'rtasida – tropik daraxtli savannalar, quysisida – butali savannalar o'sadi. Mamlakat hududida begemot, karkidonlar, timsoh, zebra, antilopa, mangust, viver, sirtlon, shoqollar yashaydi.

Tanzaniya



Poytaxti: Dodoma

Maydoni: 945,1 ming km²

Aholisi: 39 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: suaxli, ingliz tillari

Aholisining diniy

tarkibi: xristianlar – 46%, musulmonlar – 35%, animistlar – 19%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Tanzaniya shillingi



Mahalliy Masai qabilasining vakili

Umumiy ma'lumotlar

Tanzaniya Birlashgan

Respublikasi – Sharqiy Afrikadagi davlat. Birlashgan mustaqil davlat sifatida 1964-yilda tashkil topdi.

Davlat boshlig'i – prezident.

Tanzaniya – Hamdo'stlik a'zosi.

Mamlakatda 130 dan ortiq etnik guruh yashaydi.



Xo'jaligi

Tanzaniya – dunyoning eng kambag'al mamlakatlaridan biri. Iqtisodiyotning asosi – qishloq xo'jaligi (bu soha bilan faol aholining 85 foizi mashg'ul). Shunga qaramay mamlakat o'zini mahsulot bilan ta'minlay olmaydi. Aholi o'zi iste'mol qilishi uchun makkajo'xori, tariq, guruch yetishtiradi, shuningdek, baliqchilik bilan shug'ullanadi. Bu mamlakatda chorvachilik mahsuldor emas, holbuki chorva mollari juda ko'p.

Kilimanjaro vulqoni – Afrikaning eng yuqori nuqtasi

Sher – Afrika hayvonot olamining tipik vakili



Tanzaniyada oltin, olmos, qimmatbaho toshlar, marmar qazib olinadi. Qimmatbaho yog'och-taxta tayyorlanadi, agrar mahsulotlar qayta ishlanadi, yog'och buyumlarga ishlov beriladi, neft mahsulotlari, o'g'it va sement ishlab chiqariladi. Asosiy eksport mahsulotlari: choy, tamaki, sizal, paxta, qalampirmunchoq va kanakunjut moyi, ma'danli xomashyo va qator sanoat mahsulotlari.

Togo



Poytaxti: Lome

Maydoni: 56,6 ming km²

Aholisi: 6,6 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy tarkibi:
animistlar – 50%, xristianlar – 35%, musulmonlar – 15%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Afrika franki



Togoda marmar
qazib olishadi

Umumiy ma'lumotlar

Togo Respublikasi – G'arbii Afrikadagi davlat. Avval nemis mustamlakasi, so'ng fransuz boshqaruv ostidagi hudud bo'lgan. 1960-yil mustaqillikka erishgan. Davlat boshlig'i – prezident. Aholi 45 ta etnik guruhdan iborat.

◆ Mahalliy aholi baliq tutish uchun turli konstruksiyadagi to'rlardan foydalanadi



Tabiatি

Relyefida to'lqinsimon tekisliklar va platolar ko'p joy egallagan. Hududning shimoliy qismini qoyali yassitog'lik egallagan.

Togoni janubida ikki mavsum yomg'ir yog'adi ikki mavsum quruq bo'ladi. Iqlim mamlakatning shimoliy

qismida issiq, yomg'irli yoz va qish faslida quruq bo'ladi.

Togo turfa landshaftlarga boydir: baland o'tli savannalar va o'mon savannalari, moy palmazorlari bilan joy almashadi.

Tog' yonbag'irlarida va daryo vodiylarida doimiy yashil tropik o'rmonlar o'sadi. Mamlakatda fil, sher, qoplon, antilopa, maymun, ilonlar mavjud.

Xo'jaligi

Togo – agrar, tog'-kon sanoati rivojlangan davlat. Yuqori sifatlari fosforitlar – mamlakatning eng asosiy ma'dan boyligidir (Togo dunyoda fosforit qazilmalari va eksporti bo'yicha yetakchi o'rinnegallagan). Bundan tashqari marmar, dolomit, xrom, boksitlar, marganes, temir rudalari, olmos qazilmalari ham olinadi. Mamlakat hududida qo'rg'oshin, rux, uran, oltin, platina konlari aniqlangan. Qayta ishlash sanoati: agrar xomashyoni qayta ishlash, fosforitlarni boyitish, to'qimachilik, sement ishlab chiqarishni o'zida aks ettiradi.

Mahalliy ehtiyoji uchun makkajo'xori, tariq, sorgo, manion, loviya, guruch, meva-sabzavotlar yetishtiriladi. Togo o'zini to'liq dehqonchilik mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Chorvachilik bilan asosan ko'chmanchi qabilalar shug'ullanadi, shuning uchun go'sht chetdan olib kelinadi (asosan Burkina Fasodan). Aholi yovvoyi mevalar terish, ov qilish, baliqchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: fosfatlar (eksport qiymatini 42%), paxta, kakao-donalari, qahva, olmos, yeryong'oq, kopra, palma yog'i hisoblanadi.

Tunis



Poytaxti: Tunis

Maydoni: 163,6 ming km²

Aholisi: 10 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: arab tili

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 99%

Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: Tunis dinori



Baraban chalayotgan
musiqachi

Umumiy ma'lumotlar

Tunis, Tunis Respublikasi – Afrikaning shimolidagi davlat. 1956-yildan mustaqil davlat bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining deyarli 98% – kelib chiqishi arab berberlariga mansub bo'lgan tunisliklar.



Xo'jaligi

Tunis – iqtisodiyoti nisbatan rivojlangan davlat. Afrikaning boy davlatlaridan biridir. Uning hududida fosforitlar, neft va gaz qazib olinadi. Tunisda mahalliy hunarmandchilik va to'qimachilik, charm sanoatlari eksport uchun mahsulot chiqaradi. Mamlakatda fosfor o'g'ilalar, po'lat, avtomobillar, kemalar, elektr jihozlari va maishiy texnika, neft mahsulotlar, sifatli qog'oz (alfa o'ti asosida) chiqariladi. Agro xomashyoni qayta ishlash yo'liga qo'yilgan. Aholi zaytun, shakarqamish, paxta, apelsin, uzum, sabzavotlar, qovun yetishtiradi, vohalarda esa – xurmo va bodom yetishtiriladi. Aholi, shuningdek, chorvachilik, baliq va dengiz mahsulotlari ovi bilan ham shug'ullanadi. Mamlakatda sayyohlik industriysi rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: to'qimachilik, charm xomashyosi, fosfatlar, o'g'ilalar, oziq-ovqat, alfa o'ti, metallar, ma'dan xomashyosi.

Tabiat

Shimoli g'arbda Atlas tog'ining unchalik katta bo'lmagan tarmoqlari joylashgan. Janubroqda pog'onlardan iborat bo'lgan plato va keng tekisliklar joylashgan. Janubiy qismida Sahroi Kabir sahrosi yotadi u mamlakatni 1/3 qismini egallagan.


Tunis iqlimi shimolda-quruq, subtropik qish yumshoq-yomg'irli va issiq yoz fasli jazirama bo'ladi. Atlas tog'larida shamol va yog'ingarchilik ko'proq bo'ladi. Janubda jazirama issiq, tropik sahro va yarimsahro iqlimi kuzatiladi. Janubiy qism sahrolarida faqat tikanli butalar va lishayniklar, suv manbalari atrofida-vohalarda, xurmo palmalari, bodom daraxtlari o'sadi. Tunisda qoplonlar, tog' qo'yulari, to'ng'izlar, ohular mavjud.



Dugga (Duqqa)
shahridagi Kapitoliy
ibodatxonasi
vayronalari



An'anaviy naqshli gilamchalar –
sayyohlar uchun ajoyib esdalik
sovg'a



Uganda



Poytaxti: Kampala

Maydoni: 236 ming km²

Aholisi: 29 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili


Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 40% atrofida,
protestantlar – 30%,
musulmonlar – 15%, animistlar
– 15% atrofida

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Yangi Uganda
shillingi



Mahalliy aholi
bananlardan banan
uni, konserva,
sirop va vino
tayyorlashadi



Maktab
darslari

Umumiy ma'lumotlar

Uganda Respublikasi – Sharqiy Afrikadagi davlat. 1962-yil mustaqillikka erishdi. Davlat boshlig'i – prezident. Uganda – Hamdyostlik a'zosi. Etnik qatlamida 50 ga yaqin millat vakillari bor, ganda, soga, nyankal, teso shular jumlasidandir.

Xo'jaligi

Uganda – jadal rivojlanib borayotgan davlat. Mehnatga layoqatli aholining 82% qishloq xo'jaligida mehnat qiladi va bu YMning 36% ni tashkil etadi. Uganda mis, kobalt, slyuda va fosfat qazib olinadi. Bu yerda oziq-ovqat, kimyo, yog'ochsozlik qog'oz, sement sanoatlari rivojlangan va radioapparatura va muzlatgichlar yig'ish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Aholi qahva, choy, tamaki, paxta, shakar, qamish, guruch, makkajo'xori, kassavu, yeryong'oq, batat, sitrus mevalari, banan, sabzavotlar, gullar yetishtiradi. Bundan tashqari aholi baliqchilik va humarmandchilik bilan ham shug'ullanadilar. Mamlakatda qimmat navli yog'och tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilgan. Chorvachilik bilan shug'ullanadigan qabilalar sekin-asta o'troq hayot kechirishga o'tmoqda.

Asosiy eksport mahsulotlari: qahva (eksport qiymatini 50–90%), baliq va dengiz mahsulotlari, choy, paxta, oltin, gullar, sabzavotlar hisoblanadi.

Tabiat

Mamlakat hududining katta qismi, balandligi 900–1500 m bo'lgan Sharqiy Afrika yassi tog'larida joylashgan. Tepa tekisliklar va alohida orol shaklidagi platolar daryo vodiylari yordamida bo'lib tashlangan. Ugandani g'arb bo'ylab Ruvenzori tog' massivi joylashgan.



Uganda ekvatorda joylashgan bo'lsa ham, hududining balandlikda joylashganligi va yirik ko'llarni ta'siri iqlimi yumshatib turadi. Yomg'irlar asosan yozda yog'adi (o'rtacha yiliga 1000 mm).

Asosiy o'simliklari – savanna va o'rmon savannalari. Nam tropik o'rmonlar tog' etaklarida va yonbag'irlarida o'sadi. Milliy bog'larda fil, begemot, buyvol, antilopa, zebra va maymunlar bor. Qishloq atroflarida sher, qoplon yoki timsohni ko'rish mumkin.

Zebralar 10-30 a'zodan iborat uyur bo'lib yashaydi

Zambiya



Poytaxti: Lusaka

Maydoni: 75,3 ming km²

Aholisi: 12 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:

xristianlar – 50% ga yaqin,
musulmonlar (hinduiylar bilan
birga) – 24-49%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: kvacha




Termitlar bir necha millionlik jamaoa bo'lib yashaydi

Umumiy ma'lumotlar

Zambiya Respublikasi – Markaziy Afrikaning janubi sharqidagi davlat. 1964-yil mustaqillikka erishdi, unga qadar ingliz mustamlakasi bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident. Zambiya – Hamdo'stlik a'zosi.

Mamlakat aholisi tarkibida 14 etnik guruh vakillari istiqomt qiladi. Aholining ishlashga layoqatli qismining yarmi ishsizdir.



◆ Termit inlari – Zambiya landshaftining o'ziga xos jihat

Tabiat

Hududini katta qismini balandligi 1000-1500 yassitog'luk egallaydi, u o'zida alohida ajralib turadigan tog'lar va Afrikaning vayronalarini bir qismini tashkil etuvchi keng tektonik chuqurliklarni o'zida aks etadi.

Zambiya iqlimi yumshoq ekvatorial. Mamlakat hududini yarmi butalar va o'rmonlar bilan qoplangan: mavsumiy – nam tropik va quruq po'stlog'i ko'chadigan daraxtli o'rmonlar, qolgan yerlarda savannalar joylashgan. Hayvonot olamida begemot, zebra, jirafa, antilopa, fil, karkidon, arslon, qoplonlar va boshqalarni uchratish mumkin.



Xo'jaligi

YIM ning 57% – xizmat ko'rsatishga, 28% – sanoatga, 15% – qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Mamlakatni asosiy boyligi mis (dunyoda qazilmalari bo'yicha 3-4-o'rin) va kobalt (2-o'rin). Bundan tashqari mamlakatda rux, qo'rg'oshin, qalay, marganes, toshko'mir, oltin, kumush, akvamarin qazib olinadi. Sanoat tarmoqlari: metallurgiya, agrar xomashyoni qayta ishslash, tamaki mahsuloti (sigaret), qog'oz, shisha, kimyoviy mahsulotlar, neft mahsulotlari va boshqalar hisoblanadi.

Aholining 85% dehqonchilik, baliqchilik, o'rmon xo'jaligi va hunarmandchilik bilan shug'ullanadi. Qishloq xo'jaligi eksport ahamiyatiga ega emas, mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlay olmaydi.

Asosiy eksport mahsulotlari: kobalt, rux, simob. Tog'-kon sanoatiga eksport daromadining 90% to'g'ri keladi.

Zimbabwe



Poytaxti: Xarare

Maydoni: 390,8 ming km²

Aholisi: 13 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:

xristianlar – 25%, animistlar

– 24%, Afrika mustaqil

konfessiyalariga tegishli

afrikalik xristianlar – 50%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Zimbabve dollarri




Ko'plab Afrika qabilalari uchun muqaddas bo'lgan babuin ruhining haykali

Umumiy ma'lumotlar

Zimbabve Respublikasi –

Afrika janubidagi davlat. 1980-yil mustaqillikka erishgunga qadar Janubiy Rodeziya nomli o'zini boshqaradigan mustamlaka bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident.

Mamlakat ko'p millat vakillarini o'z ichiga olgan. Shona (71%) va ndebele (16%) millatlari ko'pchilikni tashkil etadi.



Katta Zimbabve arxeologik majmuasining konussimon minorasi



Zimbabve qabilalaridan birining haykali

Xo'jaligi

Zimbabve iqtisodiyoti – Afrikada eng rivojlanganlardan biri. 2004-yil YIM ni 25% – sanoatga, 17% – qishloq xo'jaligiga, 58% – xizmat ko'rsatishga to'g'ri keladi. Mamlakat foydali qazilmalarga boy. Oltin, asbest, nikel, toshko'mir, xrom, mis, temir rudasi, kobalt, kumush, qalay va qimmatbaho tosh qazib olinadi va eksport qilinadi. Eksportdan olinadigan foydani 1/3 qismini tog'kon sanoati tashkil etadi.

Mamlakatda oziq-ovqat, yengil, kimyo, neftni qayta ishlash, qora metallurgiya, mashinasozlik sanoatlari rivojlangan. Zimbabveda chorvachilik yaxshi rivojlangan va qadimiy hunarmandchilik san'atlari saqlanib qolgan.

Qishloq xo'jaligida mehnatga layoqatli aholining 66% mehnat qiladi, chet el valuta tushumini 2/5 qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Eksport qilinuvchi asosiy ekinlari: tamaki (foydani 30%), paxta, shakarqamish va atirgul, ularni Yevropaga olib chiqiladi. Makkajo'xori hosil yaxshi bo'lgan vaqtida asosiy ekinlardan biri hisoblanadi .

Tabiat

Deyarli butun mamlakat hududini Mata bele platosi egallaydi, uning balandligi 1100–1800 metr bo'lib, u shimolda, janubi sharqda, sharq tomonlaridan tog'lar bilan o'rالgan, u Zambezi, Limpopo va Sabi daryo havzalari tomon pasayadi. Mamlakat iqlimi shimolda – ekvatorial-mussonli, janubda – tropik. Yog'ingarchilik tog'li joylarda intensiv.

Mamlakatning katta qismini savannalar va quruq bargi to'kiluvchan daraxtli o'rmonlar egallagan. Tog'larning shimoliy qismi doimiy yashil tropik o'rmonlar bilan qoplangan.

Qo'riqxona va milliy bog'larda fil, sher, qoplon, buyvol, antilopa, zebra, jirafa, begemot, timsoh, to'ng'iz va maymunlar saqlanib qolgan.

G'arbiy Sahroyi Kabir

Ma'muriy markazi: El-Ayun

Maydoni: 266 ming km²

Aholisi: 500 ming kishi (2007)

Tillari: arab, berber tili

Aholisining diniy tarkibi: sunniy musulmonlar

Pul birligi: Marokash dirhami

Umumiy ma'lumotlar

G'arbiy Sahroyi Kabir – Afrikaning shimoli g'arbidagi davlat. Aholisining 70% marokashlik arablar, 30% berberlar, bularning 1/3 qismi – ko'chmanchilar.

1976-yilga qadar G'arbiy Sahroyi Kabir Ispan Sahroyi Kabiri deb nomlangan edi. 1976-yil ispanlar bu hududdan o'z harbiyalarini chiqarishdi va hududni shimoliy va markaziy qismlarini – Marokashga, Janubiy qismini – Mavritaniyaga bo'lib topshirib ketdi. 1976-yil Polisario partizanlik harakati mustaqil Sahroyi Kabir Arab Demokratik Respublikasini e'lon qildi, buni Marokash tan olmadi. 1979-yildan boshlab POLISARIO va Marokash o'rtasida harbiy harakatlar olib borildi va bu harakatlar 1991-yilda to'xtatildi.



Ko'chmanchilar cho'lda doim tuyu minib sayohat qilishadi

Tabiat

G'arbiy Sahroyi Kabir sahroli platoni (dengiz sathidan 350–460 m baland) egallaydi, u qurib qolgan. Janubda va shimoliy sharqda tog'lar joylashgan (Atlas tog' tizmasi qismlari). G'arbdagi qumli sahrolar sharqqa borib toshli hududga aylanadi. Doimiy oqar daryolar yo'q.

G'arbiy Sahroyi Kabir iqlimi tropik bo'lib, sovuq Kanar dengiz oqimi tomonidan nisbatan yumshatilgan.

Mamlakat vohalarida akatsiyalar, tamarisklar, tul, fig daraxtlari o'sadi. Qurg'oqchilik, qumli bo'ronlar, sirokko (garmsel), beshiktervarlar hujumi bo'lib turadi.

Hayvonot olami vakillari: odatda sudralib yuruvchilar va kichik kemiruvchilar uchraydi. Qirg'oq atrofidagi suvlar baliqlarga boy.

Sahroyi Kabir cho'lining bepoyon qumliklari



Xo'jaligi

G'arbiy Sahroyi Kabirda fosforitlar olinadi (dunyoda zaxiralari bo'yicha 4-o'rin egallaydi) va okean shelfidan neft qazib olish ishlari yo'lga qo'yilmoqda. Dehqonchilik yaxshi rivojlanmagan. Vohalarda bug'doy, arpa, sabzavotlar, xurmo, zaytun, mevalar yetishtiriladi. Sahrolarda ko'chmanchi chorvachilik (tuya, qo'y) rivojlangan. Aholi baliqchilik (Daxla – asosiy bandargoh) va mahalliy hunarmandchilik bilan shug'ullanadi. Mamlakat fosforitlarni eksport qiladi.

Chad



Poytaxti: Njamena

Maydoni: 1,3 mln. km²

Aholisi: 11 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: fransuz, arab tillari

Aholisining diniy tarkibi:
musulmonlar – 50%, xristianlar – 35%, mahalliy maslaklarga e’tiqod etuvchilar – 15%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Afrika franki



Saqoqushlar Chad ko‘lida yashaydi


Podachilar tuyalarini Arshen qoyalari orasidan olib o’tib suv havzasiga olib kelishmoqda

Tabiat

Mamlakatni katta qismini yassi chuqurliklardan iborat bo‘lgan tekisliklar va platolar egallagan. Sharqda tepalik ko‘tarilib boradi, shimolda qadimiy Tibesti tog‘ tizmasi bor.

Chad iqlimi tropik, issiq (harorat 50°C boradi); janubda – ekvatorial mussonli qishda quruq, yozda – yomg‘irlar mavsumi.

Yagona Shari daryosi – Chad ko‘liga kelib qo‘shiladi. Sahroyi Kabir sahrosini qum va toshli o‘simgiliklari, janubga kelib qurib borayotgan savanna o‘simgiliklari bilan almashadilar. Janubni eng chekkasida baland bo‘yli savannalar, bu yerlarda yirtqichlar yashaydi. Daryo, ko‘l qirg‘oqlarida begemotlar va timsohlar yashaydi.




Umumiy ma’lumotlar

Chad, Chad Respublikasi – Markaziy Afrikadagi davlat, fransiya mustamlakasi bo‘lgan, 1960 yilda mustaqillikka erishgan. Davlat boshlig‘i – prezident. Mamlakatda 140 ortiq xalqlar yashaydi: sara va bagirlilar – 30%, arablar – 15%, qolGANI tubv, maba, xausa va boshqalar.

Xo‘jaligi


Chad iqtisodiyoti ko‘p yil davom etgan fuqarolar urushidan katta talofat ko‘rgan. Qishloq xo‘jaligida mehnatga layoqatlari ahолining 80% mehnat qiladi, ulardan 2/5 chorvadorlardir. Aholi paxta yetishtiradi (valuta tushumlarini 70%). Bundan tashqari tariq, sorga, guruch, shakarqamish, yeryong‘oq, makkajo‘xori, maniok yetishtiriladi, vohalarda esa xurmo palmasi, uzum, bug‘doy o‘sadi. Chad ko‘lida va Shari daryosini pastida baliqchilik rivojlangan. Mamlakatda hunarmandchilik rivojlangan.





Chadda Tur Xeyerdalning mashhur «Ra» kemasi qurilgan. Paxta, shakarqamish yeryong‘oq, baliqlarni qayta ishlash yo‘lga qo‘yilgan. Mamlakatda soda, osh tuzi, kaolin, ohak qazib olinadi. Asosiy eksport mahsulotlari: paxta urug‘i va tolasi, chorvachilik mahsulotlari va tirik mol, gummiarabik, soda, osh tuzi hisoblanadi.

Ba’zi
timsohlarning
uzunligi
6 metrga
yetadi

Qadimiy
g’ordagi devorga
tushirilgan surat



Amerika



Shimoliy Amerika

Amerika

Amerika – dunyoning olti qit’asidan biri. U G’arbiy yarimsharda, Tinch okean (g’arbda) va Atlantika okeani (sharqda) orasida joylashgan. Shimolda Shimoliy Muz va Janubda Janubiy okeanlar bilan o’ralgan. Ular orasidagi chegara tor Panama bo‘yini bo‘ylab o’tadi. Amerikaga dunyodagi eng yirik Grenlandiya oroli ham tegishlidir. Amerikaning umumiy maydoni – 42,5 mln. km².

Shimoliy Amerika tarkibida ko‘pincha Markaziy Amerika (tropik kengliklarda Tinch va Atlantika okeani orasida joylashgan; shimoliy chegara hududlari Balsas daryo vodiylari hisoblanadi. Janubiy chegara Panama janubidagi Duren bo‘yini bo‘ylab o’tadi) va Vest-Indiya (Bagam, Kuba, Trinudad, Tobago va boshqalar).

«Amerika» nomi lotaringlik xaritachi Martin Valdzemyuller tomonidan qo’llanilgan. 1507-yil uning «Kosmografiyaga kirish» kitobida bu nom ishlataligancha. Unga florensiyalik Ameriko Vespuuchchi tomonidan birinchi bor G’arbiy yarim sharlikdagi ochilgan yerlar dunyonni yangi qismi ekanligini taxmin qilgan. Martin Valdzemyuller bu yerkarni o‘z kitobida Amerika nomi bilan atagan.

Shimoliy Amerika

Shimoliy Amerika, G’arbiy yarimshardagi qit’ a – Amerikaning shimoliy qismi. Qit’ a maydoni – 20,36 mln, km². Shimoliy Amerika tarkibiga: Grenlandiya, Kanada arktik arxipelagi, Aleksandr arxipelagi, Aleut, Bermud, Sen-Per, Mikelon va boshqa orollar kiradi.

Relyefi

Shimoliy Amerika qirg‘oqlari tekis emas, egri-bugridir bularga : Grenlandiya, Kanada, Arktika arxipelagining sharqiy qismi, Janubiy Alyaska va Kanadaning Tinch okean qirg‘oqlari misol bo‘ladi. Atlantik okeani 41° shimoliy kenglikning Janubiy qirg‘oqlari pastlikdir.

Qit’ aning o‘rtacha balandligi 720 m. Uning katta qismini Shimoliy Amerika platformasi egallagan, unda turli tog‘ massivlari tizmasi joylashgan (qit’ aning yuqori cho‘qqisi Makki tog‘lari, 6194 m), Sharqda keng tekisliklar, tepaliklar, plato va o‘rta balandlikdagi tog‘lar joylashgan. Ichki hududlarda baland tekisliklar va nisbatan kichik Markaziy tekisliklar bor: shimoli sharqda Lavren tepaligi Qit’ aning sharqiy qismida – Labrador tog‘ ko‘tarilishi va Appalachi tog‘lari joylashgan. Janubiy-sharqiy qirg‘oqlarida – Atlantika oldi va Meksika oldi tekisliklari joylashgan. Qit’ aning g’arbiy qismiga vulqonli tog‘lar xosdir: Aleut tog‘ tizmasi, Vrangel massivi, Kaskad tog‘lari va ko‘ndalang Vulqon Serra shular jumlasidandir. Bu yerda harakatdagi vulqonlar ko‘p: Vrangel, Lassen-Pin, Popokatepel va boshqa Zilzilalar bo‘lib turadi. Qit’ a foydali qazilmalarga boy: temir rudasi, nikel, kobalt, oltin, uran, toshko‘mir, neft, tabiiy gaz, kaliy tuzlari, fosfatlar.

Hayvonot va o‘simpliklar dunyosi

Qit’ a hududining 1/3 qismini o‘rmonlar qoplagan. Markaziy qismida ignabarglilar, sharqda – aralash, keng barglilar va doimiy yashil o‘rmonlar, g’arbiy qirg‘oqlarda – Tinch okean sekvoyali ignabargli o‘rmonlar bor. Uzoq Shimolda katta yerkarni tundralar egallagan. Janubda Buyuk tekisliklarda – dashtlar ichki Kordilerlarni janubiy qismini dasht va yarimsahrolar egallagan.

Hayvonot olamida ko‘p endemik turlar bor: qo‘y, buqa, onlatlar, grizli ayig‘i, skuns, jayralar mavjud. Qolganlari Yevropa va Osiyonikiga o‘xshash.

Hindu qabilalaridan birining «homisi» hisoblangan to‘tiqush patlariidan yasalgan yelpig‘ich



Iqlimi

Qit’ a iqlimi Uzoq Shimoldagi Arktikdan Janubdagagi tropikkacha, ichki hududlarida kontinental iqlim hukm suradi, g’arbiy va sharqiy qirg‘oqlarda haroratlari shimoldagi Kanada Arktik arxipelagidagi – 36°C dan Florida va Meksika tog‘ tizmalarining janubidagi 20°C gacha. Iyulni o‘rtacha harorati Kanada Arktik arxipelagidagi –4°C dan AQShni janubi g’arbidagi – 32°C gacha.

Shimoliy Amerika Tinch okean qirg‘oqlarida yog‘ingarchilik yiliga 2000–3000 mm. Janubiy-sharqiy yerdarda 1000–1500 mm, Markaziy tekisliklarda 400–1200 mm gacha yog‘adi; Kordiler ichki subtropik va tropik hududlarda yog‘ingarchilik 100–200 m yog‘adi.

Daryo va ko‘llar

Shimoliy Amerikaning yirik daryolari: Missisipi Missuri tarmog‘i bilan; avliyo Lavrentiy, Makkenzi, Yukon, Kolumbiya, Kolorado, Rio-Grand. Qit’ anı shimoliy qismida joylashgan. Ko‘llari esa, Winnipeg, Buyuk ko‘llar, Katta ayiq, Atabask va boshqalar hisoblanadi.

SHIMOLIY AMERIKA



Antigua va Barbuda



Poytaxti: Sent-Jons

Maydoni: 443 km²

Aholisi: 100 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili


Aholi diniy tarkibi:

anglikanlar – 90%,
katoliklar – 10%

Davlat tuzumi:

Hamdo'stlik tarkibidagi
mustaqil davlat

Pul birligi: Sharqiy Karib
dolları



Fregatlarning
qanotlari oson
nam bo'ladi.
Ular suvda dam
ololmaydi

Tabiatı

Antigua oroli vulqonli tepaliklardan
va marjonli ohaklardan tashkil topgan.
Undan 40 km shimalda Barbuda oroli
joylashgan. Barbuda yassi marjonli orol,
plajlari va marjon riflari bor. Mamlakat
hududida zilzilalar va kuchli shamollar
bo'lib turadi.

Iqlimi tropik dengiz, passatlı. Antigua
orolida ichimlik suvi yetishmaydi
(dengiz suvi distillatsiya orqali olinadi).



Antigua va Barbudada chiqariladigan
pochta markalari

Umumiy ma'lumotlar

Antigua va Barbuda – Karib dengizining sharqiy qismidagi orolda
joylashgan davlat. U Antil orollari arxelagining bir qismidir. O'zini tarkibiga
Antigua va Barbuda, hamda bir qator kichik orollar kiradi. Ilgari mamlakat
Buyuk Britaniya qaromog'ida bo'lgan, 1981-yildan boshlab mustaqil davlat.

Aholi qatlamida negrlar va mulatlar ko'pchilikni tashkil qiladi hamda
(95%), bundan tashqari inglizlar, portugallar, suriyaliklar hamda livanliklar
bor.

Antigua va
Barbuda
orollari oq
va tillarang
marjonli
qumlari bilan
mashhur



Xo'jaligi

YIMning 77% – xizmat ko'rsatish sektoriga, 19% – sanoatga, 4% – qishloq
xo'jaligi va baliqchilikka to'g'ri keladi. Mamlakat iqtisodiyotining asosi – turizm.
2000-yil mamlakatni 237 ming sayyoh ziyorat qilgan.

Antigua va Barbudada rom, vinolar, shakar, patokimelassa, kokos va paxta
yog'i ishlab chiqariladi; sanoatda elektrotexnika va elektronika yig'ish, optik
linzalar ishlab chiqariladi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari: sement, mebel,
trikotaj, to'qimachilik.

Aholi shakarqamish, paxta, tropik mevalar, sabzavotlar yetishtiradi. 1980-yil
shakarqamish yerlari qisqartirildi. Shakar sanoati inqirozga yuz tutdi. Aholi baliq
va omarlar (qisqichbaqalar) ovi bilan ham shug'ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: gazlamalar, kiyim, elektron jihozlar.

AQSh



Poytaxti: Vashington

Maydoni: 9518,9 ming km²

Aholisi: 302 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy

tarkibi: protestantlar – 56%, katoliklar – 28%, musulmonlar – 2%, yahudiylar – 2%

Davlat tuzumi: Federativ Respublika

Pul birligi: AQSh dollari



Umumiy ma'lumotlar

Amerika Qo'shma Shtatlari, AQSh – Shimoliy Amerikadagi davlat. Uning tarkibiga 50 shtat va Federal Kolumbiya okrugi kiradi. Davlat boshlig'i – prezident. AQSh mulklari – Karib dengizidagi Puerto-Riko oroli (o'z xohishi bilan qo'shilgan davlat maqomiga ega) va Vest-Indiya va Tinch okeanidagi bir qancha kichik orollar va arxipelaglar kiradi.

2003-yil Irqiy etnik aholi qatlami: oq tanli amerikaliklar – 80,4%, qora tanli (afroamerikaliklar) – 12,8%, amerikalik hindular, aleutlar, eskimoslar – 1%, Osiyo va okeaniyadan kelganlar – 4,3%, mulatlar, metislar – 1,5%, kelib chiqishi Lotin Amerikalik bo'lgan va (turli irq) – 13,7%.

2000-yil aholini qayta ro'yxatdan o'tkazish paytlarida fuqarolar kelib chiqishlarini quyidagicha ifodalaganlar: «inglizcha» – 37, «nemis» – 43, «irlandcha» – 31, «fransuzcha» – 11, «ruscha» – 2,7.

Buyuk Britaniyaning Shimoliy

Amerika hududidagi mustamlakalarda ozodlik uchun kurash boshlangan vaqtida 1776-yil bu yerlar mustaqillikka erishdi va Amerika Qo'shma Shtatlari davlati bo'ldi.

Mamlakatni yutuqlaridan yana biri Napoleon Bonapartdan 1803-yil Fransiya mustamlaka yerlari Missisipi daryosi g'arbida qurilganda shaharlar va XIX asr o'rtaida Meksikaning keng joylarini qo'lga kiritdi. U yerlardagi tub aholi hindular qirib tashlandi. 1867-yil Rossiyadan 7,2 mln. dollarga Alyaskani xarid qildi.

1861–1865-yil Janub va Shimol o'rtaсидаги fuqarolar urushi natijasida qulchilik bartaraf etildi.

XIX-XX asrlarda kapitalizm rivojlanishi AQSh ni dunyoda rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqdi. Ikki jahon urushida ishtirot etishi mamlakatni jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rinnegallashiga sabab bo'ldi.



Ozodlik haykali (balandligi 46 m) AQSh Mustaqillik deklaratsiyasining 100 yilligi munosabati bilan o'rnatalgan

Tabiat

AQSh hududini asosiy qismi Shimoliy Amerikani subtropik va mo‘tadil mintaqalarida joylashgan, Atlantika okeandan to Tinch okeanigacha cho‘zilgan. Alyaska subarktik va arktik mintaqalarida joylashgan, uni Tinch va Shimoliy muz okeanlari yuvib turadi.

AQSh hududini asosiy qismini (g‘arbda) baland tog‘ tizmalari, yassitog‘liklar va va Kordiler platosi egallagan. Kordilerni sharqiy qismini balandligi 400 m bo‘lgan qoyali tog‘lar tizmasi tashkil qiladi, g‘arbiy qismini esa – qirg‘oq tizmalari tashkil qiladi.


Mamlakat sharqida baland bo‘lmagan Appalachi tog‘lari joylashgan. Kordiler va Appalachi orasida – keng ichki tekisliklar o‘rin egallagan. Atlantika okeani va Meksika ko‘rfazi qirg‘oq bo‘ylarida Atlantika oldi va Meksika past tekisliklari joylashgan.

Mamlakat hududining katta qismida iqlim – mo‘tadil, subtropik, kontinentaldir, Tinch okeani qirg‘oqlarida – dengiz iqlimi, Atlantika qirg‘oqlarida – kontinental dengiz iqlimidir. Florida janubida esa – tropik iqlim, Alyaskani shimalida – arktik iqlimlar.

O‘rtacha yanvar harorati: – 24,8°C va – 18°C dan markaziy shimoliy tekisliklarda to 12°C gacha mamlakatni janubi g‘arbiy qismida yoki +20°C Florida orolida.

Iyul o‘rtacha haroratlari: g‘arbiy qirg‘oqlarda 14-22°C, sharqiy qirg‘oqda 16-22°C. Ichki platoni janubiy mintaqalarida yassitog‘liklarda 32°C gacha. Eng yuqori harorat 56°C (g‘arbiy yarim sharlikda) Kalifornyaning janubi sharqidagi O‘limlar vodiysida qayd etilgan.

AQShda eng ko‘p yog‘ingarchilik miqdori (10 ming mm ko‘proq) Gavayi orollarida yog‘adi, eng kami (100 m kamroq) – Kalifornyaning janubidagi Moxave sahrosida. AQSh hududiga deyarli Shimoliy yarim sharlikning barcha



Brays darasi – Yuta shtatining janubida joylashgan AQSh milliy bog‘i. U o‘zining yovvoyi tabiat bilan kishini hayratga soladi. Barcha sayyoohlarning ushbu ajoyib toshli o‘rmonni ko‘rish imkoniyati bor. Daraning nomi 1874-yilda bu yerda ilk bor chorvadorlik fermasini yurgazishga harakat qilgan, lekin ishi kasodga uchragan kovboy sharafiga qo‘yilgan

tabiat zonalari kirgan. Alyaskada – arktik sahrolar, tundralar va o‘rmon tundralari joylashgan. Shimoli sharqiy hududlarni asosiy qismida – ignabargli va aralash o‘rmonlar, janubroqda keng bargli va subtropik o‘rmonlar joylashgan. G‘arbda Markaziy tekisliklarda – baland o‘tli preriylar (hozirgi paytda chopib tashlangan), tekisliklarda osha quruq dashtlar joy olgan. Kordiler tog‘lari ignabargli o‘rmonlar bilan qoplangan.

Ichki platolar uchun dasht va sahro o‘simlik dunyosi xosdir. AQSh da 300 yaqin qo‘riqlanadigan tabiat hududlari (milliy bog‘lar, milliy yodgorlik obidalari, qo‘riqxonalar va boshqlar) mavjud.




AQShda temiryo‘l qurila boshlagandan keyin odamlar bizonlarni vahshiyarcha qirishga kirishdi. 1895-yilga kelib ko‘p millionli podalardan atigi 800 ta bizon qoldi



Yellowstoun bog‘ida (Vayoming shtati) joylashgan geyzer

Sanoatning yuqori texnologiya sohalarida shartli sof mahsulot ishlab chiqarilishining alohida mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha tasnifi (1997-yil narxlari bo'yicha mlrd. dollarda ko'rsatilgan)



Xo'jaligi

AQSh – iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli davlat. Uni harbiy budjeti qolgan dunyo mamlakatlarini harbiy budjetlari yig'indisiga teng YIM 2003-yil 11 trln. doll. (taxminan dunyonи 1/4) tashkil qiladi. YIM strukturası mamlakat iqtisodiyotini postindustriyasi tasnifini ifoda etadi: qishloq va o'rmon xo'jaligi – 1,0%, tog'-kon sanoati – 1,2%, qayta ishlash sanoati va quruvchilik – 17,1%, xizmat ko'rsatish – 80,7%.

Xizmat ko'rsatish sektori o'z ichiga: ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, aloqa, transport, moliya, savdo-sotiq, davlat xizmatlarini kiritadi. Shularning ichida sog'liqni saqlash va ijtimoiy dasturlarga YIM ni 6,8% sarflangan (dunyoda yetakchi o'rnlardan biri) NIOKR – 2,1% .

Tog'-kon sanoatida fosforitlar, oltingugurt (dunyoda 1-o'rin), tabiiy gaz, toshko'mir, mis, rux, oltin (2-o'rin), neft, qo'rg'oшин, uran (3-o'rin), kaliy tuzlari, kumush qazib olinadi. Shu bilan bir qatorda ma'dan xomashyoni bir qismi import (neft masalan 65%) hisobiga qoniqtiriladi. Elektr-quvvat ishlab chiqarish yiliiga 3,7 trln. kv.s. Shularning 72% – IES, 6% – GES ga, 21% – AES ishlab chiqaradi.

Qayta ishlash sanoatida yuqori texnologik va fan taraqqiyotiga asosan tarmoqlar ajralib turadi: elektron aviatsiya va raketa-kosmos sanoati, farmatsevtika, asbob-uskunalar yasash va AQSh ni milliy g'ururi bo'lgan avtomobilsozlik

shular jumlasidandir. Mamlakat uchun odatiy bo'lgan tarmoqlar (metalluriya, kemasozlik, to'qimachilik, tikuvchilik, teri-poyabzal sanoatlari) va maishiy texnika asboblari ishlab chiqarilishi – o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Barqarorlikda kimyo va neftni qayta ishlash sanoatlari, turli texnologik jihozlarni ishlab chiqarilishi katta ahamiyatga ega. Oziq-ovqat sanoatida yarim fabrikat, konservalar, muzlatilgan mahsulotlar, sharbatlar, vino va alkogolsiz ichimliklar hissasi o'sib boryapti. Umuman olganda


AQSh dunyosi qayta ishlash sanoati mahsulotlarini 25% va ilmiynamo mahsulotlarini 46% ishlab chiqaradi.

AQSh iqtisodiyotida postindustrial holatda ekanligiga qaramay dunyoda eng yirik qishloq xo'jaligi mollarini ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlat bo'lib qolyapti. Mamlakat dunyoda bug'doy, makkajo'xori, soya eksport bo'yicha 1-o'rin, paxta eksport bo'yicha – 2-o'rin, guruch eksporti bo'yicha 3-o'rinni egallagan. Makkajo'xori, soya, uy parrandalari go'shtlarini ishlab chiqarish bo'yicha AQSh dunyoda 1-o'rinni egallagan. Bug'doy, mol, cho'chqa go'shtlarini ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinni egallagan.

Yaxshi iqlimiylar sharoitlar va mamlakatni turli mintaqalarida joylashuvi katta spektordagi o'simliklar turlarini yetishtirishga imkoniyat yaratadi: donllilar, dukkakli o'simliklar, yog'lilar (moyli), paxta, tamaki, shakarqamish, kartoshka, meva, sabzavotlar, uzum, sitrus mevalar, poliz ekinlari shular jumlasiga kiradi.

Asosiy eksport mahsulotlari: yuqori texnologik mashinasozlik mahsulotlari, transport vositalari (shu jumladan avtomobillar, fuqaro va harbiy samolyotlar), kimyoviy mahsulotlar (farmatsevtika vositalari ham), oziq-ovqat.

AQShda avtomobilsozlik yuqori darajada rivojlangan





Gavayi orollari xorijlik sayyoohlarni o'zining ekzotikasi bilan hayratga soladi



Disneylenddagi sehrli qasr. Ilk Disneylend 1955-yilda Kaliforniyada ochilgan edi.

Diqqatga sazovor joylari

2004-yil mamlakatni 46 mln. sayyoh ziyorat qildi. Sayyoohlilik obyektlarining eng mashhurlari: milliy bog'lar va tabiat obyektlari: Yellowston parki Vashington shtatida (Old-Feytful katta geyzeri, ko'plab issiq suv manbalari); Arizona shtatidagi Katta Dara (chuqurligi 1700 m gacha, eni 6-29 km gacha, bo'yisi – 320 km gacha); Florida shtatida Evergley (557 ming ga yer va suv kengliklari, subtropik yovvoyi tabiatini saqlanib qolgan, mangr o'simliklari, noyob qushlar turi va tropik o'simlik dunyosi); Kaliforniya shtatidagi Redvud (sekvoyazorlar – dunyoda eng uzun daraxtlar balandligi 112 m gacha, diametri 10 m gacha yoshi 3000 dan ziyod); O'lim vodiysi (dengiz sathidan 85 m Pastda); Texas shtatidagi Big-Bend (orol yovvoyi g'arb daralari,

sahro o'simliklari va hayvonlari bilan); Gavayi shtatidagi Gavayi vulqonlari, Yangi Meksikadagi Niagara sharsharasi, Karlebad g'orlari va boshqalar hisoblanadi.

Tarixiy-madaniy obidalar: Ozodlik haykali, BMT shtab kvartirasi, Brodvey teatrлari, Manxetten osmono'par binolari, Metropoliten – opera teatri, Metropoliten muzeyi, Rokfeller – markazi Uol-strit birjalari bilan, Kanegi-Xoll, Bruklin va J.Vashington ko'priklari, A.Linkoln memoriali, Kapitoliy, Oq Uy, Kongress kutubxonasi, Gollivud kinostudiylari, Beverli-Xilzdagagi aktyorlar uylari, Disneylend parki, dunyoda eng yirik akvarium va boshqalar hisoblanadi.

Chet el sayyoohlardan tashqari bu yerdagi o'z aholisi ham Kaliforniya, Florida, Gavayi va boshqa dengiz kurortlarida dam olishni yaxshi ko'radir.



Vashingtonda Kapitoliydan baland bino qurish ta'qilanganadi



O'tkir uchli va yuqori poshnali etiklar kovboya otni niqtash uchun xizmat qiladi. Shimdag'i charm qatlamlari tikanli buta va shoxlardan himoya qiladi

Bagama orollari



Poytaxti: Nassau

Maydoni: 13,9 ming km²

Aholisi: 300 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz

Aholisining diniy tarkibi:

protestanlar – 76%,
katoliklar – 19%

Davlat tuzumi: Hamdo'stlik
tarkibidagi mustaqil davlat

Pul birligi: Bagama dollari



Junkanoo bayramini nishonlash

Umumiy ma'lumotlar

Bagama orollari Hamdo'stligi – Vest Indiyadagi davlat. Florida yarimorolidan janubi sharqda va Kuba orilidan shimoli sharqda joylashgan. Arxipelag shimoli g'arbdan janubi sharqqacha 1500 km cho'zilgan bo'lib, o'z ichiga 700 ga yaqin orollarni oladi (29 tasida aholi yashaydi). Bagama orollari 1973-yil mustaqillikka erishdi.

Xo'jaligi

YIMning 90% – xizmat ko'rsatishga, 7% – sanoatga, 3% – qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Iqtisodni asosini turizm ofshar moliyaviy xizmat ko'rsatish, «arzon bayroqlavr ostida» dengiz kemalarini ro'yxatga olish tashkil qiladi.

Nassau – dunyoni moliyaviy va sug'urta biznesining asosiy markazlaridan biridir. Orollarda 430 ofshor banklari ro'yxatdan o'tkazilgan, bularni bari 36 davlatni yirik banklarini kichik bo'linmalaridir: 40 ming ofshar moliyaviy, xolding, sug'urta, investitsion, kema kompaniyalari va elektron pochta domentlarini beruvchi tashkilotlar. Bu biznes turlarini rivoji, daromaddan soliq ushlamasligiga va ko'chmas mulk solig'ini kichik bo'lishiga yordam beradi. Cement, neftni qayta ishslash, farmatsevtik, parfumeriya, selluloza-

Bagama orollariga kelgan sayyoohlар mammuniyat bilan yaxtalarni ijara ga olishadi. Bu - dengizdan turib tabiat go'zalligidan bahramand bo'lishning ajoyib imkoniyati



qog'oz, shakar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari bor. Aholi shakarqamish (nisbatan kamaydi), sizal, banan, pomidor, ananas, sitrus, mango va qovun yetishtiradi. Mamlakatda parrandachilik, baliqchilik, o'rmon xo'jaligi, rom ishlab chiqarish, esdalik sovg'a buyumlar yasash rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft mahsulotlari, dori-darmon, parfumeriya, rom, sement, tuz, langustlar, meva va sabzavotlar, qimmat navli yog'och turlari hisoblanadi.

Tabiat

Orollar marjon va rif ohaklaridan tashkil topgan suv tepaliklarining tepe qismi hisoblanadi. Orollar sathi tekis. Mamlakat hududida Karst hodisasi tarqalgan.

Bagama orollari iqlimi tropik, passatl. Mamlakatda ichimlik suvi yetishmaydi. Sharqda doimiy yashil tikanli butalar, kaktuslar, aloelar; markaziy qismda qarag'ay o'rmonlari; qirg'oq bo'yalarida mango o'simliklari o'sadi.

Barbados



Poytaxti: Brijtaun

Maydoni: 431 km²

Aholisi: 300 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholi diniy tarkibi:

protestantlar – 67%,
katoliklar – 4%


Davlat tuzumi: Hamdo'stlik
tarkibidagi mustaqil davlat

Pul birligi: Barbados dollori



Diqqatga sazovor joylari

Barbados – G'arbiy yarim sharlikdagi eng chiroyli tabiatga ega joy, o'ziga ko'plab sayyohlarni jalg etadi. Orolning asosiy boyligi – oq mayda qumli plajlar va ular yonidagi osmono'par otel binolari, pansionatlar, kichik villalar, golf va kriket klublari.



Yam tugunaklarini kartoshka singari ovqatga solib ishlatishadi

Xo'jaligi

YIMning 78% – xizmat ko'rsatishga, 16% – sanoatga, 6% – qishloq xo'jaligi va baliqchilikka to'g'ri keladi. Barbadosda ofshor banklar, sug'urta kompaniyalari, provayder firmalar faoliyat yuritadi. Mamlakat hududida neftni qayta ishlash zavodi bor; tabiiy gaz qazib olinadi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari elektr (import qismlarni yig'ish), farmatsiyika, tekstil va tikuvchilik, tamaki, shakar sanoati (rom uchun shakar ishlab chiqarish).

Aholi shakarqamish, yeryong'oq, tamaki, sitruslilar, banan, paxta yetishtiradilar; qo'y, cho'chqa, yirik shoxli mol ko'paytiradi va baliqchilik bilan shug'ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: shakar, patoka – melassa, rom, kesilgan gullar, kiyim, elektron qismlar hisoblanadi.

Tabiat

Barbados oroli marjon ohaklaridan tashkil topgan, uning hududida karst hodisasi tarqagan. Shimoli sharqda qirg'oq okean bilan tutashadi. Qolgan qirg'oqlarida – oq qumli plajlar joylashgan.

Mamlakat iqlimi tropik, passatl, issiq. Kuchli to'fonlar bo'ladi. Tropik o'rmonlarning katta qismi shakarqamish plantatsiyalari uchun chopib tashlangan. Anjir daraxtlarini «soqolli» ko'rinishi tufayli orol Barbados deb nomlangan. Bundan tashqari maxagon daraxtlari, tamarind, kokos, vekirol palmalari o'sadi.

Umumiy ma'lumotlar

Barbados – Vest-Indiyadagi davlat. Antil orollari arxipelagida Barbados – eng sharqiyo oroldir (Arxipelagdan 160 km sharqda joylashgan). 1966-yil Buyuk Britaniya mulki hisoblangan, so'ng mustaqilliga erishgan. Aholining 75% – negrlardir, 20% – mulatlar, 5% – yevropalik va hindular avlodlari tashkil etadi.



Barbados orolidagi ajoyib plajlar bu yerga ko'plab xorijlik sayyohlarni jalg qiladi

Beliz



Poytaxti: Belmopan
Maydoni: 23 ming km²
Aholisi: 300 ming kishi (2007)
Rasmiy tili: ingliz tili
Aholi diniy tarkibi: katoliklar – 50%, protestantlar – 27%
Davlat tuzumi: Hamdo'stlik tarkibidagi mustaqil davlat
Pul birligi: Beliz dollari

Tabiat

Mamlakat shimolida botqoqlashgan tekislik yotadi: janubda – Maya tog'lari, chuqur vodiylari karst platosi. Dengiz qirg'oqlari bo'ylab himoya riflari shimaldan janub tomon cho'zilgan. Avstraliya rifidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi.

Beliz iqlimi tropik, namli va jazirama issiq. 1970–1972-yil bo'lgan kuchli bo'ronlar mamlakat poytaxtini dengiz qirg'oqlaridan qit'ani o'rtasiga ko'chirilishiga sabab bo'ldi. Hududni 92% – nam tropik o'rmonlar bilan qoplangan (shimolda – ignabargli, qizil va temir daraxtlari, janubda – eman, qarag'ay kedr).



Milliy libosdagi kreolka qo'g'irchoq. Uning qo'lida mamlakat bayrog'i bor

Umumiy ma'lumotlar

Beliz – Markaziy Amerikaning shimoli g'arbidagi davlat, Yukatan yarimorolini janubi sharqida joylashgan. Ilgari Buyuk Britaniyaga tegishli bo'lgan, 1981-yildan boshlab mustaqil davlat.

Aholisining etnik tarkibi: metislar – 49%, kreollar – 25% (negr, quillar va ispanlarni aralash avlodlari), maya – 11%, garifunlar – 6%, sharqiy hindular – 4% tashkil qiladi.

Xo'jaligi

Beliz iqtisodiyotining asosi turizmdir. Keyingi o'rinda shakar ishlab chiqarish, keyin esa sitrus mevalar va banan eksporti, dengiz mahsulotlari ovi turadi. YMni 58% – xizmat ko'rsatish va turizm, 24% – sanoat, 18% – qishloq, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik tashkil qiladi.

1960-yil iqtisodiyotda yetakchi o'rinni o'rmon sanoati egallagan, qimmat navli yog'och turlarini tayyorlash, mebel va yog'ochsozlik sanoatlari shular jumlasidandir. Ammo noqonuniy kesishlar oqibatida so'ngggi yillarda ishlab chiqarish hajmi qisqartirildi. Hozirgi paytda o'rmonlarni tiklash uchun ekvalipt va qarag'aylar qayta ekilmogda.

Mamlakatda sement, shakar, oziq-ovqat (sitrus mevalarni qayta ishlash) tamaki sanoatlari: ma'danli o'g'itlar, kiyim-kechak, poyabzal ishlab chiqarish rivojlangan.

Aholi shakarqamish, sitrus mevalar, banan, mayiz, guruch, banan, mais, loviya, sabzavotlar yetishtiradi. 1980-yil mamlakat kakao yong'oqlari, yeryong'oq chiqarishni o'zlashtirdi. Aholi yirik shoxli mollarni ko'paytirish, cho'chqachilik va baliqchilik bilan shug'ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: shakar, banan, sitrus mevalar, baliq va dengiz mahsulotlari (krevetka, omarlar), qora patoka, qimmat navli yog'och turlari.

Qadimgi inshoot vayronalari. Zamonaliv Beliz hududida bir paytlar yashagan sivilizatsiya vakillari tomonidan qurilgan



Bunday chig'anoqlarni Beliz plajlaridan topish mumkin

Dominika



Poytaxti: Rozo

Maydoni: 800 km²

Aholisi: 100 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili


Aholi diniy tarkibi:

katoliklar – 77%,

protestantlar – 15%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Sharqiy Karib
dolları



Laym – limonning «yaqin qarindoshi». Ba'zi taomlarni usiz tasavvur qilib bo'lmaydi

Umumiy ma'lumotlar

Dominika Hamdo'stligi – Vest-Indiyaning Dominika orolida joylashgan davlat. Kichik shamolga ro'para Antil orollari tarkibiga kiradi. Buyuk Britaniyaga qarashli bo'lgan, 1978-yildan boshlab mustaqil davlat bo'lgan. Davlat boshlig'i – prezident. Dominika – Hamdo'stlik a'zosi. Aholining irqiy qatlami: negrlar – 89%, metislar – 7%, amerika hindulari – 2% oqtanli va boshqalar – 2%, tashkil qiladi.



Dominika festivali

Dominikaning ajoyib go'zal tabiat, hayvonot va nabotot olamining rang-barangligi tufayli uni ba'zan Karib dengizining «tabiat oroli» deb atashadi



Xo'jaligi

Dominika iqtisodiyotining asosini – qishloq xo'jaligi tashkil etadi, uning unumdarligi tropik siklonlar va bo'ronnlarga bog'liq. Mamlakatda: oziq-ovqat sanoati (meva sharbatlari, rom, kokos yog'i ishlab chiqarilishi), baliqchilik, mahalliy hunarmandchilik,sovun ishlab chiqarish rivojlangan, tamaki, efir moylari, noprta ishlab chiqarish yo'iga qo'yilgan. Releza qazib olinadi. Bu yerda ofshor moliyaviy xizmat ko'rsatiladi. Aholi banan (qishloq xo'jalik butun mahsulotlarini 75% tashkil etadi), sitrus mevalari, mango, kokos yong'oqlari, kakao, dolchin, sabzavotlar yetishtiradi.

Mamlakat eksportining asosiy mahsulotlari: banan (50%), sovun, lavr yog'i, sabzavotlar, greypfrut, apelsin, laim hisoblanadi.

Tabiat

Orolni shimoldan g'arbga qarab kelib chiqishi vulqonli bo'lgan tog'lar egallagan. Ko'plab kraterlar, issiq va ma'danli suv manbaları, sol fatarlar bor. Tog'lardan kichik daryolar oqib tushadi, ular chuqur vodiylar va sharsharalarni tashkil etadi.

Mamlakat iqlimi tropik, shimoli sharqiy passatlar yumshatib turadi. Quruq mavsum fevral oyidan iyun qadar davom etadi. Tropik dovullar tez-tez bo'lib turadi va bular oqibatida suv toshqinlari sodir bo'ladi.

Tog' yonbag'irlarida nam tropik o'rmonlar va butalar o'sadi, qirg'oq bo'ylab kokos palmalari va sitrus plantatsiyalari joylashgan. Mamlakatda kaltakesaklar, 160 xil qushlar turi, 13 xil turdag'i ko'rshapalaklar, 55 xil kapalak turlari mavjud.

Dominikana Respublikasi



Poytaxti: Santo-Domingo

Maydoni: 48,7 ming km²

Aholisi: 9,4 mln. kishi

(2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 95%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Dominikana

pesosi



Sentavo tangalari.
Dominikananing
bir pesosi 100
sentavoga teng

Umumiy ma'lumotlar

Dominikana Respublikasi – Vest Indiyadagi davlat. Gaiti orolinining hududni 2/3 sharqiy qismida joylashgan. Davlat boshlig'i – prezident. Aholisining etnik tarkibi: mulatlar – 73%, oq tanlilar – 16%, negrlar – 11% .

Tabiat

Mamlakat hududining janubi sharqidan shimoli g'arbiga qarab markaziy Kordilera tog' tizmasi cho'zilgan, undan janubda Asua pasttekisligi joylashgan. Shimoliy qirg'oq bo'ylab Kordilera – Septentrional tog' tizmasi joylashgan. janubi g'arbni chekkasida Kyul-de-Sak chuqurligi bor, bu yerda yarim quruq iqlimi hukmronlik qiladi. Serra-Sentral va Serra-Septentriopal tog' tizmalari orasida Sibao va Vega-Real unumdar vodiylar joylashgan. Sharqda shimoliy Serra-Oriental tog'lari bilan o'rallan pastlik joylashgan.

Dominikana Respublikasi iqlimi dengiz tropik passatlari. Iyundan-oktabrgacha bo'ronlar ko'p bo'ladi. Nam, shamolga qaragan tog' yonbag'irlarida tropik o'rmonlar, shamolga teskari va ichki hududlarda bargi to'kiluvchan o'rmonlar, quyi qismlarda – savannalar o'sadi.

Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlanib bormoqda. Ilgari uning asosini shakarqamish, qahva, tamaki tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi kunda asosiy daromad savdo-sotiq va turizm orqasidan olinadi. Dominikana Respublikasida shakar, sement, mebel, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan. Rom, tamaki mahsulotlari, qora patoka, yo'g'on-argon, kunjara ishlab chiqarish yo'liga qo'yilgan. Mamlakatda nikel, olin, kumush, neft, kobalt, molibden, titan, boksit qazib olinadi.

Xo'jalikning asosiy eksport tarmog'ini shakarqamish yetishtirish va qayta ishslash (eksportni 1/4) tashkil etadi. Boshqa o'simliklardan qahva, kakao, tamaki, guruch, makkajo'xori, sargo, dukkancli o'simliklar, kassava, pomidor, banan, mangolar, tamaki yetishtiriladi. Yaqin vaqt ichida ananas, qovun, sitrus mevalarni yetishtirish o'zlashtirildi. Aholi yirik shoxli mollarni, cho'chqalarni, parrandalarni ko'paytiradi.

Asosiy eksport mahsulotlari: ferronikel, shakar, oltin, kumush, qahva, kakao donalari, tamaki, go'sht hisoblanadi.



Santo-Domingodagi saroy

Gaiti



Poytaxti: Port-o-Prens

Maydoni: 27,7 ming km²

Aholisi: 9 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: fransuz tili

Aholisining diniy

tarkibi: katoliklar – 80%, protestantlar – 16%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: gurd



Gayiti hunarmandlari
yasagan sopol
haykalchalar

Umumiy ma'lumotlar

Gaiti Respublikasi – Vest-Indiyadagi davlat. Katta Antil orollar tarkibiga kiradigan Gaiti orolini g‘arbiy qismini va bir nechta qo‘shni orollarni egallagan. Davlat boshlig‘i – prezident. Aholining 95% – negrlar, 5% – mulat va oq tanlilar tashkil qiladi.

Tabiatি

Gaiti hududi tog‘lidir: shimoli g‘arbdan – janubi sharqqa Shimoliy, Montan-Nuar, Mato tog‘ tizmaları parallel tarzda cho‘zilgan. Shimoliy tog‘ tizmalaridan shimoli sharqda Shimoliy tekislik yotadi, Shimoliy tog‘ tizmaları va Montan-Nuar tog‘lari orasida Markaziy plato, Mato va La-Sel tog‘lari orasida Kyul-de-Sak pastlik chuqurligi Sumatr ko‘li bilan birga joylashgan. Dengiz qirg‘oqlari bo‘ylab marjon riflari joylashgan.

Gaiti qirg‘oqlarida iqlim tropik, passatli, tog‘larda – shabadali. Yomg‘irlar mavsumi aprel-iyun, sentabr-noyabr. Janubda, janubi g‘arbdan tropik o‘rmonlar o‘sadi; pasttekisliklarda ko‘proq savannalar uchraydi.



Xo‘jaligi

Gaiti Vent-Indiyadagi davlatdir. Qishloq xo‘jaligi iqtisodning asosiy tarmog‘idir. Mamlakatda: sizalni qayta ishslash fabrikalari, sement zavodlari bor; guruchni tozalovchi va shakar sanoatlari rivojlangan. 1983-yilgacha Gaitini janubida boksit va mis konlari ishlagan, shu yerda tuproq zavodi ham bo‘lgan. Mamlakatda maishiy elektron apparaturalarni yig‘ish, o‘yinchoq va sport anjomlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Eksport uchun: qahva, kakao donalari, agava, mango mevalari, shakarqamish, guruch: mahalliy aholi paxta, sitrus mevalar, banan, makkajo‘xori, tariq, mango yetishtiradi. Aholi mol, echki ko‘paytiradi. Tog‘larda qimmat navli yog‘och turlari ishlab chiqariladi. Mahalliy hunarmandchilik ornamentli keramika mahsulotlari, yog‘och niqoblar, yog‘och o‘ymakorligi, savatlar to‘qish yo‘ga qo‘yilgan.

Asosiy eksport mahsulotlari: qahva, kakao donalari, sizal, o‘simlik yog‘i, sitrus mevalar hisoblanadi.

Port-o-Prens
shahridagi ko‘cha



Savat to‘qish –
mahalliy aholining
hunarmandchilik
sanoatlaridan biri

Gonduras




Poytaxti: Tegusigalpa
Maydoni: 112,1 ming km²
Aholisi: 7,1 mln. kishi (2007)
Rasmiy tili: ispan tili
Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 97%, protestantlar – 3%
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: lempira



Noma'lum hukmdor haykalining bosh qismi. Gondurasdag'i qadimiy inshoottlar vayronasidan topilgan

Umumiy ma'lumotlar

Gonduras Respublikasi – Markaziy Amerikadagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholini 90% – metislar, 7% – hindular, 2% – negrlar, 1% – yevropaliklar tashkil qiladi.



Xo'jaligi

Gonduras – Shimoliy Amerikaning davlatlaridan biridir. Asosiy tabiiy boyliklari: yog'och, oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux, temir rudasi, surma, ko'mir, baliq. Gonduras shimolida va sharqida yog'och tayyorlash va qayta ishlash (qarag'ay, qizil va qora daraxtlar) yo'lga qo'yilgan. Mamlakatda rux, misob, kumush, oltin qazib olinadi, 1990-yil shimoli g'arbda neft aniqlangan. Mamlakatda neftni qayta ishlash va metallurgiya zavodlari bor. Mashinasozlikning kichik korxonalar, yog'ochsuzlik, mebel, selluloza, qog'oz, to'qimachilik, tikuvchilik, tamaki, shakar, qahva sanoatlarining korxonalarini bor.

Ilgari asosiy eksport o'simligi banan bo'lgan, hozirgi paytda qahva, shakarqarmish, mais, dukkakli o'simliklar, guruch, sitrus mevalari, ananas, tamaki yetishtiriladi. Aholi yirik shoxli mollarni, cho'chqalarni ko'paytiradi, krevetka va omarni ovlash bilan mashg'ul.

Asosiy eksport mahsulotlari: qahva, banan, krevetkalar, omarlar, go'sht, yog'och, rux hisoblanadi.

Alvon ara Gonduras va unga qo'shni davlatlarning o'ziga xos ramzi hisoblanadi

Tabiatি

Gondurasning deyarli barcha hududini tog' tizmasi egallagan. Unda serhosil tekisliklar, bo'lingan vodiylar va tog'li vulqon bo'lgan, shimoli



g'arbdan shimoli sharqqa cho'zilgan tog'lar bor.

Mamlakat sharqida Moskit qirg'oq tekisliklarida nam, tropik iqlim hukm suradi, tog'larda iqlim-mo'tadil. Karib dengizi qirg'oqlarida kuchli to'fonlar, tropik yomg'irlar, suv toshishlari va tez-tez yer ko'chishlari, kuchli bo'lmagan zilzilalar bo'lib turadi.

Hududni 37% o'rmonlar (shimolda-qarag'ay va eman, sharqda-mangr va palmalar); savanna, yaylovlari bor. XX asrda Gonduras bananni eksport qiluvchi mamlakatga aylandi va uni «bananli respublika» deb nomlashdi. Mamlakatda milliy bog'lar bor.

Grenada



Poytaxti: Sent-Jorjes

Maydoni: 344 km²

Aholisi: 100 ming kishi
(2007)


Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 53%, anglikanlar

– 14%, protestantlar – 33%

Davlat tuzumi: Hamdo‘stlik
tarkibidagi mustaqil davlat

Pul birligi: Sharqiy Karib
dolları



Muskat yong'oqlari – muskat
mevasining xushbo'y urug'lari, ziravor
sifatida ishlataladif

Umumiy ma'lumotlar

Grenada – Vest-Indiyadagi orolda joylashgan davlat. Shamol tomoniga qaragan Antil orollari arxipelagining janubiy qismida joylashgan. O‘z tarkibiga Grenada oroli va Janubiy Grenadaning kichik orollarini oladi. Mamlakat 1974-yilda mustaqillikka erishdi. Grenadaning 82% aholisi – negrillardir, 13% – mulatlar, 5% – yevropaliklar va hindular tashkil qildi.

Yelkanli
yaxtalar
musobaqasi



Tabiatি

Grenada kelib chiqishi vulqonli bo‘lgan tog‘li oroldir. Sharqiy qirg‘oqlari – pastlik, g‘arbiy qirg‘oqlar – tog‘li, janubiy qirg‘oqlarni ko‘plab qo‘ltiq va kichik orollar egallagan. Plajlar qora vulqon qumlari va oq qumlardan iborat. Karriau oroli ohakli va past. Butun qirg‘oqlar bo‘ylab marjon riflari joylashgan.

Mamlakat iqlimi tropik, shimoli sharqiy passat esib turadi. Yomg‘irlar mavsumi iyun oyidan noyabrgacha bo‘ladi. Ko‘pincha vayron qiluvchi bo‘ronlar bo‘ladi. Grenadada ko‘plab yer osti termal manbalari bor. So‘ngan vulqon kraterlarida kichik ko‘llar joylashgan.

Balandlikda joylashgan hududlarini doimiy yashil, nam tropik qimmatbaho navli daraxtlar qoplagan, qirg‘oq bo‘ylab mangr botqoqliklari joylashgan.



Xo‘jaligi

Mamlakat iqtisodiyotining asosini turizm (2002-yil 132 mingta chet el sayyozi ziyorat qildi), afshor moliyaviy biznesi, qishloq xo‘jaligi tashkil etadi. Mamlakatda qimmat navli yog‘och tayyorlash ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Sanoatning (yetakchi tarmoqlari: maishiy elektron jihozlarini yig‘ish, tikuvchilik, tamaki, shakar, oziq-ovqat. Grenada o‘zini ziravor o‘simliklari bilan mashhur (muskat yong‘og‘i, qalampirmunchoq, dolchin, nardamon) shuning uchun uni ko‘pincha ziravorlar oroli deb atashadi. Mamlakat dunyoda (Indoneziyadan so‘ng) muskat yong‘og‘i yetishtirish bo‘yicha 2-o‘rinni egallagan. Serhosil vulqonli tuproqlarda banan, sitrus mevalar, avakadalar, kakao donalari, mahalliy ehtiyojlar uchun – shakarqamish, makkajo‘xori, ildiz mevalilar, sabzavotlar yetishtiriladi. Aholi shuningdek baliqchilik bilan ham shug‘ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: banan, kakao, muskat yong‘og‘i, mevalar, sabzavotlar hisoblanadi.

Grenadadagi sayyoqlik avtobuslari

Gvatemala



Poytaxti: Gvatemala

Maydoni: 108,9 ming km²

Aholisi: 13 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy

tarkibi: katoliklar – 75%, protestantlar – 25%

Davlat tuzumi:

respublika

Pul birligi: ketsal



Gvatemalaning pul birligi maya va asteklarning muqaddas qushi ketsal (kvezal) nomi bilan ataladi. Mazkur qush mamlakatning davlat ramziga aylangan

Xo'jaligi

YIMning 57% – xizmat ko'rsatish sektori, 23% – qishloq xo'jaligi va baliqchilik, 20% sanoat tashkil etadi. Mamlakatda simob, mis, rux, volfram, nikel, neft qazib olinadi. Gvatemalada neftni qayta ishlash, po'lat va shina zavodlari bor. Koreys va amerika texnologiyalari asosida elektronika yig'ish yo'lga qo'yilgan. Sanoatning asosiy tarmoqlari: yog'ochsuzlik, neft-kimyo, qog'oz, quruvchilik, tamaki, oziq-ovqat hisoblanadi.

Aholi qahva, shakarqamish, banan, kardamon, paxta, pomidor yetishtiradi; shuningdek, yirik shoxli qora mollarni, qo'ylarni, cho'chqalarini ko'paytiradi. Mamlakatda Peten platosi o'rmonlarida va tog'lardagi qarag'ayli o'rmonlardan yog'och tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Karib dengizida krevetkalar ovi rivojlangan.

Gvatemala qahva, go'sht, paxta, kakao, makkajo'xori, shakar, banan, sabzavotlar, mevalar, kardamon, kiyim, neft, elektr-quvvatini eksport qiladi.



◆ Gvatemala poytaxtidagi milliy saroy

Kanada



Poytaxti: Ottawa

Maydoni: 9971 ming km²
(Dunyoda 2-o‘rin Rossiyadan
keyin)

Aholisi: 33 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: ingliz,
fransuz tillari

Aholisining diniy

tarkibi: katoliklar – 46%,
protestantlar – 36%

Davlat tuzumi: Hamdo‘stlik
tarkibidagi federatsiya

Pul birligi: Kanada dollari



Sen-Pyer va Mikelon (Fr.)
kartada 1 raqami bilan
belgilangan.

Umumiy ma’lumotlar


Kanada – Shimoliy Amerika qit’asining shimolini egallagan davlat. G’arbdan sharqqa uni hududi 7700 km (6 soat mintaqasi) cho‘zilgan. Federatsiya tarkibiga 10 viloyat va Uzoq Shimolning 3 hududi kiradi.

Mamlakat aholisining 90% janubda AQSh bilan chegara yonidagi 150–200 km eniga cho‘zilgan hududda yashaydi, ko‘l oldi yerlariga 66% kirib ketadi.

Kanada – muhojirlar mamlakati XIX–XX asrlarda aholi sonini oshirishni yagona usuli imigratsiya edi. Kanada – ikki millatli mamlakatdir (ingлиз kanadaliklar va fransuz kanadaliklar), o‘zida turli xalqlar madaniyatini aks ettiradi. XX

asr davomida ingliz kanadaliklar (60 dan 28%) va fransuz kanadaliklar (31 dan 23%) ulushi keskin qisqaradi, ammo boshqa muhojirlar guruhlari oshib bordi (bu yerga umumiy 80 etnik guruh). Fransuz kanadaliklar Kvebekda yashaydi (ichki muammolarni mustaqil holda yechish va fransuz tili va madaniyatini qo‘llab-quvvatlash huquqi berilgan), qolgan viloyatlarda ingliz kanadaliklari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Irlandlar (12%), nemislar – 9 %, italyanlar 4%, polyaklar – 4%, ukrainlar – 3%, skandinavlar, yahudiylar, russlar ham bu yerda yashaydilar. Oxirgi 10 yil davomida Kanadaga Osiyo va Lotin Amerikasidan muhojirlar kelayapti. Hindular (aholini 2%, 53 qabila) janubdagи rezervatsiyalarida innuitlar (eskimoslar) shimolda yashaydilar. Ingliz va fransuz tillari rasmiy til bo‘lishiga qaramay ikki tilni aholining faqat 17% biladi, ingliz tilini – 67%, fransuz tilini – 14% aholi biladi.

Torontodagi
Yong-strit
ko‘chasi





◆ Sibirning xaski itlari qo'shilgan chana (Kvebek)

Diqqatga sazovor joylari

2002-yil Kanadani 20057 ming sayyoh ziyorat qildi (daromad – 9700 mln. doll). Turizmning tabiiy obyektlari: Amerika (51 m) va Taqabop (48 m) sharsharalarini yiliga 12 mln. sayyoh ziyorat qiladi. Monmoransi va Shyut-de-la-Shude (120 m) sharsharalar. Sharsharalar kaskadi Sen-An (74 m), Senfreal-le-Nej (100 m), Xanlen (137 m), Xelmen (366 m) va boshq; Kolumbiya (qoyali tog'lar) muzligi; Sharlevua, Estri, Sherbru ko'l landshaftlari mavjud. Mamlakat milliy bog'larida ekologik turizm rivojlangan. Albert, Britaniya Kolumbiyası, Shimoliy-g'arbiy hududlardi qo'riqxonalarda ham ekologik turizm mavjud, kit va qushlarni kuzatish mumkin. Turistlarni o'ziga jalb etadigan joylar: «Oltin vasvasa» Douson shahridagi muzey. Buyuk tekisliklardagi hindular odatlari saqlab qolningan Vannuskevin bog'i, Nyufaulend oroli shimolidagi vikinglar turar joylari vayronalari, vinochilik markazlari Niagara hududlari (Ontario ko'li) va Okonaga vodiysi (Britaniya Kolumbiyası janubi) hisoblanadi.



◆ Peggi ko'rfaqidagi mayoq (Yangi Shotlandiya yarimoroli)

Tabiat

Qit'a qismidan tashqari Kanada o'z ichiga teng Kanada Arktik arxipelagini oladi (Banks, Elemir, Viktoriya orollari, Baffini yerlari va Pari arxipelagi va boshq.) Sharq va shimoliy qismlarda qirg'oq chizig'i qing'ir qiyshiqli joylashgan. Bu joylarda yangi Shotlandiya yarimoroli, fordalar, Nyufaulend oroli, Labrador yarimoroli, Gudzon ko'rfazi bor. Hududni 75% tekislik va platolarda joylashgan: janub va janubi g'arbda Markaziy tekisliklar joylashgan, ulardan sal g'arbda Buyuk tekisliklar platosi, shimoli g'arbda – Makkenzi pasttekisligi. G'arbda shimoldan-janub tomon Kordiler tog'lari, qirg'oq tog' tizmasi va qoyali tog' bilan parallel bo'lib cho'zilgan. Janubi sharqni chekkasida Appalachi (balandligi 1200 m) tog'ining tarmoqlari joylashgan.

Kanada iqlimi: shimolda – arktik va subarktik; janubroqda – hududni katta qismida – mo'tadil, kontinental; Kordiler tog'larini g'arbiy yonbag'irlarida – mo'tadil dengiz iqlimi Atlantika qirg'oqlarida va Nyufaulend orolida – mo'tadil nam, iliq. Tinch okean qirg'oqlaridagi iqlimga iliq okean oqimlari o'z ta'sirini o'tkazadi, shimoli sharqda va sharqda – sovuq Labrador oqimi. Qishda qalin qor hamma yoqni qoplaydi.

Shimolda ko'p yillik muzli tog' jinslari bor. Muzliklari g'arbdagi tog'larda va sharqdagi Arktik arxipelagida joylashgan. Muz

daryolarni janubiy hududlardan tashqari 5–9 oygacha muzlatib qo'yadi.

Kanadani Arktik Arxipelagini shimolida arktik sahro bor. Qit'ani shimoliy chekkasini va arktik arxipelagni katta qismini tundralar egallagan. Janubroqda o'rmon tundrasi va tayga hududlari boshlanadi. Nordilerada – iqlim va o'simlik olami balandlik mintaqalariga bog'liqdir. Mamlakat hududini 1/3 o'rmonlar qoplagan. Kanadada 37 qo'riqxona va milliy bog'lar bor, bu yerlarda bizonlar, ayiqlar, tog' echkilari, bug'ular va boshqa hayvonlar yashaydi.



◆ Hindular raqsi ijrosi

Xo'jaligi


Kanada yuqori texnologik iqtisodga va rivojlangan tog'-kon sanoatiga, energetikaga, o'rmon xo'jaligi va yog'ochni qayta ishlash sanoatiga egadir.

YIMning 71% – xizmat ko'rsatish sektoriga, 26% – sanoatga, 3% – qishloq o'rmon xo'jaliklari va baliqchilikka to'g'ri kelgan. 2004-yil YIM 1023 mldr. doll. tashkil qildi.

Kanada AQSh iqtisodiyotiga xomashyoni asosiy yetkazuvchisidir va Amerika eksportini asosiy xarid qiluvchisidir. 1994-yildan mamlakat NAFTA a'zosi bunda (shimoliy Amerika erkin savdo zonasasi).

Kanadada bank biznesi sug'urta ishi va telekommunikatsiya rivojlangan. Xo'jalik jihatidan AQSh ga yaqin janubiy hudud ancha o'zlashgan. Mamlakatda neft (yiliga 120–125 mln. t), tabiiy gaz (190 mldr. m³ yiliga), toshko'mir, temir, ruda, oltin, mis va boshqa qazilmalar olinadi. Kanada dunyoda asbestos qazilmalari, uran konsentratini ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda turadi. Nikel rudalari va kaliy tuzlari bo'yicha 2-o'rinda turadi. Platina va platinoidlar bo'yicha 3-o'rinda, rux rudalari 4-o'rinda turadi. Elektr quvvatning 58% ni GES, 28% ni IES, 13% ni AES ishlab chiqaradi.

Sanoatning yetakchi tarmoqlari: Mashinasozlik (transport, aviatsiya, qishloq xo'jaligi, energetika, dastgohlar qurish va boshq); qora



◆ Kanadada yuqori sifatli qog'oz ishlab chiqariladi

va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, kimyo, o'rmon, yog'ochsozlik, selluloza-qog'oz, farmatsevtika, bundan tashqari yuqori texnologiyalar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan. (Telekommunikatsiyalar, biotexnologiyalar optik tolalar). Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari – don xo'jaligi va yaylov chorvachiligi. Kanada dunyoda bug'doy eksporti bo'yicha 3-o'rinda turadi, dunyo bug'doylarini 16% ni yetishtiradi.

Mamlakat shimalida bug'ichilik, hayvonlarni ko'paytirish va mo'ynachilik rivojlangan. Janubda Buyuk tekislikning qora tuproqlarida makkajo'xori, bug'doy, kungaboqr

yetishtiradilar. Yaylov-go'sht yo'nalishida chorvachilik, go'sht-jun qo'ychiligi rivojlangan. Janubni Ontario ko'lidagi Yangi Shotlandiyada va britaniya Kolumbiyasi janubida sabzavotlar, uzum, mevali madaniy o'simliklar, tamaki yetishtiriladi. Sut chorvachiligi yo'lga qo'yilgan. Bالي ovi daryo, ko'llarda, okeanga yaqin suvlarda ovlanadi.

Kanada eksportining asosiy mahsulotlari: avtomobillar, samolyotlar, mashinalar, telekommunikatsiya jihozlari, kimyoviy o'g'itlar, yog'och, qog'oz, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, aluminiy, nikel, kaliy tuzlari, uran, ekeltr quvvati, bug'doy.



◆ Suvga oqizilgan xodalar

Qora, rangli va qimmatli metallarni qazib olish bo'yicha arbiy yarimsharning ilg'or mamlakatlari (2002-yilga muvofig). Dunyo bo'yicha egallagan o'rni ko'rsatilgan

	Temirrudasi	Mis	Q'orgoshin	Kumush	Oltin	Platinoidlar
Kanada	9	7	6	4	7	3
AQSh	6	3	3	5	5	4
Meksika			5	6	1	
Braziliya	1					
Peru		5	4	3	2	6

Kosta-Rika



Poytaxti: San-Xose

Maydoni: 51,1 ming km²

Aholisi: 4,5 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 76%, protestantlar – 24%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Kosta-Rika koloni



◆ Konkistador haykali. Mamlakatning ispanlar tomonidan mustamlaka qilinishi 1502-yilda X. Kolumbning to'rtinchı kema safari paytida boshlangan. O'shanda Kolumb Kosta-Rika qirg'og'iga yetib borgan

Umumiy ma'lumotlar

Kosta-Rika Respublikasi – Markaziy Amerikadagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining 80% – kreollar, 10% – metislar, 7% – mulatlar.

Xo'jaligi

Kosta-Rika Markaziy Amerikada iqtisodi rivojlanganligi bo'yicha 1-o'rinda turadi. Mamlakatni qishloq xo'jaligi eksport mahsulotlarini (qahva, kakao, bananlar) yetishtirish uchun asoslashgan. Sanoatning yetakchi tarmoqlari oziq-ovqat, tekstil, poyabzal, yog'ochsozlik, selluloza, qog'oz (mahsulotni bir qismi eksport qilinadi). Mamlakatda elektr jihozlarni ishlab chiqarish va qismlarni o'rnatish zavodi bor, bundan tashqari ma'danli o'g'itlar zavodi va farmatsevtika fabrikasi mavjud. Kosta-Rikaga yiliga 1 mln. chet el sayyohi keladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: elektron va elektrotexnik jihozlar, to'qimachilik, dori-darmon, banan, qahva, kakao donalari hisoblanadi.



Tabiat

Okean oldi tekisliklari, Kosta-Rikani o'rta qismiga kelib tog' tizmalari va tepaliklarga joy beradi, bular Markaziy tog'-tepaligini hosil qiladi. Mamlakat tabiatida vertikal mintaqalar aniq kuzatiladi. Tog'lar balandligi 3900 m oshmaydi, ular orasida ko'plab harakatdagi va so'ngan vulqonlar bor. Vulqon tuproqlari serhosil va agro o'simliklar uchun qulaydir, ular ko'p hududlarga tarqalgan.

Umuman olganda Kosta-Rika iqlimi iliq subekvatorial, yil davomida deyarli o'rtacha harorat o'zgarmaydi. Sharqi qirg'oqda Atlantikaning shimoli sharqiy passatlari ko'p esadi «sug'aruvchi» shamol deyiladi, yomg'irlar yil bo'yli yog'adi (yiliga 3000 mm yog'ingarchilik miqdori); yomg'irlar uzoq davom etmaydi, lekin juda ham qattiq tropik sellar yog'adi.

Kosta-Rikani asosiy tabiiy boyliklari va mamlakat hududini 2/3 egallagan tropik o'rmonlar hisoblanadi. Kosta-Rikani o'rmonlari Yer kurrasi miqyosidagi ekotizimdir. Olimlarning taxmin qilishlaricha dunyodagi bor bioturlarning 5% bu yerga to'g'ri keladi.

Qattiq botqoqlashgan Atlantika oldi pasttekisliklari doimiy yashil sernam tropik o'rmonlari bilan qoplangan. Bu yerlardan o'tish juda qiyin, odamlarni joylashtirish va xo'jalik olib borish uchun kam yaroqlidir. Tinch okean qirg'oqlaridagi o'rmonlarda sharqiy qismga nisbatan kam yog'ingarchilik yog'adi (1000 mm gacha bir xil joylarda 1500 mm gacha). Mamlakat sharqida – mavsumiy nam, yilni quruq mavsumida o'simliklar xazonrezgi bo'ladi.

◆ Yog'ochga ishlov berish va selluloza sanoati mahsulotlari Kosta-Rikaning eksport qilinadigan mahsulotlaridandir

Kuba



Poytaxti: Gavana

Maydoni: 110,9 ming km²

Aholisi: 11,7 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 40%, protestantlar – 2%, ateistlar – 37%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Kuba pesosi

Umumiy ma'lumotlar

Kuba Respublikasi – Vest-

Indiyadagi davlat, Shimoliy

Amerikadan janubroqda joylashgan. O'z tarkibiga Kuba oroli (katta Antil orollaridan yirigi) va 4195 kichik orollar va orolchalar, Karib dengizidagi Xuventud orollarini oladi. Davlat boshlig'i – Davlat kengashining raisi. Aholining 51% – mulatlar, 37% – oq tanilar, 11% – negrlar, 1% – xitoyliklar tashkil etadi.



Gavana manzarasi



Tabiatি

Hududning 2/3 qismini tekisliklar egallagan 1/3 baland bo'lmagan tog' massivlari g'arbning eng chekkasida – Serra-delos-Organos, Serra-del-Rosario, markazda Serra-del-Eskambray tog'lari, janubi sharqda – Serra-Maestra, Serra-del-Kobre va Serra-del-Kristal tog'lari joylashgan. Hamma yerlarda karst hodisasi tarqalgan. Chunki tagida ohakli qatlama joylashgan. Tog'larda ko'plab sharsharalar bor.

Mamlakat iqlimi tropik passatl. Qish quruq va quyoshli (noyabr-aprel) yomg'irlar mavsumi may oyidan oktabrgacha bo'ladi. O'rmonlar hududi 21% qisqardi. Tropik o'rmonlar tog' yonbag'rlarida va tekisliklarda o'sadi; janubi sharqda, g'arba va Xuventud orolida qarag'ay o'rmonlari o'sadi. Janubiy sharqiy qirg'oqlarda kichik bargli butalar, kaktuslar, agavalar, g'arbiy qirg'oqni dengiz sohillarida mangr o'rmonlari o'sadi.

Xo'jaligi

2004-yil YIM 68% – xizmat ko'rsatish sektori berdi, 25% – sanoat, 7% – qishloq, o'rmon xo'jaliklari va baliqchilik tashkil etadi. Kuba iqtisodiyoti turizmga, nikel qazilmalariga va shakar sanoatlariga tayanadi. Mamlakatda nikel, temir, xrom, kobalt, mis ruda qazib olinadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari kimyo, sement, farmatsevtika, yengil, konserva va boshqalar hisoblanadi.

Aholi shakarqarnish, sitrus, tamaki, qahva yetishtiradi, yirik shoxli mollarni, parrandalarni ko'paytirish va baliqchilik bilan shug'ullanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: shakar, nikel rudasi, tamaki, sigaralar, baliq, krevetkalar, sitrus mevalari, qahva, ananas, rom hisoblanadi.

Meksika



Poytaxti: Mexiko

Maydoni: 1958,2 ming km²

Aholisi: 107 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 90% dan ortiqroq

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yangi peso



Umumiy ma'lumotlar

Meksika Qo'shma Shtatlari Shimoliy Amerikaning janubiy qismidagi davlat. Ma'muriy-hududiy bo'linishiga: 31 shtat 1 poytaxt federal okrugi kiradi.

Davlat boshlig'i – prezident.

Aholining 60% – ispan-hindu metislari, 30% – hindular, 9% – yevropaliklar avlodlari tashkil qiladi.

Asteklarning jangari qabilasi Markaziy Meksikaga XII – XIII asrlarda kelgan. Asteklar imperatori Montesuma (1390 – taxm 1469) Meksika tog'ligida yashovchi xalqlarning deyarli barchasini o'ziga bo'yundirgan



Kukulkan piramidi shunday loyihalashtirilganki, bahorgi tengkunlik paytida unda zina bo'ylab pastga tushayotgan ilon tasviri paydo bo'ladi

Diqqatga sazovor joylari

Meksikani asosiy yodgorliklari tabiat obyektlari va madaniy-tarixiy obidalaridir. Vulqonlar, tog' cho'qqilari, jo'shqin daryolar beixтиyor o'ziga sarguzashtlarni yaxshi ko'ruchilarini jaib qiladi. Mamlakatda noyob Kolumb davrigacha bo'lgan sivilizatsiya namunalari saqlanib qolgan, shular jumlasidan mayya va asteklar piramidalari ko'p. Meksika shaharlarida mustamlaka va undan keyingi davrlar arxitektura bezaklari saqlanib qolgan.

Meksiko – ochiq osmon ostidagi muzey. Bu yerda 1400 dan ortiq tarixiy haykal va obidalar namunalari, 10 arxeologik zonalar ham shahar ichida ham tashqarisida 8 ta universitet, 80 dan ortiq muzeylar 10 lab bog'lar va dam olish markazlari joylashgan.



Tabiat

Meksika relyefi juda ham rang-barang, bu uni iqlimida, tuprog'ida, landshaftiga va odamlarni yashash sharoitlariga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat hududini katta qismi dengiz sathidan 1000 m balandlikda joylashgan. Meksika – yuqori seysmik va faol vulqonlar hududidir. Mamlakatda ko'plab so'ngan va harakatdagi vulqonlar bor bundan tashqari Yer yuzidagi eng yosh vulqonlar ham shu yerda joylashgan.

Mamlakat hududini 2/3 Meksika tog' tizmasi egallagan va uni sharqda, janubda va g'arbda murakkab tog' tizmalari o'rabi turadi. Uning shimoliy qismini – Shimoliy Mesa sahroviy platosi egallagan. Plato – alohida tog' tizmalari va suvi oqib chiqmaydigan havzalar – balsonlardan iborat. Plato yuzasi sekin-asta shimaldan janub tomon dengiz sathidan 600–700 m dan 2000 m gacha ko'tariladi. Janubroqda 2000–2600 m balandlikda vulqon jarayonlari ta'sirida shakllangan Markaziy Mesa platosi joylashgan.

G'arbiy Serra-Madre tog' tizimi chuqur kanonlar bilan bo'lingan, u Meksika tog' tizmasini Tinch okeani qirg'og'ida joylashgan tor tekislikdan ajratib turadi. Sharqiy Serra-Madre parallel tog' tizmalaridan tashkil topgan va Atlantika qirg'oqlaridagi tekisliklarni ajratib turadi. Janubda Markaziy Mesaga mamlakatni g'arbidan sharqiga kelib o'tuvchi ko'ndalang tog' tizmalar guruhi (4000–5000 m) va Yer sharining eng zo'r vulqon tizim joylashgan. Kandalang Vulqonli Serra tabiiy chegaradir, u Meksika tog' tizmasini mamlakatning janubiy tropiklaridan ajratib turadi. U Janubda uziladi. Tinch okeani bo'ylab qadimiy tog' tizmasi Janubiy Serra-Madre va – tor Teauntepek bo'yni ortidagi Chyapas Meksikani janubi sharqidagi katta qismini egallagan.

Tinch okean qirg'oqlaridagi pastlik juda ham tor, tog'lar ko'p joylashgan qirg'oqqa juda yaqin shimoliy qismining ba'zi joylarida 150–200 km gacha kengayadi. Meksikaning shimoli g'arbida Kaliforniya ko'rfazining boshqa tomonida

Tapirlar
Meksikada tarqalgan. Ular g'ira-shira va tungi hayot tarzini olib boradi



tor, tog'li (qoyali) tizmalarini balandligi 300 m bo'lган Kaliforniya oroli cho'zilib joylashgan. Tinch okeanining Meksika qirg'oqlari qing'ir-qiyshiqdır. U yerda qulay tabiiy qo'ltilqlar joylashgan. Undan farqli o'laroq Atlantika qirg'oqlari nisbatan qiyshiq, ularga o'xshash emas. Mamlakatdagi eng yirik tekislik Meksika ko'rfazi bo'ylab cho'zilgan. Ulardan eng kengi – Yukatan yarimorolining karst pasttekisligidir.

Meksikaning katta qismi tropik iqlimdir, shimolda subtropik. Relyef o'zgargani sari iqlim ham o'zgarib boradi.

Deyarli Meksika hududini yarmi yetarli namlikka ega emas. Yog'ingarchilik miqdori shimaldan va shimoli g'ardan janubi tomon o'sib boradi.

Suv tanqisligi – Meksika uchun asosiy muammolardan biridir. Tog' tizmalarini ko'plab ajratib tashlanganligi va iqlimi quruqligi tufayli mamlakatda katta daryolar juda ham kam.

Meksika o'simlik qoplash va hayvonot dunyosining turfaligi bilan ajralib turadi. Qirg'oq shimol va shimoli g'arbini sahro va yarimsahrolar egallagan, vaqtı-vaqtı bilan namli butali dashtlar va siyrak o'rmonzorlar uchraydi. Sug'oriladigan kulrang-jigarrang tusli tuproqlar dehqonchilik uchun yaroqlidir.

Meksikani tog'li hududlarida balandlik mintaqalari aniq seziladi. 1000 m balandlikkacha bargli o'rmonlar o'sadi. Balandroqda aralash o'rmonlar, 4000 m balandlikkacha ignabargli o'rmonlar o'sadi.

Ko'ndalang Vulqonli S'rradan janubroqda doimiy tropik va mavsumiy nam o'rmonlar qoplagan. Mamlakatni janubiy-sharqiy tekisliklarida zinch doimo yashil nam tropik o'rmonlar o'sadi. Katta tropik o'rmonlarni kesilishi, Meksika o'rmon qoplarni keskin qisqarishiga olib keldi. Ispan mustamlakasigacha mamlakatni 70% hududi o'rmonlar bilan qoplangan edi, hozirgi paytda faqat 15% qolgan.

Yukatan yarimorolidagi g'or



**2002-yilda shakarqamish hosilini olish bo'yicha
Markaziy va Janubly Amerikadagi eng yirik mamlakatlar
(mln.)**



Meksikaning qurg'oqchil hududlarida ko'plab agava daraxtlari o'sadi

Xo'jaligi

Meksika Lotin Amerikasining rivojlangan davlatlaridan biridir. Lotin Amerikasida Meksika YIM hajmi bo'yicha Braziliyadan keyin 2-o'rinn egallagan. Jon boshiga YIM Lotin Amerikasida belgilangan o'rtacha darajadan ortiqroq. YIMning 69% – xizmat ko'rsatishga, 27% – sanoatga, 4% – qishloq o'rmon xo'jaliklari va baliqchilikka to'g'ri keladi.


Meksika dunyo bozoriga yirik kumush yetkazib beruvchi mamlakatdir. Meksika bundan tashqari, simob, mis, qo'rg'oshin, rux rudalari, yuqori sifatlari temir rudalari, qalay, kobalt, vismut, surma, oltin, oltингugurt

qazilmalarini ishlab chiqaruvchi va yirik eksport qiluvchidir. Mamlakatda neftni qazish ishlari yo'lga qo'yilgan (dunyoda 5-o'rinn va Lotin Amerikasida 1-o'rinn). Qayta ishslash sanoatining asosiy tarmoqlari: kimyo, elektron-elektrotexnik, avtomobil; neftni qayta ishslash va neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya sanoat jihozlarini ishlab chiqarish va boshqalar hisoblanadi.

Meksika dehqonchilikning qadimiyo o'chog'idir. Yana Hindular tomonidan yetishtirilgan madaniy o'simliklar vatanidir. Makkajo'xori, qovoq, loviya turlari, meksika bodringi, bulg'ori qalampir qishloq xo'jaligida yetakchi o'rinni egallagan.

Asosiy madaniy o'simliklariga makkajo'xori, bug'doy, sorgo, loviya va tropik subtropik, dehqonchilik mevalari, mango, shaftoli, banan, ananas, papaya, sitrus mevalar, uzum, qulupnay, qalampirlar kiradi. Aholi shuningdek, qahva, shakarmaqish, tamaki, kakao donlari, paxta yetishtiradi. Chorvachilikning go'sht yo'naliishiga ko'proq e'tibori qaratilgan. Mamlakatda turizm rivojlangan (yiliga 20 mln. kishi).

Meksika qayta ishslash sanoatining mahsulotlarini eksport qiladi (eksportni 89%) bundan tashqari neft xomashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlar (10% ko'proq)ni ham eksport qiladi.



Meksika bozori



La-Pasa chetida joylashgan mehmonxonalar

Nikaragua



Poytaxti: Managua

Maydoni: 131,8 ming km²

Aholisi: 5,6 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 95%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: oltin kardoba



Kalebas (ichi o'yilgan qovoqdan yasalgan idish) va bombilya (naycha) mate choyini ichishga mo'ljallangan

Umumiyyat va lumotlar

Nikaragua Respublikasi – Markaziy Amerikadagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholining 90% – nikaragualiklar, qolganlarini 10% – hindular, yamaykaliklar va boshqalar tashkil qiladi.

Tabiat

Mamlakatni shimoli g'arbida, Tinch okean qirg'oqlarida Kordilera – las-Moribos vulqonli tog' zanjirlari cho'zilgan; g'arbda – Masaya-Volkan vulqonli massiv joylashgan. Bu massivlardan sharqda tektonik chuqurlikda katta Managua va Nikaragua ko'llari bor. Nikaragua ko'li qirg'oqlarida Mombacho vulqoni, Ometepe (ko'l ichida) orolida Konsepson va Maderas vulqonlari joylashgan. Mamlakatni shimoliy va markaziy qismlarini balandligi 1700 m bo'lgan tog' tizmasi egallagan, u alohida o'rta bo'yli tog' tizmalaridan va tog' oralig'idagi plato tog' tizmasidan sharqiy tomonidan Karib dengizigacha, janubdan Kosto-Riko chegarasigacha botqoqlashgan Moskit qirg'og'igacha cho'zilgan bo'lib u zikh tropik o'rmon bilan qoplangan.

Iqlimi tektonik ko'l chuqurligidan sharq tomonida – tropik, passatl; janubi g'arbda – subekvatorial. Passat Atlantika okeanidan nam havo massalarini va to'fonlarni olib keladi. Sharqiy pastlik va tog' tizmasi nam tropik o'rmonlar bilan Atlantika qirg'oqlari – mangr o'rmonlari va chakalakzorlar bilan qoplangan. G'arbda bargi to'kiladigan o'rmonlar, eng quruq hududlarda – siyrak o'rmonlar, butalar va ikkilamchi savannalar o'sadi. Mamlakatni 17% hududi tabiatni muhofaza etish zonasidir.

Krevetkalar – mamlakatning eksport mahsulotlaridan biri

Xo'jaligi

Nikaragua – Markaziy Amerikadagi davlatlardan biri. Sanoatning yetakchi tarmoqlari: oziq-ovqat, yog'ochsozlik, kimyo, to'qimachilik, charm. Mamlakatda neftni qayta ishslash zavodi bor. Mamlakatda oltin qazib olinadi. Qishloq xo'jaligi serhosil, vulqonli tuproqlarda joylashgan. Asosiy madaniy o'simliklari – paxta, qahva, banan, shakarqamish, kokos palmasi, ananas, kakao, sitrus mevalari, mango, tamaki. Aholi ehtiyojlari uchun guruch, makkajo'xori, tariq yetishtiradilar. Bundan tashqari aholi yaylov chorvachiligi, baliq va dengiz mahsulotlari ovi bilan ham shug'ullanadi. Hunarmandchilik turlari: paxta matosidan gamaklar tayyorlash, savat to'qish, keramika, yog'och o'ymakorligi va boshqalar hisoblanadi.

Nikaragua qahva, krevetkalar, omarlar, paxta, tamaki, shakar, bananlarni eksport qiladi.



Panama



Poytaxti: Panama
Maydoni: 75,5 ming km²
Aholisi: 3,3 mln. kishi
 (2007)
Rasmiy tili: ispan tili
Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 77%, protestantlar – 12%
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: balboa



Tukanlar
Panamaning tropik o'rmonlarda yashaydi

Umumiy ma'lumotlar

Panama Respublikasi – Markaziy Amerikaning Janubiy qismidagi davlat. Panamaga Karib dengizi va Tinch okeanidagi 1518 orollar tegishli. Davlat boshlig'i – prezident.

Aholini 90% – panamaliklar (asosan metis va mulatlar), 10% – hindular va boshqalar tashkil qiladi.

Xo'jaligi

Mamlakatning asosiy daromadini Panama kanalini ekspluatatsiyasi va chet el kemalarini «karzon bayroqlar» ostida ro'yxatga oladi (dunyoda chet el kemalar ro'yxatga olish bo'yicha 1-o'rin). Sanoatning yetakchi tarmoqlari: yog'ochsozlik, teri-poyabzal, tikuvchilik, oziq-ovqat sanoatlari. Mahalliy hunarmandchilik rivojlangan. Panamada neftni qayta ishlash zavodi bor. Aholi banan, shakarqamish, qahva, guruch, makkajo'xori, chorvachilik bilan shug'ullanadi. Tinch okeanida krevetka balig'ini ovlaydi.

Asosiy eksport mahsulotlari: banan, krevetkalar, shakar, qahva, kiyim, neft mahsulotlari, qovun va tarvuzlar hisoblanadi.

Panama kanalining uzunligi 81.6 km ga teng. Kemalar undan o'rtacha 8 soatda suzbi o'tadi



Tabiat

Panama hududidan Markaziy Amerika Kordilerasi o'tadi, g'arbda Markaziy Kordilera va sharqiy tog' tizimlar zanjiridan tashkil topgan. Panama bo'yinini tor qismida tepalikli pastlik joylashgan, uning ustidan Panama kanali o'tgan uzunligi 82 km bo'lib Tinch va Atlantika okeanlari qirg'oqlarini birlashtiradi. Tog' zanjirlaridan janubroqda keng pasttekisliklar egallagan, ular kichik tepaliklar va yakka tog' massivlari bilan joy almashib turadi.

Panama iqlimi subekvatorial, jazirama, nam. May oyidan dekabrgacha esadigan shimoli shamollar Karib dengizidan shimoliy qirg'oqlarga va tog'larni shimoliy qismlariga yog'ingarchilik olib keladi. Tinch okeanining quruq shamollari janubiy qirg'oq iqlimini va janubiy tog' yonbag'irlarini shimolga nisbatan quritadi. Quruq mavsumi dekabr o'rtalaridan aprel o'rtasigacha bo'ladi. Tropik dovullar ham bo'lib turadi.

Karib dengiziga qaragan tog' yonbag'irlarida doimiy yashil tropik o'rmonlar o'sadi. Tinch okeanga qaragan tog' yonbag'irlarida bargi to'kiluvchan doimiy yashil o'rmonlar o'sadi. Mamlakatni janubi g'arbida butali savannalar sharqda esa selvalar joylashgan.

Salvador



Poytaxti: San-Salvador

Maydoni: 21 ming km²

Aholisi: 6,9 mln. kishi

(2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy

tarkibi: katoliklar – 78%,

protestantlar – 17%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Salvador koloni



Shamshirbalig
hamma okeanlarda
tarqalgan, asosan
tropiklarda

Umumiy ma'lumotlar

El-Salvador Respublikasi – Markaziy Amerikadagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining 90% – metislari, 9% – hindular, 1% – ispanlar tashkil etadi.

◆ San-Salvadordagi katolikar ibodatxonasi



Xo'jaligi

Ilgari Salvador iqtisodiyotida yetakchi sektor qahva o'stirish va uni eksporti hisoblanardi. Oxirgi paytlarda qahvani narxlari tushib ketdi va qahva chiqarish hajmi ham keskin kamaydi. Mamlakatda oltin, kumush, simob qazib olinadi, po'lat, neftni qayta ishlash zavodlari bor. Sanoatning yetakchi tarmoqlari: kimyo, to'qimachilik, mebel, tamaki, oziq-ovqat hisoblanadi.

Aholi qahva, shakarqamish, makkajo'xori, sorgo va boshqalarini yetishtiradilar. Mamlakatda sut chorvachiligi, cho'chqachilik, parrandachilik, baliqchilik ham rivojlangan.

Salvador qahva, shakar, krevetkalar, gazlamalar, kimyoviy mahsulotlar, elektr quvvatini eksport qiladi.

Tabiat

Salvador hududida vulqonli tog' tizmasi bor, shimoldan uni so'nggan vulqonlar zanjiri, janubdan – harakatdagi vulqonlar zanjiri o'rab turadi. Mamlakatda 25 dan ortiqroq harakatdagi vulqonlar bor, shuning uchun ham Salvadorni vulqonlar mamlakati deyishadi. Vulqonlari: La-Lagunita, Isalko, Santa-Ana, San-Salvador, San-Visente, San-Migel. Salvadorda tez-tez zilzilalar sodir bo'lib turadi. Markaziy tog' tizmasi vulqon kuli sababli serhosil tuproqqa ega. Okean qirg'oqlari bo'ylab tor tekislik cho'zilgan. Kichik daryolar tog'lardan Tinch okeaniga tushadi. Bir qancha ko'llar so'nggan vulqonlar kraterlarida joylashgan.

Mamlakat iqlimi tropik, tog' tizmasida – yarim tropik, tog'larda mo'tadir. Yomg'irlar mavsumi maydan oktabrgacha davom etadi. Salvador hududidagi subtropik o'rmonlar deyarli kesib tashlangan, yaylov, dalar ko'pchilikni tashkil etadi.

Usultandagi diniy namoyish



Sent-Kits va Nevis



Poytaxti: Baster

Maydoni: 262 km²

Aholisi: 50 ming kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:
anglikanlar – 85%, katoliklar – 10%

Davlat tizimi: Hamdo'stlik
tarkibidagi mustaqil davlat

Pul birligi: Sharqiy Karib
dollarri



Kolibri havoda muallaq parvoz qilgan holatda gullarning nektarini so'rib olib oziqlanadi

Umumiy ma'lumotlar

Sent-Kits va Nevis Federatsiyasi – Vest Indiya shimoli sharqidagi orolda joylashgan davlat. O'z tarkibiga ikki orolni – Sent-Kristofer (qisqacha nomi – Sent-Kits) va Nevis orolini oladi. Aholining 95% negrlar.

Non daraxti mevasining etidan non yopish mumkin



Xo'jaligi

Davlat iqtisodiyotini asosini qishloq xo'jaligi, turizm, pochta markalarini sotuvi, ofshor bank xizmatlari tashkil etadi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari elektron qismalarini terish, tikuvcchilik, poyabzal, pivozozlik, shakar, baliq-konserva hisoblanadi. Mamlakatda tuz qazib olinadi.

Sent-Kristofer orolida shakarqamish (asosiy o'simlik), kokos palmasi, paxta, guruch, yams, banan, mango yetishtiriladi. Nevis orolida asalarichilik rivojlangan. Bundan tashqari sabzavotlar va paxta yetishtiriladi. Aholi baliqchilik bilan ham shug'ullanadi. Mamlakatda rom ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Eksport mahsulotlari: mango, shakar, paxta, elektron qismalar, ichimliklar hisoblanadi.

Tabiatি

Sent-Kristofer va Nevis orollari kelib chiqishiga ko'ra vulqonlidir. Sent-Kristofer orolida so'nmagan Mizeri vulqoni, Nevis orolida – Nevis vulqonlari bor. Kichik tog'lardan kichik daryolar oqib tushadi. Sent-Kristofer orolining tuprog'i serhosil, ichimlik suvi yetarli miqdorda janubda sho'r ko'l joylashgan.

Mamlakat iqlimi tropik quruq, passatli. Quruq mavsum yanvardan-aprelgacha, namli mavsum maydan noyabrgacha. Iyuldan-sentabrgacha bo'ronlar bo'ladi. Vulqon yonbag'irlari nam tropik o'rmonlar bilan qoplangan, tog' yonbag'irlarining nisbatan quruq yerlariga shakarqamish, ekzotik mevalar va non daraxtlari ekilgan.

Sent-Kristofer orolidagi shakarqamish ekinzori



Sent-Lyusiya



Poytaxti: Kastri

Maydoni: 616 km²

Aholisi: 200 ming kishi
(2007)


Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy


tarkibi: katoliklar – 90%, protestantlar – 10%

Davlat tizimi: Hamdo'stlik tarkibidagi mustaqil davlat

Pul birligi: Sharqiy Karib dollari



◆ Piton tog'li hududi



Xo'jaligi

Sent-Lyusiya iqtisodi asosini qishloq xo'jaligi, turizm, rivojlanib borayotgan ofshor bank bizneslari tashkil etadi. Mamlakatda karton mahsulotlari, maishiy elektr xo'jalik uskunalar, ichimliklarni ishlab chiqarish rivojlangan. Mamlakatda bundan tashqari: elektron qismlarini yig'ish, laym va kokos yong'oqlarini qayta ishlash va tikuvchilik sanoati yo'lda qo'yilgan. Pemza qazib olinadi. Tog'li hududlarda aholi banan, laym, kokos palmalari, kakao donalarini, mango, sabzavotlar, ildiz mevalarini yetishtiradilar. 2002-yil YIMning 7% – qishloq xo'jaligi, 73% – sanoat tashkil etdi.

Asosiy eksport mahsulotlari, banan (qiymatini 40%), ichimliklar, kiyim, elektron qismlar, karton mahsulotlari, laym, mango, kakao donalari, kokos yong'og'i hisoblanadi.

Umumiy ma'lumotlar

Sent-Lyusiya – Vest Indiya markazida Karib dengizidagi shu nomli orolda joylashgan. Aholini 90% – negrlar, 6% – mulatlar, 4% – yevropaliklar va hindular tashkil qiladi.

◆ Sent-Lyusiyada mablag'i turlicha sayyoqlar uchun ko'plab mehmonxonalar bor

◆ Oxideyalar asosan Amerikaning va Janubiy-Sharqiy Osiyoning tropik hududlarida tarqalgan



Tabiat

Sent-Lyusiya oroli vulqonli kelib chiqishga ega. Shimoldan janub tomon baland bo'lmagan tog' tizmasi cho'zilgan. Ikki boshli Piton tog' massivi suv dengizida keskin pog'onalar bilan uziladi va bu orolni tashrif qog'izi desa ham bo'ladi. Tog'lardan qisqa daryolar oqib tushadi. G'arbiy qirg'oq chizig'ida qing'ir-qiyshiq tabiiy ko'rfaflar bor.

Mamlakat iqlimi tropik passatlari quruq mavsumi esa – iyundan-dekabrgacha davom etadi. Vayron qiluvchi bo'ronlar bo'lib turadi. hududni 10% tashkil etuvchi o'rmonlar tog'li hududlarda saqlanib qolgan. Quyi qismlarda quruq butalar, kaktuslar, gibiskuslar o'sadi.

Sent-Vinsent va Grenadina



Poytaxti: Kingstaun

Maydoni: 389 km²


Aholisi: 100 ming kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:
anglikanlar – 47%, metodistlar
– 28%, katoliklar – 13%

Davlat tuzumi: Hamdo'stlik
tarkibidagi mustaqil davlat

Pul birligi: Sharqiy Karib
dolları



Sent-Vinsent va Grenadina bayrog'ini ko'targan qo'g'irchoq.
Uning libosida bayroqdag'i ranglar bor

Umumiy ma'lumotlar

Sent-Vinsent va Grenadin – Vest Indiyaning janubi sharqidagi davlat. O'z tarkibiga Sent-Vinsent oroli va Grenadin arxipelagini bir qismini oladi.

Aholini 66% – negrlar, 19% – mulatlar, 6% – hindular, qolganlarini – qora tanli karibliklar, shotlandlar va inglizlar tashkil qiladi.



Tabiatি


Sent-Vinsent va Grenadina orollari kelib chiqishiga ko'ra vulqonlidir. Sent-Vinsent orolidan tog' tizmasi o'tadi, uning shimoliy qismida Sufriyer vulqoni joylashgan. Grenadin orollari vulqon tizmasini cho'qqisi hisoblanadi, ularning ustki qismi marjon ohaklari bilan qoplangan. Janubiy orollar marjon riflari bilan qoplangan.

Mamlakat iqlimi tropik, passatl. Yomg'irlar mavsumi iyuldan oktabrgacha, quruq mavsum esa

Bekiya oroli

Pochta markalari

yanvardan aprelgacha bo'ladi. Vayron etuvchi tropik bo'ronlar ham bo'lib turadi. Sent-Vinsentning tog'li qismi nam tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Serhosil vulqonli tuproqlarda kokos palmalari o'sadi. O'rmonlarda amazon to'tiqushlari, oposumlar, agutilar, ilonlar yashaydi. Dengiz milliy parki marjon riflari joylashgan.



Trinidad va Tobago



Poytaxti: Port-of-Speyn

Maydoni: 5,1 ming km²

Aholisi: 1,4 mln. kishi
(2007)

Aholisining diniy tarkibi: protestantlar – 30%, katoliklar – 29%, hinduiylar – 24%, musulmonlar – 6%

Rasmiy tili: ingliz tili

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Trinidad va Tobago dollari



Trinidad va Tobagoning 1 dollari amerika dollari kabi 100 sentga teng

Umumiy ma'lumotlar

Trinidad va Tobago Respublikasi – Vest Indiyani janubi sharqidagi orolda joylashgan davlat. Kichik Antil Shamolga ro'para orollar arxipelagini eng janubiy mamlakati. Tarkibida katta Trinidad, kichik Tobago va 5 ta kichik orollar bor. Davlat boshlig'i – prezident. Trinidad va Tobago – Hamdo'stlik a'zosi. Negr va mulatlar mamlakat aholisini 58%, hind-pokistonliklari – 40% tashkil qiladi.

Xo'jaligi

Neft va tabiiy gaz konlari qazilmalari borligi uchun Trinidad va Tobago Karib havzasidagi mamlakatlar orasida iqtisodiyoti eng rivojlanganlardan biri. Pitch-Leykda asfalt olinadi. Mamlakatda oxirgi yillarda tabiiy gaz qazilmalari ortdi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari: neftni qayta ishlash va neft-kimyo, yog' ochsozlik, qog'oz, tamaki va boshqalar. Trinidad orolida kakao, shakarqamish plantatsiyalari ko'plab joylashgan, guruch, yams, sitrus mevalari, sabzavotlar yetishtiriladi. Bundan tashqari Tobago orolida – kakao, kokos palmalari, laym ham yetishtiriladi. Aholi parrandachilik, baliqchilik, yirik shoxli mollarni, cho'chqalarni ko'paytirish bilan shug'ullanadilar.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, kimyoiy mahsulotlar, po'lat, o'g'itlar, shakar, kakao, sitrus mevalari, gullar.




Tabiat

Trinidad orolida kenglik yo'nalishida uchta baland bo'limgan tepaliklar cho'zilgan orolni katta qismi tekisliklardan tashkil topgan, sharqiy qismi – botqoqlashgan. Tobago oroli vulqonli kelib chiqishga ega, orol bo'ylab Meyn-Rij (579 m gacha) tog' tizmalari joylashgan.

Mamlakat iqlimi subekvatorial, issiq va nam. Nam mavsumi iyundan-dekabrgacha (yomg'ir momaqaldiroqlar bilan), quruq – yanvardan-maygacha. Trinidad orolida kichik daryolar, suv omborlari va Pitch-Leyk asfalt ko'li – dunyodagi noyob tabiiy asfalt joyi. Trinidad va Tobago hududida doimiy yashil tropik o'rmonlar o'sadi. Trinidadni shimoli g'arbida siyrak o'rmonlar va savannalar, sharqida – sho'r va chuchuk mangr botqoq o'simliklari joylashgan.

Tamaki
o'simligining
poyasi 2,5 m ga
yetadi

Trinidad va
Tobagoga xos
uylar




Yamayka



Poytaxti: Kingston
Maydoni: 11 ming km²
Aholisi: 2,7 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili
Aholisining diniy tarkibi: protestantlar – 61%, katoliklar – 4%, afrika maslaklariga e’tiqod qiluvchilar va mahalliy rastafarin dinidagilar – 35%
Davlat tuzumi: Hamdo’stlik tarkibidagi mustaqil davlat
Pul birligi: Yamayka dollari



Yamaykalik mashhur qo’shiqchi va bastakor Bob Marli mamlakat ramzi hisoblanadi. Uning uyi muzeysiga aylangan, qo’shiqchining o’ziga haykallar o’rnatihi

Xo‘jaligi

2004-yil YIM: 61% – xizmat ko‘rsatish sektoriga, 33% – sanoatga, 6% – qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri kelgan. Yamayka iqtisodiyotining asosini boksit qazilmalari va turizm tashkil qiladi. Bokslarni orolni markaziy qismida qazib olinadi (bokslar qazilmalar hajmi bo‘yicha Yamayka dunyoda 3-o‘rinda turadi), 4 ta tuproq-loy zavodlari va 1 ta neftni qayta ishlash zavodi mayjud.

Sanoatning boshqa tarmoqlari: mashinasozlik, kimyo (bo‘yoqlar, o‘g‘itlar), farmatsevtika, cement, shisha, to‘qimachilik, tikuvchilik, tamaki, qog‘oz. Mamlakatda shakar va yamayka romini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Aholi qahva, g‘arbda sabzavotlar, maniok, kartoshka, non daraxti, zanjabil, sitrus mevalar, tropik mevalar, yamayka qalampiri (ziravor) yetishtiradilar. Kichik miqdorda yirik shoxli mollarni, echkilarni ko‘paytirib, baliqchilik bilan shug‘illanadilar. Eksport o‘simgiliklar – shakarqamish, banan, sitrus mevalar. Mahalliy hunarmandchilikda ko‘proq yog‘och o‘ymakorligi yaxshi rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: bokslar, shakar, rom, qahva, sitrus mevalar, kiyim, glinozem (aluminiy oksidi), zanjabil hisoblanadi.



Yamayka raqqosalari go‘zal va nafis harakatlar bilan mevali savatlar ko‘tarib raqs tushishadi

Janubiy Amerika

Janubiy Amerika – G‘arbiy yarimshardagi qit‘a, Amerikaning Janubiy qismi hisoblanadi.

G‘arbda – Tinch okeani, sharqda – Atlantika okeani, shimolda – Karib dengizi janubda – Magellan bo‘g‘ozib yuvib turadi. Qit‘aning umumiy maydoni 17,65 ming km², orollar bilan birga – 18,28 mln. km².

Janubiy Amerikaga Trinidad va Olovli yer, Chili arxipelaglari, Galapagos, Folkland orollar va boshqa ko‘plab kichik orollar kiradi.

Daryo va ko‘llari

Janubiy Amerikaning asosiy daryolari Atlantika okeaniga tushadi. Ularning orasida dunyodagi eng sersuv daryo Amazonka va uni tarmoqlari Orinoko, Parana, Paragvay bilan, Tokantins Araguaya bilan, San-Frantsiskolar bor. Markaziy And tog‘larida ikki yirik baland tog‘ ko‘llari joylashgan. Titikaka (dengiz sathidan 3812 m balandlikda) va Poopo (3690 m). Janubiy Andlarni sharqiy qismida ko‘p ko‘llar muzlik kelib chiqishga ega: Nauel-Uapi, Buenos-Ayres, San-Martin, Vedma, Argentina.

O‘simlik va hayvonot dunyosi

Amazoniyada And tog‘larining sharqiy yonbag‘irlarida ekvatorial nam tropik qimmat navli o‘rmonlar, qolgan tekisliklarda va tropik yassitog‘liklarda – savannalar va siyrak o‘rmonlar, subtropiklarda – preriylar va dashtlar, subtropiklarning qirg‘oq hududlarida va mo‘tadil mintaqada – sahro va yarimsahrolar joylashgan.

And tog‘larining shimoliy qismida quiyi mintaqalarda nam tropik o‘rmonlar, Janubiy qismida esa aralash o‘rmonlar o‘sadi. Balandroqda odatiy tog‘ landshaftlari: baland o‘qli yaylovlar va hududning katta qismida tabiiy o‘rmonlar kesib tashlangan yoki yondirilgan. Landshaftlari inson tomonidan katta o‘zgarishga yuz tutgan.

Janubiy Amerika hayvonot olamida endemik turlar ko‘p, puma, yaguar, bronenoses, chumolixo‘r, lenives, keng burinli maymun va boshqalar uchraydi. Patagoniyada lamalar keng tarqalgan.

Iqlimi

Janubiy Amerikaning katta qismi subekvatorial va tropik iqlimdir. Quruq va nam mavsumlar yaxshi farqlanadi: Amazon pasttekisligida – ekvatorial doimo nam, qit‘a janubida – subtropik va mo‘tadil. Janubiy Amerikaning shimoliy tekisliklaridan janubiy tropikkacha harorat yil bo‘yi 20–28°C, janubroqda yanvar oyida (yozda) 10°C pasayadi. Iyulda Braziliya yassitog‘larida o‘rtacha harorat 12–16°C, Patagoniya platosida -1°C va pastroq bo‘ladi. And tog‘larida balandlik oshgan sari harorat sezilarli darajada pasayadi. Baland tog‘larda 10°C oshmaydi. Qishda esa (muzliklar) kuchli, qahraton sovuq, Kolumbiya va Chilining janubiy qismlarida joylashgan, shamolga ro‘para bo‘lgan And yonbag‘irlarida nisbatan kam yog‘ingarchilik yiliga 5–10 ming mm. Amazon pasttekisligining g‘arbida, And yonbag‘irlarida, Gvian va Braziliya yassitog‘liklarining sharqiy qismlarida yog‘ingarchilik yiliga 2–3 ming mm, qolgan hududlarda Anddan sharqqa 35° janubiy kenglikkacha 1–2 ming mm. Eng qurg‘oq yerlar: Pampdan g‘arbdagi hudud, Patagoniya, qit‘aning Tinch okeandan 5 dan 27° janubiy kenglikdag‘i hududlari va Markaziy And yassitog‘liklari oldidagi hududlar, And tog‘ining janubiy qismida va vulqon tepaliklarida, ya‘ni shimoliy qismlarida muzliklar uchraydi.

Tabiat

Qit‘a chizig‘i notejis, janubi g‘arbda fordlar bilan kuchli kesib tashlangan. Bir qancha katta ko‘rfazlar quruqlikka kirib borgan: g‘arbda – Guayakil, shimolda – Venusuela, Marakaybo ko‘l-lagunasi, janubi sharqda – La-Plata, Banya-Blanka, San-Matias, San-Xorxe qit‘ani o‘rtacha balandligi 580 m. G‘arbiy chekka bo‘ylab And tog‘ tizmasi cho‘zilgan (yuqori cho‘qqisi – Akonkagua 6960 m) qit‘a shimolida va shimoli sharqda Gvian va Braziliya tog‘ tizmalari qad ko‘targan. Ular orasida Amazonka pasttekisligi bor. And tog‘laridan sharq tomonda tog‘ oldi qiyaliklarida Orinoko pasttekisligi va ichki tekisliklar: Pantanal, Gran-Chako, Daryo oralig‘i, Pampa joylashgan. Pampa tekisligining janubiy qismida Patagoniya platosiga ulangan.

Geologik jihatdan And tog‘larida yaqin paytda faol vulqon faoliyati kuzatildi, hozirgi paytda ham bir xil hududlarda davom etmoqda. Gvian va Braziliya tog‘ tizmalarida temir, marganes rudalari, boksitlar, rangli va noyob metall konlari bor. Andoldi va tog‘oldi qiyaliklarida – neft va tabiiy gaz, And tog‘larida esa mis, polimetallar, qalay, molibden qazilmalari mavjud.



Qadimgi inklar liboslarini va bosh kiyimlarini naqshlar bilan bezashgan

JANUBIY AMERIKA



Argentina



Poytaxti: Buenos-Ayres

Maydoni: 2780 ming km²

Aholisi: 39 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy

tarkibi: katoliklar

– 90%, protestantlar

– 2%, yahudiylar – 2%,

qolganlari – 6%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: peso

Umumiy ma'lumotlar


Argentina Respublikasi – Janubiy Amerikadagi davlat, qit'aning janubiy qismida joylashgan. Davlat boshlig'i – prezident. Ma'muriy-hududiy bo'linishi: 23 viloyat va poytaxt okrugi.

Mamlakatda oq tanli

ko'chmanchilar avlodlari yashaydi:
ular – 85%, metislar – 12%, hindular – 3%.

Diqqatga sazovor joylari

Bu mamlakatda ko'p kilometrli plajlar, dunyonи yuqori cho'qqilaridan biri chegarasiz dashtlar, chiroy bo'yicha tengsiz sharsharalar, tog'-chang'i kurortlari, ko'plab mustamlaka davr arxitektura namunalari, zich o'monlar va keng megapolislar, yovvoyi va odamsiz, janubiy Patagoniya kengliklari va ko'rkan chorvadorlar qishloqlari mavjud. Qo'shi davlatlarga nisbatan Argentinada qadimiy hindular sivilizatsiyasi namunalarini saqlanib qolning emas. Mamlakat qattiq yevropalashgan, ammo tabiatni koloritli, madaniyatlari aralashib ketishi bu joylarni sayyoohlari uchun yanada qiziqroq bo'ladi.



Argentina
hududida
kemiruvchilar
turkumiga mansub
viskasha yashaydi



Janubiy Amerika
hindularining ko'p
poyali fleytasi
sampono deb
ataladi

Argentinaning asosiy yodgorliklari – tabiatni obidalar hisoblanadi. Iguasu dunyodagi juda mashhur sharsharasidir. Shaharlarning arxitektura ansamblı (Buenos-Ayres, Korrientes, Salta) sayyoohlarni o'ziga jalb etadi.

Shaharlarning diqqatga sazovar joylari: Buenos-Ayres – La-Boko va San-Telmo tumanlari, Metropolitan ibodatxonasi, San-Ignasio cherkovi, Samba – San-Fransisko ibodatxonasi, Ratusha, Kafedral cherkovi hisoblanadi.



Buenos-Ayresda
qariyb 3 mln.
kishi yashaydi
(1995-yildagi
ma'lumotga
muvofiq)

Xo'jaligi

O'zining iqtisodiy potensiali bo'yicha Argentina faqat Lotin Amerikasida Braziliya va Meksikadan ortta qoladi. Hozirgi paytda Argentina sanoatiga YIMni – 28% va iqtisodiy faol aholining – 27% qishloq, o'rmon xo'jalikalari va baliqchilikga – 5% va 9%, xizmat ko'rsatishga – 67% va 64% to'g'ri keladi.

Tog'-kon sanoati Argentina YIM – 2,5% ishlab chiqaradi. Mamlakatda temir, mis, rux, uran rudalari, oltin, qo'rg'oshin, volfram, marganes, berilliyl qazib olinadi. Neft va tabiiy gaz qazilmalari Patagon platformasi egiklari, And va Predor oldi tog' havzalari cho'kindi tog' jinslariga boy hisoblanadi. Mamlakat o'zini neft va gaz bilan ta'minlashga erishdi. Ko'mir qazib olish asosan Patogeniyada butumli va subbitumli usulida olinadi. Bundan tashqari tabiiy oltingugurt qazilmalari va zaxiralari sezilarli darajada.

Elektrostansiyalarda o'rnatilgan quvvat miqdori -15 500 mVt, shularni 47,6% – GES, 42,7% – IES, 9,5% – AESlar beradi. Gidroelektrostansiyalar hissasi oxirgi vaqtta ortib bormoqda. Yirik GESlar – Yasireta (3,5 mln. kVt Paragvay bilan birga), Salto-Grande (2,5 mln. kVt Urugvay bilan birga), Chonon-Serros-Kolorados (1,6 mln. kVt). Issiqlik stansiyalari asosan neft va gaz yoqilg'ilarida ishlaydi. Lotin Amerikasida – Argentina atom quvvatini yaratgan birinchi davlat.



Argentina cho'ponlari ho'kizlar podasini o'tlatmoqda

Birinchi AES Atucha 1974-yilda ishga tushdi, so'ng Embals AES ishga tushdi va Atucha II AESni Buenos-Ayres yaqinida qurishga kirishildi.

Qayta ishslash sanoatida og'ir industriya ilg'orlik qilmoqda. Ammo oldingiday odatiy yangi va eksport uchun ahamiyatli oziq-ovqat sanoat tarmoqlari hali ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda diversifitsirlangan mashinasozlik yaratilgan. Uning asosiy tarmoqlari – qishloq xo'jaligi uchun mashinasozlik, oziq-ovqat sanoati uchun jihozlar ishlab chiqarish, elekrotexnika va elektronika. Oxirgi yillarda yangi ilmiy – informatika, optik tola, uyali telefon

aloqa, biotexnologiya industriyasini mahsulotlarini ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda.

Argentina – dunyoda yetakchi agrar davlatlardan biri. Qishloq xo'jaligida asosiy urg'u chorvachilikka qaratilgan. Mollarni jon boshiga: yirik shoxli mollar – 49 mln. (dunyoda 6-o'rinn), qo'y – 15,7, cho'chqalar – 5,4. Go'sht ishlab chiqarish bo'yicha 5-o'rinni egallaydi, ammo aholi jon boshiga iste'mol qilish bo'yicha 1-o'rinda turadi. Argentina charm va jun bo'yicha yirik ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlatdir. Dehqonchilikda donli va moyli o'simliklar o'stirishga katta e'tibor berilgan. Dehqonchilikda ko'p mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish bo'yicha (bug'doy, shakar, o'simlik moylari, paxta) dunyoda yetakchi o'rinni egallagan. Xizmat ko'rsatish sektorlari ham jadal rivojlanib bormoqda. Turizm ham tez rivojlanib mamlakatga har yili 3 mln. ga yaqin chet el sayyoohlari keladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: kimyoviy mahsulotlar, mashinalar va ularni jihozlari, quvvat resurslari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, aluminiy ijerasi hisoblanadi.

2003-yilda sanoatning yuqori texnologlya sohalarida shartli sof mahsulot ishlab chiqarilishining Lotin Amerikasi mamlakatlardagi ko'rsatkichi (1997-yillar xilari bo'yicha mln. dollarda ko'rsatilgan)



	Aviatsiya va raketa-koinot sanoati	Kompyuter va periferiya moslamalarini ishlab chiqarish	Aloqa vositalarini ishlab chiqarish	Aniq asbobsozlik	Farmatsevtika preparatlarini ishlab chiqarish
Argentina	0	66	789	144	1195
Braziliya	10139	2517	3273	1982	7871
Meksika	235	2162	3630	1984	3388

Aviatsiya va raketa-koinot sanoati
Kompyuter va periferiya moslamalarini ishlab chiqarish
Aloqa vositalarini ishlab chiqarish
Aniq asbobsozlik
Farmatsevtika preparatlarini ishlab chiqarish



◆ Kapibara Janubiy Amerika tropik o'rmonlaridagi daryolar va ko'llar qirg'og'ida yashaydi

Tabiat

Argentina tabiatini shimoldan janub tomon katta masofaga cho'zilgan (3700 km) shuning uchun relyefida ham farqi katta. Mamlakat g'arbini And tog'lari egallagan. And tog'lari – g'arbiy yarimshardagi eng yirik tog' massividir, eng yuqori cho'qqilari markaziy qismiga to'g'ri keladi. Janubiy Amerikaning eng yuqori cho'qqilari shu yerda joylashgan, qor qoplamlari va muzliklar ostida. Misol uchun Akonkagua – butun Amerikaning eng yuqori cho'qqisi And tog'lariдан sharqda, mamlakatning markaziy qismida chuqurliklar bilan ajratilgan balandligi 2 mingdan 6 ming m bo'lgan tog' massivlari joylashgan. Argentinaning shimoli g'arbida 3–4 ming m balandlikda keng toshli



And tog'laring nomi inklar tilida «mis tog'lari» degan ma'noni bildiradi

vulqonli – Puna platosi joylashgan. U baland tog' tizimlari bilan himoyalangan. Janubroqda 370° janubiy kenglikda And tog'lari 2–3 ming m pasayib boradi va sharqda Patagon yassitog'lariga qo'shilib ketadi.

Shimol, shimoli sharq va sharqiy qismini tekislik va pasttekisliklar egallagan. Mamlakat shimolida Gran-Chako pasttekisligi bor, u kishi o'tishi qiyin tropik o'rmonlar va botqoqliklar bilan qoplangan. Gran-Chakodan janubi sharqda Piran va Urugvay daryo oralig'ida yassi tekislik bor (Entre-Rios). Janubroqda keng dashtli tekislik – Pampa yotadi, u mamlakat hududining 1/4 qismini egallagan. Bu Argentinaning «tashrif qog'ozisi» desak ham bo'ladi. Bu yerda mamlakat aholisining 3/5

qismi yashaydi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 4/5 chiqaradilar. Argentina Pampasining yer resurslari, baland o'tlari katta massivli, unumdon, qora tuproqli yerlar – mamlakatning asosiy tabiiy boyliklari sanaladi. Atlantika qismidagi quyi Pampa to'liq chopilgan. Uni yonidagi qurg'oq yuqori Pampa ko'proq tabiiy voha hisoblanib, yaylovlar bilan qoplangan.

Argentina 3 ta iqlim mintaqalarida joylashgan: tropik, subtropik va mo'tadir. Yillik o'rtacha harorat tog'larni hisobga olinmasa 0°C pastga tushmaydi, ammo janubiy hududlarda qishki mavsum paytida keskin sovuq harorat kuzatiladi. Yog'ingarchilik miqdori sharqdan-g'arb tomon pasayib boraveradi. 1400–1600 dan 100–300 mm gacha, tog'larda yana ko'tariladi. Hududning katta qismi namlik kam bo'lgan hududda joylashgan. Eng ko'p yog'ingarchilik janubiy And tog'laring sharqiy qismiga to'g'ri keladi, tekis hududlardan esa – Entre-Rios Argentinaning shimoli sharqida yog'ingarchilik (1600 mm gacha) yetadi.

Ikki sersuv ko'p tarmoqli Pirana va Urugvay daryolari umumiy irmoq La-Platga quyiladi. Argentinaning eng yirik daryolari La-Plat havzasidan yiroqdagilar – Rio-Salado, Rio-Kolorado, Rio-Negro bular Atlantik okeanigacha irmoqlari yetib borgan. Mamlakat hududining 20% o'rmonlar bilan qoplangan.



◆ Iguasu sharsharasi

Boliviya



Poytaxti: Sukre (rasmiy),
La-Pas (amalda)

Maydoni: 1098,6 ming km²

Aholisi: 10 mln. kishi (2007)

Rasmiy tillari: ispan,
aymara, kechua tillari

Aholisining diniy tarkibi:

katoliklar – 95% ko‘proq

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: boliviano



Boliviya qo‘g’irchog‘i

Umumiy ma’lumotlar

Boliviya Respublikasi – Janubiy Amerikaning Markaziy davlati. Davlat boshlig‘i – prezident. Aholining 30% – kechua hundulari, 25% – aymara hundulari, 30% – metislar, 15% – ortiqrog‘ini – oq tanlilar tashkil etadi.



Boliviyaning yirik
shaharlarida baland
imoratlar ko‘p

Tabiat

Boliviya – tog‘li mamlakat, hududining 1/3 ortiqrog‘ini And tog‘lari egallagan. Bu yerda ular Amerikada eng katta eniga cho‘ziladi va Puna tog‘ tekisligini hosil qiladi. Punani Markaziy qismi – Boliviya tog‘ tizmasi bo‘lib u tashqi tarmoqlardan deyarli uzilgan va Kordiler tog‘lari tizmalari orasida joylashgan. Boliviya sharqidan, savannalar bilan qoplangan Orente tekisligi bor (mamlakatni yarmidan ko‘prog‘ida seysmik hudud joylashgan).

Boliviya tog‘ tizmasi iqlimi – tropik qurg‘oq, tog‘ – kontinental. Boliviya shimoli sharqidagi tekislikdagi iqlim – subekvatorial – iliq. Titikaka ko‘li dengiz sathidan 3812 m balandlikda joylashgan. Titikaka ko‘li – Dunyo ko‘llari ichida tog‘lar bilan o‘ralgan, kemalari ko‘p, eng yirik (8300 km) tog‘ tizmasida joylashgan ko‘l hisoblanadi.

Mamlakat hududida baland joyda istiqomat qiluvchi aholining hissasi bo‘yicha, Boliviya dunyo davlatlari ichida yuqori o‘rinda turadi. Aholining 3/4 dengiz sathidan 3700 m balandlikda yashaydi.

Xo‘jaligi

Boliviya – Lotin Amerikasidagi davatlardan biri. Mamlakat iqtisodiyotining asosi tog‘-kon sanoati bo‘lib u YIMni – 21% va eksport tushumlarini – 48% tashkil etadi. Mamlakat dunyoda qalay qazilmalari bo‘yicha 5-o‘rin va surma qazilmalari bo‘yicha 1-o‘rinni egallagan. Boliviya bundan tashqari neft, gaz, volfram, rux, qo‘rg‘oshin, mis, kumush, oltin, kam uchraydigan metallar va qimmatbaho toshlar qazib oladi. Qayta ishslash sanoati yaxshi rivojlanmagan. Ko‘proq qalay, surma, vismut eritish korxonalariga e’tibor qaratilgan. Mamlakatda nefstni qayta ishslash va tog‘-kon jihozlarini ta’mirlash zavodlari mavjud.

Qishloq xo‘jaligi mamlakatning oziq-ovqat ehtiyojini to‘liq qoplay olmaydi, shuning uchun 40% import qilinadi. Eksport uchun: qahva, kakao donalari, choy, shakarqamish, sitrus mevalari, mevalar hamda kokao yetishtiriladi. Iste’mol uchun makkajo‘xori, guruch, kartoshka, arpa yetishtiriladi.

Eksport mahsulotlari ruda xomashyosi, yoqilg‘i, agrar mahsulot va sanoat yarim tayyor mahsulotlari hisoblanadi.

Braziliya



Poytaxti: Braziliya

Maydoni: 8547,4 ming km²

Aholisi: 189 mln. kishi

(2007)

Rasmiy tili: portugol tili

Aholisining diniy

tarkibi: katoliklar – 93%, protestantlar – 5%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: real



Umumiy ma'lumotlar

Braziliya Fedrativ Respublikasi – Janubiy Amerikaning eng yirik davlati va uning hududini yarmini egallagan. Mamlakat qit'ani sharqiy va markaziy qismini egallagan va ekvatorni ikki chekkasida joylashgan. Davlat boshlig'i – president.

Ma'muriy-hududiy bo'linishi – 23 shtat, 3 – hudud va poytaxt okrugi.

Aholining 55% – oq tanli braziliyaliklar, 38% – mulat va metislar, 6% – qora tanli braziliyaliklar.



◆ Braziliadagi sobor-metropoliten – zamonaviy shahar arxitekturasining namunasi

Diqqatga sazovor joylari

Braziliyaning asosiy diqqatga sazovor joylari uning madaniy-tarixiy (haykallari), obidalari hisoblanadi.

Braziliya hududidagi 16 obyekt YUNESKOning butun dunyo merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ular

orasida ko'p mamlakatlardan arxitektura ansamblari bor.

Ko'p sayyoohlarni mashhur Braziliya karnavalini qiziqtiladi, u har yili Rio-de-Janeyroda o'tkaziladi.

◆
Braziliya karnavalining ishtirokchilari ajoyib libosi bilan kishini hayratga soladi



JANUBIY AMERIKA

Tabiat

Braziliya hududida ikki asosiy tabiiy hudud ajratiladi: shimoldagi Amazon pasttekisligi va mamlakatning 2/3 egallagan Braziliya yassitog'larini, u markaziy va janubiy qismlarini egallagan. Amazonka butunlay ekvatorial o'rmonlar bilan qoplangan va hali yaxshi o'zlashtirilmagan. Braziliya yassitog'ligini okean oldi qismida nisbatan aholi joylashgan. Yassitog'likni ichki qismlarida aholi nisbatan siyrak joylashgan, ular Atlantika okeanidan tepaliklar, yassitog'likli platolar, o'rta balandlikdagi tog' tizmalari – serramilar bilan yopilgan. Janubi g'arbda Braziliya yassitog'ligi Pirana platosiga qo'shib ketadi, bu platodan g'arbda botqoqlashgan Pantanal tekisligi yotadi, u Paragvay daryosi tepaliklaridagi keng tektonik chuqurlikdir. Mamlakatning shimoliy qismida Amazonka pasttekisligiga Givan tog' tizmasi qo'shib turadi.

Braziliya 4 iqlim zonasida joylashgan: ekvatorial, subekvatorial, tropik va subtropik. G'arbiy Amazoniya iqlimi – ekvatorial, issiq va doimiy yog'ingarchilik yiliga 3000–3500 mm bir xil joylarda 5000 mm gacha yetadi. Sharqda iqlim subekvatorial, yog'ingarchilik miqdori yiliga 1600–2000 mm gacha. Braziliya yassitog'ligining katta qismi uchun

o'rtacha yillik miqdori 1500–2000 mm tashkil etadi, bularning 80% noyabrdan martgacha yog'adi. Bu yassitog'likning shimoli sharqi nisbatan quruq, yarim yillab quruq davri davom etishi mumkin. Braziliya janubining subtropiklari uchun iliq va nam iqlim xosdir, yillik miqdori nisbatan teng taqsimlangan.

Braziliya hududidan dunyoning eng sersuv daryosi – Amazonka o'zining ko'plab irmoqlari bilan oqib o'tadi (500 dan ortiq shulardan 20 uzunligi 1500 km dan uzunroq). Amazon havzasasi Braziliya hududining 1/3 egallaydi va dunyo daryolari zaxirasining 1/5 ega. Amazonka yil bo'yisi sersuv, u Atlantika okeaniga quyiladi va dunyodagi eng katta ichki deltani hosil qiladi, 100 ming km² ortiqroq. Daryodan kemalar 4300 km suzadi.

Braziliyada nafaqat Janubiy Amerikada balki butun dunyodagi eng noyob ekotizim – Amazoniyani nam tropik o'rmonlari joylashgan. Ularni Yer zamining «o'pkalar» – desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki ular dunyo o'simliklari beradigan kislordoni 1/2 beradilar va 1/2 uglerod gazini atmosferadan qabul qiladilar. Mamlakat hududini 60% atrofida o'rmonlar egallagan (dunyo o'rmonlar hududini 15%, Rossiyanadan keyingi

Braziliyada neft daraxti o'sadi (*kopaifera langsdorffii*). Agar uning poyasini kessangiz dizel yonilg'isidan farq qilmaydigan sharbat oqib tushadi



2-o'rin). G'arbiy Amazoniyada – doimiy yashil o'rmonlar, Sharqiy – Amazoniyada – bargi to'kiluvchan doimiy yashil o'rmonlar o'sadi.

Braziliyada yassitog'ligining markaziy qism landshaftlari – ko'proq butali o'simliklar va savannalar, siyrak o'rmonlar bilan qoplangan. Qirg'oq shimoli sharqiy qismi yarimsahro, uning janubiy-sharqiy qismi doimiy yashil bargli va aralash o'rmonlar bilan qoplangan. Braziliya janubi subtropik dashtlar hududida joylashgan.




Yalqov – Janubiy Amerikaning tropik o'rmonlarida yashaydi

Braziliyaning Purus daryosi qirg'og'i

Xo'jaligi

Braziliya – Lotin Amerikasida iqtisodiyoti eng rivojlangan mamlakat. XX asr oxirida dunyoning YIM eng rivojlangan 8 davlat orasida joylashgan. Hozirgi paytda YIMning 34% – sanoat, 9% – qishloq va o'rmon xo'jaliklari, baliqchilik, 57% – xizmat ko'rsatishga to'g'ri keladi.

Mamlakat katta xomashyo potensialiga va rivojlangan ishlov berish sanoatiga egadir. Uni hududida temir rudasi, boksitlar, marganes, mis, qalay, nikel, titan, xromitlar, kobalt, yerda kam uchraydigan metallardan niobiya, berelliyl, tantal, sirkoniyl, litiy kabi qazilmalarining yirik zaxiralari bor. Bundan tashqari uran, fosforitlar, apatitlar, kaliy tuzlari, olmos, slyuda, tog' billuri, barit, pirit konlari mavjud. Braziliya o'zining qimmatbaho toshlari bilan ham mashhur: topaz, akvamarin, sapfir va boshqalar. Mamlakat ko'p yillardan beri dunyoda o'z pog'onalarini saqlab kelmoqda. Mamlakat temir rudasi, apatit va niobiy konsentratini qazib olish bo'yicha 1-o'rinda, berilliyl qazib olish bo'yicha 2-o'rinda, boksit, granit, tantal konsentratlari bo'yicha 3-o'rinda turadi.



Qahva hosili terimi

Elektrostansiyalarda belgilangan quvvat 60 mln. kVt. Quvvatni 96% GESga to'g'ri keladi. Katta miqdorda Parana daryo havzasining gidroenergetik potensiali ishlatalidi, bu yerda Braziliyaning barcha GESlar quvvatini 2/3 to'plangan. Braziliya va Paragvay chegarasidagi Prana daryosida dunyodagi eng yirik Itaypu GESi joylashgan. Katta GES kaskadi yana San-Fransisk daryosida ham barpo etilgan. Amazonka va uning irmoqlarini gidroenergetik potensiallarini ishlatalish hali rivojlanmagan. Mamlakatda Angra-du-Reysda yagona AES faoliyat olib bormoqda.

Qayta ishlash sanoatida odatiy tarmoqlar – oziq-ovqat, yengil, yog'ochsozlik bilan bir qatorda og'ir industriya (sanoat) va yangi ilmiy noyob ishlab chiqarish jadal rivojlanib bormoqda. Braziliyada baquvvat metalluriya majmuasi yaratilgan. Lotin Amerikasida eng yirigi hisoblanadi. Mashinasozlikning doimiy tarmoqlariga (avtomobilsozlik, kemasozik, qishloq

Braziliyada topaz, tog' billuri va akvamarin konlari bor




xo'jalik mashinasozligi, dastgohlar qurish) milliy sanoat mahsulotlarining 30% to'g'ri keladi. Mashinasozlikning quydagi tarmoqlari elektrotexnik va radioelektron, aviatsion, raketokosmik sanoatlari tez rivojlandi. Ilmiy-nano tarmoqlardan aniq mehanika va optika, bioindustriya, quroslaslahalarni turli turlarini ishlab chiqarish rivojlangan. Jadal tezliklar bilan neft-kimyo va farmatsevtika taraqqiy etmoqda.

Braziliya – ko'p qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlatdir. Qishloq xo'jaligi eksport hajmi bo'yicha faqat AQSh va Fransiyadan keyin turadi. Ekin yerlarining 30% 5 ta eksport o'simliklariga ajratilgan – qahva, kakao donlari, shakarqamish, paxta va soya. Mamlakat qahva yetishtirish, paxta, shakarqamish, banan, apelsin terimlari bo'yicha dunyoda 1-o'rinni egallagan. Chorvachilikning Braziliyada asosiy go'sht yo'nalishida yaylov chorvachiligi rivojlangan. Mol, parrandalar, qo'y go'shtlari – yuqori darajalidir.

Xizmat ko'rsatishning xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan tarmog'i bu turizmdir. Har yili mamlakatga 3 dan 5 mln. gacha chet el sayyoohlari keladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: mashina va jihozlari, agrar mahsulotlar (shakar, qahva, soya, go'sht, parrandalar va boshq.) ma'dan xomashyosi hisoblanadi.



Sigir fermasi

Ekvador



Poytaxti: Kito

Maydoni: 272 ming km²

Aholisi: 14 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 95%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: sukre



Krevetkalarning uzunligi 2-30 sm ga yetadi. Ularning ba'zilari rangini o'zgartira oladi

Umumiy ma'lumotlar

Ekvador Respublikasi – Janubiy Amerikada ekvatorda joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining 65% – metislар, 25% – hundular, 7% – kreollar, 3% – negrlar tashkil qiladi.

Tabiatи

Mamlakatni markaziy qismida sharqdan janub tomon Ekvador And tog'lari qad ko'targan, ular ikki parallel bo'lgan tog' tizmalari – G'arbiy va Sharqi Kordilerlardan tarkib topgan. Tog'larda 30 ta vulqon bor. Zilzilalar, vulqonlar otishli, yer ko'chishi tez-tez bo'lib turadi.

G'arbiy va Sharqi Kordilerlar orasida eni 65 km gacha bo'lgan yassitog' tizmasi yotadi, bu yer tuprog'i vulqonli serhosildir. Sharqqa Sharqi Kordilerdan Kordilera-de-Galeras, Kordilera-de-Kutuku, Kordilera-del-Kondor baland bo'lmagan tog' tizmalari cho'zilgan. Bulardan sharq tomon tog' tepaliklar sekin-asta Orente tekisligiga – Amazoniya g'arbiy qismiga o'tadi. Galapagos orallari o'zida vulqonli qoyalarni aks ettiradi. Bularning ko'pida vulqonlar bor.

Mamlakat iqlimi ekvatorial, janubda – subekvatorial. Tog'larda balandlik iqlimi mintaqalar hisoblanadi. Katta balandlikda tropik jaziramasi yo'q, kechalari bo'lsa sovuq. Tog'lar oralig'idagi Serra havzasida kunduzgi va kechqurungi harorat amplitudasida farq katta.

O'rmonlar Ekvador hududining 56% ni egallagan. Tekisliklarda va tog'larni quyi qismlari nam bo'lgani uchun doimiy yashil o'rmonlar o'sadi. Tog'larda 3000 m gacha tog' gileyasi, 3000 m balandlikda – baland tog' yaylovları – paramollar yotadi, 4250 m dan – muzliklar qoplangan. Janubda savannalar kserofit siyrak o'rmonlari, janubni eng chekkasini yarimsahrolar egallagan.

Xo'jaligi

Ekvador – iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan davlat. Mamlakatda neft, tabiiy gaz, temir rudasi, rangli metallar rudalari, oltingugurt qazib olinadi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari: to'qimachilik, metallni qayta ishlash, yog'ochsozlik, baliq, neftni qayta ishlash hisoblanadi. Mamlakatda banan, qahva, kakao donalari, guruch, kartoshka, maniok, cassava, shakarqamish, ananaslar yetishtiriladi. Aholi xin daraxti po'stlog'ini tayyorlash va geveya sharbatini yig'ish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, yirik shoxli mollarni, cho'chqalarni, qo'yalmi ko'paytirish va baliqchilik bilan ham shug'ullanadilar.

Hunarmandchilik: jundan mahsulotlar tayyorlash, kumushdan keramika, yog'och «tokilya» panam-shlapalari, tagua palmalaridan buyumlar yashash hisoblanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari, banan, krevetkalar, qahva, kakao donalari, gullar, bals daraxti hisoblanadi.

Ekvadorlik ayol
maniok unini elakdan
o'tkazyapti



Gayana



Poytaxti: Jorjtaun

Maydoni: 215 ming km²

Aholisi: 800 ming kishi
(2007)


Rasiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy

tarkibi: anglikanlar – 50%, hinduiylar – 35%, musulmonlar – 10%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Gayana dollari



Sof holda topilga oltin aralashmasining qandayligiga ko'ra och sariq, qizg'ish yoki yashil tusli bo'lishi mumkin

Umumiy ma'lumotlar

Gayana Respublikasi – Janubiy Amerikaning shimolidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Gayana – Hamdo'stlik a'zosi. Mamlakat aholisining 50% – hindlar, 36% – negrlar, 6% – mulat va sambo, 7% – amerika hindulari (aravak, nribilar, makushi, vapishana), 1% – yevropaliklar va xitoyliklar.

◆ Ovqatga ishlataladigan maniok yoki cassavani Janubiy Amerikaning qurg'oqchil hududlarida yetishtirishadi



Tabiat

Mamlakat Givan tog' tizmasining sharqi qismini egallagan. G'arbda Pakarayma tog'lari va kichik tarmoqlari joylashgan. Janubda – tepalik plato balandliklari 300–500 m va kichik tog'lar joylashgan. Shimolda Atlantika qirg'og'i bo'yalarida keng pastlik joylashgan.

Mamlakat iqlimi subekvatorial issiq, nam, shimoli sharqi passatlar bilan yumshaydi. Yog'ingarchilik (yiliga 2200 mm) asosan yozda (may-avgust) va qishda (noyabr-yanvar) yog'adi. Bu vaqt mobaynida suv toshqinlari bo'ladi. Mamlakatda daryolar, sharsharalar joylashgan.

Gayananing 84% o'rmonlar egallagan. Atlantika qirg'oqlari bo'ylab yotgan pastlik botqoqlashgan. Bu yerda mangr o'rmonlari joylashgan. Qolgan yerkarda ekvatorial nam o'rmonlar va kichik savanna yerkari joylashgan. Janubiy-g'arbni eng chekkasida keng Rupununi savannasi joylashgan, unda quruq yaylovlari va tepaliklarida o'rmonlar bor. Mamlakatda toshbaqalar, kumushrang tulkilar va boshqa hayvonlar bor.

Xo'jaligi

Iqtisodning asosiy tarmoqlari – tog'-kon sanoati va qishloq xo'jaligi. Mamlakatda boksitlar va glinozem (dunyoda 5-o'rin), marganes rudasi, oltin, olmos, kolumbit qazib olinadi. Botqoqlashgan pasttekisliklarda ortiqcha suvni bartaraf etish uchun ko'plab irrigatsion kanallar mavjud. Bu yerda qimmatbaho yog'och navlari tayyorlanadi. Sanoat tarmoqlari: yog'ochsozlik, to'qimachilik, shakar, rom ishlab chiqariladi.

Aholi shakarqamish, guruch, yams, maniok, batat, makkajo'xori, kokos palmasi, qahva, anans, avakado, citrus mevalarni yeshtiradi. Rupununi savannalarida yaylov chorvachiligi rivojlangan. Atlantika okeanida baliq va krevetkalar ovi olib boriladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: shakar, boksitlar va glinozem, oltin, guruch, krevetkalar, qora patoka, rom, qattiq turdag'i qimmatbaho navli yog'ochlar hisoblanadi.

Kolumbiya



Poytaxti: Santa-fe-de-Bogota

Maydoni: 1141,7 ming km²

Aholisi: 46 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 90%, qolganlari – protestantlar va boshqalar

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Kolumbiya pesosi



◆ Kolumbiyada arxeologlar tormonidan topilgan qadimiy haykal

Umumiy ma'lumotlar

Kolumbiya Respublikasi – Janubiy Amerikaning shimoli g'arbidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining 58% – metislار, 20% – kreollar, 14% – mulatlar, 4% – qora tanlilar, 3% – sambo, 1% – amerika hundulari tashkil qiladi.

Xo'jaligi


Kolumbiya iqtisodiyoti qahva, neft eksportiga asoslanadi.

Mamlakatda tabiiy gaz, neft, oltin, kumush, platina, yoqtular, temir, mis, qo'rg'oshin, rux, nikel rudalari, toshko'mir, boksit qazib olinadi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: to'qimachilik, tikuvchilik, oziq-ovqat, neftni qayta ishslash, tog'-kon, kimyo, o'rmon va boshqalar kiradi. Kolumbiyada metallurgiya, metallni qayta ishslash, mashinasozlik, elektronika va radiotexnika, neftni qayta ishslash korxonalarini bor.

Asosiy eksport o'simligi – qahva (arabika navi). Yiliga 0,7 mln. t. qahva ishlab chiqariladi (dunyoda 2-o'rinni). Mamlakatda banan, makkajo'xori, sorgo, jo'xori, bug'doy, guruch, shakarqamish, kakao donalari, kungaboqar, paxta va boshqalar yetishtiriladi. Qo'ychilik rivojlangan. Asosan yirik shoxli mollarni, cho'chqalarni, qo'yalarini, tovuqlar ko'paytiriladi, baliq va krevetka ovi bilan shug'ullanadi.

Kolumbiya neft, qahva, toshko'mir, kiyim, bananlarni, kesilgan gullarni, narkotiklarni eksport qiladi.



◆ Kolumbiyada qo'ychilik rivojlangan

◆ Kartaxenda mustamlakachilik davridagi katta shahar devorlari, istehkomlar (1532 – 1796), monastirlar va cherkovlar saqlanib qolgan



Morfid kapalaklar oilasi qariyb 80 ta turni o'z ichiga oladi. Ular ajoyib rangi va qanotlarining sadafrang yarqiroqligi bilan mashhur. Morfidlar faqat Janubiy va Markaziy Amerikada, jumladan, Kolumbiyada yashaydi



Tabiatি

Tinch okean qirg'oq chizig'i notejis, kichik ko'rfaflar va yarimorollar bilan kesib tashlangan, qirg'oq bo'ylab ko'p kichik orollar joylashgan. Karib dengiz qirg'oq chizig'i ravon, uning shimolida Guaxira yarimoroli joylashgan. Mamlakatning g'arbiy qismida shimaldan janub tomon And baland tog' tizimi cho'zilgan, cho'qilari 5000 m balandroq. U uchta parallel tog' tizmalaridan iborat. G'arbiy, Markaziy va Sharqi Kordiler. Bular Pasto platosini shimaliy qismida yelpig'ichsimon bo'lib tarqalgan. Kordilerlarni markaziy qismida bir nechta tekis platolar (balandligi 3000–3500 m) bor, Antiok tog' tizmasi va bir qancha tog' havzzalari. Shimolda Serra-Nevada-de-Santa-Mariya tog' massivi joylashgan.

Markaziy Kordilerda ko'plab uyg'oq va so'ngan vulqonlar bor. Shimolda bu tog' tizmasi San-Lukas tog'lari bilan tugaydi. Tog'li hududlarda kuchli zilzilalar va vulqon otilishlari bo'lib turadi. G'arbiy dengiz qirg'oqlarida shimaldan janub tomon eni ensiz. Tinch okean pasttekisligi Atrato vodiysi bilan joylashgan. Shimolda keng Karib oldi pasttekisligi bor. Sharqi Kordilerdan sharqda Meta, Kasanare, Arauca yassitog'likli Lyanos joylashgan (Gvian yassitog'lining g'arbiy tarmoqlari) bo'lib, u janubi sharqqa borib pasayadi va Amazon pasttekisligiga o'tib ketadi.

Mamlakat shimalida iqlim subekvatorial, janubda ekvatorial (uning uchun quruq va nam mavsumlar muhimdir). Andning janubida ikkita nam mavsum va 2 ta quruq mavsum kuzatiladi, markazda bittadan. Kolumbiya shimalida tez-tez qurg'oqchiliklar bo'lib turadi. Guaxira yarimorolida

yarimsahro bor, tog'larda yog'ingarchilik qor ko'rinishida yog'adi.

Uchta Kordiler orasida janubdan shimal tomon ikki asosiy daryo – Magdalena va uming tarmog'i Kauna oqib o'tadi. Sharqi Kordilerdan sharq tomon Orinoko va Amazonka havzalaridagi daryolar oqib tushadi. Guavyare daryosida bir nechta yirik sharsharalar bor. Sharqi Kordiler tog'larida tektonik va vulqonli ko'llar bor. Magdalena daryo vodiysining quyi qismi kuchli botqoqlashgan, bu yerda ko'plab ko'llar mavjud. Harakatdagi vulqonlar hududida geyzerlar bor.

Sharqi va G'arbiy Kordilerlarni shamilga ro'para tog' yonbag'irlari 1000 balandlikkacha nam ekvatorial o'rmonlar bilan, shamilga teskari bo'lgan yerlari – bargi to'kiluvchan o'rmonlar va tikanli butalar bilan qoplangan. 1000 dan 2000 m gacha daraxtga o'xshash qirquluoq,



Guavyare daryosi

bambuk, mumli palmalar, orxideyalar, xin daraxtlaridan iborat o'rmonzorlar joylashgan.

2000 dan 3200 m gacha balandlikda doimiy yashil pastbo'ili daraxt va butalar o'sadi. 3200 m dan balandda baland tog' ekvatorial vohalari, 4700 m dan boshlab abadiy muzliklar joylashgan.

Sharqi yassitog'liklarda va Amazoniyada gileyalar joylashgan. Tinch okeani va Karib dengiz qirg'oqlarida Mangr o'rmonlari, Tinch okean pasttekisligida nam ekvatorial o'rmonlar o'sadi. Karib pasttekisliklari savannalar, shimali sharqda – kserofit butalar va kaktuslar o'sadi. O'rmonlarda qimmatbaho yog'och turlari o'sadi, ularidan olingan pilomaterial va buyumlar eksport qilinadi.

Koka butasi



Kolumbiya faunasini vakili bo'lmish jaguar nozik harakati va mo'ynasining chiroyli rangi bilan ajralib turadi



Paragvay



Poytaxti: Asunson
Maydoni: 406,8 ming km²
Aholisi: 6,1 mln. kishi (2007)
Rasmiy tillari: ispan, guarani tillari
Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 90%, protestantlar – 10%
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: guarani



Mate barglaridan tayyorlangan choyning ta'mi an'anaviy choylarning ta'midan taxirligi bilan ajralib turadi

Umumiyyat va iqtisodiyot

Paragvay Respublikasi – Janubiy Amerikadagi davlat. Davlat boshlig'i – Prezident. Aholining 88% – metislari, 9% – yevropaliklar, 2% – hundular tashkil qiladi.

Tabiat

Paragvay daryosi mamlakatni ikki har xil qismga ajratadi: sharqiy (hududni 40%) Parana platosi, savannalar va subtropik o'rmonlar bilan birga; g'arbiy – keng Gran-Chako tekisligi bilan ajratadi.

Paragvay iqlimi g'arba subtropik, yarim quruq. Gran-Chakoda namlik mavsumi noyabrdan-martgacha, qurig'i – apreldan-oktabrgacha davom etadi. janubi sharqda suv toshqinlari bo'lib turadi.

Mamlakat hududining 33% o'rmonlar egallagan. Sharqiy qism o'rmonlar bilan qoplangan. Ulardan g'arb tomon savannalar va daryo bo'ylab alohida o'rmon massivlari joylashgan. Deyarli hamma yerlarda filodendronlar va orxideyalar uchraydi. Gran-Chakoda ko'rchumoli inlari ko'p. Mamlakatda 7 ta milliy bog'lar bor.



Asunsondag'i zamonaviy ibodatxona

Xo'jaligi

Sanoati rivojlangan agrar mamlakat. YIM 50% – xizmat ko'sratish sektoriga, 25% – sanoatga, 25% – qishloq va o'rmon xo'jaligi tashkil etadi. Argentina va Braziliya chegaralarida GES qurilgan. Mamlakatda yog'och (kebracho daraxtini kesish) va yog'ochsozlik (arralangan mahsulotlar: eman, kebrachu ekstrakti, o'simlik mumii), sement, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan. Bu yerda po'lat quyish zavodi mavjud.

Aholi paxta, qahva daraxti, soya, bug'doy, choy (mate) yetishtiradi; yirik shoxli mollarni ko'paytiradi va cho'chqachilik bilan shug'ullanadi. Yirik shoxli mollar boshi 1980–1990-yillarda 8 mln. boshgacha qisqardi.

Mahalliy hunarmandchilik «nyanduti» to'qish, musiqa asboblarini yasash (gitara, arfa, yog'och va suyak o'ymakorligi). Paragvay qahva, paxta, yog'och, soya, tamaki, tung yog'i, go'sht, sherst, elektr quvvati, kebracho ekstraktini eksport qiladi.

Peru



Poytaxti: Lima

Maydoni: 1285,2 ming km²

Aholisi: 28 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tillari: ispan,
kechua, aymara tillari

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 90%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: yangi sol



Peru qo'g'irchog'i

Umumiy ma'lumotlar

Peru Respublikasi – Janubiy Amerika g'arbidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining 45% – kechua va aymara hundulari, 37% – metislar, 15% – kreollar tashkil etadi.

Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyotini asosiy tarmoqlari – qishloq xo'jaligi, baliqchilik, tog'-kon sanoati, turizm hisoblanadi. 2004-yildan YIMni 65% – xizmat ko'rsatish sektoriga, 27% – sanoatga, 8% – qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Peruda temir rудаси, rangli rudalar va qimmatbaho metallar konlarini ishsga tushirish ishlari ustida ishlanmoqda. Vismut qazilmalari bo'yicha mamlakat dunyoda 1-o'rinni egallagan. Selvada yog'och tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilgan. Sanoatning asosiy tarmoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, neftni qayta ishlash, baliq-konserva va baliq uni (Peru – dunyoda anchouslardan baliq unini yirik ishlab chiqaruvchisidir), shakar, sement va boshqalar hisoblanadi.

Mamlakatda qora va rangli metalluriya, mashinasozlik (avtolar yig'ish, kemasozlik) ishlab chiqarish

mavjud. Elektr-quvvatni 85% – GESlar 15% – IES ishlab chiqaradi. Aholi bog'dorchilik, uzumchilik bilan shug'ullanadi, shakarqamish, paxta, qahva daraxti (3-o'rinda), kartoshka, makkajo'xori (Peru ikkalasini ham vatani), guruch yetishtiradi. 200 mingga yaqin dehqonlar nok o'stirish bilan band.

Aholi shuningdek, yirik shoxli mollarni, cho'chqalarni, parrandalarni ko'paytirish va baliqchilik bilan shug'ullanadi.

Baliq tutish bo'yicha Peru dunyoda 2-o'rinni egallaydi (2002-y. 8 mln. t.) XXRdan keyingi o'rinda turadi. Orollarda guano terimi olib boriladi.

Ko'plab perulik ayollar junga ishlov berib yorqin naqshi bilan ajralib turuvchi turli buyumlar tayyorlashadi

Mahalliy hunarmandchilik: jun matolar to'qish, poncho, shapkalar tayyorlash, alpak va lama junidan mahsulot ishlab chiqarish, turli shakldagi ko'zalar, hayvonlar haykallarini yasash, qovoqdan mate uchun idish-tovoq yasash, qamish va xashakdan buyumlar yasash, oltin va kumushdan zargarlik buyumlarini tayyorlash.

Asosiy eksport mahsulotlari: rangli metallar konsentralrularini tayyorlash (mis, rux, qo'rg'oshin), oltin, kumush, neft va neft mahsulotlari, baliq uni, shakar, qahva, paxta, to'qimachilik, sherst, koka, kokain hisoblanadi.





Arekipa shahri tashqarisiga
uyushtirilgan sayyohlik safari



Inklarning qadimiy shahri Machu-Pikchu tog'lar cho'qqisida, o'rmonlar qo'yinda
joylashgan. U yerga faqat vertolyotta borish mumkin

Tabiatি

Mamlakatning butun hududi 3 meridional hududga bo'lingan: dengiz oldi Kosta, tog'li Serra va Amazonka Selvasiga. Tinch okean qirg'oqlari bo'ylab Kosta joylashgan – qoyali tepaliklar va sohil tekislik yo'lakchasidan iborat. Bu yerdan sharqiy qismda shimoldan janub tomon keng dasht va yarimsahro Peruan And tog' tizimi cho'zilgan, ular uch parallel tog' tizmalaridan iborat.


G'arbiy Kordilerlarda muzlik va qorlar bilan qoplangan eng yuqori cho'qqilar mavjud. Janubi sharqda Puno – yassitog'ligi va dunyodasi eng baland Titikaka ko'li Altiplano tog'lar orasidagi chuqirlik bor. Andlarda vulqonlar ko'p, tez-tez zilzilalar bo'lib turadi. Bu tog' tizimidan sharq tomonda namli va issiq Selva–Amazonka past tekisliklari va tog' oldi yerlari joylashgan. Andning G'arbiy qismidagi kichik daryolar Tinch okeaniga kelib qo'shiladi. Andlarni Markaziy va Janubiy qismlarida tog' muzliklari bor.

Tinch okeani qirg'oqlari va And tog'larini g'arbiy qismidagi iqlimga sovuq Peruan oqimi o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu yerning iqlimi quruq tropik deyarli yog'ingarchiliksiz. And tepe tog'lik iqlimi baland tog'–tropik, janubda kontinental va nisbatan quruq, shimolda – namroq. 3500 m balandlikdagi And oqimi qahraton sovuq havosi siyrak, havo ko'rsatkichlari yuqori. Shamolga ro'para sharqiy And qismlari va Amazoniya tekisliklari ekvatorial nam iqlimga ega. Mamlakatda suv toshqinlari bo'lib turadi.

Kostani shimolida Sechura sahrosi joylashgan. Kostada sahro o'simliklari tarqalgan, ular orasida kichik yashil vohalar va daryo vodiylari uchraydi. Andni

g'arbiy yalang'och yonbag'irlarini kserofit butalar, kaktuslar, sho'rxonlar egallagan. Tog'lar orasidagi Kordiler platosi shimoli va sharqida baland tog'lar tropik dashtlari, janubi g'arbda yarimsahrolar (puna) joylashgan. Andning sharqiy qismida balandlik mintaqalari aniq ifoda etgan: 1500 m gacha balandda tropik selva, undan ham balandroqda tropik o'rmonlar joylashgan; 2500–3500 m balandlikda – past bo'yli o'rmonlar, yanada teparoqda – baland tog' ekvatorial yaylovlari (paramos) shimolda joylashgan. Janubda esa quruq tog' dashtlari bor.

Amazonka pasttekisligida nam ekvatorial o'rmonlar (gileya) kauchuk va xin daraxtlari o'sadi.



Peruda
lamalarni yuk
hayvoni sifatida
ko'paytirishadi
(ular 60 kg gacha
bo'lgan yukni
tashiy oladi)

Surinam



Poytaxti: Paramaribo

Maydoni: 163,8 ming km²

Aholisi: 500 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: golland tili

Aholisining diniy

tarkibi: hinduiylar

– 27%, protestantlar –

25%, katoliklar – 23%,

musulmonlar – 20%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Surinam
guldeni



Rangidan
Kumushga
o'xshaydigan
aluminiy ilgari
juda yuqori
baholangan

Tabiatি

Surinam – Givan tog' tizmasining
shimoliy yonbag'ida joylashgan.
Mamlakatning Markaziy va Janubiy
qismini tog' tizmasi egallagan. Atlantika
okeani qirg'oqlari bo'ylab joylashgan
pastlikni ba'zi joylari botqoqlashgan.

Mamlakat iqlimi subekvatorial, issiq
va nam, Atlantika okeandan keluvchi
shimoli sharqiylar passatlari yumshatib
turadi. Yomg'irlar mavsumi apredan-
iyulgacha va dekabrdan-yanvargacha
davom etadi.

Ko'p daryolarda 1960–1980-yillar
oralig'ida suv omborxonalari qurilgan.
Koranteyn, Koppename, Gran-rio
Tapanaxoni va boshqa daryolarda
ko'plab sharsharalar mavjud. Daryolar
sersuv ammo faqat quiy qismdagi
daryolarda kemalar yura oladi.
Botqoqliklarni quritish uchun dengiz
oldi pasttekislikda irrigatsion kanallar
qurilgan.

Dengiz oldi pasttekislik shimolida
savannalar, janubroqda va tog'larda nam
ekvatorial o'rmonlar o'sadi. Janubda,
janubi g'arba savannalar tarqalgan.
Mamlakatda tabiat qo'riqxonalari va
rezervatlar mavjud.

Umumiy ma'lumotlar

Surinam Respublikasi – Janubiy Amerikaning shimolidagi davlat.
Gollandiya mustamlakasi bo'lgan. 1975-yilda mustaqillikka erishgan. Davlat
boshlig'i – prezident. Aholining 37% hind-pokistonliklar, 31 – kreollar, 15% –
yavanlar, 10% – maronlar (qora tanlilar avlodlari).

Xo'jaligi

Surinam iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari – tog'-kon sanoati va qishloq
xo'jaligi. Mamlakat boksitni katta zaxiralariiga ega, uni Maroviyn yaqinida qazib
olishadi. Boksit olish eksport daromadining 70% tashkil etadi. Surinamda neft
qazib olinadi. Nikel rudasi, mis, platina, temir rudasi, kaolin bor yerlar o'rganilib
chiqilmoqda. Elektr-quvvatni 75% GES ishlab chiqaradi. Sanoatning yetakchi
tarmoqlari: o'rmon va yog'ochsozlik, oziq-ovqat, glinozem va aluminiy ishlab
chiqarish.

Shimoliy qismdagi yerlarda guruch, shakarqamish, banan, kokos palmasi,
yeryong'oq, qahva, sitrus mevalar, mevalar yetishtiradilar. Mamlakatda yirik
shoxli mollarni ko'paytirish, baliq va dengiz mahsulotlarini ovlash yo'lgan
qo'yilgan.

Surinam glinozem, aluminiy, neft, yog'och, krevetkalar, baliq, guruch, banan
eksport qiladi.

Surinam
bozorlarida
tanlash
imkoniyati
katta



Urugvay



Poytaxti: Montevideo

Maydoni: 176,2 ming km²

Aholisi: 3,3 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 95%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Urugvay pesosı



Urugvaylik
musiqachi

Umumiy ma'lumotlar

Urugvay Respublikasi – Janubiy Amerikaning janubi sharqidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining 88% – oq tanli yevropalik ko'chmanchilar avlodlari, 8% – metislar, 4% – mulat va negrlar hisoblanadi.

Xo'jaligi

Urugvay – Lotin Amerikasidagi rivojlangan davlatlardan biri. YIM: 65% – xizmat ko'rsatish sektoriga, 27% – sanoat va qurilishga, 8% – qishloq, o'rmon xo'jaligi va baliqchilikka to'g'ri keladi. Sanoatning asosiy tarmog'i – oziq-ovqat (go'sht, go'sht-konserva, yog', un, meva-sabzavot, shakar). Bundan tashqari mashinasozlik, metallurgiya, yog'ochsozlik, yuqori texnologik mahsulotlar, gidroenergetika hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida go'sht, jun yo'nalishidagi yaylov chorvachiligi rivojlangan. Aholi guruch, bug'doy, makkajo'xori, kungaboqar, sitrus mevalar, mevalar, uzum, baliqchilik bilan shug'ullanadi.

Urugvay tirik mollarni, go'sht, boshqoqli o'simliklar, yog'-moy, baliq, sabzavotlar, mevalar, vino, tamaki, tericharm, jun, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

Tabiatি

Butun mamlakat hududini tekislik egallagan: okean qirg'oqlari oldidagi pastlik va mamlakatning qolgan yerlarida tepaliklar joylashgan. Faqat bir qancha tepaliklar dengiz sathidan 500 m balandlikda joylashgan.

Urugvay uchun subtropik, okean iqlimi xosdir. Yanvarning o'rtacha harorati +22°...+24°C, iyulniki +10...+12°C. Janubiy sovuq shamollar kirib qolsa, havoda keskin sovush kuzatiladi. Yiliga 1000–1200 mm yog'ingarchilik yog'adi. Asosiy daryolari – Urugvay (Argentinaning g'arbiy chegarasidan o'tadi) va uning tarmog'i Rio-Negro.

O'simlik qoplamida o'tli savannalar va butali savannalar (janubda) ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu yerdagi yuqori turdag'i tuproq dehqonchilikning donli va mevali subtropik o'simliklarini yetishtirish uchun juda ham qulay. Mamlakat hududining 3% o'rmonlar bilan qoplangan. Palma o'rmonlari ko'proq, bundan tashqari olib kelingan daraxtlar turlari ham ko'pdir: eman, platan, evkalipt, qarag'ay. Urugvay hududining 96% – qishloq xo'jaligi yerlari tashkil qiladi, bulardan 78,5 – yaylovlar, 8,4% – ishlov beriladigan yerlar.



Montevideo – mamlakatning bank va moliya bo'yicha yirik markazi. Bu shahar arxitektura jihatidan juda rangbarang: bu yerda barokko, klassitsizm va modern uslubida qurilgan binolar joylashgan

Venezuela



Poytaxti: Karakas

Maydoni: 912 ming km²

Aholisi: 28 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 96%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: bolivar



Umumiy ma'lumotlar

Venesuela Respublikasi – Janubiy Amerikaning shimoliy qismidagi davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Mamlakatda ispan-hundu metislari – 67%, ispanlar, yevropaliklar avlodlari – 22%, qora tanli va mulatlar – 10%, hundular – 1% ni tashkil etadi.

Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyotini – tog'-kon sanoati tashkil etadi, u YIM – 24% yaratadi. Birinchi o'rinda – neft qazimalari turadi, u davlat nazorati ostida. Bundan tashqari tabiiy gaz, temir rudalari, boksitlar, olmos va oltin qazib olinadi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: oziq-ovqat, kimyo, metallurgiya, avto yig'uvchi, neft va gazni qayta ishlash, to'qimachilik, tikuvchilik va boshqalar.

Eksport uchun qahva, kakao donalari, shakarqamish, sitrus mevalar, tropik mevalar yetishtiriladi. Asosiy boshqoli o'simliklar – makkajo'xori, guruch, sorgo va bug'doy.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari (qiymatini 3/4) boksitlar va aluminiy, temir rudas, po'lat, kimyoviy mahsulotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisoblanadi.

Tabiat

Shimolda va shimoli g'arbda And tog' tizmasining qismlari joylashgan. Venesuelaning Markaziy qismimi Orinokoni Lyanosi egallagan, bu tekislik And yonbag'ridan Orinoko daryosiga tushgan. Undan janub tomonda Givan tog' tizmasi yotadi, u mamlakatning yarim hududini egallagan.

Venesuela iqlimi – issiq, subekvatorial. Gvian tog' tizmasidan tashqari, bu yerlarga yil davomida ko'p yog'ingarchilik yog'adi, ayniqsa, And pasidagi Lyanoslar va dengiz oldidagi yerlar uchun ikki mavsum odatiyidir, yomg'irli (aprel-sentabr) va quruq (oktabr-mart).

Mamlakat daryo tizimi asosan Orinoko havzasiga tegishli. Venesuela hududida dunyodagi eng baland Anxel sharsharasi joylashgan, tushush balandligi 1054 m. Mamlakat hududini yarmidan ko'pini o'rmonlar egallagan. And va Givan tog' tizmalari yon bag'irlarini katta qismi bargi to'kiluvchi (quruq mavsumda) va bargi to'kiluvchi doimiy yashil o'rmonlar, janubi sharqda, janubi g'arbda va shimolida shamolga ro'para Kordilera-de-Merida yonbag'irlarida – doimo nam har doimiy yashil o'rmonlar o'sadi. Orinoko Lyanoslari savannalar bilan band.



Karakasdagi metro bekati

Chili



Poytaxti: Santyago

Maydoni: 756,6 ming km²

Aholisi: 17 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ispan tili

Aholisining diniy

tarkibi: katoliklar – 77%, protestantlar – 13%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Chili pesosı

Umumiy ma'lumotlar

Chili Respublikasi – Janubiy Amerikaning janubi g'arbidagi davlat.

Davlat boshlig'i – prezident. Aholining irqiy-etnik qatlami: metislар – 70%, kreollar – 25%, amerikalik hundular – 3%.

Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyotining asosini mis (eksportni 40%) va oltin qazilmalari va eksporti, selluloza – tayyorlash va eksporti, mevalar eksporti, sabzavotlar, vino, baliq mahsulotlari eksporti va turizm tashkil etadi. YIMning 56% – xizmat ko'rsatish sektoriga, 38% – sanoatga va qurilishga, 6% – qishloq, o'rmon xo'jaliklari va baliqchilikka to'g'ri keladi. Mamlakat mis rudasi va selitra zaxiralari bo'yicha dunyoda 1-o'rin, 2-o'rin – molibden, 3-o'rin – oltingugurt egallagan. Mamlakatda mis rudasi (dunyodagi ishlab chiqarilishi 42%), oltin, natriy selitrasи, oltingugurt, molibden, litiy, volfram, kobalt, kumush, temir rudasi, tabiiy gaz va ko'mir olinadi.

Mamlakatda ignabargli turli yog'ochlar tayyorlanadi. Chili neft va tabiiy gazni katta qismini Argentinadan oladi. Elektr-quvvatni 47% – IES, 52% – GES beradi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: kimyo, yog'ochsozlilik, selluloza-qog'oz, to'qimachilik, rangli va qora metallurgiya, neftni qayta ishlash, mashinsozlilik (avtomobillar yig'ish, elektr-texnika, kemasozlik, vagonlarni yash) va boshqalar hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyoti uchun vinochilik sanoati katta ahamiyatga ega. Bu yerda kaberke, sovinoon, merlo, karmener, pino-nuar, likyorlar va desert vinolari ishlab chiqariladi.

Aholi uzum, mevalar, piyoz, bug'doy, makkajo'xori, arpa,



sparja, dukaklilar, qand lavlagi, sarimsoq yetishtiradi. Bundan tashqari yirik shoxli mollarni, qo'ylnarni, cho'chqalarni, lamalarni, parrandalarni, losos balig'ini ko'paytiradilar. Baliq va dengiz mahsulotlari ovlanadi (dunyoda 3-o'rin).

Mahalliy hunarmandchilikka: jun, ponchalar tayyorlash, alpak va lamalar junidan mahsulotlar, sambrerolar, xashak shlapalar, hayvonlarning keramik shakllarini tayyorlash, yog'och mahsulotlari, yoping'ichlar, gilamlar, kumush bezaklar, lazuritdan buyumlar yashash.

Asosiy eksport mahsulotlari: mis, mevalar, baliq mahsulotlari, losos, selluloza, kimyoviy mahsulotlar, vino, qo'y juni.

Vino eksporti bo'yicha 2011-yilning yetakchi mamlakatlari (mln. litr)





And Kordilerasida
joylashgan ko'l

Shinshillalar
And, Chili, Peru,
Boliviya va
Argentinaning
kimsasiz baland
tug'lariда
tarqalgan



Tabiatি

Chili hududi Tinch okeani qirg'oqlari bo'ylab tor chiziq (eni 170–355) bo'lib cho'zilgan (shimoldan janubga 4300 m). Qirg'oq chizig'i shimolda va markazda silliq, janubda 42° janubiy kenglikda tor ko'rfaflar, ford, bo'g'ozlar, yarimorollar, Chili arxipelagi orollari bilan kesib tashlangan. Chili janubning eng chekkasida Olovli Yer orolining g'arbiy qismiga tegishli bo'lgan Magellan bo'g'izi bilan ajratilgan. Tinch okeanidagi – San-Felins, San-Ambrochio, Xuan Fernandes, Sala-i-Gomes, Pasxi orollari Chiliga tegishlidir (sharqdan 700 km).

Mamlakatni 80% hududi tog'lar bilan qoplangan. Sharqiy chegara bo'ylab Kordilerlari baland tog' tizimi cho'zilgan: shimol chekkasida – G'arbiy va Domeyko, janubroqda – vulqonli va qorli, balandligi 5000 m cho'qqili. Asosiy Kordiler janub tomon pasayib boradi.

Tinch okean qirg'oqlari bo'ylab 41% janubiy kenglikkacha qirg'oq Kordileri cho'zilgan (1800–3200 m). Qirg'oq va asosiy Kordiler orasida ko'ndalang vodiy Pampa-del-Tamarugal tekisligi va markazda Atakama sahrosi joylashgan. 52° janubiy kenglikdan janubroqda Patagoniya platosining g'arbiy qismlari Magellan bo'g'ozli bo'ylab joylashgan pasttekisliklar, tog'lar va Olovli Yer

orolining tekisliklari joylashgan. Chilida yuqori seysmik holat vulqonlari aktiv faoliyati kuzatiladi, kuchli zilzilalar va sunamilar bo'lib turadi.

Shimolda 28° janubiy kenglikda iqlim – tropik quruq, sahroli, markaziy qismda – subtropik, janubda – mo'tadil. Shimolda Ko'ndalang tog'lar orasidagi vodiylarda yomg'ir bir necha yillab yog'maydi. Qirg'oq bo'ylab janubdan shimol tomon sovuq Peruan oqimi o'tadi, shuning uchun havo namligi baland. O'rta Chilida subropik iqlim, shimoliy qismda yarimsahro, markaziy qismda – O'rtayer dengiz iqlimi,



janubda – nam iqlimi kuzatiladi. Chili janubi ikki zonaga bo'linadi: Tinch okean hududlari namli va Patagon quruq bo'ladi.



Daryolari qisqa Kordiler tog'laridan Tinch okeaniga tushadi. Shimolda doimiy suvlar yo'q, bu yerda sho'rxoklar tarqalgan. Patagon Andlarida ko'p muzliklar joylashgan.

Tabiiy zonalar iqlimi mintaqalarni takrorlaydi. Shimolda 28° janubiy kenglikda kaktuslar, sahro o'simliklari, kserofit butalar, tumargo daraxtlari, sho'rxoklar tarqalgan. 28° va 32° janubiy kengliklar orasida – yarimsahro o'simliklari o'sadi.

O'rta Chilining janubiy qismida doimiy yashil o'rmonlar, janubda tog'larni quyisi qismida qora qayinli o'rmonlar, o'rta qismida qora qayin va ignabargli o'rmonzorlari, tepa qismida – alp vohalari, Patagoniyada dashtlar o'rin egallagan.

Pasxa orolidagi «moai» tosh haykali. Orolning qadimgi aholisi vulqondan chiqqan qattiq bazalt va tufdan qanday qilib yuzlab bahaybat haykallar qura olgani hanuz noma'lum. Ba'zi haykallar balandligi 21 metrga, vazni esa 5 tonnaga yetadi

Avstraliya va Okeaniya



Avstraliya va Okeaniya

Avstraliya va Okeaniya dunyoning bir qit'asi bo'lib, o'z ichiga Avstraliya va Okeaniya orollarini oladi.

Avstraliya

Avstraliya – qit'alarining eng kichigi janubiy yarimsharda joylashgan. Avstraliya g'arbini va janubini Hind okeani, sharqini – Tinch okeanning Tasman va Marjon dengizlari, shimolini Hind okeanining Arafur va Timor dengizlari yuvib turadi.

Antik davrda geograflar orasida janubiy yarim sharlikda Terra Australis incognita – nama'lum janubiy yer borligi haqida turli fikrlar bo'lgan. Uni qidirish jarayonida hozirgi kundagi Avstraliya hududi ochilgan edi. Boshida uni Yangi Gollandiya deb nomlashgan. 1814-yildan uni Avstarliya deb nomlay boshlashdi.

Relyefi

Avstraliya qirg'oqlari nisbatan ravon. Yirik ko'rfazlari – Karpentariya shimolida joylashgan va janubda – Katta Avstraliya. Shimolda ikkita yirik yarimorollar – Arnem-Lend va Keyp-York. Qit'a maydoni – 7631,5 km². Sharqiy qirg'oq bo'ylab 2300 km ga cho'zilgan.

Dengiz sathidan o'rtacha balandligi – 215 m bo'lgan tekisliklar ko'p, Yer yuzasining 95% 600 m pastda joylashgan. Sharqda Katta suv ayiruvchi tizma o'tadi. Eng baland cho'qqisi Avstarliya Alp tog'larida Kossyushko tog'ida (2228 m) qit'a g'arbida balandligi 400–500 m yassitog'lik bor, o'rta qismida – pastlik joylashgan.

Avstraliyada tosh va qo'ng'ir ko'mir, temir rudasi, mis, boksit, polimetallar, titan va uran rudalari, oltin, olmos, neft va tabiiy gaz qazib olinadi.

Iqlimi

Avstraliyaning katta qismi tropik mintaqalarda joylashgan, shimoli – ekvatorial, janubi – subtropik mintaqalarda joylashgan. Hududini 2/3 sahro va yarimsahro iqlimiga ega. Shimolda iqlim ekvatorial, mussonli, jazirama, yozgi yomg'irlari bilan; janubi g'arbda – subtropik qishda yog'ingarchilik bilan. Sharqiy qirg'oq issiq tropik dengiz iqlimi bilan farq qiladi, eng ko'p yog'ingarchilik yoz mavsumida bo'ladi.

O'rtacha yanvar harorati 20 dan 30°C iyulda 12 dan 20°C gacha. Yog'ingarchilik sharqdan g'arb tomon kamayib boradi (1500 dan 250 mm gacha).

Daryo va suv havzalari

Avstraliyaning yirik daryolari: Murey, Darling irmog'i bilan; Flinders hududini 60% – ichki oqim hududi hisoblanadi. Qit'ada 30 dan ortiq yirik artezian havzasi joylashgan, umumiylar maydoni 4800 ming km² atrofida.

Hayvonot va o'simlik dunyosi

Qit'aning katta ichki kengliklarida sahrolar joylashgan: Katta qumli, Katta Viktoriya sahrosi, Gibson sahrosi. Bu yerda sho'r ko'llar ko'p. Sahrolar atrofida – tikanli butalar, akatsiyalar, evkaliptlar yarimsahro mintaqalarida o'sadi. Shimolda, sharqda, janubi sharqda sahrolar savannalarga o'tadi. Qirg'oq bo'ylab va tog'larda evkalipt, palma, daraxtsimon qirqulloqlar o'rmonlari joylashgan. Avstraliyada yovvoyi quyonlar va cho'chqalar ko'p. Endemik turlar: kenguru, xaltali bo'ri, yovvoyi Dingo iti, o'rdakburun, xaltali krot, yexidna. Qushlardan emu tuyaqushi, kazuarlar, kakadu to'tiqushi va boshqalar mavjud.

Okeaniya

Okeaniya – Tinch okeanning markaziylari va janubiy-g'arbiy qismidagi orllarning yirik yig'indisi (10 mingga yaqin). Bularidan eng yirigi – Yangi Gvineya.

Okeaniya nomi XIX asrda ommalashdi. 1832-yilda fransuz dengizchisi va geograf Dyumon-D'Yurvil Okeaniya orollarini guruhashni taklif qildi va Okeaniya 3 yirik qismiga ajratildi. Polineziya, Mikroneziya va Melaneziya.

Relyefi

G'arbiy Mikroneziya va Yangi Zelandiya orollarli tog'li va qirg'oq chizig'i qing'ir-qiyshiq tog' tizmalari katta balandlikda joylashgan. Okeaniyaning eng yuqori nuqtasi Djaya tog'i Yangi Gvineyada (5030 m).

Sharqiy Mikroneziya va Polineziya orollarli – kichik past marjon atollari, kam tog'li, bu tog'lar baland emas. Bu yerda nikel, fosfatlar, neft va boshqa konlar borligi ma'lum.


Iqlim

Iqlimi okean iqlimi, doimiy nam, ko'proq subekvatorial va ekvatorial, janubda subtropik va mo'tadir. Ekvatorial mintaqada o'rtacha oy harorati butun yil davomida 26–28°C, janubning eng chekkasida fevralda 16°C dan va avgustda 5°C gacha bo'ladi. Yog'ingarchilik yiliga sharqda 1 000 mm va g'arbda 3–4 ming mm yetadi.

Hayvonot va o'simlik dunyosi

Shamolga teskari bo'lgan orol tog'larida nam doimiy yashil o'rmonlar, shamolga qarshi tog' yonbag'irlarida kserofit qattiq bargli o'rmonlar va butalar o'sadi. Past marjon orollarida – butazorlar, o'rmonlar hududida, kokosli palmazorlar, non daraxti o'sadigan hududlar joylashgan. Okeaniya hayvonot olami qashshoq, sut emizuvchilar juda ham kam, hasharot va qushlar ko'p. Yangi Gvineya va Yangi Britaniya orollarida kazuarlar yashaydi.

AVSTRALIYA VA OKEANIYA



Avstraliya



Poytaxti: Kanberra

Maydoni: 7692 ming km²

Aholisi: 21 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy

tarkibi: anglikanlar – 26%, katoliklar – 26%, xristianlarning boshqa oqimlari – 2%, diniy ozchilik vakillari 23,6%

Davlat tuzumi: federativ davlat

Pul birligi: Avstraliya dollari



Umumiy ma'lumotlar

Avstraliya Ittifoqi – Federatsiya tarkibida 6 ta shtat va 2 hudud – Shimoliy va Poytaxt. Avstraliya – Hamdo'stlik a'zosi. Mamlakat aholisining 92% – oq tanlilar, 7% – osiyoliklar, 1% – aborigenlar.

Qo'y yungini olish



Xo'jaligi

Avstraliya Yevropanikiga o'xshash yuqori rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega. YIMni 71% – xizmat ko'rsatish, 26% – sanoat, 3% – qishloq, o'rmon xo'jaliklari va baliqchilik tashkil etadi. Avstraliya butun dunyoga o'zini ma'dan resurslari, go'sht va jumlari bilan mashhur.

Mamlakatda toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir, neft, tabiiy gaz, temir rudasi (G'arbiy Avstraliyani shimoli g'arbi), boksitlar, mis, qalay, marganes, titan va boshqalar; oltin, platina, kumush, olmos va boshqa qimmatbaho konlari ustida ishlar olib borilmoqda. Qo'rg'oshin rudalari, boksitlar va olmos qazilmalari hajmi bo'yicha Avstraliya dunyoda 1-o'rinni egallagan.

Qayta ishslash sanoatining yetakchi tarmoqlari: kimyo, neftni qayta ishslash, sement, qog'oz, to'qimachilik, yog'ochsozlik, oziq-ovqat, qora va rangli metalluriya, og'ir va transport mashinasozligi (avtomobilsozlik, kemasozlik) hisoblanadi. Qora metalluriya ixtisoslashgan korxonalar yangi Janubiy Uels, Viktoriya va Janubiy Avstraliyada jamlangan; rangli metalluriya korxonalar – G'arbiy va Janubiy Avstraliyaning kichik shaharlarda, Tasmaniya va Sidneyda joylashgan. Ko'p elektrostansiyalari (91%) neft va toshko'mirda ishlaydi.

Qishloq xo'jaligining asosiy yo'nalishi qo'ychilik (shu jumladan, ingichka tola) va yirik shoxli qora mollarni ko'paytirish bo'yicha rivojlangan. Avstraliya dunyoda yirik jun (dunyo ishlab chiqarish hajmini 1/3), mol go'shti va qo'y go'shti bo'yicha eksport qiluvchi davlatdir. Mamlakada bug'doy, arpa, shakarqamish, tropik mevalar (banan, ananas), zaytun, uzum yetishtiriladi. Bog'dorchilik, tamakichilik, guruchchilik, paxtachilik rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: toshko'mir, temir rudasi, boksit va aluminiy, oltin, neft, go'sht, jun, bug'doy, transport-mashinasozlik mahsulotlari hisoblanadi.

Diqqatga sazovor joylari

2002-yilda mamlakatni 4,8 mln. sayyoh ziyorat qildi. Turizmning asosiy obyektlari: «Uch opa-singil» qoyali moviy tog‘lar, Avstraliya Alp tog‘laridagi Kossyushko milliy bog‘i, pingvin koloniyalari Filipp orollari, Vulqon ko‘li, Flinders va Maunt-Gambiyer tog‘lari, karstli Nallarbor milliy bog‘i, Pilbarning chuqur tog‘-g‘orlari (G‘arbiy Avstraliya); Uluru milliy bog‘idagi Veyv-Rok, Eys-Rok qoyalari, Kakadu va Gregori milliy bog‘lari, Katta To‘sinq riflari va boshqalar hisoblanadi.



Opera teatri –
Sidneyning ramzi



Kengurular quyuq o‘t va buta bilan qoplangan tekisliklarda yashaydi. Ularning ba‘zilari daraxtlarga tirmashib chiqib yurishga moslashgan, boshqalari qoyali hududni ma‘ql ko‘radi

Tabiatি

Avstraliyaning shimoli sharqida qirg‘oqlari bo‘ylab katta to‘sinq Bafer riflari joylashgan, uzunligi 2300 km, 25,5 ming suv usti va suv osti marjon riflari va orollaridan tashkil topgan. Qit‘a janubida Katta Avstraliya ko‘rfazi orolga o‘tib turadi. Qit‘adan janubi sharqda Tasmaniya oroliga yetadi, u qit‘adan Bass qo‘ltig‘i bilan ajratilgan.

Avstraliya hududi G‘arbiy Avstraliya yassitog‘ligi, Markaziy pastlik va o‘rtacha balandlikka ega bo‘lgan Sharqiy Avstraliya tog‘lariga bo‘linadi. Sharqiy Avstraliya yassitog‘ligi g‘arbda va janubi g‘arbda baland bo‘lмаган tog‘ tizmalari bilan Shimolda – Kimberli tog‘lari bilan o‘ralgan. Janubda u Nallarbor dengiz sohil tekisliklariga chiqadi. Yassitog‘likni shimoli va janubini qumli sahrolar – Katta Qumli va Katta Viktoriya sahrolari egallagan, markaziy qismida – toshli Gibson sahrosi joylashgan. Markaziy pastlik, shimolda tekislik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Markazda – Katta Artezian havzasasi, Eyer-Nort ko‘lining chuqirligi bilan va Simpson sahrosi bilan aks etadi.

Sharqiy Avstraliya tog‘lari sharqiy qirg‘oq bo‘ylab 4000 km cho‘zilgan va ikki tizmadan – Sohil va Katta suv ayiruvchidan iborat. Katta suv ayiruvchi janubda moviy tog‘lar va Avstraliya Alp tog‘lari ko‘rinishida aks etadi.

Qit‘ani shimoli ekvatorial mussonlar hududida yotadi; uning asosiy qismi – tropik mintaqada, janubi – subtropik mintaqada, Tasmaniya oroli – mo‘tadil, iqlim mintaqasida joylashgan. Markaziy qismida sahro va yarimsahro jazirama iqlimi hukm suradi. Katta Artezian havzasida bir necha ming yer osti suv manbalari mavjud.

Avstraliya shimoli o‘rmon savannalari hududidir; o‘rta qismini tropik sahrolar, ular yarimsahrolar bilan o‘ralgan; janubiy chekkasida – evkalipt va akatsiya subtropiklar joylashgan. Mamlakatda kenguru, xaltali kemiruvchi, ayiq (koala), turmshuqburun, yexidina (janubi-sharqda); timsohlar; (shimolda) va boshqa endemik turdag‘i hayvonlar emu tuyaqushi, kakadu to‘tiqushi, qora oqqushlar hayot kechiradi.

Sahro va yarimsahrolarda ko‘plab ilon, kaltakesaklar, zaharli o‘rgimchaklar va chayonlar mavjud.



Uluru tog‘ massivi (Eys-Rok). Bu yer Avstraliya aborigenlari uchun minglab yillar mobaynida muqaddas joy bo‘lgan

Fiji



Poytaxti: Suva

Maydoni: 18,3 ming km²

Aholisi: 900 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili


Aholisining diniy tarkibi: xristianlar –

53%, hinduiylar – 38%, musulmonlar – 8%.

Davlat tuzumi:

respublika

Pul birligi: Fiji dollari




Umumiy ma'lumotlar

Fiji Respublikasi – Okeaniyaning Markaziy qismidagi orolda joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Fiji – Hamdo'stlik a'zosi. Aholisining etnik tarkibi: Fijiliklar (melaneziyaliklar) – 51%, hindular – 44%.



♦ Kauchukli o'simliklarning ba'zi qismi tarkibida tabiiy kauchuk bo'ladi



♦ Fijiliklar toshbaqa go'shitini tanavvul qiladi

Tabiat

Mamlakat tarkibiga 322 orol kiradi: ular ikki guruhta bo'linadi. Fiji orollari (g'arbiy) va Lau orollari (sharqiy). Katta bo'limgan va kichik orollar marjonli orollardir, yiriklari esa vulqonli kelib chiqishiga ega. Mamlakatda zilzilalar bo'lib turadi. Orollarni marjonli riflar o'rabi turadi.

Fiji iqlimi tropik, passatlari nam. Orollarda to'fonlar ko'pincha vayron qiladiganlari bo'lib o'tadi. Daryo tizimlari katta orollarda rivojlangan. Sharqiy va janubiy-sharqiy shamolga ro'para bo'lgan tog' yonbag'irlarida va ularning oldida joylashgan tekisliklarda nam tropik o'rmonlar o'sadi. Shimoliy-g'arbiy va g'arbiy tog' yonbag'irlari o'rmonsiz savanna o'simliklari bilan qoplangan.

Xo'jaligi

Fiji iqtisodiyotining asosini – shakarqamish yetishtirish va turizm tashkil etadi. Mamlakat hududida kichik hajmlarda oltin, qalay, nikel, xrom rudalari, kumush, rux, mis qazib olinadi. Elektr quvvatini 82% GES ishlab chiqaradi.

Fijida o'rmon, yog'ochsozlik to'qimachilik, tikuvchilik va oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan, kopra ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Aholi shakarqamish, kokos palmasi, cassava, guruch, taro, yams, shirin kartoshka, qahva daraxti, banan, paxta, kauchuk daraxti, sitrus mevalari, ananas, kakao donalari, yashil imbir, tarvuz, qovunlar yetishtiradi. Bundan tashqari aholi tunes balig'i, dengiz mahsulotlari ovi bilan va yirik shoxli mollarni, echki, cho'chqalarni, tovuqlarni ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Mahalliy hunarmandchilik: charm mahsulotlarini ishlab chiqarish hisoblanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: shakar, melassa, oltin, yog'och, baliq, kopra, kokos yog'i, kiyim.



♦ Ilgari kit tishiday yasalgan buyumlar Fiji orolida yuqori baholanar edi

Kiribati



Poytaxti: Bairiki

Maydoni: 811 km²

Aholisi: 100 ming kishi
(2007)


Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy

tarkibi: katoliklar – 52%, protestantlar – 40%

Davlat tuzumi: respublika

Pul birligi: Avstralaliya dollari



Pandanusdan
to'qilgan yelpig'ichlar

Umumiy ma'lumotlar

Kiribati Respublikasi Okeaniyaning (Mikroneziyani sharqi va Polineziyani shimid) markaziy qismidagi orolda joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Kiribati – Hamdo'stlik a'zosi. Aholining katta qismi – mikroneziyaliklar.

Janubiy hududlarda o'simlik dunyosi past bo'yli butalar ko'rinishida namoyon bo'ladi, shimoliy qismida – baland bo'limgan kalafillum daraxtlari, ular sho'r tuproqda o'sadi, bundan tashqari pandanusam daraxti ham o'sadi. Kiribatida kaltakesaklar, dengiz qushlari tarqalgan. Dengiz qushlari asosan Rojdestvo (tug'ilish) orolida ko'p. Dengiz faunasi (hayvonlari): sakkizoyoqlar, tunes, makrel, kefal, guban baliqlari; krablar, yirik krevetkalar va boshqalar hisoblanadi.



Kiribatining janubiy hududlarida butalar o'sadi



Xo'jaligi

Kiribati daromadining asosiy qismini – baliq tutish uchun sotiladigan ruxsatnomalardan oladi. Mamlakatda koprani ishlab chiqarish va eksport qilish yo'lga qo'yilgan, baliqchilik rivojlangan. Aholi kokos palmasini, non daraxtini, shirin kartoshka, sabzavotlar, mevalarni yetishtiradi. Mamlakatda yirik shoxli mollar, qo'ylar, cho'chqalar ko'paytiladi. Mahaliyy hunarmandchilik: savatlar, bo'yra yasash, pandausdan shlapalar tayyorlash.

Kiribatida kopra (eksportni 60%), kokos yong'oqlari, dengiz o'simliklari, baliq eksport qilinadi.

Marjon riflari

Marshall orollari



Poytaxti: Majuro

Maydoni: 181,4 km²

Aholisi: 100 ming kishi
(2007)

Rasmiy tillari: marshal,
ingliz tillari

Aholisining diniy

tarkibi: asosan
protestantlar

Davlat tuzumi: AQSh
davlati bilan «Erkin
uyushgan» davlat

Pul birligi: AQSh dollari



Xo‘jaligi

Mamlakat hududida qit’alararo
ballistik raketalarni sinovchi poligon
hamda kosmik obyektlarni kuzatuvchi
stansiya bor.

Aholi kokos palmalari, qovun,
pomidor, taro, non daraxti, mevalar
yetishtirib, marvarid, baliq ovi
bilan shug‘ullanadi. Mamlakatda
 hunarmandchilik rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: kopra,
kokos yog‘i, baliq hisoblanadi.



Non daraxti

Ushbu
kokoslar
kopra (kokos
yong‘og‘ining
mag‘zi) olishga
mo‘ljallangan.
Kopradan yog‘,
margarin va
sovun olinadi

Tabiat

Marshall orollari ikki parallel, meredional cho‘zilgan orollar aylana yoyini tashkil etadi: sharqiy – Ratak orollari («Kun o‘tishimi ko‘rvuchi») va g‘arbiy – Ralik orollari («Kun botishimi ko‘rvuchi»). Bu yoyilar orasidagi masofa 200–250 km. Orollar marjonli, ohakli va past hisoblanadi (10 m dan baland emas).

Orolning janubiy qismi iliq Passatlar oqimi oralig‘ida joylashgan, shimoliy qismi – Shimoliy iliq passat oqimi hududida joylashgan. Iqlim shimolda – quruq tropik, janubda – subekvatorial. Orol xalqlari ko‘pincha qurg‘oqchilikdan aziyat chekadilar. Majuro orolida nam mavsumi sentabrdan noyabrgacha, shimoliy orollarda butalar ko‘proq o‘sadi, janubiy orollarda doimiy yashil o‘rmonlar. Ko‘p o‘rmonlar kesib tashlashgan, ko‘proq kokos palmalari o‘sadi.

Umumiy ma’lumotlar

Marshall orollari Respublikasi – ekvatoridan shimolda joylashgan. Okeaniya orolidagi davlat. O‘z tarkibiga 1225 marjon orollarini oladi. Davlat boshlig‘i – prezident.

1944-yil Ikkinchiji Jahon urushi paytida Amerika harbiylari Marshall orollarini egallahdi (Yaponiya bilan urushayotganda) va 1947-yil BMT qaroriga asosan orollar AQSh boshqaruvidagi «tasarruf hududi» bo‘lgan. 1946–1948-yillarda ba’zi orollardan aholi ko‘chirilgan. Aholining 98% – marshalliklar hisoblanadi.

Mikroneziya federativ shtatlari



Poytaxti: Palikir
Maydoni: 702 km²
Aholisi: 100 ming kishi (2007)
Rasmiyi tili: ingliz tili
Aholisining diniy tarkibi: katoliklar – 50%, protestantlar – 47%
Davlat tuzumi: AQSh davlati bilan «Erkin uyushgan» davlat
Pul birligi: AQSh dollarri



Umumiy ma'lumotlar

Mikroneziya Federal Shtatlari – Okeaniyaning g'arbiy qismidagi orolda joylashgan davlat. Tarkibiga 607 orol kiradi. Bu Federativ Respublika 4 shtatdan iborat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining 50% – mikroneziyaliklar, qolganlari – polineziyaliklar (umumiy 9 ta guruh bor).



Mikroneziyaliklar mix ishlatmay yog'ochdan qayiq yasay olishadi



Xo'jaligi

Mikroneziya Federal Shtatlari AQShdan moliyaviy yordam olishadi. Uning hududida fosforit, boksit va temir rudalarini kichik zaxiralari bor. Mamlakatda kichik korxonalar mavjud: yog'ochsozlik, yengil-sanoat korxonalar, baliq va oziq-ovqat sanoati korxonalar shular jumlasidadir. Bu yerda baliqchilik rivojlangan. Dengiz suvlarida – tunes balig'i ko'plab olinadi. Mamlakat baliqchilik uchun Xitoyni baliqchilik korxonalariga ruxsatnomalar sotadi.

Asosiy qishloq xo'jaligi o'simligi – sakau (kava) eksport qilinadi. Bundan tashqari aholi qora murch, taro, non daraxti, kassavu, shirin kartoshka, kokos palmasi, sabzavotlar, mevalar, betel yong'og'i yetishtiradi. Cho'chqalar, yirik shoxli mollarni, echkilarni, uy parrandalarini ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Mahalliy hunarmandchilik: yog'och o'ymakorligi, tosh pullar yasash, delfin va akula shakllarini yasash hisoblanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: baliq (tunes), kiyim, banan, qora murch, kava.

Tabiat

Mamlakat tarkibiga kiradigan orollarni aksariyati vulqonli kelib chiqishiga ega. Ko'pchilik orollari o'zida past atollarni marjonli riflarida namoyon etadi.

Mamlakatda iqlim ekvatorial va subekvatorial. Bu yerlarga iliq Passatlar to'qashuvni o'z ta'sirini o'tkazadi. Namlik mavsumi may oyidan avgustgacha davom etadi. Nam ekvatorial o'rmonlar o'sadi, atollar sohillari bo'ylab mangr o'simliklar va botqoqliklar joylashgan.

Echkilarning
o'rtacha
umri – 9–10
yil, eng
uzog'i – 17
yil

Nauru



Poytaxti: Rasmiy poytaxti
yo‘q

Maydoni: 21,2 km²


Aholisi: 10 ming kishi
(2007)

Rasmiy tillari: ingliz,
nauru tillari


**Aholisining diniy
tarkibi:** protestantlar –
66%, katoliklar – 33%

Davlat tuzumi:
respublika

Pul birligi: Avstraliya
dolları



Nauru oroli.
Sun'iy
yo'ldoshdan
ko'rinishi



Umumiy ma'lumotlar

Nauru Respublikasi – Tinch okeanidagi Okeaniya markazida shu nomli orolda joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Nauru – Hamdo'stlik a'zosi. Aholining 58% – nauraliklar, 26% – okeaniyaning boshqa orollaridan kelganlar, 8% – xitoyliklar, filippinlar, 8% – yevropaliklar tashkil etadi.

Tabiat

Nauru – dunyoning eng kichik davlatlaridan biri. Orol o‘zida platoni aks ettiradi, fosforitlardan tashkil topgan va qumli plajlar, marjon riflari bilan o‘ralgan. Fosforit konlari ochilguncha Nauru evkalipt o‘rmonlari bilan qoplangan edi. Katta hajmda konlardan fosforit qazilmalarini olinishi orol ekotizmini buzzi: uning markazida yirik konlar va marjon rif bo‘laklari ag‘darilib yotgani shundoq ko‘rinib turibdi, xuddi «oy peyzajini» aks ettirganga o‘xshaydi.

Mamlakat iqlimi ekvatorial, nam. Yomg‘ir mavsumi dekabrdan-mart oyigacha quruq mavsum maydan-oktabrgacha davom etadi. Nauruda chuchuk suv yetishmaydi uni Avstraliyadan olib kelishadi.

Ikkinci jahon
urushi paytida
Nauruda
aviahalokatga
uchragan
samolyot qoldig'i

Nauru oroli markazidagi jonsiz «oydin»
manzara



Xo‘jaligi

Nauru iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i – fosforitlar qazilmalari (zaxirasi 100 mln. t.). Taxminlarga ko‘ra orolni 30–40 yil ichida qazib tashlashadi va u dunyo xaritasidan yo‘qoladi.

Aholi kokos palmalari yetishtiradi, baliqchilik va yirik shoxli mollarni, cho‘chqalarni ko‘paytiradi.

Nauruda fosforitlar eksport qilinadi.

Palau



Poytaxti: Koror

Maydoni: 508 km²


Aholisi: 20 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:
katoliklar – 49%, mahalliy
maslak e'tiqodchilari – 30%,
qolganlari – protestantlar va
boshqalar

Davlat tuzumi: AQSh
davlati bilan «Erkin
uyushgan» davlat

Pul birligi: AQSh dollarri



Umumiy ma'lumotlar

Palau Respublikasi – Okeaniyaning shimoli g'arbidagi orolda joylashgan davlat. Davlat boshlig'i – prezident. Aholining 83% – belaular (palauilar), 10% – filippinliklar, qolganlari xitoyliklar va boshqalar.

Filippin dengizida
meduzalarni
ko'rish mumkin

Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyoti butunlay AQSh moliyaviy yordamiga tayanadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: tikuvchilik va oziq-ovqat. Aholi kokos palmasi, tapioku, shirin kartoshka yetishtiradi, baliqchilik bilan shug'ullaniladi. Mahalliy hunarmandchilik dengiz chig'anoqlaridan, marvaridlardan, yog'ochdan buyumlar yasash sanaladi.

Asosiy eksport mahsulotlari: molluskalar, tunes, kopra, kiyim hisoblanadi.



Belau xalqi qizlari

Tabiat

Palau tarkibiga 26 katta va 300 kichik orollar kiradi, ular quyidagi guruhlarga bo'linadi: janubiy-g'arbiy (Tobi, Merir, Pulo-Anna, Sonsorol orollar va boshq.) va Palau orollarining o'zidan tarkib topgan. Palau oroli tarkibiga mikroneziyaning eng yirik vulqonli Babeltual oroli va uning oldidagi Karor oroli, hamda Qoyali orollar guruhi kiradi.

Babeltual, Koror orollarda katta bo'lмаган tepaliklar joylashgan (242 m).

Mamlakat iqlimiga Shimoliy iliq passat oqimlari va iliq Passatlar to'qnashuvlari ta'sir etadi va qurg'oqchilik olib keladi. Palau iqlimi ekvatorial, nam. Quruq mavus feraldan-mart oyigacha, yog'incharlik – iyundan-avgustgacha davom etadi.

Mamlakat hududida doimiy yashil tropik o'mmonlar, marjonli atollarda kokos palmalari o'sadi.

Kokos palmasi

Papua-Yangi Gvineya



Poytaxti: Port-Morsbi

Maydoni: 462,8 ming km²

Aholisi: 6,3 mln. kishi (2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi: protestantlar – 44%, katoliklar – 22%, animistlar – 34%.

Davlat tuzum:

hamdo'stlik tarikibidagi mustaqil davlat

Pul birligi: kina



Bunday marjonlar ilgari Yangi Gvineya aholisi uchun pul vazifasini o'tagan

Umumiylar

Papua-Yangi Gvineya davlati – ekvatoridan sal janubroqdag'i orolda joylashgan davlat. Yangi Gvineya orolining sharqiy qismi va 300 dan ortiq kichik orollar mamlakat tarkibiga kiradi. Mamlakat aholisining 84% – papuaslar, 14% – melaneziyaliklar hisoblanadi.

Papuaslar kattalar hayotiga qadam qo'ygach o'z badanida kertik yoki tatuirovka hoslil qildi



Tabiat

Yangi Gvineya orolining markaziy o'qi bo'ylab shimoldan g'arb tomon Markaziya va Qirg'oq tog' zanjirlari cho'zilgan. Dengiz qirg'oq bo'yalarida qirg'oq bo'y-i pasttekisliklari va tog' oldi tepaliklari joylashgan. Qirg'oq chizig'i janubida qing'ir-qiyishiq Papua ko'rfazi bor, janubi sharqda va sharqda – kichik ko'rfazlari joylashgan. Harakatdagi vulqonlar Yangi Britaniya, Bugenvil va boshqa orollarda joylashgan. Mamlakatda zilzilalar (vayron qiladigan gohida), sunamilar bo'lib turadi.

Mamlakat iqlimi: shimolda – ekvatorial, qishda quruq (iyul-dekabr). Dekabrdan-mart oyigacha nam shimoliy-g'arbiy musson esadi, maydan-oktabrga qadar – quruq janubiy-sharqiy musson esadi. Tog'larda 4000 m balandroqda abadiy qorlar, kichik muzliklar joylashgan. Yomg'ir mavsumlari paytida vodiy aholisi suv toshqinidan aziyat chekadi. Daryo deltalar kuchli botqoqlashgan.

O'rmonlar mamlakat hududining 82% egallagan. Pasttekisliklarda va tog' yonbag'irlarida nam ekvatorial o'rmonlar o'sadi. 1500 m balandroqda daraxtsimon qirqulloqli nam tropik o'rmonlari, tog' cho'qqilarida – yuqori tog', tropik va murakkab gulli o'simliklar o'sadi. Yangi Gvineya orolini janubi nisbatan quruq evkalipit va akatsiyali savannalar bilan qoplangan.

Xo'jaligi

Papua-Yangi Gvineya – Okeaniya orollari orasida nisbatan kamroq rivojlangan. Aholining 85% qishloq xo'jaligida band qilingan. Hali ham o'rmonlarni kesib yerlar dehqonchilik uchun ishlataladi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: tog'-kon, yog'ochsozlik, to'qimachilik, oziq-ovqat.

Aholi sorgo (jo'xori), yams, makiok, makkajo'xori, sago va kokos palmasi, kauchuk daraxtlari, batat, banan, choy, kakao, qahva yetishtiradi. Mamlakatda: koprani ishlab chiqarish, non daraxti mevalarini terish, cho'chqachilik va parrandachilik, baliqchilik, marvarid va trepanqlar ovi rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft, oltin, mis rudasi, marvarid, yog'och, kakao, qahva, kauchuk, palma yog'i, krevetkalar.

Samoa



Poytaxti: Apia

Maydoni: 2,8 ming km²


Aholisi: 200 ming kishi
(2007)

Rasmiy tillari: samoan,
ingliz tillari

Aholisining diniy tarkibi:
protestantlar – 71%,
katoliklar – 22%

Davlat tuzumi: hamdo'stlik
tarkibidagi mustaqil davlat,
konstitutsiyaviy monarxiya

Pul birligi: tala (Samoa
dolları)



Samoa g'arbidagi orollar biridagi
o'mon sharsharasi



Polineziyaliklarning
an'anaviy turar joyi

Samoaning Tau
orolida yashovchi
raqs ustalari

Xo'jaligi

Samoa iqtisodiyotining asosini – odatiy qishloq xo'jaligi tashkil etadi. U YIMni 50% va eksportni 90% tashkil qiladi. Serhosil, unumdar yerlar Upoli orolida joylashgan. Mamlakatda oziq-ovqat, yog'ochsozlik, tikuvchilik, sement sanoatlari rivojlangan.

Avtoqismilar, kopra, tabiiy kauchuk ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Samoaga ko'p chet el sayyoohlari keladi.

Aholi kokos palmasi, non daraxti, banan, taro, yams, kakao yetishtiradi. Cho'chqa, yirik shoxli mollarni ko'paytirib, parrandachilik va baliqchilik bilan shug'ullanadi.


Samoa baliq, yog' va quyiltirilgan sut, kokos yong'oqlari, kopra, taro, kiyim, pivo eksport qiladi.

Tabiat

Orollar riflar bilan o'ralgan va suv osti tizmasining cho'qqisini o'zida aks ettiradi. Orolda baland bo'Imagan vulqonli tog'lar mavjud, ular uchun faol vulqonlar xosdir (mamlakatda zilzilalar bo'lib turadi).

Samoa iqlimi nam tropik jazirama, yomg'irlar mavsumi noyabrdan aprelgacha (orollar siklon va to'fonlar chizig'ida yotadi) davom etadi. Namlik darajasi 80% atrofida. Mamlakat hududida ko'plab tez oqar tog' daryolari bor.

O'monlar hududning 37% egallagan. Tog'larda qirqqulqlar, o'tlar, epifitlar; tog' yonbag'irlarida – banan daraxtlari o'sadi bundan tashqari butalar, botqoq o'simliklari, mangr o'simliklari ham mavjud.



Solomon orollari



Poytaxti: Xoniara

Maydoni: 28,4 ming km²

Aholisi: 500 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili



Aholisining diniy

tarkibi: protestantlar – 77%,
katoliklar – 19%


Davlat tuzumi:

hamdo'stlik tarikbidagi
mustaqil davlat

Pul birligi: Solomon
orollari dollarri



◆ Orollarda mussonlar esadi



Umumiy ma'lumotlar

Solomon orollari – Okeaniya g'arbidagi davlat. Tarkibida 992 ta orol: 10 katta vulqonli va tog'li orollar va 4 guruh kichik orollardan tashkil topgan arxipelagdan iborat. Aholining 93% – melaneziyaliklar, 4% – polineziyaliklar.

◆ Shuazel orolida yashovchi aborigenlar.
Ular marosim o'tkazishyapti

Xo'jaligi

Mamlakat iqtisodiyotining asosini – baliqchilik, tog'-kon va o'rmon sanoati bundan tashqari kopra va yog'och ishlab chiqarish tashkil etadi. Solomon orollarida oltin (Guadalkanal oroli) va nikel (Santa-Isabel oroli) qazib olinadi. Neftni aniqlash ishlari shelfda olib boriladi.

Mamlakatda kokos va sag palma plantatsiyalari bor. Aholi taro, yams, kakao donalari, guruch, kassavu, non daraxti, banan va boshqalarini yetishtiradi. Qo'y, echki, yirik shoxli mollarni ko'paytirib, baliqchilik bilan shug'ullanadi. Mahalliy hunarmandchilik ham rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: tunes, yog'och, kopra, oltin, palma yog'i, kakao hisoblanadi.



◆ Malaita orolida yashovchi qiz

Tabiatি

G'arbda orollar ikki parallel zanjir bo'lib joylashgan. Shimoliy zanjirga Shuazel, Santa-Isabel, Malaita orollari va boshqalar kiradi; janubiy zanjirga – Guadalkanal (eng yirigi), San-Kristobal va boshqalar kiradi. Arxipelagni asosiy qismiga sharqda katta masofada vulqonli orollar guruhi Santa-Krus, Daf orollari va boshqalar kiradi. G'arbiy qismidagi orollarni aksariyati tog'li (2500 m gacha) va seysmik faol hududda joylashgan. Bu yerda zilzilalar tez-tez bo'lib turadi.

Solomon orollarida iqlim ekvatorial issiq, may oxiridan dekabrning boshigacha quruq mavsum davom etadi, janubiy-sharqiy passat yumshatib turadi. Dekabr o'rtalaridan – mayning o'rtasigacha – g'arbiy, shimoliy-g'arbiy mussonli nam mavsum bo'ladi. Katta tog'li orollarda kichik daryolar oqadi, sharshalar bor. Hududning 79% zich, nam ekvatorial o'rmonlari, shu jumladan, kauri qarag'ayli o'rmonlari qoplagan. Dengiz qirg'oqlarida mangr o'rmonlari va botqoqliklar joylashgan.

Tonga



Poytaxti: Nukualofa


Maydoni: 748 km²

Aholisi: 100 ming kishi
(2007)

Rasmiy tillari: tonga, ingliz
tillari

Aholisining diniy tarkibi:
protestantlar – 40%,
katoliklar – 16%, mormonlar
– 14%, qolganlari mahalliy
maslaklar e'tiqodchilari

Davlat tuzumi:
konstitutsiyaviy monarxiya
Pul birligi: paanga (Tonga
dolları)



Umumiy ma'lumotlar

Tonga Qirolligi – Okeaniya janubidagi orolda joylashgan davlat. Tonga arxipelagi o'z ichiga 117 vulqonli va marjonli orollarni oladi. Davlat boshlig'i – Qirol. Mamlakat – Hamdo'stlik a'zosi. Mamlakat 98% aholisi tongaliklar (polineziyaliklar).

Nukualofadagi to'qilgan
bo'yra, savat va bosh
kiyimlar sotiladigan
do'kon



◆ Ata oroli sohili

Xo'jaligi

Tonga iqtisodiyotining asosi – qishloq xo'jaligi. Mamlakatda kopra ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Aholi pepo qovog'i, kakos palmasi, banan daraxti, kakao donalari va boshqalar yetishtiradi; cho'chqa, yirik shoxli mollarni ko'paytirib, baliq va dengiz mahsulotlari ovi bilan shug'ullanadilar. Mahalliy hunarmandchilik: yog'och va tosh o'ymakorligi, sumka, bo'yralar to'qish va boshqalar hisoblanadi. Tonga qovoq (Yaponiyaga), kokos yong'oqlari, kopra, vanil eksport qiladi.



To'fonlar sababli
Tongo va unga yaqin
boshqa mamlakatlar
aholisi ko'p aziyat
chekadi

Tabiatি

Tonga arxipelagi ikki parallel zanjirlardan iborat: g'arbiy (tog'li vulqonli kelib chiqqan orollar, cho'qqilari 1000 m gacha) va sharqi (baland bo'limgan, marjonli 45 m gacha). Suv osti vulqonlari bor. Kelib chiqishiga ko'ra vulqonli bo'limgan orollar marjonli riflar bilan o'ralgan.

Mamlakat iqlimi nam tropikli, nam issiq yozgi mavsum noyabrdan aprelgacha davom etadi, yanvar oyidan martgacha to'fonlar bo'lib turadi. Nam tropik o'rmonlar ko'proq vulqonli orollarda o'sadi (Vavau, Eua). Mamlakatda 5 ta milliy bog' va qo'riqxonalar bor.

Tuvalu



Poytaxti: Funafuti

Maydoni: 26 km²

Aholisi: 10 ming kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy

tarkibi: protestantlar


(kongregatsionalistlar)

– 97% dan ko‘proq,
yettinchi kun adventchilari
– 1,4%

Davlat tuzumi:

hamdo‘stlik tarkibidagi
mustaqil davlat

Pul birligi: Avstraliya
dolları



Gulchambar to‘qiyotgan tuvalulik qiz



Xo‘jaligi

Tuvalu iqtisodiyotini asosini – qishloq xo‘jaligi va baliqchilik tashkil etadi. Aholi kokos palmalari, pandakuslar, taro, pulaku, non daraxti yetishtiradi va cho‘chqa, tovuq ko‘paytirib, baliqchilik bilan shug‘ullanadi. Mamlakatda kopra pandanusdan bo‘yralar, kanoelar, milliy kiyimlar ishlab chiqariladi. Ko‘p mahsulotlar va oziq-ovqat Fiji va Avstraliyadan import qilinadi. Daromad manbalari: pochta markalari sotuvi, baliqchilik uchun ruxsatnomalar, internet foydalanuvchilar uchun domena «tv», Nauruda fosfor konlarida ishlovchi ishchilarni pul o‘tkazmalaridan foizlar hisoblanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: kopra, baliq (tunes).



Baliqchilik –
mamlakatdagi
asosiy daromad
manbalaridan
biri

Umumiy ma’lumotlar

Tuvalu – Okeaniya markazidagi orolda joylashgan davlat. Tuvalu oroli va Lagunali 7 ta marjonli atollardan iborat. Aholining 96% – polineziyaliklar, 4% – mikroneziyaliklar hisoblanadi.



Mangzorlar

Tabiat

Hamma orollar past (dengiz sathidan 5 m balandlikdan oshmaydi) va o‘zlarida atollar va marjon riflarini aks ettiradi. Marjonli riflarda lagunalar bor.

Tuvalu iqlimi subekvatorial issiq. Janubiy-sharqiy passatlari may oyidan oktabrgacha nisbatan quruq havo olib keladi. Ular nam mavsum (noyabr-aprel) janubiy atollardan to‘fonlar o‘tayotgan paytida almashadi. Ular deyarli hamma binolar, daraxtlarni ildizlari bilan vayron qiladi va hammasini okeanga olib ketadi. Shimoliy orollarda qurg‘oqchilik bo‘lib turadi. Ichimlik suvi o‘rnida yomg‘ir suvi ishlatalidi. Qirg‘oq o‘simliklari: sho‘rlikni ko‘taruvchi butalar va daraxtlar, kokos palmalari hisoblanadi. Botqoqlashgan lagunalarda mangr o‘simliklari o‘sadi. Funafuti atollida yovvoyi tabiat qo‘riqxonalari bor.

Vanuatu



Poystaxti: Port-Vila
Maydoni: 12,2 ming km²
Aholisi: 200 ming kishi (2007)
Rasmiy tillari: bislama, ingliz, fransuz tillari
Aholisining diniy tarkibi: presviterianlar – 37%, anglikanlar – 15%, katoliklar – 15%, xristianlikning boshqa vakillari – 10%
Davlat tuzumi: respublika
Pul birligi: vatu

Xo'jaligi

Vanuatu iqtisodiyoti asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Mamlakatda yams, taro, manion, qahva, sabzavotlar, banan, non daraxti, kokos palmalari, shakarqamish, qahva, kakao, paxta yetishtiriladi. Sanaotning asosiy tarmoqlari oziq-ovqat, baliq, o'rmon va yog'ochsozlik. Mamlakatda marganes konlari bor. Aholi yirik shoxli mollarni, cho'chqalarni, echkilarni, tovuqlarni ko'paytirib, baliqchilik bilan shug'illanadi. Hunarmandchilik: yog'och, tosh va marjonlar o'ymakorligi, kamon va uni o'qlarini yasash, keramik haykallar, savat to'qish.

Asosiy eksport mahsulotlari: kopra, kakao, mol go'shti.



Bozordagi sotuvchi qiz



Vanuatuda yashovchi bir qabilaning obsidian asboblari. Obsidian – bu vulqon tog' jinsi

Umumiy ma'lumotlar

Vanuatu Respublikasi – Okeaniyaning (Melaneziya) janubi g'arbida ekvatoridan janubdagi orolda joylashgan davlat. Kelib chiqishi vulqonli bo'lgan Yangi Gebrid (80 ta orol) arxipelagini egallagan. Davlat boshlig'i – prezident. Vanuatu – Hamdo'stlik a'zosi. Qora tanli melaneziyaliklar aholini 98%, qolganlari fransuzlar, vietnamliklar, xitoyliklar, polineziyaliklar tashkil etadi.



Eas oroli aholisining marosim raqsi

Tabiati

Yangi Gebridlar oroli tog'li, ular hududida vulqonlar joylashgan, zilzilalar bo'lib turadi. Iqlim: shimolda nam tropik, janubda dekabrdan martgacha subtropik, orolga yiliga 2–3 bora siklon kelib ketadi. Tog' yonbag'irlari tropik o'rmonlar bilan qoplangan (ko'proq banyan daraxti, anjir daraxti). O'rmonlarni katta qismi kesilgan yoki vayron qiladigan siklonlar yo'q qilgan.

Diqqatga sazovor joylari

Vanuatuda turizm daromad bo'yicha qishloq xo'jaligidan keyingi 2-o'rinni egallagan. 2001-yil mamlakatni 46 ming chet el sayyohlari ziyorat qildi. Ularni qumli plajlar, dayving, Malekula orolini shimoli sharqidagi kichik Nambas xalqlarining qishloqlarini ziyorati, Tanna orolidagi J.Fruma madaniy marosimlari, Pentekost orolidagi «nagolna» minorasidan sakrash musobaqlari; Epi orolidagi Lamen ko'rfa zidagi dengiz sigirlarini suzishini kuzatish, Teoum vodiysidagi tropik bog'lar, g'orlar, sharsharalar, harakatdagi vulqonlar, issiq manbalar qiziqtiradi.

Yangi Zelandiya



Poytaxti: Vellington

Maydoni: 270,5 ming km²


Aholisi: 4,2 mln. kishi
(2007)

Rasmiy tili: ingliz tili

Aholisining diniy tarkibi:
xristianlar (protestantlar) –
60%

Davlat tuzumi: hamdo'stlik
takibidagi davlat

Pul birligi: Yangi Zelandiya
dolları



Maori haykalchasi

Umumiy ma'lumotlar

Yangi Zelandiya – Okeaniyadagi davlat. Aholining 75% – ingliz yangi zelandlari, 10% – tub aholi, 10% – xitoylar, hindlar va polineziyaliklar tashkil etadi.



Kivi – Yangi Zelandiya ramzi

Xo'jaligi

Yangi Zelandiya – iqtisodiy rivojlangan mamlakat. Iqtisodiyot uchun bank va sug'urta ishlari va turizm katta ahamiyatga ega. Mamlakatda tabiiy gaz, neft, temir rudasi, titan-magnetit qumlari, tosh va qo'ng'ir ko'mir, oltin, ohak, nefrit qazib olinadi. Mamlakatda oziq-ovqat, o'rmon, selluloza-qog'oz, to'qimachilik, mashinasozlik sanoatlari rivojlangan. Qishloq xo'jaligida qo'ychilik va sut-go'sht chorvachiligi rivojlangan.

Asosiy eksport mahsulotlari: pishloq, yog', jun, go'sht, baliq, yog'och, mevalar, mashinasozlik mahsulotlari.

Tabiatি

Mamlakat ikki katta orolni egallagan Shimoliy va Janubiy bundan tashqari uning tarkibiga Tinch okeanning janubiy qismidagi orollar guruhi kiradi. Shimoliy orol hududi balandligi 1400–1700 m tog' tizmalari bilan qoplangan. Uning markaziy qismida, Vulqonli plato yotadi, bu yerda harakatdagi vulqon konuslari, geyzerlari, issiq manbalar va iliq ko'llar joylashgan. Zilzilalar tez-tez bo'lib turadi, gohida vayron qiluvchi kuchga ega bo'ladi. Platodan shimolda past-balandliklar bor.

Janubiy orolni g'arbiy qirg'oqlari bo'ylab janubiy Alp tog' tizmasi cho'zilgan, sharqiy qirg'oq bo'ylab – keng bo'lmanan Kenterber tekisligi, janubi sharqda Otago tog' platosi egallagan.

Mamlakat iqlimi iliq, dengiz

mo'tadil iqlimi; shimolda – subtropik, janubning chekkasida – sovuq mo'tadil. Shimoliy orol tog'larida va Janubiy Alplar g'arbiy tog' yonbag'irlarida subtropik o'rmonlar, 800 m balandroq – qora qayin o'rmonlari, 1400 m balandlikda aralash o'rmonlari va butalar, bular alp tog'ilariga ulariga ulanib ketgan; sharqiy tog' yonbag'irlarda – doimiy yashil butalar o'sadi. Endemlar turi saqlanib qolingga: kivi, kakapo va kea to'tiqushlari, gatteriya kaltakesaklar uchraydi.



ILOVA

Dunyodagi eng yirik...

Yevrosiyo

DARYOLAR

Nomi	Uzunligi, km	Havzasi maydoni, ming km ²
Yanszi	6300	1807
Xuanxe	5464	752
Ob (Irtilish bilan)	5410	2990
Ob (Biya va Katunning qo'shilishidan)	3650	2990
Amur (Argun bilan)	4444	1855
Lena	4400	2490
Mekong	4350	810
Irtilish	4248	1643
Yenisey (Katta Yenisey bilan)	4092	2580
Volga	3530	1360
Saluni	3200	325
Ind	3180	1165
Furot (Murot bilan)	3060	673
Braxmaputra	3050	650
Sirdaryo (Norin bilan)	3019	465
Quyi Tunguska	2989	473
Dunay	2860	817
Ganga	2700	1125
Viluy	2650	454
Amudaryo (Panj bilan)	2540	309
Ural	2428	237
Dnepr	2201	504
Olenyok	2292	219
Aldan	2273	729
Iravadi	2170	430
Tarim (Yarkend bilan)	2137	1000
Kolima	2129	643
Sungari	1927	545
Dajla	1899	375
Don	1870	422
Podkamennaya Tunguska	1865	240

Nomi	Uzunligi, km	Havzasi maydoni, ming km ²
Vitim	1837	225
Pechora	1809	322
Kama	1805	507
Angara	1779	1040
Chulim	1779	134
Indigirka	1726	360
Xatanga (Kotuy bilan)	1636	364
Ket	1621	94
Argun	1620	164
Tobol	1591	426
Alazeya	1590	65
Oka	1500	245
Selenga (Ider bilan)	1433	447
Belaya	1430	142
Taz	1401	150
Dnestr	1352	72
Shimoliy Dvina (Yug bilan)	1318	357
Reyn	1326	224
Vyatka	1314	129
Zeya	1242	233
Elba (Laba)	1165	148
Anadir	1150	191
Vichegda	1130	121
Visla	1047	194
Pur (Pyakupur bilan)	1024	112
G'arb. Dvina (Daugava)	1020	88
Luara	1020	115
Mezen	966	78
Anabar	939	100
Yana	872	238
Kuban	870	58

OROLLAR

Nomi	Maydoni, km ²
Kalimantan	734 000
Sumatra	427 350
Xonсу	230 415
Buyuk Britaniya	229 885
Sulavesi	178 710
Yava	126 650
Luson	105 880
Islandiya	102 800
Mindanao	95 250
Irlandiya	84 420
Novaya Zemlya orollari	82 600
Xokkaydo	77 700
Saxalin	76 400
Shri-Lanka	65 300
Spitsbergen, arx.	61 229
Novosibirsk orollari	ok. 38 000
Severnaya Zemlya, arx.	37 600
Kyusyu	36 721
Tayvan	35 800
Xaynan	33 570
Timor	30 720
Sitsiliya	25 426
Sardiniya	23 813

Nomi	Maydoni, km ²
Sikoku	18 295
Xamaxera	17 780
Seram	17 150
Sumbava	15 450
Frans-Iosif Yeri, arx.	16 100
Flores	14 250
Samar	13 080
Negros	12 710
Palavan	11 785
Panay	11 515
Banka	11 330
Sumba	11 150
Mindoro	9 815
Kipr	9 251
Kuril orollari	15 600
Vrangel	7 270
Kolguyev	5 250
Valgach	3 380
Karaginskiy	ok. 2 000
Ayon	ok. 2 000
Katta Shantar	2 000
Belyi	1 900
Bering	1 700

KO'LLAR

Nomi	Maydoni, km ²	Eng chuqur joyi, m
Kaspiy dengizi	396 000	1026
Baykal	31 500	1637
Balkash	18 430	26
Ladoga	17 700	230
Orol dengizi	10 579*	35
Onega	9 690	127
Tonlesan	6 350	14
Issiqko'l	6 236	668

Nomi	Maydoni, km ²	Eng chuqur joyi, m
Venern	5 585	100
Urmiya	4 680	15
Kukunor (Sinxay)	4 583	33
Taymir	4 560	26
Xanka	4 190	11
Van	3 713	145
Chud (Pskov bilan)	3 550	15
Poyanxu	3 583	16

* 2008-yildagi holatga muvofiq

KO'LLAR

Nomi	Maydoni, km ²	Eng chuqur joyl, m
Ubsu-Nur	3 350	-
Duntinxu	2 820	31
Alakol	2 650	54
Xubsugul	2 620	262
Chani	2600*	10
Tayxu	2 425	3

Nomi	Maydoni, km ²	Eng chuqur joyl, m
Dalaynor (Xulun-Nur)	2 315	8
Belye	1284	6
Topozero	986	56
Ilmen	982*	10
O'lik dengiz	910	388

* O'rtacha o'icham

CHO'QQILAR, VULQONLAR

Nomi	Tog' tizmasi, mam-lakat, hudud	Dengiz sathidan balandligi, m
Cho'qqilar		
Jomolungma (Everest)	Himolay	8 848
Chogori	Qoraqorum	8 611
Kanchenjanga	Himolay	8 598
Dhaulagiri	Himolay	8 167
Nangaparbat	Himolay	8 126
Kongur	Kunlun	7 719
Tirichmir	Hindukush	7 690
Somoniyon	Pomir	7 495
G'alaba	Tyan-Shan	7 439
Otchaylo	Pamir	7 134
Ulugmuztag	Kunlun	6 973
Elbrus	Katta Kavkaz	5 642
Dixtau	Katta Kavkaz	5 204
Katta Ararat	Armyan tepaligi	5 165
Kazbek	Katta Kavkaz	5 033
Monblan	G'arbiy Alp	4 807
Beluxa	Olttoy	4 506
Dufur cho'qqisi	G'arbiy Alp	4 634
Finsterarxon	G'arbiy Alp	4 274

Nomi	Tog' tizmasi, mam-lakat, hudud	Dengiz sathidan balandligi, m
Grosglokkner	Shargi Alp	3 797
Qizil Tayga	G'arbiy Sayan	3 122
Bam cho'qqisi	Stanovoye tepaligi	3 073
Pobeda	Cherskiy tizmasi	3 003
Ledynaya	Koryak tepaligi	2 453
Tardoki-Yangi	Sixote-Alin tizmasi	2 090
Narodnaya	Ural	1 895
Kamen	Putoran platosi	1 701
Yamantau	Ural	1 638
Vulqonlar		
Kluchevskaya Sopkasi	Kamchatka y.o.	4688
Erjiyas	Anatoliy tepaligi	3 916
Kerinchi	Sumatra o.	3 800
Fudziyama	Konsu o.	3 776
Semeru	Yava o.	3 676
Ichin Sopkasi	Kamchatka y.o.	3607
Kronoki Sopkasi	Kamchatka y.o.	3521
Koryak Sopkasi	Kamchatka y.o.	3456
Etna	Sitsiliya o.	3 323
Shiveluch	Kamchatka y.o.	3307

Afrika

DARYOLAR

Nomi	Uzunligi, km	Havzası maydonı, ming km ²
Nil (Kagera bilan)	6671	2870
Kongo (Lualaba bilan)	4700	3700
Niger	4184	2092
Zambezi	2736	1330
Ubangi (Uele bilan)	2300	775
Kasai	2153	880
Oranj	2092	852
Uabi-Shebele	1820	200
Jubba (Gennale bilan)	1650	196

Nomi	Uzunligi, km	Havzası maydonı, ming km ²
Senegal	1640	441
Okavango (Kubango)	1600	800
Limpopo	1600	440
Volta	1600	398
Ko'k Nil	1600	330
Lubua (Luapula bilan)	1500	265
Lomarni	1500	110
Shari	1450	650
Rufiji	1400	178
Gambiya	1200	180

CHO'QQILAR, VULQONLAR

Nomi	Tog' tizması	Dengiz sathı-dan balandlığı, m
Cho'qqilar		
Keniya	Keniya	5199
Margerita	Kongo-Uganda	5109
Ras-Dashen	Efiop tepaligi	4620
Tubkal	Baland Atlas	4165
Txabana- Ntlenyana	Ajdar tog'lari	3482
Emi-Kusu	Tibesti tepaligi	3415
Marra	Darfur platosi	3088
Piton-de-Nej	Reyunyon o.	3069
Taxat	Axxaggar tepaligi	2918

Nomi	Tog' tizması	Dengiz sathı-dan balandlığı, m
Marumukutru	Madagaskar o.	2876
Brandberg	Namibiya	2573
Şeiliya	Jazoir	2328
Lalla-Hadija	Tel-Atlas	2308
Vulqonlar		
Kilimanjaro	Tanzaniya	5895
Meru	Tanzaniya	4565
Karisimbi	Virunga tog'lari	4507
Kamerun	Kamerun	4100
Teleki	Keniya	646

OROLLAR

Nomi	Maydonı, km ²
Madagaskar	587 000
Kanar orollari	7 447
Yashil Burun orollari	4 033
Sokota	3 626
Reyunyon	2 510
Komor orollari (Qamar orollari)	2 236
Bioko	2 017
Mavrikiy	1 865

Nomi	Maydonı, km ²
Zanzibar	1 660
Pemba	984
San-Tome	836
Madeyra orollari	794
Seyshel orollari	ok. 300
Prinsipi	128
Muqaddas Yelena	122
Tristan-da-Kunya orollari	104

KO'LLAR

Nomi	Maydoni, km ²	Eng chuqur joyi, m
Viktoriya	69 458	82
Taganika	32 900	1 470
Nyasa	29 604	704
Chad	17 800	10
Rudolf	6405	73
Albert	5600	58
Mveru	5200	15

Nomi	Maydoni, km ²	Eng chuqur joyi, m
Bangveulu	5000	5
Tana	3630	72
Kivu	2650	450
Koga	2600	5
Rukva	2600	—
Mai-Ndombe	2300	7
Eduard	2200	117

Amerika

DARYOLAR

Nomi	Uzunligi, km	Havzasi maydoni, ming km ²
Shimoliy Amerika		
Missisipi (Missouri va Red-Rok bilan)	5971	3108
Makkenzi (Pis va Finli bilan)	4241	1805
Yukon	3185	850
Rio-Grande (Rio-Bravo-del-Norte)	2832	870
Nelson (Saut-Saskachevan va Bou)	2575	1150
Arkansas	2348	414
Kolorado	2334	637
Ogayo (Algegeyni bilan)	2108	528
Red-River	2076	242

Nomi	Uzunligi, km	Havzasi maydoni, ming km ²
Janubiy Amerika		
Amazonka (Ukayali bilan)	6437	7047
Amazonka (Maranon bilan)	5500	—
Parana (Riu-Grandi va La-Plata estuariyi bilan)	4876	3100
Madeyra (Mamore bilan)	3350	1200
Jurua	3283	224
Purus	3211	400
San-Fransisku	2914	631
Japura (Kaketa bilan)	2816	282
Orinoko	2736	948

OROLLAR

Nomi	Maydoni, km ²
Shimoliy Amerika	
Grenlandiya	2 175 600
Baffin Yeri	507 451
Viktoriya	217 290
Elsmir	196 236
Nyufaundlend	108 860
Kuba	105 007
Gaiti	76 192
Banks	70 028
Devon	55 247

Nomi	Maydoni, km ²
Janubiy Amerika	
Olovli Yer	47 992
Marajo	40 100
Folkland (Malvin) orollari	12 173
Chiloe	8394
Galapagos orollari	7881
Vellington	6604
Oste	4117
Santa-Ines	3645

CHO'QQILAR, VULQONLAR

Nomi	Tog' tizmasi, mamlakat, hudud	Dengiz satidan balandligi, m
Shimoliy Amerika		
Cho'qqilar		
Mak-Kingli	Alyaska tog' tizmasi	6194
Logan	Alyaska	5951
Avliyo Ilyos	Alyaska	5489
Ultni	Serra-Nevada	4418
Elbert	Qoyali tog'lar	4399
Uoddington	Qirg'oqbo'yи tizmasi	3994
Robson	Qoyali tog'lar	3954
Gunbyorn	Grenlandiya o.	3700
Penya-Nevada	Sharqi Serra-Madre	3660
Vulqonlar		
Oribasa	Meksika	5610
Popokatepetl	Meksika	5465
Sanford	Alyaska	4949
Reynir	Kaskad tog'lari	4392
Shasta	Kaskad tog'lari	4317
Taxumulko	Gvatemala	4220
Irasu	Kosta-Rika	3432
Xud	Kaskad tog'lari	3424
Lassen-Pik	Serra-Nevada	3187
Iliamna	Alyaska	3053

Nomi	Tog' tizmasi, mamlakat, hudud	Dengiz satidan balandligi, m
Janubiy Amerika		
Cho'qqilar		
Akonkagua	Argentina	6960
Oxos-del-Salado	Argentina-Chili	6880
Tupungato	Argentina-Chili	6800
Uaskaran	Peru	6768
Ankouma	Boliviya	6550
Saxama	Boliviya	6542
Ilmani	Boliviya	6462
Koropuna	Peru	6426
Chimboraso	Ekvador	6310
Kristobal-Kolon	Kolumbiya	5800
Bolivar, cho'qqi	Venesuela	5007
San-Valentin	Chili	4058
Neblina	Venesuela-Braziliya	3014
Bandeyra	Braziliya	2897
Roraima	Gviana yassitog'ligi	2875
Vulqonlar		
Lyulaylako	Argentina-Chili	6723
San-Pedro	Chili	5974
Kotopaxi	Ekvador	5897
Ruis	Kolumbiya	5400

KO'LLAR

Nomi	Maydoni, km ²	Eng chuqur Joyi, m
Shimolliy Amerika		
Yuqori	82 103	405
Guron	59 700	229
Michigan	57 757	281
Katta Ayiq	31 328	446
Katta Qullar	28 570	614
Eri	25 667	64
Vinnipeg	24 390	18
Ontario	19 011	244
Nikaragua	8157	70
Atabaska	7936	60

Nomi	Maydoni, km ²	Eng chuqur Joyi, m
Olene	6651	219
Nettilling	5542	—
Vinnipegosis	5374	12
Janubiy Amerika		
Marakaybo	13 512	250
Patus	10 140	5
Titikaka	8300	281
Poopo	2530	3
Buenos-Ayres	2240	—
Lagoa-Mirin	2000	7
Mar-Chikita	1850	4

Avstraliya va Okeaniya

OROLLAR

Nomi	Maydoni, km ²
Yangi Gvineya	792 540
Janubiy (Yangi Zelandiya)	150 461
Shimoliy (Yangi Zelandiya)	114 728
Tasmaniya	67 800
Solomon orollari	37 300
Yangi Britaniya	36 500
Fiji orollari	18 274
Yangi Kaledoniya	16 750
Gavayi orollari	16 636
Yangi Gebrid orollari	12 189
Yangi Irlandiya	8650
Samoa orollari	3030
Jamiyat orollari	1647
Markiz orollari	1274

Nomi	Maydoni, km ²
Karolina orollari	1194
Taiti	1042
Mariana orollari (Guam oroli bilan)	1018
Guam	541
Chatem orollari	963
Tuamotu orollari	915
Tonga orollari	748
Layn (Markaziy Polineziya Tarqoq orollari)	496
Gilbert orollari	264
Niuel	259
Kuk orollari	236
Marshall orollari	181
Tubuai orollari	164
Pasxa	163

CHO'QQILAR, VULQONLAR

Nomi	Tog' tizmasi, mamlakat, hudud	Dengiz sathidan balandligi, m
Cho'qqilar		
Jaya	Yangi Gvineya o.	5030
Kuk	Yangi Zelandiya	3764
Kossyushko	Katta Suvayirg'ich tizma	2228
Silisili	Samoa	1858
Panye	Yangi Kaledoniya o.	1628
Bartl-Frir	Katta Suvayirg'ich tizma	1622
Ossa	Tasmaniya o.	1617
Vulqonlar		
Mauna-Loa	Gavayi o.	4169
Ruapexu	Yangi Zelandiya	2797
Ulavun	Yangi Britaniya o.	2300

DARYOLAR

Nomi	Uzunligi, km	Havzasi maydoni, ming km ²
Darling	2739	650
Murrey (Marri)	2589	1073
Marrambiji	2160	84
Loklan	1500	85
Sepik	1127	77
Flay	1120	72
Flinders.	837	108

KO'LLAR

Nomi	Maydoni, km ²	Eng chuqr joyi, m
Eyr-Nort	до 9300*	—
Torrens	до 5800*	8
Gerdner	до 4800*	—

* Qurib qolayotgan ko'llar

Atamalar lug‘ati

Aholi – biror hududda (mamlakat, shahar, qit'a, sayyora) yashovchi kishilarning uzlucksiz yangilanib turuvchi majmui, ishlab chiqarish va barcha ijtimoiy munosabatlarning asosi va subyekti. Aholining soni ro‘yxatga olish yo‘li bilan aniqlanadi. Biror mamlakat aholisiga ta’rif berish uchun uning etnik, diniy, jinsiy va yosh bo‘yicha tarkibini, odamlarning oilaviy ahvolini, ma’lumot darajasini va mashg‘ulotini bilish kerak. Aholi doim o‘zgarib turadi. Uning asosiy o‘zgarish unsurlari: tug‘ilish, o‘lish va ko‘chib o‘tish (migratsiya).

Anklav – bir davlatning hamma tomonidan boshqa davlat hududi bilan o‘rab olingan hududi yoki hududining bir qismi. Masalan, Lesoto davlati JAR hududidagi anklav hisoblanadi. Agar anklav dengizga tutash bo‘lsa yarim anklav deb ataladi.

Aparteid – irqiy kamsitishning eng ashaddiy ko‘rinishi. Aholining muayyan guruhini ijtimoiy, iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni g‘oyatda cheklashni, hatto uni alohida hududlarda yashashga majburlashni anglatadi. Genotsidning ayrim jihatlari aparteidga kiradi. JAR hukumati 1948-ylda davlat milliy siyosati sifatida joriy qilgan. Aparteidga qarshi keng ko‘lamdagi kurash 1980-yillarda afrikaliklarning huquqlarini poymol qiluvchi qonunlarning bekor qilinishiga olib keldi. Zamonaviy xalqaro huquq aparteidni insoniyatga qarshi jinoyat deb hisoblaydi.

Ateizm – Xudosizlik. Xudo va umuman g‘aybiyotni inkor etish hamda u bilan bog‘liq ravishda dinni inkor etish.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta‘minlash, davlatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945-yilda tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror sobiq SSSR, AQSH, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943-yilda, Ustavi esa San-Fransisko konferensiyasida 1945-yilda qabul qilindi. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan. 2000-yilda ular soni 189 ga yetdi. BMTning doimiy ish o‘rni (bosh qarorgohi) – Nyu-York. BMT Ustavida ko‘rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo‘lishi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash qoidasiga amal qilib millatlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiym madani muammolarni hal etishda xalqlar o‘rtasida hamkorlik bo‘lishini ta‘minlashni

ko‘zda tutib, shu umumiylar maqsadlarga erishsida millatlar harakatini uyg‘unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi.

Budget – davlat, tashkilot va boshqalarning muayyan muddatga oid (odatda bir yillik) daromadlar va xarajatlar rejasи. U xo‘jalik faoliyatini boshqarish qurollaridan biri bo‘lib, mavjud resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Davlat budgeti – davlatning bir yillik daromadlar va xarajatlar hisobi (unda daromadlar manbai va xarajatlar yo‘nalishi batafsil ko‘rsatiladi). Agar xarajatlar daromadlardan oshib ketsa budget defitsitga olib boradi. Agar daromad xarajatdan ko‘proq bo‘lsa budgetning ijobjiy qolidig‘i (profitsit) qoladi.

Bo‘g‘oz – quruqlikning ma’lum qismlarini ajratib turgan va qo‘shni suv havzalarini yoki ularning qismlarini birlashtirib turgan nisbatan kambar suv yo‘lagi.

Dara – tor, tik yonbag‘irli vodiylar (ko‘pincha tog‘larda bo‘ladi. Ularning chuqurligi odatda enidan ortiq bo‘ladi. Daraning kanon va tangidan farqi shundaki, daraning tubi daryo o‘zani bilan butunlay band bo‘lmaydi.

Daryolar – tabiiy o‘zanlarda oqadigan va o‘z havzalaridagi yer usti va yer osti suvlaridan to‘yinadigan suv oqimlari. Daryolar o‘z irmoqlari bilan birga daryo sistemasini (tizimini) hosil qiladi. Uning xususiyati va rivojlanishi asosan iqlim, relyef havzalarining geologik tuzilishi va katta-kichikligiga bog‘liq bo‘ladi. Daryolar 2 guruhga: tez va odatda tor vodiylardan oqadigan tog‘ daryolari va ancha sekin oqadigan hamda terrasali keng vodiyidan iborat tekislik daryolariga bo‘linadi.

Davlat – muayyan hududda joylashgan va yagona hukumatga bo‘ysinuvchi muqim aholining siyosiy tashkiloti. Davlat tushunchasida uchta unsur bor: aholi (xalq), hudud va hokimiyat. Davlat turli xil tuzilishga va turli boshqaruva shakllariga ega bo‘lishi mumkin.

Davlat chegarasi – qo‘shni davlatlar hududlarini ajratib turuvchi chiziq. Odatda chegaralar erkin o‘tib yurish imkonini bermay, maxsus to‘siqlar bilan ta‘minlangan bo‘ladi. Davlat chegarasi haribylar tomonida qo‘riqlanadi. Chegaradan faqat maxus nazorat bo‘limlari orqali o‘tish mumkin. Nazorat bo‘limlarda passport nazorati va bojxona xizmatlari faoliyat yuritadi. Agar muayyan mamlakatlar orasida chegaradan erkin o‘tish bo‘yicha kelishuv mavjud bo‘lsa davlat chegarasi chunchaki hududlarni ajratib turuvchi ma’muriy chiziq hisoblanadi.

Diktatura – davlat hokimiyatini nodemokratik usullar bilan amalga oshirish tizimini ifodalovchi tushuncha, avtoritar yoki totalitar rejim. Diktaturaga asoslangan siyosiy rejimda hokimiyat bir shaxs – diktator yoki bir necha shaxslarning qo‘lida markazlashadi, siyosatda zo‘ravonlik va terror kuchayadi.

Dominion – ingliz qirolini (qirolichasini) davlat boshlig‘i deb tan olib kelgan va Britaniya tarkibida bo‘lgan davlat. Unga general-gubernator tayin qilingan. Dastlabki dominionlar Kanadi (1867), Avstraliya ittifoqi (1901) va boshq. Hamdo‘slik tuzilgandan keyin ko‘pgina sobiq dominionlar avvalgidek inlgiz qirolichasini davlat boshlig‘i deb hisoblashadi.

Ekotizim – tirik organizmlar bilan ularning yashash muhiti (atmosfera, tuproq, suv havzasi va h. k.) hosil qilgan yagona tabiiy majmua; unda jonli hamda jonsiz unsurlar modda va quvvat almashinishi orqali o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Ekotizim tushunchasi murakkabligi va hajmi turlicha bo‘lgan tabiiy obyektlar (butun okean yoki kichik hovuz, tayga yoki qayinzorning bir qismi) ga nisbatan qo‘llaniladi. Ekotizim atamasini fanga ingliz filotsenologi A. Tensli kiritgan (1935). Ko‘pincha ekotizim va biogeotsenoz atamalari sinonim sifatida ishlataladi.

Eksport – mahsulotlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish. Mahsulotlarni bir mamlakat orqali olib o‘tish (tranzit) va bir mamlakatdan olib kelingan mahsulotlarni boshqa mamlakatga sotish uchun chiqarish (reeksport) ham eksportga kiradi.

Mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilgan moddiy boyliklar eksporti tarkibi milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rnini bilan bog‘liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlarga sanoat mahsulotlari, ayniqsa mashinasozlik mahsulotlari va texnologiyalar eksport qilish xos bo‘lsa, agrar iqtisodiyotga ega bo‘lgan mamlakatlar eksportida xomashyo va oziq-ovqat asosiy rol o‘ynaydi. Yakka ziroatchilik xo‘jaliklari hukmron bo‘lgan mamlakatlar eksportida 1-2 mahsulot turi asosiy o‘rinni egallaydi.

Ekvator – Yerning aylanish o‘qiga perpendikular bo‘lgan va Yerning markazidan o‘tgan tekislikning yer yuzasini kesish chizig‘i. Yer kurasini Shimoliy va Janubiy yarimsharlarga bo‘lib turadi. Geografik kengliklarning bosh hisobi bo‘lib xizmat qiladi. Uzunligi 40 075 696 m.

Federatsiya – davlat tuzilishi shakli, yuridaik jihatdan muayyan siyosiy mustaqilligi bo‘lgan davlat tuzilmalaridan tashkil topgan murakab davlat. Federativ davlatni tashkil etuvchi davlat tuzilmalari (shtatlar, o‘lka, kontonlar) federatsiya subyektlari hisoblanadi va o‘z ma’muriy, hududiy bo‘linishlari bo‘ladi. Federatsiyada yagona konstitutsiya, yagona ittifoq, davlat hokimiyati organlari bo‘ladi. Yagona fuqarolik, pul birliklari va shu kabilar amal qiladi. Unitar davlatdan farqli ravishda federatsiya hokimiyat oliv organlarining 2 tizimiga – federal organlar va federatsiya a’zolarining tegishli organlariga ega bo‘ladi. Federal organlar mamlakatning hamma hududida o‘z vakolat va vazifalarini amalga oshiradi. Federatsiyani tashkil etuvchi davlat tuzilmalari tom ma’noda davlat hisoblanmaydi. Ular suverenitetga, ittifoqdan bir tomonlama chiqish huquqiga ega bo‘lmaydi, yuridik jihatdan xalqaro munosabatlarda qatnashish huquqidan mahrum. Ittifoq konstitutsiyasi yoki qonunlari buzilgan taqdirda markaziy hokimiyat federatsiya subyektiga nisbatan majburlash choralarini ko‘rish huquqiga ega. Federatsiyaning eng zarur belgilaridan biri – federal parlamentning 2 palatali tuzilmasidir. Odatta federatsiya a’zolarining o‘z mustaqil konstitutsiyasi bo‘ladi. Milliy (til) omilning ahamiyatiga qarab federatsiya tuzilishini belgilashda hududiy asosdagi federatsiya (AQSH, Avstraliya, Braziliya), milliy asosdagi federatsiya (Hindiston, Belgiya, Nigeriya) va aralash milliy-hududiy asosdagi federatsiya (Rossiya Federatsiyasi, Shveysariya) farqlanadi.

Globalizatsiya – dunyoda yagona iqtisodiy maydon o‘rnatishga yo‘naltirilgan jarayonlar majmuasi. Odatta globalizatsiya atamasi banklar faoliyatining xalqaro miqyosda rivoylanib borayotgan mamlakatlararo aloqalariga nisbatan qo‘llaniladi. Globalizatsiya siyosatini va strategiyasini xalqaro davlat tashkilotlari joriy qiladi: Xalqaro valuta fondi, Juhon banki va h.k. Juhon iqtisodiy jarayonida transmillik korporatsiyalarning roli ham kuchayib bormoqda. Antiglobalistlar globalizatsiyaning salbiy oqibatlariga qarshi chiqishadi.

Hunarmandchilik – mayda hajmda qo‘lda buyumlar ishlab chiqarish. Yirik mashinalashga sanoat yuzaga kelgunga qadar yetakchi rol o‘ynagan (so‘ngra yirik sanoat qatorida qisman saqlanib qolgan). Markaziy Osiyoda hunarmandchilikning ko‘plab tarmoqlari (masalan, zargarlik, zardo‘zlik, kulolchilik, o‘ymakorlik va boshqalar) rivojlangan. Hunarmandchilikning asosan oddiy mehnat qurollaridan foydalilanadi.

Import – mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, shuningdek, ularni uchinchi mamlakatga o‘tkazib yuborish uchun chet el mahsulotlari, xizmatlar, texnologiyalar, kapitallar, qimmatli qog‘ozlar va boshqa narsalar keltirish. Import bojxona bojlari, shuningdek, miqdoriy cheklashlar, litsenziyalash tizimi va boshqa notarif tarzidagi vositalar bilan tartibga solinadi. Importning eksportdan ustunligi mamlakatning tashqi savdosida salbiy saldoni vujudga keltiradi va bu hol mamlakatning umumiy, iqtisodiy salohiyatida salbiy hodisa deb qaraladi.

Investitsiya – mamlakat ichkarisidagi yoki xorijdagи biror ish, korxona, ilmiy izlanish, xo‘jalik sohasini moliyalashtirish (foyda ko‘rish maqsadida). Alovida shaxs, tijoriy firma va davlat organi ham investor sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Iqlim – ob-havoning ko‘p yillik statistik rejimi, muayyan joyning asosan geografik xususiyatlaridan biri. Iqlimning asosiy xususiyatlari Quyosh radiatsiyasining kelishi, havo massalari sirkulatsiyasi jarayonlari, Yer yuzasining qoplami xususiyatiga bog‘liq. Alovida mintaqaga iqlimiga ta’sir etadigan geografik omillardan eng muhimlari joyning kengligi va balandligi, dengiz sohiliga yaqinligi, o‘simlik qoplaming xususiyatlari, qor va muzning bor-yo‘qligi, atmosferaning ifloslanganlik darajasidir. Bu omillar kenglikar bo‘ylab turli iqlimlar va mahalliy iqlimlar shakkalanishiga sabab bo‘ladi.

Ishsizlik – jamiyatdagi holat. Unga ko‘ra ishga layoqatlari aholining bir qismi o‘z ishchi kuchini qo‘llash imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Odatda ishsizlik ilmiy-teknologik rivojlanish natijasida yoki ish vaqtining uzunligi va korxona xodimlariga nisbatan ish sharoitining og‘rligi sababli yuzaga keladi. Ko‘plab mamlakatlarda ishsizlar uchun maxsus jamg‘armalar va nafaqalar joriy qilingan va ish topishga yordam beradigan tashkilotlar tuzilgan.

Karst (karst hodisalari) – tog‘ jinslari (gips, toshuz va boshqalar) ning tabiiy suvlar ta’sirida erishi natijasida ro‘y beradigan hodisalar. Bunda yer osti (g‘orlar, bo‘shlilar, yo‘laklar, tabiiy quduqlar) va yer usti relyef shakllari hosil bo‘ladi, yer osti suvlar, anhorlar (yer osti bo‘sqliqlariga kirib yo‘qoluvchi suvlar) df ko‘llarning sirkulatsiyasi va rejimi o‘ziga xos xususiyatlar kasb etadi.

Konfederatsiya – davlat tuzilishining bir shakli; unga ko‘ra konfederatsiyani tashkil qilgan davlatlar o‘z mustaqilligini to‘la saqlab qoladi, o‘z davlat hokimiyatini tuzadi; maxsus

birlashgan organlar esa muayyan (harbiy, tashqi siyosiy) maqsadlarda harakatlarni muvofiqlashtirish uchungina tuziladi.

Konstitutsiyaviy monarxiya – monarxiya boshqaruva shaklining alohida turi. Unda monarx hokimiyati konstitutsiya bilan cheklangan bo‘ladi, saylab qo‘yiladigan qonunchilik organi – parlament va mustaqil sudlar bo‘ladi.

Ko‘llar – quruqlikning chuqur joylari (soyliklar) dagi tabiiy suv havzalar. Ko‘l har xil suv bilan to‘lgan va nishabsiz bo‘ladi. O‘rnining paydo bo‘lishiga qarab tektonik, muzlik, daryo (eski o‘zanlar), dengiz bo‘yi (laguna, liman), o‘pirilgan (karst, termokarst), vulkanik (so‘ngan vulqonlar kraterida), qulama yoki to‘g‘onli, sun’iy (suv omborlari, hovuzlar) ko‘llarga bo‘linadi. Suv balansiga ko‘ra ko‘llar oqar va oqmas ko‘llarga va suvining kimyoiy tarkibiga binoan chuchuk va ma‘danli ko‘llarga bo‘linadi. Yer kurrasidagi barcha ko‘llarning umumiy maydoni 2,7 mln. kv. km ga yaqin (quruqlik maydonining 1,8% ga yaqini).

Materik – Yer po‘stining yirik massivi, uning katta qismi Dunyo okeani sathidan ko‘tarilib turadi, chekkalari esa uning sathidan pastda (suv ostida) turadi. Materikning Yer po‘sti qismi kontinental tipda tuzilgan, qalinligi 35 – 70 km, tarkibida granit-metamorfik qatlamlar bor.

Monarxiya – davlat boshqaruvi shakli. Bunda davlat boshlig‘i monarx hisoblanadi. Monarxiyaning ikki turi mavjud: mutlaq monarxiya va konstitutsiyaviy monarxiya.

Mutlaq monarxiya – monarxiya boshqaruva shaklining alohida turi. Bunda monarxning to‘la hokimiyatini cheklaydigan biron bir davlat organi bo‘lmaydi.

Mussonlar – bir xilda esadigan mavsumiy shamollar, yo‘nalishi yiliga 2 marta keskin ravishda qarama-qarshi (yoki deyarli qarama-qarshi) tomonga o‘zgarib turadi. Ularning bunday harakati materiklarning mavsumga qarab isishi bilan bog‘liq. Mussonlar iqlimining asosiy xususiyati shundan iboratki, yozda yog‘in ko‘b yog‘ib, qish quruq bo‘ladi. Mussonlar tropik kengliklarda, asosan Hind okeani havzasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mussonlar tropik kengliklardan tashqari joylarda ham ro‘y berishi mumkin.

Mustamlaka – xorijiy davlat hukmronligi ostidagi mamlakat yoki hudud.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) – davlatlararo tashkilot. 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belorussiya, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo'q bo'lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga O'zbekiston, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston qo'shildi, ular Belorussiya, Rossiya va Ukraina bilan MDHning maqsad va qoidalari to'g'risida Deklaratsiyaga Olmaota shahridda imzo chekdirler. 1993-yil MDHga Gruziya qo'shildi. 1993-yilda MDH Nizomi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiyligini iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog'lig'i va atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegarani qo'riqlashda birglikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. MDH haqiqiy a'zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a'zolar bo'lishi mumkin. MDHning quyidagi organlari tashkil qilingan: Davlat boshliqlari kengashi, Hukumat boshliqlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Davlatlararo iqtisodiy qo'mita, markazi Sankt-Peterburgda bo'lgan Parlamentlararo assambleya va boshqa MDHning doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan Muvoqiflashtiruvchi-maslahat qo'mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi 1 yilda kamida 2 marta o'tkaziladi. MDH organlarining faoliyati MDH nizomi bilan tartibga solinadi. O'zbekiston o'z milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda MDHda ishtirok etmoqda. U MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida qaraydi. MDH hududida davlatlarning teng huquqligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o'rtaida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi.

Mustaqillik – davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishi. Mustaqillik tamoyillariga rioya etish davlatlararo o'zaro munosabatlarda yetakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish o'zaro tinch-totuv yashashning prinsiplaridan biridir. U BMT Ustavi va

xalqaro shartnomalar va deklaratsiyalarda mustahkamlab qo'yilgan. Unga rioya qilish hozirgi zamondagi xalqaro huquqining asosiy vazifasidir. Davlatning suvereniteti uning boshqa davlatlar bilan munosabatlardagi mustaqilligini ham bildiradi. Mustaqillik davlatning faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy mustaqilligini ham anglatadi.

Muzliklar – yog'inlardan hosil bo'lib yer yuzasi bo'ylab siljib turadigan muz qoplamlari. Qattiq holatdagi yog'inlar erishi va bug'lanishiga nisbatan ko'proq to'planadigan hududlarda hosil bo'ladi.

NATO – Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti. 1949-yilda tuzilgan siyosiy va harbiy tashkilot

Platforma – Yer po'stining asosiy chuqur strukturalaridan biri, unda tektonik harakatlar va magmatik jarayonlar kam sodir bo'ladi; relyefi yassi. Platforma 2 yarusdan tuzilgan. Quyi yarusi (Platforma qoplami) ni ko'proq cho'kindi va qisman vulkanogen qatlamlar tashkil etadi. Platformada qalqonlar (burmali zamini yer yuzasiga chiqqan joylar) va plitalar (zamini chuqurlashib ketgan joylar) farq qilinadi. Tokembriy yoshidagi zaminga ega bo'lgan qadimgi platformalarga (masalan, Sharqiy Evropa, Sibir platformalari) hamda paleozoy va mezozoy yoshidagi zaminga ega bo'lgan yosh platformalarga (G'arbiy Sibir, Qozog'istonning shimoli, Kavkazoldidagi tekis hududlar) bo'linadi.

Poytaxt – davlatning bosh shahri, odatda, davlat hokimiyatining yuqori organlari, markaziy muassasa va idoralari qarorgohi. Ko'pincha poytaxt mustaqil ma'muriy birlikka ajratiladi, ular uchun alohida idora tartibi belgilanadi.

Respublika – davlat boshqaruvi shakli, unda barcha davlat hokimiyatni organlari saylab qo'yiladi yoki umummilliy vakolatli muassasalar (parlamentlar) tomonidan shakllantiriladi, fuqarolar esa shaxshi va siyosiy huquqlarga ega bo'ladilar. Tarixan respublika antik davrda monarxiyaning ziddi sifatida vujudga kelgan.

Hozirgi vaqtida jahondagi 190 davlatdan 140 dar ortig'i respublika hisoblanadi. Boshqaruvning respublika shakli quyidagi turlarga ajratiladi: 1) prezidentlik respublikasi, bunda prezident umumxalq saylovida saynalanib, bir vaqtning o'zida davlat va ijro hokimiyatini boshlig'i hisoblanadi; 2) parlamentar respublika, bunda parlament to'liq hokimiyatga ega bo'lib, uning oldida hukumat to'liq javobgar hisoblanadi. Parlament prezidentni

saylaydi. Bunda prezident faqat davlat boshlig'i bo'lib, ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanmaydi; 3) aralash tipdagi respublika, bunda prezidentlik respublikasi bilan parlamentar respublika xususiyatlari qo'shilib ketadi. Ya'ni prezident umumxalq saylovlarida saylanib, yuridik va real vakolatlarga ega bo'ladi. Biroq hukumat parlament tomonidan tashkil etiladi va u nafaqat prezident oldida, balki parlament oldida ham siyosiy javobgar bo'ladi. Bunda prezideng hukumatga umumiylah rahbarlik qiladi, lekin uni bosh vazir boshqaradi. Prezident ma'lum holatlar yuz berganda parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi suveren demokratik respublikasi bo'lib, mamlakatda prezidentlik respublikasi boshqaruv shakli amal qiladi.

Sanoat (industriya) – xalq xo'jaligining eng muhim sohasi; jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. 2 yirik soha – undiruvhci va ishlov beruvchi sanoatdan iborat bo'lib, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish (A guruh) va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish (B guruh) ga bo'linadi.

Sivilizatsiya – insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichi. U ijtimoiy, texnik, ma'naviy va madaniy taraqqiyot tushunchalarini o'zida jamlaydi va muayyan davr, tarix yoki muayyan hududga oid bo'ladi. XVIII asrda bu tushuncha endigina paydo bo'lganda fransuz ma'rifatparvar olimlari uni aql vaadolatga bog'lab jaholatga qarshi qo'yishgan. Bir asr o'tgach sivilizatsiya so'zini madaniyat taraqqiyotining yakuniy bosqichi sifatida qo'llay boshlashdi.

Tayga – ko'proq ignabargli daraxtlardan iborat o'simliklar majmui. Shimoliy yarimsharning o'rmon zonasida tarqalgan. Yerning qariyb 10 % quruqligini egallaydi. Yevrosiyoning taygasida asosar qoraqarag'ay, oqqarag'ay (barglari to'q tusli daraxtlardan iborat tayga), qarag'ay, tilog'och (barglari och rangli daraxtlardan tashkil topgan tayga) o'sadi; daraxtlar tagida mayda daraxtlar va butalar kam, bir xil o't-butga yarusi mavjud. Shimoliy Amerika taygasi uchun qoraqarag'ay, oqqarag'ay, tuya xos. Ayniqsa, silovsin, sobol, burunduq, qushlardan karqur, qizilishton va boshqa jonivorlar yashaydi. Taygada yog'och, oziq-ovqat va dori-darmon xomashyosi, ovlanadigan hayvonlarning asosiy resurslari to'plangan.

Tekisliklar – bir oz past-baland bo'lgan quruqlik yuzasining, okean va dengizlar tubining bir qismi. Quruqlikda dengiz sathidan past bo'lgan tekisliklar, pasttekisliklar (balandigi 200 m gacha), qirlar (200 dan 500 m gacha) va tog'

tekisliklari (500 m dan ziyod) bo'ladi. Tuzilishi jihatidan platformali hududlar va orogen (tog'lik) hududlar (asosan tog'lararo, tog'oldi bukilmalari atrofi) dagi tekisliklarga bo'linadi. Tekisliklar Yer yuzasining kattagina qismini egallaydi.

Totalitarizm – davlat boshqaruv shakllaridan biri. Totalitarizmda jamiyat hayotining barcha sohalari usitdan davlatning yalpi, to'la (total) nazorati o'rnatiladi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar tugatiladi, bir shaxs, ijtimoiy guruhning (masalan, harbiylarning yoki partiyaning) yakkahokimligiga so'ssiz bo'ysuniladi, muxolifat va o'zgacha fikrlovchilar qatag'on qilinadi.

Tog'lar – Yer yuzasining dengiz sathidan bir necha ming m ko'tarilgan va balandliklari keskin farq qiluvchi keng qismlari; tog'lar relyefi tektonik harakatlar tufayli Yer po'stining murakkab deformatsiyalanishi va shundan keyin bo'linishidan hosil bo'ladi. Relyefi alp, baland, o'rtacha balandlikdagi va past tipli tog'larga bo'linadi.

Tog' tizmasi – quruqlik relyefining baland, yirik shakli, uzun cho'zilgan tog' sirti va yonbag'irlari aniq ifodalangan bo'ladi.

Tundra – o'simliklar tipi. Yerning subarktika mintaqasida tarqalgan. Asosan Yevrosiyo va Shimoliy Amerikaning sohillari bo'yab cho'zilgan hududni egallaydi.

Unitar davlat – davlat tuzilishi shakli; bunda davlat hududi tarkibida federatsiyadan farqli ravishda federativ birliklar (shtatlar, yerlar) bo'lmaydi, balki ma'muriy-hududiy birliklar (tumanlar, viloyatlar, kantonlar va h.k.) ga bo'lingan bo'ladi. Mazkur mustaqil qismlar davlat suvereniteti alomatlariga ega emas. Bunday davlatda oliv organlarning yagona tizimi hamda yagona qonunchilik (Kostitutsiya, fuqarolik, oliy davlat hokimiyati) bo'ladi. Barcha unitar davlatlarga xos bo'lgan markazlashtirish turli shakllarda turli darajada namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda mahalliy organlar umuman bo'lmaydi va ma'muriy-hududiy bo'linmalar markaziy hokimiyat vakillari tomonidan boshqariladi. Boshqa davlatlarda mahalliy organlar tashkil etiladi-yu, lekin ular bevosita yoki bilvosita markaziy hokimiyat nazorati ostida bo'ladi. Unitar davlatlar markazlashgan va markazlashmaganga bo'linadi. Markazlashmagan unitar davlatda mahalliy organlar markaziy organlardan mustaqil ravishda shakllantiriladi, shuning uchun ular o'rtasidagi huquqiy munosabatlar markazlashmagan asosda o'rnatiladi. Unitar

davlat tarkibida davlat belgilari mavjud milliy-hududiy tuzilmalar ham bo‘lishi mumkin, masalan, avtonom viloyat, avtonom respublika. O‘zbekiston – unitar davlat. Uning tarkibida davlat tuzilishiga xos belgilar mavjud bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi bor.

Vodiy – daryolar faoliyati yoki tektonik jarayonlar natijasida hosil bo‘lgan botiq relyef. Daryolar faoliyati natijasida hosil bo‘lganlari daryo oqqan tomonga qiyalashib boradi. Tog‘ vodiylari (chuqur va tor, nishabi turlicha) va tekislik vodiylari (keng, yonbag‘irlari past va qiya) bo‘ladi. Arabiston yarimoroli va Sahroi Kabirdagi vaqtincha yoki ahyon-ahyonda suv oqadigan quruq soyliklarni ham arablar vodiy deb ataydilar.

Yalpi ichki mahsulot (YIM) – mamlakat iqtisodiy faoliyatining muayyan davr (oy, chorak, yil) davomidagi umumiy natijalarni tavsiflaydigan ko‘rsatkich. Mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar (chet el va qo‘shma korxonalar ham shu hisobga kiradi) jami ishlab chiqarish omillari bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarning bozor qiymatidagi ifodasi bo‘lib, uning hisobi milliy hisoblar tizimi asosida hisoblab chiqiladi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini makrodarajada tavsiflash va tahlil etishda foydalaniadi. Milliy statistikada asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich sifatida YIM yoki yalpi milliy mahsulot (YMM), hatto yalpi milli daromad (YMD) ham qabul qilinishi mumkin. Masalan, AQSH va Yaponiyada YIM emas, balki YMM asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi. BMTning milliy hisoblar tizimida YIM asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Miqdor jihatdan bu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovut unchalik katta emas: rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich bir foizdan oshmaydi. Chet ellarda ishlovchi fuqarolardan tushadigan daromadlar salmoqli bo‘lgan mamlakatlarda bu tafovut kattaroq bo‘lishi mumkin.

Yassitog‘lik – platformali quruqlikning yassi cho‘qqili va ko‘pincha jarliklar bilan chegaralangan keng qismi

Yevropa Ittifoqi (YI) – o‘zida xalqaro tashkilot va federativ davlat xususiyatlarini mujassamlashtirga davlatlararo uyushma. Dastlab Yevropa hamjamiyati nomi bilan atalgan. YI to‘g‘risidagi shartnoma 1992-yil Maastricht shahrida Yevropa hamjamiyatiga a‘zo bo‘lgan 12 davlat va hukumat boshliqlari imzo chekkan Yevropa mamlakatlarining siyosiy va valuta-iqtisodiy ittifoqini vujudga keltirish to‘g‘risidagi bu shartnoma 1993-yil 1-noyabrdan kuchga kirgan. YI ning maqsadlari: Yevropa

xalqlarining mustahkam ittifoqini vujudga keltirish, ichki chegaralari bo‘lmagan makon yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni kuchaytirish yo‘li bilan muvofiqlashtirilgan uzoq muddatbai iqtisodiy taraqqiyotga barham berish, iqtisodiy va valuta ittifoqini tashkil qilish va yagona valuta yaratish (bu maqsadga 2002-yil yanvarda asosan erishildi), birligida tashqi siyosat olib borish va xavfsizlik borasida siyosat yuritish.

Yuqori texnologik tarmoqlar – iqtisodiyotning fan va texnikaning eng yangi yutuqlaridan foylanuvchi tarmoqlari. Bu tarmoqlarning mahsulotlari doimiy ravishda takomillashtib boradi. Yuqori texnologik tarmoqlar mahsulotlarining narxi uni tayyorlashda qo‘llanilgan ashyoning narxidan ancha (ba’zan bir necha barobar) qimmat bo‘ladi. Yuqori texnologiya tarmoqlariga aloqa, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari, harbiy sanoat tarmoqlarining aksariyati, dori-darmon va kosmetika vositalari, ba’zi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish kiradi.

O‘rmon – o‘simliklarning asosiy tiplaridan biri. Asosan yarusi bir yoki bir necha turga mansub, tanalari tutash yoki zinch daraxtlardan tashkil topgan bo‘ladi, shuningdek, o‘simliklarning yana boshqa hayotiy shakllaridan o‘tlar, butachalar, yo‘sinlar, lishayniklar xarakterli. Ignabargli, bargli (sof yoki aralash), barg to‘kuvchi va doim yashil o‘rmon farqlanadi. Ko‘pchilik qushlar va hayvonlarning yashash muhiti, yog‘och, rezavor mevalar, qo‘ziqorinlar va texnika xomashyosi manbai. Yerning o‘rmon qoplami iqlimni tartibga solish, tuproq va suvni asrash ahamiyatiga ega bo‘lsih bilan birga biosferaning barqarorligi omillaridan biridir.

Cho‘l – doimiy quruq va issiq iqlimi o‘lkalardagi landshaft tipi; o‘simlik o‘sishi uchun noqulay, o‘simliklar cho‘lda tutash qoplam hosil qilmaydi. Cho‘llar Yerda qariyb 20 % quruqlik yuzasini qoplaydi va Shimoliy hamda Janubiy-G‘arbiy Afrika, Markaziy va Janubiy-G‘arbiy Osiyo, Avstraliya, Janubiy Amerikaning g‘arbiy sohilini egallaydi. Qanday jinslardan qoplanganiga qarab toshloq cho‘llar, qumli cho‘llar, gilli cho‘llar, sho‘hok cho‘llar va boshqalar farq qilinadi. Tipik o‘simliklari - chakanda, saksovul, sho‘ra, kaktus, kandir; efemer va efemeroидлар ko‘p. Kiyiklar, qulonlar, qo‘shoyoqlar, yumronqoziqlar, qumsichqonlar, kaltakesaksimonlar va har xil hasharotlar yashaydi.

Mamlakatlar ko‘rsatkichi

A

Afg'oniston 78
Albaniya 10
Angola 152
Antigua va Barbuda 212
AQSh 213
Argentina 244
Armaniston 79
Avstraliya 266
Avstriya 12

B

Bagama orollari 217
Bangladesh 80
Barbados
Bahrayn 81
Belarus 15
Belgiya 14
Beliz 219
Benin 153
Birlashgan Arab Amirliklari 82
Bolgariya 16
Boliviya 247
Botsvana 154
Bosniya va Gersegovina 17
Braziliya 248
Brunei 83
Buyuk Britaniya 18
Burkina-faso 155
Burundi 156
Butan 84

D

Daniya 21
Dominika 6
Dominikana Respublikasi 221

E

Efiopiya 157
Ekvador 251
Ekvatorial Gvineya 158
Eritreya 159
Eron 85
Estoniya 22

F

Falastin 87
Fiji 268
Filippin 88
Finlandiya 23
Fransiya 24

G

Gabon 160
Gambiya 161
Gaiti 222
Gana 162
Germaniya 26
Gayana 252
Gonduras 223
Grenada 224
Gretsiya 29
Gruziya 89
Gvatemala 225

Gvineya

Gvineya-Bisau 164

H

Hindiston 90

I

Indoneziya 92
Iordaniya 93
Irlandiya 31
Iraq 94
Islandiya 33
Ispaniya 34
Isroil 95
Italiya 37

J

JAR 165

Jazoir 167

Jibuti 168

K

Kabo-Verde 169
Kambodja 98
Kamerun 170
Kanada 226
Keniya 171
Kipr 99
Kiribati 269
Kolumbiya 255
Komor orollari 172
Kongo 175

Kongo Demokratik Respublikasi 173

Koreya Respublikasi 100

Kosta-Rika 229

Kot-d'Ivuar 176

Kuba 230

KXDR 102

L

Laos 103

Latviya 40

Lesoto 177

Liberiya 178

Litva 41

Livan 104

Liviya 179

Lixtenshteyn 42

Lyuksemburg 43

M

Madagaskar 180
Makedoniya 44
Malavi 181
Malayziya 105
Maldiv 107
Mali 182
Malta 45
MAR 183
Marokash 184
Marshall orollari 270
Mavrikii 185

Mavritaniya

Meksika 231

Mikroneziya Federativ

Shtatlari 271

Misr 187

Moldova 46

Monako 47

Mongoliya 109

Mozambik 189

Myanma 108

N

Namibiya 190

Nauru 272

Nepal 110

Niderlandiya 48

Niger 191

Nigeriya 192

Nikaragua 234

Norvegiya 50

O

Ozarbayjon 111

P

Palau 273

Panama 235

Papua-Yangi Gvineya 274

Paragvay 255

Peru 256

Pokiston 112

Polsha 51

Portugaliya 53

Q

Qatar 114

Qirg'iziston 115

Qozog'iston 116

Quvayt 117

R

Rossiya Federatsiyasi 70

Ruanda 193

Ruminiya 54

S

Salvador 236

Samoa 275

San-Marino 55

San-Tome va Prinsipi 194

Saudiya Arabiston 118

Senegal 195

Sent-Vinsent va Grenadina 239

Sent-Kits va Nevis 237

Sent-Luisiya 238

Serbiya 56

Serra-Leone 196

Seyshel orollari 197

Singapur 120

Slovakiya 57

Sloveniya 58

Somali 198

Solomon orollari 276

Sudan 199

Surinam

Suriya 121

Svazilend 200

T

Tanzaniya 201

Tailand 122

Tayvan 124

Togo 202

Tonga 277

Tojikiston 126

Trinidad va Tobago 240

Tunis 203

Turkiya 128

Turkmaniston 127

Tuvalu 278

U

Uganda 204

Ukraina 59

Ummon 130

Urugvay 259

V

Vanuatu 279

Vatikan 61

Venesuela 260

Vengriya 62

Vietnam 131

X

Xitoy 132

Xorvatiya 63

Y

Yaman 136

Yamayka 241

Yangi Zelandiya

Yaponiya 137

Z

Zimbabwe 206

Zambiya 205

O'

O'zbekiston 142

G'

G'arbiy Sahroi Kabir 207

Sh

Sharqiy Timor 140

Shri-Lanka 141

Shvetsiya 64

Shveysariya 66

Ch

Chad 208

Chernogoriya 68

Chechiya 69

Chili 261

18000 сурʼи
УДК 94(419)
КБК 92 D 88

O’RTA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN

DUNYO MAMLAKATLARI Ensiklopediya

Tuzuvchi A. GORKIN

Maqolalar mualliflari: L. AKSYONOVA, T. GALKINA,
G. GLADKEVICH, A. GORKIN, V. STRELETSKIY, S. TARXOV

Rassomlar: Ye. BOGUSLAVSKAYA, A. POZINENKO, A. SICHKAR
Fotosuratchi Yu. KLIMENKO

Muqova bezakchisi: D. VERZUN, S. CHERNOV
Asosiy maket V. FEDORCHENKO

Tarjimon A. RUFİYEV

Muharrir R. ZAPAROV
Badiiy va texnik muharrir Ye. KRASNIKOVA
Musahhih U. KAMILOV
Sahifalovchi Ye. KANEVETS, Ye. KRASNIKOVA (*kartalar*)

MChJ «DAVR NASHRIYOTI»
davrbooks@gmail.com
www.davrbooks.uz

Litsenziya raqami № AI 192
Bosishga ruxsat etildi 30.07.12. Qog’oz bichimi 60x90/8.
Arial, Times New Roman garniturasi. Ofset bosma usuli. Shartli b. t. 26,5.
Nashr t. 26,0. 5000 nusxada chop etildi.
Bahosi shartnoma asosida. Buyurtma № 12-224

«O’ZBEKISTON» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.

100129, Toshkent, A. Navoiy ko‘chasi, 30

GORKIN A.

Dunyo mamlakatlari. Ensiklopediya. – T.: MChJ «DAVR NASHRIYOTI»,
2013. – 296 b.: bez.

УДК 94(419)
КБК 92 D 88

ISBN 978-9943-401-64-8

© «DAVR NASHRIYOTI», 2013